

ISSN 2181-7138

МУАЛЛИМ ХЭМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИУ



Илимий-методикалық журнал

2023

1/2-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүўалық берилген.*

Нөкис

Шөлкемлестіріушілер:

*Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириу Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы*

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ

Нағмет АЙЫМБЕТОВ

Байрамбай ОТЕМУРАТОВ

Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ

Алишер АЛЛАМУРАТОВ

Дилшодхўжа АЙТБАЕВ

Тўлқин АЛЛАЁРОВ

Умида БАҲАДИРОВА

Фархад БАБАШЕВ

Гулзода БОЙМУРОДОВА

Маманазар ДЖУМАЕВ

Асқар ДЖУМАШЕВ

Гүлнара ЖУМАШЕВА

Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ

Умида ИБРАГИМОВА

Меруерт ПАЗЫЛОВА

Асқарбай НИЯЗОВ

Сабит НУРЖАНОВ

Уролбой МИРСАНОВ

Нуржан МАТЧАНОВ

Шукурулло МАРДОНОВ

Бахтиёр РАХИМОВ

Арзы ПАЗЫЛОВ

Барлықбай ПРЕНОВ

Қаххор ТУРСУНОВ

Нурзода ТОШЕВА

Тажибай УТЕБАЕВ

Амангелди КАМАЛОВ

Ризамат ШОДИЕВ

Зафар ЧОРШАНБИЕВ

Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ

Гулрухсор ЭРГАШЕВА

Гавхар ЭЩАНОВА

МАЗМУНЫ

ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

Xasanova O. Q. Xatolarni kelib chiqishiga sabab bo'luvchi omillar va ularning til o'rganish jarayoniga ta'siri	6
Холбоева Д. Ҳозирги замон тилшунослигида терминларни таърифлашда мавжуд ёндашувларнинг назарий асослари	10
Xoldarova I. V. Erg'oziyeva X. A. Savod o'rgatish jarayonida ta'limiy o'yinlar orqali tovush-harflarni o'rgatish metodikasi	14
Исматова М. Инглиз тили мутахассисларини тайёрлашда коучинг моделлари	20
Юсупова Ш. Ж., Казиева Т. Герменевтика ҳақиқий мазмунни тушуниш санъатидир	26
Хидаева Д. Актуальность использования интерактивных методов на занятиях русского языка	31

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Uteniyazov K. K., Kurbanbaeva G. K., Daukeeva G. U. Orta mekteplerde organikalıq ximiya kursın oqıtıw processın shólkemlestiriw metodikası	37
A'zamov J. Oliy ta'lim boshqaruviga akademik va moliyaviy avtonomiyani joriy etishning mavjud imkoniyatlari va tahlili	43
Radjabov Z. N. Utamuradova N. A. Sidikova M. A. Ta'lim jarayonida kreativ fikrlashning ahamiyati	50
Raxmanova M. U. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ish jarayonida o'quv va kognitiv kompetensiyasini shakllantirish yo'nalishlari	54
Qarshiyeva Z. Bo'lajak o'qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirishda pedagogik shart-sharoitlar	63
Норкузиева М. Экономические факторы формирования профессиональной устойчивости будущих учителей к педагогической деятельности	69
Mamatov D. Raqamli ta'lim muhitida talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish tamoyillari	78
Adilova M. Ijtimoiy tarmoqdagi tuzoqlarning yoshlar ongi va ma'naviyatiga psixologik ta'siri	88
Fayziyeva U. Y. Inklyuziv ta'limni tashkil etishda innovatsion klassterli yondoshuv	94
Бердалиева Г. Узлуксиз касбий ривожлантириш жараёнида андрагогик ёндашувнинг назарий салоҳияти	100
Sharofutdinov I. Bo'lajak pedagoglarning akmeologik motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	108
Xujamov I. Odinaeva N. Demografik omillarning mamlakat hududlaridagi ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabga ta'siri	116
Axmedova M. E. Talabalarining kasbiy-metodik kompetentligini innovatsion rivojlantirishda dual yondashuvlar	123
Қодиров Ф. Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий компетенцияларини эвристик топшириқлар ёрдамида ривожлантириш касбий-педагогик зарурият сифатида	130
Abdullayeva S. Oliy harbiy ta'lim muassasasi kursantlarining kreativ sifatlarini rivojlantirish	138
Qosimova N., Adhamov Sh. Komplasnı shakllantirish psixologiyasi va xulq-atvor psixoterapiyasi	143
Мамадалиев М. У. Ёшлар маънавиятини шакллантиришда фалсафий билим ва фалсафий тафаккурга бўлган муносабат	151
Allanazarova Sh. A. Bahs-munozara vaziyatlarida hamkorlikda faoliyat korsatishning ahamiyati	156
Комилова Ф. М. Инсон ҳаётида узлуксиз таълимнинг аҳамияти ва тенденциялари	160
Обиджанов У. Нишонов М. О профессиональной направленности лабораторного практикума по методике преподавания биологии в условиях университетов	165
Umnov D. G. The view of scientists from the east and west on the formation of consumer culture among the younger generation	174



МИЛЛИЙ ИДЕЯ ХАМ РУЎХҲЎЙЛИҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Siddiqov I. B. Bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarixiy-analitik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	179
Қодирова Н. М. Бўлажак тарих фани ўқитувчиларида касбий тайёргарликни тарихий терминлар асосида такомиллаштириш	186
Ортиқова З. Оилада болаларни миллий кадриятлар ва анъаналар асосида ўзаро муносабатларини шакллантиришнинг шарт-шароитлари	196

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Хайитова Ҳ. Biofizika dars mashg'ulotlarida termodinamika qonunlarini tirik organizmga tadbir etib, fizik asoslarining metodikasini o'rganish mexanizmi	202
Қодиров С. П. Оптикадан лаборатория ишларини ташкил этиш ва бажарилишининг хозирги ҳолати таҳлили	207
Собирова М. Ўқувчиларни мактаблараро олимпиадаларга тайёрлашда креативликни оширадиган масалаларнинг роли (геометрия ва физика мисолида)	215
Эргашев Ж. Ўқувчиларининг умумий компетенцияларини шакллантиришнинг ахборот - лойиҳа технологиялари модели	220
Yusupov E. X. Физика ўқитишда SMART-технологияларни қўллашга оид тарихий тажрибалар	227
Тўймуратов З. Математика, физика ва умумкасбий фанларини ўқитиш жараёнида касб-хунар мактаблари ўқувчиларини касбга тайёрлаш аспекти	233
Наркабилова Г. П. К вопросу о цифровизации образования в Республике Узбекистан	238
Собирова М. Чориева Ю. Мактабда геометрияни ўқитишда geogebra технологияси орқали ўқувчи креативлигини ривожлантириш методикаси	243

БАСЛАЎШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Ergasheva G. A Boshlang'ich sinflar uchun orfografiyadan dasturiy-pedagogik vositalarni yaratishning nazariy asoslari	250
Abdumajitova S. A. Steam-texnologiyasi maktabgacha ta'lim tashkilotining innovatsion faoliyati sifatida	256
Shodiyev N. Mirzoyeva N. Hamidova L. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasb tanlash ishiga tayyorlash	266
Kasimov F.M. Usmonova Z. I. Boshlang'ich sinf matematika ta'limida interfaol usullar orqali o'quvchilarda hisoblash malakasini shakllantirish usul va vositalari	276
Olimova N. Madrahimova M. Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinflar o'quvchilarining talaffuzini rivojlantirish	283
Nigmatova M. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va steam maqsad va natijalar	288
Suvankulov U. Maktabgacha ta'limda imkoniyati cheklangan bolalarni sog'lom bolalar bilan birga ta'lim olishning ahamiyati	296
Tolipova T. Boshlang'ich sinflarda bolalarning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish	301
Tursunov Q. Umarov N. Turdimuradov O. Abdusalomova M. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga tenglamalarni o'rganishga innovatsion yondashuv haqida	307
Olimova N. Alijonova M. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarning nutqini o'stirishda xalq og'zaki ijodi namunlarining o'rni va ahamiyati	314
Buvajonova M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksikografik kompetentlikni shakllantirishga zamonaviy yondashuv tamoyillari va texnologiyalari	319
Rahmatova N. Tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishdagi pedagogik tayyorligini shakllantirish	325

Mamatqulova Sh. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning metodik asoslari	330
Tadjibaeva G. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachisining bolalar fiziologiyasi va gigienasiga doir bilimlarini rivojlantirishning pedagogik mazmuni	337
Daminova Sh. Badiiy asarlarni sahnalashtirish orqali tarbiyalanuvchilarda ijtimoiy xulq madaniyatini shakllantirish	341
Oxunov I. A. Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy ongni rivojlantirishning ba'zi jihatlari	346
Умнова М. К. Развитие познавательного интереса младших школьников в учебной деятельности	355

ТАСВИРИЙ САЪНАТ

Axmedov M. Yog'och o'ymakorligiga oid yo'l ichidagi oddiy islami naqsh namunalarini chizish	360
Махкамова С. Подготовка будущих учителей к художественному анализу работ народного художника Гафура Абдурахманова в развитие современной живописи узбекистана в школе	366

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ХЭМ СПОРТ

Zoitova G. M. Chalqancha krol suzishda eshish harakatlarining tuzilishini korrektsiyalash uchun kontrastli mashqlardan foydalanish	376
Berdiyev Sh. Bolalar tserebral falaji asoratlariga ega o'smir tennischilar va sog'lom tennischilarga psixik-jismoniy xolatining qiyosiy tahlili	381
Касимова В. Использование комбинации гимнастики в водных видов спорта	387
Алимова Д. А. Ўзбекистон боксчи (аёллар) ининг республика ва халқаро мусобақалардаги фаолияти таҳлили	393
Boymurodov R. Voleybolchilarni psixologik tayyorgarligini oshirish yo'llari	397
Norbоеv A. Sport tadbirlarini o'tkazish asosida o'quvchilarda raqibiga nisbatan hurmat hissini shakllantirish texnologiyasi	403
Kulboyev N. S. Oliy ta'lim tizimida talabalar jismoniy madaniyatini shakllantirish	407
Эшматов Ғ. Э., Ёдгоров М. А. Миллий ўйинлар ёрдамида мактаб ўқувчиларининг жисмоний сифатларини ривожлантириш	414



XATOLARNI KELIB CHIQISHIGA SABAB BO'LVUCHI OMILLAR VA ULARNING TIL O'RGANISH JARAYONIGA TA'SIRI

Xasanova O. Q.

*Farg'ona davlat universiteti doktoranti, pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori, (PhD)*

Tayanch soʻzlar: xato, nemis tili, kompetensiya, til oʻrganuvchi, interferensiya, umumlashtirish, oʻrganish strategiyalari, nutq jarayoni.

Key words: error, german language, competence, language learner, interference, generalization, learning strategies, speech process.

Ключевые слова: ошибка, немецкий язык, компетенция, изучающий язык, интерференция, обобщение, стратегии обучения, речевой процесс.

Kirish. Boʻlajak chet til oʻqituvchilarini xatolarni bartaraf etish kompetensiyasini takomillashtirish jarayonida ularga xatolarning kelib chiqish sabablari haqida tushuncha berish katta ahamiyat kasb etadi. Bu orqali til oʻrganuvchilarda ayni shu xatoga qayta yoʻl qoʻymaslik, keyinchalik xatolarni kamaytirib borish va xatolarni qayta ishlash jarayonini boshlashga imkon beradi. Bundan tashqari xatoning kelib chiqish sababini bilish, xato ustida osonroq ishlashiga, til oʻrganuvchining oʻz shaxsiy oʻrganish strategiyalarini yaxshilashiga yoʻl ochadi.

Asosiy qism. Chet til oʻrganish jarayonida xatolar kelib chiqishining eng asosiy sabablaridan biri interferensiya hisoblanadi. Interferensiya deganda ona tilining oʻrganilayotgan chet tiliga salbiy taʼsiri tushuniladi. Odatda til oʻrganuvchi oʻz ona tilisidagi qoidaga asoslangan holda chet tilida gap tuzishga harakat qiladi. H.Raabe ham interferensiya xatoga yoʻl qoʻyishning eng koʻp uchraydigan sababi deb qayd etadi. K.Kleppinning fikriga koʻra, til oʻrganuvchining ona tilisi va oʻrganayotgan chet tilisini tahlil qilish, ularni oʻzaro taqqoslash yordamida til oʻrganuvchilar qanday xatolarga yoʻl qoʻyishi mumkinligini aniqlash mumkin.

Xususan, oʻzbek chet til oʻqitish metodikasining zabardast olimi J.Jalolov ham bu haqida shunday fikr bildiradi: «Til tajribasini hisobga olish deganda, oʻquvchi shu kungacha oʻzbek, rus, chet til (ingliz, ispan, nemis yoki fransuz tili)dan olgan bilim, koʻnikma va malakasining hozir oʻrganayotgan chet til

materialini o'zlashtirishga salbiy (interferensiya) yoki ijobiy (transpozitsiya/fatsilitatsiya) ta'siri tushuniladi. Masalan, chet tildagi «artikl» atalmish grammatik hodisani o'rgatish chog'ida, uning o'zbek tilida mavjud emasligi, mazkur tushuncha ongda yangilik sifatida shakllantiriladi. Oqibatda o'quvchi til tajribasi endi chet tildagi «yangilik» bilan boyiydi». Ushbu «yangilik» esa til o'rganuvchilar oldida muammo sifatida ko'ndalang bo'ladi.

Turli tillar o'rtasida interferensiyadan tashqari transfer hodisasi ham uchrab turadi. Transfer interferensiyaga qarshi o'laroq ijobiy ko'chish hisoblanadi. Ya'ni til o'rganuvchining ona tilisi chet tilidagi muammoni yechishga yordam beradi. Agar ikki tillar so'z boyligi, talaffuzi va tuzilishidagi o'xshashliklar ko'p bo'lsa, unda samaradorlik yanada yuqori bo'ladi. Transfer til o'rganuvchilarning xatoga yo'l qo'yishiga sababchi bo'lmaydi.

Ba'zi olimlarning fikriga qaraganda, tillar o'rtasidagi katta farqlar har doim til o'rganish jarayonida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. O'xshash jihatlar esa til o'rgatish va o'rganish jarayonida yordam beradigan hodisa sifatida baholanadi. Lekin ba'zi olimlar tillar o'rtasidagi farqli jihatlar deyarli muammo va qiyinchiliklarga olib kelmasligini ta'kidlashadi. Til o'rganuvchilar tomonidan o'z ona tilisi hamda o'rganilayotgan chet tili hamisha alohida, turlicha strukturalarni o'z ichiga olgan tizim sifatida tushuniladi. Bu ma'noda bir-biridan farq qiluvchi strukturalar har doim ham qiyinchiliklarga sabab bo'lmasligini tushunishimiz mumkin. Gohida tillardagi o'zaro o'xshashlik ham qiyinchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Bizning fikrimizcha, o'zbek va nemis tillari o'rtasidagi interferensiya transfer (transpozitsiya)ga qaraganda ko'proq qiyinchiliklarga sabab bo'ladi.

Umumiylikning haddan tashqari ko'pligi.

Avvallari faqat interferensiyaga xatoga yo'l qo'yishning birdan-bir manbai sifatida qarab kelingan bo'lsa, keyinchalik o'rganilayotgan tilning o'zi ham xatoga yo'l qo'yishga sababchi bo'lishi haqidagi fikrlar paydo bo'la boshladi. Birinchi til va chet tilini o'rganish jarayoni o'zaro taqqoslansa, bolalarning o'z ona tillarini o'rganish jarayonida ham haddan tashqari umumiyashtirishlari ko'zga tashlanadi. Chunki ular til va uning strukturasini o'rganib ulgurmagan bo'ladilar.

H.Raabe esa haddan tashqari umumlashtirishni interferensiya bilan bog'laydi. Uning fikriga qaraganda, interferensiya va haddam tashqari umumlashtirish orasida aniq chegara o'rnatish qiyin. Interferensiya tillar o'rtasidagi jarayon bo'lsa, haddan tashqari umumlashtirish bir til ichida kechadi. Ya'ni muammolar chet tilining o'zidan kelib chiqadi.

Haddan tashqari umumlashtirish deganda qoidani unga tegishli bo'lmagan hollarda ham ishlatish tushuniladi, bu holat o'rganilayotgan chet tilning o'zi sababli sodir bo'ladi. Masalan, nemis tilidagi kuchli va kuchsiz fe'llarda -en



qo`shimchasi kuchli fe'llardan kuchsiz fe'llarga yoki aksincha, -(e)t qo`shimchasi kuchsiz fe'llardan kuchli fe'llarga o'tkazilishi mumkin. Ya'ni til o'rganuvchi chet tildagi o'ziga tanish qoidadan notanish mavzu uchun ham foydalanadi va natijada xatoga yo'l qo'yadi. O'zi uchun aynan bir qoidani muntazam qoidaga aylantirib olish holatlari kuzatiladi.

Fikrimizcha, haddan tashqari umumlashtirish jarayoni H.Raabe tomonidan to'g'ri tasvirlangan. Uning fikriga ko'ra, chet tilda o'rganilayotgan qoidalarni tartibga solish jarayoni - ijodiy hamda o'ziga xos ta'lim strategiyasi sifatida baholanishi lozim.

Chet tilini o'rganish jarayonida xatolarning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi omillardan yana biri bu vaqtinchalik o'rganish tili hisoblanadi. F.Koenigsning fikriga ko'ra, "...vaqtinchalik yoki oraliq til ona tilidan chet tiliga o'tish yo'li jarayonidagi o'ziga xos oraliq bosqich hisoblanadi. O'quvchining tili - bu ona tili ham, maqsad tili ham bo'lmagan, lekin ikkala tilning tuzilishini o'z ichiga olgan jonli til tizimidir". E.Apeltoyr esa vaqtinchalik tilni «..maqsadli tarzda rivojlanadigan mustaqil dinamik tizimlar, individual rivojlanish bosqichlarida ko'proq yoki kamroq o'zgarishlarni ko'rsatadi va osonlik bilan buziladi» deb ta'riflaydi.

Vaqtinchalik o'rganish tilining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

1. tizimlilik;
2. o'zgaruvchanlik;
3. beqarorlik;
4. unutish.

O'zgaruvchanlik, beqarorlik va unutish xususiyatlari nima uchun vaqtinchalik o'rganish tili ham xatoga yo'l qo'yish sabablaridan biri ekanligini asoslashga xizmat qiladi.

Quyida vaqtinchalik o'rganish tilning xususiyatlariga alohida to'xtalib o'tishni ma'qul ko'rdik. Tizimlilik vaqtinchalik o'rganish tilining tizimli rivojlanishini bildiradi. Vaqtinchalik o'rganish tilining strukturalari nafaqat ona tilidan, balki o'rganilayotgan chet tilidan ham olingan bo'ladi va ular tilda ilgarilashga ham ortga qadam tashlashga ham sababchi bo'lishi mumkin.

Beqarorlik esa til o'rganuvchilarning holatiga bog'liq bo'ladi. Ba'zan til o'rganuvchilar chet tilini yaxshi egallashlari, ba'zan esa charchoq tufayli o'rganilayotgan chet tilidagi qoidalar va strukturalarni yodidan chiqarishlari ham mumkin. Vaqtinchalik o'rganish tili (bu til o'rganuvchining ikkinchi yoki uchinchi tili ham bo'lishi mumkin) qo'llanilib turilmasa, juda tez unutilib yuborilishi mumkin.

Vaqtinchalik o'rganish tili xatoga yo'l qo'yish sabablaridan biriga aylanish uchun interferensiya va haddat tashqari umumlashtirish bilan kombinatsiya qilishi



mumkin. Chunki uning o'zi birinchi til va o'rganilayotgan til kombinatsiyasi hisoblanadi. Vaqtinchalik o'rganishning eng asosiy jihati, u vaqt o'tishi bilan o'rganilayotgan chet tilga o'xshab boradi, ona tilga xos xususiyatlar esa asta-sekin kamayib, yo'qolib ketadi.

Xulosa. Xatolar til o'rganuvchi shunchaki bilishni xoxlamasligi natijasida ham kelib chiqishi mumkin. Bu tilga bo'lgan qiziqishning yetishmasligi bilan izohlanadi. Affektiv, ijtimoiy va shaxsiy omillar ham til o'rganish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ular odatda avvaldan orttirilgan chet til o'rganish tajribasi bilan bog'liq bo'ladi. Agar til o'rganuvchi avval o'rgangan tilida yomon tajribalarga ega bo'lgan bo'lsa, yangi o'rganilayotgan tilga ham shunday munosabatda bo'lishi ehtimoli katta. Oldingi tildan orttirilga ijobiy taassurotlar yoki natijalar esa albatta yangi o'rganilayotgan tilda ham yutuqqa erishishga turtki beradi.

Adabiyotlar:

1. Kleppin K. Fehler und Fehlerkorrektur. – Langenscheidt, 1998. – T. 19.
2. Bohnensteffen M. Fehler-Korrektur: lehrer- und lernerbezogene Untersuchungen zur Fehlerdidaktik im Englischunterricht der Sekundarstufe II. – Peter Lang, 2010. – T. 1001.
3. Schoormann M., Schlak T. Sollte korrekatives Feedback „maßgeschneidert“ werden? Zur Berücksichtigung kontextueller und individueller Faktoren bei der mündlichen Fehlerkorrektur im Zweit-/ Fremdsprachenunterricht // Zeitschrift für interkulturellen Fremdsprachenunterricht. – 2012. – T. 17. – №. 2.
4. Schoormann M., Schlak T. Hilfreich oder ohne praktischen Nutzen? – Die Forschung zur mündlichen Fehlerkorrektur im Zweit- und Fremdsprachenunterricht // Zeitschrift für Fremdsprachenforschung. – 2011. – T. 22. – №. 1. – C. 43-84.
5. Echte K. Fehlerkorrektur // Fehlertoleranzverfahren. – Springer, Berlin, Heidelberg, 1990. – C. 259-269.
6. Blex K. Zur Wirkung mündlicher Fehlerkorrekturen im Fremdsprachenunterricht auf den Fremdspracherwerb. – 2001.
7. Gottlieb É. S. Probleme der Fehler und Fehlerkorrektur im Fremdsprachenunterricht // Theorie und Praxis von Pädagogik. – 2010. – C. 3.
8. Dlaska A., Krekeler C. Fehlerkorrektur im studienbegleitenden und-vorbereitenden Deutschunterricht // Zeitschrift für Interkulturellen Fremdsprachenunterricht. – 2015. – T. 20. – №. 1.
9. Nassyrowa A. KLEPPIN, KARIN (1998), Fehler und Fehlerkorrektur // Zeitschrift für Interkulturellen Fremdsprachenunterricht. – 1999. – T. 4. – №. 2.
10. Königs F. „Fehlerkorrektur“ (in) Handbuch Fremdsprachenunterricht. (Hrsg.) K.-R. Bausch, H. Christ, H.-J. Krumm, Tübingen und Basel: A. – 2003.
11. Lenhard S. Fehlerkorrekturen und Rückmeldungen im Englischunterricht. – Waxmann Verlag, 2016.

РЕЗЮМЕ

Maqolada xatolarning kelib chiqish sabablaridan bo'lgan interferensiya, umumlashtirish, o'rganish strategiyalari, nutq jarayonidagi bezovta qilishlar, boshqa xatolarning ta'siri hamda chet til darslarining ta'siri va boshqa shu kabi sabablar haqida fikr yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются причины ошибок: интерференция, обобщение, стратегии обучения, нарушения речевого процесса, влияние других ошибок, влияние занятий по иностранному языку и другие подобные причины.

SUMMARY

The article discusses the causes of errors: interference, generalization, learning strategies, disturbances in the speech process, the influence of other errors, and the influence of foreign language classes and other similar causes.



ҲОЗИРГИ ЗАМОН ТИЛШУНОСЛИГИДА ТЕРМИНЛАРНИ ТАЪРИФЛАШДА МАВЖУД ЁНДАШУВЛАРНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Холбоева Д.

*Тошкент тиббиёт академияси Ўзбек ва хорижий тиллар кафедраси
инглиз тили ўқитувчиси*

Таянч сўзлар: ёндашув, дефинитив, функция, дефиниция, тушунча.

Ключевые слова: подход, дефинитив, функция, дефиниция, концепция.

Key words: approach, definitive, function, definition, concept.

Бугунги кундан терминларни таърифлашга мавжуд ёндашувларни ўрганиб, биз уларни куйидагича таснифлашимиз мумкин.

1) Меъёрий ёндашув

Юқорида кўрсатилганидек, Д.С.Лотте ушбу ёндашувнинг асосчиси бўлиб, терминни «махсус маъносига эга бўлган, касбий тушунчани ифодалайдиган ва шаклантирадиган, ҳамда илмий ва касбий-техникавий объекتلарни билиш ва ўрганиш жараёнида қўлланадиган сўз, ёки эргаштирувчи сўз бирикмаси» сифатида таърифлаган. У терминга қўйиладиган бир қатор талабларни ишлаб чиққан, яъни: бир маънолилиқ, аниқлик, тизимлилиқ, мотивацияланганлик, қисқалиқ.

Д. С. Лотте фикрларига таяниб, меъёрий ёндашувнинг тарафдорлари (С.И. Коршунов, Г.Г. Самбурова, В.И. Сифоров) терминга қўйиладиган талаблар рўйхатини кенгайтирганлар, ва уларни «Илмий-техникавий терминологияни ишлаб чиқиш ва тартибга солиш бўйича қисқа услубий қўлланма» да қайд этганлар.

Шундай қилиб, ушбу ёндашувнинг тарафдорлари терминни тилнинг динамик элементи эмас, статик элементи сифатида қарайди, бунинг оқибатида лингвистика адабиётида у «идеал термин» номига эга бўлган.

Лекин кейинчалик ушбу назария кескин танқидга учраган. Чунончи, баъзи асарларда термин доимо бир маъноли бўлавермаслигини, бир нечта тушунчаларни ифодалаши мумкинлигини, ва бир вақтнинг ўзида турли термин тизимларига кириши мумкинлигини, ва ҳоказоларни исботлашга

уринишлар бўлган. Терминга қўйиладиган талабларга кейинги бобда ба- тафсил тўхталамиз.

2) *Функционал (дескриптив) ёндашув*

Ушбу ёндашувнинг асосчиси бошқа машхур олим – Г.О. Винокур бўлган эди, у «терминлар - алоҳида сўзлар эмас, фақат алоҳида функциядаги сўз- лар» деб таъкидлаган. Бунда у сўз термин сифатида юзага чиқадиган алоҳи- да функция – номлаш функцияси эканлигини тушунтирган. Г.О. Винокур ўз ёндашувини меъёрий ёндашувга қарама-қарши қўйган: термин Д.С. Лотте фикридаги каби, қайд этилиши соҳасида эмас, унинг функцияси ва қўлла- ниши соҳасида, яъни тизимнинг доимий ўзгаришларга мойил бўлган ди- намик элементи сифатида тадқиқ этилади. Бунинг оқибатида, Лотте томо- нидан ишлаб чиқилган терминга нисбатан қўйиладиган барча талаблар ўз долзарблигини йўқотади: тил тизимининг элементи бўлган ҳолда, термин ўзгаради, модификацияланади, ўзининг бир маънолигини йўқотиши, бир қатор синонимлари, антонимларига эга бўлиши, ёки умумий қўлланадиган лексика туркумига ўтиши мумкин.

3) *Тизимли ёндашув*

Ушбу ёндашувнинг тарафдорлари терминнинг тартибга солинган тизим- нинг таркибида мавжуд бўлишига урғу беради: «Терминни билганда, ти- зимдаги ўрнини биласан. Тизимдаги ўрнини билганда, терминни биласан». Замонавий тадқиқотчиларнинг кўпчилиги тизимликни терминни ўрганиш асоси деб ҳисоблайди. Масалан, баъзи олимлар термин деганда «белгининг, ва у билан мувофиқлаштирилган (боғланган) ушбу фан ва техника соҳа- сининг тушунчалари тизимидаги тегишли тушунчанинг яхлит бирлиги бўлган сўз (сўз бирикмаси)» ни тушунади, бошқалар уни «фан ва техника тизимидаги махсус тушунчаларнинг аниқ ифодаланиши учун яратилади- ган махсус тил бўлимининг сўзи ёки сўз бирикмаси» каби тушунади. Бунда уларнинг таъкидлашича «алоҳида олинган термин фақат ўзи мавжуд бўлган ҳолда – ҳақиқатда учрамайдиган нарсадир. У фақат терминларнинг тизими- да мавжуд бўлади, ва у билан маълум муносабатлар билан боғлиқ бўлади». В.А. Татаринов ҳам худди шундай нуқтаи назарнинг тарафдори бўлиб, тер- минлар ёпиқ тизимни ҳосил қилишини кўрсатади.

Шундай қилиб, терминнинг тизимга киритиб ўзлашиши унинг таъ- рифланиши учун зарурий шарт ҳисобланади. Юқорида белгилаб ўтилган ёндашувлар доирасида, терминни талқин этишда маълум фарқларни ажра- тиб кўрсатиш мумкин. Масалан, баъзи муаллифлар терминни ундаги де- финиция мавжудлигига кўра таърифлайди: «сўз номинатив ёки дефинитив функцияни бажаради, яъни у ёки аниқ белгилаш воситаси бўлади, ва шун- да у – оддийгина белги ҳисобланади, ёки у мантиқий белгилаш воситаси



бўлади, шунда у – илмий термин ҳисобланади». Академик термин, оддий сўз каби тушунчани номлаб бермайди, балки тушунча унга мувофиқ деб белгиланади, деган фикрни таъкидлаган. Бундан ташқари, луғатларда термин талқин этилмайди, балки таърифланади, бунда терминнинг маъноси - тушунчанинг таърифи, унга мувофиқ деб белгиланадиган дефиницияси бўлади. Бошқача айтганда, агар дефиницияси бўлмаса, терминнинг ўзи ҳам мавжуд бўлмайди. Ушбу йўналиш кейинчалик Л.В. Морозованинг асарларида янада ривожлантирилган, унинг фикрича, «термин – дефиницияга эга бўлган сўз ёки сўз бирикмаси (терминнинг белгиси албатта илмий дефиницияси мавжудлигидир)». У дефиниция - терминнинг мутлақ семантик кўрсаткичидир, деб таъкидлайди, ва маълум терминнинг тегишли термин тизимида эгаллаган ўрнини аниқлаш учун, дефиницион таҳлил усулидан фойдаланишни таклиф этади. Лекин кўп тадқиқотчилар термин албатта дефинициясига эга бўлиши лозимлигидан шубҳаланиб фикр билдирган. Масалан, В.П. Даниленко ва Т.Л. Канделаки тадқиқотларида термин «тегишли тушунчалар тизимида ўзининг маъноси белгиланиши учун, дефиницияни юзага келтиришни талаб қиладиган сўз ёки лексикалаштирилган сўз бирикмаси» каби таърифланади. В.М. Лейчик ҳам ушбу фикрнинг тарафдоридир, унга кўра:

1) айнан бир терминнинг ўзи ўз маъносининг биттадан ортиқ таърифига эга бўлиши мумкин;

2) терминнинг маъносини таърифлашнинг тилдаги ифодаланиши ҳам ягона бўлимаслиги мумкин;

3) нафақат термин, балки ҳар қандай сўз может иметь дефиницияга эга бўлиши мумкин, дефиниция таркибига кириши мумкин, демак, ушбу белги фақат термин учун специфик, ўзига хос белги бўлмайди;

4) махсус соҳаларда тил воситалари билан ифодаланмаган дефиницияларга эга бўлмаган кўп тушунчалар мавжуд.

XXI асрда тадқиқотчилар яна терминнинг дефинитив функциясига қайтди: 2003 йилда С.Д.Шелов узининг монографиясида терминнинг дефинициялари (таърифлари) тўлиқ тавсифини беради, уларнинг таснифлашини келтиради, тур-туркумли, санаб ўтиладиган, контекстуал, операционал, номорфли ва полиморфли таърифларни ажратиб кўрсатади.

Терминнинг кўп сонли таърифларининг таҳлили шуни кўрсатадики, уларнинг кўп қисми терминнинг тушунчани ифодалаш қобилиятига асосланади. Улардан баъзиларини келтирамиз.

Термин - махсус тушунчаларни аниқ ифодалаш ва махсус предметларни белгилаш учун яратиладиган (қабул қилинадиган, ўзлашадиган ва ҳоказо) махсус тилнинг сўзи ёки сўз бирикмаси.

Термин - касбий маъносига эга бўлган, касбий тушунчани ифодайдиган ва шакллантирадиган, ва объектларнинг маълум доирасини ва уларнинг



ўртасидаги муносабатларни – маълум касбнинг нуқтаи назари жиҳатидан, билиш ва ўзлаштириш жараёнида (ва унинг учун) қўлланадиган сўз ёки сўз бирикмаси.

Термин - маълум ташкил этилган билим соҳасининг (фаннинг, техниканинг) тушунчаси билан боғлиқ ва мувофиқ бўлган, бошқа сўзлар ва сўз мажмуалари билан тизимли муносабатларга киришадиган, ва улар билан юқори информативлиги, бир маънолилиги, аниқлиги ва экспрессив жиҳатдан нейтраллиги билан ажралиб турган ёпиқ тизимни ҳосил қиладиган сўз ёки сўз мажмуаси.

Термин - маълум махсус билим ёки фаолият соҳасининг умумий – муайян ёки мавҳум – назария тушунчасини белгилайдиган маълум тилнинг махсус мақсадлар учун лексик бирлиги.

Келтирилган таърифлардан, терминнинг тушунчани белгилашга қобилияти унинг энг муҳим белгиси эканлиги келиб чиқади.

Термин деганда кенг маънода биз инсон фаолиятининг касбий соҳасининг тушунчасини ифодалайдиган, бундай тушунчаларнинг тизимга кирадиган ва дефинициясини талаб қиладиган махсус тил сўзини ёки сўз бирикмасини тушунамиз.

Терминларни ўрганиш учун унинг таърифининг ўзи етарли бўлмайди – тадқиқотнинг корпусини ташкил этишга қўмаклашадиган терминологиклиги хусусиятларини ажратиш кўрсатиш лозим.

Адабиётлар:

1. Alieva M.T. Razvitiya industrii turizma // Mezhdunarodnye Plekhanovskie chteniya, April 19 REA. im.G.V. Plekhanova. - M., 2006.
2. Ушаков Д.С. Технология выездного туризма. Учебное пособие. – М.: Финансы истатистика, 2009. – С. 240.
3. Aliyeva M.T., Mirzayev M. va boshqalar. Turizm huquqi. O'quv qo'llanma. – T.: Talqin, 2003. – B. 245.
4. Алиева М.Т. Развитие индустрии туризма // Международные Плехановские чтения, 19 апреля РЭА. им. Г.В. Плеханова. – М., 2006.
5. Алиева М.Т. Тенденции развития туризма в Узбекистане // Пятнадцатые международные Плехановские чтения, 27 апреля РЭА. им. Г.В. Плеханова. – М., 2002.
6. Grinev- Grinevich S.V. Terminovedenie. Uchebnoe posobie. - M.: Akademiya, 2008. - P.102-104.
7. www.uzbekturizm.uz.
8. [hppt://en.wikipedia.org](http://en.wikipedia.org).

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада терминларни таърифлашда қўлланиладиган ёндашувларни яратган олимлар фикрлари қуриб чиқилган ва назарий таснифи ёритиб берилгандир.

РЕЗЮМЕ

В данной статье обсуждаются мнения ученых, создавших подходы, используемые в определении терминов, и объясняется теоретическая классификация.

SUMMARY

This article discusses the opinions of scientists who created the approaches used in the definition of terms, and explains the theoretical classification.



SAVOD O'RGATISH JARAYONIDA TA'LIMIY O'YINLAR ORQALI TOVUSH-HARFLARNI O'RGATISH METODIKASI

Xoldarova I. V.

Filologiya fanlari Phd, FarDU

Erg'oziyeva X. A.

2-kurs magistranti FarDU

Tayanch so'zlar: nutq tovushlari, fonetika, ta'limiy o'yinlar, undoshlar tasnifi, jarangli, jarangsiz, lab tovushlari, til tovushlari, bo'g'in, artikulyatsiya.

Ключевые слова: звуки речи, фонетика, развивающие игры, классификация согласных, сленговые, неслоговые, звуки губ, звуки языка, слог, артикуляция.

Key words: speech sounds, phonetics, educational games, consonant classification, consonant, consonant, consonant, lip sounds, language sounds, syllable, articulation.

O'quvchilarning boshlang'ich sinfda ona tili ta'limi bo'yicha egallaydigan bilim ko'nikma, malakalari, ularga qo'yiladigan talablar davlat xujjati bo'lgan o'quv dasturida belgilab berilgan [2]. Shuning uchun ta'lim jarayonida savod o'rgatish darslari dasturga muvofiq tashkil etiladi. Savod o'rgatish davri uchun davlat dasturida belgilab qo'yilgan reja asosida 128 soat vaqt ajratiladi. "Alifbe" darslari uchun 64 soat, "Yozuv" darslari uchun 64 soat etib belgilangan.

Savod o'rgatish jarayoni ham murakkab jarayonlardan biri hisoblanib, savod o'rgatish darslarida o'quvchilarni o'zbek tilidagi barcha tovushlar va harflar bilan tanishtiriladi, o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantiriladi. Savodga o'rgatish davri 2-sentabrdan to dekabr oyining oxirigacha bo'lgan muddatni, ya'ni ikki o'quv choragini qamrab oladi. Savodga o'rgatish jarayoni tayyorgarlik va alifbe davridan tashkil topadi. Savod o'rgatish davrida o'qish va yozish ko'nikmalari bir-biriga mutanosib ravishda olib boriladi. Savod o'rgatish jarayonida harflarning 4 xil: bosma, yozma, bosh va kichik shaklini, ularning ishlatilish o'rnini o'rgatishga asosiy vazifa sifatida qaraladi. Darslarda harflarning to'rt xil shakli asosida harflarning tovush ifodalashini, tovushlar harflar bilan ifodalanishini, tovushni tanitish, uning to'g'ri talaffuzi, so'zdagi o'rnini aniqlashni, undosh va unli tovushlarni farqlashni, bo'g'inga bo'lish, bo'g'inlar sonini aniqlash, bo'g'inni mo'ljallab o'qish bilimlarini berish va ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Har bir dars o'quvchilarning bilim olishga qiziqishini kuchaytirishi va mustaqil

o'zlashtira olish ko'nikmalarini hosil qilishga qaratilishi lozim. Ayniqsa, ta'lim jarayoniga endigina kirib kelgan 1-sinf o'quvchilari uchun bu juda ham muhim hisoblanadi. Davlat ta'lim standartlarida o'zlashtirilishi lozim bo'lgan minimal talablar o'quvchilarning iqtidorini nomoyon etishga imkon beradi. Savod o'rgatish tahlil-tarkib tovush metodida olib boriladi. Bu davrda tahlil - tarkib ishlari tizimida tovushning o'zini tahlil qilish va uni talaffuz qilish vaqtidagi nutq a'zolarining holati va harakatini kuzatish, shuningdek, harf bilan ifodalangan tovush va tovushlar birikmasini talaffuz qilish paytida nutq a'zolarining zarur holatga keltirish muhim o'rin tutadi [2]. Masalan, b tovushining tahlili: ikki lab bir-biriga yopishadi, havo yo'li bekilib, to'siq hosil bo'ladi, havo kuchi to'siqni birdaniga ochadi, qisman ovoz hosil bo'ladi.

2021-yil Alifbe darsligida tovush va harflarni tanishtirish birinchi unli va sonor tovushlardan undan so'ng jarangli undoshlardan, darslikning so'nggirog'ida esa harf birikmalari va oxirida jarangsiz undoshlar bilan yakunlanadi. Unlilardan so'ng sonor tovushlarning o'rganilishini asosiy sababi ovozning shovqinga nisbatan kuchliroq ishtirok etishidir.

1-sinfda barcha tovushlarning hosil bo'lishi (artikulyatsiyasi) ni ko'rsatish juda murakkab. Ammo o'qituvchi bu qiyin jarayonni keyinga qoldirishdan ko'ra, bolaga tushuntirishni takrorlash orqali uqtirish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich sinfda tovushlar ustida ish olib borilar ekan, savod o'rgatish davri ikki bosqichga bo'linadi: alifbegacha bo'lgan davr, alifbe davri. Alifbe davrida tovush ustida ishlanadi. Alifbe davrida ya'ni bola tovush haqida ilk tushunchalarni hosil qila boshlashidan, ular bilan tanishishidan boshlab, o'quvchilarga tovushlarning unli va undoshligi, jarangli va jarangsizligi haqida tushuncha berib boriladi. Tovushlarning boshqa tasnifi (sirg'aluvchi yoki portlovchiligi; til undoshi yoki lab; bo'g'iz undoshi; lablangan lablanmaganligi; keng, o'rta keng, tor va h.k) yuqori sinfda o'rganilishga qo'yiladi. O'zbek tilida undosh tovushlarning hosil bo'lishiga ko'ra tasnifini boshlang'ich sinfdan o'rgatish mumkinligini o'zimizning pedagogik faoliyatimizda qo'lladik va bunda ijobiy natijaga erishdik. Har qanday ilmiy asoslar, qoidalar yodlash emas, amaliy va o'yinlar orqali bajarish asosida esda saqlab qolinsa, bunday bilim mustahkamroq bo'lishi hammamizga ma'lum.

Kichik maktab yoshidagi bolaning zehni va idroki o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimni tez ongiga joylab oladi. Ayniqsa, o'zi bajaruvchi va o'yin ishtirokchisi bo'lsa. Bunday mashqlar va o'yinlar ular uchun qiziqarli bo'lish bilan birga biror amaliy ishni bajara olganlik hissini ham paydo qiladi. Alifbe davrida tovush ustida ishlanar ekan, yangi tovush haqida tushuncha berishda tovushning hosil bo'lishini o'qituvchi talaffuz qilish va amaliy bajarib ko'rsatish orqali tovushni unli tovush yoki undosh tovushligini, jarangli yoki jarangsizligini bola yoshiga mos holda



tushuntiradi, o‘quvchilarga ham talaffuz qildirib, uqtiradi. Tovushning ikki turi: fizik tovush va nutq tovushi borligi alifbegacha bo‘lgan davrda tushuntiriladi. Nutq tovushlarini hosil bo‘lishida nutq a‘zolarining ishtiroki haqida aytiladi.

O‘zbek tilida tovushlar ikki turga bo‘linadi: unli tovushlar, undosh tovushlar. Talaffuzida o‘pkadan chiqayotgan havo oqimi og‘iz bo‘shlig‘ida hech qanday to‘siqqa uchramaydigan va bo‘g‘in hosil qila oladigan nutq tovushlari unli tovushlardir. Unli tovushlar faqat ovozdan iborat bo‘lganligi uchun ularni istagancha cho‘zish mumkin: o-o-o-o-o, a-a-a-a-a,... e-e-e-e-e....

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga unli tovushlarni o‘rgatishda ularning xususiy tomonlarini o‘rgatish ham maqsadga muvofiqdir. Masalan Uu tovushini o‘rgatishda Uu tovushini lablangan ekanligini kaftini burniga tekkizgan holatda talaffuz qildiriladi. Bunday talaffuz qilganda lablari kaftiga tegadi. Lablari kaftlariga tekkanligi uchun ham u lablangan unli hisoblanishini bolalarga tushuntirish samarali usul hisoblanadi. Chunki bolalarda sezgi organlari orqali qabul qilingan barcha bilimlar xotirasida yaxshi qoladi. Buning sababi bu tovushni ham talaffuz qiladi va talaffuz qilganida labiga qo‘li tegishi orqali labi oldinga chiqayotganini sezadi.

Sonor (m,n,ng,l,r) tovushlar bilan tanishtirayotganimizda ularni ham qisman cho‘zish mumkinligini, ularni talaffuz qilayotganimizda shovqinga nisbatan ovoz ko‘proq ishtirok etayotganligi, shuning uchun ham qulog‘imizga yoqimli eshityotganligi va bu tovushlar sonorlar deb atalganini ham aytib ketish lozim

Talaffuz qilinayotganda o‘pkadan chiqayotgan havo oqimi ma‘lum to‘siqqa uchraydigan, shovqin ishtirok etadigan nutq tovushlari undosh tovushlardir. Undosh tovushlar hosil bo‘lish usuliga ko‘ra, hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra tasniflanadi. Shulardan savod o‘rgatish davrida bola nutq tovushlari haqida ilk bilimlarni olar ekan unga undosh tovushlarning hosil bo‘lish o‘rni va hosil bo‘lish usuliga ko‘ra tasniflanishini o‘rgatilishi maqsadga muvofiq deb bilish mumkin. Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra tasniflashni ko‘z orqali yodida saqlab qolishiga erishilish mumkin. Bunda har bir undosh tovush bilan tanishtirish jarayonida o‘sha undosh tovushning shartli belgisi harfning ostki qismiga qo‘ng‘iroqchanning rasmi yopishtirib qo‘yiladi. Jarangsiz undosh tovush bo‘lsa qo‘ng‘iroqchanning ustiga qizil rangda chizib qo‘yiladi. Bu orqali undosh tovushning jarangsiz ekanligini ko‘zi orqali ko‘rib shu holatda eslab qoladi. Jarangli tovush bo‘lsa qo‘ng‘iroqchani o‘zi turadi, jarangsiz bo‘lsa rasmning ustiga qizilda chiziladi. Bu usulni undosh tovushlarning hosil bo‘lish usuliga ko‘ra tasniflanishini o‘rgatishda samarali usul sifatida olish mumkin. Ya‘ni, bola yangi tovush haqida bilimga ega bo‘lar ekan, uning unli yoki undoshligi, agar undosh bo‘lsa, jarangli yoki jarangsizligini bilish bilan bir qatorda, undosh tovushning til, lab yoki bo‘g‘iz undoshi ekanligini ham bilib olishi darsda tushuntirilishi,

avval o'qituvchi talaffuzi so'ng o'quvchi talaffuzi amaliy bajarilib tasniflash mumkin. Masalan, agar tovushni talaffuz qilganda, ikki labimiz yoki ulardan biri og'zimizni yopsa, yanada aniqrog'i lablarimiz bir-biriga qarab yaqinlashsa, tegsa bu undosh tovush lab tovushi; tilimiz harakati faol bo'lsa: tilimiz tanglayimizga, tishimizga tegsa, orqaga oldinga harakatlansa, titrasa bu tovush til undoshi; o'zbek tilida bo'g'izda hosil bo'ladigan yagona h undosh tovushi ekanligini ham savod o'rgatish davrida o'rgatib borish mumkinligini pedagogik faoliyat davomida amaliy qo'llanilgan. Shuni guvohi bo'lish mumkinki, bola undosh tovushning bu tomondan (hosil bo'lish o'rniga ko'ra) tasniflaganda tovushni yodlashdan ko'ra talaffuz qilib, o'z nutq a'zolari va o'qituvchi nutq a'zolarini kuzatib, o'yinlar orqali amaliy bajarib to'g'ri farqlay oladi. Ayniqsa, u o'zi talaffuz qilib nutq a'zolari harakatini kuzatish jarayonida his qilish, fikrni to'g'ri jamlay olish kabilarni ham o'zida shakllantirib bordi. Bu metod o'qituvchidan biroz mehnat va izlanuvchanlik, ijodkorlik pedagogik kompetentlikni talab qiladi. Lekin natija o'quvchilarini shakllanib borayotgan bilim, ko'nikma va malakasiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Tovushlar hosil bo'lishi ustida ishlash asosida diksiya ya'ni so'z, bo'g'in tovush nutqning talaffuzdagi aniqlik darajasi ortadi. Bu savod o'rgatish uchun ham, ifodali o'qish uchun ham, orfoepik va orfografik malakani shakllantirish uchun ham, xushovozlik ko'nikmasini o'stirish uchun ham juda muhimdir [1]. Shuning uchun bolalarni so'zlayotganda to'g'ri nafas olishga, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish, kichik maktab yoshidagi bolalar orasida ayniqsa, 1-sinf o'quvchilarida uchraydigan, nutq a'zolaridan noto'g'ri foydalanishga odatlangan yoki nutq a'zolari yaxshi rivojlanmagan bolalar bilan ishlashga yordam beradi. Odatda kichik maktab yoshidagi bolalar qiziquvchan bo'ladi. Ammo ta'lim- tarbiya jarayonidagi ozgina qiyinchilik ham ularning qiziqishini so'nishiga olib keladi. Natijada bu o'quvchilarning bilim olishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ixtiyorsiz diqqat bolada mashg'ulotlar davomida rivojlanib boradi. Bu esa bola bilimida bo'shliq paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Savod o'rgatish davrida bunday bo'shliqning yuzaga kelishi ta'limning keyingi bosqichlarida juda katta salbiy holatlarni vujudga keltirishi mumkin. Shuning uchun ham bolalarni savod chiqarish davrida juda zo'riqtirmaslik, ularni mavzuni tushunishi va o'rgangan tushunchalarini yodda yaxshi saqlab qolishi uchun o'qitishning eng ilg'or va samarali usullarini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu esa o'z navbatida pedagogni izlanishga va ijodkorlikka undaydi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar o'yinlarni yaxshi ko'radi. Darslarda turli didaktik o'yinlarni qo'llash ulardagi faollikni oshiradi. Boshlang'ich ta'limning asoslarini ishlab chiqqan taniqli didakt olimlar ham mustaqil fikrlashga, ilmiy bilimlarni yodida saqlab qolishga va olgan bilimlarini tanish va notanish



holatlarda ko'rsata olishlari uchun pedagogik jihatdan ta'sirchan vositalarni izlab topish kerakligini va uni o'quv sharoitiga tatbiq etish zarurligi haqida bir qancha fikrlar bildirganlar.

Shunga ko'ra, savod o'rgatish jarayoni uchun o'zbek tilining 29 ta tovushga 29 ta ta'limiy o'yin va bir nechta mutimediya ishlab chiqilgan bo'lib, ulardan namunalar keltirib berilgan. Ta'limiy o'yinlarni bajarishda va qo'llashda o'qituvchi o'quvchilar jamoasining imkoniyatlarini hisobga olishi, ba'zi ta'limiy o'yinlarni tashkillashda o'quvchilarni oldindan tayyorlab borishi, ya'ni o'yinning multimedia holatini ekran orqali ko'rsatib, undagi ba'zi o'rinlarni izohlashi darsning samarali va sifatli tashkillanishiga yordam beradi.

O'zbekiston respublikasi Xalq ta'limi vazirligi nashrga tavsiyasi asosida 2021-yili yaratilgan "Alifbe" darsligi asosida yaratilgan o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq tovushlari haqidagi bilimlarini oshirishga, fonetik, leksik, morfologik bilimlarini hosil bo'lishida mustahkam asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kichik yoshdagi o'quvchilar jamiyat hayotini o'yin orqali anglaydilar. O'yin vaziyatlari ularga ortiqcha tushuntirish va nasihatlersiz xulq-atvor qoidalarini amaliy jihatdan oson, maroqli tarzda o'rganishga yordam beradi. Kichik yoshdagi o'quvchilar jamiyat hayotini va bilimlarni o'yin orqali anglaydilar. O'yin vaziyatlari ularga ortiqcha tushuntirish va nasihatlersiz xulq-atvor qoidalarini amaliy jihatdan oson, maroqli tarzda o'rganishga yordam beradi. O'yin bolalarni ijtimoiy va ijodiy ishlashga yo'naltiruvchi vosita hisoblanadi. Jan Jak Russo bola tarbiyasida o'yinning ahamiyatini ta'kidlab: "Bolalikni seving, uning o'yin va ermaklariga, murg'akkina tabiiy tuyg'ulariga e'tibor bering! Labdan kulgi arimaydigan, qalb shu olamdan to'xtovsiz huzurlanadigan o'sha daqiqalarni qay biringiz, axir, sog'inch bilan eslamaysiz?" deb yozgan edi [3]. Bolani sho'xlikdan mahrum qilish uni rivojlanish manbayidan mahrum qilish bilan barobar. Shu ma'noda Jan Jak Russo o'yin sababli bolada ijodkorlik impulslari ro'yobga chiqishini uqtirib, bola o'yin orqali oladigan hayotiy tajribani yuqori baholab: "Agar siz bolalarning sho'xliklariga yo'l bermasangiz, unda hech qachon donishmandlarni dunyoga keltira olmaysiz" degan edi [3]. O'yin bolalarning birgalikdagi, hamkorlikda amalga oshiradigan faoliyatini, muomala madaniyatini ham vujudga keltiradi. Har qanday o'yin muayyan mezonlar, qonun-qoidalar, tartib va intizomni talab etadi. O'yin jarayonida bola o'zini bemalol, erkin his qiladi, o'zining haqiqiy qiyofasini namoyon etadi. Yayrab kuladi, harakatlanadi, o'z fikrini uyalmay, tortinmay bayon qiladi. O'yin asnosida ko'pgina jamoatchilik qoidalarini o'zlashtiradi, tartib-intizomga, to'g'ri harakatlanishga o'rganadi. O'yin bola hayotida juda muhim rol o'ynaydi. Kattalarga kundalik hayot tajribalari qanchalik zarur bo'lsa, bola uchun o'yin shunchalik zarur. O'yin jarayonida bola qanday bo'lsa, keyinchalik katta bo'lgach, ishda ham o'zini shunday tutadi. Shu sababli faol insonni tarbiyalashda o'yinlarning ahamiyati juda katta hisoblanadi.

Quyida savodga o'rgatish davrida o'quvchilar bilan o'tkaziladigan ta'limiy o'yinlarning ikki uchta namunalarni amaliy tashkillash yo'riqnomasiga to'xtalib o'tiladi. Masalan, "Noto'g'ri ta'rif", "Farqini top" "Tovushtopar" "Saralab ol" "Adashganlar", "Yelpig'ich", "Parashyutdan sakrash" "Darvoza" "Qabul qilib oldim" "Ilib ol va javob ber!!! " "Kim oshdi? "Kim tez va to'g'ri bajaradi?" "Quruvchi" "Bu bizniki" "Pochtachi" "So'z o'yini" va boshqalar

Bu o'yinlarni ishlab chiqishning asosiy maqsadi o'quvchilarda fonetik va fonologik bilimlarini mustahkamlash hamda o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish, ularni topqirlikka va bilimdonlikka undash darslarimizni zamon talab darajasida tashkillash hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bolalarni so'zlayotganda to'g'ri nafas olishga, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish, kichik maktab yoshidagi bolalar orasida ayniqsa, 1-sinf o'quvchilarida uchraydigan, nutq a'zolaridan noto'g'ri foydalanishga odatlangan yoki nutq a'zolari yaxshi rivojlanmagan bolalar bilan ishlashga yordam beradi. Odatda kichik maktab yoshidagi bolalar qiziquvchan bo'ladi. Ammo ta'lim- tarbiya jarayonidagi ozgina qiyinchilik ham ularning qiziqishini so'nishiga olib keladi. Natijada bu o'quvchilarning bilim olishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ixtiyorsiz diqqat bolada mashg'ulotlar davomida rivojlanib boradi. Bu esa bola bilimida bo'shliq paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Savod o'rgatish davrida bunday bo'shliqning yuzaga kelishi ta'limning keyingi bosqichlarida juda katta salbiy holatlarni vujudga keltirishi mumkin. Shuning uchun ham bolalarni savod chiqarish davrida juda zo'riqtirmaslik, ularni mavzuni tushunishi va o'rgangan tushunchalarini yodda yaxshi saqlab qolishi uchun o'qitishning eng ilg'or va samarali usullarini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu esa o'z navbatida pedagogni izlanishga va ijodkorlikka undaydi.

Adabiyotlar:

1. Qo'shaliyeva N. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limini o'qitilishida ilmiy-zamonaviy yondashuv (umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik tavsiya). – Farg'ona, 2019.
2. Qosimova K. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009.

RESUME

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf savod o'rgatish jarayoni va ona tili darslarida nutq tovushlarini o'rgatishdagi muammolarga yechim bo'la oladigan usullar, ta'limiy o'yinlar orqali unli va undosh tovushlarining xususiy tasniflarini o'rgatishning samarali metodikalari keltirib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлен процесс обучения грамоте в начальных классах и методы, которые могут стать решением проблем обучения звукам речи на уроках родного языка, эффективные методики обучения частным классификациям гласных и согласных звуков посредством развивающих игр.

SUMMARY

This article cites the process of teaching elementary grade savod and methods that can be solutions to problems in teaching speech sounds in native language lessons, effective methodologies for teaching private classifications of vowel and consonant sounds through educational games.



ИНГЛИЗ ТИЛИ МУТАХАССИСЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШДА КОУЧИНГ МОДЕЛЛАРИ

Исматова М. Ш.

Самарканд давлат чет тиллар институти “Таълим сифатини назорат қилиши” бўлим бошлиғи “Инглиз тили тарихи ва грамматикаси” кафедраси катта ўқитувчиси

Таянч сўзлар: коучинг, коучинг ёндашув, мутахассис, магистр, лайф-коучинг, бизнес-коучинг, психоаналитик коучинг, спорт-коучинг, академик коучинг, молиявий коучинг, соғлом турмуш тарзи бўйича коучинг, карьер-коучинг, таълим коучинги, вокал коучинг, шахсий коучинг.

Ключевые слова: коучинг, коучинговый подход, специалист, мастер, лайф-коучинг, бизнес-коучинг, психоаналитический коучинг, спортивный коучинг, академический коучинг, финансовый коучинг, коучинг здорового образа жизни, карьерный коучинг, образовательный коучинг, вокальный коучинг, персональный коучинг.

Key words: coaching, coaching approach, specialist, master, life coaching, business coaching, psychoanalytic coaching, sports coaching, academic coaching, financial coaching, healthy lifestyle coaching, career coaching, educational coaching, vocal coaching, personal coaching.

Кириш (Introduction). Касбий тайёргарлик деб муайян фаолият соҳасида иш олиб боришга имкон берадиган маҳсус билим, кўникма ва қобилиятлар тўплами тушунилади. Малакага қараб тегишли касб-хунар таълимини талаб қиладиган 4 та асосий касбий тайёргарлик даражаси мавжуд: олий, ўрта маҳсус, касб-хунар ва бошланғич (паст малакали ишчиларни касбий курсларда ўқитиш, ишда жамоавий индивидуал машғулотлар орқали ва бошқалар.). Касбий тайёргарлик иш жараёнида, малака ошириш тизимида ўз-ўзини тарбиялаш орқали яхшиланади [6].

Бугунги кунда дунёда тахминан 1,5 миллиард киши инглиз тилида гаплашади. Энг кўп ўқитиладиган тил бўлган инглиз тили бошқа тилларни алмаштирмайди, балки уларни тўлдиради. Инглиз тилига тегишли бир нечта қизиқарли ҳолатлар қуйидагилардан иборат:

90 мамлакатда инглиз тили иккинчи тил ёки кенг ўрганилмоқда;

Гонконгда ўнта ўрта мактабнинг тўққизтасида ўқувчилар инглиз тилини ўрганишади;

Франция давлатининг ўрта мактаблари ўқувчиларга тўрт йил давомида инглиз ёки немис тилларини ўрганишни талаб қилади, аксарият камида 85% - инглиз тилини танлайди;

300 миллион хитойликлар (АҚШнинг бутун аҳолисидан кўпроқ) инглиз тилини ўрганишмоқда;

Японияда талабалар ўрта мактабни битирмасдан олдин олти йил давомида инглиз тилини ўрганишлари керак;

болалар учун чет тилларини ўрганиш мажбурий бўлган Россияда кўпчилик инглиз тилини ўрганадилар;

Норвегия, Швеция ва Данияда инглиз тилини ўрганиш талаб қилинади. Буюк Британияни ҳисобга олмаганда, барча Европа давлатлари орасида Голландия инглиз тилини биладиганлар сони бўйича биринчи ўринда туради. Португалия Европа ҳамжамиятига қўшилганидан бери, инглиз тили дарсларига бўлган талаб француз синфларига бўлган талабга қараганда кучли.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили (Literature review). Д.Кристалнинг таъкидлашича, илгари ҳеч қачон одамлар шунчалик кўп саёҳат қилишмаган ва бундан олдин ҳар хил халқлар ўртасида бизнес ва маданий алоқалар бунчалик кўп бўлмаган. Шу сабабли глобал тил бўлган, инглиз тилини чет тили сифатида ўрганиш тобора оммалашиб бормоқда [1].

Таълимда коучингнинг кўплаб турлари мавжуд мезонларга кўра таснифлашни Р.Дилц, Д.Слуттербуск, Э.Стак, Н.К.Туркулецлар томонидан тавсия этилган [8].

The development of thinking of the mind and knowledge of students is composed of questions, examples, tasks related to the topic. This will help them draw their own conclusions. Today, interactive methods, innovative technologies, pedagogical and information technologies are developing day by day in the educational process.

To date, they have only studied ready-made programs, and the modern method is studying independently to search for materials and analyze. In interactive education, you can solve several tasks at one time. First of all, interactive methods gives students the development of scientific practice, helps students to create emotional connections, work in a social team, hear the opinions of their peers, we can say this is based on ensuring the task of education.



OLIJ TA'LIM BOSHQARUVIGA AKADEMIK VA MOLIYAVIJ AVTONOMIYANI JORIY ETISHNING MAVJUD IMKONIYATLARI VA TAHLILI

Azamov J. M.

Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti, yu.f.d (PhD)

Tayanch so'zlar: ta'lim-tarbiya, investitsiya, kontseptsiyasi, moddiy-texnik ta'minoti, akademik va moliyaviy avtonomiya tamoyllari, moliyaviy mustaqillik.

Ключевые слова: образование, инвестиции, концепция, материально-техническое обеспечение, принципы академической и финансовой автономии, финансовая независимость.

Key words: education, investment, concept, material and technical support, principles of academic and financial autonomy, financial independence.

Kirish. O'zbekiston oliy ta'lim tizimi boshqaruvini isloh qilish, unga yangicha standartlarni joriy etish, oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga avtonomiya tamoyillarini qo'llash zarurati va samaradorligi, istiqbollari tahlil etilgan. Buning uchun avvalo mamlakatimiz oliy ta'lim tizimi boshqaruvidagi mavjud xolat va muammolarning bartaraf etishning samarali yo'llarini tadqiq etish maqsadga muvofiq sanaladi.

O'zbekiston OTMLarida boshqaruvning an'anaviy unitar tizimi foydalaniladi va ularda boshqaruvning akademik va moliyaviy avtonomiyasi juda past darajada namoyon bo'ladi. SHu bois OTMLar turli manbalardan moliyalashtirishda va xodimlarni yollashda erkinlikka ega emas. Umuman olganda, aksar davlat tomonidan moliyalashtiriladigan OTMLarda boshqaruv avtonomiyasining quyi darajasi kuzatiladi. SHu bois davlatimiz rahbari boshchiligida oliy ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish va mavjud muammolarni tizimli bartaraf etishga doir ustuvor vazifalar amalga oshirilmoqda. Zero, "...ta'lim-tarbiya bo'yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarimizni mantiqiy yakuniga yetkazishimiz zarur. SHu maqsadda Hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta'lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o'qituvchilarning eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir.



Farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o‘rin egallashini ta‘minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarishni davrning o‘zi taqozo etmoqda”. Umuman olganda, boshqa sohalar kabi oliy ta‘limda ham sifat ko‘rsatkichi raqobatbardoshlikni ta‘minlovchi va xarajatlarni tejoychi asosiy omillardan biridir. Bunda oliy ta‘limning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini barqaror darajada ta‘minlash va uni rivojlantirishning yangi sifat darajasiga ko‘tarish imkonini beradigan iqtisodiy, tashkiliy, axborot, huquqiy ta‘minot zarur bo‘ladi. SHu jihatdan, oliy ta‘lim boshqaruviga yangicha tamoyillar va modellarni joriy etish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish tanlangan mazkur paragrifning dolzarbligini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasiga ko‘ra, oliy ta‘lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari quyidagilardan iborat:

- mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish;
- oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma‘naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;
- sohada sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta‘minlash.

Uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, oliy ta‘lim tizimini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlar asosida amalga oshiriladi:

- ta‘lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;
- yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish;
- oliy ta‘lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta‘minlash, moddiy-texnik ta‘minotini mustahkamlash;
- oliy ta‘lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish, shaffoflikni ta‘minlashning ta‘sirchan mexanizmlarini joriy etish;
- oliy ta‘lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta‘minlash.



O'zbekistonda ta'lim to'g'risidagi qonunchilikning yangi tahririga asosan akademik va moliyaviy erkinlik tamoyillarini olib kirish jarayonini boshlab berdi. Yevropa mamlakatlarida ta'lim sohasidagi qonunchilik asoslari akademik erkinlik qoidalarini kafolatlaydi. Ko'plab mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarida OTMlarning akademik avtonomiyasi belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasiga ko'ra, oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida ham ko'rsatib o'tilgan.

Umuman olganda, O'zbekistonda hukumat oliy ta'lim muassasalari boshqaruvidagi akademik erkinlikni hurmat qilishi, himoya qilishi va rivojlantirishga ko'maklashish majburiyatini olishi zarur. SHunday bo'lsa-da, rivojlangan davlatlarda ham akademik avtonomiya so'z erkinligi kabi, hali mutlaq hisoblanmaydi, va shuning uchun davlat organlari javobgarlik tamoyillariga amal qilish uchun oliy o'quv yurtlari avtonomiyasi asoslarini aniqlash, samaradorligi va jamiyat manfaatlariga xizmat qilish doirasini belgilaydi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida akademik avtonomiyani shakllantirish asosida har bir oliy ta'lim muassasasi tomonidan qabul ko'rsatkichlari, qoidalari va boshqa normalarni ishlab chiqiladi. Akademik avtonomiyaning mezonlaridan biri oliygohlarning qabul qilish qoidalarini va qabul kvotasini mustaqil ravishda belgilashga qodirligidir. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasida keltirilishicha, oliy ta'lim tizimi oldida bugungi kunda o'z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda, unga ko'ra, oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish vazifalari asosida bosqichma-bosqich OTMlarga qabul kvotalarini va shartnoma asosida o'qish to'lovini mustaqil belgilash vakolatini berish jarayoni amalga oshirilmoqda. Xalqaro tajribaga ko'ra, OTMlarga qabul qilish qoidalari uch yo'l bilan



belgilanadi: OTM tomonidan mustaqil ravishda, OTM va vakolatli organi bilan birgalikda yoki faqat oliy ta'lim sohasidagi vakolatli organ tomonidan belgilanadi. Demak, qabul ko'rsatkichlari va qoidalarini mustaqil belgilagan oliy ta'lim muassasalarini o'rtasida raqobat muhiti yuzaga keladi va ularni rivojlanishiga va sifat ko'rsatkichlarini namoyon qilishga imkoniyat yaratadi. Misol uchun, Niderlandiyada oliy ta'limga qabul qilish tartibiga ko'ra, o'rta ta'limni tugaganligi haqidagi hujjatga ega bo'lgan barcha talabgorlar oliy ta'limga qabul qilinadi. Ba'zi yo'nalishlar talablariga ko'ra, OTMga kirish uchun maxsus kurslarni bitirish talab qilinadi. Oliy ta'lim muassasalari qo'shimcha qabul mezonlarini mustaqil belgilash huquqiga ega emas. Biroq, hozirgi vaqtda Gollandiya hukumati talabalarni qabul qilish uchun OTMlarga ko'proq avtonomiya berish imkoniyatini ko'rib chiqmoqda. SHunday ekan, biz ham oliy ta'limdagi islohotlarni jadallashtirish negizida akademik va moliyaviy mustaqillik berish jarayonini tezlashtirish bilan birga qabul bilan bog'liq jarayonlarni mustaqil belgilash va qoidalarini ishlab chiqish vakolatini OTMlarga taqdim qilishga doir vazifalarni amalga oshirishni tezlashtirish dolzarblik kasb etmoqda.

SHuning uchun ham, O'zbekistonda OTMlar talabalarni qabul qilishda quyidagi vakolatlarga ega bo'lishi maqsadga muvofiq:

- OTM talabalar sonini mustaqil belgilash;
- davlat granti asosida talabalarni o'qishga qabul qilish vakolatli organ tomonidan, shartnoma to'lov asosida esa – OTM tomonidan mustaqil belgilash;
- qo'shimcha qabul va rag'batlantiruvchi loyihalarni mustaqil amalga oshirish.

Bugungi kunda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi OTMlarning mustaqil ravishda bakalavr, magistratura va doktorantura dasturlarini ochish va yopish huquqiga ega bo'lishlarini ta'minlashga doir tashkiliy-huquqiy masalalarni hal qilishga harakat qilmoqdalar. Bu jarayon O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori asosida olib borilmoqda. Bu jihat OTMning moliyaviy imkoniyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu oliy ta'lim muassasasi siyosatini belgilab berishi mumkin. Buning uchun esa, avvalo oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillikni berish va bu asosida faoliyat yuritish erkinligini taqdim qilish lozim.

O'zbekiston OTMlarida mutaxassisliklar bo'yicha o'quv dasturlarini ochish yoki yopishdagi quyidagi huquq va erkinliklarga ega bo'lishi kerak:

- OTMLar vakolatli organning ruxsatisiz o‘quv yo‘nalishlarni ochish yoki yopish huquqiga ega bo‘lishi kerak;
- barcha yangi dasturlar davlatdan moliyalashtirish olish uchun akkreditatsiya tartibini o‘tishi kerak;
- OTMLar yo‘nalishlar ochish yoki yopish uchun vakolatli organdan ruxsat olishlari shart emas. Bunday hisobdorlik tizimi byurokratik xarajatlarni minimallashtirish, samaradorlikni oshirish va ta‘limning yuqori standartlarini ta‘minlash orqali o‘qitish sifatini oshirishga qaratiladi.

So‘ngi yillarda joriy qilingan o‘zgarishlar va ayrim OTMLarga berilgan moliyaviy avtonomiya xususiyatlarining namoyon bo‘lishida o‘zga xosliklar mavjud. Ayrim oliy ta‘lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berilib, ularga qabul kvotalarini va to‘lov-shartnoma miqdorini belgilash erkinligi berilgan bo‘lsada, vakolatli organ bo‘lgan Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining ta‘siri aniq va ravshan sezilib turadi. Misol uchun, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetiga moliyaviy mutaqillik berilgan bo‘lsada, xarajatlar va qabul parametrlarini belgilashda ta‘lim vazirligiga bog‘langan. Demak, eng ko‘p avtonomiyaga ega bo‘lgan OTMLar davlat tomonidan kam miqdorda moliyalashtiriladi. Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash darajasi ham ortib boradi. Ya‘ni, oliy o‘quv yurtlari uchun moliyalashtirish manbalari qanchalik ko‘p diversifikatsiyalangan bo‘lsa, ularning avtonomlik darajasi shunchalik katta bo‘ladi. SHuni ham ta‘kidlash kerakki, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish ham OTMLarga moliyaviy avtonomiya berish sharti, ham natijasidir. Boshqacha aytganda, bir tomondan, OTMLar davlatdan yanada ko‘proq moliyaviy mustaqil bo‘lish uchun, ularning moliyaviy manbalarini diversifikatsiya qilish kerak. Boshqa tomondan, OTMLariga taqdim etilgan moliyaviy imkoniyatlar, OTMning tijorat faoliyati natijasida daromad ulushining ortishiga yordam berdi. SHunday ekan, O‘zbekistonda ham oliy ta‘lim muassasalari tezroq bozor qonuniyatlari bilan ishlashga o‘tishlari, moliyaviy mustaqillikning imkoniyatlaridan foydalanib ko‘rishlari talab etiladi.

SHunday qilib, O‘zbekistonda ham oliy ta‘lim muassasalarining institutsional avtonomiyasini moliyaviy faoliyatini tekshirishning eng keng tarqalgan shakli muassasa hisoblarini muntazam audit qilish tizimini yo‘lga qo‘yish hisoblanadi. Buning uchun xususiy audit idoralari tomonidan oliy o‘quv yurtlari moliyaviy faoliyatining auditini yo‘lga qo‘yish samarali bo‘ladi. Bunday xususiy audit idoralari esa o‘z navbatida tegishli davlat organlariga hisobot yuboradi va audit natijalarini e‘lon qiladi. SHuni ta‘kidlash lozimki, institutsional avtonomiya darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, OTMLarining davlat oldidagi mas‘uliyat darajasi ham shunchalik yuqori bo‘ladi.



O‘zbekiston ta’lim tizimida OTMlarga moliyaviy avtonomiya berish har doim ham oliy ta’lim faoliyatini optimallashtirishga olib kelmaydi va ularning yuqori darajadagi moliyaviy avtonomiyasini ko‘rsatmaydi. Misol uchun, OTMlar o‘z ko‘chmas mulklarini mustaqil ravishda boshqarishda aslida ko‘chmas mulk bilan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda ko‘plab to‘siqlar mavjud. Boshqacha qilib aytganda, OTMlarining haqiqiy moliyaviy avtonomlik darajasi ko‘plab ko‘rsatkichlarga bog‘liq. SHu munosabat bilan, OTMlarining moliyaviy avtonomiyasini o‘rganish doirasida quyidagi masalalar bo‘yicha ularning moliyaviy mustaqilligiga alohida e‘tibor qaratish lozim:

- zaxira shakllantirish va davlat moliyalashtirish profitsitini saqlab qolish;
- o‘qish to‘lovlari miqdorini aniqlash;
- moliyaviy bozorlarda moliyaviy resurslarni investitsiya qilish;
- OTMlar ko‘chmas mulkiga egalik qilish va boshqarish.

Bugungi kunda, O‘zbekistonda davlat OTMlari ishlab topgan mablag‘lari hisobidan o‘z zaxira kapitalini shakllantirishi mumkin. Biroq, bu har doim ham oliy ta’lim muassasalariga ajratilgan davlat mablag‘larining ortiqcha to‘planishi bilan bog‘liq emas.

Oliy ta’lim muassasalarida to‘lov-kontrakt miqdorini belgilash va uning miqdorini aniqlash imkoniyati ularning moliyaviy avtonomiyasining muhim tarkibiy qismidir. Ko‘pgina mamlakatlarda to‘lov-shartnoma pullari daromadining asosiy qismini shakllantiradi va uning hajmi OTMning rivojlanish strategiyasiga turli darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Xulosa qilganda, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham yo‘nalishlar ochishni nomarkazlashtirish, bozor talablaridan kelib chiqqan holda yo‘nalish ochish talablarini soddalashtirish, har bir oliy ta’lim muassasasi uchun cheklangan miqdorda yo‘nalish ochish vakolatini berish ham maqsadga muvofiqdir. Boshqaruvda bir shaxsning avtoritar boshqaruviga asoslangan an’anaviy tizimdan vaz kechib, ikki bosqichli boshqaruv modeliga o‘tish zarurati ortib bormoqda. Bu ikki bosqichli model orqali qaror qabul qilishda adolat va shaffoflikni ta’minlashda bir birini tiyib turadigan va nazorat o‘rnatadigan tizimni yaratish samarali bo‘ladi. Bu esa, oliy ta’lim boshqaruviga akademik va moliyaviy avtonomiyani joriy etishni talab etadi.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ.-Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2016. – Б. 13-14.



2. «Ўзбекистон республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида» ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5847-сон Фармони. 2019 йил 8 октябрь, (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 09.11.2021 й., 06/21/3/1037-сон).

3. «Ўзбекистон республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида» ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5847-сон Фармони. 2019 йил 8 октябрь, (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 09.11.2021 й., 06/21/3/1037-сон)

4. «Олий ва ўрта махсус таълим тизимида бошқарувнинг янги тамойилларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-4391-сон Қарори. 2019 йил 11 июль.

5. «Ўзбекистон республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида» ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5847-сон Фармони. 2019 йил 8 октябрь, (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 09.11.2021 й., 06/21/3/1037-сон)

6. «Олий ва ўрта махсус таълим тизимида бошқарувнинг янги тамойилларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-4391-сон Қарори. 2019 йил 11 июль.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham yo'nalishlar ochishni nomarkazlashtirish, bozor talablaridan kelib chiqqan holda yo'nalish ochish talablarini soddalashtirish, har bir oliy ta'lim muassasasi uchun cheklangan miqdorda yo'nalish ochish vakolatini berish ham maqsadga muvofiqligini bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье указано, что целесообразно децентрализовать открытие курсов в системе высшего образования Узбекистана, упростить требования для открытия курса исходя из требований рынка, а также предоставить полномочия открывать ограниченное количество курсов для каждого высшего учебного заведения.

SUMMARY

In this article, it is stated that it is appropriate to decentralize the opening of courses in Uzbekistan's higher education system, to simplify the requirements for opening a course based on market requirements, and to grant the authority to open a limited number of courses for each higher education institution





TA'LIM JARAYONIDA KREATIV FIKRLASHNING AHAMIYATI

Radjabov Z. N.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

“Umumiy gigiena va ekologiya” kafedrası o‘qituvchisi

Utamuradova N. A.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

“Umumiy gigiena va ekologiya” kafedrası o‘qituvchisi

Sidikova M. A.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

“Umumiy gigiena va ekologiya” kafedrası o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: ta’limda noan’anaviylik, kreativlik, ixtiro, kashfiyot, intuitsiya.

Ключевые слова: нестандартность в образовании, творчество, изобретательство, открытие, интуиция.

Key words: unconventionality in education, creativity, invention, discovery, intuition.

Mavzuning dolzarbligi shundaki biz ta’lim jarayonida rivojlangan davlatlar modelini tatbiq etmoqdamiz . Ularni o’rganish jarayonida ta’limda noan’anaviylik, o’quvchilarga mantiqiy va kreativ fikrlashga undovchi qiziqarli mashg’ulotlar olib borilishi kuzatilgan. Bunga misol qilib, ta’limda tatbiq etishni boshlaganimiz Piza o’quv dasturini olaylik . Piza testlari o’quvchini bir masala yuzasidan chuqur mantiqiy fikrlashga undaydi. Unda fikrlar xilma-xilligini paydo qiladi. Aynan ushbu dastur orqali mamlakatning ta’lim sohasidagi salohiyati, erishilgan yutuq va kamchiliklari aniqlanadi. Buning ahamiyatli jihati shundaki ta’lim jarayonida erkinlik va fikrlar xilma-xilligi tadbiq etilsa, bu tezda samara beradi.

Mustaqillik yillarida yurtimizda ta’lim sohasida tub islohatlar amalga oshirildi. Xususan, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ham bu sohaga alohida e’tibor qaratib, shunday degan edilar. “Olimlar va ijodkor xodimlarimizga e’tiborni kuchaytirish kerak. Chunki ma’naviy boylikni aynan shular yaratadi. Ularga g’amxo’rlik qilish samarali faoliyat uchun barcha zarur moddiy, ma’naviy sharoitlarni yaratib berish, davlat hokimiyati va xo’jalik tashkilotlari rahbarlarining burchi va ma’sulyatli vazifasidir” [1.111]. Darhaqiqat ijodkorlarga



erkin imkoniyat yaratilgandagina ular turli xil ixtirolar qilish mumkin. Tarixga nazar tashlasak, mustabid tuzum davrida kreativ fikrlovchi ijodkorlar, davlat arboblari, “xalq dushmani” sifatida qatog'on qilingan. Ko'plab ma'rifatparvar bobolarimiz o'zlarini fikrlarini erkin bayon qila olmagan. Buning oqibatida iqtisodiyot va ta'lim faqat bir yoqlama rivojlangan. Ta'lim sohasida erkin ijodkorlikni joriy etar ekanmiz, bunda ta'limni quyi bosqichi maktabgacha ta'lim sohasidan boshlashimiz lozim. Sungi yillarda bu sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil etilishi bunga yaqqol misoldir. Bu borada amaldagi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini eslash o'rinni “Birinchi vazifa maktabgacha ta'lim sohasida ochiq tan olishimiz kerak, biz bu muhim sohadagi ishlarni e'tibordan chetda qoldirdek. Ushbu sohada bolalarni qamrab olish 27 foizni tashkil etadi. Yaqinda tasdiqlangan dasturga ko'ra bu yo'nalishda 2 ming 200 ta muassasaning moddiy texnik bazasini mustahkamlandi”. [2.45]

Bog'cha yoshida o'quvchida mustaqil fikrlash iqtidorini ro'yobga chiqarish va unga to'g'ri yo'nalish berish juda muhim. Shuning uchun bog'cha ta'limida ham o'quvchilarga mantiqiy izchillikka asoslangan mashg'ulotlar berilsa, o'quvchining yuksalishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. So'ngi yillarda yurtimizda maktab ta'limiga juda katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa jahon andazalariga javob beruvchi Prezident maktablari va xususiy maktablarning joriy etilishi bunga yaqqol misoldir. Aynan ushbu o'quv muassasalarida amaliy va nazariya uzviy tarzda erkin fikrlashga va kreativlikka asoslanadi. Shu bois bunday maktablarda o'qigan bolalar alohida ajralib turadi. Shuningdek ta'limning yuqori bo'g'ini bo'lgan oliy ta'limda ijodkorlikning o'rni nihoyatda beqiyos. Oliy ta'limdagi yaratilgan imkoniyatlar haqida quyidagilarni eslab o'tish kifoya. “Oliy ta'lim sohasida oliy o'quv yurtlarining professor o'quvchilarini muntazam qayta tayyorlash bo'yicha yangi, takomillashtirilgan tizim joriy etildi. 15 ta tayanch oliy o'quv yurtida oliy ta'lim muassasalari rahbarlari pedogog kadrlarni qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish kurslari tashkil etildi. Mazkur kurslarda oliy o'quv yurtlarining 2 ming 700 ga yaqin o'quvchisi malaka oshirdi”. [3.23]

Ushbu ko'rsatkichlar mustaqillikning dastlabki davridagi oliy ta'limdagi ko'rsatkichlardir. So'ngi paytlarda yurtimizda barcha sohalar singari oliy ta'limda ham islohatlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa professor o'qituvchilarning ilmiy kashfiyotlari evaziga rag'batlantirilishi ularning oylik maoshlarining oshirilishi, oliy talimda kirish imtihonlarining yanada shaffoflashuvi bunga misoldir. So'ngi yillarda dunyoning rivojlangan oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda ilmiy ijodiy kashfiyotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida



turli fan sohalarida yuksalishi ro'y berishi kuzatilmoqda. Respublikaning bosh qonuni Konstitutsiyamizda ham ta'lim tizimi, erkin ijodkorlik va ilmiy kashfiyotlarni qo'llab-quvvatlash borasida 41-42 moddalarida so'z yuritilgan. Xususan, 41-moddada shunday deyilgan " Har kim bilim olish xuquqiga ega . Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir". 42-moddada esa, "Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi". [4. 6,7] Bundan ko'rinib turibdiki, yurtimizda ilmiy kashfiyotlar va bilim olishga katta yo'l ochildi. Ular davlat tomonidan rag'batlantiriladi. Shuning bilan birgalikda bu kashfiyotlar vatan taraqqiyoti va xalq farovonligi uchun amalga oshirilishi lozim. Insonlar hayotiga rahna soluvchi taraqqiyotga zid bo'lgan ilmiy texnik kashfiyotlarga yo'l ochilmaydi, jinoiy javobgarlikka tortiladi. Jamiyat taraqqiyoti ilmiy tadqiqot faoliyatiga asoslanadi. Jamiyatda turli xil tadqiqotlar bo'lsa unda yuksalish bo'ladi. XX asrning oxirida ro'y bergan fan-texnika inqilobi ham insonlarning yuksak ijod mahsulihisoblanadi. Bu davrga kelib turli xil tadqiqotlar yaratildi. Bu xususida faylasufning quyidagi fikrlarini eslash o'rinni "Ilmiy tadqiqot faoliyati insonga o'z-o'zini baholashga yordam beradi, ya'ni agar inson haqiqiy olim bo'lishni istasa, o'zining ehtiros va intilishlarini boshqarishi, oqilona, samarali va optimal qarorlar qabul qilishi, ezgulikka xizmat qiladigan evristik faoliyat bilan mashg'ul bo'lishi lozim. Bunday faoliyatning natijasi kashf qilish va yaratuvchanlik sifatida namoyon bo'ladi" [5. 4]

Bunday kashfiyotlarni va ijod mahsullarini yaratuvchi kishilar odatda kreativ kishilar deb aytiladi. Bundan ko'rinadiki ijodkorlik va ijod mahsuli, ilmiy amaliy kashfiyotlar va ixtirolar noan'anaviy mantiqiy tafakkur magsuli hisoblanadi. Yurtimizda fan va texnika rivoji va ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanuvchi kishilarga barcha sharoitlar yetarlicha yaratib berilgan va yaratilmoqda. Bu jarayon Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi tomonidan nazoratga olinadi. Bunga quyidagilarni misol qilish mumkin. O'zbekiston mustaqillikining dastlabki kunlaridanoq fan va texnika sohasining rivojlanishi uchun ko'plab tashkiliy-amaliy ishlar olib borildi. Jumladan: 1992-yil 18-fevralda O'zbekiston Respublikasi "Fan va texnika qo'mitasi" tuzildi. 2002-yil 20-fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilmiy tadqiqot faoliyatining tashkil to'g'risida"gi 77 qaroriga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xuzurida ilmiy texnika taraqqiyotini muvofiqlashtirish kengashi tuzildi. [6. 11] Bundan ko'rinib turibdiki yurtimizda bu sohaga alohida e'tibor qaratilgan. Zero, har qanday jamiyatning undagi qonunlar bajarilishiga asoslanadi. Tarixga



nazar tashlasak, bizning buyuk ajdodlarimiz dunyo ilim faniga asos solishgan. Ibn Sino, Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Al-Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek, Alishar Navoiy, Ahmad Farg'oniy kabilar fanning turli xil sohalarida o'ziga xos inqilob yaratishgan. Bizning ona yurtimiz ilm-fan o'choqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu buyuk ajdodlarimizning betakrorligi shundaki, ular yuksak darajada kreativ fikrlovchi, mantiqiy fikr yurituvchi kishilar bo'lishga. Hozirgi kunda ham shu kabi buyuk allomalarni yetishtirib chiqarish uchun biz ta'lim sohasini yangitdan isloh qilish yo'lini boshladik. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Birinchidan: kreativ fikirlilik hamma sohada ham ahamiyatga ega. Ayniqsa, tibbiyot xodimlari, yuristlar, iqtisodchilar, arxitektorlar, pedogoglar, faylasuflar va boshqalar.

Ikkinchidan: Barcha sohadagi yetuk kadrlarni, ta'lim sohasini rivojlantirish orqali yetishtirib chiqaramiz. Shuning uchun bu sohaga alohida e'tibor qaratish lozim.

Uchinchidan: Ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi barcha turdagi pedogoglar avvalo, kreativ fikrlovchi, ijodkor o'ziga xos uslubiga va yo'nalishiga ega bo'lishi lozim.

To'rtinchidan: Ta'limning barcha sohalarida o'ziga xos sog'lom raqobatni yaratish va u orqali taraqqiyotga erishish mumkinligini anglash lozim. Beshinchidan: Bu sohada yangilik yaratish, yaratuvchanlik va izlanishlar bo'lmasa, jamiyatning biror bir sohasida rivijlanish ko'zga tashlanmaydi. Biz dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga istar ekanmiz uning poydevori ta'lim tizimi orqali yaratilishini idrok etishimiz lozim.

Adabiyotlar:

1. Ma'naviy yuksalish yo'lida : (To'plam) To'plovchi M. Qarshiboyev – T: “Ma'naviyat”, 2008.- 144 b
2. Sh.M.Mirziyoyev.Tanqidiy taxlil, qa'tiy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T : “O'zbekiston”, 2017.- 104 b
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasiga chet el ijtimoiy -siyosiy doiralari vakillari va xorijiy ekspertlarning munasabat va fikr – mulahazalari . T.: “O'zbekiston”, 2016.-128 b
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992.- 29 b
5. N. A. Shermuhammadiyeva . Ilmiy tadqiqot metodologiyasi . T.: “Fan va texnologiya” 2014 - 466 b
6. J. M. Qurbanov, J.E. Mamarasulov Ilmiy izlanish asoslari, - Samarqand, 2013,-124 b

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада таълим жараёнида креатив фикрлашнинг аҳамияти ҳақида сўз юритилади.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается важность творческого мышления в образовательном процессе.

SUMMARY

This article discusses the importance of creative thinking in the educational process.



OLIJ TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING MUSTAQIL ISH JARAYONIDA O'QUV VA KOGNITIV KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI

Raxmanova M. U.

*O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti pedagogika fakulteti
pedagogika kafedrasida o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: kognitiv, texnologiya, vakolat, differenziatsiya, prinsip, tizimlilik, izchillik, yondashuv, kontekst.

Ключевые слова: познавательная, технология, компетенция, дифференциация, принцип, система, системность, подход, контекст.

Key words: cognitive, technology, competence, differentiation, principle, system, consistency, approach, context.

Bo'lajak pedagoglarning mustaqil ishini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashning dolzarbligi ustuvor yo'nalish bilan belgilanadi. Ushbu turdagi o'quv faoliyatini tizimli tashkil etishda amaliy faoliyat, shuningdek bo'lajak o'qituvchilarning o'quv va kognitiv foaliyat tarkibini bilishlariga bo'lgan ehtiyoji, mustaqil ishning texnologiyalari va turlari, bo'lajak o'qituvchining professional tayyorgarligini boshqa asosiy vakolatlar orasida belgilovchi o'quv va kognitiv qobiliyatini shakllantirishda uning rolini tushunishdir. Mustaqil ish bo'lajak o'qituvchilar tayyorlashni muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ishi ta'lim jarayonining asosiy shakllaridan biri bo'lib, pedagogik ta'limning asosiy tarkibiy qismidir. Shu bilan birga, mustaqil ish turi, shakllari va usullari, o'quvchilarning bo'lajak o'qituvchilarning o'quv va kognitiv kompetensiyasini shakllantirishga nisbatan mustaqil faoliyati natijalarini nazorat qilish ta'lim jarayonida murakkab komponent hisoblanadi. Bu holat asosan bizning tadqiqotimizning kontekstiga bog'liq.

Bo'lajak o'qituvchilarning o'quv va kognitiv kompetensiyasini shakllantirishda uning samaradorligini ko'rsatish uchun mustaqil ishning tarkibiy qismlari va turlarini aniqlash zarur bo'ladi. Mustaqil ishning

to‘laqonli tarkibi, mustaqil ish bo‘lajak o‘qituvchilarning ta‘lim va kognitiv kompetensiyasini samarali shakllantirishga yordam beradigan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash imkonini beradi.

Ma‘lumki, mustaqil ishini tashkil etishning auditoriya va auditoriyadan tashqari shakllariga ajratiladi.

Bizga ma‘lumki auditoriya mustaqil ishi o‘qituvchining rahbarligi va nazorati ostida har xil turdagi nazorat, ijodiy, amaliy mashg‘ulot vazifalarini bajarishga qaratilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilarning nazorat qilinadigan mustaqil ishi sub’ektlarning o‘zaro ta‘sirida amalga oshiriladi: talaba o‘qituvchidan mustaqil ish uchun topshiriqlarni bajarish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar yoki tavsiyalar oladi. Shu bilan birga, mustaqil ishlarni boshqaradigan o‘qituvchining pozitsiyasi xatolarni tuzatish jarayoniga bog‘liq bo‘ladi.

Universitetda o‘quv jarayonini amalga oshirishda (ma‘ruzalar, seminarlar va boshqalar) ta‘lim va kognitiv kompetensiyani shakllantirishda bo‘lajak o‘qituvchilarning auditoriyadagi mustaqil ishlarining vazifalari mustaqil tushunish, ko‘rish, tinglash, qayd qilish, tushunish, yodlash va “Umumiy pedagogika” o‘quv fanidan “Pedagogik mahorat” fani va “Pedagogikaning umumiy asoslari” modullari bo‘yicha taklif etilayotgan o‘quv materialini takrorlash uchun ishlatiladi. Mustaqil ish uchun topshiriqlar va loyihalash vazifalari o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Ushbu turdagi vazifalar bo‘lajak o‘qituvchilarning ta‘lim va kognitiv kompetensiyasini shakllantirishning u yoki bu bosqichida juda samarali bo‘lishi mumkin. O‘sha paytda, bizning fikrimizcha, nafaqat auditoriyadagi mustaqil ish uchun o‘quv topshirig‘ining mazmuni, balki uni amalga oshirish jarayoni ham fundamental ahamiyatga ega.

Bu ishda auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarda tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish ham nazarda tutilgan. U bo‘sh vaqt rejimida o‘qituvchining yordamisiz bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi. O‘quv-kognitiv kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan auditoriyadan tashqari mustaqil ishlar ma‘ruza davomida olingan nazariy materialni tahlil qilish, ma‘ruzalar tayyorlash, tadqiqot, ijodiy vazifalarni bajarish va hokazolarga qaratilgan bir qator o‘quv vazifalarini nazarda tutishi mumkin.

Mustaqil ish turlariga kelsak, ular juda xilma-xil ekanligini aytish kerak. Bu xilma-xillik mustaqil ish turlarini tasniflashga yondashuvlar turli parametrlarga asoslanganligi bilan izohlanadi.

Umumiy pedagogika fanida mustaqil ishlarni tasniflash asoslaridan biri didaktik maqsaddir. Mustaqil ish sifatida bunday ta‘lim faoliyati universitetda o‘quv jarayonini tashkil etish jarayonida asosiy omillardan biri bo‘lib, bizning



tadqiqotimizda yangi bilimlarni olish uchun maqsadli, tizimli faoliyat bo'lib, auditoriyada va audatoriya tashqarida amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, alohida ta'kidlash joizki, bo'lajak o'qituvchilarning audatoriya tashqari mustaqil ishlari uchun o'quv vazifalari mazmunini ishlab chiqish va amalga oshirish, birinchi navbatda, kognitiv tajribani oshirishga qaratilgan bo'lib, u faqat ma'lumot hajmini oshirish bilan cheklanib qolmasdan, balki shaxsiy va professional o'z-o'zini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shadi.

Shu munosabat bilan biz o'quv vazifalarining mustaqil ish jarayonida uch yo'nalishga ajratamiz: o'zgarmas, o'zgaruvchan, maqsadli.

Ularning strukturaviy va mazmuni didaktik olimlarning nazariy yondashuvlari bilan belgilangan. Boshqa tomondan, ta'lim vazifasi ta'lim mazmunini amalga oshirish shaklidir. Shu nuqtai nazardan, ta'lim vazifasi ma'lum bir shaklda ishlangan, assimilyatsiya qilinadigan ta'lim mazmuni (o'quv materiallari) qismidir. O'quv materiallari bilan jihozlanishi mumkin bo'lgan shakllar ta'lim topshiriqlarining turlari hisoblanadi. O'quv materiallari bilan jihozlanishi mumkin bo'lgan shakllar ta'lim topshiriqlarining turlari hisoblanadi.

Tadqiqotimizdan shu ma'lumki talabalar o'rganish vazifasi deb hisoblaydigan «tomonlarni» ajratish faqat sun'iy ravishda mumkin. Haqiqiy ta'lim jarayonida o'quv vazifasi bir vaqtning o'zida ikkala funksiyani ham bajaradi: talabalarga o'quv topshirig'ini bajarishni taklif qilish orqali o'qituvchi nafaqat o'rganishning ma'lum bir maqsadini amalga oshiradi, balki o'quvchiga ular o'rganishi kerak bo'lgan o'quv materialini taklif qiladi. O'quv vazifasi o'quv jarayonida o'quv materialidan samarali foydalanish vositasi ekanligini ham alohida ta'kidlaymiz. Bizning tadqiqotimizda didaktik maqsadlarga qarab ma'lum o'quv vazifalari (o'zgarmas, o'zgaruvchan, maqsadli) qo'llaniladi.

O'zgarmas ta'lim vazifalari - bu darajadagi vazifalar mustaqil ishni bajarish jarayonida dars mavzusini o'rganish uchun standart talablar bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni ta'minlaydi. Invariant topshiriqlar o'quvchilarga ularning ma'lum bir fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini hisobga olgan holda taqdim etiladi.

O'zgaruvchan o'quv vazifalari - bu bo'lajak o'qituvchilarga mustaqil ish bajarish jarayonida vazifalarning mohiyatini, harakat darajasi va usulini, qiziqish mavzusini tanlash huquqini beradigan va muammoni optimal hal qilish variantlarini topishga qaratilgan vazifalardir. Ushbu turdagi vazifalarning ahamiyati shundaki, ular bo'lajak o'qituvchilarga o'qituvchi yaratgan vaziyatlarda erkin, mustaqil va ijodiy harakat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan potentsial imkoniyatlarini tekshirish va amalga oshirish imkonini beradi.

Maqsadli topshiriqlar-bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ish jarayonida individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan fan yo'nalishi kursining aniq mavzusi bo'yicha topshiriqlar va vazifalarni yechimini topish bilan belgilanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarga o'quv topshirig'ini bajarishni taklif qilib, o'qituvchi qanday faoliyat turlari uni amalga oshirishga olib kelishini taxmin qiladi. Shunday qilib, ta'lim vazifasi o'quv va kognitiv faoliyatni shakllantirish vositasi sifatida ishlaydi.

Bu vazifalarni bajarishni biz tadqiqotimizda quyidagicha ifodalaymiz.

Birinchi faoliyat-o'quv topshirig'ini tahlil qilish (o'qituvchidan mustaqil ishlash uchun o'quv topshirig'ini olgan holda, talabalar topshiriq matni bilan dastlabki tanishishadi va uni tahlil qilishni boshlaydilar: ular tarkibiy qismlarga vazifani ajratib, ularni tushunishadi);

Ikkinchi faoliyat –mustaqil ishda o'quv topshirig'ini bajarish usulini izlashdir (topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni talabalarning shaxsiyati bilan taqqoslash);

Uchinchi faoliyat –mustaqil ish jarayonida bu vazifani bajarish (talabalar mavjud bilim darajasi, ko'nikma va malakalar o'rtasidagi ziddiyatni va ushbu vazifani hal qilish uchun zarur darajani shakllantiradi). Belgilangan munosabatlar turi muayyan tasavvurlar shaklida ko'rinadigan ta'lim vazifasini bajarish usulini, yaqinlashib kelayotgan mustaqil faoliyat modelini belgilaydi;

To'rtinchi faoliyat –mustaqil ish jarayonida bajarilgan topshiriqni tekshirish (bu bosqichda talabalarni topshiriqni bajarish jarayonidan olib tashlash, unga «tashqi tomondan» qarash, natijada mustaqil ish uchun o'quv topshirig'ini bajarish usuli sxematik tarzda namoyon bo'lishi bilan belgilanadi).

Beshinchi faoliyat –mustaqil ishlash vazifasini o'rganish (bu bosqichda maqsad va shart-sharoitlarni aniqlashtirish va batafsillashtirish, ular o'rtasida tizimli va mantiqiy aloqalarni o'rnatish va ushbu muammoni hal qilish usuli asosida qurishni taqozo etadi).

Oltinchi faoliyat –mustaqil ish jarayonida bajarilgan topshiriqning natijasini shakllantirish (taqdim etilgan harakatlar ketma-ketligini bajarish talabalarni muayyan natijaga olib keladi, uning mazmuni nafaqat to'g'ri javob emas, balki mustaqil ish uchun topshiriqni bajarishda talabalarga tayinlangan shaxsiy ta'lim mahsuloti ham ekanligini anglatadi).

Yettinchi faoliyat –mustaqil ishda ijro jarayonini tahlil qilish (bu bosqichda ta'lim vazifasi nafaqat ta'lim mazmunini amalga oshirish shaklidir, balki ta'lim jarayonida o'quv mustaqil faoliyatining shakllanishini ta'minlaydigan jarayon hisoblanadi).



Ushbu yetti bosqichdan beshtasi majburiydir va har qanday o'quv topshirig'ini bajarish jarayonida mavjud bo'ladi. Qolgan ikki bosqich (o'quv topshirig'ini amalga oshirishni tadqiq qilish va tahlil qilish) ixtiyoriy bo'lib, ko'p vazifalarni bajarish jarayonida bu amalga oshmaydi.

Maqsadli tashkil etilgan mustaqil ish bo'lajak o'qituvchilarning o'zaro bog'liq qadriyatlar va motivlar, nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar yig'indisida mujassamlangan o'quv va kognitiv kompetensiyasini yetarli darajada shakllantirish uchun asosiy talabni amalga oshirishni nazarda tutadi, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan o'quv va kognitiv faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan «Umumiy pedagogika», «Pedagogikaning umumiy asoslari» "Pedagogik mahorat" kabi modullarni uzlashtirishda xizmat qiladi.

Taqdim etilgan mustaqil ishni tashkil etish asosiy omil deb hisoblaymiz, chunki bosqichma-bosqich mustaqil faoliyat bo'lajak o'qituvchilarning o'quv va kognitiv kompetensiyasini shakllantirishda eng yuqori natijalarga erishadi. Shu bilan birga, bunday ishlar tizimli va doimiy bo'lishi nazarda tutiladi.

Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchilarning o'quv-kognitiv kompetensiyasini shakllantirishda mustaqil ishning xususiyatlarini ko'rib chiqib, biz quyidagi xulosalarga kelamiz.

Ushbu blokda qayd etilgan asosiy vazifalar bo'lajak o'qituvchilarning o'quv-ma'rifiy faoliyatini optimallashtirishga yordam beradigan shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish bilan bog'liq;

- bo'lajak o'qituvchilar tomonidan «Umumiy pedagogika» fani modullarini o'rganishda nazariy bilim va amaliy usullarni shakllantirish jarayonida;
- «Umumiy pedagogika» fanining mustaqil ish jarayonida o'quv-ma'rifiy vazifalarni loyihalashtirish, shakllantirish va hal qilish qobiliyatini ustirishda;
- Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy faoliyati va pedagogik aks etishi tajribasini oshirish maqsadida.

Bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim va kognitiv kompetensiyasining mohiyati va tuzilishi haqidagi zamonaviy g'oyalar bir qator yondashuvlar (tizimli, kompetensiyaga asoslangan, faoliyatga asoslangan, shaxsga yo'naltirilgan), prinsiplar (tizimlilik, izchillik, differentsiatsiya va individuallashtirish) va uslubiy blokning tarkibiy qismlari bo'lgan tushunchalar (talabalarning bilish faoliyati va mustaqilligi, oliy ta'limda o'quv jarayonini tashkil etish) kabi mulohazalar orqali ifodalanadi.

Tizimli yondashuvning asosiy mazmuni bir-biri bilan bog'liq bo'lgan tarkibiy qismlarning xususiyatlari bo'lib, bu bizga tizimning mavjudligi haqida

gapirishga imkon beradi. Shu bilan birga, tizim har qanday ob'ektni va uning tizimini qamrab olgan katta elementni tushunadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning o'quv va kognitiv kompetensiyasini shakllantirishda tizimli yondashuvning mohiyati shundan iboratki, bo'lajak o'qituvchilarning o'quv va kognitiv kompetensiyasining nisbatan mustaqil tarkibiy qismlari boshqalar bilan o'zaro bog'liq bo'lib, har qanday ob'ekt ham tizim sifatida ko'rib chiqiladi, uni qamrab olgan kattaroq tizimning elementi sifatida ifodalanadi.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv masalasi bo'yicha tadqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, hozirgi vaqtda u kasbiy ta'lim sifatini oshirishning markaziy vektorlaridan biri, uni modernizatsiya qilishning fundamental metodologiyasi va amaliyotga yo'naltirilgan yo'l sifatida qaralmoqda, ta'lim va tarbiyada faoliyat tamoyilini amalga oshirishda xizmat qilishi ko'rsatiladi.

Ushbu yondashuv faollik va shaxsiy jihatlar bilan ajralib turadi, u pedagogik xodimlarning o'zaro munosabatlarida tajribaning rolini, bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyatini dolzarblashtiradi va yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni hal qilishning asosiy qobiliyatini ruyobga chiqishini ko'rsatadi.

Bizning tadqiqotimizda faollik yondashuvidan foydalanish uchun yo'naltirilgan bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish, kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan malakalarni egallashda ifodalangan muayyan natijalarga erishish kabi faoliyat turlarini ko'rsatadi. Faoliyat yondashuvi bo'lajak o'qituvchilarning individual xususiyatlaridan, shuningdek, faoliyatning har xil turlari va shakllarining ma'nolaridan foydalanishga, ma'lum darajadagi malakalarga erishishga imkon beradi. Shuningdek, ushbu yondashuvni qo'llashda har bir bo'lajak o'qituvchining, shu jumladan iqtidorli va nogiron talabalarning individual ta'lim traektoriyasi va shaxsiy rivojlanishidan foydalanish ko'zda tutilgan. bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ish jarayonida o'quv va kognitiv kompetensiyasini shakllantirishni tartibga soluvchi tamoyillarning xususiyatlariga to'xtalamiz. Biz asosiy g'oyalarni ishlab chiqamiz va tushunamiz, ularga rioya qilish pedagogik maqsadlarga eng yaxshi tarzda erishishga yordam beradi. Mustaqil ish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy-kognitiv kompetensiyasini shakllantirishda tizimlilik, izchillik, farqlash va individuallashtirish tamoyillarini hisobga olish muhim, deb hisoblaymiz.

Bizning tadqiqotimizda tizimlilik va izchillik tamoyili bo'lajak o'qituvchilar uchun muhim bo'lgan avvaldan olingan bilim, ko'nikma, malaka, kasbiy fazilatlarini mustahkamlash, ularni tizimli rivojlantirish, takomillashtirish va shu asosda yangi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan.



Ushbu tamoyil o'quv va kognitiv kompetensiyani ma'lum bir tartibda rivojlantirishni, o'quv materialini tanlash, uni o'zlashtirish jarayoni, bo'lajak o'qituvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish, kasbiy faoliyat usullari, munosabatni shakllantirish bilan bog'liq qat'iy tizimni o'z ichiga oladi.

Differenziatsiya tamoyili nafaqat o'quvchilarning o'quv faoliyati natijalariga ko'ra reytingini, balki o'rganishga individual yondashuvni ham nazarda tutadi. Ushbu ishda turli xil turdagi o'quv vazifalari (o'zgarmas, o'zgaruvchan, maqsadli) ishlatilganligi sababli, bu tamoyil juda mos keladi.

Tizimlilik va izchillik, differensiallik tamoyili bilan bir qatorda o'quvchilar bilan o'zaro munosabat jarayonida individuallashtirish tamoyilidan foydalanishni muhim deb hisoblaymiz. Bu tamoyil talabalarning individual xususiyatlarini rivojlantirish jarayonida ko'rib chiqiladi.

Maqsadli va uslubiy ishlar bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ish jarayonida o'quv va kognitiv kompetensiyasini shakllantirish modelining mazmun-protsessual ishlarini yaratishni belgilaydi. Ushbu ishlar bizning tadqiqotimizning asosiy tushunchalarining mazmunini aks ettiradi: bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim va kognitiv kompetensiyasini, bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ishini o'z ichiga oladi. Mustaqil ishlarni tashkil etishning asosiy shakllari sifatida auditoriyada va auditoriyadan tashqari ishlardan foydalanilgan. Mustaqil ishlarni ko'rib chiqish jarayonida tadqiqot ishimizda uni tashkil etish texnologiyasi taqdim etildi.

Bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ishini tashkil etish uchun asos-bu o'quv vazifalaridir.

Didaktikada ta'lim vazifasi o'rganish darajasini oshiradigan boshqaruv, rag'batlantirish, tashkil etish va nazorat qilish vositasi o'quv vazifalari sifatida qaraladi. Uning mazmuni - o'qituvchining bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim faoliyatiga qo'yadigan talabi va taqdimot shakli - ilgari o'rganilgan material bo'yicha xulosa chiqarishni o'z ichiga olgan savollar; uning tarkibidagi o'quv vazifasi o'quv jarayonining juda muhim qismi bo'lib, uni tashkil etishning muhim shakllaridan biri hisoblanadi.

Mustaqil ish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning o'quv va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish modelini yaratish uchun mezonishlari katta ahamiyatga ega.

Ushbu jarayonni ishlab chiqish doirasida mustaqil ish jarayonida bo'lajak pedagoglarning o'quv va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan kriterologik-dagnostika materiallarini tanlash amalga oshirildi. Tanlangan komponentlarga asoslanib, mustaqil ish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning o'quv va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish

ko'rsatkichlari (motivatsion, kognitiv, faoliyat, refleksiv va baholash) asosiy mezonlar taqdim etildi, bo'lajak o'qituvchilarning o'quv va kognitiv salohiyatining tarkibiy qismlarining xarakterli xususiyatlarini, shuningdek, mustaqil ish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning o'quv va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish darajasini (yuqori, o'rta, past) ko'rsatadigan belgilar sifatida xizmat qilishini ko'ratib o'tdik. To'g'ridan-to'g'ri o'zaro bog'liqlikda bo'lgan ko'rsatkichlar va mezonlar mustaqil ish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning o'quv va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish darajasini aks ettiradi va eksperimental ishning yo'naltirilgan segmentini belgilaydi.

Tanlangan mezonlarni hisobga olgan holda, mustaqil ish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning o'quv va kognitiv qobiliyatini shakllantirish darajasini ko'rib chiqamiz.

Mezonlarning namoyon bo'lish darajasiga qarab, mustaqil ish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning o'quv va kognitiv qobiliyatini shakllantirishning uchta darajasi farqlanadi:

- yuqori daraja - motivatsion, kognitiv, faollik, reflektiv mezonlar bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ish jarayonida o'quv va kognitiv kompetensiyasining yetarli darajada shakllanishi, shuningdek mustaqillikning namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi kasbiy muammolarni hal qilishda asosiy urinni egallaydi;
- o'rta daraja - motivatsion, kognitiv, faollik, reflektiv mezonlar qisman shakllangan, bu o'qituvchilarning tashqi yordamga muhtojligini ko'rsatadi;
- past darajadagi - motivatsion, kognitiv, faollik, reflektiv mezonlar to'liq shakllanmagan va bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim va kognitiv kompetensiyasini shakllantirish uchun yetarli bo'lmaydi.

Shunday qilib, taqdim etilgan parametrlarning har biri o'z rivojlanish darajasiga ega bo'lib, birgalikda o'quv va bilim qobiliyatining integral ko'rsatkichini belgilaydi.

Xulosa qilganimizda bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ishi deganda, biz o'qituvchining bevosita yoki bilvosita rahbarligi ostida ma'lum bir o'quv intizomi doirasida amalga oshiriladigan tizimli, rejalashtirilgan va nazorat qilinadigan faoliyatni tushunamiz, bu jarayon davomida bo'lajak o'qituvchilar zarur bo'lgan qiymat, bilim, operatsion-texnologik va aloqadorlik tajribasini oladilar. Mustaqil ishning maqsadi nafaqat uni maqsadga erishish vositasi sifatida tushunish, balki olingan bilimlarning qadr-qimmatini anglash, o'quv va kognitiv faoliyatda foydalanishni oldindan bilish, mustaqil ravishda mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyatini rivojlantirishdir.

**Adabiyotlar:**

1. Abdurahmonova Z.A. Zamonaviy o'qituvchining shaxsiy kompetensiyasini shakllantirish muammolari // Zamonaviy ta'lim j. – T.: 2016. – №5. – 56 b.
2. Djuraev R.X., Maxmudov A.X. Oliy innovatsion ta'lim tizimida mutaxassislarni kompetentli tayyorlash. – Toshkent, 2013.
3. Urakov Sh.R. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning kompetent yondashuvga asoslangan pedagogik tizimini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. – Samarqand, 2018.
4. Уевсеева Ю.А. Результаты опытно-экспериментального исследования формирования учебно-познавательной компетенции бакалавров педагогического образования в процессе самостоятельной работы. Москва, 2009.

РЕЗЮМЕ

Ushbu mavzuning asosida, mustaqil ish g'oyasini bo'lajak o'qituvchilarning o'quv va kognitiv kompetensiyasini shakllantirishning samarali vositasi sifatida himoya qiladi: mustaqil ishning tarkibiy qismlari va shakllari ko'rib chiqiladi; bo'lajak o'qituvchilar tomonidan modullarni o'rganish jarayonida mustaqil ishlarni tashkil etish masalasi oshkor etiladi.

РЕЗЮМЕ

Qisqa muddatli (proksimal), o'ziga xos va o'rta darajada qiyin bo'lgan maqsadlarni qo'yish uzoq muddatli (distal), umumiy va o'ta qiyin maqsadlarni belgilashdan ko'ra ko'proq motivatsiyani oshiradi. Bu tamoyil talabalarning o'z-o'zini samaradorligini oshirish va katta maqsadlar sari qisqa muddatli (proksimal), o'ziga xos va o'rta darajada qiyin maqsadlardan qanday foydalanishi mumkinligini anglatadi. Talabalar o'z maqsadlariga erishganliklarini qayd etishlari kerak, bu esa talaba va o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi.

Talabalar o'рта darajada qiyin bo'lgan proksimal maqsadlarda muvaffaqiyatga erishgandan so'ng, ular oraliq tavakkalchilarga aylanish ehtimoli ko'proq bo'ladi, bu muvaffaqiyatga yo'naltirilgan shaxslarda mavjud bo'lgan eng muhim xususiyatlardan biridir. Natijada, ular kattaroq distal maqsadlarga erishishga qodir bo'ladi.

13. Ijtimoiy kontekstlar

Bu tamoyilda talabalarning turli jamoalarga mansubligi (masalan, oilalar, tengdoshlar guruhlari, ta'lim muassasalar, mahallalar) va ularning madaniyati (masalan, umumiy til, e'tiqod, qadriyatlar va xulq-atvor normalari) o'rganishga qanday ta'sir qilishiga urg'u beradi. Ushbu tamoyil ijtimoiy psixologiyaning ko'plab tushunchalari (masalan, me'yorlar, atributlar nazariyasi, individualistik va kollektivistik madaniyatlar) bilan bog'liq bo'lib, talabalarning faolligini oshirish va mustahkam munosabatlarni o'rnatish uchun har bir bo'limga madaniyatni kiritish bo'yicha takliflarni beradi.

14. Shaxslararo munosabatlar

Bu tamoyil auditoriyada ham o'qituvchi-talaba, ham talaba-tengdosh munosabatlarini yaxshilash bo'yicha batafsil va aniq ko'rsatmalar beradi.

15. Farovonlik

O'z-o'zini anglash va o'z-o'zini hurmat qilish (ijtimoiy psixologiya), o'z-o'zini samaradorligi va nazorat qilish o'chog'i (motivatsiya va shaxsiyat) va baxt va yengish qobiliyatlari (hissiyot va stress).

16. Auditoriyada yurish-turish

Auditoriyadagi xulq-atvor va ijtimoiy o'zaro ta'sirga bo'lgan holatlar o'rganiladi va o'rgatishning tasdiqlangan tamoyillari va samarali auditoriya o'qitish usullaridan foydalanish mumkin. Talabalarning noto'g'ri xatti-harakatlarini to'g'rilash va auditoriyada hamda ta'lim tizimi miqyosida xatti-harakatlarni o'rnatish uchun ko'plab tadqiqotga asoslangan g'oyalarni taqdim etish.

17. Kutishlar va qo'llab-quvvatlash

Auditoriyani samarali boshqarish quyidagilarga asoslanadi:

- a) yuqori talablarni belgilash va bildirish;
- b) doimiy ijobiy munosabatlarni rivojlantirish;
- c) talabalarni yuqori darajada qo'llab-quvvatlash.

Ushbu tamoyil auditoriyada ham, ta'lim muassasasida ham yuqori o'quv yutuqlarini va auditoriyada ijobiy xulq-atvorni yaratishning amaliy usullarini ta'kidlaydi.

Baholash: Talabalarning muvaffaqiyati qanday baholanadi?



Talabalarni baholash jarayoniga bag'ishlangan uchta tamoyil talabalarning bilim olishiga hissa qo'shadigan haqiqiy va adolatli baholashlarni yaratish va amalga oshirish usullarini taklif qiladi.

18. Formativ va summativ baholash

Formativ va summativ baholash ham muhim, ham foydalidir, lekin ular turlicha yondashuv va talqinlarni talab qiladi. Formativ baholash odatda kundalik amaliyotning bir qismi sifatida qo'llaniladi va o'qitishdan oldin yoki davomida beriladi. Bunday vositalar samarali yo'l-yo'riq ko'rsatish uchun talabalarning o'rganish jarayoniga oid dalillarni to'plash uchun mo'ljallangan. Boshqa tomondan, yig'indili baholash talabalarning o'rganishi yoki dastur samaradorligini umumiy baholashga olib keladi va odatda bo'lim yoki kurs oxirida qo'llaniladi, shuning uchun joriy ta'limga ko'proq ta'sir qiladi. Darhol va aniq ko'rsatmalar bilan birga shakllantiruvchi baholashdan tez-tez foydalanish talabalarga o'quv maqsadlariga erishishga va o'z o'quv jarayoni uchun katta mas'uliyatni o'z zimmlariga olishga yordam beradi. Formativ baholash orqali to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish o'qituvchiga o'qitishni farqlash va tegishli individual yordam ko'rsatish imkonini beradi.

19. Baholashni rivojlantirish

Talabalarning malakasi, bilimi va qobiliyati eng yaxshi sifat xamda adolat uchun aniq belgilangan standartlarga ega psixologik fanga asoslangan baholash jarayonlari bilan o'lchanadi. Formativ va summativ baholashlar ishonchlilik va asoslilik nuqtayi nazaridan baholanishi kerak. O'qituvchilarga to'rtta muhim savolni taqdim etadi, ulardan talabalar o'rganishini baholash uchun muayyan baholashning umumiy asoslilikini baholash uchun foydalanish mumkin va ishonchlilikni o'lchash bo'yicha maslahatlar. O'qituvchilar shakllantiruvchi va summativ baholashlarni o'rganish maqsadlariga moslashtirish, obyektlar tahlilidan foydalanish, natijalarni boshqa o'qituvchilar bilan muhokama qilish va talabalarning guruhleri yoki kichik guruhleri bo'yicha kelishmovchiliklar natijalarini kuzatish orqali ularning ishonchliligi va asoslilikini oshirishi mumkin. Aql-idrok va individual farqlar bo'limi davomida talabalarga ular topshirayotgan imtihonlarning mazmunan to'g'riligini qanday baholash mumkinligini ko'rsatish orqali baholashlar o'quv maqsadlarining rejalashtirilishi bilan qanday mos kelishini ko'rsatish foydali bo'lishi mumkin. Oliy ta'lim muassasasi psixologiya o'quv dasturlari uchun milliy standartlar o'quv dasturi maqsadlariga kiritilishi kerak.

20. Baholashni baholash

Baholash ma'lumotlarini tushunish aniq, to'g'ri va adolatli talqinga bog'liq. Samarali o'qitish o'qituvchilardan test natijalarini to'g'ri talqin qilish va



natijalarni talabalar xamda ota-onalarga aniq yetkazishni talab qiladi. Talabalar test va statistika haqida bilib olganlaridan auditoriyada berilgan turli baholarni ishonchliligi va asoslilikini baholash uchun foydalanishlari mumkin. Talabalar o'z baholarini tekshirganda tavsiflovchi statistikani muhokama qilish yanada mazmunli bo'ladi.

Albatta, eng yaxshi yuqorida keltirilgan tamoyillar ko'plab tadqiqotga asoslangan ta'lim amaliyotlari tahlil asosida keltirildi. Garchi bu pedagogik-psixologik tadqiqotlarning to'liq ro'yxati bo'lmasa-da, u o'qitish va ta'lim natijalarini yaxshilash uchun muhim boshlang'ich xulosani beradi. Ushbu tamoyillar o'qituvchi va talabalarning o'quv jarayonida amaliyotni to'g'ri tashkil qilish uchun foydalidir, ammo amaliyotda haqiqiy muammolarni hal qilishda qanday foydalanish mumkinligiga misol sifatida kiritilishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu tamoyillar talabalarning barcha darslarida samaraliroq o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Dunne coat of arms, family crest and Dunne family history». Irishsurnames.com. Archived from the original on 16 February 2012. Retrieved 31 December 2008.
2. Мамаатов Д.Н. Электрон ахборот таълим мухитида касбий таълим жараёнларини педагогик лойиҳалаштириш, Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, 2017 й., 52 бет
3. Chryssolouris G. and D. Mavrikios. (2006). Education for Next Generation Manufacturing. Working Paper, IMS Vision Forum, Seoul 12-13 April 2006. 2. MANUFUTURE Expert Group. (2003). Working Document for the MANUFUTURE 2003 Conference.
4. Cowen, E. L. The enhancement of physiological wellness: challenges and opportunities/ E. L. Cowen // Amer. J. Community Psychol. 1994. –Vol. 22, №5. –P.282-293.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida o'qiyotgan talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorlashning ayrim masalalari va bu borada amalga oshiriladigan ishlar haqida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о некоторых вопросах профессиональной подготовки студентов, обучающихся в системе высшего образования, и о работе, которую предстоит провести в этом направлении.

SUMMARY

This article talks about some issues of professional preparation of students studying in the higher education system and the work to be done in this regard.



IJTIMOIIY TARMOQDAGI TUZOQLARNING YOSHLAR ONGI VA MA'NAVIYATIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI

Adilova M.

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: ijtimoiy tarmoq, tarmoq tarkibi, onlayn platforma, aloqa tartibi, ijtimoiy munosabat, virtual qaramlik, psixologik muammolar.

Ключевые слова: социальные сети, сетевой контент, онлайн-платформа, контактный порядок, социальная установка, виртуальная зависимость, психологические проблемы.

Key words: social networking, network content, online platform, contact order, social attitude, virtual dependence, psychological problems.

Kirish. Ushbu maqolada bugungi kun ijtimoiy tarmoqlari, ularning yoshlar ongiga psixologik ta'sir o'tkazishi, global ijtimoiy tarmoq muammolari va ularning yechimlari, internet tarmoqlaridan foydalanish qoidalari haqida so'z boradi.

Bugungi kunga kelib, internet tizimining ijtimoiy tarmog'ida ma'naviy, axloqiy tubanlikni "targ'ib" etuvchi sahifalarning soni bir nech yuz milliondan oshayotganligi insoniyatni yanada tashvishlantiradi. Bu haqda Chingiz Aytmatov shunday yozadi: "Tuya terisini odamning taqir boshiga kiydirish shart emas. Endi sodir bo,,ladigan urushlar jang maydonida emas, balki mafkura poligonida yuz beradi. Shu jihatdan qaraganda, yoshlarning ko,,p vaqtini internetda behuda sarflashi katta fojiaadir" [1]. Chunki, Globallashuv jarayonida mafkuraviy ta'sir o,,tkazish ko,,lamini haddan ziyod kengaytirib, beqiyos darajada tezlatib yuborganida ham ko,,rinadi. Inson o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o,,tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog,,lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo,,lmasa, har turli ma'naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko,,rinishdagi ta'siriga bardosh berishi amrimahol.

Avvalo butunjaxon internrt tarmog'i, ijtimoiy tarmoq haqida gap ketar ekan, mamlakatimiz birinchi prezidentining quyidagi so'zlari yodga tushadi: "Albatta internet orqali dunyoning istalgan nuqtasi bilan tezkor aloqa o'rnatish, zudlik bilan zarur axborot va ma'lumotlarni olish, bilim va ma'rifatni oshirishda uning beqiyos o'rni va ahamiyati borligini hech kim inkor eta olmaydi.

Biz odamlarimizning internet tarmoq imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanishga bo'lgan intilishlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlaymiz. Takror bo'lsada aytmoqchiman – axborot olamida qandaydir devor o'rnatish, o'z qobig'iga o'ralib, mahdudlikka yuz tutish yo'li bizga aslo ma'qul emas...” degan edi O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov.

Ma'lumki, ijtimoiy tarmoq deganda avvalo ko'z oldimizda qiziqishlari o'xshash bo'lgan odamlar o'rtasida muloqot qilish, tanishish, ijtimoiy munosabatlar yaratish uchun, shuningdek, ko'ngilochar va ish maqsadlarida ishlatiladigan onlayn platforma gavdalanadi. Bugungi kunda biz internet va ijtimoiy tarmoqlarisiz hayotimizni tasavvur qilishimiz qiyin. Ular allaqachon hayot faoliyatimizning bir qismiga aylanib ulgurdi va har qanday sohada internet tarmog'iga tayanilmoqda. Albatta bu insoniyatga qo'l keladi va har bir sohaning ish unumdorligini, samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek tarmoqlar foydalanish maqsadiga ko'ra bir necha guruhlariga bo'linadi: a) Gorizontal ijtimoiy tarmoqlar - ular biron bir aniq foydalanuvchi turi uchun yaratilmagan, aksincha, ularda har qanday shaxslar o'zaro ta'sir o'tkazadilar. O'z jamoalarini yaratadilar. b)Vertikal ijtimoiy tarmoqlar - ular ma'lum bir auditoriyaga murojaat qiladiganlardir. Ular ixtisoslashgan ijtimoiy tarmoqar sifatida tanilgan. c)Professional ijtimoiy tarmoqlar - ular vertikal ijtimoiy tarmoqning bir turi bo'lib, biror ish maqsadi bilan o'zaro aloqada bo'lgan mutaxassislar, turli sohalardagi kompaniyalar yoki ishchilar uchun qo'l keladi. d)Bo'sh vaqtni o'tkazishga qaratilgan ijtimoiy tarmoqlar - ushbu turdagi ijtimoiy tarmoqning mavzusi har xil sport, musiqa, video o'yinlar va hokazolar o'rin egallaydi. e) Aralash vertikal ijtimoiy tarmoqlar - ular professional va bo'sh vaqt mavzularini birlashtiradi, shuning uchun ular rasmiyroq tusga ega. f) Universitet ijtimoiy tarmoqlari - ular universitet jamoatchiligi uchun mo'ljallangan. Unda talabalar bir vaqtning o'zida suhbatlashishlari, tanishishlari va eslatmalarni yuklab olishlari mumkin. g) Ijtimoiy yangiliklar - ba'zi bir ijtimoiy tarmoqlar odamlarga bir nechta yangiliklar yoki tashqi maqolalarga havolalar joylashtirishga imkon beradi va ushbu foydalanuvchi maqolasiga “ovoz berish” imkoniyatini paydo qiladi. Eng ko'p ovoz olgan ishlar eng ko'zga ko'ringan ish hisoblanadi. Bu orqali internet tarmog'ida qaysi yangiliklarni odamlar ko'proq ko'rishini hal qiladi. h) Blog yuritish - bloglar bu shaxsiy saytdan fikrlar, hikoyalar, maqolalar, va boshqa veb-saytlarga havolalar yozilgan ijtimoiy media. Bloglar o'zaro ta'sirlashadigan muhit yaratishga imkon beradi, bu yerda umumiy manfaatlarga ega shaxslar aloqa o'rnatadilar. i)Mikrobloglar - Ushbu ijtimoiy tarmoqlar o'zaro ta'sir o'tkazishga imkon beradigan va shaxslarning o'zaro aloqalarini ta'minlaydigan juda qisqa yozuvlar



yoki yangilanishlarning nashr etilishi bilan ajralib turadi. Foydalanuvchilar boshqa foydalanuvchilarning tarkibiga obuna bo'lishlari, to'g'ridan-to'g'ri xabarlarini yuborish va ommaviy ravishda javob berishlari mumkin. j) Umumiy tarkib - bular video, rasm yoki turli xil tarkibga ega bo'lgan medialarni yuklab olishga ruxsat beruvchi ijtimoiy tarmoqlar. Bular ko'pgina xizmat profillari, sharxlar va boshqa qo'shimcha ijtimoiy funksiyalarga ega bo'ladi.

Bundan yigirma yil oldin chegarasiz internet tarmog'i paydo bo'ladi deb o'ylash qiyin edi. Misli ko'rilmagan jarayon sifatida ommaviy-global tarmoqlarning foydalanuvchilari kundan-kun o'sib bormoqda. Dunyoning qaysi chekkasini misol qilib olmaylik ijtimoiy tarmoqning nima ekanligini bilmaydigan va uni tushunmaydigan insonlarni topish juda mushkul. Bu o'z-o'zidan insoniyatda internetga qaramlikni shakllantirib bormoqda. Internetga qaramlik bilan bir qatorda, individual qobiliyatlarning rivojlanishi va o'sishiga bevosita ta'sir qilmasdan qolmaydi. Buni oqibatida insonlarda psixologik agressivlik, stress, depressiya, diqqat yetishmovchiligi, xotira susayishi hollari avj olib bormoqda. Albatta ushbu psixologik muammolar internet yaratilgan dastlabki davrlarda e'tiborga olinmagan, balki uning faqat insonlar hayotini yengillashtirishga qaratilgan jihatlari ko'zda tutilgan ammo tan olishimiz joiz ijtimoiy hayotimizda internet orqali bir qancha yengilliklar mavjud. Buni hayotimizning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, axloqiy, tarbiyaviy jabhalarida, tashkilotlar, rahbar, shaxslar misolida ko'rish mumkin. Demak yuqoridagi fikrlar shuni ko'rsatib turibdiki, surunkali ravishda ijtimoiy tarmoqlardan filtrlanmagan ma'lumotlarni qabul qilish o'smirlarda agressivlikni yuzaga keltiradi.

Shu o'rinda bir qancha olimlarning shaxsdagi agressivlik to'g'risidagi ilmiy qarashlarini aytib o'tish joiz. Jumladan, L.I.Zaxarovning fikricha, o'smirlarning tajovuzkor xatti-harakati tengdoshlari, oilasi va ommaviy axborot vositalarining ta'siri bilan belgilanadi. Tajovuzning barcha asosiy nazariy tushunchalarini ko'rib chiqib, biz ushbu hodisaning quyidagi umumlashtiruvchi ta'rif bilan qabul qilishimiz mumkin. Agressiya - barcha tirik mavjudotni haqorat qilish yoki unga zarar etkazishga qaratilgan xatti-harakatlarning har qanday ko'rinishi. Bu ta'rif tajovuzning his-tuyg'u yoki motiv emas, balki xatti-harakatlar modeli ekanligini ta'kidlaydi. [2, 6.239]. Bizning shaxsiy tajribamiz, boshqalar muvaffaqiyatini kuzatishimiz hamda shunga o'xshash jarayonlarda ham agressiya ma'lum foyda keltirishini isbotlaydi. Agressiv tajriba tufayli paydo bo'lgan emotsional hayajon ham agressiyaga sabab bo'ladi. Salbiy ko'rinishdagi hayajonning natijasi ham ko'p hollarda agressiya bilan yakunlanadi, bu esa bizning shunga o'xshash vaziyatlar qanday oqibatlarga olib kelishini o'rganganligimizga

bog'liq.[3, 6.18]. Agressiya ko'pincha g'azab kabi salbiy his-tuyg'ular bilan bog'liq bo'lsada motiv bilan zarar etkazish yoki xafa qilish istagidir. Albatta, bu omillar tajovuzkor xatti-harakatlarga juda katta ta'sir ko'rsatadi, ammo ularning mavjudligi bunday xatti-harakatlarning asosiy sharti emas. [4,6.288]. Rus psixologi Yevgeniy Ilinning fikriga ko'ra esa, o'smirlardagi agressiya nafaqat psixologiya fanining davriy muammosi, balki bu muammo huquq-tartibot organlariga ham tegishli butun jamiyatning muammosidir. [5, 6.35] Sababi o'smirlardagi agressiya yuqorida ta'kidlab o'tilgandek, jamiyatdagi illatlar va jinoyatlarning o'suvchi dinamikasini kafolatlovchi manbadir.

Ma'lumki xar bir inson bir xilda shakllanmaydi, ular individualdirlar. Atrof muhit shaxsni turlicha shakllanishiga zamin yaratadi. Individ ma'lum yoshga yetgach uning xarakter xususiyati, dunyoqarashi, tafakkuri va ongi shakllana boshlaydi. Aynan ushbu davr "krizis" davri deb ataladi. Bu davr oraliq'ida unga ko'rsatilgan har qanday munosabat xotirada saqlanadi. Bunda bevosita uning yaqinlari, asosan ota-ona ishtirok etadi. Bolaga berilgan e'tibor, mehr, tarbiya, ta'lim va axloq uning hayotini keyingi, katta sotsial jamiyat uchun tayyorlab beradi. Insonlar bilan muloqot qilish, omma oldida o'zini tutish, ijtimoiy axloq normalari, internet tarmoqlaridan unumli foydalanish kabi bir qator dolzarb muammolar o'smir yoshiga yetgan bolalar uchun qiyin masala bo'ladi. Xuddi shu yoshda bolalarda ko'proq egoizm va yoshga doir agressiya kuzatiladi. Bunga internet tarmoqlaridagi saytlar, videolar, ma'ruza va rasmlar orqali qabul qilinayotgan ma'lumotlar sabab bo'ladi. Internetga qaramlik shaxsning maqsadini o'zgartirishi, uning motiv va motivatsiyasiga salbiy ta'sir etishi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Har bir yoshdagi davr uchun asosiy faoliyat turi xarakterlanadi va u maqsadlarni belgilash jarayonini rivojlantirishda ijtimoiy tarmoqdan olinayotgan filtrlanmagan ma'lumotlar to'g'ri yo'ldan chalg'itishi mumkin. O'smirlik yoshi ruhiy rivojlanishning muhim davriga tegishli. Fiziologiyada tanqidiy davrlarda psixologik muddatning ta'sirini shakllantirishga nisbatan bolaning sezgirligi ortadi. Bu yoshning eng muhim psixologik ierarxiyasi o'zini anglashning shakllanishidir. O'smirning o'zini anglashini tavsiflovchi muhim xususiyati balog'atga yetishni his qilish deb hisoblanadi. Shunday qilib, o'smirlar haqiqiy munosabatlar tizimida shakllanadi. Sir emaski so'ngi vaqtlarda onlayn tarmoq xuruji va kasalliklari o'smirlar orasida keng tarqalmoqda. Internetga qaramlik bir qator psixologik muammolarni shakllantirishga hissa qo'shadi, jumladan, turli mojaro, surunkali tushkunlik, vertual hayotning haqiqiy hayotdan afzalligi, internetdan foydalanishning yo'qligida noqulaylik tuyg'usining paydo bo'lishi, uyqusizlik, surunkali charchoq, miya faoliyatining buzilishi, nevrotik kasalliklar, axloqsizlik, tana a'zolarining xastalanishi,



umidsizlik va shunga o'xshash bir qator jiddiy muammolar tug'iladi. Bunday vaziyatlarning oldini olish maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirish yo'nalishlari va rejalari muhokamaga qo'yilmoqda. Xozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar eng ommabop va tezkor axborot tarqatish vositasiga aylandi. Aynan kichik maktab yoshida va o'smirlik davrida o'quvchilarni axborotlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirish muhim sanaladi. Inson ongini egallashga intilish tobora kuchayayotgan hozirgi sharoitda yosh avlodni ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy axborotlardan asrash eng muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Virtual tizimda axborotlarning hammasi ham ilmiy asoslangan, faktlar, dalillar asosida isbotlangan ishonchli ma'lumotlar hisoblanmaydi. O'quvchi-yoshlar axborot resurslaridan kutubxona, ma'lumotlar bankidan ko'ra telefon orqali internet tizimidan foydalanishni afzal ko'rishmoqdalar. Tabiiyki hamma ham internetning aniqlik xususiyatiga e'tibor qaratib o'tirmaydi. Bu esa internetga bizni boshqarish imkoniyatini tuhfa etadi. Shu o'rinda har qanday axborot xurujlari, ommaviy madaniyat xavfidan himoyalangan internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siridan butun millatni, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlodni himoya qilish har bir ongli insonning burchi ekanligini ta'kidlab o'tish lozim.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali qabul qilinayotgan axborotlarning qanchalik foydali yoki yoshlar ma'naviyatiga zararini aniqlash va bu borada profilaktik targ'ibot ishlarini olib boorish bo'yicha xam mamlakatimizda bir qancha sezilarli ishlar olib borilmoqda, jumladan, 2021 yil yakunida "Internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarga ta'siri" mavzusida xalqaro "workshop" bo'lib o'tdi. Unda Innovatsion rivojlanish, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirliklari, Yoshlar muammolarni o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi vakillari ishtirok etib, ular o'z chiqishlarida ijtimoiy tarmoqlar insonlar hayotiga chuqur kirib borib, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ham ijobiy, shu bilan bir qatorda salbiy ta'sirlarini xam qayd etishdi.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytmoqchimizki, hozirgi kunda jamiyatimiz hayoti fantexnologiyalar rivoji bilan tobora uyg'unlashib borayotgan bir davrda yashamoqdamiz. Shunday ekan, har birimiz ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatiga amal qilishimiz, o'z navbatida, uni atrofdagilarga ham o'rgatish foydadan xoli bo'lmaydi. Binobarin, yoshlarning ruhiy-ma'naviy olamini zararli unsurlardan, turli xil buzg'unchi, yod va zararli g'oyalardan himoya qilish orqali taraqqiyot poydevori yaratiladi. Zero, ma'naviy barkamol, intellektual salohiyatiyuqori avlod tarbiyasi nafaqat O'zbekistonda, balki butun jahonda eng muhim vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Aynan ma'naviy



barkamol avlod mamlakat ertasini belgilab beradi. Maʼnaviy barkamollik esa jamiyat taraqqiyotining muhim omili.

Adabiyotlar:

1. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya T.: “Movaraunnahr”, 2016. –B.5.
2. Захаров Л.И. Психотерапия неврозов у детей и подростков. Москва 2012 239 б.
3. Реан А.А. Агрессия и агрессивность личности. - СПб, 1995.18 б.
4. Змановская Э.В. Девиантология (психология девиантного поведения)- М.: Академия, 2004.- 288 б.
5. Психология агрессивного поведения, Ильин Е., Питер, 2014. 35 б.

РЕЗЮМЕ

Ijtimoiy tarmoqlar bugun qudratli axborot qurolga aylangan ekan, dunyo miqyosida mafkuraviy-gʻoyaviy tahdidlarni targʻibot va tashviqot etishda muhim omil vazifasini oʻtamoqda. Ijtimoiy tarmoqlar yordamida yoshlarning qalbi, ongi va ruhiyatiga taʼsir koʻrsatishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Buning natijasida yoshlar maʼnaviyati izdan chiqishiga olib kelmoqda. Shu boisdan ham, turli-tuman gʻoyaviy, mafkuraviy va axborot xurujlarining avj olishini eʼtibordan chetda qoldirmasligimiz darkor. Shundagina biz istiqbolda maʼnaviy barkamol insonni, sogʻlom avlodni tarbiyalashga erishamiz.

РЕЗЮМЕ

Поскольку социальные медиа сегодня становятся мощным оружием информации, они служат важным фактором в продвижении и продвижении идеологических угроз во всем мире. С помощью социальных сетей особый акцент делается на влиянии на сердца, умы и духовность молодых людей. Результирующий рост доходов от талой воды, безусловно, мог бы предотвратить возникновение соблазна для определенного народа.

SUMMARY

Since social networks have become a powerful information weapon today, they serve as an important factor in the promotion and promotion of ideological and ideological threats around the world. Special attention is paid to the influence on the hearts, minds and psyche of young people through social networks. This leads to a decline in the spirituality of young people. Therefore, we should not underestimate the escalation of various ideological, ideological and information attacks. Only then will we be able to raise a spiritually harmonious person, a healthy generation in the future.



INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION KLASSTERLI YONDOSHUV

Fayziyeva U. Y.

*Chirchiq shahar davlat pedagogika universiteti,
Maxsus pedagogika kafedrasi dotsenti, p.f.n.*

Tayanch soʻzlar: klaster, surdopedagogika, surdopsixologiya, tiflopedagogika, tiflo-psixologiya, oligofrenopedagogika, oligofrenopsixologiya, logopsixologiya.

Ключевые слова: кластер, сурдопедагогика, сурдопсихология, тифлопедагогика, тифлопсихология, олигофренопедагогика, олиго психология, логопсихология.

Key words: cluster, sign language pedagogy, sign language psychology, typhlopedagogy, typhlopsychology, oligofrenopedagogy, oligo psychology, logopsychology.

Ayni paytda yer kurrasi boʻylab sodir boʻlayotgan turli tabiiy ofatlar, kataklizmlar, ekologik balansning buzilishi, va buning oqibatida insoniyat hayoti, uning immun muhitining buzilishi ehtimolini tugʻdirmoqda. Bu esa oʻz navbatida ayollarning aksariyatida homilani sogʻlom koʻtarishi va bolaning ona qornida muvaffaqiyatli rivojlanishiga katta toʻsiq boʻlishi oqibatida bolalarning aqliy yoki jismoniy nogiron boʻlib tugʻilishiga sabab boʻlmoqda. Ayni paytda bu holat butun dunyo hamjamiyatining diqqat markazida turib, oldini olish chora tadbirlarini topish bilan bir qatorda, imkoniyati cheklangan boʻlib tugʻilgan yoki orttigan bolalarni jamiyatda, ijtimoiy hayotda oʻz oʻrnini topishi uchun zarur boʻlgan chora- tadbirlar ustida ish olib borilmoqda- bu tibbiy ehtiyoj. Buning uchun butun diqqat eʼtibor ularga ilk yoshidan maxsus yondoshuvlar orqali oʻz tengqurlari orasida sifatli taʼlim olishini taʼminlash masalasi keskin koʻtirilgan- psixologiyaga ehtiyoj. Inklyuziv taʼlimda klasterli yondashuv zaruriyati, inklyuziv taʼlimni amalga oshirishda tibbiyot, psixologiya, maxsus psixologiya,

umumiy pedagogika, taʼrixiy -ilmiy tajribalarni taʼlim jarayonining ajralmas qismi boʻlib xizmat qiladi.

Har bir soxa yoʻnalishlari va ularning bu boradagi vazifalari:

- Tibbiyot sohasining pediatriya, psixiatriya, ortopediya, ottoloringologiya, xirurgiya sohalari, bolalarni koʻrikdan oʻtkazish, tashxis qoʻyish,

nogironlik turini aniqlash, tasdiqlash, kerakli o‘rinda jarrohlik, tibbiy reabilitatsiya ishlarini olib borish ;

- Umumiy psixologiya, psixologik amaliyot, ijobiy psixologik muhit yaratish, psixologik treninglar olib boorish;
- maxsus psixologiyaning har bir yo‘nalishi (surdopsixologiya, tiflopsixologiya, logopsixologiya, oligofrenopsixologiya) shu toifa bolalarning psixologiyasini o‘ganadi, ta‘lim jarayonida yondoshuvni belgilaydi;
- umumiy pedagogika, inklyuziv sinfdagi sog‘lom o‘quvchilar umumta‘lim maktab ta‘limi metodikalari, umumpedagogik metodik talablar asosida o‘qitiladi. maxsus pedagogika va umumiy pedagogic ta‘lim uyg‘unlashgan holda qo‘llaniladi.
- ta‘rixiiy -ilmiy tajribalar Yurtimiz, millatimizning ta‘lim sohasida asrlar davomida nogiron bolalar, ularning xususiyatlari xususida qoldirgan tibbiy, pedagogik meroslarni o‘z ichiga olinishini talab etadi.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan sohalarining barchasi inklyuziv ta‘limni amalga oshirishning zarur tarkibiy qismlari hisolanadi va bu mavzuning muammo sifatida o‘rganish va va joriy etishda aynan klasterli yondoshuv talab etiladi.

Inklyuziv ta‘limda klasterli yondoshuv o‘quvchilarni o‘rganish, aqliy, sensorik, ortopedik muammolarini aniqlash ta‘limda individual yodoshuvni belgilash va amalga oshirish, jarayonda tegishli yondoshuv, korreksion mashg‘ulotlarni belgilashda klasterli kompleks yondoshuv, inklyuziv ta‘lim sifatini ta‘minlaydi.

Bunda, butun jarayon kompleks ravishda olib boriladi ba o‘zaro hamkorlik, o‘zaro kompleks monitoring olib boriladi.

Imkoniyati cheklangan deb qabul qilingan bolalar, ularning ijtimoiy ahvoli, ularning ta‘lim olish masalasi hozirgi kunda butun dunyo miqyosidagi eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu muammoning tegishli ravishda ijobiy yechimining topilishi insoniyat kelajagini, farzandlarimizning farovon turmush kechirishining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda Respublikamizda bu borada izchil ish olib borilmoqda.

Sobiq Sovet tuzimi davrida jismoniy va ruhiy rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar ta‘limiga munosabat, ularni faqat maxsus sharoitlarda, faqat o‘ziga o‘xshaganlar orasidagina ta‘lim olishi mumkin degan yondoshuvning endilikda o‘zini oqlamayotganligi tan olinib, ularning umumiy tarzda soglom tengqurlari qatorida ta‘lim olishi borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Chunki bugungi kunda bu bolalar, ularning nuqsonlari, imkoniyatlari masalasi haqidagi turli-tuman, aksariyat hollarda esa qarama-qarshi



munosabatlar mavjud bo‘lib, bunday bolalar va ularning ta‘limiga bo‘lgan munosabatni jiddiy va qaytadan ko‘rib chiqish ehtiyoji kelib chiqmoqda. Ular uchun qulay hamda sifatli ta‘lim berishni ta‘minlash, davlatimizning siyosati darajasidagi masalalar qatoridan o‘rin olgan. Shu boyis imkoniyati cheklangan bolalar, ularning maxsus, umumiy, yakka tartibdagi ta‘limining chuqur tahlili keng pedagogik jamoa hukmiga, muhokamasiga havola qilish orqali Imkoniyati cheklangan bolalar ta‘limi bo‘yicha mavjud tajribalar, fikrlar, munosabatlar, mavjud dalillarga asoslangan maxsus psixologik, maxsus pedagogig tajribalar, ma‘lumotlarga tayangan holda tashkil etilishi muhim o‘rinda turishi ta‘kidlangan - bu maxsus psixologiya, maxsus pedagogikaning o‘rni.

Imkoniyati cheklangan bolalarni o‘rganish ularga ta‘lim berish, Ijtimoiy hayotga tayorlash bo‘yicha O‘rta Osiyo allomalari va mutafakkirlaridan: Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Muhammad al-Xorazmiy, al-Beruniy, Ahmad Farg‘oniyalar ishlab chiqqan ruhiyatni o‘rganish metodlari, Mir Alisher Navoiyning insonlarning ichki kechinmalari, bola tarbiyasi haqidagi fikrlari va barcha asarlarida ta‘limga oid ta‘kidlab o‘tgan fikrlari, zamondoshlarimiz M.G.Davletshin, A.Asqarxo‘jaev, M. Vohidov, E. G‘oziev, G‘.B.Shomuarov, K.Mamedovlar tomonidan umumiy va maxsus psixologiya, oila psixologiyasi, bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar materiallari o‘rganildi. Butun dunyodagi yirik psixologlardan J.Piaje, E.Segen, A.Petseld, Luriya, L.S.Выготский, Kashenko, Korsunskiy, T.A.Vlasova, S.Pevzner, V.V.Lebedinskiy, P.P.Blonskiy, L.V.Zankovlarning ilmiy qarashlarida bola shaxsining kamol topishda oilaning- ota-onaning tutgan o‘rniga alohida e‘tibor qaratilgan. Buyuk adib, pedagog A.Avloniy o‘zining ”Turkiy Guliston yohud axloq kitobi“da bolaning sog‘lig‘i va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmoq, pok tutmoq, yosh vaqtdan maslakni tuzatmoq, yaxshi xulqlarni o‘rgatmoq, yo‘mon xulqlardan saqlangan o‘sdurmakdur” –deb e‘tibor qaratganda u barcha bolani nazarda tutgan.

Ya‘ni bola soglom yoki nogiron tug‘ilganmi avvalo u inson va bola, va uni tug‘ilgan kundan tarbiya kilmok, undaghi yaxshi odatlarni rivozhlantirmoq, zararni tuzatib bormoq (tuzatish lab bormok) lozim takid lab utganlarini bezhiz. Ustozimiz o‘sha davridayok o‘zlarining ilgor qarashlari bilan ta‘limda alohida ehtieji bulgan bolalar talimi yangi mahsus pedagogikasi ham o‘z munosabatlarini bildirganlari, yani unga asos soganlarini yana bir misolda k‘rish mumikin: “Tarbiyani kimlar qilur? Qaydai kilinurmi? degan savol keladur. Bu savolga, “birinchi uy tarbiyasi. Lekin u osondir. Ikkinchi maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, mudarris va hukumat harakatdir”, deb zhavob bersak, . . . “ Adibism o‘sha davr uchun qo‘yib qo‘ygan, ana shu, o‘ta kuchhisoblagan



muammo bizning mahsus ta'limning xazirgi kuni uchun ham tajribaga ega bo'lib turibmiz-bu ta'rixiy manba'a.

Birinchi: Bola tug'ilganidan uning muammosi va ehtiyojini aniqlash uchun dastlabki harakat ota-onalar va shifokorlar zimmasida va ana shu ikki tomon, avvalo ota-ona, buni kechiktirilmaligi lozim. Chunki kechiktirilgan holda bolaning tarbiyasiga zarar yetadi. Bolaning kamchiligi qanchalik erta aniqlansa, tarbiyasi bilan shug'ullanish ham shuncha erta boshlanishi mumkin.

Ikkinchi: A.Avloniy ustozimiz aytib o'tganlaridek "Tarbiyani kim qilur?" albatta birinchi o'rinda ona boshlaydi. Faqat tarbiyani kompleks ravishda, bolaning ehtiyojini inobatga olgan holda olib boradi. Sog'lom bolaga beradigan tarbiyaga nisbatan kamchiligini tuzatishga ko'proq e'tibor beriladi. Bolaning kompensatorlik imkoniyatlarini izlash talab qilinadi. Shu o'rinda A.Avloniyning yana bir fikrini keltirish o'rnlidir: qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz . . . , . . . onalarmi. O'zlarida yo'q tarbiyani qaydan olib berurlar" degan fikrga bildirgan e'tirozlarini ta'kidlab o'tmoqchiman. Darhaqiqat, buyuk allomalarimizning ko'pi dastlabki tarbiyani ana shu, "bilimsiz" deb hisoblangan onalardan olgan, demak, farzandni dunyoga keltirgan onaning qudrati shunchalarki, bolasining himoyasi, ya'ni tarbiyasi uchun imkon topishga imkon qurbi yetadi. Bizning hozirgi onalarimizni bilimsiz deb bo'lmaydi. Maktabda o'rta ta'limni olgan har bir yigit qizimiz dastlabki tibbiy bilim, reproduktiv salomatlik asoslaridan bilimga ega. Oilada bolalariga o'zlari har tomonlama yordam berish, uni tug'ilgan kunidanoq tarbiyalab borishga tayyordurlar.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, bolaning tarbiyasini faqat oilagagina tashlab qo'yish davlatimiz siyosatiga to'g'ri kelmaydi. Yana A.Avloniyning so'zi bilan aytganda ". . . hukumat hammaning otasidir. Uz fuqarosining bolalarini tarbiya qilmak lozim . . ." -Milliy pedagogika ta'rix manba'lari.

Respublikamizda hozirgi kunda nogironligi bo'lgan alohida ehtiyojli bolalar ta'limiga zamonaviy yondoshuv, ularning ta'limiga alohida e'tibor tobora kuchaymoqda. Buni biz davlatimiz rahbarining qator farmon va qarorlarida yaqqol ko'rib bormoqdamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining:

- 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni;
- O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda



ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-sonli "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi №-638-sonli Qarori;
- 2021-yil 21-dekabr "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-57-sonli qarori;
- 2021-yil 4-oktyabrdagi "Bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-5255-sonli Qarorlari qabul qilindi.

Ta'lim sohasiga kirib kelgan bu yo'nalishni joriy etish asta sekinlik bilan qonuniy asosda amalga oshirilmoqda. Bu esa respublikamizning ta'lim tizimini rivojlantirishdagi oqilona va izchil yo'l tutish hisoblanadi. O'zbekistonda ta'lim tizimiga zamon talabiga javob beradigan, jahon miqyosida eng dolzarb deb sanalib kelayotgan inklyuziv ta'lim 2021-2022 o'quv yilidan joriy etildi va yil sayin kengayib bormoqda. Inklyuziv ta'limda jamoatchilik va oilaning roli va ahamiyati borasida keng jamoatchilik orasida targ'ibot tashviqot ishlari olib borilmoqda. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'limida oila, ota-onalar hamkorligining ahamiyati tajribada namoyon bo'lmoqda. Ular jamiyatda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotda barcha qatori teng huquqlilik asosida samarali ishtirok etishi uchun davlatimiz tomonidan shart-sharoitlar yaratilmoqda. Endi barcha bolalar maxsus maktab, maktab-internatlarida emas ommaviy maktabda ta'lim olishi uchun keng ko'lamda ishlar tashkil qilinib, kompleks sharoitlar yaratilmoqda.

Inklyuziv ta'lim shakllanishi va rivojlanishi qator shart-sharoitlar va istirokchilarning hamkorligi, ya'ni klaster usuli orqali rivojlanadi. Klasterda berilgani kabi barcha yo'lishlar sog'lom bola tug'ilishidan boshlab, nogironligi bo'lgan bolalarni uyg'un tarzda ta'lim olishi korreksiy, reabilitatsiya yordami orqali ijtimoiylashuvi ta'minlanadi.

Respublikamizda inklyuziv ta'lim orqali barcha toifadagi bolalardagi aqliy, ruhiy autistik, jismoniy, eshitishi, ko'rishidagi muammolari bo'lgan bolalar ta'lim olishi bilan bir qatorda muammolarini korreksiya va reabilitatsiya ishlari amalga oshirilib, ijtimoiy moslashishi va jamiyatda o'z o'rnini topishiga



erishish, jamiyatimizning bugungi kuni dolzarb vazifasi hsoblanadi. Bugungi kunda inklyuziv ta'lim butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta'lim sifatida tan olinmoqda. Bu borada respublikamizda ta'lim tizimini jahon standartlariga tenglashtirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar:

1. Qodirova F.U.Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali texnologiyalari
2. Фролова, Н. Д. Принципы и подходы рационального формирования инновационно-образовательного кластера [Электронный ресурс]. -Режим доступа: [http://www.rusnauka.com/17 AY5M2012/Eсоpop-nc5/13_113048.doc.htm](http://www.rusnauka.com/17_AY5M2012/Eсоpop-nc5/13_113048.doc.htm)
3. Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari // p.f.d. (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. –Chirchiq,2020. – 60 b
4. Фролова, Н. Д. Принципы и подходы рационального формирования инновационно-образовательного кластера [Электронный ресурс]. -Режим доступа: [http://www.rusnauka.com/17 AY5M2012/Eсоpop-nc5/13_113048.doc.htm](http://www.rusnauka.com/17_AY5M2012/Eсоpop-nc5/13_113048.doc.htm)
5. Fayziyeva U.YU. Imkoniyati cheklangan bolalar umumiy ta'limi-Toshkent "Sano-standart" 2010yil.
6. Fayziyeva U.YU. va boshqalar "Eshitish a'zolarida funksional buzilishlari bo'lgan bolalarning eshitish qobiliyatini rivojlantirish".-Toshkent-2016 yil.
- Чучкалова, Е. И. Образовательные кластеры: теоретические вопросы создания и функционирования / Е. И. Чучкалова, О. Г. Мосунова // Экономика и предпринимательство. - 2013. - № 9 (38). - С. 422-424.
7. Чучкалова, Е. И., Мосунова О. М. Теоретические основы создания и развития образовательных кластеров.

РЕЗЮМЕ

Inklyuziv ta'limda klasterli yondoshuv o'quvchilarni o'rganish, aqliy, sensorik, ortopedik muammolarini aniqlash ta'limda individual yodoshuvni belgilash va amalga oshirish, jarayonda tegishli yondoshuv, korreksion mashg'ulotlarni belgilashda klasterli kompleks yondoshuv, inklyuziv ta'lim sifatini ta'minlaydi. Bunda, butun jarayon kompleks ravishda olib boriladi ba o'zaro hamkorlik, o'zaro kompleks monitoring olib boriladi.

РЕЗЮМЕ

Кластерный подход в инклюзивном образовании выявление психических, сенсорных, ортопедических проблем, выявление и реализация индивидуальной памяти в образовании, соответствующий подход в процессе, кластерного комплексного подхода в коррекционно направленном обучении, обеспечивает качество инклюзивного образования. При этом весь процесс осуществляется в комплексе взаимодействия, осуществляется взаимный комплексный мониторинг.

SUMMARY

Cluster approach in Inclusive Education study of students, determination of mental, sensory, orthopedic problems determination and implementation of individual approach in education, appropriate approach in the process, cluster integrated approach in determining correctional training, ensures the quality of inclusive education. In doing so, the whole process is carried out in a complex ba mutual cooperation, mutual comprehensive monitoring is carried out.



УЗЛУКСИЗ КАСБИЙ РИВОЖЛАНТИРИШ ЖАРАЁНИДА АНДРАГОГИК ЁНДАШУВНИНГ НАЗАРИЙ САЛОҲИЯТИ

Бердалиева Г.

*Т.Н.Қори ниёзий номидаги педагогика фанлари илмий
тадқиқот институти мустақил изланувчиси*

Таянч сўзлар: узлуксиз касбий ривожланиш, андрагогика, инновацион, салоҳият, та-моил, зарурий компонент, метод, муаммо.

Ключевые слова: непрерывное профессиональное развитие, андрагогика, иннова-ция, потенциал, принцип, необходимый компонент, метод, проблема.

Key words: continuous professional development, Andragogy, innovation, potential, principle, necessary component, method, problem.

Маълумки, бугунги шиддат билан ривожланаётган ахборот жамия-ти ўзи билан тенг кадам ташлай олмаганларни четга суриб бораверади. Шу сабабли ҳаёт давомида узлуксиз ўқиш, ўрганиш масаласи бугун ҳар қачондагидан ҳам долзарбдир. Бугунги кун шиддати инсонларни ҳар куни тўхтовсиз янги маълумотларни қабул қилиш, янгидан-янги техноло-гияларни ўзлаштиришга мажбур этади. Қисқача айтганда инсон ёшидан, жинсидан, маълумотидан, жамиятда тутган мавқеи, лавозимидан қатъий назар доимий таълим олиш жараёнинг иштирокчисига айланади. Айнан ана шу нуктаи назардан, андрагогика фани ва унинг имкониятларини ўр-ганиш бугунги куннинг долзарб масалалардан биридир. Жамият ривож-нинг ҳозирги босқичида креатив, ностандарт фикрлайдиган, ўз соҳаси-да янги усулларни таклиф қила оладиган профессионал мутахассисларга эҳтиёж тобора ортмоқда. Ҳар бир соҳа учун кадрларни тайёрлаш таълим берувчининг зиммасига юклатилган вазифадир. Чунончи, малака оши-риш ва қайта тайёрлаш муассасаларида катта ёшли таълим олувчи раҳ-бар ҳамда педагог кадрларни узлуксиз касбий ривожлантириш мобайнида таълим жараёнини самарали ташкил этиш омилларидан бири андрагогик тамойилларга таяниш ҳисобланади.

“Андрагогика” атамаси немис педагогика тарихшуноси А.Капп томо-нидан киритилган бўлиб, мазкур атама грек тилидан андрос – эркак, одам; агогейн – олиб бориш, етаклаш маъносини англатади. Сўзма-сўз таржи-



ма қилинганда андрагогика – бу “катта одамни бошқариш, етаклаш”ни билдиради. Бу атама педагогик воқеъликдан вужудга келган экан, унда сўз катта ёшдаги одамни таълим орқали бошқариш, етаклаш тўғрисида боради. Айнан катталарга таълим берувчи педагог андрагог хисобланади. Андрагог – асосий касбий функцияси катталарни ўқитишдан иборат бўлган мутахассис. Андрагог таълим жараёнини ташкил қилишда турли хил методлардан фойдаланади. Таълим методлари таълим мақсадини ёритишга хизмат қилади, у ёрдамида таълим мазмунини ўзлаштириш йўллари ифода этилади, таълим берувчи ва таълим олувчиларнинг ўзаро ҳаракати, хусусияти акс эттирилади.

Узлуксиз касбий ривожланишининг назарий ва амалий қоидаларини умумлаштириш сифатида, андрагогика узлуксиз таълим жараёнида катталарни ўқитишнинг назарий ва амалий муаммоларини очиб беради.

Узлуксиз таълим назариясининг концептуал қоидаларидан фарқли равишда, катталар таълимнинг назарияси ва амалиёти асосида, катталар табиатидан келиб чиқувчи тамойиллар ётади: катта ёшдаги одам эҳтиёж сезмагунча ўқишга қарор қилмайди, у фақатгина ўзининг фикрича унга зарур бўлган нарсани ўрганadi ва иш жараёнида ўқийди. Бошқача қилиб айтганда, катта ёшдаги одам таълим жараёнида, бу жараённинг параметрларини: таълимнинг мақсадларини, мазмунини ва ташкилий шаклларини аниқлашда бош ролни ўйнайди.

Педагог кадрларни узлуксиз касбий ривожлантиришнинг назарий асосларини куриш учун биз томонимиздан андрагогик ёндашув кўриб чиқилди.

Илмий категория сифатида ёндашув нафақат назарияни, балки амалиётни ҳам шакллантиришни кўзда тутлади: айнан ёндашув таълимнинг тамойиллари ва методларини асослашга имкон берувчи негиз бўлиб хизмат қилади. Шу билан бирга, андрагогик ёндашув катталар таълимининг назарияси ва амалиёти ўртасида боғловчи звенодир.

Адабиётларнинг таҳлили кўрсатадики, андрагогик ёндашувни бир бутун ҳолда тушуниш учун унинг бир қатор категориялар ва тушунчалар билан алоқасини аниқлаштириш лозим. Ҳар қандай ёндашувнинг зарурий ва мажбурий компоненти бўлиб, педагогик фаолиятни амалга оширишнинг дастлабки ёки бош қоидалари сифатидаги тамойиллар ётади.

Андрагогик тамойиллар катта ёшдаги таълим олувчиларнинг хусусиятларини ҳисобга олиш асосида курилади (С.И.Змеев, М.Матюшкина). Лекин адабиётларда ёритилган андрагогик тамойиллар таълимнинг шахсий-фаолиятли парадигмаси позициясидан қараганда методологик birlik акс эттирмайди.



Андрагогик ёндашувга кирадиган шахсий-фаолиятли парадигманинг методологик тамойиллари билан шартли боғланган таълим тамойиллари кўп даражали тузилмани ташкил этади. Шундай қилиб, андрагогик ёндашувнинг шакллантирилган методологик тамойиллари ўзаро боғланган, бир-бирини тўлдиради, бир бутун тўпламини ташкил этади.

Андрагогик тамойиллардан таълим, дарс бериш ва ўқитиш тамойиллари сифатида мақсадли фойдаланиш катталар таълимини шахсий-фаолиятли парадигманинг методологик асосини қуриш имконини беради.

Андрагогик тамойилнинг зарурий компоненти методдир. Адабиётларни ўрганиш шуни кўрсатадики, бугунги кунга келиб, “таълим методи” тушунчасининг роли ва таърифига нисбатан ягона фикр мавжуд эмас. Ўқитиш методи – тарихий категория, у таълимнинг мақсадлари ва мазмуни ўзгариши билан ўзгаради. Бошқа томондан олганда метод, методологик категория сифатида – ёндашувнинг амалий татбиқидир, у таълимнинг мақсадлари ва мазмуни билан боғлиқ ўзгаришларга олиб келмайди.

Е.В.Бондаревская методни, биринчидан, методологик категория ёки таълим парадигмасининг ядроси бўлган билиш методи сифатида, иккинчидан, ўқитиш методикасида акс эттирилиши мумкин бўлган фаолият усули сифатида кўриб чиқади.

Энди андрагогик ёндашув ўқитиш методига қандай қилиб татбиқ қилишини кўриб чиқиш мумкин.

Катталар таълимнинг “марказий методи” тўғрисида биринчи бўлиб Э.К.Линдемман сўзлай бошлаган. У таълим олувчининг тажрибасини катталар таълимидаги энг қимматли, бой ресурс деб ҳисоблаган. Катталар таълими эса, унинг томонидан, таълим олувчиларнинг аҳамиятли тажрибаларни тушуниши воситаси бўлиб қолувчи жараён сифатида кўриб чиқилган.

Э.К.Линдемман учун, катталар таълими ўқитиш ва жараённинг янги усули бўлиб, унинг ёрдамида катта ёшдаги одам ўз тажрибасини тушуниш ва баҳолашга ўрганади. “Катталар таълимига бўлган ёндашув предметлар эмас, ҳолатлар воситаси орқали бўлади. Предметли мазмун “ҳолатга “киритилади” ва қачон талаб бўлса, шунда ишга тушади”.

Анъанавий таълимда ўқувчидан ўрнатилган ўқув режасига мослашиш талаб этилади, катталар таълимида эса ўқув режаси таълим олувчиларнинг эҳтиёжлари ва қизиқишларини қамраб олган ҳолда қурилади.

“Авторитар дарс бериш, оригинал фикрлашга тўсиқ бўладиган имтиҳонлар, мустақкам педагогик формулалар – буларнинг барчасига катталар таълимида ўрин йўқ.... Ўқишдан манфаатдор бўлган катта ёшдаги-

ларнинг кичик гуруҳлари, булар: ўз ақлларини соф ва беғубор сақлашни истайдиганлар; ишга мансуб бўлган турли ҳолатлар билан юзма-юз келган ҳолда ўқишни бошлаганлар; матнлар ва иккиламчи фактларга мурожаат қилишдан олдин ўзларининг тажрибалари захирасига чуқурроқ кириб борадиганлар; ўқитувчилар томонидан мунозарага тортиладиганлар – шулардан катталар таълими учун, ҳаёт маъносини замонавий тасаввурда излаш учун муҳит таркиб топади.... Қийматлар тажрибани кузатиб боради, шунда биз, нима бўляпти ва бу воқеа шахсан биз учун қандай муҳимликка эгаллигини тушуниб оламиз”.

Э.К. Линдемман катталар таълими тўғрисидаги бир қанча асос бўлувчи қоидаларни шакллантирган. Булар кейинчалик тадқиқотлар билан тасдиқланган ва катталарни ўқитиш назариясининг фундаментини ташкил этган тахминлар эди. Булар:

1. Катталар ўқишга қизиқишади, чунки улар ўқиш орқали қондирилдиган эҳтиёжлар ва қизиқишларга эгалар, демак, булар катталар ўқишини ташкил этиш учун бошланғич сабаблардир.

2. Катталарнинг “ҳаётга қаратилган” таълимотга йўналганлиги, шунинг учун катталарни ўқитишни ташкил қилиш учун мос келадиган бирликлар бўлиб предметлар эмас, балки ҳаётий ҳолатлар хизмат қилади.

3. Тажриба катталарни ўқитиш учун энг бой ресурс ҳисобланади, унинг натижасида катталар таълимининг марказий методи бўлиб тажрибани таҳлил қилиш ҳисобланади.

4. Катталар мустақил ёки “ўз-ўзини йўналтирувчан” бўлишга чуқур эҳтиёж сезишади, шунинг учун ўқитувчининг роли, ўз билимларини бериб, кейинчалик уларни қанчалик ўзлаштирганликларини баҳолаш эмас, балки улар билан биргаликда қўшма тадқиқотлар жараёни билан шуғулланишдан иборат.

5. Одамлар орасидаги индивидуал фарқлар ёш ўсган сари кучаяди, демак, катталар таълими урф-одатлар, вақт, жой ва ўқув суръатининг турли-лигини оптимал равишда таъминлаши лозим.

“Тажрибани таҳлил қилиш методи” катта ёшдаги таълим олувчилар таълимининг мазмуни ва уларни ўқитиш тамойилларига мос келади ҳамда хусусий методлар ёки катта ёшдагиларга таълим бериш жараёнини ташкил қилишнинг методикаларини танлашни акс эттиради.

Таълимда тажрибанинг мавжудлиги ва унинг таълимда қўлланилиши – бу таълимнинг анъанавий ва андрагогик методларини фарқлайдиган омилнинг ўзидир. Тажрибада инсоннинг катта ёшдалиги ва етуклиги тушунилади. Шунинг учун бугунги кунда, тажрибани таҳлил қилиш



методини ҳаққоний равишда, катталарни ўқитиш методларини танлашни аниқловчи андрагогик ёндашувнинг амалий методи сифатида кўрсатиб ўтиш мумкин.

Юқорида келтирилган ғоялар тажрибани таҳлил қилиш методига – катта ёшдаги таълим олувчиларга, ўқув ишларини ташкил қилишнинг махсус усуллари ва услублари тизими ёрдамида, таълим олувчиларнинг шахсий тажрибаларини самарали жалб қилиш орқали, уларни андрагог-ўқитувчи томонидан фаоллаштириш жараёнида янги таълимий тажриба сифатида янги билимлар ёки янги таълим мазмунини эгаллашга имкон берадиган шароитларини яратишни таъминлайдиган таълим тизими, деб таъриф беришга имкон яратади.

Шундай қилиб, андрагогик ёндашув ўз ичига жумладан, таълимнинг ташкилий-фаолиятли ва интерфаол методларини олган, катталар таълими методлари йиғиндисидан ташкил топган, асосан, амалий бўлган ёндашув методи сифатидаги тажрибани таҳлил қилиш методи асосида амалга оширилади.

Андрагогик ёндашувнинг кўриб чиқилган категориялари ва тушунчалари, уларнинг алоқалари ва муносабатларини схема кўринишида акс эттириш мумкин.

Педагог кадрларни узлуксиз касбий ривожлантиришнинг таркибий қисми ва тегишли равишда катталар таълими жараёни ҳисобланар экан, унинг мақсади илгари эгалланган касбий билимларни янгилаш ва чуқурлаштириш, касбий фаолият билан боғлиқ бўлган таълимий эҳтиёжларни кондиришдан иборат. Бунда педагог кадрлар малакасини ошириш тизимининг таълимнинг андрагогик моделига ўтиши, яъни “ўқитишда айнан андрагогик ёндашувни босқичма-босқич янада кўпроқ қўллаш, таълимнинг андрагогик тамойилларига мосликни таъминлаш” муаммоси мавжуд.

Илгари қайд этганимиздек, андрагогик моделнинг ажралиб турадиган аҳамиятли хусусияти, таълим мазмунининг манбаи сифатида фойдаланиладиган таълим олувчилар тажрибасининг борлигидан иборат.

Андрагогик моделдаги таълимнинг мақсади билимлар, кўникмалар, малакалар, тажрибаларнинг шаклланган тизимини қайтадан фикрлашга йўналтирилган. Бундай ҳолда, малака оширишнинг самараси – таълим олувчи учун янги бўлган тажриба билан ўзаро муносабатга киришиш натижаси сифатида – янги шахсий кўрсатмалар, позициялар, фикрлаш стратегиялари, муносабатлар, ҳаёт фаолиятини олиб боришнинг янги сифатлари ва бошқалар кўринишида намоён бўлади.

Таълим доимо таълим олувчининг ўтган даврдаги тажрибасини янги ҳолатда фаоллаштиришдан бошланади. Бунда, ҳам тажрибани эгаллаганда, ҳам кейинги таълимда муҳим рол ўйновчи тушунганлилик даражаси турлича бўлиши мумкин.

Таълимнинг циклик жараёнини амалга оширишнинг негизи бўлиб, рефлексив кузатиш учун материал берувчи аниқ тажрибани тадқиқ қилиш ҳисобланади. Янги маълумотларни умумлаштириб ва мавжуд билимлар тизимига уларни интеграциялаштириб, таълим олувчи абстракт тасаввурлар ва тушунчаларга келади (тажрибани концептуаллаштириш). Бу янги билимлар-концептлар ўзида гипотезаларни акс эттиради, улар эса, янги ҳолатларда фаол тажриба-синовлар олиб бориш давомида текширилади.

Шундай қилиб, тўлиқ циклдан ўтиш учун педагог ҳар бир босқич ичидан қандайдир фаолият турини танлаши ва кетма-кетликни сақлаган ҳолда уларни таълим олувчилар билан ўтказиши лозим.

Катталар таълимининг назарияси ва амалиётида Д.Колб ва Р.Фрайларнинг ўқитишнинг циклли модели таълимнинг андрагогик моделларини ишлаб чиқишда асос сифатида қўлланилади.

Такомиллаштирилган циклли модел, негизли моделнинг аниқлаштирилиши ва педагогик технологияларни танлаш ва уларни оптимал бирлаштириш учун асос бўлиб хизмат қилади. Мисол учун, таълим циклининг биринчи босқичида энг асосийлар сифатида, маълумотларни тўплаш ва таълим олувчиларнинг тажрибасини қайд қилишни таъминлаш учун, кейс технологиялари, муаммоли-изланишли ўқитиш технологияларини қўллаш мақсадга мувофиқдир. Иккинчи босқичда диалог технологиясини қўллаш мақсадга мувофиқ. Учинчи босқич тушунтириш-иллюстратив ва лойиҳали ўқитиш технологияларини жалб қилиш билан биргаликда олиб борилади.

Хулоса қилиб айтганда, андрагогик ёндашув таълим парадигмаси ва андрагогика назарияси ўртасидаги боғловчи звенодир. Андрагогик ёндашувнинг асосий методи бўлиб, таълим олувчилар тажрибасини таҳлил қилиш методи хизмат қилади. У таълим олувчиларга янги билимлар ва янги мазмунни таълим фаолиятини ташкил қилишнинг махсус усуллари ва услублари тизими ёрдамида, шахсий тажрибани самарали жалб этиш орқали, янги таълим тажрибаси сифатидаги янги билим ёки таълимнинг янги мазмунини эгаллаш имконини беради. Рефлексив таълимнинг андрагогик модели таълим фаолияти турларини доимий равишда танлаб олиш учун функционал схемани таъминлайди. Педагог кадрлар малакасини ошириш тизимида таълимнинг андрагогик моделини қўллаш, инно-



вацион йўналтирилган амалиёт ва педагог кадрлар замонавий таълимий амалиётининг етарли даражада илмий таъминланмаганлиги ўртасидаги зиддиятни бартараф қилиш имконини беради.

Андрагогик ёндашувнинг асосий методи бўлиб, таълим олувчилар тажрибасини таҳлил қилиш методи ҳисобланади. У таълим олувчиларга ўқув фаолиятининг махсус усуллари ва услублари тизими ёрдамида, шахсий тажрибани самарали жалб қилиш орқали, янги таълим тажрибаси сифатида янги билимларни ёки янги мазмунни эгаллаш имконини беради.

Таълимнинг андрагогик модели узлуксиз педагогик таълим тизимида турли таълимий жараёнларни ташкил қилишнинг дидактик асосини яратди.

Педагог кадрлар малакасини ошириш тизимида таълимнинг андрагогик моделини қўллаш, инновацион йўналтирилган амалиёт ва педагог кадрларнинг замонавий таълимий амалиётининг етарли даражада илмий таъминланмаганлиги ўртасидаги зиддиятни бартараф қилиш имконини беради.

Малака ошириш назарияси асосига қуйидаги умумий ғоялар қўйилиши мумкин:

Педагог – ўзининг шахсий ва касбий маконини мустақил лойиҳалаш ва кенгайтириш қобилиятига эга бўлган фаол, мустақил ривожланувчи шахсдир. Унинг ривожланиши қандайдир вақт бўлаги билан чегараланмайди, балки ички ва ташқи факторлар таъсири остида бутун умр давомида амалга оширилади.

Педагогнинг ижтимоий ва касбий ривожланишининг ҳар бир босқичи унинг малака оширишга тайёрлиги ва қобилиятини шартлайди, ушбу босқичларга мос равишдаги мазмун, шакл ва иш методларини талаб қилади.

Таълимнинг мазмуни, шакллари ва шароитлари бўйича педагогнинг касбий фаолиятига яқин бўлган, амалиётга йўналтирилган, изланувчи характердалиги таълимнинг самаралилигини оширади, кучли мотивлаштирувчи кўрсаткич бўлиб хизмат қилади.

Адабиётлар:

1. Битянова Н. Р. Проблема саморазвития личности в психологии: Аналитический обзор. – М., 1998.
2. Блохина Е.В. Повышение квалификации работника образования на муниципальном уровне // Народное образование. - №8 2010. – С.128-134
3. Бондаревская Е.В., Кульневич, С.В. Педагогика: личность в гуманистических теориях и системах воспитания: Учеб. пособие для студ. сред. и высш. пед. учеб. заведений, слушателей ИПК и ФПК. – Ростов-н/Д: Творческий центр “Учитель”, 1999. – 560 с.



4. Булынин А.М. Становление и развитие ценностной парадигмы педагогического образования: теоретико-исторический аспект: монография Ульянов. гос. пед. ун-т. – Ульяновск : Изд. Качалин А.В., 2010. – 219 с.

5. Валеева И. А., Казакова Н. Е., Сиренко В. М. Повышение квалификации сельского учителя-полипрофессионала в условиях модернизации образования// Качество педагогического образования. Сельский учитель: Труды V Всеросс. научнопр. конф., 11-13 октября 2004. Орел, 2004. Т. II. С. 197-200.

РЕЗЮМЕ

Мақолада узлуксиз касбий ривожланишининг назарий ва амалий қоидаларини умумлаштириш сифатида, андрагогика узлуксиз таълим жараёнида катталарни ўқитишнинг назарий ва амалий муаммолари ҳақида фикр юритилган. Шунингдек, муаллиф педагог кадрларни узлуксиз ривожлантириш тизимида таълимнинг андрагогик моделини қўллаш, инновацион йўналтирилган амалиёт ва педагог кадрларнинг замонавий таълимий амалиётининг старли даражада илмий таъминланмаганлиги ўртасидаги зиддиятни бартараф қилиш имконини айтиб ўтган.

РЕЗЮМЕ

В качестве обобщения теоретических и практических положений непрерывного профессионального развития в статье рассматриваются теоретические и практические проблемы обучения взрослых в процессе непрерывного образования по андрагогике. Автор также упомянул о возможности устранения конфликта между применением андрагогической модели образования в системе повышения квалификации педагогических кадров, инновационно-ориентированной практикой и недостаточным научным обеспечением современной образовательной практики педагогических кадров.

SUMMARY

As a generalization of the theoretical and practical provisions of continuous professional development, the article discusses the theoretical and practical problems of teaching adults in the process of continuing education in Andragogy. The author also mentioned the possibility of eliminating the conflict between the application of the andragogical model of education in the system of professional development of pedagogical personnel, innovation-oriented practice and insufficient scientific provision of modern educational practice of pedagogical personnel.



BO'LAJAK PEDAGOGLARNING AKMEOLOGIK MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Sharofutdinov I.U.

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Tayanch so'zlar: ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, motivatsiya, akmeologiya, kompetensiya, pedagogika, psixologiya, ruhiyat.

Ключевые слова: образование, будущий учитель, мотивация, акмеология, компетентность, педагогика, психология, психика.

Key words: education, future teacher, motivation, acmeology, competence, pedagogy, psychology, psyche.

Kirish. Jahonda oliy ta'lim tizimidagi taraqqiёт tendentsiyalari, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va uning barqarorligi darajasini oshirish, akmeologik ёndashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil mantiqiy fikrlash, faol ijodiy qobiliyatlarini o'stirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. SHu yo'nalishda xalqaro hamjamiyatda nufuzli o'rin egallaydigan, jahon mehnat bozorida raqobat qila oladigan, kasbiy jihatdan yetuk akmeshaxslarni, faol mutaxassislarni yetishtirish muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarida shaxsni rivojlantirish va kamol toptirish, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayёрlash va akmeologik ёndashuv asosida ularning kasbiy yetukligiga erishish jaraёнlarini takomillashtirish bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Xalqaro miqёsdagi fan va texnika taraqqiёti, ishlab chiqarishdagi ilg'or tajribalar, tabiat va jamiyatda yuz beraётgan o'zgarishlar, ularning jadallik bilan amaliётga joriy etilishi kasbiy ta'limda kadrlar tayёрlash pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini talab qilmoqda. Bu esa kasbga tayёрlashning intensiv shakllarini qo'llash, ta'limning pedagogik-psixologik-akmeologik vazifalarini integratsiyalash, o'quv-tarbiya jaraёni uchun akmeologik kasbiy yo'nalish metodlarini ishlab chiqish muhimligini kun tartibiga qo'ymoqda. Ta'lim muhitini akmeologik ёndashuv asosida takomillashtirishga bo'lgan bunday munosabat akmeshaxs hisoblangan

mutaxassisni shakllantirish, kasbiy ta'limni rivojlantirish, kadrlar tayèrlash sifatini yaxshilash, bu jaraènni ilmiy-metodik jihatdan ta'minlash imkonini beradiki, bu esa mazkur dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligini ta'minlaydi.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtièjlariga mos yuqori malakali kadrlar tayèrlash sièsati izchil davom ettirilmoqda. Jumladan, ta'lim-tarbiya tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida yangi bosqichga ko'tarish, pedagog kadrlar tayèrlashning innovatsion mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliètga joriy etishga doir keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. SHu bilan birga, pedagog kadrlar tayèrlashning innovatsion tizimini ishlab chiqish, pedagogika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni istiqbolli maqsadlarni ko'zlab amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish"[1] kabi muhim vazifalar belgilandi. Bu esa oliy ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish, intellektual salohiyatini taraqqiy ettirishning psixologik-pedagogik shartlari va mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Akmeologik èndashuv asosida bo'lajak o'qituvchilar shaxsini optimal takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish muhim omillardan biri sanaladi. SHu bois bu muammo fanda har tomonlama va chuqur ko'rib chiqilgan.

Respublikamiz olimlari M.Bekmuradov, N.A.Muslimov, A.SH.Soliev, G.X.Tillaeva, B.X.Xodjaevlar tomonidan mutaxassislar kasbiy tayèrgarligining samarali va istiqbolli kontseptsiyalari ishlab chiqilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlari B.G.Ананьев, A.M.Derkach, A.S.Glinskiy, L.G.Gribenyuk, T.V.Zobnitsa, N.V.Kurbet, A.M.Leontev, G.V.Mironova, V.P.Medvedev, A.T.Nekrasovalar tomonidan ta'limda akmeologik èndashuv masalalari o'rganilgan.

Xorijlik Boele de Raad, Gregory K.Patton, Wendell R.Gamer, Thomas DeiBinger, Peterson C., Seligman M.E.F., Vaillant G.E., Zullo H.H., Oettingen G., Drapeau Patti, Albert Bandura, Richard Walters, Louis Cohen, Thomas K., Khanna J.K. kabi olimlar tomonidan psixologik-akmeologik muammolar tadqiq etilgan.

O'qituvchi shaxsiga individual èndashuv bo'lajak o'qituvchining akmeologik kompetentsiyasini rivojlantirishga mo'ljallangan bo'lib, u o'qituvchi shaxsiga



qadriyat, maqsad, sub'ekt, natija va samaradorlikning bosh mezon sifatida munosabatda bo'ladi. Chunki shaxs doim o'zini o'zi rivojlantirishi uchun kerakli vaziyatlarni tanlaydi, bu vaziyatlar uning ongida o'zini o'zi anglash, namoèn etish, takomillashtirish, o'zini ko'rsatish zarurati bilan paydo bo'lib, shaxs o'zining kasbiy va individual rivojlanishi uchun eng zarur yo'l tutishga harakat qiladi.

Bizning tadqiqotimizda kompetentlik faoliyatli èndashuv nuqtai nazaridan bilim, malaka va yo'naltirilgan faoliyatni yuksak kasbiy darajada bajarish usullari, shaxsning murakkab integrativ sifati, faoliyatiga vosita bo'luvchi va uning samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan tizimlar sifatida tasvirlangan.

Gumanitar èndashuv esa bo'lajak o'qituvchi shaxsining o'zini namoèn qiluvchi jaraèn sifatidagi shaxsiy-kasbiy rivojlanishini ochib berish, unda yangi eng muhim, haètiy ziddiyatlarni mustaqil hal qila olish qobiliyatlarini rag'batlantirish, nafaqat o'qituvchining, balki ta'lim jaraèni barcha ishtirokchilarining intellektual imkoniyatlarini faollashtirishga yo'naltirilgan o'qituvchining shaxsiy-kasbiy sifatlarini namoèn qila oladi. Akmeologiyaning gumanitar vazifasi shundan iboratki, u inson haètining haqqoniyligini, o'zini to'la namoèn qilaètganini anglashga èrdamlashadi.

Akmeologik èndashuv doirasida faoliyatli va shaxsiy-faoliyatli èndashuv tamoyillarining integratsiyasi vositasida kompetentlik muayyan qonuniyat, sharoit va omillarni hisobga olgan holda tahlil etilganda, voyaga yetgan kishilar muayyan faoliyatining oliy darajasini ta'minlaydi (N.N.Nikitina).

Nazariy tahlil shuni tasdiqlaydiki, akmeologik tadqiqotlarda kompetentli insonning o'z kasbi talablariga muvofiq keluvchi sifatleri kasbiy xususiyatlari (A.Maslou), faoliyatining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar (V.A.Markelova) qarab chiqiladi. SHunday qilib, kompetentli kasb-hunarning zaruriy sharti mutaxassis kasbiy faoliyati samaradorligini bildiruvchi va uning shaxsiy-kasbiy rivojlanishiga vosita bo'luvchi sifatlar yig'indisidir.

Olib borilgan nazariy tahlillar shunga imkon beradiki, akmeologik kompetentlik shaxsning ko'p bosqichli integral shaxsiy-faoliyatli sifati bo'lib, u insonga o'z oldiga muayyan bir vazifalar qo'yish va ularni samarali yechish, o'zini o'zi faollashtirish, takomillashtirish va o'zini o'zi namoèn etish borasida har xil murakkablik darajasiga ega bo'lgan muammolarni turli haètiy faoliyatlar doirasida, birinchi navbatda, kasbiy sohada hal qilish imkonini beradi (Yu.S.Artemov).

Tahlillar va natijalar

Psixologik-pedagogik adabiètlar tahliliga asoslanib akmeologik kompetentlik mazmunini shunday belgiladikki, u kasbiy faoliyat, kasbiy talablar, qadriyatli

mo'ljallar, kasbiy o'zini o'zi baholash jaraenidagi sub'ekt shaxsiy talablarining ifodalanish darajasi desak, to'g'riroq bo'ladi.

Akmeologik kompetentlik mohiyati va mazmuni shuni aniqlashga imkon berdiki, akmeologik kompetentlik – shaxs yangi sifat holatining yuzaga kelishini ko'rsatuvchi kasbiy ijodkorlik, unga egalik, refleksiya kabi komponentlar integratsiyasidan iborat bo'lgan holat.

Ko'pgina olimlar kasbiy ijodkorlikni pedagogik vazifaning qo'yilishi va uning ijobiy hal qilinishi masalasi bilan bog'laydilar èki pedagogik vazifa o'z mohiyatiga ko'ra pedagogik jaraenning —evristik markazil, deyilgan (V.A.Kan-kalink, N.V.Kuzmina, V.A.Slastetsin). Biz kasbiy-pedagogik vazifa deganda, bo'lajak o'qituvchining maqsad, predmet, usullarni o'zida jamlovchi kasbiy harakatlarni tushunish natijalari, ularni bajarish zarurati va sharoitlarini tushunamiz. Kasbiy-pedagogik vazifalarni aniqlashga bunday èndashuv masalalarni yechish jaraeni va talablarni, bu jaraenda o'qitish masalalarini butunlay yangicha aniqlaydi.

Bo'lajak o'qituvchi o'z shaxsiy haèti strategiyasini bilimi asosida tashkil qilishi bilan bir qatorda bevosita pedagogik jaraenni bashorat qilish va loyihalash usullarini ham egallagan bo'lishi, pedagogik maqsadlarni konkretlashtirish va ularni pedagogik vazifalar tizimiga transformatsiya qilish yo'llarini ham bilishi lozim.

Har bir narsani amaliy egallash san'ati olg'a qo'yilgan maqsadlar mazmunini to'la qamrab oluvchi vazifalarni aniq belgilashni taqozo etadi. SHunday qilib, bashorat qilish va yaxlit faraz qilishni bilmaydigan bo'lajak o'qituvchi yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishi mumkin emas. CHunki maqsadni anglash faoliyatga impuls beradi, insonning barcha ijodiy kuchlarini safarbar qiladi, uni kasbiy cho'qqi tomon yetaklaydi. Yaxlit faraz qilish joiz, deb bilish bo'lajak o'qituvchi akmeologik kompetentsiyasi tarkibidagi hal qiluvchi elementdir.

Nazariy tahlillardan shunday xulosaga keldikki, bo'lajak o'qituvchilar akmeologik kompetentligining refleksiv komponenti shakllanishi jaraenida o'qituvchining o'zini o'zi anglashi va ma'naviy dunèsi, shaxsiy harakatlari va holatlari, mehnat jaraenidagi roli va o'rnini qayta fikrlashga yo'naltirilgan psixik faoliyat rivojlanadi (K.A.Abul'xanova Slavskaya).

SHunday qilib, bizning fikrimizcha, bo'lajak o'qituvchining akmeologik kompetentsiyasi uning o'z kasbiy faoliyatini malakali amalga oshirishdagi nazariy va amaliy tayèrgarligi va yaxlit qobiliyati sifatida izohlanadi. Bu ta'rifda o'qituvchi kasbiy malakalarining yig'indisi aks etgan, ularning amaliètda, kasbiy vazifalarni bajarish jaraenida qo'llanilishi mutaxassis faoliyatining maqsadga muvofiq natijaviylik darajasini ta'minlaydi.



Bo'lajak bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik motivatsiyasini oshirish uchun psixologik va pedagogik sharoitlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Bunday shartlardan biri bu o'quv sub'ektlarini yaratish va ijodiy o'zini o'zi amalga oshirish jarayoniga jalb qilishni ta'minlaydigan o'quv innovatsion muhitini yaratishdir. Innovatsiya yangi samarali algoritmlar va faoliyatni amalga oshirish usullarini ishlab chiqishda, ta'lim muammolarini yechishda namoyon bo'ladi. O'qituvchi zamonaviy ilmiy bilimlar, samarali tajriba va ijodiy izlanishlar mavjud bo'lgandagina mumkin bo'lgan o'qitish va tarbiya usullarini doimiy ravishda takomillashtirish sharoitida joylashadi. Yaratilish jarayonida ishtirok etadigan sub'ektlarning faolligi, xatarlarni qabul qilishga tayyorligi va ular shug'ullanadigan faoliyat uchun qiymat munosabatlarini shakllantirish mavjud bo'lganda innovatsiyalar paydo bo'ladi. Ijodiy izlanish muhitini yaratish, bilim obro'-e'tiborini oshirish, qo'shimcha ma'lumot izlashni rag'batlantirish, mehnatga bo'lgan hurmat o'zini takomillashtirishga olib keladigan kuchli turtki.

2. Bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik mahoratini oshirish uchun zarur bo'lgan navbatdagi shart bu subektiv pozitsiyani va shaxsiy ma'noni rivojlantirishdir. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisi uchun sub'ektivlikka erishish bu nafaqat belgilangan maqsadga erishish, balki o'zini takomillashtirish sari doimiy harakat qilishdir.

SHu nuqtai nazardan, «akme» bu keyingi harakatning yangi ufoqlari ochiladigan cho'qqidir. Akmeologiya nuqtai nazaridan mustaqillik, tashabbus va javobgarlikdir.

K.A.Abulxonovanning[2] fikriga ko'ra, subektivlikning asosiy mezoni bu odamning har xil qarama-qarshiliklarni hal qilish qobiliyatidir. Bular insonga qaratilgan qobiliyatlar, shaxsiyat va jamiyat va hayotning talablari o'rtasidagi qarama-qarshiliklardir. Bu shaxsning da'volari va harakatlari va ularning natijalari o'rtasidagi qarama-qarshilik.

3. Bo'lajak pedagoglarning akmeologik mahoratini oshirishning eng muhim pedagogik sharti maxsus intellektual qobiliyatlarni o'stirishdir: tushunish, qayta ko'rib chiqish, oldingi ma'nolarni obro'sini yo'qotish, ma'no manbalarini izlash, ma'nolarning sabab va intuitiv aloqalarini o'rnatish va boshqalar.[3]

4. Bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetensiyalarini rivojlantirishning navbatdagi psixologik va pedagogik sharti bu «o'zini» aktualashtirishdir. Buning uchun o'qituvchi va talaba o'rtasida ishonchli munosabatlarni yaratish kerak. Kamroq tanqid qilish kerak, agar tanqid qilsangiz, ijobiy bo'lsa, erishilgan natijalarga norozilik bildirmaslik, axloqiy tarbiya bilan shug'ullanmaslik, aksincha talabani ko'proq ma'qullash, uning ichida va tashqarisida bo'ladigan

barcha narsalarga ijobiy munosabatda bo'lish tavsiya etiladi. Talabaga hurmat, o'z muammolarini uddalashda uning potentsial qobiliyatini tan olish, uning o'ziga xosligi va ichki ahamiyatini anglash uning «o'zini» anglashiga yordam beradi.

5. Ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan muammoli o'qitish usullaridan foydalanish pedagogik, psixologik, akmeologik va boshqa fanlarni o'rganishni tashkil qilishning asosiy usuliga aylanishi kerak.

Ushbu fanlarni o'rganishda muammoli yondashuv muayyan nazariyaning mohiyatini chuqurroq o'rganish, ularni taqqoslash, o'rganilayotgan jarayonlarning ichki mexanizmlariga chuqurroq kirib borish imkonini beradi, chunki muammoli taqdimot uslubining mohiyati o'qituvchiga muammo tug'dirishi va gipotezani shakllantirishdan iborat. Uni qanday tekshirishni, paydo bo'lgan qarama-qarshiliklarni ochib berishni ko'rsatib beradi. SHunday qilib, ilmiy bilimlarning namunalari, muammolarni ilmiy yechimlari ko'rsatilgan. SHu bilan birga, talabalar nafaqat tayyor ilmiy xulosalarni anglash, tushunish va eslab qolish, balki dalillar mantig'iga, o'qituvchi fikrlarining harakatiga amal qilish imkoniyatiga ega.

T.V. Kudryavtsev[4] mashg'ulotlarda muammoli vaziyatning uchta belgisini beradi:

1) SHunday bo'lishi kerakki, uning qarorini talabalarning shaxsiy bilim faoliyati boshqarishi mumkin.

2) Muammoli vaziyat tufayli kelib chiqadigan savollar o'quvchilarga tegishli bo'lishi kerak.

Muammoli vaziyat xususiyatini o'z ichiga olishi kerak. Ushbu qoidani ochar ekan, T.Kudryavtsev “asosiy muammoning yechimi bir-biridan kelib chiqadigan bo'ysunuvchi muammolarni hal qilish fonida va hodisalar va jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatishi kerak” deb ta'kidlaydi. A.Matyushkin [5] dialogik tamoyilni muammoli o'qitishning yana bir muhim printsipi sifatida ta'kidlaydi va ta'kidlashicha, muloqotda fikrlash jarayonlari «aloqa kemalari» tamoyiliga muvofiq amalga oshirilmaydi va o'quv jarayonining o'zi bu holda samarali generativ jarayondir deb kursatadi.

6. Dialog, o'quv usuli sifatida, o'quv jarayoni sub'ektlari munosabatlarining eng maqbul shakli sifatida juda qadimdan ma'lum bo'lgan.

Dialog - bu odamga yangi tajribalarni qabul qilish, eski ma'nolarni qayta ko'rib chiqish va boshqalar uchun qulay sharoit yaratadigan o'ziga xos ijtimoiy-madaniy muhit. Har bir talaba muayyan hayotiy vaziyatga bo'lgan munosabatini asoslashi, uning ma'nosini aniqlashi kerak. Aynan shu holatda o'qituvchi qidiruv jarayoniga aralashish imkoniyatiga ega, bu faqat dialog



orqali amalga oshirilishi mumkin. Muloqot jarayonida u o'quvchiga o'zi duch kelgan nizoli vaziyatni ko'rishga yordam beradi.

Muloqot talabalarning shaxsiy funktsiyalarini yangilashga, ularning qiymat tanlovini, tanqidiy hislarni amalga oshirishda tajriba to'plashga qaratilgan vaziyatni yaratadi.

Bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini takomillashtirish jarayoni asosiy psixologik va pedagogik shartlarga rioya qilingan holda muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Masalan:

ta'lim va tarbiya jarayonini insoniylashtirish;

innovatsion ta'lim muhitini yaratish;

ta'lim va kelajakdagi kasbiy faoliyatda sub'ektiv pozitsiyani va shaxsiy ma'noni rivojlantirish; muammoli o'qitish usullari;

o'zini o'zi aktuallashtirish;

dialogik aloqalar.

Umumiy psixologik va pedagogik sharoitlarga qo'shimcha ravishda, xususiylar aniqlandi va amalga oshirildi, bular quyidagilar: bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining akmeologik motivatsiyasini oshirishga qaratilgan materialning mazmuni; akademik fanlarning kasbiy yo'nalishi; talabalarning o'quv va bilim faoliyati ustidan joriy nazorat; takomillashtirishni bosqichma-bosqich baholash; talabalarning ijodiy va reflektorlik faoliyati murakkabliklarining izchilligi va ketma-ketligi; kasbiy faoliyatning real vaziyatlarini modellashtirish va baholash mezonlari, uslubiy ta'minot, nazorat va sozlashni o'z ichiga oldi. Bo'lajak pedagoglarning akmeologik motivatsiyasini shakllantirish jarayonining texnologik xususiyatlariga muvofiq takomillashtirishni ta'minlash: simulyatsiya qilingan jarayonning asosiy maqsadini aniqlash, o'quv materialini tanlash va tuzish, uning muammosi. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun muammoli, inversiya usullari qo'llanilgan. Talabalar bahs-munozaralar, bahs-munozaralar, tahlil va hokazolarga jalb qilindi, talabalarning fikrlash qobiliyati, moslashuvchanligi, o'ziga xosligi, mahsuldorligi uchun sharoitlar yaratiladi.

Akmeologik o'quv uslubi bu talabaga muvaffaqiyat va yuqori natijalarga erishishda yordam beradigan va doimiy ravishda rag'batlantirishga asoslangan uslub yohud o'quv jarayonini loyihalash va bosqichma-bosqich diagnostika yordamida yaratilgan tizimli o'quv uslubidir. Akmeologik uslub bo'lajak o'qituvchining o'qitish va o'z-o'zini rivojlantirishdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlab, o'quv faoliyatini bosqichma-bosqich tashkil etishga yordam beradi. Pedagogika sohasidagi o'qituvchining vazifasi bo'lajak o'qituvchilarning



intellektual, shaxsiy, ijtimoiy fazilatlarini va shaxsning kommunikativ aspektlarini rivojlantirishdir.

Akmeologik texnikaga quyidagilar kiradi: interfaol o'yinlar, mahorat darslari, ishlab chiqish texnikasi, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish uslublari, tahmin qilish usullari, muammolarni qanday hal qilishni o'rgatish usullari va hokazolar. O'qituvchining yaxshi rivojlangan akmeologik yondashuvi asosan o'qituvchining raqobatbardoshligini va kasbiy-ijtimoiy muvaffaqiyatini belgilaydi. Bo'lajak o'qituvchi kommunikativlik kabi professional va shaxsiy fazilatni rivojlantirganida, bu jarayon o'zining samarali natijasini beradi. Bo'lajak o'qituvchining akmeologik platformasi – bu yuqori darajadagi natijalarga va pedagogik ko'rsatkichlarga erishishga, o'qituvchi va talabaning ijodini rivojlantirishga, o'quv faoliyatida barqaror gumanistik motivatsiyaga yo'naltirilgan ularning shaxsiyatining integrativ xususiyati demakdir.

Xulosa qilib aytganda, rivojlanish va o'zini o'zi rivojlantirishning akmeologik printsiplari, kasbiy rivojlanish mexanizmlari to'g'risidagi bilimlarni tizimlashtirish uchun « Bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari» maxsus seminar dasturi ishlab chiqish ta'limining nazariy va amaliy jihatlarining ajralmas asosi, o'zini o'zi rivojlantirishning asosi bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi —O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi PF-4947-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
2. Abulxanova-Slavskaya K.A. Faoliyat va shaxs psixologiyasi. -M.: Nauka, 1980. –S. -335.
3. Kulnevich SV. Kontseptsiyalardan texnologiyaga qadar shaxsning pedagogikasi: darslik. - Rostov-Donu: «O'qituvchi», 2011. –S. -160.
4. Muammoli ta'lim tizimi. Muammoli va dasturlashtirilgan o'quv / ed. T.V. Kudryavtseva, A.M. Matyushkina.- M.: Rossiya, 2003 .-- S. 10-29.
5. «Matyushkin AM, Petrosyan A.G. Muammoli ta'limning guruhli shakllarining psixologik asoslari. - M., 2011, 42-bet.

РЕЗЮМЕ

Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik motivatsiyasini takomillashtirish uchun psixologik va pedagogik sharoitlarni tavsiflash, mazkur vazifaning professionallik tizimi, uni oliy o'quv yurtlarida o'qitish jarayonida rivojlanish imkoniyatlari tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ

В статье описываются психолого-педагогические условия повышения акмеологической мотивации будущих учителей, анализируется система профессионализма решения этой задачи, возможности ее развития в процессе обучения в высших учебных заведениях.

SUMMARY

The article describes the psychological and pedagogical conditions for improving the acmeological motivation of future teachers, analyzes the system of professionalism of this task, the possibilities of its development in the process of training in higher educational institutions.



DEMOGRAFIK OMILLARNING MAMLAKAT HUDUDLARIDAGI TA'LIM XIZMATLARIGA BO'LGAN TALABGA TA'SIRI

Xujamov I.

A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti mustaqil ilmiy izlanuvchisi
O'dinaeva N.

A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot institutimustaqil ilmiy izlanuvchisi.

Tayanch so'zlar: demografik omil, ta'lim xizmatlariga talab, aholi soni, aholi zichligi, tug'ilish darajasi, tizim modeli, migratsiya, aholi salomatligi.

Key words: demographic factor, demand for educational services, population, population density, birth rate, system model, migration, population health.

Ключевые слова: демографический фактор, спрос на образовательные услуги, население, плотность населения, рождаемость, системная модель, миграция, здоровье населения.

Kirish. Xalq ta'limi tizimi O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Aynan maktab ta'limining sifati va qulayligi davlatning rivojlanish istiqbollarini aks ettirib, yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun zamin yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida maktab ishlari davlat nazoratida ekanligi bejizga ta'kidlangan emas.

Ta'lim tizimi kognitiv kompetensiya[1] va raqamli texnologiyalar asosida qurilgan iqtisodiyotda eng muhim rollardan birini o'ynaydi, bu yerda ishlab chiqarish omilining asosiy xususiyati inson kapitali bo'lib, bu ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish va unga ta'sir qiluvchi omillar bilan bog'liq tizimining dolzarbligini oshiradi. Zamonaviy ta'limning maqsadi jamiyat a'zosiga o'zini shaxs sifatida anglashi va olingan bilim, kasbiy ko'nikma va tajribani amalda yanada qo'llashi, ya'ni muvaffaqiyatli ish topishi va zamonaviy jamiyatda o'z o'rnini egallashi uchun imkon beradigan vakolatlarning shakllantirishidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy ta'lim tizimi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va texnologik omillarga bog'liq.

Siyosiy omillar ta'siri ta'limni rivojlantirishning istiqbollari ko'p jihatdan davlat siyosati va jamiyatning ushbu sohaga bo'lgan munosabatiga bog'liqligida

namoyon bo'ladi. Siyosiy omillarga davlatning ta'lim oldiga qo'ygan maqsad va vazifalari kiradi. Bilimlar iqtisodiyoti doirasidagi ta'lim sohasidagi o'zgarishlar davlat tomonidan tartibga solish darajasiga, ta'limni jamoat manfaati sifatida tashkil etish shakllari va usullarining evolyusiyasiga ta'sir qiladi.

Ta'limni qo'llab-quvvatlovchi texnologik omillarga yangi texnologiyalar va innovatsion dasturlarni ishlab chiqish kiradi. Masalan, zamonaviy ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhim elementlar, shu jumladan raqamli ta'lim bo'lib, ular o'quv jarayonini yanada aniqroq, qiziqarli va qulayroq qiladi.

Shuningdek, ta'lim tizimi iqtisodiy omillarga bog'liq bo'lib, ular iste'molchilarning xarid qobiliyatiga, iste'mol tarkibiga va ta'lim sohasidagi xizmatlarni yetkazib berishga ta'sir qiluvchi bir butun tizimlar to'plamidir. Ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy masalalaridan biri moliyalashtirish ekanligini inkor etib bo'lmaydi. Ta'limni moddiy qo'llab-quvvatlash sifatida davlat subsidiyalari, soliq imtiyozlari, grantlar, xususiy investitsiyalar va aralash moliyalashtirish kabi mexanizmlardan foydalaniladi.

Ta'lim xizmatlari bozorida ijtimoiy omillar ham muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy omil – bu shaxsning xulq-atvori, farovonligi va sog'lig'iga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy muhitdagi har qanday o'zgarishlardir. Bularga aholi turmush darajasi, aholi salomatligi, demografik ko'rsatkichlar, ishchi kuchining holati, ijtimoiy soha va infratuzilma kabi ko'rsatkichlar kiradi.

Demografik ko'rsatkichlarning umumiyliigi, ya'ni demografik muhit ta'lim tizimiga ta'sir etuvchi tashqi muhitning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Demografik muhit ma'lum bir tuzilishga ega, ya'ni bir guruh insonlarning demografik xususiyatlari bilan farq qilishidan iborat bo'ladi.

Biroq, demografik omillar ko'proq darajada ushbu xizmatlarning iste'molchilari tomonidan belgilanadigan ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabiga ta'sir qiladi. Oxirgi foydalanuvchilarga ta'lim salohiyatidan nafaqat moddiy yoki boshqa imtiyozlar yaratish va pul topish uchun, balki o'zlarining bilim ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanadigan o'quvchilar, talabalar, tinglovchilar kiradi. O'z navbatida, ta'lim xizmatlari bozorida talab sub'ektlari bo'lib tashkilotlar, firmalar, shuningdek davlat va xususiy korxonalar, alohida fuqarolar kiradi.

Ko'rinib turibdiki, zamonaviy dunyoda bilimlarning qadr-qimmatini doimiy ravishda oshib borayotgan sharoitda har yili ta'lim xizmatlariga talab ortib bormoqda, chunki ta'lim savodli va madaniyatli kelajak avlodni muvaffaqiyatli rivojlantirish va shakllantirishning ajralmas va o'ta muhim tarkibiy qismidir.



Ta'lim tizimi juda murakkab ijtimoiy—iqtisodiy tizim bo'lib, u nafaqat miqdoriy, balki sifat xususiyatlari, hududiy tarmoqlanishi va ma'muriy bo'ysunish xususiyatlari bilan ham tavsiflanadi.

Ta'lim xizmatlari uchun talab miqdoriy xususiyatlarni o'z ichiga oladi: o'quvchilar soni, o'rganilayotgan vaqtda bolalar bog'chalariga boradigan bolalar, bolalar bog'chasiga bormaydigan, lekin potensial talab bor bo'lgan bolalar (0-1,5 yosh), ta'lim olish uchun ehtiyoj bor boshqa fuqarolar (uzluksiz ta'lim sifatida). O'rganilgan tafsilotlardan ko'rinib turibdiki, ta'lim xizmatlariga bo'lgan haqiqiy va potensial talab keng miqiyosda bo'lib, ular turli yoshdagi shaxslardan shakllangan.

Ta'lim xizmatlari bozoridagi talabning sifat xususiyatlari esa aholi salomatligi, aholining ma'lumot darajasi, aholi tarkibi kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabning xususiyatlaridan biri taqdim etilgan demografik omillar ta'lim tizimiga bevosita ta'sir qiladi degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Bu keyingi tadqiqotlarning dolzarbligini belgilaydi va isbotlaydi.

Ushbu tadqiqotning ilmiy muammolaridan biri shundaki, hozirgi kunga qadar xalq ta'limi tizimida demografik omillarning talab va taklifini prognoz (bashorat) qilish uchun etarli vositalar ishlab chiqilmagan.

Bunday xulosa kelishga sabab, O'zbekiston ta'lim bozoridagi real vaziyat va ochiq-oydin muammolarni asos qilib olish mumkin, ular orasida, masalan, bolalar bog'chalari uchun navbat, umumta'lim maktablaridagi sinflarning hajmi va undagi o'quvchilar soni, talab va ta'lim xizmatlari o'rtasidagi ayrim hududlaridagi nomutonasiblik ya'ni tengsizlikni olish mumkin.

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ma'lumotlariga ko'ra[2], 2021/2022 o'quv yilida umumta'lim maktablarini jami 441,3 ming o'quvchi bitirgan bo'lsa, 2022/2023 o'quv yilida 701,9 ming bola 1-sinfga chiqadi. Ushbu bolalarni maktabga qabul qilish uchun 2022/2023 o'quv yilining o'zida qo'shimcha 260,6 ming o'quvchi o'rni zarur bo'ladi. 2021/2022 o'quv yilida maktablar pasporti bo'yicha umumiy loyihaviy quvvati 5111,1 ming o'rinni tashkil etdi. Hisob kitoblariga ko'ra, 2026 yilda 7-17 yosh oralig'idagi bolalar soni 7642,7 ming nafarni, 2030 yilda esa 8660,8 nafarni tashkil etadi.

2026 yilgacha 1,2 million o'quvchi o'rni uchun mo'ljallangan maktablari qurilishiga 18,4 trln.so'm, 2030 yilgacha yana 600 ming o'rinni maktablar qurilishi uchun 9,2 trln.so'm, jami 27,6 trln.so'm mablag' talab etiladi. Shundan keyin ham 1,7 million o'quvchi o'rni yetishmovchiligi saqlanib qoladi.


Darvoqe, jon boshiga hisoblaganda ham, davom etayotgan urbanizatsiya va migratsiya jarayonlarini inobatga olsa ham, Toshkent shahridagi maktab yetishmovchiligi muammosi poytaxtdagi eng og‘ir ijtimoiy muammolardan biriga aylanadi. Chunki strategiya ham, maqsadli ko‘rsatkichlar ham poytaxtdagi mavjud reallikni umuman inobatga olmagan.

Demografik omillarni to‘g‘ri ko‘rib chiqish kelajakda boshlang‘ich, o‘rta va oliy ta‘lim muassasalarida zarur hudud hamda joylarni aniqlash bo‘yicha o‘quv jarayonining yo‘nalishi va maqsadlariga muvofiq uzoq muddatli prognozlarni qilish va ta‘lim strategiyalarni ishlab-chiqishga imkon beradi deb ta‘kidlash mumkin. Shu sababli, asosiy muammo shundaki, bugungi kunga qadar ta‘lim xizmatlariga talabni prognoz qilishning haqiqatan ham samarali usuli hali taklif qilinmagan.

Talabni bashorat qilishda nafaqat tug‘ilish prognozlarini, balki migratsiya jarayonlarining prognozlarini ham, davlatlararo immigratsiya sharoitida ham, “shahar-qishloq” ichki migratsiyasi muhitida ham hisobga olish kerak. Bundan tashqari, O‘zbekiston hududlarida notekis zichlik va aholi joylashuvini hisobga olish zarur bo‘ladi. Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2022 yilning 1 oktabr holatiga O‘zbekistonda 1 km.kv. yer maydoniga o‘rtacha 79,8 nafar doimiy aholi soni to‘g‘ri keladi. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 1,7 kishiga ortgan. Aholi o‘sishi o‘zi busiz ham tobora murakkablashayotgan maktab yetishmovchiligi muammosini yanada kuchaytiradi

Tahlillarga ko‘ra, 48 yil oldin Yer yuzida aholining soni ikki baravar kam bo‘lgan bo‘lsa, keyingi bosqich (9 milliard) 2030-yillarda kutilmoqda. 2022 yilning 1 oktabr holatiga respublikaning demografik ko‘rsatkichlari tahlil qilinganda, jami aholi soni – 35,8 mln. kishi, shaharda yashovchilar – 18,2 mln.

Aholining tabiiy harakati, ming kishi





kishi, qishloqda yashovchilar – 17,6 mln. kishi, tug‘ilish soni – 681,8 ming kishi, o‘limlar soni – 130,4 ming kishi, tashqi migratsiya: ko‘chib kelgan – 1,5 ming kishi, ko‘chib ketgan – 3,2 ming kishi bo‘lgan.

2022 yilning 1 yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasida jami 9424787 ta oilalar mavjud bo‘lib, shundan 4771951 ta 18 yoshdan kichik bolali oilalardir. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 179148 taga ko‘paygan. Hududlar kesimida 18 yoshdan kichik bolali oilalar soni esa, Qoraqalpog‘iston Respublikasida – 263520 ta, Andijon viloyati – 447561 ta, Buxoro viloyati – 316079 ta, Jizzax viloyati – 163465 ta, Qashqadaryo viloyati – 387163 ta, Navoiy viloyati – 153733 ta, Namangan viloyati – 427060 ta, Samarqand viloyati – 477377 ta, Surxondaryo viloyati – 355724 ta, Sirdaryo viloyati – 108536 ta, Toshkent viloyati – 420240 ta, Farg‘ona viloyati – 535986 ta, Xorazm viloyati – 313564 ta, Toshkent shahri – 401943 ta bo‘lgan.

Taqdim yetilgan tahliliy ma‘lumotlarga ko‘ra, mamlakatning turli mintaqalarida o‘rganilayotgan talabga turli omillar ta‘sir qiladi. O‘sha hududlarida qaerda muhojirlar oqimi yuqori, bu muhojirlar miqdoriy va sifat xususiyatlari dominant bo‘lib. Urbanizatsiya yuqori bo‘lgan hududlar uchun-tug‘ilish va bolalar salomatligi omillari. Qishloq hududlari ustunlik qiladigan hududlarda ichki migratsiya omillari mavjud bo‘lib, ularning asosiysi aholining qishloqdan shaharga ommaviy chiqib ketishidir. Ya‘ni, ma‘lum bir mintaqadagi demografik omillarni birinchi navbatda aniqlash kerak, keyin ular ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qarab ma‘lum bir hudud uchun ahamiyatiga qarab tartiblanishi kerak, deb aytishimiz mumkin.

Ushbu omillar va jarayonlar ta‘sirining o‘zaro bog‘liqligini birlashtirganda, faqat natijaviy prognozlar kelajakdagi ta‘lim xizmatlariga bo‘lgan talabning ob‘ektiv tasvirini berishi mumkin. Olingan xulosalar ta‘lim muassasalarida ehtiyojdan kelib chiqqan joylarni shakllantirish, o‘qituvchi-pedagoglarning zarur tarkibini shakllantirishning uzoq muddatli rejalarini ishlab chiqish uchun asos bo‘lishi kerak.

Bundan tashqari, hududlarga, uzoq qishloq va ovullarga o‘qituvchilarni jalb etishga qaratilgan qo‘llab – quvvatlovchi chora-tadbirlar ishlab chiqish orqali pedagog kadrlarning migratsiyasini prognoz (bashorat) qilish imkoni paydo bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Mamlakatning turli hududlarida o‘rganilayotgan talabga turli omillar ta‘sir qiladi. O‘sha hududlarda ichki muhojirlar oqimi yuqori, bu muhojirlar miqdoriy va sifat xususiyatlari dominant bo‘lib. Urbanizatsiya yuqori bo‘lgan hududlar uchun-tug‘ilish va bolalar salomatligi omillari. Qishloq hududlari ustunlik qiladigan hududlarda ichki migratsiya omillari



mavjud bo‘lib, ularning asosiysi aholining qishloqdan shaharga ommaviy chiqib ketishidir. Ya’ni, ma’lum bir mintaqadagi demografik omillarni birinchi navbatda aniqlash kerak, keyin ular ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qarab ma’lum bir hudud uchun ahamiyatiga qarab tartiblanishi kerak, deb aytishimiz mumkin.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, maqolaning asosida keltirilgan muammolar tasdiqlangan deb aytishimiz mumkin. Bugungi kunga kelib, talab prognozlarini modellashtirish amaliyotida turli xil omillar aniqlandi, ularning kaliti tug‘ilish va migratsiya jarayonlari prognozidir. Bizning kuzatuvimiz davomida ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talabga nafaqat ushbu ikki omil, balki aholi soni va zichligi, aholi salomatligi darajasining notekis taqsimlanishi ham ta’sir ko‘rsatishi isbotlandi.

Xulosa va takliflar. Maqolada bir qator asosiy demografik omillarni umumlashtirishga, ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga va ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talabga ta’sir darajasini baholashga harakat qilindi.

Zamonaviy dunyoda ta’lim xizmatlari bozorda sotiladi, bu mavjud potensial xaridorlar va sotuvchilar to‘plami sifatida tushuniladi. Ta’lim bozori, shunga muvofiq, ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talabning va turli ta’lim muassasalari tomonidan bunday xizmatlarni taklif qilishning o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimidir. Binobarin, taqdim etiladigan o‘quv joylari soni ta’lim bozoridagi ta’minotga asosan ta’lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu bozordagi taklif sub’ektlari esa turli mulkchilik shaklidagi ta’lim muassasalaridir. Turli darajadagi muassasalar mulkchilik shakli yoki idoraviy mansubligidan qat’iy nazar (Maktabgacha ta’lim, Xalq ta’limi, Oliy va o‘rtamaxsus ta’limi), ta’limning yagona tarmoq tuzilmasini tashkil etadi. Demografik omillar ta’lim xizmatlaridagi bozor ta’minoti elementlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, turli darajadagi ta’lim muassasalari soni va ularning ma’lum bir hududdagi etariligi, shuningdek bitiruvchilar soni – tarbiyachilar, boshlang‘ich, o‘rta va oliy ta’lim o‘qituvchilari tarkibidan iborat bo‘ladi.

Taqdim etilgan tahlil natijalariga ko‘ra, yangi O‘zbekiston ta’lim tizimida ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talabga ta’sir qiluvchi demografik omillar yig‘indisini keyingi tadqiqotlarda keng o‘rganish zarur degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Kognitiv kompetensiya - shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash kompetensiyasi bo‘lib, bu bilish tushunchasiga asoslanib, bizning ongimiz tomonidan axborotni qayta ishlash jarayoni.
2. (https://ifmr.uz/publications/articles-and-abstracts/birth_rate)



3. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son Qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi
6. Shodiev X, Xabibullaev I. "Statistika" T. "Moliya-iqtisod" 2013.
7. A.Radjiev, F.Karimov, A.Ibragimov. TALIS-2018 xalqaro tadqiqotlari talablari asosida o'tkazilgan so'rovnoma va tadqiqot hisobotining ma'lumotlar to'plami. 1-, 2-to'plam //. – Toshkent, 2022 yil.
8. A.Radjiev, F.Karimov, A.Ibragimov, I.Murodov. Xalq ta'limi raqamlarda. Xalq ta'limi tizimiga oid statistik ko'rsatkichlar bo'yicha qisqa hajmli risola (broshyura). I, II-nashr. "Yangi kitob". Toshkent-2022.
9. F.K.Voros (1975). DEMOCRITUS' EDUCATIONAL THOUGHT, Paedagogica Historica, 15:2, 457-470, DOI: 10.1080/0030923750150206
10. Brickhouse, Thomas C. (2000). The Philosophy of Socrates. Westview Press.
11. Lodge R. C. Plato's theory of education. – Routledge, 2014.
12. Arthur E. Walzer (2003) Quntilian's "Vir Bonus" and the stoic wise man, Rhetoric Society Quarterly, 33:4, 25-41, DOI: 10.1080/02773940309391266
13. A.Radjiyev, F.Karimov, A.Ibragimov, M.Axmedov. TALIS-2018 xalqaro tadqiqotlari talablari asosida o'tkazilgan so'rovnoma va tadqiqotning hisoboti. TALIS-2023 xalqaro tadqiqotiga O'zbekistondagi maktab o'qituvchilari va direktorlarini tayyorlash. 1-qism. T.: 2021. 72 bet
14. Andreas Shlyayxer. Obrazovanie mirovogo urovnya. Kak vystroit shkolnyuyu sistemu XXI veka? Uspeshnye reformy i vysokie rezultaty. Moskva, 2019. 336 s.
15. www.uzedu.uz
16. www.stat.uz
17. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
18. <https://www.statistics.com>

РЕЗЮМЕ

Maqolaning maqsadi demografik omillarning ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabga ta'sirini o'rganish va ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab darajasi, sifati va miqdorining demografik ko'rsatkichlar to'plamiga bog'liqligini asoslashdir, shuningdek, uning asosini aholi tug'ilishlari darajasi, soni va zichligi, hamda ularning turli hududlarda har-xil, notekis o'zgarishlari tahlil qilish. Bundan tashqari, maqolada ichki va tashqi migratsiya omillarining ta'siri, aholi salomatligi darajasi, ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabning miqdoriy va sifat xususiyatlariga e'tibor qaratilgan.

РЕЗЮМЕ

Цель статьи – изучить влияние демографических факторов на спрос на образовательные услуги и обосновать зависимость уровня, качества и количества спроса на образовательные услуги от комплекса демографических показателей, а также его основу от населения для анализа уровня, количества и плотности связей, а также их различных, неравномерных изменений в разных регионах. Кроме того, в статье уделяется внимание влиянию факторов внутренней и внешней миграции, уровню здоровья населения, количественным и качественным характеристикам спроса на образовательные услуги.

SUMMARY

The purpose of the article is to study the influence of demographic factors on the demand for educational services and to substantiate the dependence of the level, quality and quantity of demand for educational services on a set of demographic indicators, as well as its basis on the population to analyze the level, number and density of connections, as well as their different, uneven changes in different regions. In addition, the article focuses on the influence of internal and external migration factors, the level of public health, quantitative and qualitative characteristics of the demand for educational services.



TALABALARNING KASBIY-METODIK KOMPETENTLIGINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA DUAL YONDASHUVLAR

Axmedova M. E.

Toshkent Amaliy fanlar universiteti Pedagogika kafedrasini mudiri p.f.d.

Tayanch so'zlar: filologik ta'lim, kredit-modul tizimi, pedagogik kompetensiya, innovatsion texnologiya, ta'lim traektoriyasi.

Ключевые слова: филологическое образование, кредитно-модульная система, педагогическая компетентность, инновационная технология, образовательная траектория.

Key words: philological education, credit-module system, pedagogical competence, innovative technology, educational trajectory.

Oliy ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni tayyorlash mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari asosida rivojlantirilishi lozim bo'lgan dual ta'lim tizimi bo'lib, pedagogik mahoratni o'qituvchi shaxsida nazariy va amaliy nomoyon etish lozim. Bo'lajak pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligini takomillashtirishda, uni innovatsion faoliyatda namoyon bo'lishini, kasbiy pedagogik tayyorgarlik jarayonida amalga oshiriladi. Pedagogik kompetentlik, integrativ, innovatsion kreativ yondashuvlar asosida pedagogning kasbiy mahoratini ijodkorligini rivojlantirish omili bo'lib xizmat qiladi. O'quv mashg'ulotlarining zamonaviy turlarini (keys-stadi, aralash ta'lim, virtual laboratoriya, debat) tashkil etish va o'tkazish metodikasi asosan talabalarda tanqidiy, o'zini-o'zi (motivatsion, intellektual, amaliy-faoliyatli, faol kommunikatsiya va jamoaviy ish) rivojlantirish va kreativ fikrlashni rivojlantirish usullari oliy ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish va modernizatsiyalash mahsulidir.

Pedagogik kompetentsiya – biror kasb bilan doimiy shug'ullanadigan inson o'z kasbini mohirlik bilan bajarilishi pedagogik kompetentlik va kasbiy jihatdan sog'lom turmush tarzini rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan pedagogik-psixologik tadqiqotlarda "kompetentlik" tushunchasi "pedagogning oliy-kasbiy mahorati" sifatida o'rganiladi. Uning tarkibiga pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonida rivojlangan muhim kasbiy sifatlar hamda shaxsiy kasbiy salohiyatni tashkil etgan oliy pedagogik kompetentsiya, intellektual, motivatsion, kommunikativlik, kreativlik-ijodiy, perseptiv hamda shaxs emotsional-irodaviy



(irodaviy ta'sir o'tkazish va mantiqiy ishontira olish) kabi kompetentsiyaviy majmualar kompleksi kiradi. O'qituvchining kasbiy pedagogik mahorati va o'z kasbiy faoliyatini yuqori saviyada tashkil qila olishni ta'minlovchi, o'qituvchi-pedagog shaxs xususiyatlarini yig'indisidir. Shunday muhim xususiyatlarga o'qituvchi faoliyatining insonparvarlikka yo'naltirilganligi, uning kasbiy bilimlari, pedagogik qobiliyatlari va pedagogik texnikasi, verbal noverbal ta'sirlar kiradi. Bu pedagogik kompetensiya tizimidagi o'zini tashqi ta'sirlarsiz rivojlantira olish xususiyatiga ega o'zaro bog'liq jihatlardir. Shundan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, o'qituvchining kasbiy kompetentligi o'qituvchi faoliyati va shaxsiga qo'yilgan me'yoriy talablar bilan belgilangan umumiy yoki tipik xususiyatlar o'qituvchi sub'ekt sifatida pedagogik faoliyat va muloqotda namoyon bo'luvchi individual-psixologik va tipologik xususiyatlarini belgilash mumkin. Kompetensiya yuksak mahorat, qobiliyatlar majmui, oliy pedagogik mahoratning ko'rsatkichlari hisoblanadi. Pedagogik kompetensiya didaktik faoliyatida ijodiy qo'llagan holda o'quv ishining hamma qirralarida eng yuqori darajada erishilgan yutuqlardir. Pedagogik kompetensiya— bu o'qituvchi-pedagogning shunday shaxsiy va kasbiy fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o'z fanini chuqur va atroflicha bilishida, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarligida talabalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishniig maqbul yo'llarini izlab topib amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi. Yuksak kasbiy pedagogik mahorat egasi, ya'ni kasbiy pedagogik ijodkorlik. Oliy ta'lim muasasasi ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish bevosita amalga oshiruvchi professor-o'qituvchilarga alohida talablar qo'yadi. Tizimda amaliy faoliyatga ijodkorona tatbiq etishning asosiy tayanch nuqtalari hisoblangan, o'z-o'zini takomillashtirish texnologiyasining konseptual asoslarini, asosiy qoidalarining mohiyatini o'zlashtirgan kasbiy pedagogik talabalarga oliy ta'lim va tarbiya berishda innovatsion g'oyalarning yetakchisi bo'la olishi mumkin. Bu esa quyidagilarni taqozo etadi: u talabani tinglay olishi, vaziyatdan munosib ravishda chiqa olish, kasbiy oliy pedagog yangi g'oyalarni hamisha qo'llab-quvvatlaydi, g'oya va fikrlarini bemalol, erkin ifodalash mumkin bo'lgan muhitni yarata oladi. Umumiy kompetentsiyalar va kasbiy kompetentsiyalar “Kompetentlik” tushunchasi ta'lim-tarbiya sohasiga pedagog va psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida fanga kirib kelgan bo'lib, pedagogik va psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan'anaviy vaziyatlar, o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi. [2,49] Nutqiy kompetentlik tilshunoslar tomonidan alohida bilim, malakalarni

egallanishini emas, balki har bir mustaqil til yo'nalishlari bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Talabalarga nutqiy kompetentsiyani shakllantirishda mutaxassis o'z bilimlarini doimo boyitib borayotganini, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim nutqiy talablarni anglayolishni, tovush va ularni amaliyotda qo'llay olish, talabalarni individual xususiyatini inobatga olib ularga fonetikaga xos bo'lgan xususiyatlarni, tovush, tovush ozgarish holatlari, fonetik tahlilularni ishlash va qo'llay bilishni taqozo etadi. Biz kompetentsiyani turlariga murojat etsak. Nutqiy kompetentlik –nutqiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, nutqning shakllanganligi, muloqotga kirisha olish ravon, so'zlashish. Og'zaki va yozma savodxonlik. Maxsus kompetentlik– kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalari baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quyidagi mazmuni ifodalaydi: Pedagogik-psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish. Metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyatni to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash; informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish; Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatantan jidiy va ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish; Innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish. [2,67]. Nutqiy kompetentsiyani shakllantirishda, nutqqa xos bo'lgan barcha holatlarni alifbodan to tovushgacha bo'lgan jarayonlarni turli xil tarbiyaviy usullar, o'yin texnologiyalari bilan singdirish lozim. Talabaga xos bo'lgan nutqiy jarayonlarga to'xtalamiz. Demak, biz qo'llash sohasi bo'yicha tilshunos tadqiqotchining fikriga tayanib Talabaga xos bo'lgan nutqiy kompetentlikni quyidagi tarkibiy asoslarini ishlab chiqdik: Talaba yoshi inobatga olinadi. Fonetik o'zgarishlarga e'tibor berish lozim.

Tovush va ajratishdagi tafovut.

– Fonetik kompetentsiya.



- Insert metodi asosida matnni ravon o'qish usuli.
- Nutqiy sifatlarni o'zlashtirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullari.
- Yod olish qobiliyatini rivojlantirish usullari.

Lug'at bilan ishlash usullari. Leksikalogik kompetentsiya

Mutaxassis sifatida:

- Aniq maqsad, intilish asosida nutqiy jarayonni takomillashtirish metodikasi;
- Nutqiy jarayon samaradorligini, o'zining ishchanlik faolligini oshirish metodikasi;
- Izchil ravishda yangilanib borayotgan filologik bilimlarni o'zlashtirish metodikasi;
- ilg'or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo'lish metodikasi;
- Oliy filologik faoliyatiga fan-texnikaning so'nggi yangiliklarini samarali tadbiiq etish metodikasi;
- kasbiy ko'nikma va malakalarini takomillashtirish metodikasi;

Tilshunos olimlar N.Mahmudov, B.Mengliyev, L.R.Raupova, S.Ashirboyev, Q.Yo'ldoshev kabi o'zbek tilshunos olimlarining ishlarida nutqiy kompetentlikni filologik nuqtai nazardan yanada kengroq va sinchiklab o'rganish imkonini beradigan turli jihatlari va tarkibiy qismlari ajratib olingan va o'rganib chiqilgan. So'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazish o'qituvchidan fikrlarni, pedagogik qobiliyat texnikasini, ijodkorlikni talab qiladi. Demak, kompetentlik – olingan bilimlarga asoslangan holda harakat qila olishlik demakdir. Namunalarga o'xshash harakatlarni ko'zda tutadigan “bilim, ko'nikma va malakalardan farqli o'laroq, nutqiy kompetentlik universal bilimlarga asoslangan holda mustaqil faoliyat tajribasini nazarda tutadi. Nutqiy kompetentlik – talabalarga filologik bilimlarni amaliyotda qo'llay olishda samarali natija beradi. Qo'llash sohalari ularning maxsusligi va aniqligini belgilaydi (ingiliz, franso'z, nemis tillar bo'yicha). Pedagog-psixolog N.G.Vitkovskayaning ta'riflashicha, kompetentlik? qo'yilgan muammolarni hal etishga qaratilgan insonning ichki (bilim, ko'nikma va malakalari, ma'naviy sifatlari, psixologik xususiyatlari) va tashqi (moddiy-texnik, ijtimoiy) imkoniyatlarin safarbar qila olishga qodirligidir.[3,78.]

Psixologik nuqtai nazardan, A.K. Markovanning fikricha, kompetentlik muayyan insonning xarakteristikasi, ya'ni kasbiy talablarga munosibligi darajasi bo'yicha insonning individual xarakteristikasi demakdir kasbiy pedagog N.A.Muslimov o'zining tadqiqot ishlarida o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllanganlik asosini oltita sifatlari, ya'ni motivatsion xislatlar



(insonning butun hayoti davomida shakllanib, rivojlanib boruvchi tanlagan kasbiga bo'lgan ehtiyojlari, motivlari va maqsadlarni qamrab oladi), intellektual salohiyat (barcha rasmiy hujjatlar asosida o'qituvchi axborot va ma'lumotlarni uzatishga, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga intiladi), irodaviy sifatlar (maqsadga intiluvchanlik, ichki va tashqi to'siqlarni, jismoniy va aqliy zo'riqishlarni yenga olishlik, o'zini tuta bilishlik va tashabbuskorlik xislatlari), amaliy ko'nikmalar (psixologik, pedagogik, metodik va texnik-texnologik qobiliyatlar, jamallar, talabning faoliyat va muloqotining turli sohalaridagi ko'nikmalari), hissiy sifatlar (o'z hissiyotlarini boshqarishning zaruriy malakalari shakllantirishi, o'zining aniq hislari (qahr, g'azab, bezovtalik, arazlash, hasad, hamdardlik, uyalish, mag'rurlik, qo'rqish, ko'ngilchanlik, muhabbat va boshqalar)ni boshqarishi hamda o'z hissiyholatlarini va ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni tushunishi) hamda o'z-o'zini boshqara olish (maqsadlarni va ularga erishish vositalarini tanlashdagi erkinlik, vijdonlilik, o'z faoliyatiga tanqidiy yondoshuv, harakatlarning keng qamrovliligi va anglanganligi, o'z xulqini boshqalarniki bilan qiyoslab borishi, kelajakka ishonchi, o'z jismoniy va psixologik holatini talab darajasida tutib turishi va boshqara olishi) sifatleri tashkil etishini ta'kidlab o'tadi. Demak, bir qator tadqiqotlarda bevosita tilshunoslarga xos kasbiy kompetentlik va uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. [4,44.] Ana shunday tadqiqotlar sirasiga B.Mengliyev va L.R.Raupova tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin. Pedagogga xos nutqiy kasbiy kompetentlik, uning o'ziga xos jihatlari talabaga o'rgatishda albatta, talabning individual xususiyatini, tarbiyaviy jarayonini hisobga olish, birinchi kurslardagi psixologik muhitini bilish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. O'quv reja – oliy ta'limning muayyan yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari, kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi, soatlar va kreditlardagi hajmini ta'lim davrining to'liq me'yoriy muddati uchun belgilaydigan me'yoriy-uslubiy hujjat. O'quv dasturi – ta'lim mazmuni belgilovchi, o'quv fanining asosiy mavzulari, mazmuni o'zlashtirilishning eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan me'yoriy-uslubiy hujjat.[1,18]. Amaldagi ta'lim tizimida auditoriya yuklamalariga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda, lekin mustaqil ish turlari hali ommalashmagan. Oily filologik ta'lim tizimida talabalarning nutqiy kompetentsiyasi rivojlantirishda Kredit modul tizimida professor-o'qituvchilar modulli o'quv rejaga asosan (Sillabus) ishchi o'quv dasturini ishlab chiqadi, fanni bir necha mantiqan tugallangan o'quv modullariga ajratadi, har bir o'quv modulining maqsadi va vazifalarini belgilaydi, o'quv moduli bo'yicha talabalar o'zlashtirishi, bilishi va amalda qo'llay olishi lozim bo'lgan kompetentsiyalarni



belgilaydi. [2,67]. O'quv moduli (fanlar) bo'yicha auditoriya mashg'ulotlari uchun (ma'ruza matnlari, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha materiallarni tayyorlaydi, testlar, vaziyatli (keyslarni) masalalarni tuzadi, individual topshiriqlarni shakllantiradi, axborot manbalari (foydalanish uchun tavsiya etilayotgan o'quv va ilmiy adabiyotlar ro'yxati) ni shakllantiradi. Nazorat topshiriqlari va mustaqil ta'lim uchun topshiriqlarni (referat, kurs ishlari yozish, manbalarni tarjima qilish, tegishli mavzular bo'yicha slayd tayyorlash, Glossariy tuzish, savol-javoblar banki) shakllantiradi va ularni o'zlashtirish bo'yicha tegishli ko'rsatmalar beradi. Ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarini olib boradi, tegishli modullarni o'zlashtirish, kurs ishlari va BMLarini yozish bo'yicha talabalarga maslahatlar beradi. O'quv elementlarining quyidagi: Tekstli, Kartografik (atlas, karta), Jadvalli (grafiklar, diagrammalar, gistogrammalar), Ilyustrativ (rasmlar), Audio va video ma'ruzalar, Natural (kolleksiyalar, gerbariyalar), O'yinli (vaziyatli), Komp'yuterli turlarini ishlab chiqadi va amaliyotga keng joriy etiladi. Demak, ijodkor, kasbiy pedagog o'z kasbining yetuk ustasi – ustoz pedagog, ma'lum pedagogik mahoratga ega shaxs hisoblanadi. Bo'lajak pedagog barcha vaziyatlarda ham o'z faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishi uchun doimiy ravishda o'z bilim va kompetentligini oshirib, zamonaviy pedagogik va ilg'or oliy pedagogik tajribalarni, metod va usullarni muntazam o'rganib, kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirib boradi.

Adabiyotlar:

1. Usmonov B.Sh, Habibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T. "Tafakkur" nashriyoti, 2020 y. 120 bet.
2. Axmedova M.E. Pedagogika nazariyasi va tarixi (O'quv qo'llanma) – T.: Tafakkur bo'stoni, 2011.
3. Axmedova M.E. G.Niyozov. Pedagogika nazariyasi va tarixidan seminar mashg'ulotlar (O'quv qo'llanma) – T.: Noshir, 2011.
4. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.:2006.
5. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A." Ta'limda innovatsion texnologiya (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun) amaliy tavsiyalar". Tashkent."Iste'dod" nashriyoti, 2008 y.

Internet saytlar

6. <http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

PEZIOME

Filologik ta'limda talabalarning mustaqil oquv topshiriqlarini rivojlantirishda kredit-modul tizimiga o'tishning amaldagi holati va istiqbollari, oliy ta'lim muassasalarini ilg'or jahon tajribalari asosida kredit-modul tizimining tamoyillari, ta'lim oluvchi, ta'lim natijalarini tan olinishi. Ta'lim traektoriyasini mustaqil shakllantirish imkoniyatini yaratilishi va akademik mobillik, baholarning to'planib borilishi, Professor-o'qituvchi, talabalarning fanga qiziqishi, hamda aniq belgilangan baholash tizimini joriy etilishi maqsadga muvofiq ekanligi asoslab berilgan.



РЕЗЮМЕ

Современное состояние и перспективы перехода на кредитно-модульную систему развития устной компетенции студентов высшего филологического образования, принципы кредитно-модульной системы вузов на основе передового зарубежного опыта, признания результатов обучения. Обоснована академическая мобильность, накопление оценок, заинтересованность преподавателей и студентов в науке, а также введение четко определенной системы оценивания.

RESUME

The current state and prospects for the transition to a credit-modular system for the development of oral competence of students of higher philological education, the principles of a credit-modular system of universities based on advanced foreign experience, recognition of learning outcomes. Substantiated are academic mobility, the accumulation of grades, the interest of teachers and students in science, as well as the introduction of a well-defined assessment system.



БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ЭВРИСТИК ТОПШИРИҚЛАР ЁРДАМИДА РИВОЖЛАНТИРИШ КАСБИЙ-ПЕДАГОГИК ЗАРУРИЯТ СИФАТИДА

Қодиров Ғ. Ў.

ЎзПФТИ мустақил тадқиқотчиси, доцент

Таянч сўзлар: бўлажак ўқитувчи, таълим, тарбия, эвристик фаолият, эвристик топширик, эвристик метод, касбий компетенция, касбий ривожланиш, инновацион ёндашувлар.

Ключевые слова: будущий садовод, образование, воспитание, эвристическая деятельность, эвристическое задание, эвристический метод, профессиональная компетентность, профессиональное развитие, инновационные подходы.

Key words: future gardener, education, upbringing, heuristic activity, heuristic task, heuristic method, professional competence, professional development, innovative approaches.

Олий педагогик таълим жараёнини самарали натижалар берадиган инновацион методлар ва маҳсулдор топшириқлар қўллаган ҳолда ташкил этиш талабаларнинг касбий компетентлигини ривожлантиришда муҳим аҳамиятга эга. Шунини алоҳида таъкидлаш керакки, ўқув топшириқлари талаба шахсининг билимларни ўзлаштириш жараёнини жадаллаштиради. Мазкур билимларнинг касбий кўникмалар ва компетенцияларга айланишини таъминлайди. Айниқса эвристик топшириқлар бўлажак ўқитувчиларнинг изланувчанлиги, интеллектуал фаоллиги ва мустақиллигини ривожлантиришга хизмат қилади.

Педагогларни тайёрлашга оид давлат сиёсатида уларни изланувчанликка ундашга алоҳида эътибор қаратилган. Бу соҳада эвристик топшириқлар алоҳида аҳамиятга эга. Педагогика энциклопедиясида эвристик таълимга қуйидагича таъриф берилган: эвристик таълим – таълим олувчиларнинг мустақил, фаол, ижодий фаолиятини ташкил этишда фойдаланиладиган эвристик методларга асосланган таълим. “Эвристика” – грекча сўз бўлиб, “излайман”, “топаман”, “очдим” маъноларини ифодалайди.

Эвристик таълим ўзининг узоқ ривожланиш йўлига эга. У ўзида эвристик топшириқлар, эвристик методлар, эвристик саволлар, технологиялар ва суҳбатларни мужассамлаштиради. Эвристик таълим илк бор



ўзаро бир бири билан боғланган, таълим олувчиларни ижодий изланишга ундайдиган саволлардан иборат бўлган. Бундай саволларга талабалар чуқур ўйлаш, изланиш натижаларига таянган ҳолда жавоб қайтарганлар. Мутаффакирлар ўз педагогик таълимотларида эвристик суҳбатлар ва эвристик саволларга алоҳида эътибор қаратганлар. Бунда таълим олувчиларнинг фикрлаш фаолиятини ривожлантирувчи маҳсулдор изланишларга ундовчи топшириқларга алоҳида эътибор қаратилган. Бундай топшириқлар талабаларнинг билимларини амалий тажрибаларга алоҳида ўрин эгаллаган. Бу усулни ўтмишда мутафаккир аждодларимиз, тасаввуф таълимоти намोёндалари қўллаганлар. Кейинчалик эса ўқитувчилар, филология ва математика соҳасида таълим берадиган педагоглар ва методист олимлар қўлланганлар. Эвристик топшириқлардан талабаларни мантикий фикрлашга ўргатиш, ностандарт қарорлар қабул қилиш имкониятини кенгайтиришга фойдаланиш назарда тутилган. Даврлар ўтиши билан эвристик топшириқлар барча фанларни ўқитиш жараёнида кенг қўлланилган. Улар ёрдамида талабаларнинг ижодий фикрлаш фаолияти ва ижтимоий тажрибасини кенгайтиришда фойдаланилган. Эвристик таълим муаммолари билан дастлаб таҳминан III-IV-асрларда таниқли грек математик олими Папп Александрийский шуғулланган, кейинчалик эса XVII-асрда таниқли француз олими Рене Декарт (1596-1650) шуғулланган. Уларнинг кўрсатишича эвристик усуллар универсал усул сифатида алоҳида аҳамиятга эга. Бир сўз билан айтганда эвристик таълим ўқув жараёнида эвристик саволлар ёрдамида таълим олувчиларни саволлар ёрдамида эвристик изланувчан фаолиятга йўналтирилган ўқитиш методи ҳисобланади. Бу жараёнда талабалардан топқирлик, синчковлик, ижодкорлик, изланувчанлик, мантикий мушоҳада қилиш, мақсадлар тизими ва тадрижий тараққиётини англаб етиш талаб қилинади. Бунинг натижасида талабаларда фаол ижодкорликка йўналтирилган амалий ҳаракат механизмлари шакллантирилади. Бундай ҳаракат туфайли олий педагогик таълим жараёни ижодий характер касб этиб, бўлажак ўқитувчиларда касбий тафаккурни ривожлантириш имкониятлари кенгайди.

Ўзбекистон Республикасининг ҳукуматининг олий педагогик таълим олдида кўйган талаблари Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрдаги “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637-сон Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 11.05.2022 йилдаги ПФ-134-сон “2022 — 2026 йилларда халқ таълимини ривожлантириш бўйича миллий дастурни тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони, 2020 йил 29 октябрдаги “Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги



ПФ-6097-сон, 2019 йил 29 апрелдаги “Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси” тўғрисидаги ПФ-5712-сон Фармонлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 187-сонли Қарорида ўз ифодасини топган.

Ушбу фармон, қарор ва қонунларда назарда тутилган вазифаларни бажаришда эвристик таълим, айниқса, эвристик топшириқлардан фойдаланган ҳолда бўлажак касбий компетентлигини ривожлантиришга эришиш муҳим педагогик аҳамиятга эга. Мазкур топшириқлар педагогик таълим маҳсулдорлигини таъминлашга хизмат қилади. Эвристик топшириқлар бўлажак ўқитувчиларда касбий билимдонлик, ташаббускорлик, ижодкорлик мустақиллик қарорлар қабул қилиш лаёқатини ривожлантиришга хизмат қилади.

Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий фаолиятни эгаллаш жараёнини илмий асосда ташкил этиш бугунги кунда мураккаб ҳодисалар сирасига киради. Ушбу жараёнда бўлажак ўқитувчиларнинг қуйидаги натижаларга эришишлари назарда тутилади.

1. Бўлажак ўқитувчиларда касбий фаолиятга хос бўлган билим, кўникма, малакаларни ҳосил қилиш;
2. Касбий билимларни тақдим этиш жараёнини инновацион ёндашувларга таянган ҳолда амага ошириш;
3. Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий компетенцияларининг эгаллашларини жадаллаштириш мақсадида эвристик савол ва топшириқлардан фойдаланиш;

Бундай ёндашув бўлажак ўқитувчиларни тайёрлаш жараёнининг сифати ва самарадорлигини таъминлашга хизмат қилиб уларда ҳосил бўлган касбий компетенцияларини ривожланиш имконини беради. Олий педагогик таълим жараёнида бўлажак ўқитувчилар касбий компетенцияларни пухта эгаллаган мутахассис сифатида фаолият кўрсатиш тажрибасини ўзлаштиришлари назарда тутилади. Мавжуд педагогик амалиётни чуқур таҳлил қилганимизда бўлажак ўқитувчиларнинг касбий компетенцияларини шакллантиришда эвристик савол ва топшириқлардан етарлича фойдаланилмаётганлигидан аниқлашга муваффақ бўлдик.

Ю.Н.Кулюткиннинг таъбирича, эвристик топшириқлар ёрдамида бўлажак мутахассис муаммонинг янги, ностандарт ечимларини излаб топишга муваффақ бўлади. Ўзининг касбий режалари ва дастурларини тузиш ла-



ёқатига эга бўлади. Натижада муаммонинг аниқ ечимларини излаб топиш имконияти вужудга келади.

Таниқли педагог В.И.Андреев эса, эвристик методлар доирасида муайян усулларни тушуниш лозимлигини таъкидлайди. Эвристик топшириқларни бажариш натижасида бўлажак ўқитувчиларда касбий муаммоларини ечишнинг муайян босқичларида ижодий изланишни амалга ошириш, бунинг учун мақбул стратегияларни қўллаш, касбий муаммолар устида кичик тадқиқотлар ўтказиш кўникмалари шаклланади ва улар босқичма-босқич компетенцияларга айланади.

Аксарият мутахассислар бўлажак ўқитувчиларнинг касбий компетенцияларини ривожлантиришда эвристик топшириқлардан фойдаланишни тавсия қилганлар. Р.Г.Сафарова, Б.Р.Адизов, М.Маҳмудов Х.Ибрагимов, Б.Ходжаев, Ғ.Нафасов, Н.Ғ.Дилова, Д.Гаипов, Э.Давлетовларнинг ишлари шулар жумласидандир. Эвристик савол ва топшириқлар бўлажак ўқитувчиларнинг касбий билимларини тезкор назорат қилиш имконини ҳам беради. Бунда савол ва топшириқлар бўлажак ўқитувчиларда касбий билимларни фаол қўллаш тажрибасини ташкил қилади.

Р.Сафарова, Д.Гаипов, Ғ.Нафасов, Б.Ходжаев, А.В.Хуторской, Г.М.Кулешова, Г.А.Андриановалар ўз ишларида эвристик таълимнинг қуйидаги педагогик имкониятга эгаллигини кўрсатганлар:

- касбий билимлар ва ижодий фаолият усулларини пухта ўзлаштириш;
- шахснинг изланувчанликка асосланган ижодий фикрлаш фаолиятини ривожлантириш;
- ўзлаштирган билимларни турли вазиятларда қўллаш;
- муаммоли топшириқларни ечиш имкониятларини кенгайтириш;
- тадқиқ этилаётган ходисаларга ижодий муносабатда бўлиш;
- аниқ лойиҳалар устида ишлаш;
- касбий фаолиятнинг анъанавий ва янги усулларини муваффақиятли уйғунлаштириш;
- ақлий фаолият усуллари, касбий фаолият усуллари ва кўникмаларини пухта ўзлаштириш
- ўз фаолияти натижаларини мунтазам рефлексиялаш;

Профессор-ўқитувчилар эвристик савол ва топшириқлардан фойдаланиш жараёнида муайян ёндашувларга таянишлари натижасида қуйидагиларни амалга оширишда самарадорликка эришишлари назарда тутилади. Жумладан,

- бўлажак ўқитувчиларни касбий мақсадларга эришишга ундаш;



- бўлажак ўқитувчиларнинг мустақил билим олишларини ташкил этиш;
- ўқув жараёнида эвристик топшириқларни тизимли тарзда тақдим этиш;
- эвристик топшириқлар ёрдамида таълим жараёнининг маҳсулдорлигини таъминлаш;
- эвристик топшириқларининг устуворлигини таъминлаш;
- ўқув вазиятларни эвристик топшириқларни қўллаган ҳолда ташкил этиш;
- эвристик топшириқлар ёрдамида касбий кўникмаларни мустақил рефлексиялаш кабиларга эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ.

Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий билимларини муваффақиятли ўзлаштиришлари учун эвристик топшириқлар алоҳида самарадорликка эга. Эвристик топшириқлар ўзаро алоқадорликка эга бўлиб бир бирини тақозо этади. Ушбу топшириқларнинг ҳар бири талабани муаммонинг ечимига яқинлаштиради. Эвристик топшириқларнинг характерли жиҳати шундаки бу бўлажак ўқитувчиларни изланиш ва касбий ижодкорликка ундайди. Эвристик топшириқлар бўлажак ўқитувчиларда касбий билимларни эгаллаш, касбий маҳорат сирларидан хабардор бўлиш, касбий компетенцияларни шакллантиришга хизмат қилади.

Таъкидланиб ўтилганидек, барча даврларда эвристик топшириқлардан фойдаланишга эътибор қаратилган. Эвристик топшириқлар ёрдамида бўлажак ўқитувчиларда ижодий фикрлаш, қўйилган муаммоларга тезкор ечим топиш имконияти кенгайди. Эвристик топшириқлар бўлажак ўқитувчиларни касбий билимларни ўрганиш ва янги вазиятларда ижодий қўллашга ўргатади. Эвристик топшириқлар ёрдамида бўлажак ўқитувчилар касбий фаолиятнинг янги шаклларини ўзлаштиришга муваффақ бўладилар. Талабалар эвристик топшириқларни аудитория ва аудиториядан ташқари педагогик жараёнларда бажариш имкониятига эга. Эвристик топшириқлар бир қатор педагогик хусусиятларга эга. Эвристик топшириқлар бўлажак ўқитувчиларни мустақил, ижодий фаолият кўрсатишга йўналтиради. Эвристик топшириқлар бўлажак ўқитувчиларнинг ўқув, ижодий, когнитив фаоллигини таъминлайди. Бўлажак ўқитувчиларнинг эвристик топшириқларни бажариш натижасида уларда касбий билимларни фаоллашади. Профессор-ўқитувчилар эвристик топшириқлардан фойдаланиш жараёнида қуйидагиларни ҳисобга олишлари зарур:

1. Бўлажак ўқитувчиларда шаклланган касбий билимларнинг мавжуд даражасини аниқ ҳисобга олиш.



2. Бўлажак ўқитувчиларнинг шахсий касбий сифатларини ривожлантиришни назарда тутиш.

3. Педагогик билимларни хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда талабаларни касбий ривожлантиришга йўналтирилган эвристик топшириқларни танлаш.

Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий билимлари ва лаёқатларини тизимли тарзда ривожлантириш мақсадида эвристик топшириқларни қўллаш учун қулай шарт-шароитларнинг таъминланиши ҳам муҳим аҳамиятга эга. Жумладан:

а) бўлажак ўқитувчиларда касбий ривожланиш мотивларини шакллантириш;

б) талабадарда касбий билимларни ўрганшига нисбатан мойиллик ва эвристик топшириқларни бажариш эҳтиёжини шакллантириш;

в) бўлажак ўқитувчиларнинг касбий билимларни фаол қўллаш имкониятини кенгайтириш;

г) бўлажак ўқитувчиларни тизимли ижодий фаолият кўрсатишга ундаш кабилар.

Профессор-ўқитувчилар эвристик топшириқларни танлаш ва тизимлаштириш жараёнида қуйидаги вазифаларни бажаришлари талаб қилинади:

а) бўлажак ўқитувчиларнинг касбий билимлари ва шахсий тажрибаларини бойитиш;

б) бўлажак ўқитувчиларда касбий компетенцияларни тизимли тарзда шакллантириш;

в) талабаларнинг касбий билимларни ижодий излаш ва қўллаш муваққилликларини таъминлаш;

г) маҳсулдор фаолият кўрсатадиган ижодкор ўқитувчи шахсни шакллантиришга алоҳида эътибор қаратиш кабилар.

А.В.Хуторский эвристик таълим ҳақида ўз қарашларини баён қилиб эвристик методлар ва топшириқларни таснифлашга муваффақ бўлган. А.В.Хуторскийнинг таъбирича, эвристик ўқитишнинг методи қуйидаги гуруҳларга бўлинади. Улар: ташкилий-фаолиятли, когнитив ҳамда креатив методлардан иборат.

Ташкилий-фаолиятли методлар бўлажак ўқитувчиларнинг тайёрлашда алоҳида аҳамиятга эга. Мазкур методлар ёрдамида аниқ эвристик топшириқлар қўйилади. Чунки мазкур гуруҳга мансуб методлар муайян дидактик имкониятларга эгаллиги билан ажралиб туради. Улар:



а) бўлажак ўқитувчиларнинг касбий билимларни эгаллашга йўналтирилган фаолиятни аниқ режалаштириш имконини берадиган методлар;

б) бўлажак ўқитувчиларнинг муаллифлик дастурларини яратишга кўмаклашадиган методлар;

в) бўлажак ўқитувчиларни касбий ижодий фаолият кўрсатишга тайёрлайдиган методлар;

г) бўлажак ўқитувчиларни касбий билимларини мустақил ўзлаштиришга йўналтирадиган методлар;

д) бўлажак ўқитувчиларнинг ўз ўзини баҳолашга ўргатадиган методлар;

ж) талабаларнинг эвристик фаоллик даражаларини диагностика қиладиган методлар;

з) бўлажак ўқитувчиларнинг касбий билимларини рефлексиялашга кўмаклашадиган методлар қабилар.

Бўлажак ўқитувчиларда касбий жиҳатдан маҳсулдор билимлар ва компетенцияларни шакллантириш жараёни талабаларнинг педагогик тасавурлари, дунёқарашларини ривожлантириш имконини беради. Шу билан бир қаторда талабаларда энг зарур ижтимоий педагогик тажрибаларни ҳосил қилишга кўмаклашади. Бундай ёндашув натижасида бўлажак ўқитувчилар когнитив ва креатив фаолият тажрибасига эга бўладилар. Бундай фаолият олий педагогик таълим жараёнида эвристик топшириқлардан фойдаланиш натижаларидан ҳосил бўлади.

Бўлажак ўқитувчиларда когнитив ҳамда креатив фаолият тажрибасини ҳосил қилиш учун эвристик топшириқлардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Олий педагогик таълим жараёнида эвристик топшириқлардан фойдаланиш натижасида бўлажак ўқитувчиларда ижтимоий педагогик фаолият тажрибаси ҳосил бўлади. Натижада бўлажак ўқитувчиларда касбий фаолиятга хос бўлган билимлар ҳосил қилинади ва компетенциялар шакллантирилади. Бу эса бўлажак педагогнинг истиқболдаги касбий фаолияти сифат ва самарадорлигини таъминлашга хизмат қилади. Кузатишларимиз шуни кўрсатдики, талабаларда шакллантирилган касбий билимларни мустақил қўллаш кўникмалари уларда касбий ижодкорликни таркиб топтиради.

Эвристик метод бир қатор дидактик шаклларни ҳам ўз ичига олади. Улар:

1. Ўқувчиларда танқидий тафаккурни шакллантиришга хизмат қиладиган “Ақлий ҳужум” методи асосида ташкил этилган машғулотлар.



2. Янги ғояларни жамоа бўлиб излашга йўналтирилган дидактик вазиятлар. Унинг муҳим белгиси топшириқларни ечиш жараёнида ҳамкорликда ижод қилишда намоён бўлади. Бу жараёнда ўқувчиларда бир-бирларига нисбатан ишонч ҳосил бўлади. Ўқувчиларда интуитив ва мантикий тафаккурни муваффақиятли уйғунлаштиришга хизмат қиладиган дидактик вазиятлар ҳам муҳим аҳамият касб этади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026-йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сон Фармони
3. Бугорская Н.В. Эвристические возможности интегративного подхода к разработке проблемы понимания // Интеграция содержания образования в педагогическом вузе. - Бийск, 1994. - С.108-114.
4. Буш Г.Я. Основы эвристики для изобретателей. Чч. I-II. – Рига: «Знание», 1997. – 95 с.
5. Воронин В.Н. Интеграция эвристического и технологического подходов в проектировании дидактических комплексов в вузе: Автореф. ... дис. докт. пед. наук. – Казань, 1999. – 38 с.
6. Гаипов Д.Ж. Эвристик метод ёрдамида бошланғич синф ўқувчиларининг ўқув фаоллигини таъминлаш механизмлари. П.ф.ф.д (PhD) диссертация. Нукус., 2021. –Б 121.
7. Safarova Rohat Gaybullaevna. DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE PROFESSIONALS ON THE BASIS OF CULTURAL APPROACH. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(9), 17–22. [https:// international journals. co.in/ index. php/giirj/article/view/2470](https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/2470)

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада бўлажак ўқитувчиларни касбий компетенцияларини эвристик топшириқлар ёрдамида ривожлантиришнинг педагогик шарт-шароитлари, эвристик билимлар таснифи, эвристик билим топшириқларни қўллаш имкониятлари очиб берилган. Эвристик таълим, эвристик топшириқлар, эвристик методлар, эвристик саволлар, технологиялар ва суҳбатларни таълим жараёнига олиб киришнинг усуллари ёритилган. Ушбу мақоладан кенг илмий жамоатчилик, профессор-ўқитувчилар, тадқиқотчилар ва бўлажак ўқитувчилар педагогик таълим жараёнида фойдаланишлари мумкин.

РЕЗЮМЕ

В данной статье раскрываются педагогические условия развития профессиональных компетенций будущих учителей с помощью эвристических заданий, классификация эвристических знаний, возможность применения эвристических когнитивных заданий. Рассматриваются эвристическое образование, эвристические задания, эвристические техники, эвристические вопросы, технологии и методы включения бесед в образовательный процесс. Данная статья может быть использована широким научным сообществом, профессорами, исследователями и будущими учителями в процессе педагогического образования.

SUMMARY

In this article reveals the pedagogical conditions for the development of professional competencies of future teachers with the help of heuristic tasks, the classification of heuristic knowledge, the possibility of using heuristic cognitive tasks. Heuristic education, heuristic tasks, heuristic techniques, heuristic questions, technologies and methods of including conversations in the educational process are considered. This article can be used by a wide scientific community, professors, researchers and future teachers in the process of pedagogical education.



OLIV HARBIY TA'LIM MUASSASASI KURSANTLARINING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Abdullayeva S. Y.

Qurolli Kuchlar Akademiyasi Tillar kafedrasasi professori

Tayanch so'zlar: harbiy ta'lim, bilim, malaka, harakat, jismoniy chiniqish, pedagogik dunyoqarash, kursant, ta'lim tizimi, innovatsiya.

Ключевые слова: военное образование, знания, навыки, движение, физическая подготовка, педагогическое мировоззрение, курсант, образовательная система, инновации.

Key words: military education, knowledge, skills, movement, physical training, pedagogical outlook, cadet, educational system, innovation.

Kirish. XI asr axborotlar oqimi davrida ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalariga, shu jumladan ta'lim-tarbiya sohasiga ham ko'plab yangiliklar kirib kelmoqda. Ushbu yangiliklar bilan bir qatorda ularni yorituvchi yangi tushunchalar ham bizning ilmiy tilimizda qo'llanilishi kuzatilmoqda. Jumladan, pedagogika, ya'ni ta'lim-tarbiya sohasida keyingi 20 yil ichida quyidagi tushunchalar keng qo'llanilmoqda va bizning ilmiy tilimiz iste'molida keng ishlatilmoqda: pedagogik texnologiya, ilg'or texnologiya, ilg'or tajribalar, innovatsiya va innovatika, pedagogik neologiya, praksiologiya, aksiologiya, innovatsiya va innovator, interaktivlik, strategiyalar, gumanistik pedagogika, liberalizatsiya, ta'limda axborot kommunikatsion texnologiyalar, tarbiya jarayonida texnologiyalar. Biz shular orasida «kreativlik» tushunchasiga alohida to'xtab o'tmoqchimiz. Bu tushuncha so'nggi yillarda ta'lim-tarbiya jarayonlarida ma'lum darajada qo'llanilmoqda. Lekin bu tushunchaning mazmun va ma'nosini tahlil etishga hamda insonlarda kreativlikning shakllanganlik darajasini aniqlashga doir qator tatqiqotlar olib borilgan.

Oliy harbiy ta'lim kursantlarida ijodiy fazilatlarini rivojlantirish bir necha sabablarga ko'ra amaliy ahamiyatga ega:

- Innovatsiyalar: Harbiy landshaft doimiy ravishda o'zgarib turadi va harbiy mutaxassislar yangi vaziyatlarga moslashish va murakkab muammolarga innovatsion yechimlarni ishlab chiqish uchun ijodiy fikrlay olishlari kerak. Kursantlarda ijodiy fazilatlarini rivojlantirish ularga cheksiz fikr

yuritishga va rivojlanayotgan muammolarni hal qilish uchun yangi va samarali strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

- Moslashuvchanlik: Ijodiy fikrlash moslashuvchan va moslashuvchanlikni o‘z ichiga oladi, bu harbiy rahbarlar uchun muhim fazilatlaridir. Harbiy harakatlar oldindan aytib bo‘lmaydigan bo‘lishi mumkin va rahbarlar o‘z rejalari va strategiyalarini tezda o‘zgartirishga qodir bo‘lishi kerak. Kursantlarda ijodiy fazilatlarini rivojlantirish ularga ko‘proq moslashishga va o‘zgaruvchan vaziyatlarga yaxshiroq javob berishga yordam beradi.
- Qaror qabul qilish: Ijodiy fikrlash kursantlarga kengroq imkoniyatlarni ko‘rib chiqish va turli xil variantlarni tortish imkonini berib, yaxshiroq qaror qabul qilishga yordam beradi. Ijodiy fikrlash, shuningdek, kursantlarga potentsial muammolar va xavflarni aniqlash va oldindan bilishga yordam beradi, bu esa yaxshiroq qaror qabul qilishga olib keladi.
- Muloqot: Ijodiy fikrlash muloqot qobiliyatlarini ham oshirishi mumkin. Ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega kursantlar o‘z g‘oyalari va qarashlarini boshqalarga yaxshi ifoda eta oladilar. Ular, shuningdek, boshqalarning yangi g‘oyalari va istiqbollari ochiq bo‘lishlari mumkin, bu hamkorlik va jamoaviy ishlarni yaxshilashi mumkin.
- Yetakchilik: kursantlarda ijodiy fazilatlarini rivojlantirish ularni yetakchi rollarga tayyorlashi mumkin. Harbiy rahbarlar o‘z jamoalarini ilhomlantirishi va rag‘batlantirishi kerak va ijodiy fikrlash ularga innovatsiyalar va doimiy takomillashtirish madaniyatini oshirish orqali yordam berishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, oliy harbiy ta’lim kursantlarida ijodiy fazilatlarini rivojlantirish yangilikka intilish, moslashish, qaror qabul qilish, muloqot va yetakchilik uchun amaliy ahamiyatga ega. Harbiy muassasalar kursantlarda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini tarbiyalash orqali ularni tez o‘zgaruvchan va oldindan aytib bo‘lmaydigan harbiy landshaft muammolariga qarshi turishga yaxshiroq tayyorlay oladi.

Adabiyotlar tahlili. Ayniqsa bunday izlanishlar psixologiya sohasida keng rivojlangan. A.Y. Agafonov, Y. Lotman, V. Rudnev, G.S. Batishev, M.M. Baxtin, D.B. Bogoyavlenskaya, V.M. Vil’chek, V. Dil’tey, V.N. Drujinin, D.A. Leont’ev, A.Maslou, A.A. Melik-Pashaev, I. Meyerson, A.Y. Ponomarev, M. Rorbax, S.L. Rubinshteyn, V. Frankl, R. Yakobson singari olimlar shular jumlasidandir.

Oliy harbiy ta’lim kursantlarida ijodiy fazilatlarining shakllanishini harbiy ta’limning dastlabki kunlaridan kuzatish mumkin. Tarixan, harbiy ta’lim, birinchi navbatda, askarlarni itoatkor bo‘lishga va buyruqlarni so‘zsiz bajarishga



o'rgatishdan iborat edi. Biroq, harbiy taktika va texnologiya rivojlanib borgan sari, ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyati jang maydonida muvaffaqiyatga erishish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ayon bo'ldi.

19-asr boshlarida Prussiya harbiylari intizom va itoatkorlikni ta'kidlagan, shu bilan birga taktika, strategiya va yetakchilik bo'yicha o'qitishni o'z ichiga oluvchi qat'iy harbiy ta'lim tizimini ishlab chiqdi. Bu tizim keyinchalik Yevropaning boshqa davlatlari tomonidan qabul qilindi va oxir-oqibat butun dunyo bo'ylab harbiy ta'limga ta'sir ko'rsatdi. Birinchi jahon urushi davrida harbiy rahbarlar urushda ijodkorlik va innovatsiyalar muhimligini anglay boshladilar. Yangi qurollar va taktikalarni ishlab chiqish askarlardan ijodiy fikrlashni va o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslashishni talab qildi. Bu harbiy ta'limda muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga e'tibor kuchayishiga olib keldi. Qo'shma Shtatlarda harbiy ta'limda ijodiy fazilatlarni rivojlantirish 1901 yilda Armiya Harbiy kollejining tashkil etilishi bilan rasmiylashtirildi. Harbiy kollejning o'quv rejasida harbiy tarix, strategiya va yetakchilik kurslari mavjud bo'lib, shu bilan birga ijodiy faoliyatning muhimligini ta'kidladi.

Fikrlash va innovatsiya. Ikkinchi jahon urushi paytida Qo'shma Shtatlar armiyasi yangi qurol va taktikalarni ishlab chiqishda o'z ofitserlari va askarlarining innovatsion g'oyalariga tayangan. Bu harbiy ta'limda ijodkorlik va innovatsiyalarga e'tiborning kuchayishiga olib keldi.

Bugungi kunda butun dunyo bo'ylab harbiy ta'lim ijodiy fikrlash, muammolarni hal etish va innovatsiyalarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Kursantlar tanqidiy fikrlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va murakkab muammolarni ijodiy yechimini ishlab chiqishga o'rgatiladi. Ushbu ko'nikmalar zamonaviy urushda muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir, bu yerda askarlar o'zgaruvchan sharoitlarga tezda moslasha olishlari va yuqori bosimli vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qilishlari kerak.

Tadqiqot metodologiyasi. Oliy harbiy ta'lim kursantlarining ijodiy fazilatlarini rivojlantirish uzoq va murakkab tarixga ega bo'lib, vaqt o'tishi bilan rivojlanib boradi. Harbiy ta'lim doimo kursantlarni jangovar sharoitlarga tayyorlashga qaratilgan, ammo ijodiy fazilatlarni rivojlantirish ham harbiy ta'limning muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilgan.

Harbiy ta'limning dastlabki yillarida asosiy e'tibor jismoniy tayyorgarlik va mashqlarga qaratildi. Biroq, harbiy taktika va texnologiyaning rivojlanishi bilan asosiy e'tibor kursantlarda intellektual va strategik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratildi. Bu harbiy tarix, harbiy fan, harbiy strategiya kabi

kurslarning joriy etilishiga olib keldi, bu kursantlarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam berdi.

20-asr o'rtalarida harbiy ta'limda ijodiy fazilatlarni rivojlantirishga yana e'tibor qaratildi. Bu qisman urushning o'zgaruvchan tabiati bilan bog'liq bo'lib, u yanada murakkablashdi va yangi muammolarni engish uchun innovatsion fikrlashni talab qildi. Natijada kursantlarda jang maydonida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida harbiy ta'lim o'quv dasturlariga yetakchilikni rivojlantirish, tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish kabi kurslar kiritildi.

Keyingi yillarda harbiy ta'limda ijodkorlikning ahamiyatiga e'tibor kuchaymoqda. Bu zamonaviy urushda yangi texnologiyalar, taktikalar va strategiyalarni ishlab chiqish uchun ijodkorlik zarurligini tan olish bilan izohlanadi. Kursantlarda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga tajriba asosida o'qitish, muammoli ta'lim va hamkorlikda o'qitish kabi turli usullar orqali erishildi.

Umuman olganda, oliy harbiy ta'lim muassasasi kursantlarining ijodiy fazilatlarini rivojlantirish tarixi urushning o'zgaruvchan tabiati va harbiy ta'limni ushbu yangi vazifalarga moslashtirish zarurati bilan shakllangan. Harbiylar rivojlanishda davom etar ekan va yangi tahdidlar paydo bo'lishi bilan ijodiy fikrlashga urg'u berish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa. Ijodiy fazilatlarni rivojlantirish kursantlar tayyorlashning muhim jihati bo'lib, ular muammolarni hal qiluvchi, tanqidiy fikrlaydigan va samarali yetakchi bo'lib yetishishiga yordam beradi. Tajribani rag'batlantirish: kursantlarni muammoni hal qilishda turli yondashuvlar bilan tajriba o'tkazishga undash. Ularga yangi narsalarni sinab ko'rishga va xatolaridan saboq olishga imkon berish. Kursantlarga yozuv, san'at, musiqa va ijodiy ifodaning boshqa shakllari orqali o'zlarini ijodiy ifodalash imkoniyatini taqdim etish.

Kursantlarni o'ylashga va muammolarga innovatsion yechimlarni taklif qilishga undash. Kursantlarni tanqid yoki hukmdan qo'rqmasdan o'z g'oyalari va fikrlarini erkin baham ko'rishga undaydigan qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratish.

Kursantlarni boshqalar bilan hamkorlikda ishlashga undash, chunki hamkorlik yangi istiqbollari va g'oyalarni taqdim etish orqali ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Kursantlar o'zlarining ijodiy fazilatlarini o'rganish va rivojlantirish jarayonida ularga konstruktiv fikr-mulohazalar va yo'l-yo'riqlar bilan ta'minlash. Ularni o'z tajribalari haqida fikr yuritishga va bu fikr-mulohazalarni yaxshilash uchun foydalanishga undash. O'z ijodigizni



namoyish eting va ularni ijodiy fikrlashga undash orqali kursantlar uchun ijodiy fikrlash va xulq-atvorni namuna qiling.

Ijodiy sifatlarni rivojlantirishga e'tibor qaratgan holda, kursantlar murakkab muammolarni hal qilish va qiyin vaziyatlarda harakat qilish uchun yaxshi jihozlangan, innovatsion va samarali rahbarlarga aylanishi mumkin.

Ijodiy xislatlar - bu shaxslarga topshiriq va qiyinchiliklarga yangi, xayoliy usullar bilan yondashish va innovatsion yechimlarni topish imkonini beruvchi ko'nikma va xususiyatlardir.

Ijodiy fazilatlariga misollar:

Tasavvur: yangi g'oyalarni yaratish va yangi imkoniyatlarni tasavvur qilish qobiliyati. Qiziqish: yangi g'oyalar, tushunchalar va tajribalarni o'rganish istagi. O'ziga xoslik: muammolarga yangi va noyob yechimlarni taklif qilish qobiliyati. Moslashuvchanlik: o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish va yangi g'oyalar va yondashuvlarga ochiq bo'lish istagi. Tavakkalchilik: tavakkal qilishga va muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda ham yangi g'oyalarni sinab ko'rishga tayyorlik. Qat'iylik: to'siqlar va muvaffaqiyatsizliklarga qarshi turish qobiliyati. O'z-o'zini ifoda etish: g'oyalar va his-tuyg'ularni ijodiy va o'ziga xos tarzda yetkazish qobiliyatlari mavjud. Hamkorlik: boshqalar bilan samarali ishlash va g'oyalar va istiqbollarni uyg'unlashtirish qobiliyati. O'ynoqilik: vazifalar va qiyinchiliklarga o'yin va tajriba hissi bilan yondashishga tayyorlik.

Ushbu ijodiy fazilatlarini rivojlantirish odamlarga muammolarga ko'proq moslashuvchanlik, moslashuvchanlik va innovatsiyalar bilan yondashishga va yangi va samarali yechimlarni topishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Югай А.Х., Мираширова Н.А. “Общая психология” – Ташкент 2014 г. С.-282-303.
2. Safayev N.S., Mirashirova N.A. “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti“ TDPU, 2013 y, B.124-137.
3. David G. Myers “Psychology” Hope College Holland, Michigan 2010 y. p.-327-369.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada oliy harbiy ta'lim kursantlarining kreativ sifatlarini rivojlantirish masalasi ko'rib chiqilgan bo'lib, har bir kreativ sifatlarning kursant hayotida tutgan o'rni, maqsad va vazifalari alohida ishlab chiqilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается развитие творческих качеств курсантов высших военных учебных заведений, причем отдельно разрабатываются роль, цели и задачи каждого творческого качества в жизни курсанта.

SUMMARY

This article deals with the development of creative qualities of cadets of higher military education, and the role, goals and tasks of each creative quality in the life of a cadet are developed separately.



KOMPLAENSNI SHAKLLANTIRISH PSIXOLOGIYASI VA XULQ-ATVOR PSIXOTERAPIYASI

Qosimova N.

*Andijon Davlat chet tillari unstituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar,
pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti, p.f.n.*

Adhamov Sh.

Andijon davlat tibbiyot instituti Pediatriya fakulteti 3-bosqich talabasi

Tayanch soʻzlar: komplaens, konfliktologiya, nizoli vaziyatlar, nizoli vaziyat sabablari “Djil Shpigel uzugi”, “Ishbilarmonlar flirti”, “НЮАЧН” formulasi, transact analiz, etika, nizoli vaziyat profilaktikasi.

Ключевые слова: комплаенс, конфликты, конфликтные ситуации, метод «Кольцо Джиля Шпигеля», «Деловой флирт», формула “НЮАЧН”, трансактный анализ, этические отношения, профилактика конфликтных ситуаций.

Key words: compliance, conflict situations, Gil Spiegel’s ring method, business flirting, НЮАЧН’S force, transactional analysis, ethical relations, conflict prevention.

Kirish. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati boʻlgan taʼlim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda oliy taʼlim muassasalarida mutahassislarni tayyorlash tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga koʻtarish, unga ilgor pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish, taʼlim samaradorligini oshirish, talaba yoshlarga taʼlim sohasidagi innovatsion usullarda oqitishni tashkil etishda zamonaviy mexanizmlarini qoʻllash, ularning bilim salohiyatlarini jaxon andozalari darajasiga koʻtarish davlat siyosati darajasiga koʻtarildi.

Muhtaram yurtboshimiz Sh.MMirziyoevning tashabbusi bilan Oʻzbekiston Respublikasida 2023 yilni “Insonga eʼtibor va sifatli taʼlim yili”, deb nom berildi. Zero, “Taʼlim sifatini oshirish – yangi Oʻzbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona toʻgri yoʻlidir”-degan fikrlarni ilgari surdi. Taʼlim sifatini oshirish asosiy mazmuni ham aynan taʼlimdagi innovatsion yoʻnalishga qaratilgan kadrlarni tayyorlashda zamonaviy yondashuvlardan biri komplaens tushunchasini qoʻllash va shakllantirish asosida amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini yoritishni maqsad qildik.

Mavzuning dolzarbligi. Uzlüksiz taʼlim tizimini modernizatsiyalash Oʻzbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim masalalaridan biri



hisoblanadi. SHu sababli respublikamizdagi har bir oliy ta'lim massasasi o'zi tayyorlayotgan kadrlar sifatini takomillashtirishga alohida ahamiyat bermoqda. Fan va ishlab chiqarishda nanotexnologiyalar yaratilayotgan bir paytda yangi avlod darsliklarining yaratilishi, ta'limda reyting tizimini joriy etilishi, turli yo'nalishlardagi nazoratlar, faol o'qitish metodlaridan foydalanish va boshqa shu kabi tashkiliy ishlarning amalga oshirilishi yosh o'qituvchilar, shifokorlar va talabalarining zamon talablariga mos bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlarini taqozo etadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanib borayotgan jamiyatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish yo'lida oliy ta'lim muassasalari tomonidan malakali kadrlarni tayo'rqlash, ularning komplaensini rivojlantirish zarurati vujudga keldi. Bu esa hozirgi vaqtda davr talabiga javob beradigan mutaxassislarining nafaqat nazariy bilimlarini chuqur o'rganganish, balki buyuk fazilatlariga ega bo'lgan, muomalaga kirisha oladigan, o'z ishini puxta egallagan mohir mutaxassislar etib tayyorlashga ham katta e'tibor qaratilishi lozimligini ko'rsatdi. Pedagog kadrlar tayyorlash bo'yicha psixologik-pedagogik mahoratini rivojlantirish strategiyasi bo'lqusi o'qituvchi va shifokorlarning kasbiy mahorati, imidji, ilmiy va intellektual salohiyatini oshirishda ta'lim bosqichlari o'rtasida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashda xizmat qiladi. Chunki, komplaens yosh o'qituvchilar va shifokorlarda pedagogik ma'orot va pedagogic kompetentlik sub'ektning shaxsiy-malakaviy sifatlarini belgilovchi, uning ijodiy taraqqiy topishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi: yosh o'qituvchilar va shifokorlarni komplaens orqali o'zining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish orqali sifat va samaradorlikka erishishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- jamiyatda yosh o'qituvchilar va shifokorlar o'z o'rnini topishi, hurmat va e'tiborga ega bo'lishi, muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur bo'lgan komplaens kompetensiyasining o'ziga xos hususiyatlarini egallash;
- o'qituvchi va shifokorlar faoliyatini samarali tashkil e'tishda komplaens mexanizmlarini o'rganish va amaliyotda qo'llash;

Tadqiqotning predmeti: Yosh o'qituvchilar va shifokorlarda komplaensni shakllantirish jarayoni.

Tadqiqot ob'ekti: Oliy ta'lim muassasalari, malaka oshirish markazlarida o'qituvchilar va shifokorlari ijtimoiy gurux sifatida.

Asosiy qism. “Komplaens” so'zi (ingl. “compliance”- muvofiqlik, rozilik, kelishuv) ma'nosini bildiradi. Ushbu atama ilk marta 1906 yili AQSHda sogliqni saqlash va aholiga xizmat ko'rsatish vazirligining faoliyatida qo'llanilgan hamda ijobiy natijalarga erishgan.

O'zbekiston Respublikasida 2019 yilning 27 maydagi PF -5729- sonli "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida"gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonning asosiy mazmuni, zamonaviy nazorat turlarini o'rganish va maqbul variantini qo'llash bo'yicha kompleks vazifalar yuklatilgan.

Komplaensni shakllantirishda nafaqat tashkilot faoliyatini nazorat qilish? balki, hodimlar ham o'zini-o'zi nazorat qilish, shifokor va bemorlarning o'rtasidagi munosabatlar psixologiyasiga ham bogliq, shuningdek, komplaensga yaqin bir jixat bu tibbiyot deontologiyasidir. Tibbiyot deontologiyasi –tibbiyot hodimlarining kasbga aloqador etikasi, dori-darmon, umuman davoning ta'sirini oshirishga qaratilgan xulq-atvor taomillari hisoblanadi.

Deontologiya, kishining xulqi, odobi haqidagi tushuncha, ilk bor ushbu termin XVI asrning boshlarida ingliz faylasufi va iqtisodchisi I.Bentam tomonidan qo'llanilgan. Tibbiyot deontologiyasiga oid ma'lumotlar uzoq tarixga ega bo'lib, aslida, tibbiyot deontologiyasi keng falsafiy tushuncha, bir qancha yo'nalishlardan iborat: shifokor bilan bemor o'rtasidagi; shifokor bilan bemorning yaqin kishilari o'rtasidagi munosabat; shifokorning hamkasblari bilan munosabatlari, o'rtasidagi psixologik o'ziga xos hususiyatlar keng tahlil qilingan. Tibbiyot deontologiyasiga shifokorning sir saqlashi, bemorning hayoti va sogligi uchun tibbiyot hodimining javobgarligi, tibbiyot hodimlarining o'zaro munosabati masalalari kiradi. Tibbiyot deontologiyasiga muvofiq tibbiyot hodimi bemorga e'tiborli bo'lishi, uning sogligini tiklash yoki kasalini yengillatish uchun butun bilimni sarflashi, bemorga uning sogligi haqidagi faqat ijobiy motivatsiya berishi kerak. Psixoterapevtik usullar yordamida bemorning shifokor bilan sirdosh bo'lishiga erishuvi kerak. Bemorning kasalligi haqida uning ishtirokida hamkasblari bilan so'zlashishi noo'rin. Tibbiyot deontologiyasining tibbiyot amaliyotida to'g'ri joriy qilinishi, shifokorning ongi, saviyasi, madaniyati, dunyoqarashi, bilim va qaysi jamiyatda yashayotganligi bilan bogliq. Kishilik jamiyatining turli davrlarida deontologik munosabatlar turlicha kechgan, u zamon talabiga mos ravishda o'zgarib turishi tabiiydir.

Tahliliy ma'lumotlarga ko'ra, XX asrda tibbiyot soxasida terapevtik usullar ijobiy natijalarga erishgan, bu natijalar shifokorlarning bemorlarga to'g'ri tashxis qo'yish va davolash jarayoniga aloxida ma'suliyat bilan qarash (dori-darmonlar, dorilarsiz tibbiy muolajalar, parxezga rioya qilish, zararli odatlardan xalos bo'lish, jismoniy faollikni oshirish) kabilar nazarda tutilgan, bu ko'rsatmaga bemorlar ham amal qilish natijasida tibbiyot hodimlarining obro'si yuqori darajaga ko'tarilgan. Xozirgi kunda esa vaziyat keskin o'zgardi, afsuski, tibbiy bilimning yuqori darajasi va yomon davolanish natijalari o'rtasida sezilarli tafovut mavjud. Shifokorlar o'lkan yutuqlarga erishdilar ammo na statiktik ma'lumotlar, na vafot



etganlar ko'rsatkichlari, na umr ko'rish davomiyligi bo'yicha bu global ta'sirlar sezilmayapti. Hozirgi salbiy xolatlarni vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri bu bemorlarning sogligiga o'z vaqtida e'tibor bermasligidir. Statistik ma'lumotlarni yaxshi tomonga o'zgartirish uchun shifokorlar va bemorlar o'rtasida qandaydir aloqani topish muximdir, tibbiyotda komplainsni yaxshilash umumiy maqsadiga erishish uchun barcha sa'y-xarakatlarni amalga oshirish dolzarbdir, chunki kelajakda soglom turmush tarzi har qanday xolatda shifokor bilan bemorning bir-biriga muvofiqlikda shifo topishga qaratilgan.

Psixologiya fanida nizo, ziddiyat, murosasizlik kabi xolatlar xam uchrab turishi tabiiy. "Konflikt" yoki nizo, ziddiyatli vaziyat ushbu tushunchaga – boshqarish maktabi ilk vakillari tomonidan – tashkilotning samarasiz faoliyati va yomon boshqarilishining alomati sifatida qaralgan. Ammo, bugungi kunda nafaqat xizmat ko'rsatish sifati qoniqarsiz, balki boshqaruv psixologiyasi va xizmat ko'rsatish muassasalarida, shu jumladan tibbiy xizmat ko'rsatish tarmoqlarida ham nizoli vaziyatlar uchrab turibdi.

Aynan mana shu nizoli vaziyatlarni to'g'ri boshqarish, nizoli vaziyatlarga sabab bo'luvchi omillarni imkon qadar kamaytirish, bu borada hodimlar, kadrlarni tayyorlashda ularda ziddiyatli vaziyatlarni to'g'ri boshqarish, yuzaga kelgan nizoli vaziyatga oqilona tanqidiy-tahliliy yechim topish kompetensiyasini to'laqonli shakllantirish, shu o'rinda ilg'or xorijiy mamlakatlar, jumladan Garb mamlakatlari erishgan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning muhim masalalaridan biridir.

Nizoli vaziyatlarni boshqarish, tadqiq qilish fanning rivojlanib borayotgan tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. Hattoki, o'tgan XX asrning ikkinchi yarmida alohida fan tarmog'i – **konfliktologiya** fani yuzaga keldi. Uning asosiy o'rganish obyekti – konflikt, ya'ni nizolardir.



Xizmat ko'rsatish muassasalaridagi nizoli vaziyatlarni to'g'ri boshqarish va ularning oldini olish, uchrashini kamaytirishda unga sabab bo'luvchi

omillarning oldini olish, yaxshilash muhimdir. Quyida kuzatishlar natijasida eng ko‘p qayd etilgan sabablarni ko‘rish mumkin:

- xizmat ko‘rsatish sifatining yaxshi tashkil etilmaganligi, qoniqarsizligi;
- muassasa xodimlarining malaka, tajriba, mijozlar bilan muloqot qilish madaniyatining passivligi;
- muassasa moddiy-texnik tuzilmasining sifati pastligi, ko‘lami yaxshi tashkil etilmaganligi;
- mijozlar (bemorlar), uning yaqinlarining etik-tibbiy, kommunikativ madaniyatining sayozligi.

Aholi orasida tibbiyot xizmatiga bo‘lgan yuqori darajada pozitiv qoniqishni tashkil etish maqsadida barcha xizmat ko‘rsatish tarmoqlari qatori tibbiyot xizmati sohasida ham jadal islohotlar amalga oshirilmoqda.


Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi farmoni asosida 2019-2025-yillarga mo‘ljallangan Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi va dasturi tasdiqlandi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan “Tibbiyotdagi islohotlar – inson qadri uchun” degan g‘oyasi asosida mamlakatimiz sog‘liqni saqlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish va aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish samaradorligini va sifatini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yuqoridagi ushbu islohotlar tibbiy xizmat bo‘ginlarida faoliyat sifatini oshishiga, aholining sohadan qoniqishiga, natijada esa tibbiyot muassasalarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizoli-ziddiyatli vaziyatlarning keskin kamayishiga olib keladi.

O‘z o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, konfliktologiya sohasidagi tadqiqotchilarning kuzatishlari, tahlillariga ko‘ra nizolar – xizmat ko‘rsatish sohasidagi kamchiliklarni bilib olish, xizmatlar doirasini yangilash, kengaytirish, xodimlarni boshqarish usullarini takomillashtirish va talabchan mijozlarga xizmat qilishning sifatini oshirishda qo‘l kelishi aytib o‘tilgan.

Xizmat ko‘rsatish sohalarida yuqori natijalarga erishgan g‘arb davlatlarida kadrlarni tayyorlashda ularning kelgusi xizmat jarayonida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan nizoli vaziyatlarga to‘g‘ri munosabatini, ushbu vaziyatni boshqarish, nizoli vaziyatlarni bartaraf etish va samarali yechim topishga qaratilgan malaka va tajribalarni shakllantirish muximdir. Quyida mutaxasislarni tayyorlashda ularga o‘rgatib boriladigan, keng tarqalgan usullardan biri namuna tariqasida keltirilgan:

Nizoli vaziyatlardan chiqib ketishda “Djil Shpigel uzugi” usuli:



Shu o‘rinda kadrlar tayyorlashda ularda konfliktologiya bo‘yicha bilim-malakalarini kengaytirishda turli ta‘limiy formulalarga, qoida standartlarga urg‘u beriladi. Jumladan, ular qatorida “HIOACH” formulasining o‘rni o‘zgachadir. Quyida ushbu formulaning mazmun mohiyati haqida to‘xtalib o‘tilgan:

Hamkorlik – mijozlar (bemorlar va uning yaqinlari) bilan;

Ijoiylik – xodimning fikr yuritishi;

O‘qillik – e‘tirozlarga yondashish;

Aql – o‘tkir keng dunyoqarashga asoslangan;

Chidam – mijozlar (bemor va uning yaqinlari) kamchiliklariga sabr bilan xizmat qilish.



Shuningdek, Garbda psixosomatika va psixoterapiya usullari ham keng rivojlangan. Amerikalik psixolog, vrach- psixiatr Erik Lennard Bernning olib borgan tadqiqotlari asosan transaktsiya va stsenariy taxlillariga bagishlangan. Psixonalizning maqsadlarini asab va ruxiy kasalliklarni davolashning umumiy nazariyasini krng ommaga q‘llashda, Bernning ta‘kidlashicha, shaxslararo munosabatlarning asosi bo‘lgan operatsiyalar(transaktsiya)ga bogliqligini aniqlagan.

“Transaktsiya” – bu (stimul) ragbatlantirish va (reaktsiya) javobdan iborat bo‘lgan aloqa birligiga egalinin bildiradi. Transaktsiyalar almashinuvi paytida suhbatdoshlarning ego xolati namoyon bo‘lar ekan. Tahlillarga ko‘ra, transaktsiya 3 turga bo‘linar ekan:

1. Qo'shimcha yoki parallel transaksiya (ingl. reci'rocal. complementary) – bunda bir kishidan kelib chiqadigan stimuly to'g'ridan- to'g'ri suhbatdoshning javobi bilan to'ldiriladigan operatsiyadir. Masalan: bemor shifokorga salom berishi, shifokorni bemorga qarab alik olishi va b.

2. Kesishgan (ingl.-crossed) – kesishuvchi, bunda ragbatlantirish va javobning kesishgan yo'nalishlari, kesishuvchi ma'lumotlar operatsiyalari nizoli vaziyatlar uchun asosdir. Masalan: Bemor shifokorga bizlarga ham vaqt ajratasizmi yoki qaraysizmi deb aytganda, shifokor men bitta o'zimga ham hamma uchun vaqt berishimni o'zida qarashimning imkoniyatim yo'q degan javobni oladi, bu vaziyat nizoni kelib chiqishiga sabablar tugdiradi.

3. Yashrin (ingl. dulex/covert) i transaksiya- bunda odam bir narsani aytganda, lekin butunlay boshqa narsani tushunish holati sodir bo'lar ekan. Bunday vaziyatda, ogzaki so'zlar, ovoz oxangi, mimika, imo-ishoralar va munosabatlar ko'pincha bir-biriga mos kelmaydi.

Demak, shifokorlar transakt analizning turlariga qarab mos munosabatni qo'llash va ularning o'ziga xos xususiyatlariga, ya'ni bemor va mijozlarni shaxsiy hususiyatlarini e'tiborga olib javob berishi vaziyatni pozitiv tomonga o'zgarishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, agar bu holat keskin javob berish, qo'pol muomalada bo'lish, yoki shifokorlar verbal va noverbal harakatlarini agressiv tarzda namoyon qilsa, bu holat negativ vaziyat, nizoni ziddiyatga aylanib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda, quyidagi usulni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Amaliyotda 7 "Yo'q" usulini qo'llash:

1. Mijoz yoki bemorlarni shikoyatlarini yoki tanqidini baxolash;
2. Qo'llagan xizmat turiga ataylab salbiy munosabat bildirish;
3. Bemorlarni manfaatlarini e'tiborsiz qoldirish;
4. Rost va adolatli so'zlardan asabiylashib, tortishish;
5. O'zini o'ta bilimli yoki kuchli ekanligini namoyon qilish;
6. Hamma narsani faqat o'z manfaati nuqtai nazaridan qarash;
7. Bemorlar bilan do'stona va ishonch ko'priklarini buzib yuborish.

Xulosa o'rnida aytish joizki, har bir tibbiyot hodimi tibbiyot deontologiyasi va transakt analizlar va shu kabi ilmiy tahlillarni o'rganib, amaliyotga tatbiq etsa, aynan tibbiyot sohasida obro-e'tibor sezilarli darajada yuksak marralarga erishadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan usullarni Oliy ta'lim muassasalarida, kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayorlash markazlarida o'quv dasturlari orqali tatbiq etish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish soha hodimlarida psixologik treninglar tashkil etish, psixologik maslahatlar uyshtirib



turish, ularda ish foyiylati jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizoli vaziyatlarni boshqarish, to'g'ri yechim topa olishi, konfliktologik malakasini oshirishda ilg'or, zamonaviy usullarni o'rganish, qo'llash va takomillashtirish zarur.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2022 yil 20 dekabrdaqli Oliy majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
2. A. A. Allabergenov, Y. R. Akovbyans, M. S. Xodjayeva. Kasb etikasi va psixologiyasi. –T.: Cho'lpon, 2007.
3. To'yeva Shahzoda Istam qizi. Kasb-hunar tanlashda psixologning o'rni hamda kasb psixologiyasining ahamiyati. // Science and innovation. International scientific journal. 2022 №4. 41–44-b.
4. А.Парамонов, С.Бутрий, В.Штабникий. Медицина для умных. Современные аспекты доказательной медицины для думающих пациентов. Москва.2021 г.309. с.
5. Э.Берн.Игры в которые играют люди: психология человеческих взаимоотношений. ЭКСМО, 2008 г.
6. З.Алла Далит. Психология для жизни: тарнзактный анализ в психотерапии. books.google.com.2022.
7. www.lex.uz
8. E-Books ADTI.uz
9. https://xabar.uz.
10. https://uz.m.wikipedia.org.

РЕЗИОМЕ

Ushbu ilmiy maqolada xizmat ko'rsatish muassasalarida, jumladan tibbiyot - sog'liqni saqlash tarmoqlarida xizmat ko'rsatish jarayonida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlar, ularning sabablari, ushbu vaziyatlarni psixokorreksiya va psixoprofilaktik ishlarni tashkil e'tishda G'arb mamlakatlarining tajribalari haqidagi ilmiy-amaliy fikrlar yoritilgan.

РЕЗИОМЕ

В данной научной статье рассмотрены конфликтные ситуации возникающие в процессе оказания услуг в учреждениях обслуживания, в том числе в лечебно- оздоровительной сети, их причины, а также проанализированы опыты ученых Западных стран по роганизации психокоррекционной и психопрофилактической работы в этих ситуациях.

SUMMARY

This scientific article discusses conflict situations that arise in the process of providing services in service establishments, including in the medical and health network, ther causes, and also analyzes the experiences of scientists from Western countries in organizing psycho-correctional and psycho -profilactic work in these situations.



ЁШЛАР МАЪНАВИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ФАЛСАФИЙ БИЛИМ ВА ФАЛСАФИЙ ТАФАККУРГА БЎЛГАН МУНОСАБАТ

Мамадалиев М. У.

*Андижон давлат чет тиллари институти. Ижтимоий гуманитар фанлари,
педагогика ва психология кафедраси ўқитувчиси*

Таянч сўзлар: фалсафа, маънавият, илм, тафаккур, дунёқараш, кадрият, мерос, тарбия, мафкура, инсонпарварлик, ватанпарварлик.

Ключевые слова: философия, духовность, наука, мышление, мировоззрение, ценность, наследие, воспитание, мировоззрение, гуманизм, патриотизм.

Key words: philosophy, spirituality, science, thinking, worldview, value, heritage, upbringing, ideology, humanitarianism, patriotism.

Энг катта бойлик ақл-заковат ва илм, энг катта мерос-бу яхши тарбия, энг катта қашшоқлик бу билимсизликдир!

Фалсафа билим фалсафий тафаккур ўзининг дастлабки чўққиларига қадимги замонларданок яъни бошқа фанлар эндигина вужудга келаётган даврдаёқ эришган эди. Мушоҳада қилиш, фикрлаш, ҳамда тасаввур қилишдан фойдаланиб фан бўлиб шаклланган. Фалсафий тафаккур инсон билишининг ривожланишида муҳим босқичси сифатида намоён бўлиб келди. Дунёнинг бирлиги, моддаларнинг тузилиши, қуёш тизими, олам тузилиши, сайёраларининг келиб чиқиши ва бошқа фикрлар фалсафий тафаккур ва билимлар замирида туғилди ва ривож топди.

Фалсафа, фалсафий билим, фалсафий тафаккурнинг келиб чиқишини тушунишда дунёқарашнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши муҳим аҳамият касб этади. Фалсафий билимнинг вужудга келиши мавжуд фанларнинг тараққиёти учун муҳим ўрин тутди. Фалсафа ўз қоидаларини ақл ёрдамида исботловчи онгнинг назарий шакли сифатида ишончга асосланган ва воқеликни ҳаёлий тарзда акс эттирувчи мифологик ҳамда диний дунёқарашдан бутунлай фарқ қилиши фалсафани системалашган назарий дунёқараш сифатида пайдо қилди.

Шубҳасиз, фалсафий тафаккур пайдо бўлишида илмий фаолият билан биргаликда иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий омиллар муҳим аҳамиятга эга бўлди. Фалсафанинг вужудга келишида жамиятнинг синфларга бўлиниши,



ақлий меҳнатни жисмоний меҳнатдан ажралиши, ишлаб чиқариш кучларининг тараққиётини кўрсатиш мумкин. У кишиларнинг амалий фаолиятида табиат кучлари устидан ҳукмронлигини оширишда, билимларнинг ривожланишида, тафаккурнинг ривожланишида муҳим ўрин тутади.

Дунё илм-фани тараққиёти ёшлар маънавиятини шакллантириш, таълим сифатини ошириш ва кадрлар салоҳиятини мустаҳкамлаш уларда интеллектуал фаоллигини шакллантиришда фалсафий билми ва илмий дунёқарашга таяниш масаласи нафақат ижтимоий-гуманитар фанларнинг, балки барча фанларнинг муҳим ва керакли муаммо сифатида тадқиқ этилмоқда. Фалсафа, фалсафий билим илмий дунёқараш ва тафаккур муаммоси ўзига хос тарзда ёшларда инсонпарварлик, ватанпарварлик сингари эпистимологик тамойиллар билан бир қаторда илмий ахлоқий тамойиллани янада кенг ривожлантириш заруриятини изоҳлайди.

Биз ўз олдимизга мамлакатимизда Учинчи Ренессанс пойдеворини барпо этишдек улуғ мақсадни қўйган эканмиз, бунинг учун янги Хоразмийлар, Бериунийлар, Ибн Синолар, Улуғбеклар, Навоий ва Бобурларни тарбиялаб берадиган муҳит ва шароитларни яратишимиз керак.

Аждодларимиздан қолган ёш авлодни маънавий ахлоқий тарбиясини ривожлантиришга доир шаклланган урф-одатларимиз, боқий анъаналаримиз жуда кўп. Бу меросимиздан бугунги кунда ҳам ёш авлодни маънавий баркамол қилиб тарбиялашда кенг фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Негаки биз давлатимизнинг истикболи ёш авлодимиз қандай камол топиши ва қандай маънавий фазилатлар эгаси бўлиб вояга етиши, уларни фаол муносабатда бўлиши ҳамда қандай олий мақсадларга хизмат қилишига боғлиқ эканини ҳамиша ёдда тутишимиз керак.

Республикамизда таълим-тарбия тизимини ислоҳ қилиш борасида амалга оширилаётган ишлар худди мана шу мақсадга йўналтирилган. Зеро, ушбу масала ғоявий нуқтаи назардан янги тахрирдаги Таълим тўғрисидаги Ўзбекистон республикаси Қонуни тамойилларига сўзсиз мувофиқ келади. Замонавий таълим-тарбия тизими ва миллий мерос асосидаги ғоявий уйғунлик таълим-тарбия жараёнида миллий мероснинг маънавий-маърифий заминларига таяниш зарурлигини ҳам англатади.

Шу жиҳатдан олиб қараганда буюк аждодларимиз, алломаю мутафаккирларнинг асрлар давомида яратган бой маънавий мероси ёш авлодни комиллик руҳида тарбиялашдаги аҳамияти бугунги кунда ҳам ўз ўрнини йўқотмаган. Бугунги кунда ота-она, оила ва маҳалла, тарихий хотира, миллий ғурур, комил инсон тарбияси билан боғлиқ туйғу ва тушунчаларни ёш авлод қалби ва онгига таъсирчан усул-услублар орқали сингдириш жуда муҳим.

Ўсиб келаётган ёш авлод ҳар томонлама мукамал, иродали, соф виждон билан камолга етиши учун, энг аввал, маънавий-маърифий фаолиятимизни



юксак даражага кўтаришнинг аҳамияти беқиёс улуғдир. Ёшларнинг маънавий камолоти баркамол авлод бизнинг асосий мақсадимиз. Унга эришиш йўлидаги асосий мақсадларимиздан бири ёш авлодни таълим ва тарбия олиши жараёнида уларнинг он-гида маънавий етукликни шакллантиришда барча таълим фаолиятини янада кучайтирган холда ташкил этиш мақсадга мувофиқдир.

Бугунги кунда давлатимиз томонидан таълим соҳасидаги амалга оширилиб келинаётган ислохотларнинг асосий мазмун-моҳиятларидан шуни кўришимиз мумкинки асосий мақсад ҳар томонлама камол топган маънавий етук ёшларни тарбиялашдир. Юксак салоҳиятли, маънан баркамол, жисмонан соғлом интеллектуал ёш авлодни камол топтириб вояга етказиш зарурияти жамият ва давлат ривожига, унинг истиқболи ҳамда барқарор миллий давлатчилик асосларини янгилаш ва янгича муносабатларни вужудга келтирди. Амалга оширилаётган таълим тизимидаги ўзгариш ва ислохотлар бугунги кун ёшлар маънавиятини шакллантириш нақадар муҳим вазифа эканлигини белгилаб бермоқда.

Жисмонан соғлом, руҳан ва ақлан ривожланган, мустақил фикрлайдиган, ватанга содиқ, қатъий ҳаётий нуқтаи назарга эга ёшларни тарбиялаш, демократик ислохотларни чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш жараёнида уларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш, бу эса ўз ўрнида таълим ва тарбия соҳасидаги ислохотларнинг барча ўринларида давр талабларига мос унга жавоб бера оладиган маънавий баркамол авлодни тарбиялаш асосий вазифалардан бир эканлигини тақозо этади. Шу нуқтаи-назардан қараганда, маънавиятни шакллантириш, фалсафий билим, фалсафий тафаккур каби масалалар таълим тизимидаги ислохотлар давлат аҳамиятига молик устувор вазифа сифатида мамлакатдаги барча аҳоли айнасида ёш авлод қатламларини ўз мақсадлари атрофида мужассамлаштиради. Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг давлат ва жамият истиқболи ҳамда унинг ривожига оид қарашларида маънавият, миллий ғоя, фалсафий билим ва фалсафий тафаккур каби фикрлари баркамол авлодни жамият ҳаётига тайёрлаш давлат аҳамиятига молик вазифалардан эканлиги алоҳида ўрин эгаллашини айтиб ўтадилар. Бугунги кунда юртимизда амалга оширилаётган ислохотлар, таълим-тарбия тизимини тубдан ислох қилиш жараёнлари энг аввало ёш авлодда маънавият, фалсафий билим ва юксак тафаккур асосида таълим тизимини янги халқаро талаблар асосида ривожлантириш муаммосининг илмий асосларини тадқиқ этишни талаб қилади. Шунинг учун ёшлар маънавиятини шакллантиришда фалсафий билим ва илмий дунёқарашнинг тутган ўрнига алоҳида эътибор қаратишни талаб қилади.

Бу борада қадимдан доно халқимиз бебаҳо бойлик бўлмиш илму-маърифат, таълим ва тарбияни инсон камолоти ва миллат равнақининг энг асосий шarti ва гарови деб билгани боис, таълим-тарбия масаласи давлатимиз ва



жамиятимиз тараққиётининг барча босқичларида муҳим ўрин эгаллаб келган

Мустақил фикрлашни тарбиялаш эса, ўз навбатида, субъектнинг ушбу билимлар, ғояларни эгаллаши жараёнидаги фалсафий тафаккур билан боғлиқ ҳолда амалга ошади. Бу эса унда ақлий фаолият билан бирга ҳиссий мантиқий билимлар билан мос тушади. Инсон ҳис этган ҳолда фикрлайди ва фикрлаган ҳолда ҳис этади. Инсоний ҳис-ҳаяжон инсонни ҳақиқатни излашга тафаккур қилишга ундайди. Тафаккурни ҳосил қилиш ҳам ҳақиқатни излашнинг бир туридир. Бинобарин инсон фикрни соф мантиқий аниқлашдан ташқари улар борасида муайян туйғуни ҳис этади.

Билим кишининг шахсий эътиқодига ўз-ўзидан айланмайди, уни шакллантириш ҳам керак. Бунинг учун таълим ва тарбия жараёнида шахснинг ақл-идрокига, ҳис-туйғусига ва ҳоҳиш-иродасига муайян мақсадни кўзлаб таъсир кўрсатиш зарур. Эътиқод мазмунини билимлар, ғоялар характери белгилаб бериши маълум. Шу боис талабаларга етказилаётган ғоялар улар томонидан теран тушуниб олиниши ва ақл-идрок мулкига айланиши даркор. Улар шундагина онгда ўз изини қолдириши мумкин. Шунинг учун ёшларда мустақил фикрлаш ва фалсафий билимларга таянган юксак тафаккурни ривожлантириш даркор.

Шу нуқтаи назардан қараганда, биз танлаган тараққиёт йўлининг таркибий қисмига, аниқроқ айтадиган бўлсак, келажагимизнинг мустаҳкам пойдеворига айланиб бораётган “Ўзининг аҳамияти ва моҳиятига кўра ҳеч нарса билан қийслаб бўлмайдиган ҳаётимиздаги ўзгаришлар ҳақида гапирганда, аввало, одамларимизнинг дунёқараши ва кайфияти, фикру зикри, уларнинг ҳаётга, ўз меҳнати натижасига муносабати тубдан ўзгариб, юксалиб бораётгани ҳақида тўхталмасдан ўтолмаймиз. Бугун инсоннинг ўзи ўзгармоқда, унинг сиёсий онги, ҳуқуқий маданияти ўсмоқда. Бу эса ёшларда боқимандалик кайфияти ва турли сохта қолиплардан холи ҳолда фикрлашларидан дарак беради. Мустақил фикрлайдиган, замонавий билим ва касб-хунарларга эга, ҳаётга янгича тафаккурдаги ёшларни ўз фикри ва қарашларига ишонч билан кириб келаётганидан далолатдир.

Ёшларни мустақил фикрлаш руҳида тарбиялаш ўз навбатида ушбу билимлар, ғояларни эгаллаши жараёни билан боғлиқ.

Мамлакатимиз тараққиётининг янги босқичида таълим муҳитини ўзгартириш миллий манфаатларни умуминсоний манфаатлар билан уйғунлаштириш, фалсафий таълимни ривожлантириш – миллий тараққиёт шартисифатида кўрсатилмоқда. Таълим жараёнида миллий ва умуминсоний манфаатларни уйғунлаштиришнинг янги имкониятларини топиш ва ҳаётга татбиқ қилишда фалсафий тафаккур ва фалсафий билим тамойилларига таяниш муҳим назарий, методологик ва амалий имкониятларини яратади.



Фалсафий тафаккур айниқса ёш авлодни танқидий таҳлил қилишга ўргатиб унинг маънавий салоҳиятини оширишга хисса қўшади. Фалсафий тафаккур инсон қабул қилаётган ахборотни таҳлил қилиш методик усуллар орқали ўзлаштириш жараёни ҳисобланади. Ўз ўрнини топишига сабаб бўлади. Инсон ушбу ахборотни қайта ишлаш ундаги инсон ва дунё муаммоларини таҳлил қилиши унинг ички эҳтиёжи ҳисобланади. Фалсафа инсондаги айнан шу жиҳатларни шакллантириб инсон ва жамият ҳаётида муҳим ўрин тутаяди. Бу эса Фалсафий ёндашувнинг миллий хусусиятлар, ижтимоий муносабатлар давлат ва жамият бошқарув тизими хусусиятларини ҳисобга олиб боради.

Фалсафий ёндашувдан кўзланган асосий мақсадлар ёшларда муайян билимлар захирасига эга бўлиш уларда фалсафий матнларни таҳлил қилиш, шарҳлаш ва тушуниш каби кўникмалар шакллантирилгандан сўнггина улар томонидан асосий тушунчалар ва фалсафий услубларни қай даражада ўзлаштирганликларини билиш мумкин. Бу эса ёшлар маънавий камолотини аниқлашда улардаги фалсафий масала ва нофалсафий масалаларни бир биридан фарқлаш, муаммоларни анализ қилиш, муносабатларни аниқлаш, алоқадорлик кўникмаларни шаклланганлигини англаши орқали рўёбга чиқаяди. Бундан ташқари ўз фикрларини оғзаки ёзма нутқда ифдаланишида сўзларни тўғри қўллаш мақсад сари босқичма босқич интилишни назарда тутаяди.

Адабиётлар:

1. Ш.Мирзиёев Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент. Ўзбекистон нашриёти. 2021-й 24-б
2. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 29.12.2020
3. <https://lex.uz/docs/3107036> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. - Тошкент: Адолат, 2017

РЕЗЮМЕ

Мақолада фалсафа, фалсафий билим, илм, фан, тафаккур, тараққиёт, ёшлар маънавиятини шаклланиши, илмий мерос, дунёқараш миллий ва умуминсоний мерос каби муҳим масалалар тилга олинган.

РЕЗЮМЕ

В статье затрагиваются такие важные вопросы, как философия, философское знание, наука, мышление, развитие, формирование духовности молодежи, научное наследие, мировоззрение, национальное и общечеловеческое наследие.

SUMMARY

The article mentions important issues such as philosophy, philosophical knowledge, science, thinking, development, formation of youth spirituality, scientific heritage, worldview, national and universal heritage.



BAHS-MUNOZARA VAZIYATLARIDA HAMKORLIKDA FAOLIYAT KÓRSATISHNING AHAMIYATI

Allanazarova Sh. A.

Qoraqalpoq davlat universiteti

Tayanch soʻzlar: munozara, hamkorlik, muloqat, fikr, óquvchi, óqituvchi, insonparvarlik, faoliyat.

Ключевые слова: дискуссия, сотрудничество, общение, мнение, ученик, учитель, человечность, деятельность.

Key words: discussion, cooperation, communication, opinion, pupil, teacher, humanity, activity.

Munozara vaziyatlarini tashkil etish davomida óqituvchi har bir óquvchining bu jarayonda ishtirok etish xohishini qondirishi va qóllab-quvvatlashi lozim. Bahs-munozara vaziyatlari shunday tashkil etilishi kerakki, bunda kómakka muhtoj bólgan har bir ishtirokchi uchun zarur yordam berilishi muhim. Munozara jarayonida ishtirokchilarning salbiy munosabati ham muammolar yechimini oydinlashtirish, qarama-qarshiliklarni bartaraf etish va munozara jarayonining samarali davom etishida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda muhokama qilinaotgan muammo yuzasidan yagona fikr vujudga keladi. Bunday pedagogik yordam óquvchilarning shaxsiy hukmlarini bayon qilishlariga imkon beradi va munozara vaziyatining samarali kechishini táminlaydi.

Shunga kóra óqituvchining munozara jarayonidagi faoliyatiga bir qator talablar qóyiladi. Bunday talablarga rioya qilish natijasida munozara jarayonida ózaro hamkorlikka asoslangan holda kutilgan natija qólga kiritiladi. Bahs-munozara vaziyatlarida birinchi navbatda óquvchilarning intellektual faolligi táminlanadi. Axborotlarni qabul qilib olish va ózaro almashinish, farazlarning ózaro siljishi, sub'ektdan-sub'ektga qarab harakatlanishi, har bir óquvchida shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi, órtaga tashlangan muammoning muhokama qilinishi, shuningdek, óquvchilarning xulq-atvorida ham faollik vujudga keladi, bahs-munozara ishtirokchilari orasida ózaro munosabat vujudga keladi. Buning natijasida tashabbuskorlik hamda aniq yoʻnalish olish sohasidagi kamchiliklar bartaraf etiladi.

Muloqot hamda hamkorlikdagi faoliyat óquvchilarda mustaqillik, erkinlik, tenglik hissining mustahkamlanishiga kómaklashadi. Ularda óz tengdoshlarining nuqtai nazarlarini kórib chiqish, órganish, uning harakatlarini óziniki bilan qiyoslash, muvofiqlashtirish hamda sherigini tushunish kónikmasi qaror topadi.

Har qanday harakatning asosini tóg'ri yónalish olish tashkil etadi. Chunki óquvchi óz harakatlarini amalga oshirish jarayonida muayyan holatlar, bilim va tajribalarga tayanadi. Shuning uchun ham óquvchi óz maqsadiga erishish davomida muayyan shart-sharoitlarni órganishi lozim. Agar óquvchi maqsadga erishish uchun mavjud sharoitlarga qisman amal qilsa, u muayyan xatolarga yól qo'yadi. Masalan, óquvchi muayyan asar qahramoni haqida ózining ob'ektiv xulosasini bayon qilishi zarur bólsa, u mazkur qahramonning barcha hatti-harakatlari, xarakter xususiyatlarini yaxshi bilishi talab etiladi. Aks holda u asar qahramoni haqida notóg'ri xulosaga kelishi mumkin. Shuning uchun ham, biror asar qahramonlari haqida munozara darslarini tashkil etishdan avval óquvchilar ósha asarni to'liq órgangan bólishlari lozim. Masalan, "Mehrobdan chayon" asaridagi Ráno qanday obraz?, U ota-onasining yuziga oyoq qóydimi yoki óz taqdiri, baxti uchun kurashdimi?

Albatta, buning uchun o'quvchilar Ráno obrazini puxta o'rgangan, uning hatti-harakatlarini tahlil qilish imkoniyatiga ega bólishlari lozim.

Munozara jarayonidagi óquvchilar hamkorligining muhim kórinishlaridan biri, uning óqituvchi ishtirokidan mustaqilligidir. Kuzatishlarimiz shuni kórsatdiki, óqituvchining fikr-mulohazalari va bahosiga óquvchilar befarq emaslar. Bázan ular óqituvchilarning fikrlariga alohida qiziqish va hayajon bilan qaraydilar. Biroq, ular sinfdoshlarining fikrlari, his-hayajonlarini xotirjamlik bilan qabul qiladilar. Óqituvchi óquvchilarga: Sening bu fikring notóg'ri?, Sen mavzudan chetga chiqayapsan? degan sózlar bilan ularni muhokama qilinayotgan muammoning asl mohiyatini anglashga yónaltirib turishi lozim. Bunday holatlarda óquvchi topshiriqlarni bajarish va muhokama qilish jarayoniga alohida mas'uliyat bilan yondashadi. Óqituvchi óquvchilarni yónaltirar ekan, ularning yaxshi, namunali, faol óquvchi ekanligi, lekin bunday vaziyatda masalaga alohida e'tibor bilan qarash zarurligini uqtirishi talab etiladi.

Munozara jarayonida óquvchilar ongli xulq-atvor me'yorlarini egallaydilar, mustaqil nazorat qilish va tanlash tajribasini ózlashtiradilar, bu esa munozara vaziyatlarida ularning óquv mustaqilligini ta'minlaydi. Bu ularning yónalish olish sohasidagi qiyinchiliklarni yengishlariga imkon beradi, diqqatlarini munozara mavzusi atrofida jamlashga kómaklashadi, muhokama qilinayotgan muammo doirasida nuqtai nazarlarini qaror toptiradi. Qóyilgan óquv



vazifasining tóg'ri yechimini ta'minlashga xizmat qiladigan nuqtai nazarlarini ajrata olishlariga kómaklashadi.

Biz óz tajribalarimiz davomida turli mavzudagi óquv munozaralarini tashkil etishga intildik. Chunonchi: "Alpomish" dostonida insoniy muhabbat qay tarzda namoyon bóladi?, Alisher Navoiyning "Xamsa" asarida qanday falsafiy g'oyalar ilgari surilgan?, Bobur lirikasida yetakchi g'oya nimadan iborat?, Bugun Ózbekistonda yoshlarga qaratilgan davlat siyosati qay tarzda ifodalanmoqda? kabi.

Munozara vaziyatlarida óquvchilarning qóyilgan muammo yuzasidan ijodiy fikrlashlarini ta'minlash alohida ahamiyatga ega. Bunday ijodiy fikrlar, aqliy operatsiyalar munozara muammosining tóg'ri yechimini ta'minlaydi. Munozara vaziyatlari sheriklarning hamkorlikdagi aqliy faoliyatini tashkil etishga kómaklashadi. Óz-ózini namoyon qilish va fikriy shakllanish jarayonini tezlashtiradi.

Bahs-munozara vaziyatlarida yónalish olish va tashabbus kórsatishga oid qiyinchiliklarni bartaraf etishda guruhli muhokama daqiqasi muhim órin egallaydi. Bunday muhokama munozara natijasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda óquvchilar orasida aniq, samarali hamkorlik vujudga keladi, óquv vazifalarining taqsimlanishi uchun sharoit yaratiladi. Bir-birlarining nuqtai nazarlari bilan kelishish imkoniyati vujudga keladi. Óquv faoliyati natijalari va fikrlar bilan órtoqlashish uchun qulay vaziyat hosil bóladi. Bir-birlariga kómaklashish, ózaro faoliyatlarini nazorat qilish va baholash vaziyati qaror topadi. Bu esa óquvchilarda uchraydigan shaxsiy qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun qulay sharoitlardan biri hisoblanadi.

Guruhli ishlash jarayonida muhokama qilinayotgan muammoning yechimiga har bir óquvchining qóshadigan hissasi aniq namoyon bo'ladi. Nuqtai nazarlar, qadriyatlar, fikrlarning yaqinlashuvi kuzatiladi. Óquv jarayoni ular uchun qulaylashadi. Óquv faoliyatini bunday tashkil etish natijasida óquvchilarda guruhli hamjihatlik hissi ortadi. Óz kuchiga ishonmaslik, xavotir hissi pasayib, óz-ózini baholash va óquv jarayoni samaradorligini oshirish kayfiyati ustivor bóladi. Buning natijasida o'qituvchi bahs-munozara vaziyatidan o'quv jarayonida kóproq foydalanishdan manfaatdor bóladi.

Bósh ózlashtiruvchi óquvchilar bahs-munozara ulardagi tortinchoqliq, tobelikni bartaraf etish omili ekanligini anglaydilar, har qanday nuqtai nazar muvaffaqiyatsizlikka uchrashini tushunib yetadilar. Biroq shu bilan bir qatorda ular nuqtai nazarlar muammoning yechimiga turtki bo'lishini ham anglab yetadilar. Munozara vaziyatlarida óqituvchi óquvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini alohida e'tibor va sinchkovlik bilan kuzatishi lozim. Buning uchun



óqituvchi ham muvaffaqiyatli, ham qarama-qarshiliklarga ega bólgan hamkorlik jarayonini muntazam tahlil qilishi talab etiladi. Óqituvchi óquvchilarning imkoniyatlari va ózaro bir-birlariga bólgan munosabatlarini órganishi natijasida, bildirgan takliflari va kórsatmalari asosida bir qator guruhlarda munozara jarayoni muvaffaqiyatli kechadi, keyinchalik óqituvchi bu guruhlarining ishlarini butun sinfga namuna sifatida namoyon qiladi. Shuningdek, u har bir o‘quvchining guruhda ishlash jarayonida erishgan muvaffaqiyati haqidagi fikrlarini sórab, tahlil qilib natijalarni umumlashtirishi kerak. Óqituvchi guruhli faoliyatning yónalishini sharhlar ekan, óquvchilarning fikrlarini uning samarali, mahsuldor jihatlariga jalb etadi va ijobiy holatlarni targ‘ib qilib boshqa óquvchilar ham uni óz faoliyatlarida qóllashlari zarurligini uqtiradi. Shu tariqa bahs-munozara vaziyatlarida muvaffaqiyatli hamkorlik muhiti vujudga keltiriladi.

Bahs-munozara vaziyatlarida hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish tushunchasi ostida óquvchilarning ózaro hamda óqituvchi bilan birgalikda muammoning yechimini izlash va topishga yónaltirilgan faoliyati tushuniladi. Bu esa shaxslararo munosabatlarda uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf etishning muhim usulidir.

Bahs-munozaraning didaktik ahamiyati shunchalik kattaki, bu jarayonda butun óquv faoliyati ózaro hamkorlik va izlanishlarga asoslangan holda tashkil etiladi. Bahs-munozara vaziyatlaridagi hamkorlik va muloqot óquvchilar bilan óqituvchilarning ózaro insonparvarlikka asoslangan rivojlanish imkoniyatidir.

Adabiyotlar:

1. Сериков В. В. Личностно ориентированное образование - новое направление развития педагогической теории и практики // Личностно ориентированное образование: феномен, концепция, технологии: Моногр. / В. В. Сериков, В. И. Данильчук, В. М. Симонов и др. - Волгоград, 2000. - С. 13 - 26.
2. Бурякова В. В. Дискуссия на современном уроке: Метод. рекомендации. – М.: МГИУУ, 1989. - 160 с.
3. Сафарова Р, Юсупова Ф. ва б. Ўқувчиларда ўзаро дўстона муносабатларга асосланиб ҳамкорликда фаолият кўрсатиш кўникмаларини шакллантиришга оид назарий-амалий ёндашувлар. Т. Фан ва технология нашриёти, 2012. – 115 б.
4. Алланазарова Ш.А. Умумий ўрта таълим жараёнида баҳс-мунозара вазиятларини ташкил этиш методикаси:Т “Gold print” 2018-108 б.

РЕЗЮМЕ

Maqolada bahs-munozara usulidan foydalanish jarayonida hamkorlikda ishlashning ahamiyati haqida sóz yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В статье пойдет речь о важности совместной работы в процессе использования метода дискуссии.

SUMMARY

The article will discuss the importance of joint work in the process of using the discussion method.



ИНСОН ҲАЁТИДА УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМНИНИНГ АҲАМИЯТИ ВА ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ

Комилова Ф. М.

Ўзбекистон Республикаси З.Бобур номидаги

Андижон Давлат университети

Умумий Педагогика кафедраси доценти, н.ф.б.ф.д (PhD)

Таянч сўзлар: узлуксиз таълим, илм, фан, концепция, интеллектуал мулк, мустақил таълим.

Ключевые слова: непрерывное образование, наука, концепция, интеллектуальная собственность, самообразование.

Key words: continuing education, science, concept, intellectual property, self-education.

Кирриш. Узлуксиз таълимнинг асосий ғояси ривожланиш, индивидуал ижодий салоҳиятни ошириш, шахсни такомиллаштириш ғоясидир. Ўз-ўзини ривожлантириш ғояси йўқолиб бориши, ривожланиш мотивациясининг заифлиги узлуксиз таълимнинг асосий муаммоларидан биридир. Бунинг сабабларидан бири бугунги ҳаётнинг ҳаддан ташқари прагматизми ва ҳамма нарса сотиладиган ва кўп нарсалар ўз қийматига эга бўлган дунёда замонавий инсон кадриятларининг ўзгариши, таълимни «таълим хизматлари» тўплами сифатида кўрилаётгани, фундаментал тадқиқотларни унутилишидир. Бирок, замонавий тенденцияларга қандай муносабатда бўлишидан қатъи назар, шуни тан олиш керакки, бугунги шароитда инсон фаровонлиги ва таълим соҳасини дунёо стандартларига жавоб берадиган шарт сифатида рақобатбардошлик ғоясига алтернатива йўқ. Ўзбекистонда узлуксиз таълим қариб йигирма йилдан ортиқ вақт мобайнида таълим тизимида шаклланиб келмоқда.

Адабиётлар таҳлили ва методология. Узлуксиз таълим тизимини ташкил этиш ғояси XX асрда пайдо бўлган бўлса, аммо унинг келиб чиқиши қадимги файласуфлар - Конфуций, Сократ, Аристотел, Солон, Платон, Сенекларнинг асарларида топиш мумкин. Ян Амос Коменский узлуксиз таълим ҳақидаги замонавий ғояларнинг асосчиси сифатида тан олинган, унинг педагогик мероси бугунги кунда узлуксиз таълим концепциясида мужассамланган тафаккур ядросини ўз ичига олади.

“Узлуксиз таълим” концепцияси биринчи марта ЮНЕСКОнинг 1965 йилдаги форумида таниқли назарийчи П.Лангранд томонидан ўртага ташланиб сезиларли даражада назарий ва амалий резонансга сабаб бўлди ва натижада ўтган асрнинг 60 йиллари охирига келиб мазкур ибора илмий таҳлилнинг махсус предметиға айланди. Узлуксиз таълимни халқаро даражада ўрганишнинг устуворликлари ўз ичига таълим тизимининг узлуксизлигини таъминловчи узлуксиз касбий таълим, қўшимча таълим, катталар таълими, аҳолининг ҳимоя қилинмаган қатлами таълими ва иқтисодий моделларни қамрайди[1]. П.Лангранд ҳисоботи асосида ушбу “узлуксиз таълим” бўйича тавсиялар ишлаб чиқилди. 1972 йилда ЮНЕСКО кейинги қадамни қўйди: у Э. Форра раҳбарлигида тузилган комиссиянинг «Бўлмоқ учун ўрганиш» мавзусидаги ҳисоботини тинглади. 1970-йилларнинг ўрталаридан бошлаб узлуксиз таълим ғояси деярли барча мамлакатларда қўллаб-қувватланиб, таълим ислохотларининг асосий тамойилиға айланди.

Узлуксиз таълим тизимининг ривожланиши, унинг ўзига хос хусусиятларини илмий жиҳатдан тадқиқ этишга сезиларли даражада ҳисса қўшган МДХ олимларидан С.Г.Вершловсий, Н.В.Василенко, С.М. Вишнякова, В.И.Ильина, О.М. Никандров, В.И. Подобеда ва бошқаларнинг номларини келтириб ўтиш мумкин.

Бу хусусида олимларимиз фикрлари турлича, хусусан 2020 йилда «Ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриётида» чоп этилган «ИСЛОМ энциклопедиясида (43-бет) шундай сатрларни учратдик. «Қуръонда харфлар, сузлар ва оятлар бирлашиб, узиға хос тарзда уйғунлашиб муайян яхлитликни ташкил этади. Айрим мусулмон олимлари Қуръон атамасининг келиб чиқишини қар-жамламоқ сузи билан боғлашади. Ушбу талкинға кура, Қуръон узидан олдинги китоблар мазмунини(-хам) узидан мужассам этгани, яъни жамлагани учун мазкур атама билан номланади. Шунинг-дек, Қуръон атамаси арабча қарина-туташ, якин сузининг куплик шакли булган қароин сузидан олинган булиб, ундаги хар бир оят кейингиси билан туташиб, яхлит уйғунлик касб этиб боради деган талкин хам учрайди»[5].

Тадқиқот усуллари. Таълим тизимида узлуксиз таълимнинг ўрни ва аҳамиятини илмий мушоҳада, абстракт-манتيкий, қиёсий ва тизимли таҳлил, тизимли ёндашув, анализ ва синтез, тарихийлик тамойиллари асосидаги усуллардан фойдаланилди.

Муҳокама ва натижалар. ЮНЕСКОнинг “Таълим – яширин хазина” (“Learning: The Treasure Within”) деб номланган XXI аср учун таъ-



лим бўйича халқаро комиссиясининг маърузасида илмий тараққиёт ҳамда иқтисодий ва ижтимоий фаолиятнинг янги шакллари бутун ҳаёт давомида ўқишни талаб этаётгани алоҳида таъкидланади. Маърузада бутун ҳаёт давомида таълим олиш тўрт устунга таяниши лозимлиги таъкидланади[3] Бутун умр давомида ўқишнинг устунлари: билишга ўрганиш, ишлашни ўрганиш, биргаликда яшашга ўрганиш, яшашни ўрганиш назарда тутади.

Шу борада Lifelong learning концепцияси яъни ҳаёт давомида ўрганиш нимани ўргатади, нималарни назарда тутади:

Ўқиб ўрганиш таълим тизимидаги босқичлардан кегин тугамайди. Бутун ҳаёт давомида узлуксиз ўрганишдир. Ҳар қандай шароитда шундай бўлиши керак.

Ҳар ким ўз таълим даражаси учун жавобгардир. Бу ихтиёрий бўлиши керак, лекин ҳамма унинг аҳамиятини тушуниши лозим.

Янги кўникмаларни ўзлаштириш мураббий ёки ўқитувчини талаб қилиши шарт эмас. Сиз ўзингизни тарбиялаш, мустақил таълим олиш билан шуғулланишингиз мумкин.

Узлуксиз таълим олиш, ўқиб ўрганиш замонавий инсон ҳаёти учун муҳимдир. Ўрганиш ва изланишни билиш ўқиш ёки интернетдан, уяли алоқа ускуналари ёки бўлмасам кундалик ҳаётимизда ишлатиладигон технологиялардан фойдаланиш билм ва кўникмаларига эга бўлиш каби муҳим аҳамиятга эга.

Ўз-ўзини тарбиялаш, мустақил таълим олиш беғараз ва ихтиёрий бўлиши керак. Сиз буни яхши иш топиш, моддий фойда кўриш ёки бўлмасам реклама қилиш учун қилмаяпсиз. Сиз буни ўзингиз учун қиласиз, чунки бу муҳим. Таълим восита эмас, балки мақсаддир. Дея таъкидлайди.

Умуман олганда, узлуксиз таълим шахс ва жамиятнинг мос эҳтиёжлари давлат ва жамият институтлари ва ташкилий таъминловчи тизим орқали шахснинг бутун ҳаёти давомидаги таълим (умумий ва касбий) салоҳиятининг ўсиш жараёни билан кечади. Узлуксиз таълим ижодкор, ижтимоий фаол, креатив, маънавий бой шахсни шакллантирувчи ва юқори малакали рақобатбардош кадрлар тайёрлашда олдинда боришлик учун зарур шароитлар яратади. Таълимнинг турларига ўз навбатида мактабгача, умумий ўрта, ўрта махсус, касб-ҳунар, олий, олий ўқув юртидан кейинги таълим, кадрлар қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш ва мактабдан ташқари таълимни киритиш мумкин[4].

Узлуксиз таълим фойдаланиладиган таълим турларининг хилма-хиллиги ва мослашувчанлигини, уни инсонпарварлаштириш, демократлаштириш ва индивидуаллаштиришни назарда тутади. Узлуксиз таълим-



нинг муҳим хусусияти унинг келажакка интилиши, юқори малакага эга бўлишдан олдин олинган касбий билимлардан фойдаланиш асосида жамият тараққиёти муаммоларини ҳал қилишдир; қайта тайёрлаш ва янада мураккаб босқичга ўтиш.

Хулоса. Демак, таълимнинг узлуксизлиги уни амалга ошириш жараёнининг барча босқичлари ва унинг барча оралик натижалари ўртасидаги муайян муносабатни назарда тутати. Таълимнинг узлуксизлиги ҳар қандай ижтимоий тизимнинг онгли ҳаётини қайтарилмаслиги, доимийлиги ва табиий мақсадга мувофиқлиги ҳақидаги тушунчани кучайтиради. Узлуксиз таълимнинг табиати вазиятга боғлиқ, чунки у биринчи навбатда воқеликни идрок этишнинг ўзгаришига, уни ўзгартириш зарурлигини тушунишга, уни ўзгартириш йўллари (йечимларни) топишга, трансформациянинг оптимал йўлини танлашга олиб келади (тизимнинг имкониятларига жавоб берадиган йечим), танланган ўзгариш йўлини амалга ошириш (ўзгартириш тактикаси), натижани баҳолаш. Инсон учун таълим фақат ижтимоий муҳитдаги ўзгаришларга мослашиш воситаси бўлиб, кўпинча мажбурий, лекин ички зарурият эмас, айниқса ўзини ўзи моддий бойитиш воситаси эмас. Шундай қилиб, замонавий илм-фанда «uzluksiz ta'lim» деб тушуниладиган шаклдаги узлуксиз таълим тушунчаси умрбод таълим олиш, инсон ўзининг интеллектуал мулкни бойитишдир. Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, янги Ўзбекистон узлуксиз таълим тизимида узвийликни таъминлашнинг ахамияти шундаки, у эртанги кун эгалари баркамол шахс бўлиб ривожланиши, рақобатбардош муҳитда ўз урнини топа оладиган, мантикий фикрлай оладиган, XXI аср амалий компетенцияларига эга бўладиган ёшларга сифатли таълим ва тарбия бериш тизимини яратишга ҳисса бўлиб қўшилади, деб ҳисоблаймиз.

Адабиётлар:

1. Аношкина В. Л., Резванов С. В. Образование. Инновация. Будущее. 2001. Раздел. 3. Стадии становления концепции непрерывного образования. URL: sbiblio.com/biblio/archive/resvanov_obrasovanie/
2. Умнова М. К. и др. Развитие умственных способностей у детей младшего дошкольного возраста через применение развивающих игр // Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 595-600.
3. Образование: сокрытое сокровище. Основные положения Доклада Международной комиссии по образованию для XXI века // <http://www.ifap.ru/library/book201.pdf>.
4. Нуриббетов Равшан Ибрагимович, Абдурахмонова Гулнора Қаландаровна рақобатбардош Кадрлар тайёрлашда узлуксиз таълим тизимининг ўрни ва ахамияти, “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журналы. № 2, март-апрель, 2018 йил.
5. Насиров Абдурахим Абдимуталипович, Қўйсинов Одил Алмуротович Узлуксиз таълим тизимида узвийликни таъминлаш: муаммо ва ечимлар // Современное образование (Узбекистан).



2022. №4 (113). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/uzluksiz-talim-tizimida-uzviylikni-taminlash-tuammo-va-echimlar> (дата обращения: 21.02.2023).

6. Комилова Ф. М. Развитие организационной культуры учителя начальных классов // Вестник науки и образования. – 2022. – №. 3 (123). – С. 90-92.

7. Умнов Д. Г. Формирование представлений у детей дошкольного возраста потребительски-экономических ценностей // Образование, профессиональное развитие и сохранение здоровья учителя в XXI веке. – 2022. – С. 476-482.

РЕЗЮМЕ

Мақолада узлуксиз таълимнинг келиб чиқиши, тарихи, мақсади ва инсон ҳаётида шакллантиришнинг тенденциялари, муоммо ва тавсиялари кўриб чиқилади. Узлуксиз таълим фойдаланиладиган таълим турларининг хилма-хиллиги ва мослашувчанлигини, уни инсонпарварлаштириш, демократлаштириш ва индивидуаллаштиришни назарда тутилиши ҳақида таҳлил қилинади.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются происхождение, история, цель и тенденции формирования непрерывного образования в сознании человека, его распространение и рекомендации. Подразумевается в непрерывном образовании разнообразие и гибкость используемых видов образования, его гуманизацию, демократизацию и индивидуализацию.

SUMMARY

The article discusses the origin, history, purpose and trends of the formation of continuing education in the human mind, its dissemination and recommendations. It implies in continuous education the diversity and flexibility of the types of education used, its humanization, democratization and individualization



О ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ ЛАБОРАТОРНОГО ПРАКТИКУМА ПО МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ БИОЛОГИИ В УСЛОВИЯХ УНИВЕРСИТЕТОВ

Обиджанов У. И.

преподаватель Ферганского государственного университета

Нишионов М.

профессор Ферганского государственного университета

Tayanch soʻzlar: *biologiya, taʼlim, amaliyot, metodika, oliy taʼlim.*

Ключевые слова: *биология, образование, практика, методология, высшее образование.*

Key words: *biology, education, practice, methodology, higher education.*

Система методической подготовки учителя биологии в условиях университетов включает ряд структурных компонентов: цели обучения находят отражение в профессиограмме; содержание учебной дисциплины методики обучения биологии находит выражение в программе [6]; формы обучения методике (лекции, лабораторные занятия, педагогическая практика, самостоятельная работа студентов) регламентируются соответствующими пособиями и директивными документами [1; 4], в которых рассматриваются также методы и средства обучения методике.

Поскольку принципы, заложенные в учебную программу по методике и в содержание лекционного курса, достаточно подробно описаны [4-5], мы остановимся на проблеме разработки лабораторного практикума по методике преподавания биологии.

Наука методика обучения биологии с точки зрения требований социального заказа о реализации в учебном процессе диалектического единства образовательной, воспитывающей и развивающей функций обучения представляется как сложная интегративная система, возникающая на стыке психологии, теории воспитания, дидактики и системы биологических знаний.

Системообразующая функция методики обучения биологии как учебной дисциплины университета выражается в установлении с ее помощью



связей, во-первых, между дисциплинами психолого-педагогического и биологического циклов, а во-вторых, между теоретической подготовкой студентов и их практической деятельностью в школе. Первая группа связей полнее всего реализуется в содержании лекционного курса. Функция реализации второй группы связей ложится на лабораторный практикум по методике обучения биологии. Поэтому очень важно, чтобы в лабораторном практикуме находили оптимальное сочетание все названные компоненты методики обучения биологии как интегративной системы.

В течение длительного времени соотношение и связи этих структурных компонентов в практикуме было нарушено. Это объяснялось тем, что лабораторный практикум по методике обучения биологии первоначально формировался под сильным влиянием биологических дисциплин и содержал в основном технику биологического эксперимента в школе. Изучение конкретных вопросов методики сводилось к последовательному рассмотрению методики изучения отдельных тем школьного курса биологии, а иногда и с нарушениями логики школьного курса, учитывая то, что систематический курс биологии студентами уже изучен. Через каждые две-три темы проводились занятия с упражнениями в демонстрации биологических опытов.

An informative-analytical approach to history is formed in the process of studying many subjects, especially history. Historical-analytical thinking is of great theoretical and practical importance for any society. Therefore, in this article, based on the formation of historical-analytical thinking, to protect society from the phenomenon of social amnesia (loss of memory, forgetting), to form informational-analytical competence in future history teachers, to enable students and young people to independently understand social phenomena, to actively and creatively participate in all areas of the development of our country, In general, the feedback was analyzed as training in informational and analytical skills.



БЎЛАЖАК ТАРИХ ФАНИ ЎҚИТУВЧИЛАРИДА КАСБИЙ ТАЙЁРГАРЛИКНИ ТАРИХИЙ ТЕРМИНЛАР АСОСИДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Қодирова Н. М.

Янги аср университетини ўқитувчиси

Таянч сўзлар: тарих, терминлар, топшириқлар, методик қўлланма, таҳлил, синтез, мустақил таълим.

Ключевые слова: история, термины, задания, методическое пособие, анализ, синтез, самостоятельное обучение.

Key words: history, Terms, assignments, methodological guide, analysis, synthesis, Independent Education.

Тарих фани таълим тизимини модернизациялаш ва уни шахс имкониятларига тўлиқ мослаштиришга кўмаклашувчи замонавий таълим тизимининг асосий вазифаларидан бири таълим олувчиларда ташаббускорлик, мустақиллик, креативлик сифатларини қарор топтириш ҳамда ривожлантиришдан иборат этиб белгиланган. Шу нуқтаи назардан ёндошадиган бўлсак, мутахассислар тайёрлаш тизимини модернизациялаш, педагогик фаолият самарадорлигини таъминлашнинг асосий шартларидан бири – уларда касбий фаолиятга нисбатан интерфаол ёндашувни ривожлантиришдан иборат.

Тарихий терминлар танлашда уларнинг аниқ, ҳамма учун тушунарли бўлиши учун қуйидаги илмий-педагогик тамойил (принцип)ларга амал қилиш лозим:

- ҳосил қилинган терминлар бир маъноли бўлиши, бу ҳолатга риоя қилмаслик оқибатида тилда омоним сўзлар пайдо бўлиб, чалкашлик содир этади. Масалан: “операция” – ҳарбий операция, ички ишлар органлари операцияси, жарроҳлик операцияси, банк операцияси.

- ҳар бир илмий тушунчага ягона битта термин мос келиши лозим. Акс ҳолда тилда синоним сўзлар пайдо бўлиб, бу ҳолат таълимда ўқувчилар зўриқишига олиб келади, сабаби битта тушунча учун бўлажак ўқитувчи хотирасида (тафаккурида, онгида) бир нечта белгилар кодланади.

Юқоридагилардан терминлар ҳосил қилишнинг муҳим бир педагогик тамойили ҳам келиб чиқади. Яъни, термин ўзбек тили хусусиятларини ҳисобга олиш билан бирга тушунчалар ҳақида тасаввур ҳосил қилиши, тушунчаларнинг моҳиятини англашга кўмаклашиши, имкони борича қисқа ва лўнда бўлиши керак.

Шу ўринда “Бўлажак тарих фани ўқитувчиларида касбий тайёргарлигини такомиллаштириш учун педагог методик жиҳатдан нималарни билиши керак?” деган савол туғилади. Шу сабабли, тадқиқотнинг диққат марказида бўлажак тарих фани ўқитувчисининг касбий тайёргарлигининг такомиллаштиришга тайёрлашда улар ўзлаштириши лозим бўлган тарихий билимларга алоҳида эътибор қаратилади.

Бўлажак тарих фани ўқитувчисининг касбий тайёргарлигини тарихий тушунчалар асосида такомиллаштирилади. Бунинг учун бўлажак ўқитувчи ўқув машғулотларининг ҳар хил шаклларига хос тамойил ва вазифаларни аниқ билиши керак.

Уларга бериладиган топшириқларнинг бажарилиши кредит модуль тизими асосида баҳоланди. Ҳар бир талабанинг жамоа, гуруҳ ва индивидуал ишларда фаол иштирок этиши ташкил қилинди.

Бўлажак тарих фани ўқитувчиларида касбий тайёргарлигини такомиллаштиришга тайёргарлик кўришда тақвимий-мавзули режа марказий ўринни эгаллайди. Чунки уларда касбий тайёргарликни шаклланиш босқичларини режалаштиришга чамбарчас боғлиқ. Бунинг учун тақвимий-мавзули режалаштиришнинг ҳар хил имкониятли вариантлари берилган турли манбаларни (методик қўлланмалар ва ишланмалар, вақтли ҳамда даврий нашрларни) ўрганиш, таҳлил қилиш ва улардан танқидий нуқтаи назардан фойдаланиш йўлга қўйилди.

Бўлажак тарих фани ўқитувчилари касбий тайёргарликни шакллантиришга йўналиштириш уларни касбий тайёрлашда улкан аҳамиятга эга. Бу йўналиш талабаларнинг умумий ўрта таълим мактабларида тарих ўқитиш жараёнини режалаштириш, тарихга оид ўқув дастурларнинг тузилиши, тарих фанидан мактаб дарсликларини методик хусусиятлари бўйича тарих фани ўқитувчилари билан танишиш, ўқув-методик адабиётлар, меъёрий ҳужжатлар устида ишлаш усулларини эгаллаш каби кўникма ва маънавий билан уйғун иш олиб борилади.

Топшириқларнинг бажарилишини кредит модуль тизими асосида баҳоланади. Ҳар бир талаба жамоа, гуруҳ ва индивидуал ишларда фаол иштирок этишни ташкил қилади. Масалан, умумий муаммолар, уларни ҳал қилиш йўллари ва талабалар томонидан вазифаларни бажариш на-



тижаларини муҳокама қилиш, кичик гуруҳларда ва индивидуал ҳолда бажарилган ишлар методикаларининг ҳимояси ташкил қилинди. Бу иш талабаларнинг машғулотларга пухта тайёргарлик кўришларига, барча кичик гуруҳларнинг ва ҳар бир талабанинг муваффақиятига қизиқиш билан қарашлари, ҳамкорлик, ҳамдардлик, мусобақалашув муҳитини яратишга, вазифаларни ҳал қилиш бўйича талабаларнинг ўқув хонасидаги ҳамда уйдаги мустақил ишлари бирлигига эришишга имкон берди.

Бўлажак тарих фани ўқитувчиларида касбий тайёргарликни шакллантиришга тайёргарлик кўришда тақвимий-мавзуий режа марказий ўринни эгаллайди. Чунки уларнинг мазмуни бўлажак тарих фани ўқитувчиларининг тарихий билимини шакллантириш босқичларига боғлиқ ҳолда белгиланади. Тарих фанидан тақвимий-мавзули режа тузиш тузувчидан катта назарий-методик билим ва ўқитиш бўйича тажрибани талаб қилади. Бунинг учун тақвимий-мавзули режалаштиришнинг ҳар хил имкониятли вариантлари берилган турли манбаларни (методик қўлланмалар ва ишланмалар, вақтли ҳамда даврий нашрларни) ўрганиш, таҳлил қилиш ва улардан танқидий нуқтаи назардан фойдаланиш лозим.

Берилган вазифаларнинг натижалари ёзма равишда расмийлаштирилиб, улар кичик гуруҳлар ва индивидуал тарздаги ишланмалар (тақвимий-мавзули режалар, жадваллар, дарс режа-конспектлари) мустақил тузилиб, бўлажак тарих фани ўқитувчиларига бериладиган саволлар, тайёрланган ҳар хил кўрсатмали қурооллар ва улардан қаерда, қачон фойдаланишга оид тавсифлар, тавсиялар ва ҳаказолар) берилади.

Гуруҳ бўлиб ва индивидуал тарзда бажарилган ишларнинг натижалари ҳимоя қилинди, ўзаро фикр алмашинди (иш натижаларини жамоа муҳокама қилади). Топшириқларни ўз вақтида ва сифатли бажарган бўлажак тарих фани ўқитувчиларига тегишли баллар билан баҳоланади.

Бўлажак тарих фани ўқитувчиларини касбий тайёргарлигини такомиллаштириш методикаси – кўп қиррали жараён. Бу бўлажак тарих фани ўқитувчисининг мавзу, дарслар тизими ва дарс бўйича ишлашга тайёргарлик кўринишида нималарга эътибор бериши ҳақида махсус топшириқ самарали бўлади.

Бунда бўлажак тарих фани ўқитувчиларига тарбиявий мақсадни тўғри қўйиш технологиясини, усулларини, билиш соҳасидаги мақсадларни ўрганиш, мавзулар, дарслар бўйича режалар тузиш методикаси, дарсни тарбиявий таҳлил қилишнинг ҳар хил йўллари билан қурооллантириш мақсад сифатида белгилаб олинди. Қуйида ушбу жараёнларнинг айрим жиҳатларни келтириб ўтсак:

Бўлажак тарих фани ўқитувчилари умумтаълим мактабларида тарих фани дарсларида тарбиявий мақсадларнинг қўйилиш технологиясини ўрганинг. Мавзуни ўрганиш мақсадларини асосланг. Мавзу режасини тузиш методикаси билан танишинг, кенгайтирилган мавзу режа моделини ишлаб чиқинг.

Бу бўлажак тарих фани ўқитувчиси фаолиятидаги ташкилий давр бўлиб, ўқув-тарбиявий жараёнини режалаштириш ҳисобланади. Бу жараёнда бўлажак тарих фани ўқитувчиси бевосита тарих фанининг мазмуни ва унинг мавзу бўлимлари билан ишлайди. Ўқув мақсадларини аниқлаштиради, ўқув жараёнини лойиҳалаштиради ва ташкил қилади.

Тарих дарсарида бўлажак тарих фани ўқитувчиларида касбий тайёргарликни такомиллаштиришга технологик жиҳатдан ёндашишда қуйидагилар муҳим аҳамият касб этади:

- тарбиявий мақсадларнинг тўғри қўйилиши ва уларнинг аниқлиги;
- таълим мақсадларини тарбия мақсадларига йўналтириш;
- ўқув мақсадларини ва ўқитишнинг боришини кафолатланган натижаларга қаратиш;
- жорий натижаларни баҳолаш, қўзланган мақсадларга эришишга қаратилган ўқитишни таҳлил қилиш;
- таълим ва тарбия натижаларини (касбий тайёргарликнинг такомиллаштирилганлик даражаларини) яқуний баҳолаш.

Бўлажак тарих фани ўқитувчиларининг касбий тайёргарлиги – ўрганилган маълумотлар моҳиятини тушуниш ва талқин қилиш қобилиятининг намоиши бўлиб, маълумотларни бир шаклдан иккинчисига ўтказиш, уни бир “тил”дан иккинчисига “ўгириш”га хизмат қилиши мумкин. Касбий тайёргарликнинг кўрсаткичи сифатида ўқувчи томонидан ўқув маълумотларини талқин қилиш, тушунтириш, қисқача баён қилиш ёки нарса ва воқеа-ҳодисаларнинг бундан буёнги бориши ҳақида башоратлаш орқали ҳам хизмат қилиши мумкин.

Бундай усуллар тарих дарсларида ўқув маълумотларини шундайгина эслаб қолишдан анча устун эканлиги педагогик тажриба-синов ишларида тасдиқланди.

Тарихий билимларни қўллаш ўрганилган маълумотлардан аниқ шариоитларда ва янги вазиятларда фойдаланишни билдиради. Қоида, метод, тушунча, қонун, принцип ва назарияларни қўллаш ҳам шунга киради. Ўқитишга мос келган натижалар тушунишга нисбатан ўқув маълумотларини янада юқорироқ савияда эгаллашни талаб қилади.



Таҳлил – касбий тайёргарликнинг муҳим қисмидир. У ўқув маълумотларининг таркиби яққол намоён бўладиган қилиб тақсимлашни билдиради. Тарихий воқеани бир неча қисм, босқичларга ажратиш, улар ўртасидаги ўзаро боғланишларни аниқлаш шунга киради. Бунда касбий тайёргарлик ўқув натижаларини тушуниш ва қўллашга қараганда янада юқорироқ интеллектуал даража билан характерланади, чунки бу ўқув маълумотларининг мазмунини, шунингдек, унинг ички тузилишини ҳам англашни талаб қилади.

Синтез – касбий тайёргарлик жараёнида яхлит тарихий воқеанинг босқичлари, сабабларини бирлаштириш малакасини билдиради. Бунда янги хулоса, хабар (сўзга чиқиш, маъруза), ҳаракатлар режаси ва умумлашган алоқалар мажмуаси (мавжуд маълумотларни тартиблаштириш учун “таянч маълумотлар”га ўхшаш схемалар) бўлиши ҳам мумкин.

Бўлажак тарих фани ўқитувчилари илгари ишлаб чиқилган ҳар хил типдаги тақвим-мавзу режадан аниқ мавзу бўйича дарслар тузилишининг режа-конспектларини тузадилар.

Бўлажак тарих фани ўқитувчиси фаолияти тизимида ўз дарсини ва дарсни таҳлил қилишнинг аҳамиятини аниқлаштириш.

“Ўзбекистон тарихидан ҳикоялар”, “Ўзбекистон тарихи” бўйича дарсларга киришда гуруҳлар шароитига мос вазият танлаб “ролли ўйинлар”-ни ўтказиш (ўқитишнинг машқ қилиб кўриш). Ўтилган ва кузатилган дарсларни таҳлил қилиш ва қуйидагилар бўйича умумий хулосалар чиқариш: 1) дарсни ташкил қилиш; 2) дасрнинг тарбиявий мақсадларига эришганлик; 3) дарсда талабаларнинг тарихий фикрлаш фаолиятларига умумий баҳо бериш.

Мавжуд илмий-тадқиқот ишлари, адабиётлар таҳлили, шунингдек, фан асосларини ўқитишнинг тажрибалари шуни кўрсатадики, мустақил ишлар асосан янги маълумотларни ўзлаштиришда, уни мустаҳкамлашда, амалда қўллашда, такрорлашда ўтказилади [1].

Бўлажак тарих фани ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигини такомиллаштиришда мустақил фикрлаш ларини ривожлантириш муаммоларини муваффақиятли ҳал қилиш кўп жиҳатдан бўлажак тарих фани ўқитувчисининг бу соҳа бўйича назарий материаллардан ва узоқ йиллар давомида тўпланган амалий тажрибалардан янада тўлароқ фойдаланишга боғлиқ.

Узоқ йиллардан буён мустақил таълимнинг кенг тарқалган турларида бири ўқув қўлланмалар, дарсликлар билан ишлаш бўлиб келмоқда. Мавжуд маълумотлар таҳлили мустақил таълимнинг бу турини бўлажак

тарих фани ўқитувчиларининг ёшига ва тарих ўқув фанининг хусусиятига қараб ўтказишнинг аниқ бир тизимини яратди. Масалан, тарихни бўлажак тарих фани ўқитувчилари педагог кўрсатган ўқув маълумотлари асосида севиб ўқийдилар ва дарсликда берилган матн асосида фикрлаб, унинг мазмунини ўз сўзлари билан айтиб берадилар.

Шунинг учун ҳам тарих фани дарслиги билан ишлашнинг дастлабки ва энг содда босқичи аудиторияда мавзунини ойдинлаштириш учун дарсликнинг у ёки бу қисмини ўқиш ҳамда унинг мазмунини айтиб бериш бўлган. Лекин бу топшириқ бўлажак тарих фани ўқитувчиларининг педагогдан эшитган нарсаларини кўр-кўрона такрорлаб беришдан иборат бўлмайди. Дарслик бўйича ўқув маълумотларини мустақамлаш жараёнида шундай методик усуллардан фойдаланиш лозимки, улар ёрдамида бўлажак тарих фани ўқитувчиларида бу тарихий билимлар асосида миллий тарихимизга онгли муносабат шакллансин, уларда бундан буён олган билимларга мустақил таяниб иш кўриш малакалари ҳосил бўлсин. Бундай топшириқлар кўп ҳолларда, тарих фани дарсларида бериб борилади. Бунда педагог янги маълумотларни тўла баён қилию бўлгандан кейин дарсликнинг ҳар бир хатбошисини бўлажак тарих фани ўқитувчилари педагогга шарҳлаб берадилар. Бунда бўлажак тарих фани ўқитувчиси дарсликдаги матнни диққат билан ўқиб, ўқиганлирини бир-бирига мантиқан боғлаб, айтиб бера олиш малакаларини эгаллаб олганлардан кейин дарсликни бир бошидан ўқишдан ундаги тушуниш қийин жойларни ўқишга ўтишлари мумкин. Бўлажак тарих фани ўқитувчиларининг тарих бўйича мустақил ишлари мазмуни, вазибалари ҳам шу тариқа мураккаблаштириш борилади. Бунда “Ўқиш-ўрганиш қийин бўлса бўлсин, лекин бўлажак тарих фани ўқитувчисининг айна вақтдаги билимига мос бўлсин” деган тамойилга амал қилган ҳолда олиб борилади. Бундан кўринадики, тарих дарслигининг у ёки бу хатбошини бўлажак тарих фани ўқитувчиларига ўқитишдан ҳам касбий тайёргарликни индивидуаллаштириб ва табақалаштириб такомиллаштириш мумкин.

Тарих дарсликлари маълумотлари бўйича бўлажак тарих фани ўқитувчиларининг мустақил ишларининг иккинчи босқичи ўқув маълумотларининг педагог томонидан эмас, балки энг муҳим томонлари тушунтирилганидан кейин, бўлажак тарих фани ўқитувчилари томонидан уни ўқитиш ва таҳлил қилиш, фикр юритишдан иборат бўлади.

Тарих дарсликлари маълумотлари бўйича бўлажак тарих фани ўқитувчилари мустақил ишларининг иккинчи босқичи ўқув маълумотларининг педагог томонидан барчасини эмас, балки энг муҳим томонлари тушунти-



рилганидан кейин бўлажак тарих фани ўқитувчилари томонидан уни ўқиш ва таҳлил қилиш, фикр юритишдан иборат бўлади. Бундай ўқиш бўлажак тарих фани ўқитувчиларидан янада фаолликни, ўрганилган ва маълум бўлганларга нисбатан дарслик нима берганлигини мустақил ажратиб кўрсатишни талаб қилади. Бунда касбий тайёргарликни ривожлантириш малакаларини ҳосил қилиш бўлажак тарих фани ўқитувчиларида ўқилган маълумотларга танқидий муносабатда бўлиш кўникмасини ҳосил қилади, энг муҳими бўлажак тарих фани ўқитувчиларида ўз билим ва тажрибаси ўқиб чиқилган, танқидий ҳамда тарихий даврларни қиёслаш нуқтаи назаридан қараб касбий тайёргарлигини ривожлантиради [4].

Педагогика олий таълим муассасаларининг бўлажак тарих фани ўқитувчиларида касбий тайёргарликни ривожлантиришда унинг мустақил таълимда фойдаланиши кўп қиррали тадқиқотларимиз, шунингдек узоқ йиллар давомида олиб борган тажриба-синов ишларимиз қуйидагича хулосаларни берди:

- мустақил таълимда бўлажак тарих фани ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигини ривожлантириш имкониятларига мос келиши, яъни бўлажак тарих фани ўқитувчилари уларни ортиқча қийинчиликларсиз бажара олишларини таъминлаши керак;
- тарих фанидан мустақил таълимни мунтазам равишда олиб боришга одатлантириш мақсадга мувофиқ;
- бўлажак тарих фани ўқитувчиларини тарих ва мутахассислик фанлари бўйича мустақил таълимни бажаришга тайёрлаш: мустақил ишнинг мақсад ва вазифалари ҳақида бўлажак тарих фани ўқитувчиларига қисқа, пухта йўқ-йўриқ кўрсатиш;
- бўлажак тарих фани ўқитувчиларининг тарих фанларидан мустақил таълимни бажариш учун зарур ўқув жиҳозлари (ўқув хариталари ва ҳоказолар) билан таъминланганлиги;
- бўлажак тарих фани ўқитувчиларининг тарих фанларидан мустақил таълимни бажаришлари жараёнини педагог томонидан бевосита қузатиб бориш ва зарурий ҳолатларда, яъни бўлажак тарих фани ўқитувчилари мустақил таълимни бажаришда қийинчиликларга дуч келган пайтдагина ёрдам кўрсатиш лозим.

Бўлажак тарих фани ўқитувчиларида тарих фани бўйича мустақил таълим малакаларининг шаклланганлик даражасини характерлаш учун “Билишдаги мустақиллик, таълимдаги фаоллик, касбий тайёргарликнинг у ёки бу даражасининг ривожланганлиги”га ўхшаш тушунчалардан фойдаланилади. Бу каби кўрсаткичлар нафақат бўлажак тарих фани ўқитувчи-

сининг фаолиятини, балки унинг шу фаолият жараёнида шаклланадиган тарихий хотирасини, унинг Ватан, миллат тарихига муносабатини ҳам характерлайди. Бўлажак тарих фани ўқитувчисининг касбий тайёргарлигини такомиллаштириш билан унинг шахсини шакллантириш ўртасидаги бундай алоқа бўлажак тарих фани ўқитувчиларининг мустақил фаолиятини ривожлантириш унинг комил инсон бўлиб шаклланиш йўлларида бири эканлигини яна бир бор намоёниш қилади.

Бўлажак тарих фани ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигининг юқори даражаси уни мунтазам равишда мустақил фаолиятга жалб қилиш орқали шакллантирилади. Бу эса бўлажак тарих фани ўқитувчилари томонидан махсус турдаги ўқув топшириқлари – мустақил таълимни бажариш орқали амалга ошади.

Бизнинг фикримиз бўйича, бўлажак тарих фани ўқитувчиларининг мустақил ишларига уларнинг билиш фаолликлари ва тарихий мавзуда фикрлашларини ривожлантирувчи муҳим восита сифатида қарш ҳар томонлама маъқул бўлади.

Бўлажак тарих фани ўқитувчилар мустақил ишларининг ҳар хил турлари уларда билишдаги фаоллик ва касбий тайёргарликнинг такомиллаштириши учун жуда яхши восита бўлиб хизмат қилади. Мустақил ишларнинг ҳар бир тури ўзича бўлажак тарих фани ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигини такомиллаштирилишларини намоён этишларига қўмаклашиб келмоқда. Натижада:

- бўлажак тарих фани ўқитувчиларида тарихга онгли муносабатда бўлиш, унга танқидий ёндашиш малакаси шаклланади;
- айрим тарихий маълумот, фактларга нисбатан туғилган шахсий фикр-мулоҳазаларни билдиришга, айрим маълумотлар юзасидан ўз фикрини ўртага ташлашга интилиш, асослаш ва далил келтириш малакалари шаклланади;
- қўшимча тарихий адабиётларни ўрганиш йўли билан ҳар хил таққослама хулосалар, жадваллар, чизмалар, кўрсатмали қуроллар тайёрлаш малакалари малакаларига эга бўладилар;
- ҳосил қилинган тўғри фикрлаш малакалардан бундан кейин нафақат тарих фанини, балки бошқа фанларни ўрганишда ҳам, шунингдек, ижтимоий-сиёсий ҳаётда бемалол қийналмасдан, мустақил равишда фойдаланиш малакалари таркиб топади.

Касбий тайёргарликни такомиллаштиришга доир мустақил ишларнинг мақсади бўлажак тарих фани ўқитувчилар онгига ўрганилаётган янги тарихий тушунчаларнинг мазмунини сингдириш, унинг зарурий белгила-



рини очиб бериш, унинг бўлажак тарих фани ўқитувчиларига олдиндан маълум бўлган тушунчалар билан алоқасини кўрсатишдан иборат. Бундай ишлар дарснинг билимларни мустаҳкамлаш bosқичида, яъни янги маълумотларни ўргангандан кейинроқ ўтказилади.

Бўлажак тарих фани ўқитувчиларида касбий тайёргарликни кўникма ва малакаларини такомиллаштиришга доир ишларнинг мақсади, мустақил ишларни бажариш жараёнида улар эгаллаган малакалар (дарсликлар устида ишлаш, дарсликда учраган ўзлаштирилиши қийин бўлган тарихий терминларнинг луғавий маъносини очиш, дарсликда келтирилган ҳужжатлар билан ишлаш, дарсликдаги ҳар хил тасвир (иллюстрация) лар билан ишлаш, дарсликда келтирилган савол ва топшириқлар устида ишлаш ва бошқалар) такомиллашиб боради.

Бундай топшириқларни тузишда дидактиканинг “Осондан қийинга ҳамда соддадан мураккаб”га деган принципдан келиб чиқиш лозим. Ишда савол ва топшириқларнинг мазмуни бўлажак тарих фани ўқитувчисининг мустақил фикрлаш йўналишини аниқлаб бериши, ўқув маълумотларининг қийин жойларини эътиборга олиши, мулоҳаза юритиш мантиқини ишлаб чиқишга қаратиши керак. Ҳар бир олдинги топшириқ кейингисини бажаришга ёрдам бериши, кейингиси эса янги топшириқларни идрок қилишга тайёрлаш ва олдингисини мустаҳкамлаши керак. Бирин-кетин келадиган машқлар принципнол жиҳатдан бир-биридан жуда кам фарқ қилиши керак.

Педагог томонидан топшириқлар тузишга киришаётиб, ўз олдига “Бўлажак тарих фани ўқитувчиси бунга бажарса, унинг касбий тайёргарлиги нима билан бойиди?”, “Қайси саволларга жавоб бера оладиган бўлади?”, “Унда фикрлашнинг қайси таркибий қисмлари ривожланади?” деган саволларни қўйиш керак. Бундай типдаги ишлар мулоҳаза юритишнинг турлича шакллари ишлаб чиқишга йўналтирилганлиги репродуктив ва реконструктив характердаги топшириқлардан тузилган бўлиши керак.

Касбий тайёргарликни такомиллаштиришга оид билим, кўникма ва малакаларни шакллантиришга доир ишлар бир-биридан мураккаблик даражалари бўйича фарқ қилса-да, улар бўлажак тарих фани ўқитувчиларида юқори даражадаги ақлий (фикрий) фаолиятини юзага чиқаради. Бундай топшириқларни бажаришда кўпчилик бўлажак тарих фани ўқитувчиларига педагогнинг ёрдами зарур бўлади. Педагог бўлажак тарих фани ўқитувчиси йўл қўйган хатоларни аниқлаб, бўш ўзлаштирувчи бўлажак тарих фани ўқитувчилари билан ишлайди, уларнинг саволларига ишдаги қийин ҳолатларга эътиборни қаратган ҳолда жавоб беради.

Назорат ишга охирги топшириқ сифатида бажарилишида мулоҳаза юритиш талаб қилинадиган, қийинроқ топшириқларнинг киритилиши жуда фойдали ҳисобланади. Бунда бўлажак тарих фани ўқитувчиларини тарихий фактларини талқин қилишга ижодий ёндашишга ўргатади. Бўлажак тарих фани ўқитувчилари билимларни муаммоли вазиятларда қўллаш қўникма ва малакасини тарбиялайди, тарих фанига қизиқиш уйғотади. Бўлажак тарих фани ўқитувчиларига ўз қобилиятини намоён этишга, педагог бўлажак тарих фани ўқитувчисининг касбий тайёргарлигини такомиллаштиришга етарли маълумот олишга имкон яратиб беради.

Адабиётлар:

1. Беспалько В.П., Татур Ю.Г. Системно – методическое обеспечение учебно-воспитательного процесса подготовки специалистов. – М.: Высшая школа, 1989. – 144 с.
2. Кадыров Ш.М. Педагогические основы индивидуально групповых методов как интеграционной формы обучения в высшей школе. – Ташкент 1991 г. – 16 с.
3. Краевский В.В. Проблемы научного обучения (методологический анализ). – М.: Педагогика, 1977 г. – 246 с.
4. Махмутов М.И. Современный урок. Вопросы теории. – М.: Педагогика, 1981 г. – 192 с.
5. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш. Монография. –Т.: Фан, 2004. - 128 б.
6. Скаткин М.Н. Проблемы современной дидактики. – М.: Педагогика, 1984 г. – 96 с.
7. Шоназаров Қ. Тарих дарсларида муаммоли таълим ва муаммоли вазият. Халқ таълими. – 1998 й. 5-сон. 41-44 б.).

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақола олий таълим тизими тарих йўналиши талабаларининг касбий тайёргарлигини такомиллаштириш, мустақил фикрлаш, бўлажак тарих фани ўқитувчиларида тарихий терминлар билан ишлаш жараёнларини ўқитишни ташкил этиш ва уларнинг касбий тайёргарлигини такомиллаштириш самарадорлик даражасини оширади.

РЕЗЮМЕ

Данная статья система высшего образования повышает уровень эффективности совершенствования профессиональной подготовки студентов исторического направления, самостоятельного мышления, организации обучения будущих преподавателей истории процессам работы с исторической терминологией и совершенствования их профессиональной подготовки.

SUMMARY

This article will improve the professional training of students of the history direction of the higher education system, increase the level of efficiency of independent thinking, the organization of training in future teachers of history in the processes of working with historical terms and improving their professional training.



ОИЛАДА БОЛАЛАРНИ МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР ВА АНЪАНАЛАР АСОСИДА ЎЗАРО МУНОСАБАТЛАРИНИ ШАКИЛЛАНТИРИШНИНГ ШАРТ- ШАРОИТЛАРИ

Ортиқова З. Н.

Фаргона давлат университети ўқитувчиси

Таянч сўзлар: анъана, оилавий тарбия, нуклеар оила, ижтимоий тарбия, кадриятлар, тенденция, мезальянс, тарбия воситалари, тарбия.

Ключевые слова: традиция, семейное воспитание, ядерная семья, социальное воспитание, ценности, тенденция, мезальянс, средства воспитания, воспитание.

Key words: tradition, family education, nuclear family, social education, a, cadre, trend, Mezal'yans, means of upbringing, upbringing

Маълумки, оилавий тарбия ижтимоий тарбияга нисбатан болаларнинг рухий оламига, ҳиссиёти ва туйғуларига чуқур таъсир кўрсатади. Оиладаги маънавий муҳит бола тарбиясида ғоят муҳим аҳамиятга эга. Оила аъзоларининг турмуш тарзи кўп ҳолларда фарзандларнинг кайфияти, тасаввури ва ҳиссиётларини белгилаб беради. Демак, оила соғлом, баркамол инсонни тарбиялаб вояга етказишда жамият олдида масъулдир. Зеро, бола ҳаётининг асосий қисми оилада ўтади. У болалигидан то вояга етгунга қадар, ундан кейин ҳам оила турмушининг ҳамма соҳаларда қатнашади. Оила болаларнинг ахлоқий сифатларига, хулқий қарашларига катта тарбиявий таъсир кўрсатади, оиланинг болага бўлган тарбиявий таъсир доирасига бу ердаги турмуш шароити, унда ўрнатилган урф-одат ва анъаналар ҳам киради.

“Анъана” сўзи арабчадан олинган бўлиб, узоқ замонлардан бери авлоддан-авлодга, оталардан болаларга ўтиб, давом этиб келаётган урф-одатлар, ахлоқ мезонлари, қарашлар ва шу кабилардир [5,424]. Лекин, барча анъаналар ҳам “узоқ замонлар” орасида яшай олмайди. Кейинги йилларда “анъана” ёки “анъанавий” тушунчалари кўп маъноли ва нисбий тушунча сифатида эътироф қилинмоқда. Э.С. Марқарян “анъанавий” тушунчасини илдизи шу халқнинг ўтмишига бориб тақалган, қандайдир эски, тарихий, кўникиб қолинган, барқарор турувчи, консерватив, шу билан бирга, ўзгарувчан ҳодисаларга, замонавий, яқинда пайдо бўлган ёки четдан киритилган нарсаларга нисбатан қарама-қарши турғунрок; –ўзини қайта ўзгартира оладиган, ворисийлик изчиллигида авлоддан-авлодга ўтадиган...

нарса”-деб билади [4,179]. Бундан ташқари, “анъанавий ва ноанъанавий тушунчаларни ҳар доим ҳам чегаралаб бўлмайди, чунки у мазкур халқнинг тарихи ва замонавий тизимидан ташқарида ўз моҳиятини йўқотади” [6,205]. Ушбу фикрларни инкор этмаган ҳолда қўшимча қилиш мумкинки, анъана, шу жумладан, ўзбек халқи оилавий анъаналари тарихий тараққиёт жараёнида шаклланди. Бунда халқнинг турмуш тарзи, диний, иқтисодий-ижтимоий, маънавий-ахлоқий эҳиёжлари муҳим асос бўлди.

Оилавий тарбия анъаналарининг ўзига хослиги шундаки, у болаларга ота-оналарнинг ота-оналик, қон-қариндошлик хислатларини узатиб, ёшларнинг умумий ва ҳиссий ивожланишигина таъминлаб қолмасдан, балки, шахснинг мавжуд имкониятларини ва ахлоқий камолотини ҳам ўстиради. Айнан оилада бола ўз ота-оналарининг фарзандларига бўлган меҳр-мухаббатини, оила олдидаги бурч масъулиятини, бола тарбиясидаги тажрибаларини ўзлаштиради. Бундай шарт-шароит келгусида болаларнинг қандай ота ёки она бўлишига замин ҳозирлайди ва эр ёки хотин сифатида оила олдидаги масъулият ҳиссини шакллантириб боради. Шу сабабли оилавий тарбия таъсирчанлиги, доимийлиги, барқарорлиги, серкирралиги билан ажралиб туради. Унда ҳулқ одобига доир тадбирларни ёшларга тўғри ўргатиш, маслаҳат бериш, катталарнинг тажрибаси, оиланинг яшаш тарзи, муҳити, ота-онанинг касб-ҳунари, оила аъзоларининг маънавий-руҳий муносабатлари катта аҳамиятга эгадир.

Тарбия инсонни шакллантириш жараёнини бошқаришга қаратилган мақсадли фаолиятдир. Тарбиянинг мазмуни, йўналиши, мақсади ва вазифаси кишиларнинг ижтимоий муносабатларига боғлиқ. Киши айнан мазкур муносабатларга асосан ҳаётга бирон-бир тарзда қарайдиган бўлади, тафаккури орқали оламини англайди ва ўзининг унга нисбатан муносабатини шакллантиради, муайян ахлоқ мезонлари руҳида тарбия топади.

“Қадрият” жуда кенг тушунча бўлиб, унда миллатнинг ўзига хос томонлари, феъл-атвори, донишмандлиги, миллий ғурури ўз аксини топади. Бошқача қилиб айтганда, миллатнинг маданияти, имони, миллий урф-одати, меҳру оқибати, турмуш тарзи, қўшиқ ва рақслари, миллий либоси, миллий тарбиянинг барча кирралари халқнинг ўзига хос қадриятларида намоён бўлади [1,6].

Қадриятлар ўз моҳиятига ва амал қилиш доирасига қараб бир неча гуруҳга бўлинади:

1) табиат билан боғлиқ қадриятлар, яъни инсониятнинг яшаши учун зарур бўлган табиий бойликлар, ўсимликлар, ҳайвонот оламини асраш, кўпайтириш, тежамли фойдаланишини тарғиб этувчи ғоялар, қарашлар;



2) иқтисодиёт соҳасидаги меҳнат ва меҳнат куроллари малакаси билан боғлиқ кадриятлар, шунингдек, шарқона муносабатлар;

3) ижтимоий-сиёсий кадриятларга давлат тузилмаси, унинг ҳуқуқий асослари – адолат, тенглик, тинчлик, ҳақиқат сингари омиллар, давлат рамзларига бўлган ҳурмат;

4) маънавий кадриятлар – миллатимиз томонидан яратилган ва бизгача келган илмий-фалсафий, ахлоқий қарашлар, диний, тарихий, бадиий, санъат билан боғлиқ ёдгорликлар киради.

Миллий маънавий-ахлоқий кадриятларнинг моҳиятини англаш учун дастлаб “миллий кадриятлар” тушунчаси билан танишиш мақсадга мувофиқдир. Миллий кадриятлар – миллат учун муҳим ва жиддий аҳамиятга эга жиҳатлар, хусусиятлар, моддий ва маънавий бойлиқдир. Дарҳақиқат, миллий кадриятлар у ёки бу миллатнинг ўтмиши, бугуни, эртаси, ижтимоий тараққиёти, миллатга мансуб кишиларнинг турмуш тарзи, улар ўртасида ташкил этилаётган ўзаро муносабатлар учун дахлдор бўлган, кадр-қимматга эга, кадрли моддий ва маънавий омиллар саналади. Миллат айнан ўзига хос бўлган миллий кадриятлар туфайлигина ўзга миллат ва элатлардан фарқланади. Миллий кадриятларнинг таназзули – миллатнинг миллат сифатида йўқолиб боришини, мавжуд бўлмаслигини таъминлайди. Миллий тарих, турмуш тарзи, ижтимоий муносабатлар, қатламлар, миллий онг, миллий тил, миллий валюта, миллий ҳудуд яхлитлигини ифодаловчи давлат рамзлари, миллат вакиллари, миллатнинг равнақи, эртанги куни миллий кадриятлар асосини ташкил қилади. Шундан келиб чиққан ҳолда “миллий маънавий-ахлоқий кадриятлар” тушунчасини изоҳлаш мумкин. Миллий маънавий-ахлоқий кадриятлар миллий турмуш тарзи ҳамда ижтимоий муносабатларни тартибга соладиган, унинг эртанги истиқболини таъминлашга хизмат қиладиган маънавий-ахлоқий ғоялар, қарашлар, муносабатлар ва ёндашувлар тизимидир [1,4].

Демак, миллий кадрият муайян миллатнинг авлоддан-авлодга ўтиб, узоқ вақт сақланиб келган ахлоқий нормалари, ғоя ва диний эътиқоди, урф-одат ва маросимларини ўз ичига олади [2,229].

Жамиятдаги ижтимоий-иқтисодий муносабатлар оила тараққиётига таъсир этади. Оиладаги таълим-тарбия хусусиятлари эса жамиятда ўз аксини топади. Шунинг учун ҳам оила ва жамият ўзаро боғлиқ ҳолда ривожланиб боради.

“Оилавий тарбия –бу шунчаки оддий кўрсатма ва билимлар жамланмаси эмас, балки ўз ичига этика, психология, педагогика соҳаларидаги билимларни ҳам қамраб оладиган мураккаб жабҳадир.” Оилавий тарбиянинг хусусиятлари ҳар бир халқнинг миллий, этнопсихологик, ҳудудий, демографик жиҳатларидан келиб чиқади.

Оилавий тарбияга етарли баҳо бермаётган ёки уни камситаётган ҳар қандай қарашлар ўсиб келаётган авлодни тарбиялашга жиддий зарар етказди. Оилавий тарбиянинг роли ва имкониятлари қанчалик ўсиб боришидан қатъий назар, оилавий тарбия зарур ва уни бошқаси билан алмаштириб бўлмайди. Бола шахсининг ривожланиши учун оиланинг барча аъзолари ва оилавий ролларнинг барчаси: ота-она, ака-укалар, опа-сингиллар муҳим ўрин эгаллайди.

Психологларнинг фикрига қўшилган ҳолда айтиш мумкинки, оиланинг ҳаёт тарзи шаклланишига қуйидаги омиллар таъсир қилади:

- оила ташкил топадиган, амал қиладиган ва ўсадиган ижтимоий шарт-шароитлар, яъни, иқтисодий, мафқуравий, сиёсий, ижтимоий-демографик каби жамиятни бошқарувчи детерминантлар;
- хусусий омиллар (социал табақавий, миллий, регионал, диний ва ҳок.);
- оиланинг ижтимоий-психологик қарашлари, қадриятлари тизимида, ҳаёт концепциясида акс этадиган объектив омиллар уйғунлиги;
- оила аъзоларининг ҳаёт тарзлари;
- ҳудудий жиҳатлар – оила структураси ва унинг таркиби, сони, репродуктив ҳулқ-атвор ва репродуктив қарашларнинг нормаси, оила аъзолари ўртасидаги ўзаро алоқалар, аёлларнинг ўрни, кўни-қўшнилар томонидан “цензура” (назорат) даражаси, қариндош-уруғчилик муносабатлари, ажрашишга муносабат, миллий анъаналар, маиший, оила ва никоҳ муносабатларининг ўзига хос хусусиятлари кабилар кирази .

Замонавий оилага хос тенденция – бу аъзолар сонини қисқариши, ёш никоҳларнинг кўпайиши, нуклеар оиланинг кенгайиб бориши, нотўлиқ оилалар соҳнининг ортиши ва туғилишнинг камайишидир. Айрим тадқиқотчиларнинг фикрича, “Кичик оила эр-хотин ўртасидаги муносабатларнинг маънавий томонлари, уларнинг ўзаро ҳиссиётлари, рухий эҳтиёжлари, ота-оналар ва фарзандлар орасидаги янги муносабатларнинг тўлиқ намоён бўлишига энг кўп имконият яратади” [3,65]. Дарҳақиқат, нуклеар (лотинча-ядро) оилаларда бир томондан қайнона ва келинлар алоҳида яшаётганлиги учун низоларнинг олди олинади. Иккинчидан, эр-хотин мустақил ҳаёт кечириб, оила маблағини режалашни, болаларни мустақил парвариш қилиш, ўстириш, тарбиялашни ўрганадилар. Учинчидан, оилавий масалалар – дам олиш, бўш вақтдан самарали фойдаланиш ва бошқа масалаларни ҳал қилишда эркинликка эга бўладилар. Лекин, бундай оилаларда салбий ҳолатлар ҳам мавжудлигини кўриш мумкин.



Жумладан - бола тарбиясига эътибор бермаслик. Уларнинг назоратсиз қолиб кетиши; -эркинликнинг суистеъмол қилиниши ва ҳ.к. Сўнги йилларда олиб борилган тадқиқотларга кўра, Ўзбекистонда оиланинг асосий типлари – нуклеар (62,5 %) оила эканлиги тасдиқланди. Оила таркибида уч авлодли тип, яъни буви ва бувалар яшайдиган оила иккинчи ўринни эгаллади (14,0 %). Учинчи ўринда (8,1%) буви билан бирга яшайдиган тўлақонли оила. Бобо, бувилар билан бирга яшаш бола тарбиялашда ота-оналарнинг имкониятларини кенгайтиради, чунки уларни тарбиялаш бўйича вазифанинг бир қисмини бобо ва бувилар ўз зиммасига олади.

Замонавий оилаларга хос учинчи хусусият – мезальянс оилаларнинг ошиб боришидир. Мезальянс – французча сўз бўлиб, эр-хотиннинг ижтимоий-маданий, маънавий ва иқтисодий мавқелари орасида катта тафовут бўлган оилалардир. Масалан, мезальянс оилалар деганда, шаҳарлик ва қишлоқлик, ишчи-деҳқон ва зиёли ҳамда турли миллатга мансуб кишиларнинг бирга никоҳ қуришлари тушунилади. “Ирсият қонунларидан ташқари,”-деб ёзган эди Корчак, “тарбиявий муҳитни ҳам параллел равишда ўрганиш керак, шунда балки бир қатор жумбоқлар ҳал бўлиши мумкиндир. Мен тарбияловчи муҳит деб, оилада ҳукм сурган кайфиятни айтаман”.

Ўзбек халқ тарбияси анъаналарида болаларни оилада тарбиялаб боришга қаратилган бир қатор метод ва воситалар яратилган. Тарбия усуллари (метод): Тушунтириш, намуна кўрсатиш, одатлантириш (ўргатиш, машқ қилдириш), илтимос, тилак, маслаҳат, рағбатлантириш, жисмоний жазо ва хоказо.

Тарбия воситалари: болалар ўйинлари, чойхўрлик, болалар гапи, йиғинлари, болаларнинг катталар билан тўйлар, сайллар, маросимларда катнашиши, сафарларга чиқиши.

Анъанавий ўзбек оиласида бола ёшлиқдан бир-бирига ғамхўрлик қилишга ўргатилади, бу оилада иккинчи ва учинчи фарзанд туғилишидан бошланади. Бола онаси буюрган ишларни бажаради. Катта бола шундан бошлаб вақтини укаси билан ўтказишга ўрганади, укаси билан ўйнайди, овқатланади. Болалар кўпая борган сари тўнғич фарзанднинг уларга ғамхўрлигининг доираси кенгайди, кичикларга ғамхўр бўлиб, онасига ёрдам беради. “Ота-она катта фарзандидан кичик укаларига меҳр-шафқат, ғамхўрлик талаб этса, кичиклардан акаси ва опасининг сўзига қулоқ солиш, уни ҳурмат қилиш, уларга “ака”, “опа” деб, мурожаат қилишни талаб қилади.” Аксарият ўзбек оилаларида ёши кичиклар ўз ака ёки опаларини сизлаб мурожаат қилишлари ота-она томонидан талаб қилинади.

Ўзбек халқининг ажойиб анъаналаридан бири меҳмондўстликдир. Оила болаларни бу ишга жуда ёшлигидан бошлаб ўргата бошлайди. Халқ томонидан меҳмонга бориш ва меҳмон кутишни маълум қонун

қоидалари ишлаб чиқилганки, бу ҳар икки томоннинг ҳам манфаатини кўзда тутди.

Бола инсонга зарур бўлган муносабатларни оилада, ижтимоий ҳаётда юз берадиган воқеалар билан танишиш, ижтимоий алоқа жараёнида ўрганади. Оилавий муносабатлар асосан ишлаб чиқариш муносабатлари билан боғлиқ тарзда олиб борилади. Лекин, бу боғланиш, алоқа тўғридан-тўғри, бевосита бўлмай, балки билвосита йўл билан амалга оширилади.

“Маълумки, кишиларнинг, шу жумладан, болаларнинг ота-она ва бошқа ёши катталарга нисбатан меҳрибонлиги, ҳурмати ва ғамхўрлиги туғма ҳодисалар бўлмай, тарбия натижасидагина шакллантирилган маънавий фазилатдир.” Ўзбек халқининг анъанасига кўра, болалар жуда ёшлигидан бошлаб, ота-она ва оиланинг бошқа аъзоларига нисбатангина эмас, балки узоқроқ қариндош ва қўшниларга нисбатан ҳам меҳр-муҳаббат руҳида тарбияланади. Булар заминидан ёру биродарларга, қўни-қўшни, маҳалла-қўй кишиларига, умуман инсонга нисбатан муносабат шакллана боради. Барча яқинлар билан алоқада бўлиш, уларнинг ҳолидан хабар олиш, зарур бўлган тақдирда қўллаб-қувватлаш, ҳамжиҳатлик, ҳар қандай катта ишларда ҳамманинг доимо бирга бўлиши ўзбекларга хос қадриятлардир.

Адабиётлар:

1. Аникеева Н.П. Жамоада руҳий муҳит. – Т.: Ўқитувчи, 1993.
2. Эгамбердиева Н. Ижтимоий педагогика / Олий таълим муассасалари учун дарслик. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009.
3. Каримова М. В. Меҳр ва мурувват оиладан бошланади. – Тошкент, 2004.
4. Махмутова Г.И. Олий педагогик таълим тизимида талабаларни маънавий шакллантиришнинг ижтимоий педагогик хусусиятлари: Пед.фанл.номз. ... дисс. – Т., 2004.
5. Meckel R.A. Childhood and the Historians. A Review Essay. – Journal of Family History. Winter 2004. – Vol. 9. –№ 4.
6. Мудрик А.В. Основы социальной педагогики. – М.: АСАДЕМА, 2006.

РЕЗЮМЕ

Мазкур мақолада оилада болаларни миллий қадриятлар ва анъаналар асосида ўзаро муносабатларини шакллантириш, оиладаги маънавий муҳит бола тарбиясида ғоят муҳим аҳамиятга эга эканлиги, замонавий оилага хос хусусиятлар, қадриятларнинг бир неча гуруҳларлардан иборат бўлиши, оилавий муносабатлар асосан ишлаб чиқариш муносабатлари билан боғлиқ тарзда олиб борилишининг аҳамияти келтириб ўтилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье подчеркивается важность формирования взаимоотношений детей в семье на основе национальных ценностей и традиций, духовная атмосфера в семье имеет первостепенное значение в воспитании детей, особенности современной семьи, наличие нескольких групп кадров, то, что семейные отношения в основном связаны с производственными отношениями.

SUMMARY

In this article, the formation of relations between children in the family on the basis of national cadres and traditions, the fact that the spiritual mukhit in the family has the greatest importance in the upbringing of a child, features inherent in the Modern Family, a breakdown of personnel consisting of several groups, the significance of the fact that family relations are mainly carried out in.



ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

BIOFIZIKA DARS MASHG‘ULOTLARIDA TERMODINAMIKA QONUNLARINI TIRIK ORGANIZMGA TADBIQ ETIB, FIZIK ASOSLARINING METODIKASINI O‘RGANISH MEXANIZMI

Xayitova Yu.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Biofizika fani o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: moodle, Ilias, dokeos, deklaratsiya, integratsiya, tendensiya, Simulations.

Ключевые слова: моодле, илиас, докеос, декларация, интеграция, тенденция, Симулационс.

Key words: competencies, national qualification, molecular biophysics, cell biophysics, integration, trend, declaration.

Dunyoda tibbiy ta’lim tizimini rivojlantirishda o‘quv jarayonini mustaqil ta’lim orqali tashkil qilish (Simulations.), masofaviy ta’lim (Moodle, Ilias, Dokeos va h.k.) shakllarini keng tatbiq etish, axborot-ta’lim muhiti (e-learning) hamda mediatexnologiyalar sharoitida tibbiy ta’limning uzluksizligi va amaliy yo‘nalganligi, tibbiy ta’lim oluvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, kasbiy faoliyatga tanqidiy yondashish asosida tayyorlash jarayonini rivojlantirishda, innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. YUNESKO tomonidan qabul qilingan ta’limning xalqaro standart tasnifligichi (TXST) darajalari bilan uyg‘unlashtirish; o‘quv jarayoniga Milliy kvalifikatsiya tizimini to‘laqonli joriy etish; tayyorlanayotgan tibbiy mutaxassislarning mehnat bozorida munosib o‘rin egallashlari uchun tibbiy ta’lim mazmunini innovatsion loyihalash; kasbiy kompetensiyalarni tarkibiy qismlarga ajratish; tibbiy ta’limning yangi metodik modellarini yaratish va ularni muayyan tibbiy ta’lim amaliyotida qo‘llashga alohida e’tibor berilmoqda.

Jahonda samarali natijaga erishayotgan fan-texnika taraqqiyoti tibbiy ta’limda zamonaviy innovatsion texnologiyalar rivojlanishida biofizika muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Biofizik bilimlar, nafaqat butun jamiyatning, balki har bir shifokorning zamonaviy kasbiy faoliyatining muhim tarkibiy qismi, ayniqsa, bu tibbiy ta’lim doirasida ilm-fan, innovatsion texnologiya bilan bog‘liq. Jumladan, Inchxon deklaratsiyasi va “Ta’lim-2030” xalqaro ta’limni rivojlantirish harakat dasturida keltirilgan aniq va tabiiy fanlar tendensiyasida biofizikadan mustaqil ta’limda olib borilgan kasbiy faoliyat davomida orttirilgan shaxsiy tajriba hamda biofizikani o‘rganishda talabalarning olgan ko‘nikma va malakalari ularning shaxs sifatida rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’lim tizimida fizika va tabiiy fanlarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga doir masalalar bilan K.A.Tursunmetov, J.E.O‘sarov, N.Sh.Turdiyev, M.Mamadazimov, S.Q.Qahhorov, M.Qurbonov, D.Sh.Shodiyev va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. Fizika o‘qitishda fanlararo integratsiyani amalga oshirish muammolari bo‘yicha U.E.Abdiyev, H.O.Jo‘rayev, E.O.Turdiqulov, Q.Sh.Tursunov, M.I.Bazarbayev S.J.Bozorova, va


boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. O'quv jarayonida gipermatnli tizimlardan foydalanish, elektron qo'llanma va darsliklar yaratish, amaliy dasturiy ta'minotdan foydalanish xususiyatlari hamda imitatsion modellardan foydalanish kabi masalalar ustida M.Mamarajabov va M.H.Lutfillayev, O.B.Bogomolovlar tadqiqot ishlari olib borishgan. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida fizika o'qitish metodikasini takomillashtirish masalalari bo'yicha V.A.Orlov, N.M.Shaxmayev, N.A.Rodina, U.V.Usova, S.L.Rubinshteynlar tadqiqot ishlari olib borganlar. Rivojlangan xorijiy davlatlarda fizika o'qitishning metodologik masalalariga doir tadqiqotlar M.Douglas, J. Piaget, A.Gartung, J.Kidd A.Bates, J.Daniel, va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Yuqoridagi tadqiqot ishlarida o'qitishning turli yo'nalishlari o'rganilgan bo'lsada, tibbiy oliy ta'lim muassasalarida biofizika fanini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun interfaol metodlar asosida yaratish va foydalanish masalalari o'rganilmagan.

Termodinamika qonunlarini tirik organizmga tadbqiqini o'rganish

Ishdan maqsad: Kleman – Dezorm usuli bilan gaz issiqlik sig'implari nisbati C_p/C_v ni o'lchashni o'rganish.

Kerakli asboblari: Kleman – Dezorm qurilmasi. U quyidagi qismlardan tashkil topgan : 1-shisha balon, 2, 3-kran, 4-manometr va 5-nasos (kompressor).



Kleman-Dezorm asbobi.

Nazariy qism

Gazning holatini termodinamik parametrlar: bosim – P, hajm – V ni temperatura – T bilan o'zaro bog'lovchi tenglamaga moddaning holat tenglamasi deyiladi. Ideal gaz uchun esa holat tenglama Mendeleev-Klayperon tenglamasidir. U bir mol gaz uchun quyidagicha yoziladi:

$$PV=RT \quad (1)$$

P-bosim, V- hajm, R – universal gaz doimiysi, T-temperatura.

Gaz issiqlik sig'imining kattaligi isitish sharoitlariga bog'liq bo'lib, bu bog'liqlikni aniqlash uchun holat tenglamasi (1) dan va termodinamikaning birinchi qonunidan foydalanamiz. Termodinamikaning birinchi qonuni: sistemaga berilgan issiqlik miqdori - dQ uning ichki energiyasi dUning oshishiga va sistemaning tashqi kuchlariga qarshi ish – dA bajarishga sarflanadi, ya'ni

$$dQ=dU+dA \quad (2) \text{ bu yerda } dA=PdV \quad (3)$$

Issiqlik sig'imining ta'rifiga ko'ra:



Bir mol gazni 1 K ga istish uchun kerak bo'lgan issiqlik miqdoriga molyar issiqlik sig'imi deyiladi.

$$C = \frac{dQ}{dT} = \frac{dU}{dT} + \frac{dA}{dT} \quad (4)$$

Bir mol ideal gaz uchun termodinamik jarayonlarini ko'rib chiqamiz.

1. **Izoxorik gaz jarayoni.** Agar gazning temperaturasi o'zgarganda hajmi o'zgarmasdan qolsa ($V=\text{const}$), bunday jarayonga izoxorik jarayon deyiladi. $dV=0$ bo'ladi. hajm o'zgarmasa (3) formulaga asosan $dA=0$ bo'ladi va gazga berilgan issiqlik uning ichki energiyasini oshirishga sarflanadi. Bunday jarayon uchun molyar issiqlik sig'imi

$$C_V = \frac{dU}{dT} \quad (5)$$

formula bilan topiladi.

2. **Izobarik jarayon:** O'zgarmas bosimda ($P=\text{const}$) o'tadigan jarayonga izobarik jarayon deyiladi. Bu jarayon uchun gazning molyar issiqlik sig'imi quyidagicha yoziladi.

$$C_p = \frac{dU}{dT} + \frac{dA}{dT} \text{ yoki } C_p = \frac{dU}{dT} + P \frac{dV}{dT} \quad (6)$$

Gaz holat tenglamasi (1) ni deffirensial holda yozamiz:

$$PdV + VdP = RdT \quad (7)$$

$P=\text{const}$ bo'lganda $dP=0$ bo'ladi. Shuning uchun $PdV=RdT$ munosabatni (6) ga qo'ysak va $dU=C_V dT$ bilan almashtirsak, quyidagi tenglamani hosil qilamiz

$$\boxed{C_p = C_V + R} \quad (8)$$

(8)- formuladan ko'rinib turibdiki, har xil gaz jarayonlarida gazning issiqlik sig'imi turlicha bo'ladi. Izobarik jarayonning molyar issiqlik sig'imi turlicha bo'ladi. Izobarik jarayonni molyar issiqlik sig'imi izoxorik jarayon molyar issiqlik sig'imidan R (universal gaz doimiysi) miqdorga katta bo'ladi. Chunki uzatilgan issiqlik miqdori ichki energiyaning oshirilganligi emas, balki tashqi kuchlarga qarshi ish bajarishga ham sarflanadi.

3. **Izotermik jarayon:** O'zgarmas temperaturada ($T=\text{const}$) o'tadigan jarayonga izotermik jarayon deyiladi. Bu holda ($T=\text{const}$) va termodinamikaning birinchi qonunini quyidagicha yozamiz: $dA = dQ$ ya'ni gazning ichki energiyasi o'zgarmasdan qoladi va uzatilgan issiqlik ish bajarishga sarflanadi. Bu holda gazning molyar issiqlik sig'imi cheksizlikka intiladi. $C_{T \rightarrow \infty}$

4. **Adiabatik jarayon** Tashqi muhit bilan issiqlik almashmasdan ro'y beradigan jarayonga adiabatik jarayon deyiladi. Bunda termodinamikaning birinchi qonuni quyidagicha ifodalanadi.

$$dQ=0; \boxed{dA = -dU}$$

ya'ni adiabatik jarayonda gazning ichki energiyasining o'zgarishi hisobiga ish bajariladi. Adiabatik jarayonda gazning parametrlarini (P (bosim) va V (hajm)) bog'lovchi tenglamaga Puasson tenglamasi deyiladi.

$dA = -dU$ edi, $dA = PdV$ va $dU = C_V dT$ bo'lganligidan

$$\boxed{PdV = -C_V dT} \quad (9)$$

(7) tenglamani (9) ga bo'lib, (8) ni hisobga olib, quyidagini hosil qilamiz:

$$\frac{V}{P} \frac{dP}{dV} = \frac{c_p - c_v}{c_v} \text{ yoki } \frac{dP}{P} = -\gamma \frac{dV}{V} \quad (10)$$


bunda $\boxed{\gamma = \frac{C_p}{C_v}}$

(10) tenglamani integrallab va potentsiallab, Puasson tenglamasini hosil qilamiz:

$$\boxed{PV^\gamma = \text{const}} \quad (11)$$

Bu yerda $\gamma = \frac{C_p}{C_v}$ adiabata ko'rsatkichi deyiladi. Bu amaliy ishdan maqsad, adiabat

ko'rsatkichini Kleman – Dezorm usuli bilan aniqlashdir.



1-rasm. Kleman-Dezorm asbobi

Kleman – Dezorm qurilmasi havosi bo'lgan – 1 ballondan, 5-nasos (kompressor)dan va manometr – 4 dan iborat (1 – rasm).

3 – kran berkitilganda 1-ballonga 5-nasos bilan dam beriladi. Ballondagi havo bosimi ortadi va quyidagiga teng bo'ladi: $P_1 = H + h_1$ bunda H havoning atmosfera bosimi, h_1 – atmosfera bosimidan ortiqcha bosim. h_1 kattalik 4-manometr vositasida o'lchanadi. So'ngra 3 kran qisqa vaqt ichida ochiladi, bunda ballondagi havo bosimi atmosfera bosimiga tenglashadi ($P_2 = H$), keyin kran tezda yopiladi. Ballonga nasos bilan tortilgan V – hajmga ega bo'lgan havoning massasi m bo'lsin. Uning massasini Δm bilan belgilaymiz. U holda ballonda qolgan havoning massasi $m_1 = m - \Delta m$ bo'ladi.

V – hajmni egallagan m_1 massali havo kran ochilmasdan avval V_1 kichikroq hajmni egallagan edi. Jarayon qisqa vaqtli va gaz bilan ballon devorlari orasida issiqlik almashinishi sezilarli bo'lmagani uchun uni adibatik jarayon deb hisoblanadi. Unda Puasson tenglamasiga asoslanib m_1 massali gaz uchun.

$$P_1 V^\gamma = P_2 V^\gamma \quad (12)$$

bo'ladi

Adibatik kengayish natijasida gazning temperaturasi pasayadi, keyin atrof muhit bilan issiqlik almashinish natijasida gazning temperaturasi xona temperaturasigacha tenglashadi.

Buning natijasida ballon ichidagi bosim P_3 ga ko'tariladi. Bunda Boyle-Mariott qonuni quyidagicha yoziladi:

$$P_1 V_1 = P_3 V_3 \quad (13)$$

(12) va (13) tenglamalarni γ – ga nisbatan yechsak, quyidagi munosabat hosil bo'ladi.

$$\gamma = \frac{\lg P_1 - \lg P_2}{\lg P_1 - \lg P_3} \quad (14)$$

Bu holda P_1 va P_3 lar P_2 dan kam farq qilgani uchun (14) tenglamada qiymatlarning logorifmlarining ayirmalari nisbatini shu qiymatlarning ayirmalari nisbati bilan almashtirish mumkin, ya'ni

$$\gamma = \frac{P_1 - P_2}{P_1 - P_3} \quad (15)$$

$P_1 = H + h_1$; $P_2 = H$; $P_3 = H + h_2$ bo'lgani uchun, ularni (15) ga qo'ysak

$$\gamma = \frac{H + h_1 - H}{H + h_1 - H - h_2} = \frac{h_1}{h_1 - h_2}$$

$$\boxed{\gamma = \frac{h_1}{h_1 - h_2}} \quad (16)$$

ishchi formula hosil bo'ladi

VAZIFALAR

1. 1-ballonga 5-nasos bilan havo yuborib, 4-manometr suyuqligi sathlarining 15-20 mm bo'lishiga erishish va idish ichidagi temperatura atrof- muhit temperaturasiga tenglashguncha, ya'ni manometr suyuqligi sathlarining farqi o'zgarmasdan qolguncha kutib turing. (2-3 minut)

2. Manometrdan satxlar ayirmasini, ya'ni havoning ortiqcha bosimi h_1 ni o'lchab mm hisobida yozib oling.



3. 3-kranni to'la oching (ya'ni 1 idish atmosferaga tutashiriladi) va manometrda suyuqlikning sathlari bir- biriga tenglashishi bilan kranni berkiting.

4. 2-3 minutdan so'ng adiabatik kengayishda sovigan gazning temperaturasi xona temperaturasigacha ko'tariladi va ortiqcha bosim h_2 bilan ifodalanadi (mm hisobida).

5. Yuqoridagi usul bilan tajribani 5 marta takrorlang

5. Olingan natijalarni jadvalga kiriting:

№	h_1 , mm	h_2 , mm	γ	$\Delta\gamma$	$D_\gamma\%$
1					
2					
3					
4					
5					
O'rtacha qiymat					

II – QISM

1. $\gamma = \frac{h_1}{h_1 - h_2}$ formula yordamida γ ni, ya'ni $\frac{C_p}{C_v}$ nisbatni hisoblang.

2. Tajribani o'rta arifmetigini hisoblang

3. Har bir tajribani absolyut xatoligi va o'rtacha absolyut xatolikni hisoblang

4. Nisbiy xatolikni hisoblang

5. γ ning haqiqiy qiymatini $\gamma_{haq} = \bar{\gamma} \pm \Delta\bar{\gamma}$ ko'rinishida ifodalang

Adabiyotlar:

- Хитун В.А. и др. Практикум по физике для медицинских вузов. М.: «Высшая школа», 1972 г.
- Remizov A.N. Tibbiy va biologik fizika: Tibbiy oily o'quv yurtlari uchun darslik – 2005
- Ливенцев Н.М. Физика курси. 1974 й.
- М.И.Базарбайев, И.Муллажонов, А.З.Собиржонов, У.М.Абдулжборова, И.Ш.Сайдназарова ва boshq. Biofizika Darslik. 2017 yil TTA.

Internet saytlari

<http://www.physexperiment.narod.ru/physics.htm>

<http://www.medbiophys.ru/>

http://biophysics.spbstu.ru/useful_links

<http://medulka.ru/biofizika>

РЕЗИОМЕ

Jahonda samarali natijaga erishayotgan fan-texnika taraqqiyoti tibbiy ta'limda zamonaviy innovatsion texnologiyalar rivojlanishida biofizika muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Tibbiy oliy ta'lim muassasalarida biofizika fanini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun interfaol metodlar asosida yaratish demakdir.

РЕЗИОМЕ

Научно-технический прогресс, достигающий эффективных результатов в мире, показывает, что биофизика занимает важное место в развитии современных инновационных технологий в медицинском образовании. Методика использования инновационных образовательных технологий в обучении биофизике в медицинских вузах подразумевает создание практических и лабораторных занятий на основе интерактивных методов.

SUMMARY

Scientific and technical progress that is achieving effective results in the world shows that biophysics occupies an important place in the development of modern innovative technologies in medical education. The method of using innovative educational technologies in the teaching of biophysics in medical institutions of higher education means the creation of practical and laboratory training based on interactive methods.



ОПТИКАДАН ЛАБОРАТОРИЯ ИШЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БАЖАРИЛИШИНING ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИ ТАҲЛИЛИ

Қодиров С. П.

Тошкент давлат техника университети Олмалиқ филиали ассистенти

Таянч сўзлар: физика, оптика, лаборатория, тажриба, поляризация, линзанинг фокуси, рефракция, дисперсион призма.

Ключевые слова: физика, оптика, лаборатория, эксперимент, поляризация, фокус линзы, преломление, дисперсионная призма.

Key words: physics, optics, laboratory, experiment, polarization, lens focus, refraction, dispersion prism.

Кириш. Давлатимиз раҳбари томонидан мамлакатимизда амалий физика соҳасидаги илмий ва инновацион тадқиқотларни ривожлантиришга бағишланган ташкилий ишлар, Ўзбекистон миллий университети қошида «Юқори технологиялар маркази» нинг ташкил этилиши, энергетик манбалардан оқилона фойдаланиш ва мамлакатимиз худудини электр энергияси билан доимий ва узок муддатли таъминлаш мақсадида атом электр станцияларини куриш бу йўналишда олиб борилиши зарур бўлган илмий-методик фаолиятнинг дастурий асосидир.

Физика фани ҳар доим жуда мураккаб, тушуниш осон бўлмаган жуда кўп тушунчаларни ўз ичига олган фандир. Фаннинг тез суръатлар билан ривожланиши бундай тушунчалар, омиллар, ғоялар сонининг кўпайишига олиб келади. Талабаларнинг илмий тафаккурида янги тушунчалар органик равишда кириб бориши, улардан ижодий фойдаланиши ва кейинги амалий фаолиятида ривожланиши учун катта куч ва физика курсини ўқиш усулларини доимий равишда такомиллаштириш талаб этилади.

Физика ўқитишнинг замонавий методологиясида физик эксперимент яхлит ўқув жараёнининг ажралмас қисми бўлиб, бунда физик ходисаларни ўрганиш ва тадқиқ қилишнинг назарий ва экспериментал усуллари ўзаро уйғунлашади.

Физика фанини илмий, методик ва кўрғазмали воситалар асосида бойитиш мақсадида яратилган адабиётлар бир қатор ўзбек методист олимлари томонидан ўрганилган. Бўлажак педагог кадрларни тайёрлашда



ахборот технологияларининг ўрни, таълим сифатини оширишни дастурий воситалар асосида такомиллаштириш масалалари бўйича соҳа олимларидан У.Ш.Бегимқулов, А.Асқаров, Қ.П.Абдурахмонов, Н.Тайлоқов, Н.Қаюмова, Г.Умарова ва бошқаларнинг илмий изланишлари ва яратган илмий-методик адабиётларини ҳам таъкидлаб ўтиш мумкин.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Б.М.Мирзахмедов, Н.Б.Ғофуров ва Ф.Ф.Тошмухамедовларнинг «Физика ўқитиш методикаси курсидан ўқув эксперименти» номли методик қўлланмасида ўрта мактабларда физика ўқитиш методикаси бўйича деярли физиканинг барча бўлимлари бўйича кўргазмалар тажрибалар ва амалий ишлар ёритилган ҳамда уларнинг методикасига урғу берилган. Унда ўқув тажрибаларни ўтказиш тизимлаштирилиб, йўриқномалар ва тажрибаларни ўтказиш методикаси баён этилган [1].

Қ.П.Абдурахмонов ва бошқалар томонидан яратилган “Умумий физикага оид маъруза машғулотлари” номли электрон ишланмаси бугунги кунда барча техника йўналишидаги олий таълим муассасаларининг умумий физика курсига оид маъруза машғулотларида электрон қўлланма сифатида фойдаланилиб келинмоқда [2].

Ўзбекистон Миллий университети педагог ходимлари томонидан яратилган видео ишланмаларда умумий физика курсига оид илмий лаборатория экспериментларининг олиб борилиши ва натижаларнинг илмий назарияларга асосланиш жараёни ёритилиб, бу видео қўлланма экспериментлар ёрдамида талабаларнинг лаборатория бажариш кўникма ва малакасини оширишга хизмат қилади ва экспериментал асбоблар билан тасвирларда таништиради. Ушбу ишланма маъруза машғулотларида намоёни тажрибаси сифатида жорий этишга мўлжалланган.

Г.А.Умарованинг “Совершенствование методики преподавания квантовой физики на основе компьютерных технологий в общеобразовательной школе (Умумтаълим мактабларида компьютер технологиялари асосида квант физикасини ўқитиш методикасини такомиллаштириш)” номли номзодлик диссертациясида ўрта мактаб ўқувчиларида квант физикасига оид тушунчаларни сингдиришда узвийликни тامينлаш, квант тушунчаларни компьютер технологиялари воситасида яратилган ўқитиш усулларида фойдаланиш методикасига эътибор қаратилган [3].

М.Қурбоновнинг “Узлуксиз таълимда физик экспериментларнинг дидактик функциялари самарадорлигини ошириш” номли докторлик диссертацияси таълим соҳасида намоёни тажрибалар ва экспериментнинг дидактик имкониятларини оширишга бағишланган бўлиб, унда кўп



функцияли намойиш тажриба курилмаларини яратиш ва улардан маъруза жараёнида фойдаланиш методларини ишлаб чиқиш ҳамда тажрибаларини замонавий таълим технологиялари асосида ташкил этишнинг психологик-педагогик ва методик асослари ёритилган бўлиб, стендлар, кўргазмалар, қуроллар, демонстрацион воситалар ва улардан узлуксиз таълим тизимида мақсадли тажрибалар кўринишида фойдаланиш усуллари ва воситалари ёритилган. Физика таълимида мураккаб мавзуларни ёритишда ахборот технологиялари ҳамда намойиш тажрибаларидан самарали фойдаланиш шакли, методлари, воситалари ҳамда уларни таълим жараёнида қўллаш шароитлари тўғрисида фикрлар юритилган [4].

Физика фанининг “Оптика” бўлимига оид тадқиқотлардан бири Х.М.Маҳмудованинг “Умумий физика курсининг “Оптика” бўлимида лаборатория машғулотларини ўтказишда ахборот технологияларини қўллаш” мавзусидаги номзодлик диссертациясида “Оптика” бўлимини ўқитишда лаборатория тажрибаларини бажариш ва ўз-ўзини текширишда тест-тренинг усулини кўрсатиб, уларга оид тест намуналарини келтириб ўтади. Оптика бўлимида лаборатория машғулотларида талабаларнинг тажриба ўтказишида курсдан маъруза эшитган ёки мустақил ўрганаётган назарий материалларни амалиётда қўллашга ва кузатишга, ўлчаш натижаларини таҳлил қилишга ҳамда умумлаштиришга ўрганишлари ва пировардида, физик қонуниятларнинг объективлигига ишонч ҳосил қилишлари ва уларда илмий тафаккурни ривожланишига асос бўла олиши таъкидланади [5].

И.У.Билоловнинг “Методика проведения лабораторных занятий в процессе обучения физике с применением персональных ЭВМ” номли диссертациясида умумий физика курсига оид лаборатория ишларини бажаришдан олинган натижаларини электрон ҳисоблаш машиналарида ҳисоблашга оид методик кўрсатмалар келтирилган бўлиб, тадқиқотда физика курсига оид виртуал ишланмалар ва электрон методик қўлланмалар яратишга оид кўрсатмалар келтирилмаган. Тажрибада олинган натижаларни таҳлил этишда натижаларни қайта ишлаш ва хатоликларни ЭҲМда ҳисоблаш методлари ишлаб чиқилган.

Ш.Ш.Хайдарованинг “Педагогические основы формирования профессиональной направленности физического лабораторного практикума в вузе (Олий таълим муассасаларида физикадан лаборатория практикумини касбга йўналтириб ўқитишнинг педагогик асослари)” номли диссертацияси техника йўналишидаги олий таълим муассасаларининг бакалавр босқичига оид лаборатория ишланмаларига қаратилган бўлиб, тадқиқот-



да электр ва магнетизм бўлимига оид лаборатория ишланмалари келтирилган [6].

Тадқиқот методологияси. Шу муносабат билан бўлажак мутахассисларни тайёрлашда лаборатория хонасининг ўрни ниҳоятда муҳим бўлиб, замонавий лаборатория ишларини яратиш ва уларни амалга оширишнинг янги усулларини ишлаб чиқиш жуда долзарбдир.

Лаборатория машғулотининг мақсад ва вазифалари ўқув жараёнининг муҳим умумий таълим йўналиши бўлган талабаларда самарали ва ижодий фикрлашни шакллантиришдан иборат. Бундан ташқари, лаборатория ва амалий машғулотларни ўтказишнинг асосий босқичларидан бири ўқув материални такрорлаш ва мустаҳкамлаш, шунингдек, ўрганилаётган мавзу бўйича муаммоларни ҳал қилиш учун амалий кўникма ва малакаларни ривожлантиришдир. Шундай қилиб, лаборатория устахонаси назария ва амалиёт ўртасидаги муносабатларга имкон беради.

А.А.Лактионов методологик адабиётлар таҳлилига асосланиб, лаборатория хонаси ҳам билим манбаи, ҳам ўқитиш методи, ҳам ўрганилаётган жараён ёки ҳодисанинг қонуниятларини визуал тасвирлаш тури эканлигини аниқлади. Лабораториянинг асосий вазифалари:

- талабалар томонидан ўрганилаётган фаннинг асосий тушунчалари, унинг қонуниятлари ва назарий қоидаларини тўлиқроқ ва сифатли ўзлаштиришга эришиш;
- талабаларда олинган билимларни амалиётда қўллаш, уларни бир фан соҳасидан бошқасига ўтказиш малакаларини шакллантириш; талабаларни олинган маълумотларни тизимлаштириш ва қайта ишлашга ўргатиш, ҳисоботни қулай шаклда (жадвал, график, диаграмма ва бошқалар кўринишида) тақдим эта олиш;
- ўрганилаётган фанга қизиқиш ва замонавий компьютер воситаларидан фойдаланган ҳолда ўқитишнинг янги шакл ва методларини қўллаш қобилиятини ривожлантиришни рағбатлантириш;
- мустақил билиш фаолиятини фаоллаштириш, бажарилаётган ишга ижодий муносабат, нафақат қўйилган саволларга жавоб бериш, балки кўпроқ даражада ўз олдига вазифалар қўйиш, фараз ва таклифларни илгари суриш.

Ўқув жараёнида тажриба нафақат амалий, балки интеллектуал табиатнинг бир қатор кўникмаларини шакллантиришга ёрдам беради. Бундан ташқари, экспериментал методни ўзлаштиришда ақлий фаолиятнинг ижодий қобилиятларини ривожлантиришга ёрдам беради.

Профессор Р.П.Кренциснинг таърифига кўра, физика табиатда жуда драматикдир ва барчаси биргаликда ҳақиқий мелодрамадир. Бунинг сабаблари кўп. Биринчидан, жиҳозлар ишлаб чиқилган бўлса ҳам ва унинг саноатда ишлаб чиқариш ўзлаштирилмади, чунки яратилган имкониятлар йўқ қилинди. Иккинчидан, янги бозор иқтисодиёти шароитда физик ускуналар таълим тизимининг умумий қашшоқлиги билан биргаликда арзон ҳам эмас. Учинчидан, физика ўқитувчиларининг янги авлоди катта бўлмаганлиги сабабли, физик ускуналарга муҳтож эмас, чунки тажриба орттиришдан кўра четлаб ўтиш осонроқ.

Бундан ташқари, лаборатория соатлари қисқариши ҳисобидан мураккаб тажрибани ўтказиш жуда муаммоли бўлади. Педагогик тажриба-синов таҳлили сифатида, лаборатория фаолиятини ташкил этиш ва ўтказиш бўйича сарфланадиган энг юқори вақтни индивидуал ўлчаш операцияларини амалга ошириш билан боғлиқ. Шу муносабат билан кўпчилик ўлчовлар икки ёки уч баравар чеклашга мажбур қилади, бу талабаларнинг билим даражасига табиий таъсир қилади.

Физикадаги замонавий лаборатория концепциясини ўрганиш В.М.Клинов, П.Я.Гальперин, В.Ф.Лисов, В.В.Майер, Э.С.Мамаев, ва бошқалар томонидан ўрганилган.

Практикум концепцияси - бу услубий ва техник воситалар тизими мавжуд бўлиб, унда ўқув жараёнида синовдан ўтади ва ишлаб чиқилади [3].

Ҳозирги вақтда турли хил мутахассислик талабалари учун мўлжалланган лаборатория ишлари яратилган.

В.Ф.Ноздрева томонидан ишлаб чиқилган практикум педагогик ҳодисалар учун мўлжалланган, талабаларга асосий жисмоний қонунлар ва ҳодисаларни чуқурроқ тушунишларга ёрдам беради, бу эса келажакдаги физика ўқитувчилари учун жуда муҳимдир. Ушбу практикум «Оптика» бўлимида Н.И.Кошкин лаборатория ишларини бажариш пайтида талабалар оддий тажриба кўникмаларини олишлари ва энг муҳим ўлчов усуллари амалда ўзлаштиришлари мумкин. Практикумда бўлажак ўқитувчилар мактаб шароитида бўлиши мумкин. Талабалар физик практикумни ўтказишдаги асосий қийинчилик, ўқув лабораторияларида олдинги метод билан бажарилишини ўқитувчи ўргатганидек таъминлашга қодир эмас. Шунинг учун муқаррар равишда индивидуал лаборатория иши маъруза курсининг тегишли бўлимлари тинглаш орқали амалга ошади. Физик практикум ўз мақсадларига фақат талабалар амалга оширишни бошлаганда, улар ушбу ишни бажаришни бошлаганда, унда таҳсил олган физик ҳодиса ёки қонунни аниқ тасаввур қилишади. Бунинг учун ҳар бир лабо-



ратория ишларига тайёргарлик кўриш учун катта меҳнат талаб қилади. Талабаларга ёрдам бериш учун ҳар бир лаборатория ишлари олдидан назарий кириш орқали амалга оширилади.

Лаборатория ишига мустақил тайёргарликда талабаларни мустақил равишда ўз-ўзини режалаштиришни таъминлаш, тавсиф назорат масалаларини ўз ичига олади. Улардан баъзилари ўлчов усулининг моҳиятини яхшироқ ўзлаштириш ва иш давомида олинган натижалар ҳақида чуқур тушуниш учун мўлжалланган. Назорт саволларини тузишда талабаларнинг физик таълимга педагогик йўналиши ҳам ҳисобга олинди.

Таҳлил ва натижалар. Физика практикумидаги қурилмаларнинг ба-тафсил тавсифи, муаллифлар бир вақтнинг ўзида талабаларнинг лабораторияга бўлган муносабатини мустақил, экспериментал тадқиқотлар олиб боришини мақсад қилишди.

Баъзи ҳолларда талабалар лаборатория ишлари режаси талабалари томонидан қурилмалар ўрнатиш ва танишишдан кейин тақдим этилади.

Ушбу практикум қуйидаги муаммоларни кўриб чиқади.

1. Физик ҳодисаларни ўрганиш:

- Ёруғликнинг ютилиши;
- Поляризациянинг текисликда айланиши;
- Ёруғлик синиши;
- Ёруғлик дифракцияси.

2. Физик тайёргарлик ва ускуналар:

- Оптик жиҳозлар;
- Вакуумли ва вентилли жотоэлементлар.

3. Физик катталикларни аниқлаш:

- Дифракцион панжара ёрдамида ёруғлик тўлқин узунлигини аниқлаш;
- Линзанинг фокуси;
- Рефракция;
- Дисперсион призма;
- Стефан-Болцман доимийси.

Умуман олганда, практикум бўйича қўлланмада ёруғлик тўлқинларига киритилиши мумкин бўлган 14 та лаборатория ишлари мавжуд. Иш фаолияти учун жуда мураккаб ускуналар керак: винтли окуляр микроскоп, Никол призмаси, исланд шпати, кутблагич, рефрактометр, фотометр ва бошқалар. Шунини таъкидлаш керакки, ҳозирги кунда кўплаб олий таълим муассасаларида ускуналар қисман ишламай қолганлиги сабабли тушкун-



ликка тушади ва доимий маблағ уетишмаслиги туфайли янги бир нарсани сотиб олишнинг иложи йўқ.

Физик практикум А.В.Кортнев, Ю.В.Рублев, А.Н.Куценколар томонидан техника олий таълим муассасалари учун яратилган.

Қўлланма физик ҳодисанинг тавсифи ва тажрибани такрорлаш учун зарур бўлган асосий коэффициентларнинг хулосасини ўз ичига олган назарий материални ўз ичига олади. Ҳар бир иш охирида тавсия этилган адабиётлар рўйхати берилади. Талабаларнинг мустақил ишига алоҳида эътибор қаратилади. Бунинг учун деярли барча ишларга турли хил қўшимча вазифалар берилган.

Физикавий практикумлардан бири К.А.Барсукова томонидан ишлаб чиқилган. Ушбу практикум оптика бўйича лаборатория ишларининг барча бўлимларни қамраб олади: электромагнит тўлқинларнинг дифракцияси, интенференцияси, кутбланиши, оптик нурланишнинг моддалар билан таъсири, электро-акустикооптик эффект. Қоида тариқасида, барча ишлар замонавий физик қурилмалар (лазерлар, рақамли қурилмалар ва бошқалар) ёрдамида кўриб чиқилади, аммо бир қатор ишларни оддий асбоблар билан бажариши мумкин. Таъкидлаш жоизки, электромагнит тўлқинларнинг интенференцияси иккита нуқтавий когерент манбадан тарқалаётган электромагнит тўлқинлардан ҳосил бўлади.

Хулоса. Шундай қилиб, ҳозирда мавжуд оптикага оид таҳлиллар талабаларнинг экспериментал компетентлигини, шу жумладан экспериментал муносабатларни ташкил этиш, тайёр тажрибалар бўйича тадқиқотлар тўпламини яратиш кўникмаларини ишлаб чиқишга қаратилган. Дарҳақиқат, физикадан эксперимент компетентликни шакллантириш методикани ишлаб чиқишга, ўзини ўзи фаоллаштиришга, фаол илмий тадқиқотларга тайёрлашга имкон берди. Бироқ, ушбу практикумларда назарий моделларни фаол равишда ўрганиш амалга оширилмайди, бу талабаларнинг назарий моделларининг физик табиатини утарлича англамасликларига олиб келади.

Ўқув физик экспериментининг ривожланиш тенденциясини таҳлил қилиш ўқув тажрибаларидан илмий тажрибага ўтиш лозимлигини кўрсатади. Бу экспериментал илмий технологияларнинг ютуқлари тўғридан-тўғри ўқув жараёнида фойдаланган ҳолда амалга оширилади. Сўнгги йилларда, осциллографлар, видеоманитофонлар, юқори ва паст частотали генераторлар, телевизион қурилмалар, оптик квант генераторлари (лазер), шунингдек шахсий компьютерлар кенг қўлланилмоқда.



Илмий-услубий адабиётларни ўрганиш ва таҳлил қилиш ОТМ нинг таълими мазмунида бўлажак мутахассисларни экспериментал тайёргарлигини такомиллаштиришга имкон берди:

Адабиётлар:

1. Молотков Н.Я. Радиоволны в демонстрационном эксперименте по оптике. Киев: Вицашк., 1981. 104 с.
2. Бир С. Кибернетика и управление производством. - М.: Физматгиз, 1963, С 26-36.
3. Светозаров В.В., Светозаров Ю.В., Концепция физического практикума для вариативной системы образования // Физическое образование в вузах, 1998, том 4, №4. - С. 43-45.
4. Лысов В.Ф. Спецпрактикум по физике и его роль в повышении эффективности подготовки учителя физики (на примере спецпрактикума по физике полупроводников и полупроводниковых приборов). Дисс. канд. пед. наук / Ленинград, 1986. - 150 с.
5. Молотков Н.Я. Приближение учебного познания к научному в целях активизации познавательной деятельности студентов по физике. // Качество инженерного образования. Тамбов, ТГТУ, 2001. - С.25-26.
6. Гальперин П.Я. Основные результаты исследований по проблеме формирования умственных действий и понятий. М.: Изд-во МГУ, 1965.-52 с.

РЕЗЮМЕ

Мақолада физика курсига оид илмий лаборатория экспериментларининг олиб борилиши ва натижаларнинг илмий назарияларга асосланиш жараёни таҳлил ва натижалари ўрганилган. Шунингдек, оптикадан лаборатория ишларини ташкил этиш ва бажарилишининг ҳозирги ҳолати илмий асослаб берилган.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматривается анализ и результаты проведения научных лабораторных экспериментов в физике и процесс адаптации результатов к научным теориям. Также научно обосновано современное состояние организации и выполнения лабораторных работ по оптике.

RESUME

The article discusses the analysis and results of scientific laboratory experiments in physics and the process of adapting the results to scientific theories. The current state of the organization and performance of laboratory work in optics is also scientifically substantiated.



ЎҚУВЧИЛАРНИ МАКТАБЛАРАРО ОЛИМПИАДАЛАРГА ТАЙЁРЛАШДА КРЕАТИВЛИКНИ ОШИРАДИГАН МАСАЛАЛАРНИНГ РОЛИ (ГЕОМЕТРИЯ ВА ФИЗИКА МИСОЛИДА)

Собирова М. Р.

Денов тадбиркорлик ва педагогика институти

Таянч сўзлар: геометрия, векторларни қўшиш, физика, мактаблараро олимпиада, креативликни ошириш, масалалар ечиш, метод, когнитив фаолият, ижодий масала.

Ключевые слова: геометрия, прибавление векторов, физика, межшкольная олимпиада, повышение креативности, решение задач, метод, когнитивная деятельность, творческая задача.

Key words: geometry, addition of vectors physics, synchronous learning, asynchronous learning, interscholastic olympiad, creativity enhancement, problem solving, method, cognitive activity, creative task.

Кириш. Ҳар бир математика ўқитувчиси ўз ўқувчилари орасида математикага қизиқувчилар сонини кўпайтиришга интилиши шарт. Бунинг учун ўқувчиларнинг ҳар бир гуруҳи билан дарсдан ташқари машғулотларда мазмун жиҳатдан тўғри келадиган масалаларни аниқлаб, алоҳида ёндашиб ишлаши керак. Тажрибалардан маълумли, мустақкам билим олиш, дарсга масъулият билан ёндашишни шакллантириш учун саёз, қисқа муддатли қизиқувчанликни, интилишни ҳосил қилувчи чора-тадбирлар эмас, балки пухта режалаштирилган дарсдан ташқари машғулотлар керак. Бу каби машғулотлардан бири ўқувчини мактаблараро фан олимпиадаларига тайёрлашдир.

Математикани билмасдан туриб, физикани деярли ўзлаштириш мумкин эмас. Шу боис ўқитувчи геометрияни ўқитишда ўқувчиларни физика дарсларида математик билимларни қўллашга тайёрлайдиган масалалар тизимидан фойдаланиши мақсадга мувофиқ. Ушбу тизимда муҳим ўринни ўқувчилар турли геометрик элементлар ва жадваллар тўғрисидаги билимларини қўллашларини талаб қиладиган вазифалар эгаллайди. Бунинг учун ўқувчилар тегишли масала турини унинг аналитик ифодаси орқали таниб олишлари, формуласини ва ундаги кўриб чиқилаётган физик ҳолатини таққослашлари керак бўлади [5].

Адабиётлар таҳлили. Ҳозирги замон тадқиқотчиларининг таъкидлашларича, математик креативлик ва математик қобилият орасидаги боғлиқликни аниқлаш мураккаб жараён бўлиб, бу боғлиқлик математик креативлик ғояларнинг қарама-қаршилигига, яъни айнан математик мутахассиснинг ақли ва ҳар бир ўқувчида математик креативлик мавжуд ва ривожланиши мумкин деган фикрига асосланган.

Фанлараро алоқаларни амалга ошириш кўникмалари - бу ўқувчининг турдош фанлардан билим ва кўникмаларни узатиш ва умумлаштириш жараёнида алоқаларни ўрнатиш ва ўзлаштириш қобилиятидир. Ҳатто Я. А. Коменский ҳам “Буюк дидактика”



китобда шундай ёзган: “Ўзаро алоқада бўлган ҳамма нарсани худди ўшандек алоқада ўргатиш шарт.”

В. П. Масловнинг баёноти янада қатъирок: “менимча, замонавий математика ва физика бир хил фан. Кўпинча ўйланганидек, жуда кўп, жуда кўп турли хил фанлар эмас, балки етарлича чуқур физик-математик нуқтаи назаридан худди шу фан”.

Мақтабда геометрияни физика билан боғлаб ўқитишда математика бўйича маълум қобилиятга эга бўлган ўқувчиларнинг ўзига хос психикасини ташкил этиш амалга оширилди. Бу “атрофдаги ҳодисаларни мантикий ва математик категориялар бўйича тушуниш”. Математик қобилиятга эга бўлган болалар психикасининг ушбу хусусиятини В. А. Крутецкий ақлнинг математик йўналиши деб атади [4];

Тадқиқотлар методологияси. Ўқувчиларни мактаблараро олимпиадаларга тайёрлашда мактабда геометрияни физика билан боғлаб ўқитишда мактаб ёшидаги математик қобилиятларининг умумий тузилиши схэмасини келтирамиз[3]:

1) мактабда геометрияни физика билан боғлаб ўқитишда математик маълумотни қабул қилиб олиш: математик материални формал қабул қилиб олиши қобилияти, масаланинг формал тузилишини илғаш, илиб олиш;

2) мактабда геометрияни физика билан боғлаб ўқитишда маълумотни қайта ишлаш:

а) сон ва макон муносабати шароитида мантикий фикрлаш, сон ва белги рамзлари қобилияти; математик рамзлар билан фикрлаш қобилияти;

б) математик объектлар, муносабатлар ва ҳаракатларни тез ва кенг умумлаштириш қобилияти;

в) математик мулоҳазалар жараёни ва боғлиқ ҳаракатлар тартибига ўтиш қобилияти, қайта тузиш билан фикрлаш қобилияти;

г) математик фаолият жараёнида фикрлашнинг ўзгарувчанлиги;

д) ҳулосанинг аниқ, оддий, тўғри, оқилона ечилишига ҳаракат қилиш;

е) фикрлаш жараёни йўналишини тез ва мустақил ўзгартириш;

ё) тўғри фикрлашдан тескарисига ўтиш (математик мулоҳазада фикрлаш жараёнининг тесқарилиги) қобилияти;

3) мактабда геометрияни физика билан боғлаб ўқитишда математик маълумотнинг сақланиши: математик хотира (математик муносабатларга умумлашган хотира, намунали тавсиф, мулоҳазалар ва исботлар кўриниши, масалани ечиш ва уларга яқинлашиш принсплари методи);

4) мактабда геометрияни физика билан боғлаб ўқитишда умумий синтетик таркибий қисм: ақлнинг математик йўналиши.

Масалан: **Геометрия. Текисликда векторлар.**

Планиметриянинг муҳим теоремалари. Вектор тушунчаси. Векторларни қўшиш ва айириш. Векторни сонга кўпайтириш. Векторларнинг масалаларни ечишга татбиғи. Векторнинг координаталари. Координаталари берилган векторлар устида амаллар. Векторларнинг скаляр кўпайтмаси. Векторнинг физик ва геометрик талқинлари.

Инновациялар:

1. Физика билан фанлараро ҳамкорлиги: вектор ҳаракатнинг миқдорий тавсифномаси сифатида киритилган.

2. Аниқ тушунчалар тизими бўйича йўналиши - йўналтирилганлиги; вектор модули ва унинг скаляри.

Физиканинг кинематика бўлими. Жисмларнинг ҳаракати. Скаляр ва вектор катталиклар ҳамда улар устида амаллар. Тўғри чизикли текис ҳаракат тезлиги. Нотекис ҳаракатда тезлик. Текис ўзгарувчан ҳаракатда тезланиш. Текис ўзгарувчан ҳаракат тезлиги. Текис ўзгарувчан ҳаракатда босиб ўтилган йўл. Текис тезланувчан ҳаракатланаётган жисм тезланишини аниқлаш. Жимларнинг эркин тушиши. Юқорига тик отилган жисмнинг ҳаракати. Жимнинг текис айланма ҳаракати. Айланма ҳаракатни тавсифлайдиган катталиклар орасидаги муносабатлар. Марказга интилма тезланиш.

Инновациялар:

1. Кинематикада бошиданок бир вақтнинг ўзида нафақат моддий нукта, балки узайтирилган жисмлар ва механизмлар ҳам кўриб чиқилади.

2. Физика ўқитувчиси геометрия дарсларида такомиллаштирилган ва ривожлантирилган вектор тушунчасини тақдим этади.

3. Оний тезлик тушунчаси билан биргаликда ҳосила ва унинг графигига уринма тушунчаси киритилади.

4. Бурчак тезлиги механизмнинг айланма жисмнинг ҳаракатини ўрганиш билан боғлиқ ҳолда киритилади; бунда векторларнинг кўпайтмаси тушунчасидан фойдаланилади.

5. Физика дарслари учун кинематиканинг тескари масаласини ечиш билан боғлиқ ҳолда, интеграл тушунчаси киритилади.

Қондага кўра, геометриядаги кўпгина элементар масалалар учун маълум алгоритмлар, яъни босқичма-босқич ечим режаси мавжуд. Шунинг учун, билган ўқувчилар уларни осонгина ечадилар. Агар масала бир нечта босқичдан иборат бўлса, вазият бироз мураккаблашади, бунда босқичларнинг ҳар бири тўлиқ элементар масала билан яқунланади. Бунда ўқувчининг шартни креатив идрок этиши ва ҳаракат режасини тақдим этиши керак, бошқача айтганда, унинг олдида ечиш алгоритмини куриш вазифаси туради.

Агар алгоритм охир-оқибат тўғри бўлиб чиқса, у ҳолда ечим яна элементар масалаларнинг техник кетма-кет бажарилишига тўғри келади. Шу маънода ўқувчилар креатив фикрлашни ривожлантиришлари керак. Бундай ҳолда муаммонинг ечимини биринчи навбатда “фазода” таҳлил қилиш таклиф қилинади.

Таҳлиллар ва натижалар. Ахборотлашган муҳитда олимпиада ҳаракатининг концептуал қондаларини амалга ошириш қуйидагиларни ўз ичига олади:

- касбий муаммоли вазиятни ўрганишда интеллектуал фаолиятнинг эвристик ёки ижодий даражасига эришиш учун шароит яратиш;

- ўқувчиларнинг мустақил фаолиятини муҳитга мослаштириб бошқариш орқали таълимни индивидуаллаштириш;

- виртуал жамоаларни ташкил этиш ва интерактив когнитив фаолиятни қўллаб-қувватлаш орқали ижодий ўқувчиларнинг коммуникатив қобилиятлари ва етакчилик фазилатларини ривожлантириш [3];

- стресс шароитида фаолиятга тайёргарликни шакллантириш ва психологик стрессни олдини олиш. Қуйида ўқувчиларни мактаблараро олимпиадаларга тайёрлашда креативликни оширадиган масалалардан намуналар келтирамиз.

1. **Учбурчак ва уч доира масаласи.** ABC учбурчакнинг AB , BC ва AC томонларида мос равишда P , Q ва R нукталар ётади. APR , BQR ва CQR учбурчакларга ташқи чизилган айланалар бир нуктада кесишишини исботланг [4].

Ечиш. Шартда кўрсатилган иккита доиранинг кесишиш нуктасини кўриб чиқинг ва уни учинчи доирада ётишини исботланг. Бунинг учун ички чизилган тўртбурчакнинг карама-қарши бурчаклари йиғиндиси ҳақидаги теорема ва унга тескари бўлган теоремадан фойдаланинг.

2. **Параллелограмм ва айлана масаласи.** Берилган $ABCD$ параллелограммнинг AC диагонали BD диагоналидан катта. AC диагонални M нуктада кесиб ўтувчи B , C , D нукталардан айлана ўтказилган. BD диагонал AMB ва AMD учбурчакка ташқи чизилган айланаларнинг умумий уринмаси эканлигини исботланг [4].

Ечиш. B , C ва D нукталардан ўтувчи айланани кўриб ўтамиз (4-расмга қаранг). Бу айлананинг MD ёйига тиркалган MBD ва MCD ички чизилган бурчаклар ўзаро тенг, $\angle MCD = \angle MAB$ бўлганлигидан $\angle MAB = \angle MBD$ бўлади (4-расмга қаранг). Бундан BD тўғри чизиқ AMB учбурчакка ташқи чизилган айлана уринмаси эканлиги келиб чиқади. Худди шундай BD тўғри чизиқ AMD учбурчакка ташқи чизилган айлана уринмаси эканлигини исботланг.



3. Ўрмондан чиқиш масаласи. а). Парашютчи C майдонга эга бўлган ўрмонда. Ўрмоннинг шакли унга маълум эмас, лекин у ўрмонда бўш жой (яйлов) қисми йўқлигини билади. У ўрмондан $2\sqrt{\pi S}$ дан ортик бўлмаган йўлни босиб ўтиб, ўрмондан чиқиши мумкинлигини исботланг. (Бунда парашютчи олдиндан белгиланган шаклдаги йўл бўйлаб ҳаракатланиши мумкин деб фараз қилинади). [4]

Ечиш: Парашютчи $r = \sqrt{S/\pi}$ радиусли айлана бўйлаб юрса, албатта ўрмонни тарк этади. Ҳақиқатдан ҳам, агар бу ўрмон бутун доира ичига жойлаштирилган бўлса, у ҳолда ўрмон майдони $S = \pi r^2$ дан каттароқ бўлган бўлар эди. Расмий равишда масала ҳал қилинди, лекин биз қандай қилиб табиий равишда бундай ечимга келиш мумкинлигини кўрсатамиз ва шу билан бирга биз $2\sqrt{\pi S}$ миқдор энг яхшиси эканлигига ишонч ҳосил қиламиз. Эътибор беринг йўл ёпик бўлишга мажбур ёки ҳеч бўлмаганда ўз- ўзи кесиб ўтувчи нукталарни ўз ичига олиши керак, акс ҳолда L йўл қанча узун бўлмасин l йўл бўйлаб шундай тор чизик шаклидаги ўрмон мавжудки, унинг майдони C дан ошмайди (расмга қаранг). Ушбу мулоҳазаларга асосланиб шуни айтиш мумкинки, парашютчи қандайдир ёпик l йўл бўйлаб юриши керак. Ўрмоннинг ҳар қандай шаклида ҳам ўрмон четига чиқишни асослаш учун майдоннинг l чизик билан чегараланганлиги ва s юзадан кам бўлмаслиги зарур ва етарли. Бунда l йўл имкон қадар қиска қилиб танланса, энг ноқулай вазиятларда ҳам парашютчи ўрмон четига етгунча l йўлни босиб ўтиши керак бўлади. Шундай қилиб, “Яхши йўл” ни танлаш вазифаси қуйидаги саволга тўғри келади: C майдонни чегаралайдиган барча ёпик эгри чизиклар орасидан энг қиска эгри чизикни топинг. Жавоб, сиз билганингиз каби айланани ҳосил қилади.

б) Агар олдинги масала шарти бўйича ўрмон каварик бўлса унда ўрмондан чиқиш йўли узунлиги $k\pi$ билан $\sqrt{2\pi C}$ дан ошмаслигини исботланг.

Ечиш: Парашютчи радиуси $\sqrt{2C/\pi}$ бўлган ярим доира бўйлаб ҳаракатланиши керак. Ўрмондан чиқишни таъминлайдиган бу доира узунлиги айнан $\sqrt{2\pi C}$ ни ташкил этади. Бу йўл яхши эканлигини исботи яққол кўриниб турибди.

с) Ўрмон кенглиги L узунликдаги чизик шаклида бўлсин. $l/2$ радиусли доира бўйлаб ҳаракатланаётган парашютчи πl , дан ортик болмаган йўлни босиб ўтиб, албатта ўрмонни тарк этади. Йўл узунлиги $2.5 l$ дан кам бўлмаган ўрмондан чиқишни таъминлайдиган йўлни ишлаб чиқинг.

Ечиш: Эътибор беринг, тенг томонли учбурчак учбурчак баландлигидан кичик бўлган ҳар қандай чизикдан “чиқади”. Шунинг учун баландлиги l бўлган тенг томонли учбурчакнинг икки томони бўйлаб ҳаракатланаётган парашютчи, албатта, $2 \cdot \frac{2l}{\sqrt{3}} \approx 2.3 l$ дан ортик бўлмаган масофани босиб ўтиб ўрмонни тарк этади.

Бу усулни энг яхшиси эмас деб фараз қилайлик. Якуний жавоб узунлиги $\approx 2.278 l$ бўлган доиралар сегментлари ва ёйларидан ташкил топган жуда мураккаб эгри чизик билан берилади.

4. Тўртбурчак ва тўрт доира масаласи. ABCD каварик тўртбурчак ва тўртта доира берилган бўлиб, уларнинг ҳар бири тўртбурчакнинг бир томонига ва унга туташ қўшни томоннинг давомийлигига уринади. Ушбу доираларнинг марказлари бир айланада ётишини исботланг [4]

Ечиш. Доира марказларини кетма-кет туташтиринг ва берилган тўртбурчакнинг учлари ҳосил бўлган тўртбурчакнинг томонларида жойлашганини исботланг. Бунинг учун айланаларнинг марказлари берилган тўртбурчакнинг ташқи бурчакларининг биссектрисаларида ётишини таъкидлаш кифоя. Худди шу кузатиш сизга қурилган тўртбурчакнинг бурчакларини берилган тўртбурчакнинг бурчаклари орқали ифодалашга ва қурилган тўртбурчакнинг қарама-қарши бурчакларининг йиғиндиси 180° га тенг эканлигини исботлашга имкон беради.

Хулоса. Геометрияни физика билан боғлаб ўқитишда фанлараро алоқадорликни ривожлантириш мазмунидаги ўқув материаллари дидактик тамойиллардан фойдаланиб танланди.

**Адабиётлар:**

1. Попов, А.И. От студенческих олимпиад – к олимпиадному движению / А.И. Попов // *Alma mater: Вестник высшей школы*. – 2012. – № 2. – С. 13–16.
2. Попов, А.И. Олимпиады как инструмент формирования творческих общекультурных компетенций специалистов и оценивания уровня их сформированности / А.И. Попов, Е.А. Ракитина // *Alma mater: Вестник высшей школы*. – 2016 – №1. – С. 71–75.
3. Швацбург, С.И. Межпредметные связи со специальными предметами при преподавании математики. Дидактические проблемы межпредметных связей в системе профтехобразования. М.: Высшая школа, 1980. – 126
- 4 Методики развития креативности // http://moluch.ru/rules/?utm_source=selfad&utm_medium=popup&utm_campaign=archive.
5. Zwicky, F. *The morphological approach to discovery, invention, research and construction* // Zwicky, F., Wilson, A.C. *New methods of thought and procedure*. – Berlin. Springer, 1967
6. Эсаулов, А.Ф. Диалектика технической мысли (закономерности технического творчества). – КГУ, 1989.
7. Андреев, В.И. Педагогика: Учебный курс для творческого саморазвития / В.И. Андреев. – 2-е изд. – Казань: Центр инновационных технологий, 2000. – 608 с.

РЕЗЮМЕ

Мақолада ўқувчиларни мактаблараро олимпиадаларга тайёрлашда креативликни оширадиган масалаларни ечиш усулларни ва уларнинг асосини ташкил этувчи элементлар ақс этган.

РЕЗЮМЕ

В статье отражены методы решения задач, повышающих креативность при подготовке учащихся к межшкольным олимпиадам, и элементами, составляющими их основу.

SUMMARY

In the article reflects active methods of preparing geometry for interschool olympiads in teaching in synchronous and asynchronous connection with physics and the elements that form their basis.



ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ УМУМИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АХБОРОТ - ЛОЙИҲА ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ МОДЕЛИ

Эргашев Ж. Ж.

Тошкент давлат техника университети катта ўқитувчиси

Таянч сўзлар: компетенция, компетентлик, умумий компетенция, педагогик фаолият, лойиҳа, технология, ўқитувчи компетенцияси, ахборот, модел.

Ключевые слова: компетенция, компетентность, общая компетентность, педагогическая деятельность, проект, технология, компетентность учителя, информация, модель.

Key words: competence, competence, general competence, pedagogical activity, project, technology, teacher competence, information, model.

Кириш. Республикамизда касб-хунар таълимини ривожлантириш, таълим жараёнини модернизациялаш ва мазмунини янгилашни таъминлаш мақсадида унинг ҳуқуқий базасини мустаҳкамлаш бўйича комплекс чора-тадбирлар амалга оширилмоқда, иқтидорли ёшларнинг халқаро ва республика олимпиадалари ҳамда танловларда салмоқли натижаларга эришишларида уларни манзилли қўллаб-қувватлаш бўйича қатор тизимли чора-тадбирлар кўрилмоқда. “Умумий ўрта, ўрта махсус ва касб-хунар таълими тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги фармонида ёшларни ҳар томонлама баркамол қилиб, ватанпарварлик ва миллий мустақиллик ғояларига содиқлик руҳида тарбиялашга, шунингдек, ўқувчиларда бой илмий, маданий ва маънавий меросимизга, миллий ва умуминсоний қадриятларга асосланган маънавий ва ахлоқий сифатларни ривожлантиришга йўналтирилган педагогик жараённи янги педагогик шакллар ва усуллар асосида ташкил этиш; юқори самарали ўқув-лаборатория ускуналари, компьютер техникаси ва инновацион технологияларга асосланган парклар билан жиҳозланган касб-хунар коллежларининг замонавий моддий-техника базасини шакллантириш ва янада мустаҳкамлаш, ундан самарали фойдаланиш чора-тадбирларини амалга ошириш каби устувор вазифалар белгилаб берилган [1].

Ўқувчиларнинг мустақил билиш фаолиятини тўғри ташкил этиш умумий ва касбий компетенцияларни шакллантириш, ўқув жараёнини фаол-



лаштириш ва уни индивидуаллаштириш муҳим аҳамиятга эга. Мустақил иш ўқувчиларни тайёрлашнинг бутун ўқув фаолияти давомида амалга оширилади. Ўқув режасининг фанлари таълим стандартида назарда тутилган, шу жумладан умумий компетенцияларни шакллантиришни таъминлайди. Умумий компетенцияларни шакллантириш жараёни фандан ташқари хусусиятга эга бўлиб, таълим олувчиларнинг билим, кўникма ва малакалари мажмуасини шакллантиради, касбий фаолиятда ўз-ўзини ривожлантириш ва ўз-ўзини тарбиялаш стратегияларини шакллантириш имкониятини беради. Тизимли касбий йўналтирилган лойиҳа фаолиятини амалга ошириш орқали таълим олувчиларнинг мустақил ишларини тўғри ташкил этиш АКТ дан фойдаланган ҳолда таълим олувчиларнинг умумий компетенцияларини шакллантириш зарурати ғоясини амалга оширади [2].

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Бир қатор олимлар Н.В.Акамова, И.М.Власова, В.Г.Маняхина, Д.А.Мячин, Т.В.Юрченко, шунингдек, хорижий муаллифлар Н.Брюс, М.Пантера, Ж.Салинос ва бошқа муаллифларнинг асарлари бу муаммоларни ҳал қилишда замонавий ахборот технологиялари катта имкониятларга эга эканлигини кўрсатади.

Ўқув жараёнидаги замонавий педагогик ўзгаришларни ҳисобга олган ҳолда, касб-хунар таълимида таълим олувчиларни тайёрлаш самарадорлигини ошириш мақсадида уларнинг умумий компетенцияларини шакллантиришнинг ахборот-лойиҳа технологияси модели ишлаб чиқилди.

В.А.Кузьминов “педагогик жараённинг моделини яхлит динамик тизим сифатида тақдим этади. Модел ўрганилаётган тизимлар ва жараёнларнинг энг муҳим таркибий қисмларини, хусусиятларини, муносабатларини акс эттиради, бу уларни адекват баҳолаш, ривожланиш тенденцияларини башорат қилиш ва ушбу ривожланишни самарали бошқариш имконини беради [3].

Тадқиқотимиз моделини куришда биз С.И.Архангелский, В.П.Беспалько, М.С.Кагон, Б.Р.Мандель, М.Г.Резниченко ва бошқаларнинг, шунингдек, Л.С.Выготский, С.Л.Рубинштейнларнинг психологик-педагогик ишларининг ютуқларига асосландик.

Педагогикада модел - бу “ўрганилаётган объектга ўхшаш бўлган ҳолда, тузилма, алоқалар хусусиятлари ва муносабатларни оддийроқ шаклда акс эттирувчи ёки кўрсатувчи схема, жадвал, чизма ва бошқа шаклларда сунъий равишда яратилган объект” ҳисобланади [4].

Моделнинг тузилиши ва мазмуни тадқиқот мақсадига боғлиқ бўлиб, ўрганилаётган объектнинг ҳар қандай хусусиятларини ўрганишга имкон беради. Таълим жараёнини моделлаштиришнинг юқоридаги назарий



асосларини таҳлил қилиш ундаги бир нечта нисбатан мустақил, аммо ўзаро алоқадор ва ўзаро боғлиқ элементларни (таркибий қисмларни) ажратиб кўрсатишга имкон беради. Қоида тариқасида педагогик моделга қуйидагилар киради: мақсадли, мазмунли, жараёнли-фаолиятли ва баҳоловчи-нативавий таркибий қисмлар.

Биз М.Г.Резниченконинг фикрига қўшиламыз, унинг таъкидлашича, мақсадни белгилаш босқичида ўқув жараёнининг йўналишини белгиладиган моделнинг мақсадли таркибий қисмининг мазмуни шаклланади. Мақсадли таркибий қисм шахсни ўқитиш, тарбиялаш ва ривожлантириш функцияларининг бирлигини таъминлайди [5].

Тадқиқот методологияси. Моделнинг назарий-методологик асослари бир қатор педагогик тамойиллар орқали амалга ошириладиган таълимнинг танланган ёндашувларида намоён бўлади.

Моделнинг мазмунли таркибий қисми қўйилган мақсад ва вазифалар ҳамда қўлланиладиган таълим методлари ва технологияларига мос равишда турли шаклларда тақдим этиладиган мазмунини акс эттиради.

Моделда жараёнли-фаолиятли таркибий қисм жуда муҳим. Турли педагогик вазиятларга қараб, у ўқитувчилар ва таълим олувчилар ўртасидаги педагогик ҳамкорликнинг шакллари, методлари, усуллари ва воситаларининг маълум тизимини ўз ичига олади.

Моделнинг якуний таркибий қисми баҳоловчи-нативавий таркибий қисм ҳисобланади. У қўйилган ўқув мақсадларига эришиш даражасини тавсифлайди, баҳоланиши керак бўлган кўрсаткичлар ва ушбу баҳоланиш амалга оширишга имкон берувчи воситаларни ўз ичига олади.

Моделнинг тақдим этилган таркибий қисмлари ўртасида турли хил алоқалар мавжуд. Чизиқли боғланишга мисол қилиб, унинг мақсадлари таълим мазмунига тўғридан-тўғри таъсир қилади ва мазмун, ўз навбатида, жараёнли-фаолиятли таркибий қисмига таъсир қилади. Таркибий қисмлар ўртасидаги тесқари алоқа, масалан, натижаларга етарли даражада тўлиқ эришилмаганлиги, мақсадли ва жараёнли-фаолиятли ва таркибий қисмларга тузатувчи таъсир кўрсатади ва уларнинг кейинги ўзгаришларига олиб келади

Моделни яратиш учун биз қуйидаги шартларни ҳисобга олдик:

- педагогик фаолиятнинг концептуал педагогик қоидалари танланди ва асосланди;
- амалга оширилаётган ишларнинг ўзига хос хусусиятларини акс эттирувчи бир қатор тамойиллар орқали таълимга ёндашувлар белгиланди;

- таянч, умумкасбий цикл ва касбий модул фанлари бўйича ЭУММнинг тузилиши ва мазмуни аниқланди;
- таълимнинг ахборот-лойиҳа технологияси ишлаб чиқилди;
- ахборот-лойиҳа технологиясини қўллаш орқали ўқитувчи ва таълим олувчининг биргаликдаги фаолияти босқичлари аниқланди;
- таълим олувчиларнинг умумий компетенцияларининг (мотивацион, билиш, фаолиятли, баҳолаш-рефлексив мезонлар) шаклланиш даражасини баҳолаш учун мезон-диагностика аппарати ишлаб чиқилди.

Ишда олиб борилган тадқиқотлар касб-ҳунар таълими тизимида таълим олувчиларнинг умумий компетенцияларини шакллантириш учун ахборот – лойиҳа технологияси моделини ишлаб чиқиш имконини берди (1-расм).

Ахборот – лойиҳа технологияси ЭАТМ да ЭУММ нинг асосий, умумий касбий фанлар ва касбий модул фанлари тўпламидан фойдаланган ҳолда мотивацион, билиш, интеграциялашган фаолиятли, ўқув-касбий босқичларида амалга оширилади.


Ишлаб чиқилган модел мақсадли, мазмунли, жараёнли ва натижавий-фаолиятли таркибий қисмларни ўз ичига олади ва ўқитувчи раҳбарлигида ЭУММ дан фойдаланган ҳолда тизимли касбий йўналтирилган лойиҳа фаолиятини ташкил этиш орқали мустақил иш доирасида таълим олувчиларнинг умумий компетенцияларни шакллантириш зарурати ва имкониятлари ғоясини амалга оширади.

Моделнинг ҳар бир таркибий қисмини батафсил кўриб чиқамиз [6].

Мақсадли таркибий қисм жамиятнинг ижтимоий буюртмасидан келиб чиққан ҳолда шакллантирилади: ахборот-лойиҳа технологиясидан фойдаланган ҳолда касб-ҳунар таълими тизими таълим олувчиларининг умумий компетенцияларини шакллантириш.

Таҳлил ва натижалар. Ҳар қандай лойиҳа вазифасини амалга ошириш қуйидаги ҳаракатларни ўз ичига олади:

- муаммони танлаш, шу жумладан, топшириқни таҳлил қилиш, ўқитувчи билан мавзу, мақсадларни келишиш;
- ўз фаолиятини ёки гуруҳ фаолиятини режалаштириш: ном танлаш, натижани аниқлаш, вазифаларни ажратиб кўрсатиш;
- лойиҳа топшириғини амалга ошириш, шу жумладан зарур маълумотларни тўплаш ва таҳлил қилиш, ўқитувчи билан маслаҳатлашиш, маълумотларни тузатиш ва аниқлаштириш;
- лойиҳани ҳимоя қилиш - ҳисобот тайёрлаш ва тақдимотни тақдим этиш;



1-расм. Ўқувчиларнинг умумий компетенцияларини шакллантиришнинг ахборот – лойиҳа технологияси модели

– рефлексия – лойиҳанинг амалга оширилишини таҳлил қилиш, эришилган натижалар, мақсадга эришиш таҳлили.

Ўқувчиларнинг билиш ёки касбий фаолиятга тайёргарлигини ривожлантириш ва шакллантиришнинг муҳим омили вазибаларни муваффақиятли бажариш, сифат, маҳсулдорлик ва самарадорликни оширишга ёрдам берадиган муҳим шахсий ва ишбилармонлик фазилатларини шакллантиришдир. Буларга қуйидагилар киради: ташкилотчилик, масъулият, алоқаларни ўрнатишга тайёрлик, вазиятга тез йўналтириш, рефлексия қобилияти. Муҳим фазилатларни шакллантиришга касбий фаолиятни ўз-



лаштириш самарадорлигини белгилайдиган қобилиятларни ривожлантириш ва кенгайтириш орқали эришилади.

Хулоса. Шундай қилиб, касб-хунар таълими тизимида ўқувчиларнинг умумий компетенцияларини шакллантириш учун ишлаб чиқилган ахборот-лойиҳа технологияси модели талабалар ишини мустақил иш шаклида ташкил этишнинг устун шаклига эга бўлган ЭУММ тўплами орқали касбий узлуксиз фанлараро таълим доирасида умумий компетенцияларни шакллантириш зарурати ва имкониятлари ғоясини амалга ошириш имконини беради. Моделни амалга ошириш воситаси муаллифлик ахборот-лойиҳа технологияси ҳисобланади.

Демак, касб-хунар ва умумий ўрта таълим муассасаларида мустақил ишларни ташкил этишнинг методларини назарий ҳамда амалий таҳлил қилиш, фанни ўқитишда креатив методлардан ва илғор хорижий тажрибалардан фойдаланиб дарсларни компьютер технологиялари асосида ташкил қилиш ҳозирги давр талабидир. Мазкур маънода, таълим жараёнида умумий компетенцияларни шакллантириш ўқувчиларда мустақил ишлаш, эркин ва мустақил фикрлаш, ижодий ёндашув кўникмаларини шакллантиришга, янгилик яратишга, фанларни ўрганишга бўлган қизиқиш ҳамда интилишларини ривожлантиради.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 25 январдаги “Умумий ўрта, ўрта махсус ва касб-хунар таълими тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-5313 сон Фармони. <https://lex.uz/docs/3523206>
2. Винник В.К. Информационно-проектное обучение как современный метод организации самостоятельной работы студентов / В.К. Винник, П.Б. Болдыревский, М.Э. Григорян // Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. Серия: Социальные науки, 2015. - № 2 (38). - С. 171-174.
3. Қодиров Х.Ш. Касб таълими ўқитувчиларининг билим ва кўникмаларини шакллантиришда ахборот-коммуникация технологияларини қўллаш методикасини такомиллаштириш // п.ф.ф.д.(PhD) дис.автореферати. Т.:2017. 48 б.
4. Каримов А.А. Касб-хунар таълимида компетенциявий ёндашув асосида рақобатбардош кадрлар тайёрлаш методикасини такомиллаштириш (Ер усти транспорт тизимлари ва улардан фойдаланиш (транспорт турлари бўйича) тайёрлов йўналиши мисолида) // п.ф.ф.д. (PhD) дис. авто. –Т. -2019.-52 б.
5. Мячин Д.А. Информационные технологии в управлении системой качества образовательных услуг высшей школы: дис. канд. экон. наук: 08.00.05 / Мячин Дмитрий Александрович. - Санкт-Петербург, 2011. - 139 с.
6. Нажмиддинова Ё.Р. Коллеж ўқувчиларида касбий кўникмаларни шакллантириш методикасини компетенциявий ёндашув асосида такомиллаштириш (“Гидромелиоратив машина ва жиҳозларидан фойдаланиш ва техник хизмат кўрсатиш” таълим йўналиши мисолида) // п.ф.ф.д. (PhD) дис. авто. –Т. -2017.-52 б.



РЕЗЮМЕ

Мақолада компетенция ва компетентлик тушунчалари ҳамда умумий компетенцияларни шакллантириш илмий асослаб берилган. Шунингдек, ўқувчиларининг умумий компетенцияларини шакллантиришнинг ахборот – лойиҳа технологиялари модели ишлаб чиқилган.

РЕЗЮМЕ

В статье научно обоснованы понятия компетенции и компетентности, а также формирование общих компетенций. Также разработана информационно-проектная технологическая модель формирования общих компетенций обучающихся.

SUMMARY

In the article, the concepts of competence and competency, as well as the formation of general competences, are scientifically substantiated. Also, an information-project technology model of forming the general competencies of students has been developed.





ФИЗИКА ЎҚИТИШДА SMART-ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШГА ОИД ТАРИХИЙ ТАЖРИБАЛАР

Yusupov E. X.

Samarqand davlat universiteti "Umumiy fizika" kafedراسi

Таянч сўзлар: SMART, SMART таълим, SMART-технология, онлайн-таълим, электрон таълим, интерактив хизматлар, масофадан ўқитиш, маълумотларни оммавий ахборот воситалари.

Ключевые слова. SMART, SMART-образование, SMART-технологии, онлайн-образование, электронное обучение, интерактивные сервисы, дистанционное обучение, информационные носители.

Key words. SMART, SMART education, SMART-technology, online education, e-learning, interactive services, distance learning, information media.

Кириш. Жаҳонда таълим тенденцияларига мувофиқ равишда дидактик ҳамда методик ресурсларни SMART-технологиялар асосида такомиллаштиришга алоҳида эътибор берилмоқда. ЮНЕСКО 2030 йилгача халқаро таълим концепциясида «Бутун ҳаёт давомида сифатли таълим олишга имконият яратиш» долзарб вазифа сифатида белгилади. Дунёнинг етакчи олий таълим муассасалари микро, макро ва виртуал таълим муҳитида ўқувчиларнинг билим даражасини ташхислаш, таҳсил олувчиларда физика фанларини SMART-технологиялар асосида ўқитишни такомиллаштириш, инновацион компьютер дастурлари орқали ўқитишда интегратив фойдаланишга аҳамият қаратилмоқда.

Жаҳонда табиий фанлар, жумладан, физика фанини ўқитиш жараёнида ўқувчиларнинг визуал тасаввурини ривожлантириш, фанларни интеграциялаб ўқитиш механизмларини яратиш, методик ва дидактик асосларини такомиллаштириб амалиётга татбиқ этиш, SMART-технологиялар ва интерфаол усуллар асосида лойиҳалаш, жараёнга татбиқ қилиш ва такомиллаштиришнинг илмий асосланган тизимини яратиш, билимларни интегратив ёндашув асосида такомиллаштириш орқали компетентлик ҳамда маданиятни ривожлантириш борасида илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. Мазкур тадқиқотлар физика дарсларида педагогик ва ахборот-коммуникация технологияларини интегратив ёндашув асосида қўллаш,



ўқувчиларда SMART-технологик билимларни ривожлантириш имкониятларини кенгайтирмоқда. Таълим соҳасидаги жараёнлар ўзида жамият, давлат ва ижтимоий ўзгаришларни акс эттиради. Жамиятнинг келажакдаги тараққиёти мактаб олдида қандай вазифалар қўйилганига боғлиқ. Ўқувчиларни битта ўқув режаси асосида ўқитиш ёки уларга эркин таълим бериб, мустақил ҳаётга муваффақиятли тайёрлаш таълим тизими олдида турга муҳим вазифадир.

SMART-технологияларга эҳтиёж кун сайин ўсиб бормоқда. Онлайн-таълим, электрон таълим, интерактив хизматлар порталлари, масофадан ўқитиш, маълумотларни оммавий ахборот воситалари, компьютер дастурлари, интернет орқали узатиш, шахс тарбияси ва таълимида юксак аҳамиятга эга. Йигирманчи асрда таълимга турли технологиялар киритилди, лекин ҳамма технологиялар ҳам ўқув жараёнида муваффақиятли бўла олмади. Ўтмишнинг одатий барча технологиялари кўпроқ ўқитувчиларга йўналтирилган бўлиб, улар анъанавий ўқитиш усуллари билан ишлашга мўлжалланган воситалар эди. Илганиги таълим воситалари ва методлари янги авлод ўқувчиларини ахборотни рақамли қабул қилишга мослашмаган, табиийки, бу таълим жараёни самарадорлигини пасайишига олиб келмоқда. Бугунги XXI асрда, SMART-таълимнинг ривожланиши эса рақамли технологияларнинг янада муваффақиятли қўлланилишини назарда тутди. SMART-таълимни йўлга қўйиш учун ўқитувчилар ўқувчи ва ўқитувчи ҳамкорлигига асосланган инновацияларга мурожаат қилишлари керак.

Ҳозирги кунда Ўзбекистонда «аSMART-шаҳарлар» қурилмоқда (SMART СИТИ, Ташкент СИТИ каби). Бу шаҳарлар SMART таълимга муҳтож. Мазкур таълим SMART-шаҳарлар ривожланишининг асосий компонентиدير. Асосий таълимнинг кучли томонлари, узлуксиз таълим ва сертификатлар, мактаблар ва жамоат коллежлари, электрон таълим инфратузилмаси, малака ошириш тизими ва таълим технологияларига инновацияларни қўллаш кабилар SMART-шаҳар белгисини кўрсатадиган омилларнинг бир қисмини ташкил этади.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Тайван ахборот саноати институтининг рақамли таълим бўйича вице-президенти ва бош директори, доктор И-Чанг Тсай «SMART-шаҳар аҳолиси гуллаб-яшнаши учун биз биринчи навбатда таълимни диққат марказига қўйишимиз керак, битирувчиларга замонавий билимлар, амалий кўникмалар ва ҳамкорликка муносабат берадиган таълим дастурлари SMART-шаҳарлар заруриятидир», дея эътироф этади [1].

Жанубий Кореялик ўқитувчи ва интеллектуал таълим кашшофи, ижтимоий тармоқлар ва булутли интерактив ўқув моделини ишлаб чиққан профессор Бюнг Гук Ку «таълим соҳасидаги инновацияларнинг энг катта имкониятларидан бири бу ўқувчиларнинг янги технологиялар орқали реал дунё билан мулоқот қилишидир», деб ҳисоблайди. Профессорнинг фикрича, замонавий жамиятда ҳозирги энг устувор йўналиш - бу таълимни ахборотлаштириш жараёнидир. Ушбу йўналиш ўқув жараёнини ўқувчиларга ўқитиш ва тарбиялашнинг педагогик мақсадларини амалга оширишга ҳисса қўшадиган мультимедиа технологияларидан амалий ривожланиш ва мақбул фойдаланишни таъминлайди [2].

Доктор И-Чанг Тсайнинг фикрича, таълим технологияларининг қабул қилиниши ва самарадорлиги бошқа ижтимоий тенденциялардан, масалан, истеъмолчилар томонидан рақамли маҳсулотлар ва хизматларнинг тез қабул қилинишидан орқада қолган. Ўқувчилар, ўқитувчилар ва ота-оналарнинг рақамли ва технологияга йўналтирилган хатти-ҳаракатлари ўқув имкониятларини кенгайтириши мумкин эди. Бизнинг фикримизча, индивиднинг шахс бўлиб шаклларишига таъсир этувчи тўрт асосий омил (ирсият, тарбия, муҳит, фаоллик ва фаолият тури) дан иккитаси (муҳит ҳамда фаолият ва фаоллик тури) бугунги давр ўқувчиларини SMART таълим концепциясига яқинлаштирмоқда. Чунки, асосий фойдаланиш, истеъмол маҳсулотлари янги технологиялар, яшаш ҳудудлари SMART-шаҳарлар, компьютерлари SMART-технологиялар элементлари бўлган ўқувчи ўзи англамаган ҳолда SMART-таълимга эҳтиёж сезади.

И.В.Шубина нуқтаи назари билан қараганда, инсон капиталининг таъсири замонавий таълимни ривожлантириш учун етарли эмас. Таълим тараққиётини таъминлаш учун таълим муҳитини ўзгартириш керак, бу эса нафақат меҳнат ресурсларини ўқитиш ҳажмини оширишни, балки таълим мазмунининг ўзи, унинг усуллари, воситалари ва шакллари сифат жиҳатидан тубдан ўзгариши керак, бу орқали SMART таълимига универсал ўтиш зарур бўлади [3]. Бизнинг фикримизча, SMART-таълимга ўтиш стихияли жараён бўлмай, секин-аста, эволюцион йўл билан, босқич-ма-босқич ўтиш кўпроқ самара беради. Чунки, Ўзбекистон шароитида қишлоқ ҳудудларидаги мактабларни аввал энг элементар ҳисобланган электр токи, компьютер, интернет тармоғи билан таъминлаш масаласини биринчи ҳал қилиб олиш зарур.

А.П.Щёголева SMART-технологияларни фақатгина мультимедиа дастурлари мисолида кўради, бу эса, мазкур технологияларни чегараланишига сабаб бўлади.



Тадқиқот методологияси. SMART-жамият мактаблар олдига янги глобал вазифани қўяди: ижодий салоҳиятга эга, янги дунёда фикрлаш ва ишлашга қодир кадрлар тайёрлаш. Бунинг учун уларга янги амалий қўникмаларни ўргатиш керак: ижтимоий тармоқларда мулоқот қилиш, фойдали маълумотларни танлаш, электрон манбалар билан ишлаш, шахсий билимлар базаларини тузиш, бу эса ўқув жараёнининг моҳиятини ўзгартиришни талаб қилади [4]. Ҳар бир мамлакатда SMART-мактаблар концепцияси мазмуни турлича талқин қилинади, лекин барча ҳолларда у янги турдаги жамиятда манфаатдор томонларнинг эҳтиёжларини қондирадиган бир қатор янги эффектларга боғлиқ бўлади.

SMART-мактаб қуйидагиларни назарда тутлади:

- таълимнинг интерактив муҳитида мослашувчанлиги;
- таълимни шахсийлаштириш ва мослаштириш;
- бутун дунё бўйлаб контентга бепул кириш.

Таҳлил ва натижалар. SMART-таълим технологик инновациялар ва, фанларни бир тизимли қўп қиррали фаолияти ва ўрганиш асосида профессионал малакаси сотиб олиш имконияти ўқувчиларга ёрдам беради, интернет ёрдамида амалга оширилади, берилаётган ахборот мазмуни доимий янгилаб борилади. SMARTмактабдаги таълим имкон қадар ўқувчи ҳаётига киритилиши, норасмий бўлиши, шунингдек, бугунги кунда ҳаммага таниш бўлган технологияларга асосланган бўлиши керак. SMART-таълим ўқувчиларининг доимий ўзгариши ва ортиб бораётган талаблари билан ҳамнафас бўлиш учун мактаблар қуйидаги талабларга жавоб бериши керак: мослашувчанлик, ўзгарувчанлик, юқори сифат кўрсаткичлари, инновацион [5]. Муаллифнинг SMART-мактаблар ҳақидаги ушбу фикрига тўла қўшилган ҳолда, юртимиз шароитида SMART-мактабларга қатнашни тўла эркинлаштириш ўқувчининг билим олишига салбий таъсир этиши мумкинлигини қўшимча қилишимиз мумкин.

З.К.Бектурдиеванинг фикрича, SMART таълим тушунчаси қуйидагиларни ўз ичига олади:

1. Таълим жараёни иштирокчиларининг компетенцияларини, шу жумладан расмий ва норасмий ўқув жараёнини узлуксиз ривожлантириш учун интеллектуал муҳитни яратиш, бунинг натижасида олинган янги компетенцияларни қўллаш орқали намоён бўлган хатти-ҳаракатларнинг ўзгариши. Бундай таълимни амалга оширишнинг техник асоси - бу ҳам ўқувчиларга, ҳам ўқув юртларига тегишли бўлган барча қурилмалар мажмуидир: оддий стационар компьютерлар, ноутбуклар, планшетлар, SMARTфонлар ва бошқалар.



2. Мақсад - рақамли жамият ва ақлли иқтисодиётда муваффақиятли фаолият учун зарур бўлган кўникмаларни бериш [6].

Н.В.Днепровская, Е.А.Янковская, И.В.Шевцова SMART-таълимнинг куйидаги асосий тамойилларини шакллантирдилар:

1. Таълим муаммоларини ҳал қилиш учун таълим дастурида тегишли маълумотлардан фойдаланиш. Таълим ва ҳар қандай касбий фаолиятда ахборот оқимининг тезлиги ва ҳажми тез ўсиб бормоқда. Мавжуд ўқув материаллари ўқувчиларни мисоллар ва моделлар бўйича эмас, балки амалий масалаларни ҳал қилишга, реал вазиятда ишлашга тайёрлаш учун реал вақтда келадиган маълумотлар билан тўлдирилиши керак.

2. Ўқувчиларнинг мустақил билим, тадқиқот, лойиҳа фаолиятини ташкил этиш. Бу тамойил профессионал муаммоларни ҳал қилиш, мустақил ахборот ва тадқиқот фаолияти учун ижодий изланишга тайёр бўлган мутахассисларни тайёрлашда муҳим аҳамиятга эга.

3. Тарбия жараёнининг тарқатилган таълим муҳитида амалга оширилиши. Таълим муҳити энди фақат университет ҳудудида ёки масофавий ўқитиш тизими (LMS) билан чегараланиб қолмайди. Ўқув жараёни узлуксиз бўлиши керак, шу жумладан ўқувчилар профессионал муҳитда касбий фаолият воситаларидан фойдаланган ҳолда билим олишлари лозим.

4. Ўқувчиларнинг профессионал ҳамжамият билан ўзаро таъсири. Касбий муҳитда мутахассисларни тайёрлашга нафақат буюртмачи сифатида қаралади, балки ўқув ўқувчиларни жараённинг фаол иштирокчисига айланиши тарафдори. АКТ ўқувчиларга профессионал жамоалар ишида қатнашиш, профессионаллар муаммоларни ҳал қилишини кузатиш учун янги имкониятлар беради.

5. Мослашувчан таълим траекториялари, ўқитишнинг индивидуализацияси. Таълим соҳасига меҳнаткаш фуқароларни жалб қилиш, касбий фаолият турининг тез-тез ўзгариши ва технологиянинг жадал ривожланиши туфайли таълим соҳаси сезиларли даражада кенгаймоқда. Университетга келган ўқувчилар, қоида тариқасида, таълимга бўлган эҳтиёжларини яхши билишади ва шакллантирадилар. Университетнинг вазифаси ўқувчининг талаб ва имкониятларига мос келадиган таълим хизматини кўрсатишдир.

6. Тарбиявий тадбирларнинг хилма-хиллиги ўқувчиларнинг таълим дастурлари ва курсларини ўрганишлари учун кенг имкониятлар яратилишини, ўқув жараёнида асбоб-ускуналардан фойдаланишларини, уларнинг саломатлик имкониятларига, моддий ва ижтимоий шароитларига мос келишини талаб қилади [7].



Хулоса ва таклифлар. Юқоридаги хорижлик олимларнинг ишлари таҳлили шуни кўрсатдики, Россия, АҚШ, Жанубий Корея, Тайван, Сингапур, Япония каби ривожланган ҳамда ривожланаётган давлатларда SMART-технологиялар юзасидан кўпгина ишлар амалга оширилган. Бу борада Марказий Осиё давлатлари, хусусан Ўзбекистон мазкур соҳада сезиларли даражада ортда қолгани маълум бўлди.

Адабиётлар:

1. SMART Education for Smart Cities: Visual, Collaborative & Interactive. 2019, <https://hub.beesmart.city/en/solutions/smart-people/smart-education/viewsonic-smart-education-for-smart-cities>.
2. ByeongGuk Ku. Can you describe how your professional achievements have advanced innovation in education?
<http://www.dailyledventures.com/2013/03/11/korea/>
3. Шубина Ирина Владимировна. SMART и развитие современного образования // Статистика и экономика. 2015. №3. URL:
<https://cyberleninka.ru/article/n/smart-i-razvitie-sovremenного-obrazovaniya>.
4. Гуманитарные аспекты образования, творчества и свободы личности: Сборник статей / М.Е. Кудрявцева. - М.: Директ-Медиа, 2014.
5. Гуманитарные аспекты образования, творчества и свободы личности: Сборник статей / М.Е. Кудрявцева. - М.: Директ-Медиа, 2014.
6. Бектурова Злиха Капаровна. ИНТЕРАКТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ SMART В ОБУЧЕНИИ. Республиканская научно-практическая конференция «Smart-технологии в системе повышения квалификации: международный опыт и отечественная практика» в рамках празднования 25-летия Независимости Республики Казахстан. 2016, <https://zkoipk.kz/ru/2016smart3/2224-conf.html>.
7. Днепровская Н.В., Янковская Е.А., Шевцова И.В. (2015). Понятийные основы концепции SMART-образования. Открытое образование. (6): 43-51.

РЕЗЮМЕ

Мақолада SMART таълим тушунчаси XXI асрда, SMART-таълимнинг ривожланиши эса рақамли технологияларнинг янада муваффақиятли қўлланилишини назарда тутади. SMART-таълимни йўлга қўйиш учун ўқитувчилар ўқувчи ва ўқитувчи ҳамкорлигига асосланган инновацияларга мувофиқ килиниши илмий асосланган.

РЕЗЮМЕ

В статье концепция SMART-образования в 21 веке, а также развитие SMART-образования предполагает более успешное использование цифровых технологий. Научно доказано, что учителя обращаются к инновациям, основанным на сотрудничестве ученика и учителя, для реализации SMART-обучения.

SUMMARY

In the article, the concept of SMART education in the 21st century, and the development of SMART-education implies a more successful use of digital technologies. It is scientifically proven that teachers turn to innovations based on student-teacher collaboration to implement SMART-learning.



МАТЕМАТИКА, ФИЗИКА ВА УМУМКАСБИЙ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА КАСБ-ХУНАР МАКТАБЛАРИ ЎҚУВЧИЛАРИНИ КАСБГА ТАЙЁРЛАШ АСПЕКТЛАРИ

Тўймурадов З.

техника фанлари номзоди, Қариши давлат университети доценти

Таянч сўзлар: касб-хунар мактаби, ўқувчиларнинг касб-хунарга мойиллиги, ўқувчиларни касбга тайёрлаш, умумтаълим ва умумкасбий фанларни ўқитиш, масала шартини касб мазмунига мослаб ўзгартириш, машгулот мазмунини касбга йўналтириш.

Ключевые слова: профессионально-техническое училище, тяга учащихся к профессии, подготовка учащихся к профессии, преподавание общеобразовательных и общепрофессиональных предметов, изменение условия выпуска по содержанию профессии, направленность содержания обучения на профессию.

Key words: vocational school, students' desire for a profession, preparing students for a profession, teaching general education and general professional subjects, changing the graduation conditions according to the content of the profession, the focus of the content of training on the profession.

Касб-хунар мактаблари IX синф битирувчилари негизда бепул асосда кундузги таълим шакли бўйича умумтаълим ва мутахассислик фанларининг 2 йиллик инеграциялашган дастурлари асосида амалга ошириладиган бошланғич профессионал таълим муассасалари бўлиб [1], ўқувчиларининг касб-хунарга мойиллигини, маҳорат ва малакасини чуқур ривожлантиришни, танланган касблар бўйича бир ёки бир неча ихтисосликка эга бўлишини таъминлайди. Ушбу таълим муассасаларида ўқувчиларни касбга тайёрлаш ишларини амалга ошириш мақсадида ўқув режаларида махсус фанларни ўқитиш, ўқув, ишлаб чиқариш ва дипломолди амалиётлари, касбий – амалий имтиҳон ҳамда битирув малакавий иши каби тадбирларни ўтказиш кўзда тутилади.

Ушбу тадбирлардан ташқари, касбга тайёрлашнинг қўшимча имкониятлари ишга солинса етиштирилаётган кадрларнинг янада баркамол бўлиши шубҳасиз. Ана шундай имкониятлардан бири, бизнингча ўқувчиларга умумтаълим ва умумкасбий фанларни ўқитиш жараёнида касбга тайёрлашдир.

Маълумки, умумтаълим фанлари кичик мутахассис шахсини ҳар томонлама мукаммал қилиб шакллантириш мақсадида ўқитилади. Уларнинг ўқитилиш даври асосан 1 – босқичга тўғри келади. Бу даврда ўқувчиларнинг ўзи танлаган касбига қизиқиши жўш уриб турган, аммо бу қизиқиш вақтинча қондирилмай турган бўлади. Чунки махсус фанлар асосан 2 – босқичда ўтилади. Ана шу даврда ўтилаётган умумтаълим фанларини иложи борича мутахассислик билан боғлаб ўтиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз ва қўйида бу ишни математика ҳамда физика фанларини ўқитишда қандай амалга ошириш мумкинлигига тўхталамиз.

Математика ва физика фанлари техникавий фанларнинг асосини ташкил қилади. Бу фанларни билган ўқувчида техниканинг ҳар қандай соҳасини эгаллашига ўзида ишонч



пайдо бўлади. Ушбу фанларни ўқитиш жараёнида ўқувчиларни касбга тайёрлаб бориш мумкин. Бунинг учун ўтиладиган мавзуларни касб – ҳунар мактаби тайёрлайдиган ихтисосликларга боғлаб ўтишни тавсия қиламиз. Мавзуларни мустаҳкамлаш учун ечиш тавсия этиладиган масала ва мисолларнинг мазмунини ўзгартирмаган ҳолда шартини ўзгартириш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. Куйида ўқувчиларни темирийўлчилик ихтисосликларига тайёрлаш мақсадида математика ва физика фанлари учун тавсия этилган дарсликлардаги масала ва мисоллар шартларини ўзгартириш методикасидан намуналар келтирамиз:

Математика фани мисолида:

Масала шартининг берилиши:

А тўплам театрга ташриф буюрган томошабинлар тўплами, Б – театрдаги ўриндиклар тўплами бўлсин. Бу тўпламлар орасида ўзаро бир қийматли мослик ўрнатиб бўладими? [2].

Масала шартининг ўзгартирилиши:

А тўплам йўловчи поезде вагонига чиққан йўловчилар тўплами, Б – вагондаги ўриндиклар тўплами бўлсин. Бу тўпламлар орасида ўзаро бир қийматли мослик ўрнатиб бўладими?

Юқорида келтирилган мисолдан кўриниб турибдики, дарсликдаги математик масаланинг шартини мазмунига зарар етказмаган ҳолда ўзгартириб, бўлғуси темирийўлчилар учун кизиқарли масалага эга бўлди. Энди ўқувчилар театрга ташриф буюрган томошабинлар ва театрдаги ўриндиклар тўпламлари орасидаги бир қийматли мосликнинг ўрнига, йўловчи поезде вагонига чиққан йўловчилар ва вагондаги ўриндиклар тўпламлари орасидаги бир қийматли мосликни ўрганадилар.

Физика фани мисолида:

Масала шартининг берилиши:

Агар тормозланишдаги ишқаланиш коэффиенти 0,4 га тенг бўлса, 12 м/с тезлик билан ҳаракатланаётган автобус қанча вақтдан кейин тўхтайдиган? [3].

Масала шартининг ўзгартирилиши:

Агар тормозланишдаги ишқаланиш коэффиенти 0,02 га тенг бўлса, 12 м/с тезлик билан ҳаракатланаётган юк поезде қанча вақтдан кейин тўхтайдиган?

Масала шартдаги «автобус»нинг ўрнига «юк поезде» тушунчаси киритилиши билан, масала бўлғуси темирийўлчилар учун кизиқарли шаклга келди. Бу масалага яна бир ўзгартириш киритилди – ишқаланиш коэффиенти 0,02 га тенг деб олинди, чунки темирийўл рельси билан ғилдирак жуфтлиги орасидаги ишқаланиш коэффиенти кичик бўлиб, кор ёққанда ва яхмалак тушганда унинг қиймати янада кичрайдиган. Бу тушунчаларни ўқувчи кизиқиш билан ўзлаштиради. Унинг тасаввурда оддий ҳисоб – китобдан ташқари темирийўлчилик касбларининг дастлабки кўникмалари шаклланиб боради.

Демак, физика ва математика фанларини касб – ҳунар мактабларидаги таълим йўналишларига боғлаган ҳолда ўтиш мумкин. Агар бу иш мунтазам равишда амалга ошириб борилса, дарсликларда ҳар бир мавзунини мустаҳкамлаш учун берилган мисол – масалаларнинг бир ёки бир нечаси юқорида келтирилган тартибда шаклини ўзгартириб ечиб борилса, ўқувчилар ўз касбларини эгаллашга малакавий ва психологик жиҳатдан тайёрланиб борадилар, келгусида улардан етуқ мутахассислар тайёрлаш мумкин бўлади.

Ўқувчиларга умумқасбий фанларни ўқитишга тўхталадиган бўлсак, буларни ҳам иложи борича мутахассислик билан боғлаб ўтиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. Мухандислик йўналишларининг умумқасбий фанлари сирасига кирувчи “Техникавий механика”, “Чизмачилик”, “Меҳнат муҳофазаси”, “Материалшунослик”, “Электротехника ва электроника асослари”, “Стандартлаш ва метрология” каби умумтехника фанларини ўқитиш жараёнида касб–ҳунар мактаби ўқувчиларини касбга тайёрлаш аспектига тўхталамиз.


Умумтехника фанлари муҳандислик таълим йўналишларининг умумқасбий фанлари бўлиб, уларнинг ўқув дастурлари муҳандисликнинг ҳамма ихтисослик учун умумий



бўлган тушунчаларини ёритиш билан чекланишини кўзда тутган. Дарсликларда эса, назарий тушунчалар умумтехникавий мисоллар орқали ёритилмоқда. Агар назарий тушунчалар касбга тааллуқли мисоллар ёрдамида ёритилса ўқувчилар умумкасбий фанларни ўзлаштириш жараёнидаёқ касб тушунчаларини ўрганиб, мутахассислик кўникмаларини эгаллаб борадилар. Бу ишни амалга оширишни Техникавий механика фанини “Автомобилчи” ва “Темирйўлчилик” таълим йўналишларида ўқитиш мисолида кўриб чиқайлик:

Мавзу: Текисликдаги кучларнинг мувозанат шартлари [4].


Мисолнинг берилиши: Текисликдаги ихтиёрий кучлар тизими:



$$\sum X_i = 0 \quad \sum Y_i = 0 \quad \sum M_B(\vec{F}_i) = 0$$


Мисолнинг ўзгартирилган шакли:

Автобуснинг ғилдирагига таъсир этувчи текисликдаги кучлар тизими (“Автомобилчилик” таълим йўналишлари учун):



- F_a – автобуснинг оғирлик кучи;
- F_{of} – ғилдиракнинг оғирлиги;
- F_p – йўлнинг реакция кучи;
- F_t – тормоз кучи;
- F_i – инерция кучи.

Поезд вағони ғилдирагига таъсир этувчи текисликдаги кучлар тизими (“Темирйўлчилик” таълим йўналишлари учун):



- F_B – вагоннинг оғирлик кучи;
 F_{OF} – гилдиракнинг оғирлиги;
 F_p – рельснинг реакция кучи;
 F_T – тормоз кучи;
 $F_{и}$ – инерция кучи.

Техник механика фанидан назарий машғулот шартини ўзгартиришга мисол келтирдик. Мисолнинг дарсликда берилган варианты анча мавҳум бўлиб, унинг ўзгартирилган варианты бўлажак автомобилчи ва темирйўлчилар учун конкрет ва кизикарлидир.

Чизмачилик фанини ўқитишда ҳам машқларни мутахассисликда қўлланадиган детал ва узелларни чизган ҳолда бажаришни тавсия қиламиз. Материалшунослик фанининг деярли ҳар бир мавзусини касб билан боғлаш мумкин, чунки муҳандислик ихтисосликларида қўлланадиган материаллар камрови ниҳоятда кенгдир.

Меҳнат муҳофазаси фанининг ўқув дастури умумий меҳнат муҳофазаси мавзулари билан чекланган. Ҳар бир мавзунини ёритишда мутахассислик меҳнат муҳофазасининг тегишли қисмидан фойдаланиш ўқувчиларни ўз бўлажак касбларига янада яқинлаштиради.

Мазкур мақолада кўзда тутилган мақсад йўлида муаллиф томонидан олиб борилган ишлар олдин ҳам матбуотда ёритиб борилган [5; 6].

Демак, физика, математика ва умумтехника фанларини касб – ҳунар мактабидаги таълим йўналишлари мутахассисликларига боғлаган ҳолда ўтиш мумкин. Агар бу иш мунтазам равишда амалга ошириб борилса, дарсликларда ҳар бир мавзунини мустақамлаш учун берилган мисол – масалаларнинг бир ёки бир нечтаси юқорида келтирилган тартибда шаклини ўзгартириб ечиб борилса, ўқувчилар ўз касбларини эгаллашга малакавий ва психологик жиҳатдан тайёрланиб борадилар, бу эса келгусида улардан етук мутахассислар тайёрланишига замин бўлади. Келажакда эса, ҳар бир муҳандислик таълим йўналишининг ўз математика дарслиги, ўз физика дарслиги ва умумтехника фанларининг ҳар биридан ўз дарслиги яратилиши лозим.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг 23.09.2020 йилдаги Таълим тўғрисидаги О'РҚ-637-сон қонуни. Кучга кириш санаси 24.09.2020. 7; 10-моддалар.



2. Меликулов А. ва бошқ. Математика. I қисм. Касб – ҳунар коллежлари учун ўқув қўлланма. Т.: «Ўқитувчи» 2004. 35 б.
3. Ганиев ва бошқ. Физика. I қисм. Академик лицей ва касб – ҳунар коллежлари учун ўқув дарслик. Т.: «Ўқитувчи» 2003. 2-боб. 3 – масала, 44 б.
4. Набиев А. ва бошқ. Техник механика. Касб – ҳунар коллежлари учун синов дарслиги. Т.: «Шарқ» 2005. 30...31 б.
5. Тўймурадов З.Х., Тўймурадов З.З. Математика ва физика фанларини ўқитиш жараёнида мактаб ўқувчиларининг психологик имкониятларини ҳисобга олиш. Республика илмий-техник конференцияси. Қарши давлат университети. 2010йил.
6. Тўймурадов З.Х., Тўймурадов Ш.М. Умумтехника фанларини ўқитиш жараёнида коллеж ўқувчиларини касбга тайёрлаш аспекти. ҚарМИИ, “Инновацион технологиялар” журналы 4(8)-сон 2012 йил, 69...72 б.

РЕЗЮМЕ

Мақолада касб-ҳунар мактаблари ўқувчиларини математика, физика каби умумтаълим, техникавий механика, чизмачилик, материалшунослик, меҳнат муҳофазаси каби умумқасбий фанларни ўқитиш жараёнида касбга тайёрлаш методикаси ёритилган.

РЕЗЮМЕ

В статье описана методика профессиональной подготовки учащихся профессионально-технических училищ в процессе обучения общеобразовательным дисциплинам, таким как математика, физика, техническая механика, черчение, материаловедение, охрана труда.

SUMMARY

The article describes the methodology of professional training of students of vocational schools in the process of teaching general education disciplines, such as mathematics, physics, technical mechanics, drafting, materials science, labor protection.



К ВОПРОСУ О ЦИФРОВИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Наркабилова Г. П.

докторант Ферганского государственного университета

Tayanch so'zlar: raqamlashtirish, axborotlashtirish, kompyuterlashtirish, kompyuter kompetentsiyasi, AKT kompetentsiyasi, axborot kompetentsiyasi.

Ключевые слова: цифровизация, информатизация, компьютеризация, компьютерная компетентность, ИКТ-компетентность, информационная компетентность.

Key words: digitalization, informatization, computerization, computer competence, ICT competence, information competence.

Проблема формирования цифровой культуры будущих учителей является не только актуальной, но сложной. Эволюция человечества прошла долгий путь от создания каменных орудий до высоких технологий. Тенденция цифровизации коснулась всех отраслей жизнедеятельности человека: начиная экономикой и заканчивая образованием. Современные условия требуют от образования выпуск грамотных, уверенных, владеющих современными технологиями специалиста.

Республика Узбекистан также вступила на путь модернизации и обновления бытовой и профессиональной сферы еще 15 лет назад, начав с этапов компьютеризации, информатизации.

Масштабная цифровизация является результатом благополучного прохождения, освоения и принятия этапов компьютеризации и информатизации. Прорыв в области информационных технологий, а также последовавшая за ним компьютеризация и информатизация предоставили максимальный доступ населению к ценной информации, облегчили средства ее поиска, хранения, анализа и обработки. Термин «компьютеризация» – основной, он касается технических способов производства, сохранения, поиска и обмена информацией с помощью компьютеров, это процесс, начало которого относится к 40-м годам прошлого века. Это процесс совершенствования средств поиска и обработки информации на основе расширения внедрения компьютерной техники. М.Г. Лазар указал социальными последствиями компьютеризации, которые повлияли на промышленность; изменение коммуникационных стратегий, появление определенных новых



социальных групп, жизнедеятельность которых непосредственно связана с компьютерными сетями; появление новых видов интеллектуальной деятельности, а, следовательно, интеллектуальной собственности; становление «киберкультуры», переоценка ценностей.

Компьютеризация в Республике Узбекистан началась еще в 2000 г., когда «в целях формирования национальной системы информатизации, массового внедрения и использования во всех сферах экономики и жизни общества современных информационных технологий, средств компьютерной техники и телекоммуникаций, наиболее полного удовлетворения растущих информационных потребностей граждан, создания благоприятных условий для вхождения в мировое информационное сообщество и расширения доступа к мировым информационным ресурсам» был принят Указ Президента Республики Узбекистан от 30 мая 2002 года №УП-3080 «О дальнейшем развитии компьютеризации и внедрении информационно-коммуникационных технологий». В целях обеспечения практических мер по реализации стратегических приоритетов в области информационно-коммуникационных технологий, принятый данным указом было принято постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 6 июня 2002 года № 200 «О мерах по дальнейшему развитию компьютеризации и внедрению информационно-коммуникационных технологий».

Широкое внедрение информационно-коммуникативных технологий вслед за компьютеризацией, который определил следующий этап - процесс информатизации, который обеспечит условие для информационного общества, совершенствование способов защиты информации, развитие технической инфраструктуры и нормативно-правовой базы в нашей стране, что подтверждается принятием Закона Республики Узбекистан «Об информатизации». Целью которого является регулирование отношений в области информатизации, использования информационных ресурсов и информационных систем.

Информатизация предоставляет доступ граждан к мировым и национальным информационным ресурсам, создает новые направления: электронная коммерция, дистанционное образование, электронное здравоохранение, развитие информационно-коммуникативной инфраструктуры страны, производство программных продуктов, предоставление информационных услуг, совершенствование законодательной базы в сфере информатизации, подготовка специалистов владеющих ИКТ и компьютерной грамотностью. Процесс информатизации связан с овладением информацией как ключевым ресурсом общественного развития, в результате которого общество становится более интеллектуальным и созидательным, а также демократичным.



Процессы компьютеризации и информатизации не могли не отразиться на образовании, где открываются неограниченные возможности для обучающихся, формируются компьютерная компетентность, ИКТ-компетентность, информационная компетентность. Возросший объем информации в связи с развитием ИТ ставит перед обучающимися теперь новые требования не только владение ИКТ, но и анализ, сбор, правильный выбор информации, ее критическое оценивание, организация ресурсов. У учащихся появляются новый навык - навык самостоятельного приобретения знаний, вследствие чего формируется информационная культура учащихся. Можно говорить «о необходимости наличия у современного человека информационной культуры как элемента культуры общечеловеческой и как обязательного условия комфортного существования в социуме, а ее формирование оказывается одной из важнейших задач системы образования». Это кардинально отражается на стиле проведения занятия, выбор средств и методов, полное восприятие информации за счет использования различных аудиовизуальных средств, стала организованнее самостоятельная учебно-познавательная деятельность. Результатом активной информатизации и компьютеризации в Узбекистане явилось оснащение всех видов образовательных учреждений системы образования компьютерами, весь педагогический состав прошел подготовку по эффективному использованию ИТ в целях формирования компьютерной грамотности, появление новых программных продуктов и средств в обучении, начали разрабатывать электронные методические, дидактические материалы, ввели курсы дистанционного обучения, создали информационные базу ресурсов. Можно посмотреть, что эра информатизации медленно сменилась эрой цифровизации. Появление термина «цифровизация» в науке является спорным вопросом. Лаптев В. В. описывал, что термин «цифровизация» появился в связи с интенсивным развитием информационно-коммуникационных технологий. Давоссе Клаус Шваб, называя первую цифровую революцию 1960–1980 годов «промышленной», полагает, что ее катализатором стало развитие полупроводниковых ЭВМ, в 60–70-х — персональных компьютеров, в 90-х — сети интернет]. Также весьма распространена информация о том, что термин «цифровизация» впервые был введен в 1995 Н.Негропonte американским информатиком из Массачусетского университета использовал понятие «цифровая экономика». В своей книге *Being Digital* автор предположил, что цифровые медиа займут существенное место и станут неотъемлемой частью нашей повседневной жизни. Обработка данных станет определять нашу жизнь, не замыкаясь только на компьютерах. Именно Негропonte заявил, что параллельность между органическим миром и миром, созданным человеком



стирается и они взаимопроникают друг в друга, становясь единой средой существования человека. Для детального разъяснения данного термина можно обратиться к Оксфордскому толковому словарю. Произшедший от английского языка слова «digitalization» (цифровизация) означает процесс преобразования данных в цифровую форму, которая может быть легко прочитана и обработана компьютером.

В коллективной работе Данилова Л.Н и т.д, дается анализ термина цифровизации с точки зрения экономической информатики, которая включает в себя два подхода к пониманию явления цифровизации: технический (перевод аналоговой информации в цифровую, как синоним оцифровке (Digitisierung)) и операционный (перенос на компьютер задач, которые прежде выполнял человек). В работе авторы рассмотрели данный термин с двух подходов: сканирование бумажных источников для их дальнейшего электронного использования и как форму автоматизации данных с помощью информационных технологий.

Первый подход – это оцифровка бумажных источников позволяет и обеспечивает доступ к редким изданиям книг, сохранения большого объема материала, для сокращения специализированной техники, например, как диаскопический проекционный аппарат. Второй подход же интерпретирует цифровизацию как форму автоматизации данных с помощью информационных технологий. В качестве примера авторы издания приводят системы отслеживания, которые анализируют активность поисковых запросов пользователя в интернете и предлагают соответствующие услуги, или обращение представителей сайта к пользователю с предложением помощи.

В Узбекистане поворотным моментов в цифровизации начался с изданием Указа Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации». «Дорожная карта» по реализации Стратегии «Цифровой Узбекистан — 2030» утверждается в области развития электронного правительства; развития цифровой индустрии, цифрового образования; цифровой инфраструктуры.

Одна из основных задач Стратегии в образовании – это привить и сформировать цифровую грамотность учащихся, педагогического состава учебных заведений, обучить женщин и молодежь цифровым технологиям, создание специализированных школ с углубленным изучением информатики и информационных технологий для творческого развития и обучения учащихся основам компьютерного программирования. Как можно заметить ИКТ-компетентность, ИКТ-грамотность, цифровая грамотность уже не является прерогативой только специалистов IT-профессии. Следовательно,



изменения входящие в жизнь людей требуют формирования новых навыков, умений, компетенций, и требуют изменения в системе высшего образования. Активная цифровизация влияет на образование: новая среда, форма дистанционного обучения, форма смешанного обучения, новые онлайн-технологии, большой поток информации – это требует перехода изменения в системе образования и обращения к цифровым технологиям. Меняется роль педагога и студента: из пассивного слушателя студент превращается в активного участника процесса, который должен не только самостоятельно добывать информацию, но и сформировать у себя навыки цифровой грамотности. Педагог же является своеобразным путеводителем, который помогает критически оценить информацию, отсортировать и проанализировать ее. Возникает потребность в формировании цифровой культуры студентов для адаптации к новым и постоянно меняющимся технологиям.

Литература:

1. Лазар Михай Гаврилович Цифровизация общества, ее последствия и контроль над населением // Проблемы деятельности ученого и научных коллективов. 2018. №4 (34). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovizatsiya-obschestva-ee-posledstviya-i-kontrol-nad-naseleniem> (дата обращения: 10.01.2023).
2. <https://lex.uz/docs/152472>
3. <https://lex.uz/docs/267046>
4. <https://lex.uz/acts/82956>
5. Barinova, Darina, et al. «Pedagogical assessment of general professional competencies of technical engineers training.» *Annals of DAAAM & Proceedings, annual 2019*, pp. 508+. Gale Academic OneFile, link.gale.com/apps/doc/A627003441/AONE?u=anon~59b9ed3&sid=googleScholar&xid=142edff8. Accessed 11 Jan. 2023.
6. Никулина Татьяна Валерьевна, Стариченко Евгений Борисович Информатизация и цифровизация образования: понятия, технологии, управление // Педагогическое образование в России. 2018. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/informatizatsiya-i-tsifrovizatsiya-obrazovaniya-ponyatiya-tehnologii-upravlenie> (дата обращения: 12.01.2023).
7. Лаптев В. В. Методология визуализации. — М. : Мир, 2011. — 304 с
8. Negroponte N. *Being Digital*. – NY: Knopf, 1995.
9. Данилова Л. Н., Ледовская Т.В., Солянин Н.Э., Ходырев А.М. Основные подходы к пониманию цифровизации и цифровых ценностей // Вестник Костромского государственного университета.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada raqamlashtirish, axborotlashtirish va kompyuterlashtirish jarayoni muhokama qilinadi. Rivojlanish tarixi, «raqamlashtirish» atamasining paydo bo'lishi, O'zbekistonda «raqamlashtirish» ning boshlanishi va normativ-huquqiy hujjatlarda aks etishi, ta'limni raqamlashtirish zarurati haqida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье обсуждается процесс цифровизации, информатизации и компьютеризации. История развития, появление термина «цифровизация», наступление «цифровизации» в Узбекистане и отражение в нормативно-правовых актах, необходимость цифровизации образования.

SUMMARY

This article discusses the process of digitalization, informatization and computerization. The history of development, the emergence of the term «digitalization», the onset of «digitalization» in Uzbekistan and reflected in regulatory legal acts, the need for digitalization of education.



МАКТАБДА ГЕОМЕТРИЯНИ ЎҚИТИШДА GEOGEBRA ТЕХНОЛОГИЯСИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИ КРЕАТИВЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕТОДИКАСИ

*Собирова М.
(PhD), ДТПИ
Чориева Ю.*

ДТПИ магистранти

Таянч сўзлар: креативлик, креатив, фаолият, планиметрия, теорема, геометрик тасдик, геометрик мухит, динамик геометрия, Geogebra, технология, компьютер, исботлаш.

Ключевые слова: творчество, творчество, деятельность, планиметрия, теорема, геометрическое доказательство, геометрическая среда, динамическая геометрия, Geogebra, технология, компьютер, доказательство.

Key words: creativity, creativity, activity, planimetry, theorem, geometric proof, geometric environment, dynamic geometry, Geogebra, technology, computer, proof.

Бугунги кунда математика ўқитиш методикасида динамик геометрия тизими (DGS): Crocodile, Cabri Geometre, Geogebra, Cinderella, GeoNext, “Жонли математика”, “Жонли геометрия” кенг қўлланиланилмоқда. Geogebra бу - эркин қўлланиладиган геометрик мухит бўлиб, планиметриядя чизмаларни яратишга имкон беради, хусусан, циркуль ва чизгич ёрдамида фойдаланилади. Уни Маркус Хохенвартер номли дастурчи фанга киритган. Охирги марта дастурни 2012 йилда қайта ишлаб чиққан. Дастур дунёнинг

28 тилига таржима қилинган бўлиб, айна вақтда фаол ривожлантирилмоқда. Geogebraнинг асосий хусусияти шундаки, компьютерда виртуал динамик моделларни яратиш, улардан фойдаланиш, яъни дастурнинг график ойнасида геометрик объектларнинг расмлари, яшаш алгоритмини амалга оширмасдан дастлабки параметрларни ўзгартиришга имкон беради.

Кўпгина тадқиқот ишлари шуни кўрсатадики, компьютерда виртуал динамик моделлар теорема ва масалалар исботининг турли этапларида қўлланилади: муаммонинг қўйилиши (теоремани ўрганиш мотивацияси); фаразнинг қўйилиши (теорема ҳаққонийлиги билан танишиш ёки кашфиётга эришиш); текширув, исбот, фаразларни рад этиш (шаклларни ва ху-



лосаларни аниқлаш, теорема мазмунига тескари таҳлил қилиш, аналитик мулоҳазалар қилиш); олинган билимлар асосида назария ва амалиёт уйғунлигини ривожлантириш (теоремаларни қўллаш; ўрганилаётган теоремаларнинг бошқа теоремаларга боғлиқликларини ўрнатиш; исботланган тасдиқ асосида янги масалалар тузиш) [1,36 б].

Geogebra технологияси геометрияни ўқитишда ўқувчи креатив фаолиятини ривожлантириш, геометрик тасдиқлар билан ишлаш методикасини қўллашда катта имкониятларга эга. Қуйида Geogebra технологиясини қўлламасдан олдинги теорема исботининг схемасини келтирамиз. Бу схемада “исбот” атамаси дедуктив метод орқали амалга ошириляпти, яъни бирор қоидани бошқа қоидага асосланиб исботлаш

(А.А. Столяр, В.А. Далингер, Г.И. Саранцев ва бошқалар) [2,128 б].

Geogebra воситасида ишлаш технологияси исботлашнинг учта босқичини ўз ичига олади:

1-босқич. Геометрик тасдиқларни амалий текширишга қўллаш.

2-босқич. Компьютерда тажриба ўтказиш мақсадида динамик чизилган яшаш алгоритмининг тўғрилигини мантиқий назорат қилишни ўрнатиш босқичи.

3-босқич. Дедуктив исботлашни ўргатиш босқичи.

Geogebra воситасида ишлаш технологиясини интеграциялашнинг методик схемаси қуйидагича:



Geogebra воситасида ишлаш технологиясидаги ҳар бир босқичнинг ўзи ҳам алоҳида тажрибаларни интеграциялашнинг методик схемасига асосланган.



1-босқич. Геометрик тасдиқларни амалий текширишга ўргатишнинг методик схемаси.

Интеграция босқичлари	Масала турлари
Тажриба мазмунини янгилаш ва ошкор этиш	1. Даъволарни тасдиқлаш учун динамик чизмалардан қандай фойдаланишни намойиш этиш ва тасвирлаш, бир нечта альтернативлардан мақбулини танлаш.
Амалиётда қўлланилиши	2. Хулосаларнинг экспериментал маълумотларга мувофиқлигини текшириш. 3. Назорат экспериментини шубҳага мувофиқлигини текшириш 4. Тасдиқ ҳаққонийлигини аниқлаш учун экспериментал текширувнинг етарлилигини аниқлаш. 5. Назорат экспериментини ўтказиш учун динамик чизмани ясаш усулини танлаш.
Янги тажрибаларни шакллантириш	6. Тасдиқлар ҳаққонийлигига шубҳа туғилганда, муқобилларини шакллантиришни билиш. 7. Экспириментал маълумотларни таҳлил қилиш ва ёзиш, тегишли хулосалар чиқариш кўникмаларини шакллантириш. 8. Шубҳага мувофиқ компьютер тажрибаси назоратни режалаштириши ва ўтказишни шакллантириш. 9. Назорат экспериментини ўтказиш учун динамик чизма яратиш кўникмаларини шакллантириш

2-босқич. Компьютерда тажриба ўтказиш мақсадида динамик чизилган ясаш алгоритмининг тўғрилигини мантиқий назорат қилишни ўргатиш.

Интеграция босқичлари	Масала турлари
Тажриба мазмунини янгилаш ва ошкор этиш	1. Назорат тажрибасини ўтказиш учун ўзларининг динамик чизмаларини ва уларнинг тузилиши алгоритмларини яратиш.
Амалиётда қўлланилиши	2. Назорат тажрибасига яроқлилигини баҳолаш учун динамик чизмаларни синовдан ўтказиш. 3. Назорат тажрибасининг мақсадига мос келадиган динамик чизма чизиш учун алгоритмни танлаш. 4. Алгоритм тузилишини тасдиқлаш кўрсатмасига асосан объектнинг хусусиятларига мувофиқ-лигини баҳолаш.



Янги тажрибаларни шакллантириш	<p>5. Динамик чизмалар алгоритмини тузиш асосида тасдиқлар тартибини шакллантириш</p> <p>6. Динамик чизмаларнинг алоҳида элементлари (объектлари)ни тузиш алгоритмларини яратишда фойдаланиладиган тасдиқлар занжирини шакллантириш.</p> <p>7. Динамик чизмалар тузилиши кетма-кетлигини назарий асослаш.</p> <p>8. Алгоритм тузилиши билан белгиланадиган тадқиқот объекти хусусиятлари кўринишини шакллантириш</p>
--------------------------------	---

2. Ўқувчи тажрибасини ошириш “конструктив исботлаш” атамасини киритиш ва қўллаш намунасини намойиш этиш орқали унинг мазмунини очиш билан боғлиқ бўлиши мумкин.

Кириш объектлари ёки жўнатма	Чиқиш объектлари ёки хулоса	Асослаш
Икки томон катталиги ва улар орасидаги бурчак орқали ифодаланган ABC учбурчак	A, B, C бурчак биссек-трисасини яшаш мумкин	Учбурчак биссектрисаси таърифи
A ва B бурчак биссектрисалари	A ва B бурчак биссектрисасининг кесишиш нуқтаси O ни белгилаш мумкин	Учбурчак бурчаклари йиғиндиси теоремаси. Бир томонлама ички бурчаклар йиғиндисига кўра тўғри чизиқнинг параллеллик аломати
O нуқта A, B, C бурчак биссектрисаларининг кесишиш нуқтаси	O нуқта C бурчак биссектрисасига тегишли	Бурчак биссектрисаси хоссалари

Хулоса: Асослаш учун бирор кадамда учбурчак хоссаларидан фойдаланмаганлиги учун тажриба ўзказмасдан туриб, турли учбурчак биссектрисалари бир нуқтада кесишишини тасдиқлаш мумкин.

Бошқа алгоритмларни конструктив исботга айлантириш ва ушбу ўзгаришларни амалга ошириш имкониятларини баҳолаш жараёнида янги субъектив тажрибанинг шаклланиши.

3-босқич. Дедуктив исботлашни ўргатиш схемаси.

Исботлашга ўргатишнинг ушбу босқичи, компьютер тажрибаси давомида яратилган геометрик конфигурация хоссаларининг динамик ҳаққонийлигини мантикий равишда тушунтириш қобилиятини шакллантиришга қаратилган, яъни мантикий исботлаш; шунингдек, тажрибада юзага чиққан камчиликларни йўқотиш учун мантикий исботдан фойдаланиш.


Интеграция босқичлари	Масала турлари
Тажриба мазмунини янгилаш ва ошкор этиш	1. Хоссалар ўзаро боғлиқлик механизмларини тушунтириб, уни куриш алгоритмига таянган ҳолда динамик яшашнинг янги хусусиятларини шакллантириш тўғрисида.
Амалиётда қўлланилиши	2. Тасдиқлар ҳаққонийлигини аниқлаш усули сифатида компьютер тажрибаси самарадорлигини танқидий баҳолаш тўғрисида. 3. Асослашнинг ҳар хил усуллари ва усулларни намоиш этувчи тайёр далилларни таҳлил қилиш, ҳар хил турдаги тасдиқларни асослаш.
Янги тажрибаларни шакллантириш	4. Компьютерда намоиш қилиш асосида ўз дедуктив исботини яратиш. 5. Эксперимент асосида аниқланган фактларни мантикий изоҳлаш. 6. Тадқиқот муаммоларини ечишда дедуктив усулдан фойдаланиш 7. Тасдиқланган маълумот асосида тадқиқот муаммоларини шакллантириш

3-масала. Трапециянинг ўрта чизиғи ҳақидаги теореманинг дедуктив исботини компьютерда визуал қўриш (4-турга оид).

1. Масаланинг қўйилиши. Ўқувчиларга учбурчакнинг ўрта чизиғи хоссалари ҳақидаги теорема маълум. Уларга ушбу хоссаларнинг трапеция ўрта чизиғи учун сақланиб қолишини текшириш орқали теорема ғоясини ишлаб чиқиш таклиф қилинади.[7]

2. Илгари суриладиган фаразлар. Ўқувчиларга мустақил равишда тажрибани режалаштириш ва ўтказиш таклиф қилинади

3. Исбот. Геометрик тасдиқ билан ишлашнинг ушбу босқичи яна локал тажрибавий интеграция схемалари ёрдамида амалга оширилади. Трапеция ўрта чизиғининг хоссалари тўғрисидаги тасдиқларни асослаш нуқтаи назардан конструктив ҳаракатларни асослаш билан боғлиқ ўқувчилар тажрибасини долзарблаштириш учун уларга қуйидаги анимация шаклида тақдим этилган теорема исботи тўғрисида изоҳ бериш таклиф этилади (8-расм)[3].




5-расм

Изоҳларда келтирилган асосларнинг тўлиқлигини баҳолаш фаолиятига ўқувчиларни жалб қилиш учун шароит яратиш мақсадида уларга қуйидагилар таклиф этилади: 1) ўзларининг мулоҳазаларини ёзиб боришлари; 2) натижаси аниқ бўлмаган конструктив ҳаракатни таъкидланг; 3) ушбу қадамнинг асослигини текширинг; 4) шарҳингизни етишмаётган асослар билан тўлдиринг; 5) изоҳлар асосли далиллар билан тугагини текширинг, агар тугамаса, зарурий қўшимчаларни киритинг. Натижада қуйидаги исботни қабул қилишади:

$$\begin{aligned} & - CN=NB \Rightarrow \prod_N^{180}(C)=B \\ & - DN=ND_1 \Rightarrow \prod_N^{180}(D)=D_1 \\ & - CD\parallel AB \Rightarrow D_1 \in AB. \end{aligned}$$

$$FN\text{- ўрта чизик } \Delta ADD_1 \Rightarrow FN\parallel AB \text{ va } FN\parallel DC, FN = \frac{AB+BD_1}{2} = \frac{AB+DC}{2}. \quad [6]$$

3. Статистик чизма (9-расм) асосида янги тажрибани шакллантириш босқичини худди шу бир ёки бир нечта усул билан асослаш ёзуви сифатида ташкил этиш мумкин.



6-расм

4. Модификация ушбу тасдиқни исботлашнинг бошқа усулини ёки бошқа хоссалар учун ушбу хоссалар ҳаққонийлигини текширишни ўз ичига олиши мумкин.

Кўриб ўтилган мисоллардан шуни англаш жоиз, муҳим босқичга эришиш учун ижтимоий-маданий ва субъектив ғоялар интеграцияси асосида тасдиқларнинг ҳаққонийлигини баҳолаш

ва асослаш билан боғлиқ бўлган тайёрликни Geogebra технологияси орқали ўтказиладиган компьютер тажрибаси методининг мактабдаги теоремалар исботида келтириладиган дедуктив метод билан биргаликда олиб бориш учун бир қатор методик шартлар бўлиши керак: мазмунли шартлар – мактаб геометрия курсидаги тайёргарликни шакллантириш босқичлари ва уларнинг асосли элементлари билан боғлиқ мавзулар (тасдиқларга асосланган теоремалар ва масалаларнинг айрим турлари); ташкилий шартлар – дедуктив методни эгаллаш даражасини ҳисобга олган ҳолда, ўқув билимларни



тадқиқ қилиш циклининг босқичларига мос келадиган теоремалар билан ишлаш методикаси; молиявий-техник шартлар –компьютерни бошқариш бўйича тажрибаларни ўтказиш учун тайёр динамик чизмалар, уларнинг бажарилиши ва натижалари тўғрисида ҳисобот тузиш схемалари, динамик чизмалар яшаш алгоритмларини ёзиб олиш намуналари, уларнинг асослари намуналари, теореманинг дедуктив исботини компьютерда визуаллаштириш ва исботланган масалалар ечимлари.

Тақдим этилган технологиянинг амалий қўлланилиши ўқувчилар билим олишлари учун табиий бўлган экспериментал ёндашувни, биринчи навбатда, дедукцияни ёрдамчи метод сифатида қўллаш орқали, сўнгра дедукцияни илгор метод сифатида қўллаш орқали аниқланган фактларни асослаш, изоҳлаш ва янги билимларни ҳосил қилишдан иборат.

Агар дарсда ўқувчи креативлигини ривожлантиришда GeoGebra технологияси қўлланилса, “исбот” терминининг маъноси сезиларли кенгайди.

Адабиётлар:

1. Палецкая, Т.В. Формирование творческих способностей учащихся в учебном процессе общеобразовательной школы / Т.В. Палецкая. -Новосибирск: Изд. НГПУ, 2004. 36 с.
2. Ширикова Т.С. Виды компьютерного эксперимента и их использование в обучении математики // Инновационные процессы в современной школе: методология, теория и практика: Сб. ст. Междунар. заочной науч. - практ. конф., посвященной 75-летию ТГПУ им. Л.Н.Толстого, Тула. Изд. ТГПУ 24 апр. 2013. 186 с.
3. Яшина М. Л., Локтина Р. В. Применение компьютерных программных средств в преподавании математики // Концепт: научно-методический электронный журнал. - 2012. №7 (июль). - ART12094 УДК 372.8:5 14 49965 -ISSN 2304-120X
4. Bowden, C. L. (1994) Bipolar disorder and creativity. In M.P. Shaw & M.A. Runco (Eds.) Creativity and affect / C.L. Bowden. – Norwood, NJ: Ablex.
5. Воротникова И.П., Крышталъ Н.И., Грибонос Е.Ю., Сорочан Д.В., Понасенко А.В., Щоткина А.Н., Иванов О.В., Брюховецкая С.С., Иванов И.Ю. Использование информационно-коммуникационных технологий в учебном процессе [Текст]: Учебное пособие для самостоятельной работы слушателей курсов повышения квалификации / Состав.: – Луганск: СПД Резников В.С., 2014. - 168 с.
6. Ризаев М.Т. Решение математических задач как способ систематизации знаний у учащихся // Азимут научных исследований: педагогика и психология. -№ 4 (13). -2015. -С. 86-89.
7. Рахимқариев А.А., Тохтаҳаджаева М.А. Геометрия, 8: Учебник для 8 классов школ общего среднего образования. 4-е издание. -Т.: “Yangiyo‘l poligraf servis”, 2019. -160 с.

РЕЗЮМЕ

Бу мақолада умумтаълим мактабларининг геометрия дарсларида Geogebra технологиясидан фойдаланиш орқали ўқувчи креативлигини ривожлантириш методикаси ҳақида сўз юритилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассказывается о методике развития творческих способностей учащихся посредством использования технологии Geogebra на уроках геометрии общеобразовательных школ.

SUMMARY

This article describes the methodology for developing the creative abilities of students through the use of Geogebra technology in the geometry lessons of secondary schools.



BOSHLANG‘ICH SINFLAR UCHUN ORFOGRAFIYADAN DASTURIY-PEDAGOGIK VOSITALARNI YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI

Ergasheva G. A.

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy Markazi maktabgacha, boshlangich va maxsus ta’lim metodikasi kafedراسi katta o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: orfografiya, kompyuterda o‘qitish, tizimlilik, moslashuvchanlik, modulli, kognitiv vizuallashtirish, o‘quvchilar faoliyati, tamoillar.

Ключевые слова: орфография, компьютерное обучение, систематика, гибкость, модульность, когнитивная визуализация, успеваемость студентов, принципы.

Key words: spelling, computer training, systematics, flexibility, modularity, cognitive visualization, student performance, principles.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va uni bosqichma-bosqich yuqori samaralarga erishish borasida katta yutuqlar qo‘lga kiritilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’lim sohasini, ta’lim-tarbiya jarayonlarini sifat jihatdan yuqori pog‘onaga ko‘tarish jamiyatimizning ustivor sohalaridan biri sifatida e’tirof etib, ta’lim maskanlarini yangilab, jahon standartlariga javob beradigan qilib qurib va jihozlab o‘quvchi yoshlarning bilim olishlari uchun katta imkoniyatlar yaratayotgani yoshlar kelajakning yaratuvchilari ekanini e’tirof etganligidan dalolatdir. Modomiki, qaysi bir jamiyat kelajakning muqaddas marralariga ishonch bilan odim tashlab borar ekan, ta’lim va tarbiyaga, yoshlarning kamolotiga e’tibor berishi tabiiy va qonuniydir. Bu jahatdan har bir yosh, har bir yigit-qiz, har bir iste’dod egasi alohida diqqat va e’tiborga molikdir. Ta’lim sifatini oshirish-Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir deya ta’kidlaydi yurtboshimiz. Bu birinchi navbatda mamlakatimizning intellektual salohiyatini saqlab qolish va rivojlantirish, uning ma’naviy kamolotini ta’minlash bilan aloqador.

Ta’lim-tarbiya jarayonlarini maqsadga muvofiq tarzda yo‘lga qo‘yish, yaratilgan shart-sharoitlardan samarali foydalanib, yuqori bilimli o‘quvchi yoshlarni tarbiyalash va ularni hayotga tayyorlash biz o‘qituvchi kadrlarning mas’uliyatli vazifamizdir.



Darhaqiqat, yangilangan ta'lim tizimini joriy etish jarayonida – fanning hozirgi zamon rivojlanish bosqichida orfografiyani o'rganishga qiziqish didaktik nuqtai nazardan ham, lingvistik nuqtai nazardan ham g'oyatda muhimdir.

Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limini axborotlashtirishning teran tendensiyalarini aniqlash uchun uni amalga oshirish sharoitlarini o'rganish zarur. Bu sharoitlardan **birinchisi**, o'quvchilarning kompyuter savodxonligini oshirish, yuqori malakali o'qituvchi kadrlarni tayyorlash; **ikkinchisi**, ta'limning dasturiy pedagogik vositalaridan foydalanish orqali endilikda qaror topgan shakllari va usullarini modernizatsiyalash; **uchinchisi**, axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida adaptiv o'rgatishni ta'minlashga doir ta'lim mazmunini (orfografik malakalarni shakllantirishda bilim va amaliy ko'nikmalar nisbatini) o'zgartirish, unga yangi shakllar va metodlarni kiritishdir.

O'quvchilarning kompyuter bilan ta'limiy dialogni tashkil etish va ta'minlash uchun mo'ljallangan amaliy dasturlar dasturiy-pedagogik vositalar (DPV) deb ataladi.

Dasturiy-pedagogik vositalarning funksional vazifasi – o'quvchining individual imkoniyatlari va nimani ma'qul ko'rishini hisobga olib, o'quv axborotini taqdim qilish va mavzuni o'zlashtirishga yo'naltirishdan iboratdir. Odatda, dasturiy-pedagogik vositalar yangi axborotning o'zlashtirilishi o'quvchining dastur bilan teskari aloqasi mavjud bo'lganida amalga oshirilishini nazarda tutadi.

Dasturiy vositlardan (DV) o'quv maqsadlarida foydalanishning ko'p yillik tajribasiga qaramasdan, uning imkoniyati hali oxirigacha kashf etilganicha yo'q. Buning sababi kompyuterli ta'lim tizimini yaratish va qo'llash yuzasidan nazariy asoslarning yaratilmaganligi va ayrim dasturiy-pedagogik vositalarning tasnifi, tipologiyasi va ularga qo'yiladigan talablar majmui yo'qligidir.

Dasturiy vositalarning didaktik yo'nalishi ta'limiy maqsad va vazifalarning qo'yilishiga bog'liq.

Funksional yo'nalganligi bo'yicha dasturiy-pedagogik vositalarning quyidagi turlari farqlanadi: namoyish qiluvchi; maslahat qiluvchi; mashq trenajyorlari; nazoratni amalga oshiruvchi dasturlar; axborot-test; mashq qilish; murabbiy; muammoli ta'lim; imitatsion va modellashtiruvchi; o'rgatuvchi; tayyorlovchi; axborot; kommunikatsion; aralash.

Dasturiy-pedagogik vositalarning metodik vazifasi tasnifi quyidagilardan iborat:

Ta'limiy natijalarning shakllanganlik darajasi bo'yicha: bilish (yangi materialni o'rganish); shakllantiruvchi (ko'nikma va malakalar ustida ishlash); umumlashtiruvchi (bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirish); nazorat



qiluvchi (erishilgan bilimlarni tashxislash: ko'nikma va malakalarni nazorat qilish); kombinatsiyalangan, yordamchi dasturiy-pedagogik vositalar.

O'quv faoliyatini boshqarish bo'yicha: boshqaruvchi (o'qitish jarayonini yo'naltiradi); tashxislovchi (o'zlashtirish darajasini aniqlaydi); namoyish qiluvchi (o'quv materialini namoyish qiladi); generatsiyalovchi (o'quvchilarning xususiyatlarini hisobga olib, mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar to'plamini tuzadi); mashqlar bajaruvchi (o'quvchilarga topshiriq va savollarni mustaqil qo'yish va yechishni taklif etadi); nazorat qiluvchi (bilimlar, ko'nikmalar va malakalar nazorat qilinadi) dasturiy-pedagogik vositalar.

Dasturiy vositalarning har bir tipi undan ta'lim jarayonida foydalanishning metodik maqsadi va o'quv jarayonini jadallashtiradigan, uni sifat jihatidan yangi darajaga ko'taradigan imkoniyatlarini aks ettiradi.

Dasturiy vositaning bunday tipologiyasi bir qator holatlar tufayli bo'lib, asosiylari quyidagilardir: mavjud yoki taklif etilayotgan dasturiy vositalarni o'qituvchining yoki tanlab olishi zarurligi; bir tip doirasidagi dasturiy vositalarni taqqoslash; dasturiy vositalarning murakkabligi bo'yicha ierarxiyasini yaratish; turli metodik vazifaga dasturiy vositalar to'plamidan foydalanuvchining yo'l tutishini engillashtirish zarurati.

Dasturiy vositalarning metodik vazifasi bo'yicha tipologiyasida quyidagilar ajratiladi:

- **o'rgatuvchi dasturiy vositalar** – metodik vazifasi bilim berish, o'quv va amaliy faoliyatiga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirish, o'zlashtirishning dastur vositalari yordamida amalga oshiriladigan teskari aloqa darajasini ta'minlashdan iborat;
- **trenajyorlar** – o'quv faoliyati ko'nikma va malakalarini mashq qilish, mustaqil tayyorlanishni amalga oshirish uchun mo'ljallangan. Ulardan, odatda, ilgari o'tilgan materialni takrorlash va mustahkamlashda foydalaniladi;
- **nazorat qiluvchi dasturiy vositalar** – o'quv materialini o'zlashtirish darajasi yuzasidan o'z-o'zini nazorat qilish uchun mo'ljallangan;
- **test dasturlari** – o'quvchining xato qilishi sabablarini qayd qilish, bilimi, ko'nikma va malakalarini baholash, intellektual rivojlanish darajasini aniqlash uchun foydalaniladi;

Axborot-izlanish dasturiy tizimi quyidagilardan iborat:

- **axborot-malumotnomali dasturiy vositalar** - o'quvchiga zaruriy axborotni tanlash imkonini beradi; axborotni tizimlashtirish bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantiradi;

- **imitatsion dasturiy vositalar** – voqelikning tuzilishi va funksional tavsifini biror cheklangan sondagi parametrlar yordamida o‘rganish uchun uning ma’lum jihatini ifodalaydi;
- **ixtiyoriy kompozitsiyali modellashtiruvchi dasturiy vositalar** – o‘rganuvchining ixtiyoriga ma’lum voqelikni modellashtirish uchun uning asosiy elementlari va tiplarini taqdim etadi; ob’ekt, xodisa yoki holatning modelini yaratadi;
- **namoyish qiluvchi dasturiy vositalar** – o‘quv materialining ko‘rgazmali taqdim etilishini, o‘rganilayotgan xodisalar, jarayonlar va ob’ektlar orasidagi o‘zaro aloqadorlikni vizuallshtirishni ta’minlaydi;
- **o‘quv-o‘yin dasturiy vositalari** – o‘quv vaziyatlarini qiziqarli tarzda uyushtirish uchun mo‘ljallanadi (masalan, ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida optimal qaror qabul qilish yoki optimal mashqlar strategiyasini ishlab chiqish). Ular o‘yin va o‘quv-o‘yin faoliyatini ta’minlovchi vosita sifatida o‘quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ishlarini tashkil etish, diqqat va xotirani rivojlantirish maqsadini ko‘zda tutadi.

Ta’lim amaliyotida quyidagilarni bunday ish rejimida ega bo‘lgan kombinatsiyalangan dasturlar sifatida qayd etish mumkin: namoyish rejimi; mashq qilish rejimi; o‘yin rejimi (o‘quv maqsadlarida va charchoqni chiqarish uchun foydalaniladi); nazorat rejimi; maslahat rejimi. “O‘rgatuvchi dastur” atamasi ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan keltirilgan tasniflardagidan kengroq ma’noda, chunonchi, tipi va vazifasi bo‘yicha har xil va bitta maqsad: bilimlar, ko‘nikma va malakalarning ma’lum darajasiga erishishni nazorat qilish maqsadiga ega barcha dasturlar to‘plami sifatida tushuniladi. Masalan, kombinatsiyalangan dasturlar umumiy tinish belgisi bo‘yicha guruhlangan orfografiya qoidalarini o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin.

Har bir dasturning vazifasi o‘ziga xos bo‘lib, orfografik o‘quv materiali mazmunini, o‘quvchilarning bilish imkoniyatlarini har bir orfografik (grammatik) tushunchaga nisbatan aniq o‘quv mashqlarini psixologik-pedagogik tahlil qilish asosida aniqlash, orfografik materialni kiritish, faollashtirish va mustahkamlashni nazarda tutadi. O‘rganuvchi dasturlarning xilma-xil vazifalari ularni hal etishga umumiy yondashuv bilan birlashtirilgan bo‘lib, faoliyatli yondashuv psixologik va rivojlantiruvchi, muammoli-modulli ta’lim konsepsiyasiga asoslanadi.

Avtonom (aniq bir darslik bilan bog‘lanmagan) va lokal (aniq bir darslikdagi mavzularni yoritish bilan bog‘liq) dasturlar bir-biridan ajratiladi. Ko‘plab muqobil darsliklar va ta’lim tizimlari mavjud hozirgi vaqtda kompyuterli dasturlarni ma’lum bir darslikka bog‘lash oqilona ish bo‘lmaydi.



Dasturlardasturlashusuli bo'yicha farqlanadi. Jumladan, chiziqli, tarmoqlangan, siklli algoritmlar bo'yicha dasturlashtirish mumkin. Kombinatsiyalangan dasturlarda aralash dasturlashtirish usuli qo'llaniladi.

Dasturlar adaptatsiyalanish xususiyatlariga ko'ra adaptiv, qisman adaptiv, noadaptiv dasturlarga bo'linadi.

Adaptiv dastur o'quv materialini bayon etish usulini ta'lim sharoitlarining o'zgarishi va har bir o'quvchining orfografik materialni o'zlashtirish darajasi hamda tezligiga bog'liq ravishda almashtirish imkonini beradi. Adaptiv dasturda u yoki bu savollar, topshiriqlar, sharhlar, tavsiyalarining o'quvchi javobining to'laligi va to'g'riligiga mos ravishda kompyuter tomonidan tanlanadigan bir necha variantlari bo'ladi.

Kombinatsiyalangan dasturlarni adaptiv dasturlash deb atash mumkin. Chunki ular ma'lum bosqichda adaptiv xarakterda bo'ladi. Chunonchi, namoyish rejimida didaktik materialning kichik yoshdagi maktab o'quvchilari tomonidan idrok qilinishi xususiyatlarini hisobga olgan holda bir necha variantlarini taqdim etish ko'zda tutiladi; orfografik ko'nikmalarni birlamchi mustahkamlash bo'yicha trening rejimida xatolar bo'lganida ular yo'q bo'lganidagiga qaraganda ko'proq topshiriqlar taklif qilinadi; trening rejimida o'quvchilar topshiriqlarni tez va bexato bajarganlarida qo'shimcha material taklif etiladi.

O'rgatuvchi dasturlar *qismlarining erkinlik darajasi* bo'yicha farqlanadi. Tizimga birlashtirilgan dasturlardan foydalanilganda nisbatan mustaqil modullarga murojaat qilish imkoniyati bo'ladi. Bu modullardan biri (namoyish-mashq qilish dasturi) qoida bilan birlamchi tanishish va mashq topshiriqlarini bajarish, ikkinchisi (nazorat-mashq qilish dasturi) bilimlar, ko'nikma va malakalarni joriy nazorat qilish, uchinchisi (test dasturi) yakuniy nazoratda orfografik xatolarni qayd etish va tushuntirish uchun foydalaniladi.

O'rgatuvchi modul o'quv materialining tizimli kvantlash, muammoviylik, modullik, kognitiv vizuallashtirish tamoyillari asosida tuzilgan va bir yoki bir necha orfografik tushunchalarni kompyuter vositalaridan foydalanib tashkil etiladigan turli metodlar yordamida o'rganishga yo'naltirilgan mantiqiy tugal birligini ifoda qiladi.

Bolalarning maktab hayotida negativ hodisalarni bartaraf etish uchun har bir bolaning qobiliyatidan foydalanish mumkin bo'ladigan sharoit yaratilishi, adaptiv o'qitish kengroq qo'llaniladigan yo'lga o'tilishi kerak.

Ravshanki, bu borada ta'lim muvaffaqiyati o'quvchilarning ruhiy xususiyatlari motivatsiyasi, o'qishga qiziqishining mavjudligi, o'quv malakalarini egallashga moyillik darajasi, orfografiyadan xabardorligi bilan bog'liq.

Boshlang'ich ta'limning oxirgi bosqichida o'quvchilarga maktab darsligiga kirmagan qo'shimcha axborotni, masalan, fanga qiziqishni uyg'otish va shu



bilan birga, kompyuter imkoniyatlarini to'la amalga oshirish uchun til haqidagi ilmiy-ommaviy kitoblardan parchalar taklif etilishi mumkin. Bunda qiziqarli, murakkab, til topqirligi va ziyrakligini uyg'otuvchi aniq didaktik material tanlanadi. U til hodisalarini ko'rgazmali shaklda ochib beradi. Buning uchun rasmlar, multiplikatsiyadan foydalaniladi.

Qoidalarining ta'riflarini ongli bilib olish, orfografik masalani echishda, ilk qoidalarni qo'yishda kompyuter dasturining modullarini ketma-ket qo'llash yordam beradi. Ular har bir qoidaning komponentlarini ta'riflanishidagi tanish, tanlanma va yakuniy belgilarni aniqlash yo'li bilan o'zlashtirish bo'yicha izchil va puxta ishlashga yo'naltiriladi. Boshlang'ich sinflarda kompyuter dasturlaridan foydalanib o'qitish tajribasi ularni qo'llashda ma'lum ketma-ketlikka rioya qilish lozimligini ko'rsatdi. Shunday qilib, orfografik mavzularni o'rganish darslarida namoyish-mashq qilish, nazorat-mashq qilish, test modullarini o'z ichiga oladigan va faqat xatolarni qayd qilishgina emas, balki tushuntirishga qodir, individual ishlashga yo'naltirilgan adaptiv-o'yinli va muammoli topshiriqlar kiritilgan kombinatsiyalangan dasturlar ijobiy samaralar beradi.

Kompyuterda adaptiv o'rgatish texnologiyasi o'quvchilarning talab qilinadigan orfografik tushunchalari darajasiga ta'lim variantlarini mustaqil tanlashga yo'naltirilgan o'quv metodlari, vositalari va shakllari orqali erishiladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirok etishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori \ "Xalq so'zi" gazetasi, 2018-yil;
2. Mirziyoev SH.M "Oliy majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi" 20.12.2022-yil
3. Pospelov D.A. Injeneriya znaniy// Nauki i jizn. 1987. №6.S.8-15;
4. Zenkin A.A. Kognitivnaya kompyuternaya grafika. M., 1991. -186 s;
5. Ziyodova T. Ona tili mashg'ulotlarida kompyuterdan foydalanish texnologiyasi// GulDU axborotnomasi. Guliston, 2001. 2-son;
6. Tolipova R. Ona tili o'qitish muammolari // Til va adabiyot ta'limi. 2010-yil 1-son. 3-4-b.

РЕЗЮМЕ

Ta'limning hozirgi zamon rivojlanish bosqichida ta'lim moduli tushunchasi metodologik ma'no kasb etmoqda. Modullik tamoyili tizimli yondashuvning rivojlanish tamoyili kabi muhim tamoyil bilan bir qatorda tizim ishlashining dinamikligi va mobilligini belgilaydi. Bunda tizimning o'zi modullar to'plami sifatida tasavvur qilinishi yoki umumiy modul sifatida qaraladi.

РЕЗЮМЕ

На современном этапе обучения концепция образовательного модуля носит методологический характер. Модульный подход определяет динамику и мобильность системы, а также важный принцип, такой как развитие структурированного подхода. В то же время сама система рассматривается как модульный пакет или как общий модуль.

SUMMARY

At the present stage of education, the concept of an educational module is methodological. The modular approach defines the dynamics and mobility of the system, as well as an important principle, such as the development of a structured approach. At the same time, the system itself is considered as a modular package or as a general module.



STEAM-TEKNOLOGIYASI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING INNOVATSION FAOLIYATI SIFATIDA

Abdumajitova S. A.

Termiz Davlat Pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: STEAM, ijodkorlik, trening, kognitiv, o'yin usuli, o'qitish texnologiyasi, faoliyat, rivojlantiruvchi muhit, STEAM pedagoglari, ijodiy fikrlash, estetik zavq, intellektual qobiliyat.

Ключевые слова: STEAM, творчество, обучение, познавательный, игровой метод, технология обучения, деятельность, развивающая среда, STEAM-педагоги, творческое мышление, эстетическое удовольствие, интеллектуальные способности.

Key words: STEAM, creativity, training, cognitive, game method, teaching technology, activity, developmental environment, STEAM pedagogues, creative thinking, aesthetic pleasure, intellectual ability.

Zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarning rivojlanishi maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldiga yangi vazifalarni belgilaydi.

Ulardan biri bolada elementar matematik tushunchalarni shakllantirishdir. Ushbu vazifaning ahamiyatini baholash qiyin emas, chunki bolaning intellektual rivojlanishining ko'rsatkichlari 4 yoshdan 7 yoshgacha uning keyingi ta'lim faoliyatida muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun asos bo'ladi.

Dinamik ravishda o'zgarib borayotgan dunyoda insoniyat hayotining barcha sohalarida yangi texnologiyalar joriy etilmoqda. Tadqiqotchilar kelajakdagi zamonaviy maktabgacha yoshdagi bolalarning 65 foizi bugungi kunda mavjud bo'lmagan kasblarni egallashga aminlar. Kelajakda yosh mutaxassislariga tabiatshunoslik va muhandislik kabi turli xil texnologik sohalaridagi ko'nikmalar va malakalar kerak bo'ladi, agar insonda boshlang'ich matematik tushunchalar shakllanmagan bo'lsa, ularni egallash mumkin emas.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilar o'rtasida elementar matematik tushunchalarni shakllantirishga hissa qo'shadigan butun dunyoda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalardan biri bu STEAM texnologiyasidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim maydoniga keng tatbiq etilishi munosabati bilan ularning amaliy samaradorligini tasdiqlagan innovatsion



texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari to'g'risida ko'p narsa aytilmoqda. Shu bilan birga, hozirgi paytda maktabgacha ta'lim amaliyotida o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash zarurligini tushunish va STEAM - maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tushunchalarni shakllantirish texnologiyasidan foydalangan holda yondashuvlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli ular o'rtasida doimiy qarama - qarshilik mavjud. Maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik rivojlanish masalalari o'rganilgan bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirish bo'yicha, A.V.Beloshistoy, A.M.Leushina, Z.A.Mixaylova, S.G.Mixaleva, N.I.Nepomnyashchey, M.Y.Stozharova, A.A.Duradgor, E.I.Shcherbakova va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Ko'plab taniqli psixologlar va pedagoglar P.Y.Galperin, T.V.Taruntaevalar bolada matematik g'oyalarni shakllantirish predmet-sensor faoliyatiga asoslangan bo'lishi kerak, bu jarayonda bilim va ko'nikmalarning butun hajmini o'zlashtirish, hisoblash qobiliyatlarini ongli ravishda o'zlashtirish osonroq, deb hisoblashgan.

Dastlabki matematik tushunchalarni shakllantirish bu dastur talablarida ko'zda tutilgan aqliy faoliyatning bilimlari, texnikasi va usullarini uzatish va o'zlashtirishning maqsadli va uyushgan jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun dastlabki matematik kontsepsiyalarni shakllantirish bo'yicha ta'lim faoliyatini samarali amalga oshirish maktabgacha ta'lim tashkilotida innovatsion texnologiyalarni qo'llash lozim, bu esa o'quv jarayonini tashkil qilishda turli xil ta'lim sohalarini birlashtirish bilan bog'liq rivojlantiruvchi muhitini yaratishni ta'minlashi kerak. Shunday texnologiyalardan biri bu STEAM-texnologiyasidir.

Birinchi marta AQSHda bolalarni yuqori texnologik muhitda hayotga tayyorlashga qaratilgan predmetlar ishtirokidagi aralash muhitda bolalar faoliyatini tashkil qilish uchun STEAM-texnologiyasidan foydalanildi.

Hozirgi vaqtda AQSH, Angliya, Germaniya maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktablarining o'quv dasturiga STEAM-texnologiyasi kiritilgan bo'lib, u yuqori texnologik odamlarni yoshligidan tayyorlaydi.

Ushbu fanlar zamonaviy dunyoda eng ommabop bo'lib kelmoqda. Shu sababli, bugungi kunda STEAM texnologiyasi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanib, tabiatshunoslikni texnologiyalar, muhandislik va matematika bilan birlashtirmoqda. Hayotda bo'lgani kabi, barcha obyektlar bir butunga birlashtirilgan va o'zaro bog'langan - va bu juda uyg'un butunlikni tushunishda kuch bor.



O‘z ishida Shatunova O.V. dunyoning rivojlangan 7 mamlakatida STEAM ta’limi bo‘yicha ishlash tajribasini o‘rganib chiqib, u ilmiy-texnik ijodkorlikni rivojlantirish, shu jumladan maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik bilimlarini rivojlantirish uchun mamlakatimizda pedagogik innovatsion ta’lim faoliyatini tashkil qilishda integral yondashuvning ijobiy namunasi sifatida STEAM ta’limini rivojlantirish zarurligi haqida yozgan. Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi STEAM texnologiyasiga bir misol:

- tajriba,
- dizayn,

«Kulbaga kiring» diagnostik holati

Maqsad: 5-6 yoshdagi bolalarning 2 ta kichkintoydan raqamlar yig‘ish va qidiruv harakatlarini bajarishda amaliy ko‘nikmalarini aniqlash.

Bir qatorda joylashgan uchta kulbada raqamlar (mos ravishda 6,9,7) oltin tanga sonini bildiradi. Izlar kulbalarga olib boradi. Tangalarni faqat eshikni ochgan kishi olishi mumkin. Buni amalga oshirish uchun raqam ko‘rsatilgandek, chap va o‘ng yo‘llarga birga qadam qo‘ying. (Qalam bilan belgilang).

Pedagog: Siz qaysi kulbani tanladingiz? Qaysi oyoq izlarini bosasiz? Agar xohlasangiz, boshqa kulbalarga kiringmi?

Diagnostik vaziyat “Xatolarni to‘g‘irlang va keyingi harakatni nomlang”

Maqsad - bolalarning harakatlarning ketma-ketligini kuzatish, xatolarni tuzatish variantlarini taklif qilish, aql-idrok qilish va o‘z harakatlarining yo‘lini aqliy asoslash qobiliyatini aniqlash.

Vaziyat amaliy harakatlarsiz tashkil etilgan. Bola kattalarning harakatini kuzatib boradi, uning harakatiga izoh beradi va xatolarini tuzatadi.

Pedagog: Tasavvur qiling, siz va men domino o‘ynayapmiz. Ba’zilarimiz xatolarga yo‘l qo‘yishdi. Ularni toping va ularni tuzating. Birinchi harakat meniki edi (chapda).

STEAM ta’limi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida eng istiqbolli texnologiya hisoblanadi.

Bu o‘quv jarayonining sifatini oshiradigan va maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini, individual va ijodiy rivojlanish muhitini inobatga olib, maktabda o‘qishga psixologik va pedagogik tayyorgarlikni amalga oshirish va atrofdagi jamiyatga moslashishni hisobga olgan holda ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi uchun maqbul sharoit yaratadigan muhitning asosidir. Talabalar va ularning ota-onalari (qonuniy vakillari) ning ta’lim ehtiyojlariga e’tibor qaratib, biz STEAM ta’limiga e’tibor qaratdik.

Hozirgi vaqtda bizning tarbiyalanuvchilarimizni maktabgacha ta’lim tashkiloti sharoitida nima qiziqtirishi mumkin? Albatta, STEAM texnologiyalari.



STEAM maktabgacha yoshdagi bolalarga fan va san'atdan ta'limda qanday foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Guruhlar doirasida bolalar 3 yoshdan boshlab:

- savollar berishni va jarayonlarni o'rganishni o'rganadilar;
- faraz va taxminlar qilish;
- faoliyat davomida qo'l ostidagi materialdan foydalanish;
- muammolarni sinash va xatolardan foydalanib hal qilish;
- hunarmandchilikni loyihalashda ishtirok etish;
- o'lcham, tezlik va masofani o'lchash va taqqoslash.

O'qishning muhim sharti - bu bolalarning juftlik yoki guruhli faoliyati. Aynan shu aloqa formatida ular uchun g'oyalarni to'plash va aks ettirish osonroq va qiziqroq bo'ladi.

STEAM yondashuvi yordamida maktabgacha yoshdagi bolalar sodir bo'layotgan hodisalar mantig'iga chuqur kirib borishi, ularning o'zaro bog'liqligini tushunishi, dunyoni muntazam o'rganishi va shu bilan qiziquvchanlik, fikrlashning muhandislik uslubi va tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini rivojlantirishi mumkin. Bunga parallel ravishda bolalar menejment va o'zini o'zi taqdim etish asoslarini o'zlashtiradilar, bu esa o'z navbatida bola rivojlanishining mutlaqo yangi darajasini ta'minlaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, ota-onalar uyda osonlikcha uyushtiradigan o'yinlardan foydalangan holda bolalarda STEAM kompetensiyalari bolaligidanoq shakllanishi mumkin. Karton konstruktor bolaga turli xil hissiy standartlarni tanib olishni va dizaynni o'rganishga yordam beradi. Geokont ijodiy xayolotni rivojlantiradi va bolalarga makro va mikro fazoda yaxshi harakatlanishiga yordam beradi. Geokoboard yordamida tarbiyalanuvchilar amalda maydon va perimetrni o'rganadilar. Innovatsion mahsulotlar va ilg'or texnologiyalar zamonaviy ta'lim tizimining asosiy tarkibiy qismidir. Ular mutaxassislariga yosh avlodni munosib kasbiy faoliyatni tanlashda vujudga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarga eng yaxshi tayyorlashga imkon beradi.

STEAM texnologiyalarini maktabgacha ta'lim tashkilotiga qanday kiritish mumkin?



STEAM texnologiyalarini MTTga kiritish yo‘llari

STEAM texnologiyalarini maktabgacha ta’lim tashkilotiga kiritish yo‘llari		
<i>Konstruktiv tadbirlarni tashkil etish</i>	<i>Ekskursiya va sayrlarni tashkil etish</i>	<i>O‘yin faoliyatini tayyorlash</i>
<p>Turli xil o‘yin vazifalari bolalarda mantiq va hisobli fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar atrofidagi muammolarni oson hal qilishni va o‘z faoliyatlarini rejalashtirish bo‘yicha asosiy bilimlarni egallashga yordam beradi.</p>	<p>Maktabgacha yoshdagi bolalarga barglarning tuzilishini o‘rgatish, suvni tahlil qilish va hasharotlarni kuzatish imkoniyatini beradi. Bu ularga yuqimli ijodga bo‘lgan alohida muhabbatni his qilishlariga va ular oldidagi mas’uliyatini anglashga yordam beradi.</p>	<p>Bunday holda siz ochiq o‘yinlar, raqslar va o‘yin-kulgilar shaklida hayajonli tadbirlarni tashkil qilishingiz mumkin. Bu bolalarning muloqot qobiliyatlarini yanada rivojlantirish, so‘z boyligini to‘ldirish, nutq tuzilishining grammatik xususiyatlarini o‘zlashtirish va o‘rganishlariga imkon beradi.</p>

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida STEAM ta’limining joriy etilishi bolalarga yangi bilimlarni tezroq o‘zlashtirishlariga va olgan bilimlaridan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar zamonaviy hayotda talab yuqori bo‘lgan qo‘shimcha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. O‘yinlar ko‘rinishidagi qiziqarli tadbirlar sizga bolaning ijodiy salohiyatini ochib berishga imkon beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida STEAM ta’limi nima? Bu ko‘pgina fanlarning asosiy tushunchalarini bir vaqtning o‘zida o‘zlashtirishni o‘z ichiga olgan keng qamrovli ta’lim texnologiyasi hisoblanadi. Bularga muhandislik va matematika texnologiyasi kiradi. Bolalar voqealarning o‘zaro bog‘liqligini farqlashni o‘rganadilar, ular mantiqiy tamoyillarni anglashlari uchun zamin bo‘ladi va o‘z shaxsiyatlarini yaratish jarayonida ular yangi va o‘ziga xos yangi bilimlarni o‘zlashtiradilar. Integratsiyalashgan yondashuv ularning qiziqishini rivojlantirishga va o‘quv jarayoniga qo‘shilishga yordam beradi.

Bugun siz maktabgacha ta’lim tashkilotida STEAM ta’limiga kiritilgan turli xil o‘quv modullarini topishingiz mumkin. Masalan, didaktik tizim moduli bolalarga geometrik shakllar va jismlar bilan tanishish, atrofdagi dunyoning eng keng tarqalgan obyektlarini o‘zlashtirish imkonini beradi.

STEAM ta’limining yetakchi komponenti eksperimental muhandislikdir. O‘yin uslubida bolalar sanashni, o‘lchashni, taqqoslashni, muloqot qobiliyatlarini



egallashni o'rganadilar. Bu ularga zarur matematik, filologik va muhandislik ko'nikmalarini olishga yordam beradi. Tanish narsalardagi bolalar o'zlari uchun yangi va noma'lum xususiyatlarni aniqlaydilar. Qiziqarli o'yin shaklidagi dam olish faoliyati tasavvur va ijodkorlikni rivojlantiradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarni maktab bosqichiga va undan keyingi mustaqil hayotga sifatli tayyorlash uchun javobgardir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning o'ziga xos xususiyati tashqi omillarga bo'lgan ta'sirchanlikdir, shuning uchun maktabgacha ta'lim muhiti iloji boricha boy bo'lishi va zamonaviy talablarga mos bo'lishi kerak. Ushbu ta'limning innovatsion yo'nalishini - maktabgacha ta'lim tashkilotlari negizidagi STEAM laboratoriyalarini tashkil etish va rivojlantirish imkoniyatlariga, laboratoriyani tashkil etish usullari va kutilayotgan ijobiy ta'sirga, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf va salbiy oqibatlariga bag'ishlangan.

Doimiy rivojlanish, hayotning yangi usullarini ixtiro qilish, atrof-muhitni rivojlantirish, tashqaridan kelgan ma'lumotlarni qayta ishlash jamiyat uchun odatiy holdir. Insoniyat jamiyati o'ta dinamik tizim bo'lgani uchun turg'unlik dahshatli belgi bo'ladi. Shuning uchun har bir yangi avlod odamlari nafaqat ma'lum va aniq tashkil etilgan nazariy va amaliy bilimlar spektrini o'zlashtirib olishlari, balki yangilarini anglash yo'llarini ham topishlari kerak. Inson yoshligidanoq uni mustaqil ravishda yarata olmasligi sababli yangi bilimlarni kashf etish jarayoni nihoyatda qiyin va u uchun ta'lim muhitini yaratish zarur. Binobarin, tegishli bilim va ko'nikmalar muvaffaqiyatli o'zlashtiriladigan qulay ta'lim muhitini tashkil etish pedagoglar, ta'lim rahbarlari, ota-onalar va tadqiqotchilarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

So'nggi yillarda Rossiyada, Amerikada mashhur bo'lgan va ko'plab Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan STEAM ta'lim texnologiyasi haqida faol bahslar bo'lib o'tdi. STEAM maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning bilim qobiliyatini qo'shimcha ravishda rivojlantirish uchun texnologiyalarni maxsus laboratoriyalar shaklida qo'llash taklif etiladi. Biroq, muammoni ko'rib chiqishdan oldin, STEAM texnologiyasining mohiyatini batafsilroq ochib berish kerak, chunki bu yo'nalish O'zbekiston ta'lim muhitida nisbatan yangidir.

Ko'pgina zamonaviy sanoat sohalari ko'p yillar davomida ushbu bilim tarmoqlarini o'zaro birlashtirgan. Har qanday zamonaviy muhandislik o'yini mahsuloti ko'pincha STEAMda birlashtirilgan ikki yoki undan ortiq ilmiy yo'nalishni birlashtiradi. Binobarin, STEAM ta'lim texnologiyalari bugungi kunda ta'limning muhim burilish jarayonidir, chunki ular yuqori texnologiyalar va murakkab muhandislik ishlab chiqarish sohasida ishlashga qodir mutaxassislarni tayyorlashga asos bo'ladi.

O'zbekistonda STEAM texnologiyalarini ta'lim tashkilotlariga joriy etish ham boshlandi. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimi, hozirgi Davlat



Ta'lim Standartida ta'kidlanganidek, beshta asosiy ko'rsatkichga asoslanadi: "jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi", "ijtimoiy hissiy rivojlanish", "nutq muloqot o'qish va yozish malakalari", "bilish jarayonining rivojlanishi", "ijodiy rivojlanish". STEAM muhitini tashkil etish jarayoni belgilangan ko'rsatkichlarga biriktirilgan bo'lishi kerak, chunki har bir belgilangan ko'rsatkichda maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik muhitni o'zgartiradigan tarkibiy qismlar va ushbu pedagogikaning metodik asoslari mavjud. Shuning uchun STEAM maktabgacha ta'lim tashkiloti muhiti quyidagi ketma - ketlikka asoslangan bo'lishi kerak:

- mamlakatdagi ta'lim texnologiyalarining strategik rejalari va rivojlanish dinamikasiga muvofiqligi;
- samarali tanlangan va malakali foydalanilgan o'quv materiallari asosida qurilish;
- amalga oshirilayotgan dasturga jalb qilingan pedagoglar tarkibini doimiy va samarali tayyorlashni qo'llab-quvvatlash.

Avvalo, siz STEAM tomonidan tayyorlangan laboratoriyani tashkil qilish va rivojlantirishda ishtirok etadigan pedagogning ta'limiy tayyorgarligiga e'tibor qaratishingiz kerak. STEAM guruhlarini tashkil etish uchun xona barcha zarur jihozlar bilan to'liq jihozlangan bo'lsa ham, pedagog bunday faoliyatlarni o'tkazishga to'liq tayyor bo'lishi kerak va ko'proq darajada tarbiyalanuvchilarning samaradorligi tizimning sifatiga asoslanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining bunday xodimiga qo'yiladigan talablar ro'yxati muhim ahamiyatga ega. Keling, ularning ba'zilarini STEAMni o'rganishga oid uslubiy adabiyotlarda tasvirlangan:

Birinchidan, pedagog ingliz tilini yetarli darajada bilishi kerak, chunki ushbu texnologiyaning barcha dasturlari ushbu tilga asoslangan bo'lib, faqat mustaqil o'zlashtirish uchun ma'lumotlar bundan mustasno. Ma'lumki, Rossiyada maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining asosiy tayyorgarligi ingliz tilini jiddiy chuqur o'rganishni nazarda tutmaydi, shuning uchun Y.V.Atemaskin, STEAM texnologiyasini rivojlantirishda ishtirok etishni istagan pedagoglar uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti ko'magi bilan ingliz tili kursini o'rganishlari shart, bu esa o'z rivojlanishini uslubiy rejasiga qo'shadi.

Ikkinchidan, STEAM treningini so'nggi raqamli uskunadan foydalanmasdan amalga oshirish mumkin emas. Kerakli uskunalar ro'yxatiga quyidagilar kirishi mumkin: laboratoriyaning STEAM dasturini o'z ichiga olgan raqamli datchiklar, grafik planshetlar, kompyuterlar, interaktiv daftarlar, modellashtirish uchun konstruktorlar, 3D printerlar va boshqalar. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti negizida STEAM texnologiyasining ta'lim jarayonida ishtirok etadigan pedagog nafaqat bunday uskunalarning mavjudligini bilishi, balki undan faoliyatlar o'tkazish uchun foydalanishi va shu bilan birga tarbiyalanuvchilarga



rejalashtirilgan natijaga erishish uchun ulardan foydalanishni o'rgatishi kerak. Albatta, o'quv jarayoni jarayonida dasturchining yordamisiz buni amalga oshirish imkonsiz bo'ladi, ammo shunga qaramay, ishning asosiy qismi va darsni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun mas'uliyat hali ham pedagog xodimga yuklanadi. Masalan, Rossiyada "Naurash" dasturi asosida STEAM texnologiyasini ishlab chiqishda ishtirok etadigan Podolskdagi №30-maktabgacha ta'lim tashkiloti mudiri M.V.Kutsy, o'quv jarayoni to'g'risida quyidagicha so'z yuritadi: "Bizning pedagogimiz vazifamiz zamonaviy rivojlanish darslarini tashkil etishdir. Biz nafaqat zamonaviy raqamli muhitni yaratmoqdamiz, muhandislik tafakkurini shakllantirmoqdamiz, balki, eng muhimi, farzandlarimizning baxtli, muvaffaqiyatli odamlar bo'lib o'sishiga yordam beramiz. Darslarning samaradorligi tarbiyalanuvchilarimizning ota-onalari tomonidan yuqori baholandi".

Rahbarning ma'qullashi STEAM treningining asosiy tezislariidan biriga to'g'ri keladi: Ilm-fan qiziqarli! Ushbu tezis 2014-yilda Quddusda bo'lib o'tgan Xalqaro "STEAM-oldinga" konferensiyasidan so'ng paydo bo'ldi. Tezisning mohiyati shundaki, STEAM laboratoriyasidagi darslar bolalar uchun tushunarli va qiziqarli bo'lishi kerak. Shuning uchun pedagog faoliyatlarni tashkil qilishda tarbiyalanuvchilarning istaklari va moyilligi va yoshi rivojlanish darajasiga tayanishi kerak. Binobarin, faoliyat turli shakllarda bo'lishi mumkin. Uni elektron qurilmalar bilan to'ldirish shart emas. Bolalar o'zlarining darslarini STEAM laboratoriyasida ochiq o'yinlarda, nozik vosita mahoratini rivojlantiruvchi materiallar (xamir, plastilin, loy, karton va boshqalar), konstruktor bilan faoliyatlarda boshlashlari mumkin (LEGO-STEAM laboratoriyalari uchun dunyodagi birinchi to'plamlarning ishlab chiquvchisi bo'ldi). Shunday qilib, Rossiyadagi maktabgacha ta'lim tashkiloti bazasida STEAM laboratoriyasini tashkil etish bo'yicha tahliliy sharhni sarhisob qilish, shuni aytish kerakki, ta'lim tashkilotining barcha mutaxassislari, avvalambor, samarali natijaga erishishdan shaxsan manfaatdor bo'lishlari kerak, chunki javobgarlikning katta qismi u yoki bu tarzda yotadi va malakali o'qitilgan mutaxassis bo'yicha baholanadi. STEAM faoliyati bolaning modellashtirish dunyosiga to'liq kirib borishi va o'z-o'zidan ancha qiyin bo'lgan muammoli-qidiruv usuli asoslariga qurilganligi sababli, bolalarning qobiliyatlarini to'liq ochib berish va yangi ko'nikmalarni o'zlashtirganliklari sababli ularni mustahkamlash uchun faoliyatlar qiziqarli bo'lishi lozim. Shunga ko'ra, shubhasiz, Rossiyaning maktabgacha ta'lim tashkilotlari negizida STEAM laboratoriyalarini rivojlantirish keng istiqbollarga ega va davlat tomonidan zarur ko'mak ostida amalga oshirilishi mumkin.

STEAM dasturi maktabgacha yoshdagi bolani rivojlantirish bo'yicha yetakchi faoliyatdir. Bugungi kunda STEAM ta'limi asosiy g'oyalardan biri



sifatida rivojlanmoqda. Bunday ta'limning zaruriy shartlari uning uzluksizligi va bolalarning ishchi guruhlarda o'zaro aloqada bo'lish qobiliyatidir, bu yerda ular g'oyalar yaratishlari va fikr almashishlari uchun imkon yaratiladi.

Shuni ta'kidlashni joizki, an'anaviy o'qitish uslublari bilan taqqoslaganda, maktabgacha ta'lim tashkilotidagi STEAM ta'lim texnologiyasi bolalarni tajribalar o'tkazishga, yangi injenering va muhandislik modellari tuzishga, mustaqil ravishda ijodiy ishlar yaratishga, o'z ideyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy tasvirni yaratishiga imkoniyat beradi.

Adabiyotlar:

1. "STEAM ta'lim tizimi nima?" <https://www.integer.uz/steam>
2. "STEAM education for English learners" <http://exclusive.multibriefs.com/content/steam-education-for-english-learners/education>
3. Volosovets T.V., Markova V.A., Averin S.A., STEM - maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar uchun ta'lim / - o'quv qo'llanma. – M.: 2017 yil. -111s
4. Volosovets T.S, Markova V.A, Averina S.A STEM-obrazovanie detey doshkolnogo i mladshego shkolnogo vozrasta. M.BINOM..Laboratoriya znaniy 2019
5. Becker, K. H., & Kyungsuk, P. (2011). Effects of integrative approaches among science, technology, engineering, and mathematics (STEM) subjects on students' learning: A preliminary meta-analysis. *Journal of STEM Education: Innovations & Research*, 12(5/6), 23–37.
6. European Commission (2010a): Developing Coherent and System-Wide Inductions Programmes for Beginning Teachers: A Handbook for Policy Makers.
7. Exploring STEAM teaching in preschool using Fred Rogers approach Zahiroh Awang, Nooraida Yakob, Aswati Hamzah, Mohd Mernan Talling School of Educational Studies, Universiti Sains Malaysia, Malaysia.2019.
8. "English Teachers: How You Can Use STEAM in Your Classroom By Jennifer Gunn"<https://resilienteducator.com/classroom-resources/steam-lessons-englishclassroom>
9. Florian Geyer. The Educational System in Belgium CEPS Special Report/September. ISBN 978-92-9079-921-4 Available for free downloading from the CEPS website <http://www.ceps.eu>)© CEPS, 2009
10. H.Fry, S. Ketteridge, S.Marshall. HandbookFor teaching and Learning in Higher Education. New York, Routledge, 2009.
11. Implementing STEAM in the Early Childhood Classroom Nancy K. DeJarnette 1* 1 University of Bridgeport, 126 Park Avenue, Bridgeport, CT 06604, USA *Corresponding Author: ndejarne@bridgeport.edu Citation: DeJarnette, N. K. (2018).
12. Implementing STEAM in the Early Childhood Classroom. *European Journal of STEM Education*, 3(3), 18. <https://doi.org/10.20897/ejsteme/3878>
13. Abdumajitova S. A. STEAM TEACHING TECHNOLOGY IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS AS A FACTOR OF EARLY DEVELOPMENT //Экономика и социум. – 2021. – №. 1-1. – С. 10-13.
14. Abdukasimovna, A. S. (2022). STEAM-THE IMPORTANCE OF EDUCATING PRESCHOOL CHILDREN BASED ON EDUCATIONAL TECHNOLOGY. *Results of National Scientific Research International Journal*, 1(7), 75-80.
15. S. Abdumajidova. STEAM teaching technology in preschool educational institutions as a factor of early development. « Экономика и социум » № 1 (80) 2021

РЕЗЮМЕ

STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'lim sohasiga olib kirish, nafaqat maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar va shu sohada tahsil olayotgan oliy ta'lim muassasalari



talabalariga tanlov fan sifatida o'qitish ishlari yo'lga qo'yilgan. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarning STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalangan holda ta'lim olishlari ta'limga bo'lgan qarashlarini o'zgartirmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari, pedagoglari, tarbiyalanuvchilar va ularning ota-onalari (qonuniy vakillari) ta'limning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, STEAM texnologiyasidan foydalanishlari mumkin. Jahon ta'lim tajribasida STEAM – texnologiyasidan foydalanish jarayoni va holati tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ

Внедрение образовательной технологии STEAM в сферу дошкольного образования, преподавание в качестве факультативного предмета не только специалистам, работающим в системе дошкольного образования, но и студентам высших учебных заведений, обучающимся в данной сфере. Студенты, обучающиеся в высших учебных заведениях, учатся по образовательной технологии STEAM, меняя свои взгляды на образование. Воспитатели, педагоги, обучающиеся и их родители (законные представители) дошкольных образовательных организаций могут использовать технологию STEAM исходя из потребностей образования. Анализируется процесс и статус использования технологии STEAM в мировом образовательном опыте.

SUMMARY

Introduction of STEAM educational technology into the field of preschool education, teaching as an elective subject not only to specialists working in the preschool education system, but also to students of higher education institutions studying in this field. Students studying in higher education institutions are learning using STEAM educational technology, changing their views on education. Educators, pedagogues, students and their parents (legal representatives) of preschool educational organizations can use STEAM technology based on the needs of education. The process and status of using STEAM technology in the world educational experience is analyzed.



INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI KASB TANLASH ISHIGA TAYYORLASH

Shodiyev N.

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Pedagogika kafedrasida professori

Mirzoyeva N.

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Pedagogika kafedrasida assistenti

Hamidova L.

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Pedagogika kafedrasida magistranti

Tayanch soʻzlar: kasbiy yoʻnaltirilganlik, talaba, integratsiya, kasb tanlash, tayyorgarlik, fan.

Ключевые слова: профессионально-педагогическая направленность, интеграция, профориентация, подготовка, наука.

Key words: professional-pedagogical orientation, integration, pro-orientation, preparation, science.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoyev Yangi O'zbekiston taraqqiyotining bugungi bosqichi talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash maqsadida "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga dior qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonni qabul qildi[1].

Mazkur Farmon mamlakatimizda professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish-boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy etish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda bu jarayonga ish beruvchilarni jalb qilishga qaratilgan.

O'z-o'zidan ravshanki, uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha pedagogik jamoalar faoliyatining samarasi ko'p jihatdan bu ishga o'qituvchi murabbiylar qay darajada tayyorlanganliklariga hamda mazkur ish bo'yicha oila, mahalla, uzluksiz ta'lim tizimi muassasalari va keng jamoatchilik o'rtasida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yilishiga ko'p jihatdan bog'liq.

Shu munosabat bilan Oliy ta'lim muassasasi "Boshlang'ich ta'lim, tarbiya va sport" ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni-bo'lajak boshlang'ich

sinf o'qituvchilarini kasb tanlash ishiga integrativ yondashuv[4] asosida tayyorlashning mazmuni, shakl, metodlarini qaraymiz.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlash ta'limning kasbiy-pedagogik yo'naltirilganlik prinsipi asosida amalga oshiriladi. "Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi"[5] fanini o'rganish jarayonida talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlash vazifasi kafedra professor-o'qituvchisidan uning har bir mavzu va savolini boshlang'ich ta'lim "Atrofimizdagi olam" (1-2-sinflar), "Tabiatshunoslik" (3-4-sinflar) ning mavzu va savollari bilan bog'lab u yoki bu kasbning mehnat mazmuni, egallagan ko'nikma va malakalari bilan kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni tanishtirib borishning mazmuni, metod va vositalari to'g'risida talabalarga aniq ko'rsatmalar berib borishni taqozo etadi.

OTM professor-o'qituvchilarining bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasb tanlash ishiga tayyorlash bo'yicha amalga oshirilgan faoliyatini ijobiy baholash barobarida xalq xo'jaligida mashg'ul bo'lgan shunday kasblar borki ("Odam va tabiat" turkumiga kirgan kasblar orasida) ularning samarali mehnat faoliyati insonning ko'rish, eshitish, ranglarni farqlash, hid va ta'm bilish, nafas olish, asab tizimi, tayanch harakat apparati va boshqalarga bog'liqdir.

Talabalarni kasb tanlashga tayyorlash OTM o'quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismiga aylanishi uchun kafedra professor –o'qituvchilari tuman, viloyat xududlarida joylashgan ishlab chiqarish obyektlari qaysi ommaviy ishchi kasblariga ehtiyoj sezayotganligini muntazam o'rganib borishi hamda o'quv rejasida ko'zda tutilgan ilmiy-tabiiy, umumkasbiy fanlarni o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni mazkur kasblar bilan tanishtirishi talab etiladi. Bunda har bir fan o'qituvchisi ta'limning politexnik prinsipi asosida fanning talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlash bo'yicha potensial imkoniyati taxlil qilinadi. Ushbu maqsadda yuqorida ko'rsatilgan fanlarning mavzu va savollari kasb tanlash nuqtai nazaridan taxlil qilish har bir tabiiy-ilmii, umumkasbiy fanning talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlashning mazmuni aniqlanadi va fanning ishchi rejasida aks ettiriladi.

Misol tariqasida quyidagi jadvalda "Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi" fanining rejasini keltiramiz. Yuqorida ta'kidlangan "Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi" fani, "Odam va tabiat" turkumiga kiruvchi kasblarning ilmiy asosi bo'lib[6] kafedra professor-o'qituvchilari o'quv-tarbiya jarayonida talabalarga mazkur kasblarning professiogrammasi asosida xalq xo'jaligini rivojlantirishdagi roli va ahamiyati, bajaradigan ish mazmuni, egallagan mehnat ko'nikmalari va malakalari bilan tanishtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.



Mavzu va savollar	“Odam va Tabiat” tipi kasblari va ularnig qisqacha mazmuni
Atmosfera O'zbekistonning qazilma boyliklari.	Ona diyorimizning shaxta va karyerlaridan burg'ulovchi stanoklar yordamida oltin, volfram, mis, temir va boshqa ma'danlarni kovlab olish (burg'ulovchi tog' kombayni mashinisti)
Gidrosfera Quruqlikda suv O'zbekiston suv xavzalari	O'simliklarni nobud bo'lishini oldini olish , ulardan mo'l-ko'l hosil yig'ishtirib olish uchun ularni muntazam sug'orib turish zarurligini ko'rsatish (Paxtakor, polizchi, g'allakor, bo'g'bon suvchi, mirob, gidrotexnik, meliorator)
Atmosfera Ob-havo va iqlim O'zbekiston iqlimi	Fermer –dehqon xo'jaligida parvarish qilinyotgan o'simliklarni meyorida rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ob-havo, iqlim omili (yorug'lik harorat, suv, tuproq, va boshqalar) ni hisobga olgan holda, yani agrotexnika tadbirlariga rioya qilgan holda mo'l-ko'l hosil yig'ishtirish (kichik agronom, texnik meteriolog, o'rmonchi, suvchi va boshqalar)
O'simliklar dunyosi meva va urug'	Nok, anjir, yong'oq, tut, tok navdalarini narxish suli bilan ko'paytirish (usta bog'bon ,(uzimchi) o'rmonchi va boshqalar)hamda tok , anor jiyda , tol, terak ,chinor kabi daraxtlarni qalamcha usuli bilan ko'paytirish kurtak payvand usilidan foydalanib o'simliklarni issiq va sovuqa chidamli kasalliklarga chidamligini oshirish .
Xona o'simliklarini vegitatif ko'paytirish	Mehnat sharoitida havoda ortiqch gaz, chang hosil qilinishi bilan bog'liq kasblar uchun qulay sharoit yaratish uchun xona yoki sexda karbonat agidirid miqdorini kamaytirishga, namlikni oshirishga, chang, mikroblardan tozalashda xona o'simliklarini qalamcha , kurtak payvandi yordamida ko'paytirish (gulchi).
Suv o'tlari.	Suv o'tlarini suniy ko'paytirish orqali ulardan insonlar uchun oziq-ovqat, chorvachilikda, yem-hashak sifatida, dehqonchilikda o'g'it sifatida foydalanadilar. Shunigdek, xlodofora yashil suv o'tidan gazlamalarni sifatli qog'oz va kartonlarni bo'yash uchun algen kislotaga tayyorlanadi (Biofabrika, oziq- ovqat sanoati xodimlari, to'quvchi, bo'yoqchi)
Hayvonot dunyosi hashorotlar sinfi	Hayvon va o'simlik qoldiqlari bilan oziqlanadiga hashorotlar yer yuzasini ifloslanishdan saqlashi tufayli sanitarlik vazifani bajaradi Hayotda bunday ishni shahar, tuman sanitariya – epedimilogik stansianar xodimlari bajaradi.



O'simliklar ning zararkunanda hashoratlari	Donli ekinlarga tushgan osiyo chigirtkasi , sabzavot va poliz ekinlariga shiralar , mevalarga olma qurti , g'o'za tunlama kartoshkaga koloroda qung'iziga qarshi kurashda biyo metod qo'lash maqul . Ushbu ish O'zbekiston respublikasi karatini va muhovaza qilish agetligini mintaqaviy bulimlari tixogramma , tila ko'z , brokomni o'stiruvchi biologik laboratoriya labarantlari, fermer dehqon xu'jaliklari ishchilari tomonidan amalga oshiriladi.
Chorvachilik.	Chorvachilik mahsulotlari oziq-ovqat hamda yengil sanoatni homoshyo bilan taminlab xalqimizini farovonligiga , dasturxonimizni go'sht , sut kabi mahsulotlari hamda xalqimizni charim ,poyafzal teri ,- buyumlariga galanteriya bo'lgan ehtiyojlarini qondirib kelmoqda (poyoqzal tikuvchi, oshpaz, oziq-ovqat mollarini sotuvchi, chorvador).

Mazkur fanni o'rganish jarayonida talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlashning muhim tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlash barobarida qishloq xo'jaligida mashg'ul bo'lgan ommaviy kasblar vakillari juda ko'p hollarda rejimni saqlashga imkon bermaydigan, ranglarni aniq sezishni talab qiladigan, zo'riqish va ish vaqti davomida tik turib mehnat qilish va hokazo talab qiladigan sharoitda mehat qilishga to'g'ri keladigan juda ko'plab kasblar haqida ma'lumot berish imkoniyatiga ega emas. Mazkur kamchilikni to'ldirishda "Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi" fanini tabiiy-ilmiiy fanlar (Yoshlar fiziologiyasi va gigiyenasi [2], Ekologiya [8] Odam anatomiyasi [3]) larining o'quv dasturlari mavzularining integratsiyasi" asqotadi . Quyidagi jadvalda ayrim mavzular misolida maskur fanlarnig intigratsiyasi keltirilgan .

Ayni paytda aytish joizki, mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv rejasiga kiritilgan fanlarning mazkur sohadagi imkoniyatlarini birgina deb bo'lmaydi.

Tabiiy-ilmiiy, umumkasbiy fanlar (matematika, matematika va uni o'qitish, mehnat, mehnat va uni o'qitish, tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi va boshqa) larning talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlash bo'yicha ishlab chiqilgan ish rejalar professor-o'qituvchilar faoliyatlarini yo'naltiradi hamda mazkur ishni samarali tashkil etishga ko'maklashadi.

Talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlash bo'yicha professor o'qituvchi faoliyatiga rahbarlik qiladigan rejalar qator talablar asosida ishlab chiqishni talab etadi. Jumladan, ishlab chiqilgan rejalarining maqsadga qaratilganligi professor-o'qituvchining o'zi o'qitayotgan fan bilan bog'liq kasblari taxsil oluvchilarda barqaror qiziqish uyg'otishga intilishi talabalarni kasb tanlash ishiga



tayyorlashning turli usul, shakl va vositalar yordamida amalga oshirilishi; taxsil oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligi va boshqalar.

Talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlashda integrativ yondashuvdan foydalanish u yoki bu kasb to'g'risida turli fanlar nuqtai nazaridan birgalikda beriladigan ma'lumotlar o'quvchilarda kasb bo'yicha yaxlit tasavvurlarni shakllantirish barobarida mazkur fanlarning jozibadorligini oshiradi.

Shu boisdan o'quv yili boshida umumkasbiy, tabiiy-ilmiy fanlar professor-o'qituvchilari OTM joylashgan tuman, viloyat ishlab chiqarish korxonalarining ommaviy ishchi kasblarga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olib borishni mazkur kasblar mehnat mazmunida qaysi fanlarning ilmiy asoslari yotganliklarini namoyon qilishni yillik, mavzuli va dars rejalarini tuzish talab etiladi.

Mazkur talablar asosida tuzilgan ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlar rejaları talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlashning samaradorligini ta'minlashga ko'maklashadi. Misol tariqasida "Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi" fanining mavzu va savollarini o'rganish jarayonida talabalarni qishloq xo'jaligining o'simlikshunoslik va chorvachilik tarmoqlarida mashg'ul bo'lgan ommaviy kasblarning xalq xo'jaligidagi ahamiyati, xalqimizning farovon hayot kechirishidagi roli, ularning mehnat mazmuni bayon qilingan kasb tanlash rejasini keltiramiz. Mazkur sharoitlarni o'z vaqtida namoyon qilish va uni hisobga olgan holda "Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi" fanini o'rganish jarayonida talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlash mazkur fanning mavzu, savollarini tabiiy-ilmiy fanlar mavzulari bilan integratsiyalashni talab etadi. Mazkur fanlarning integratsiyasi quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Tabiatshunoslik asoslari	Ekologiya	Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi	Odam anatomiyasi
Aatmosfera. Yerni o'rab olgan havo qatlami	Atmosfera. Atmosfera ifloslanishining sanitarik-gigiyenik...	Nafas olishning yosh xususiyatlari va gigiyenasi	Nafas a'zolarining tuzilishi
Gidrosfera. Suv, Yer osti suvlari, mineral suvlari	Suvning tabiat va jamiyat uchun ahamiyati. Chuchuk suv. Suvning ifloslanish manbalari va muammolari.	Bola o'sishida va rivojlanishida suv, va mineral tuzlar	Xazm qilish organlari tuzilishi



O'simliklar olami Meva va urug'	O'simlik resurslari, ularni muhofaza qilish.	Inson vujudiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan o'simliklar	Ichki a'zolar.Hazm qilishorganlari tuzilishi.Yurak tuzilishi
O'simlik xilma- xilligi.O'simliklar qoplami	O'simliklar xilma- xilligi Atmosferada kislorodning tiklanishida o'simliklarning roli	Nafas sistemasining vazifasi.Tashqi va ichki nafas olish	Nafas a'zolarining tuzilishi
Hayvonot olamining ayrim turlari (Qoramolchilik)	Hayvonlarning inson uchun resurs ekanligi... hayvonlarni muhofaza qilish	Ovqatlanish gigiyenasi	Hazm a'zolarining tuzilishi
Suv o'tlaridan oziq ovqat sifatida foydalanish	Suv resurslarining ifloslanishining oldini olish O'zbekistonda suv havzalarining ekologik holati	Ovqatlanish gigiyenasi	Hazm qilish organlarining tuzilishi
Xashorotlar sinfi. Asalari.Hayvonot olami boyligi	Hayvonlarni muhofaza qilish yuzasidan O'zbekistonda amalga oshirilgan ishlar	Ovqatlanish gigiyenasi	Hazm qilish organlari



O'simliklarning zararkunanda hashorotlari	Qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurashda zaxarli kimyoviy moddalar o'rniga yitqich qo'ng'iz, tillako'z va boshqalar dan bilogik laboratoriyalarda don, poliz, kartoshkaga trixogrammi brokon tayyorlab ekin maydonlariga tarqatish	Salomatlik haqida tushuncha	Nafas olish a'zolarining tuzilishi
O'zbekiston qazilma boyliklari .O'simlik qoplami.	Tabiiy resurslar va ulardan oqilona foydalanish	Tayanch-harakat apparatining yosh xususiyatlari va gigiyenasi	Muskullar va sezgi organlari

Ma'lumki, "Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi" qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'simlikshunoslik va chorvachilik tarmoqlarini ilmiy asosini tashkil etadi. Mazkur sohada mashg'ul bo'lgan ommaviy kasblar harqanday mikro iqlim havoning gaz ,chang bilan ifloslangan ,ko'p hollarda rejimni saqlashga imkon bermaydigan sharoitda ,ranglarni aniq sezishni talab qiladigan ,zo'riqish, kun bo'yicha tik turib ishlashni va boshqalarni talab qiladigan sharoitda mehnat qilishga to'g'ri keladi.

3-jadval

Tabiatshunoslik mavzu va savollari	"Odam va tabiat" turkum kasblari va ularni egallashga qo'yiladigan talablar mazmuni
Quyosh sitemasi siklik quyosh , kuchayib yer yuzida magnit bo'roni vujudga kelishi	Yer yuzasi bo'ylab magnit bo'roni tarqalishi natijasida Turli kasb vakillarida yurak-tomir, asab sistemasining bezovtalanishi. Tibbiyot hamshirasi(kardiolog). Yurak-tomirlar, asab sistemasini bezovta qilmaydigan ishlar.
Yer sharining harakati. O'zbe kiston iqlimi. O'zbekiston qazilma boyliklari	Shaxta va kargerlarda kon qazuvchi ,burg'ulovchi qazuvchi, sabr-bardoshli, jismoniy baquvvat, tayanch harakatlanish apparati sog'lom ish vaqti mobaynida tikka turib mehnat qiladi.



Gidrosfera. Quruqlikdagi suv. O'zbekistonda suv havzalari	Qo'llari hamda tayanch harakatlanish apparatini kam(suv)da uzoq saqlay oladigan yoshlar,sholikor,suvchi, mirob, gidrotexnik kasblarida ishlaydilar.
O'simliklar dunyosi Meva va urug' ... ma'daniy o'simliklarni ko'paytirish ...Suv o'tlari	<p>Paxta terish mashinasi mexanik haydovchisi-Jismoniy baquvvat va chidamli,harakatlar muvofiqlashgan bo'lishi paxta hosilini sifatli terib olishi uchun yaxshi rivojlangan ko'rish va eshitish sezgilariga ega bo'lishi lozim.</p> <p>Polizchi ustak-kuzatuvchan,yaxshi ko'rish xotirasiga ega,sabr toqatli, qo'l harakatlari muvofiqlashgan va epchil bo'lishi kerak</p> <p>Qishloq xo'jalik texnikasini ta'mirlovchi slessor-kuzatuvchan yaxshi eshitish sezgilariga ega bo'lishi, tufayli mexanizmlardagi nosozligini oldini olishi, texnikani xizmat muddatini uzaytiradi.</p> <p>Keng ixtisosli traktorchi mashinist-tovushning xarakteriga ko'ra dvigatel va xizmat ko'rsatadigan boshqa mexanizmlar holatini aniqlash uchun yetarli darajada o'tkir ko'zga ega bo'lishi,ishlov berilayotgan tuproqning o'ziga xosligini aniqlashi uchun rangni yaxshi farqlay olishi kerak.</p> <p>Pillakor usta-dastlabki materialni hosil bo'lish jarayonini rangi,hidi bo'yicha bir qarashda aniqlash uchun yaxshi ko'rish va rangni farqlash ,mo'tadil rivojlangan xususiyatga ega bo'lishi kerak.Uzilgan tut bargini qurtlardan o'z vaqtida berish uchun vaqt sezgisiga ega bo'lishi kerak.</p> <p>Usta-bog'bon(uzumchi)- mehnatsevar,kuzatuvchi,jismonan baquvvat ,sabr-bardoshli,qatiyatli bo'lishi barobarida yaxshi ko'rish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.</p>



	<p>Avtomobil shafyori-jismoniy va ruhiy sog'lom bo'lishi,masofani yaxshi chamalab olishi, rang va uning turlarini farqlay olishi lozim.</p> <p>Ip o'rovchi-Barqaror diqqat ,chamalab olish bir qarashdan g'altakdagi o'ramlarning tayyorligini aniqlay olishi ,qo'l harakatlarining yaxshi muvofiqlashganligi harakatlarni tezligiga ega bo'lishi lozim bo'ladi.</p> <p>Tarovchi-ziyraklik,sinchikovlik,turli operatsiyalarni bajarishga doimiy tayyorligi serharakatlilik,yaxshi ko'rish, qo'l va barmoqlarning epchilligi,o'zgarmaydigan mehnat jarayoniga bardoshlilik.</p> <p>To'quvchi- iplar uzilganda reaksiyaning tezligi va tez ulash malakasi,rang,naqsh,bezak,gul hamda ishlanadigan materialning sifatini ko'rib farqlash tezligi,chamalay olishligi ,terining sezgirligi,ko'z bilan nazoratn qilganda qo'llarning tartibli harakat qilishi</p> <p>Tikuvcchi –motoristka-qo'l va oyoqlarning yaxshi muvofiqlashgani harakatlari,barmoqlarni tez va yengilligi,tikish operatsiyalarining diqqat bilan juda yaxshi bajarishlik,yaxshi ko'ra olish ,qisqa masofadan chamalab olishlik.</p> <p>Yigiruvchi-doimiy barqaror diqqat,ish smenasi davrida xar soatda vaqtini to'g'ri taqsimlay olish ,tez ish priyomlarini takomillashtirib bera olish ,qo'llarini ochiq va tez muvofiqlashtirish,ip uzilganda va naychadan bo'shab chiqqanda nosozlikni aniqlash uchun chiziqli chamalay olishni yuqori teri sezgirligini talab qiladi</p>
<p>Hayvonot dunyosi Hasharotlar sinfi Qoramolchilik</p>	<p>Veterenar-kuzatuvchi,ziyrak,qatiyatli, dadil kishi,jismonan baquvvat,chidamli,sabr bardoshli,chaqqon bo'lishi kerak. Buzoqlarni boqib o'stiruvchi operator buzoqlarni holatini rivojlanish darajasini tez va aniq baholash uchun yaxshi ko'rish xotirasiga ega bo'lishi kerak.</p> <p>Asalarichi yaxshi ko'rishi, rangni farqlashi, dastlabki mahsulotni rangi va hidini bir qarashda aniqlash uchun normal sezgiga ega bo'lishi lozim</p> <p>Chorvachilik fermalari mexanizatori-jismoniy baquvvat kuzatuvchan,diqqat e'tiborli bo'lishi kerak.Unda harakatlar yaxshi muvofiqlashgan ,epchillik,texnika bilan ishlashga moyillik talab etiladi.</p> <p>Suv xo'jaligi ishchisi-Baliqchi juda sog'lom tabiatni sevadigan,tartib va saranjomli,diqqat-e'tiborli kishi bo'lishi keak,chunki unga yuklangan barcha topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishi baliqlar podasining hayoti va o'sishiga bog'liq</p>



Shunday qilib, "Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi" fanini "Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi", "Ekologiya", "Odam anatomiyasi" fanlari bilan integratsiyasi asosida talabalarni "Odam va tabiat" turkumiga kiruvchi qishloq xo'jalik kasblari bilan tanishtirish ularni kelgusi pedagogik bilimlarda juda zarur bo'lgan qishloq xo'jalik kasblarining mohiyat-mazmuni hamda mazkur kasblarning inson organizmiga qo'yadigan talablar bilan qurollantirishga imkoniyat yaratdi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni//Xalq so'zi gazetasi 2019-yil 6-sentabr
2. "Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi".Fan dasturi –T.:ToshDPI,2020.-6b
3. "Odam anatomiyasi".Fan dasturi—T.:ToshDPI,2021.-5b
4. Pedagogika Ensiklopediya.II jild—T.:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlar ilmiy nashriyoti,2015.-374b
5. "Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi".Fan dasturi—T.:ToshDPI,2021.-12b
6. Shodiyev N.Qishloq xo'jaligi ishchi kasblari professiogrammalri.O'quv-metodik qo'llanma,--T.:O'qituvchi ,1984.-142b
7. Shodiyev N.Boshlang'ich ta'limda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirish usullari//SamDu ilmiy-tadqiqotlar.Axborotnomasi,2017,No2-B.140-144
8. Ekologiya.Fan dasturi –T.:ToshDPI,2014.-9b

РЕЗЮМЕ

Maqolada kasbiy-pedagogik yo'naltirilganlik asosida "Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi" fanini tabiiy-ilmiy fanlar bilan integratsiyasi yordamida talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlash bilan bog'liq masalalar qaralgan.

РЕЗЮМЕ

В работе рассматриваются вопросы, связанные с подготовкой студентов к работе по профориентации путем интеграции "Природаведение и методика его преподавания" с естественно-научными предметами на основе профессионально-педагогической направленности.

SUMMARY

In the article, based on professional-pedagogical orientation, the issues related to the preparation of students for choosing a profession with the help of the integration of «Natural science and its teaching methodology» with natural-scientific sciences were considered.



BOSHLANG‘ICH SINIF MATEMATIKA TA‘LIMIDA INTERFAOL USULLAR ORQALI O‘QUVCHILARDA HISOBLASH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH USUL VA VOSITALARI

Kasimov F. M.

BUXDPI Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasasi dotsenti, p.f.n

Usmonova Z. I.

BUXDPI 2- bosqich magistranti

Tayanch so‘zlar: interfaol ta‘lim, hisoblash malakasi, hisob usuli, vosita, arifmetik amal.

Ключевые слова: интерактивное обучение, вычислительные навыки, метод расчета, инструмент, арифметическое действие.

Key words: interactive education, calculation skills, calculation method, tool, arithmetic operation.

Kirish. Boshlang‘ich ta‘lim umumta‘limning poydevoridir. Boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchida o‘qish, yozish, hisoblash, mulohaza yuritish, fikrlash malakalari shakllanadi. Boshlang‘ich ta‘lim oldida turgan muhim vazifalardan biri o‘quvchida hisoblash malakasini shakllantirishdir. Bu ulkan vazifa hozir ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining bosh vazifalaridan biri hisoblanadi.

Hozirda mashg‘ulotlarni olib borishda o‘qituvchilar imkon chegarasida interfaol usullardan foydalanishmoqda. Kelgusida esa bu usullar ma‘lum darajada interfaol texnologiyaga asosida ta‘limni tashkil etilishini taqozo qiladi. Bu ikki tushuncha, ya‘ni interfaol usul hamda texnologiya tushunchalarining o‘zaro farqini bizningcha, shunday izohlash mumkin.

Interfaol ta‘lim usuli – har bir o‘qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o‘z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir o‘quvchi o‘z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o‘zlashtiradi.

Interfaol ta‘lim texnologiyasi — har bir o‘qituvchi barcha o‘quvchilar bilan ko‘zda tutilgandek o‘zlashtiradigan mashg‘ulot olib borishini ta‘minlaydi. Bunda har bir o‘quvchi o‘z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg‘ulotni oldindan ko‘zda tutilgan darajada o‘zlashtiradi.

Adabiyotlar tahlili. Quyida biz boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan og‘zaki hisob usullari, ularning nazariy-metodik jihatlarini sharhlashga harakat qilamiz.

1-sinf matematika kursida o‘rganiladigan hisob usullari

2021-yil nashr etilgan “Matematika” darsligining 3-bobi “ 10 ichida qo‘shish va ayirish” deb nomlangan.

10 ichida qo‘shish va ayirish hisob usullari quyidagi bosqichlarda o‘ranilishi nazarda tutilgan:


1-bosqich. Ini qo‘shish va ayirish usullari bu 10 ichida sonlarni hosil qilish tamoyiliga asoslanadi. Har bir son o‘zidan oldingi songa 1ni qo‘shish orqali yoki o‘zidan keying sondan 1ni ayirish orqali hosil bo‘ladi.

2-bosqich. 10 ichida songa 2 ni, 3 ni, 4 ni qo‘shish va ayirish usullari bilan tanishtirish. Bu hisob usullari darslikda sonni bir necha birlikka orttirish va kamaytirish tarzida 10 ichida qo‘shish va ayirishlar berilgan.



3-bosqich. Qo‘shishning o‘rin almashtirish xossasiga asoslangan holda songa 5, 6, 7, 8, 9 sonlarini qo‘shish va sondan 5, 6, 7, 8, 9 sonlarini ayirish hollari o‘rganiladi. Bu davrning muhim vazifasi 10 ichida sonlar tarkibini puxta o‘rganishdan iboratdir.

Sonni o‘nli tarkibini o‘rganishda turli vositalar muhim o‘rin tutadi. Misol tariqasida 9 soni tarkibiga oid ayrim vositalarni keltiramiz:



10 ichida sonlarni qo‘shish va ayirishda bo‘laklab qo‘shish va ayirish usullari muhim o‘rin tutadi.

Masalan: 1) $5 + 2 = 5 + 1 + 1$

2) $7 - 2 = 7 - 1 - 1$


1) $3 + 4 = 3 + 2 + 2$

4) $6 - 4 = 6 - 2 - 2$

Bo‘laklab qo‘shish va ayirish usuli songa yig‘indini qo‘shish, sondan yig‘indini ayirish xossalriga asoslanadi.

O‘nlikdan o‘tib ayirish hisob usullarida 2-xil xossa: sondan yig‘indini ayirish va yig‘indidan sonni ayirishdan foydalaniladi (xossa nomlari o‘quvchilarga aytilmaydi).

“ $12 - 3$ ” sonli ifodani hisoblash usulini sharhlaymiz. 1-sinf Matematika darsligida keltirilgan hisoblash usuli bayoni (93-bet)



$$12 - 3 = 12 - 2 - 1 = 10 - 1 = 9$$

$$2 \begin{array}{l} / \\ \backslash \\ 1 \end{array}$$

Ushbu hisob usulida son tarkibi, sondan yig‘indini ayirish xossasiga oid o‘quvchilar bilimi qo‘llanildi.

2- usul. $12 - 3 = 9 + 3 - 3 = 9$

$$9 \begin{array}{l} / \\ \backslash \\ 3 \end{array}$$

Ushbu usulda 20 ichidagi ikki xonali son tarkibi va yig‘indidan sonni ayirishga doir o‘quvchilar bilimidan foydalanib yechiladi.

3- usul. Bu hisoblash usuli maktab dasturida kiritilmagan lekin ifodaning qiymatini tez va qulay usulda yechilishini ta‘minlaydi. Bunda 12 sonining tarkibini bilish talab etiladi. 2 birlik tenglik keyin o‘tkaziladi va 10 dan 3 ni ayirib, natijasi 2ga qo‘shiladi.

$$12 - 3 = 2 + 7 = 9$$

$$10 - 3 = 7$$

Tadqiqot metodologiyasi. Interfaol metod natijasida o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida o‘zaro hamkorlik tufayli dars samaradorligi oshadi, yangi darsni o‘quvchi mustaqil harakat, mulohaza, bahs-munozara orqali o‘rganadi, qo‘yilgan maqsadga mustaqil o‘zi darsda o‘quvchi faol ishtirok etgan holda kichik guruhlarda javob topishga harakat qiladi. Darhaqiqat, bunday



metodlarni qo'llash jarayonida o'quvchilar fikrlaydi, ham baholaydi, ham yozadi, ham gapiradi, ham tinglaydi, eng keragi o'zi faol ishtirok etadi.

O'quvchida to'laqonli hisoblash malakasini shakllantirishda o'qituvchi turli interaktiv metodlaridan foydalanishi mumkin. Quyida amaliyotda foydalaniladigan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so'z yuritamiz.

“Aqliy hujum” metodi

Mazkur metoddan tanlab olingan mavzular doirasida ma'lum tushunchalarni aniqlash va ularga muqobil bo'lgan g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Dars jarayonida «Aqliy hujum» metodidan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

1. Tahsil oluvchilarni muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ularning mantiqiy fikrlarni bildirishlariga erishish.

2. Har bir tahsil oluvchi tomonidan bildirilayotgan fikrlar rag'batlantirilib boriladi. Bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullari tanlab olinadi. Fikrlarning rag'batlantirilishi navbatdagi yangi fikrlarning tug'ilishiga olib keladi.

3. Har bir tahsil oluvchi o'zining shaxsiy fikrlariga asoslanishi va ularni o'zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikrlarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o'zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin hozirlaydi.

4. Mashg'ulot jarayonida tahsil oluvchilar faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo'l qo'yilmaydi. Ularning fikrlari baholanib borilsa, tahsil oluvchilar diqqatlarini shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar. Oqibatda yangi fikrlar ilgari surilmaydi. Metodni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad- tahsil oluvchilarni muammo bo'yicha keng fikr yuritishga undash ekanligini yodda tutgan holda ularning faoliyatini baholab borishdan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

Hisoblashga doir o'quv topshiriqlarini bajarishda mazkur metoddan foydalanish imkoniyati mavjud.

3-sinfda o'quvchilar boshlang'ich sinfda o'rganiladigan barcha hisob usullari bilan tanish bo'ladi. To'rt arifmetik amal, ularni xossalari va barcha hisoblash usullarini o'quvchi amalda qo'llab biladi.

O'qituvchi o'quvchilarni sonli ifodalar qiymatlarini to'g'ri topishlarini bilish maqsadida doskaga quyidagi topshiriq yozilgan plakatni osib qo'yadi.

Topshiriq. Qavslarni shunday qo'yingki, sonli tengliklar to'g'ri bo'lsin:

- 1) $180 : 20 + 10 * 4 = 49$
- 2) $180 : 20 + 10 * 4 = 24$
- 3) $180 : 20 + 10 * 4 = 3$

Ushbu topshiriqni berishdan maqsad o'quvchilarning arifmetik amallarini to'g'ri va tez bajarishlari, arifmetik amal xossalari va hisoblash usullaridan to'g'ri foydalanishlari, qavslari ifodalarda amallar bajarish qoidalarini amalda to'g'ri qo'llay olishlarini aniqlashdir.

Bu topshiriq yuzasidan o'quvchilar o'zlari mustaqil fikr yuritib, uning mumkin bo'lgan yechim variantlarini izlashadi. O'quvchilar fikrlari tinglanadi. mulohazalar yuritiladi, har bir yechim variant sharhlanadi.

Natijada topshiriqning to'g'ri yechim varianti sinfga e'lon qilinadi.

- 1) $180 : 20 + 10 * 4 = 9 + 40 = 49$ (Bu yerda qavslar ishlatilmay amallar bajarish qoidalariga tayaniladi)
- 2) $180 : (20 + 10) * 4 = 180 : 30 * 4 = 6 * 4 = 24$
- 3) $180 : (20 + 10 * 4) = 180 : (20 + 40) = 180 : 60 = 3$

Bu metoddan foydalanilgan holda sinf o'quvchilari bilan dars boshida o'g'zaki hisob mashqlari tarzida o'tkazish mumkin. Bu bir necha variantlarda tashkillashtirish imkoniyati bor.

- 1- variant. Qatorlar bo'yicha misollar tanlab beriladi. O'qituvchi nazorati oson bo'lishi uchun “Doiraviy misollar”ni tanlash ma'qul. Har bir qatrdan o'quvchilar soniga qarab 10-12 ta misollar shunday tanlanadiki, har bir o'quvchi bitta misolni bajarishi kerak. Bu sinf o'quvchilari o'zlashtirgan mavzular doirasida bo'lishi yaxshi. Shunda o'qituvchi 5-8

minutda butun sinf o'quvchilarining qaysidir hisoblash usullarini o'rganganligini tekshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Masalan, 2-sinfda o'quvchilarining 100 ichida hisoblash ko'nikmalarini tekshirish maqsadida quyidagi "doiraviy" misollarni berish mumkin:

- 1) $7 * 6$ 2) $42 - 2$ 3) $40 + 10$ 4) $50 : 10$
 5) $5 + 15$ 6) $20 + 4$ 7) $24 : 3$ 8) $8 * 5$
 9) $40 - 26$ 10) $14 : 2$

Har bir keyingi misoldagi boshlangan son oldingi misol javobidan iborat bo'lib, oxirgi misol javobi 1-misoldagi birinchi berilgan sonni ifodalaydi.

2- variant. O'qituvchi hisoblash usullariga ta'luqli topshiriqlar tuzib keladi. Frantal tarzda "tezkor savol-javoblar" o'tkazadi. Bunda savollar o'ta qiyin bo'lmasligi, javoblar qisqa aniq bo'lishi maqsadga muvofiq. Savol sinf jamoasiga beriladi, kim birinchi qo'l ko'tarsa, o'shandan so'raladi. Masalan, 2-sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan savol-javob namunalarini keltiramiz:

- Eng katta ikki xonali sonni 1ta orttiring. Qaysi son hosil bo'ladi?
(100 soni)
- Qachon ayirma nolga teng bo'ladi? (Ayiriluvchi kamayuvchiga teng bo'lsa)
- Qachon ayirma kamayuvchiga teng bo'ladi? (Ayiriluvchi nolga teng bo'lsa)
- Kamayuvchi 20 ta orttirilsa, ayiriluvchi ham 20 ta orttilsa, ayirmada qanday o'zgarish bo'ladi? (Ayirma o'zgarmaydi)
- 4 sonini 4 marta orttirib, natijaga 4ni qo'shamiz necha hosil bo'ladi?(20)
- Eng katta ikki xonali son eng kichik 2 xonali son dan nechta ortiq?(89)
- Bo'linuvchini 2 marta orttirib, bo'luvchini 2 marta kamaytirsak bo'linma qanday o'zgaradi? (4 marta ortadi)
- Eng katta juft 2 xonali son, eng kichik toq 2 xonali son dan nechta ortiq? (87)
- To'g'ri to'rtburchak eni 8 sm, bo'yi 12 sm. Perimetri nechiga teng (40 sm)

3-variant. O'quvchilarning hisoblash malakalari shakllanishiga yordam beruvchi ta'limiy o'yinlar ham o'quvchilarning qiziqishlarini oshiradi. "Tez hisobchi", "Kim chaqqon?", "Zinamazinga", "Bilimdon", "Topag'on" kabi o'yinlarda o'qituvchi o'quvchilar hisoblash usullarini mustahkamlash maqsadida o'quv topshiriqlarini tanlashi mumkin. Misol tariqasida "Tez hisobchi" o'yinini o'tkazish metodikasini bayon etamiz. Bu o'yin har bir boshlang'ich sinflarda o'tkazilishi mumkin. Uni ham turli variantlarda tashkillashtirish imkoni bor. Qatorlar bo'yicha 3 ta qatorga mos doskaga topshiriqlar yoziladi. Qatordan bir kishidan chiqib, hisoblashga oid misollarni bajarib boradi. Qaysi qator berilgan misollarni to'g'ri va tez bajarib tugatsa, o'sha qator g'olib hisoblanadi. Bu o'yinni sinf o'quvchilarini jamoalarga (masalan 5-6 ta) ajratib, jamoada g'oliblarni aniqlab, jamoa g'oliblari orasida ham bu o'yin o'tkazilib, sinfning "g'olib hisobchisi" sovrindorini aniqlash imkoni bo'ladi.

«Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi, ...) ortiqcha» metodi

Tahsil oluvchilarning mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;
- hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo'lmagan bitta tushunchaning o'rin olishiga erishish;
- tahsil oluvchilarga mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
- tahsil oluvchilarni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida tahsil oluvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tishlari hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni asoslashlarini talab etish lozim).

Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ko'rsata va asoslay olish tahsil oluvchilarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarini asoslay olish,



shuningdek, tengdoshlarining fikrlari bilan shaxsiy mulohazalarini o‘zaro taqqoslash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Ushbu metod yordamida o‘quvchilarning hisob malakalarini o‘stirish imkoniyati bor.

Mazkur metod o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish bilan birga, taqqoslash, xulosa qilish kabi xislatlarni tarkib topishga yordam beradi.

Songa yig‘indini qo‘shishni topishga doir o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, unga doir hisoblash usullarini amalda tadbiiq etish ko‘nikmalarini o‘stirish maqsadida quyidagi topshiriqlarni sharhlaymiz.

Topshiriq. Quyidagi misollarga diqqat bilan qarang. Qaysi misol ortiqcha? Nima uchun?

- 1) $14 + (6 + 2)$
- 2) $18 + (7 + 2)$
- 3) $30 + (10 + 4)$
- 4) $24 - (4 + 2)$

Ushbu topshiriqni yuqorida zikr etilgan metod asosida o‘quvchi bajarar ekan, ushbu misollarning

1-,2-,3-lari bir-biriga o‘xshash, ya’ni songa yig‘indini qo‘shishga doir, 4-misol esa farq qiladi, bu sondan yig‘indini ayirishga doir. O‘qituvchi yuqoridagi misollarni qanday usullarda bajarish mumkinligini so‘raydi. O‘quvchilar misollarni turli usullarda bajarish mumkinligini aytishadi. Songa yig‘indini qo‘shishning 3 usuli, sondan yig‘indini ayirishning 3 usuli borligini va bu misollarda qulay hisoblash usullarini sharhlab berishlari mumkin:

1-misol yechilishida qulay hisoblash usuli:

$$14 + (6 + 2) = (14 + 6) + 2 = 20 + 2 = 22$$

2-misol yechilishida qulay hisoblash usuli:

$$18 + (7 + 2) = (18 + 2) + 7 = 20 + 7 = 27$$

3-misol yechilishida qulay hisoblash usuli:

$$30 + (10 + 4) = (30 + 10) + 4 = 40 + 4 = 44$$

4-misol yechilishida qulay hisoblash usuli:

$$24 - (4 + 2) = (24 - 4) - 2 = 20 - 2 = 18$$

Oxirgi 4-misolni bajarish jarayonida ayrim o‘quvchilar analogiya metodiga tayangan holda, ya’ni “songa yig‘indini qo‘shish” xossasiga doir hisoblash usulini qo‘llab tipik xatoga yo‘l qo‘yishlari mumkin:

$$24 - (4 + 2) = 24 - 4 + 2 = 20 + 2 = 22$$

Bu misolni yechishda yo‘l qo‘yilgan xatoning asosiy sababi, misol berilishida qavs ichida 2 soni oldida “+” ishora bor deb o‘quvchi noto‘g‘ri fikr yuritadi. Bunday tipik xatolar oldini olish uchun, o‘qituvchi “sondan yig‘indini ayirish” xossasini o‘quvchilarga yaxshilab tushuntirib, shu hisoblash xossasiga oid qator hisob usullarini shahrllovchi misollarni o‘quvchilarga yettirishi kerak.

«Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash» metodi

Tahsil oluvchilar bilan ommaviy va guruh shaklida ishlashda ushbu metodni qo‘llash nihoyatda qulay. Metoddan mashg‘ulotlar so‘ngida mavzuni mustahkamlashga oid tezkor savol-javobni tashkil etishda foydalanish mumkin. Metod quyidagi harakatlarni tashkil etish asosida qo‘llaniladi:

- o‘qituvchi tomonidan sinf tahsil oluvchilarining soniga ko‘ra har bir tahsil oluvchi uchun qizil va yashil rangli kartochkalar hamda mavzuga oid savolnoma tayyorlanadi;

- savolnomadan «ha» yoki «yo‘q» tarzida javob berish mumkin bo‘lgan savollarning o‘rin olishiga ahamiyat qaratiladi;

- har bir tahsil oluvchiga qizil va yashil kartochkalar tarqatiladi;

- tahsil oluvchilarga qizil rangli kartochkalarning «tasdiq», yashil rangli kartochkalarning «inkor» ma’nosini anglatishi uqtirib o‘tiladi;

- tahsil oluvchilar o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga «tasdiq» yoki «inkor» ma’nolarini anglatuvchi kartochkalarni ko‘rsatish asosida javob qaytaradilar.



Tahlil va natijalar. Interfaol metodlar bilan an'anaviy ta'lim usullari orasida o'ziga xos farqlar mavjud bo'lib, har bir o'qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o'tkazish usullarini tanlashda to'g'ri hisobga olishi zarur. Bunda yangi bilimlarni berish, ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda qo'llash mashg'ulotlarida hamda o'quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mavzu bo'yicha mashg'ulot uchun eng maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol yoki boshqa metodlarni to'g'ri tanlash nazarda tutiladi. To'g'ri tanlangan metodlarni qo'llash mashg'ulotning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.


"Venn diagrammasi" metodidan foydalanishdan ko'zlangan maqsad: o'quvchilarda ikki va undan ortiq predmet va tushunchalarni taqqoslashda, ularning farqli va umumiy tomonlarini aniqlash ko'nikmalarni shakllantirish.

Ushbu metoddan o'quvchilarning hisoblash malakalarini shakllanganini aniqlashda foydalanish mumkin. O'quvchilarda arifmetik amallarni bajarish tartibi tushinchalarining shakllanishi, misol javoblarini to'g'ri va tez bajarganliklarini, aynan teng sonli ifodalarni qiymatlariga ko'ra sinflashga doir bilimlarini mustahkamlash maqsadida Venn diagrammalaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu metodning boshlang'ich ta'limning barcha sinflarida qo'llash mumkin. Misol tariqasida, 3-sinf matematika darsligining 3-bob 3-darsida berilgan quyidagi topshiriqqa qaraymiz. Venn diagrammalarining har bir qismiga berilgan sonlardan mosini joylashtiramiz.

O'qituvchi doskaga qator sonlarni yozib chiqadi. Shu sonlardan 3 ga bo'linadiganlar bir sinfga, 4 ga bo'linadigan sonlarni ikkinchi sinfga ajratishini aytadi. Shunday sonlar borki ham 3 ga, ham 4 ga bo'linadiganlar. Ular har ikkiala sinfga taaluqli bo'ladi. Nazariy tilda aytganda 3ga bo'linadiganlar biror A to'plamni, 4 ga bo'linadiganlar B to'plamni tashkil etsa, ham 3 ga, ham 4 ga bo'linadiganlar A va B to'plamlar kesishmasiga tegishli bo'ladi.

Bu topshiriqni o'quvchilarga berganda o'qituvchi quyidagicha ko'rsatma berishi ma'qul. Misollarni yechib, javobi 3 ga bo'linadiganlarni 1-ustunga, javobi 4ga bo'linadiganlarni 3-ustunga, javobi ham 3 ga, ham 4 ga bo'linadiganlarni 2-ustunga kiriting. Ularni qalam yordamida o'rab chiqing. Natijada Venn diagrammasi hosil bo'ladi.

6, 8, 12, 15, 16, 18, 20, 24



Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta'lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi-o'quvchilarning muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, o'quvchilar orasida emostional aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z o'rtoqlarining fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi.

**Adabiyotlar:**

1. Umumiy o'rta ta'limning Milliy O'quv Dasturi (Matematika) T.: 2021.
2. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi. -Toshkent, 2016. -426 bet.
3. Matematika 1-sinf. Metodik qo'llanma [Matn]: o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma/N. SH. Ruzikulova [va boshq.]. -Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. -144b.
4. O'rinboyeva L., [va boshq.]. Matematika 2- sinf [Matn]: darslik. - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. -192 b.
5. Matematika 3-sinf. Metodik qo'llanma [Matn]: o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma/L. O'rinboyeva [va boshq.]. -Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. -239b.
6. Alimov A.Y. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik malakalarini rivojlantirishda interfaol metodlarning imkoniyatlari" SCIENTIFIC PROGRESS ISSN:2181-1601.P-1108.
7. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" – Toshkent: 2015. 58-bet
8. Xudoynazarov E.M " Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik fikrlash faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishning metodik tizimi" / Monografiya/ –T.: "Navro'z", 2019. – 108 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika ta'limida interfaol usullar orqali o'quvchilarda hisoblash malakasini shakllantirish usul va vositalari, dars jarayonida ulardan qay tartibda foydalanish misollar orqali sharhlab berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье на примерах описаны методы и средства формирования у учащихся навыков счета с помощью интерактивных методов в начальном классе математического образования, а также способы их использования в ходе урока.

SUMMARY

In this article, methods and means of forming students' calculation skills through interactive methods in primary grade mathematics education, and how to use them in the course of the lesson are described through examples.



XALQ OG‘ZAKI IJODI VOSITASIDA BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING TALAFFUZINI RIVOJLANTIRISH

Olimova N.

FDU o‘qituvchi

Madrahimova M.

FDU talabasi

Tayanch so‘zlar: maqol, matal, topishmoq, tez aytish, ertak, rivoyat, ibora, xalq qo‘shig‘i, hikmatli gap, alliteratsiya.

Ключевые слова: пословица, поговорка, загадка, скороговорка, сказка, повествование, фраза, народная песня, поговорка, аллитерация.

Key words: proverb, matal, riddle, fast saying, fairy tale, narration, phrase, folk song, wise sentence, alliteration.

Ma‘lumki, Yangi O‘zbekistonimiz gullab, rivojlanayotganiga ham 22 yil bo‘ldi. Shu yillar davomida ko‘plab sohalar kabi pedagogika yo‘nalishida ham bir qancha ilmiy yutuqlar va rivojlanishlar bo‘ldi. O‘tgan davr mobaynida “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” na‘munalarining talqin etilishida o‘sha davrning aynan ruhi va hissiyoti bilan to‘liq o‘rganilmayotgani achinarli hol, albatta. Ana shunday kamchiliklarni “Xalq og‘zaki ijodi na‘munalari” orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining talaffuzida uchraydigan ayrim kamchiliklarni bartaraf etishni rivojlantirishni mazkur maqola orqali ochib berishga qaror qildik.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 1-sinf “Ona tili” darsligidagi xalq og‘zaki ijodining soni va ahamiyati.

Maqol – 8 ta

Topishmoq – 14 ta

Ertak – 2 ta

Tez aytish – 2 ta

Boshlang‘ich sinflarda, asosan, o‘quvchilarning nutqiy faoliyatlarini shakllantirishdan tashqari, ularning dunyoqarashlarini kengaytirishga katta e‘tibor qaratilgan. O‘quvchilarni mustaqil fikrlay olish qobiliyatlarini yanada rivojlantirish da xalq og‘zali ijodi namunalari (maqol, matal, topishmoq va hk) ning o‘rni va ahamiyati beqiyos. Misol uchun:

To‘rtta uning oyog‘i,

Temir mixli tuyog‘i.



*Manzilga yetishtirar,
Toshdan qattiq tuyog‘i. (ot)*

Topishmoqda berilgan 1-misradagi “To‘rtta uning oyog‘i,” tasviri berilganda o‘quvchilar to‘rtta oyoqli predmetlar yoki jonivorlarni tasavvur qila boshlaydilar. “Temir mixli tuyog‘i” misrasi berilganda esa, o‘quvchilar topishmoqda predmet emas, balki jonivorlar haqida so‘z ketayotganini fikr qiladilar. Keyingi misralardagi “Manzilga yetishtirar,” va “Toshdan qattiq tuyog‘i” jumllarini o‘qiganlarida javob ot ekanligini tushunib yetadilar. Chunki, ot doim bizni manzilimizga yetishda ko‘makchi hisoblanadi. Bundan tashqari, boshqa jonivorlarga nisbatan otning tuyoqlari juda baquvvat. Sifatlarning bosqichma-bosqich har bir misrada berilishi o‘quvchilarning to‘g‘ri javob topishlari uchun yordam beradi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 1-sinf “O‘qish kitobi” darsligidagi xalq og‘zaki ijodining soni va ahamiyati.

Maqol – 42 ta

Topishmoq – 37 ta

Tez aytish – 24 ta

Ertak – 4 ta

Rivoyat – 2 ta

Hikmatli gap – 3 ta

Xalq qo‘shig‘i – 2 ta

1-sinf o‘qish kitobida maqol, topishmoq, tez aytish va ertaklar bilan bir qatorda, o‘quvchilarning odob-axloqlariga qaratilgan rivoyat, hikmatli gap va xalq qo‘shiqlari ham berilgan.

Misol tariqasida hikmatli gapni tahlil qilib ko‘raylik;

Vaqt kutib turmaydi,

Har bir daqiqani g‘animat bil.

Yuqoridagi hikmatli gap orqali o‘quvchilarga vaqtning qay darajada qadrli ekanligi, uning ushlab bo‘lmas asov tuyog‘i kabi chopqirligi, qo‘yinki, har on, har daqiqamizning g‘animatligi ta‘kidlangan. Pulga soat sotib olish mumkin-u, ammo vaqtni sotib olish mumkinmasligi o‘quvchilar tushunadigan tilda sodda va oson qilib yetkazib berilgan.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 2-sinf “Ona tili” darsligidagi xalq og‘zaki ijodining soni va ahamiyati.

Maqol – 28 ta

Topishmoq – 19 ta

Tez aytish – 2 ta

Hikmatli gap – 1 ta



Darslikda berilayotgan xalq og‘zaki ijodi namunalarida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va dunyoqarash ko‘lami, albatta, e‘tiborga olinishi lozim. 2-sinf ona tili darsligidagi maqollar bu uchun yaqqol namuna bo‘la oladi.

Misol uchun:

*Rost so‘zlagan yetar niyatga,
Yolg‘on degan qolar uyatga.*

Bu maqolda ko‘rinib turibdiki, rost so‘zlagan inson doim ko‘zlagan niyatiga erishadi. Yolg‘on so‘zlagan inson esa doim uyatda qolishi ta‘kidlangan. Biz yosh avlodni hamisha rost so‘zlashga o‘rgatishimiz, yolg‘on so‘zlaganda esa boshiga qanday musibatlar kelishi haqida tushuncha berishimiz lozim. Bularning barchasini o‘quvchilar ongiga singdirishimiz va doim yodda saqlab qolishlari uchun nutqimizda xalq og‘zaki ijod namunalaridan ko‘proq misollar keltirishimiz lozim.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 2-sinf “O‘qish kitobi” darsligidagi xalq og‘zaki ijodining soni va ahamiyati.

Maqol – 63 ta

Topishmoq – 48 ta

Tez aytish – 47 ta

Rivoyat – 2 ta

Ertak – 6 ta

Boshlang‘ich sinf darsliklarida berilayotgan har bir xalq og‘zaki ijodiga e‘tibor qaratganimizda, xoh u maqol bo‘lsin, xoh topishmoq har birida vatanni sevish, uni qadrlash, do‘stlik mehri, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat kabi tushunchalar ilgari surilmoqda.

Misol uchun,

*Mehnat qilsang yasharsan,
Katta-katta osharsan.*

Inson bolaligidan mehnat qilishga odatlansa, kelajakda uning har qanday tashvishi arzimagan ishdek tuyuladi. Peshona teri qilib topilgan pulning barakasi bo‘ladi. Inson aqlli bo‘lishi uchun ham mehnat qilishi lozim.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktabi 1-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligidagi xalq og‘zaki ijodining soni va ahamiyati

1-qism

Maqol – 4 ta

Topishmoq – 4 ta

Tez aytish – 4 ta

2-qism

Maqol – 1 ta

Topishmoq – 11 ta



Tez aytish – 4 ta

Ertak – 3 ta

Bilamizki, tovush alliteratsiyasi kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar tugul, katta yoshdagi insonlar uchun ham bir muncha noqulayliklar tug‘diradi. Buning sababi nutqni rivojlantiruvchi mashqlarning kam bajarilganligidir. Tez aytishlarni nuqtda tez-tez takrorlash bu muammoning yechimi hisoblanadi.

Misol uchun:

*Pirpirak pirillaydi,
Chirildoq chirillaydi.*

Yuqorida keltirilgan tez aytishda bir-biriga yaqin bo‘lgan tovushlarning hammohang keltirilishi o‘quvchilarning tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlari uchun yordam beradi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktabi 2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligidagi xalq og‘zaki ijodining soni va ahamiyati.

1-qism

Maqol – 24 ta

Ertak – 1 ta

Ibora – 1 ta

Rivoyat – 1 ta

2-qism

Maqol – 13 ta

Topishmoq – 16 ta

Tez aytish – 5 ta

Ertak – 4 ta

Xalq qo‘shig‘i – 2 ta

Hozirgi kunda yosh avlodning mustaqil fikr yurita olishi, fikrini to‘g‘ri va ravon, ifodali qilib yetkazib berishiga katta e‘tibor qaratilmoqda. Albatta, bularning amalga oshishi uchun o‘quvchilardan ko‘proq mashq qilishlari talab qilinadi. Sinf darsliklarida o‘quvchilarning har javhada yuksalishlariga yordam tariqasida har xil xalq og‘zaki ijodlari keltirilgan. Misol tariqasida topishmoqlar ustida fikr yuritganimizda; topishmoqlar kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning xotiralarini mustahkamlashda, tasavvurlarini kengaytirishda, nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Misol uchun:

*Loy va jundan tanasi,
Hovlimizda xonasi.
Yemishi olov, xamir,
Beradi shirmoy, patir(tandir).*



Quyidagi topishmog‘imizda keltirilgan misralarda dastlab, tasvirlanayotgan predmetning loydan yasalganligi va manzili uyimizda ekanligi o‘quvchilarning e‘tiborini tortadi. Keyingi misrlarda esa, yemishi olov, xamir va shirmoy va patir beradi ta‘rifida javob tandir ekanligi aniq bo‘ladi.

Xulosa

Barcha ma‘naviy axloqiy fazilatlarining poydevori, tushunchalari, ko‘nikmalari bolalikdan tarkib toptirilmagana, bu poydevor barqaror bo‘ladi. Ma‘naviy axloqiy fazilatlar tarkibida nutq, muloqot, munosabat madaniyati alohida o‘rin tutadi. O‘quvchilarda nutqiy munosabatga kirishish malakasini hosil qilishda pedagogikaning roli kattadir. Bu o‘qituvchining erkin va aniq – ravshan nutqi, o‘quvhilar nutqi va tafakkurini rivojlantirishning birinchi darajali muhim shartlaridan hisoblanadi.

O‘qituvchining mahorti shundaki, u o‘zining yoqimli nutqi bilan bir butun jamoaga ta‘lim-tarbiya beribgina qolmay, balki ularni yuksaklikka intilishga chorlashi kerak.

Ta‘limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O‘zining qadr-qimmatini anglaydigan idorasi baquvvat, imoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo‘lgan insonlarni tarbiyalash imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Ana shunday keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Shunda inson o‘z aqli, o‘z tafkkuri, o‘z mehnati, o‘z mas‘uliyati bilan ongli tarzda ozod va hur fikrli inson bo‘lib yashaydi.

Adabiyotlar:

1. O‘qish kitobi 1-sinf, o‘n uchinchi nashr, “Sharq” nashriyot-manbaa bosh tahririyati. Toshkent – 2019
2. 1-sinf o‘qish kitobi. “Sharq” nashriyot-manbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2019
3. 2-sinf ona tili. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-manbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2018
4. 2-sinf o‘qish kitobi. “Sharq” nashriyot-manbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2018
5. 1-sinf 2-qism ona tili va o‘qish savodxonligi. Toshkent – 2021
6. 2-sinf 2-qism ona tili va o‘qish savodxonligi. Toshkent – 2021

РЕЗЮМЕ

O‘quv jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun bir qancha muhim omillar mavjud. Ular orasida o‘quvchilarning talaffuzlari ham muhim ahamiyatga egadir. Quyidagi maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining talaffuzini rivojlantirishda “Xalq og‘zaki ijodi”ning ahamiyati haqida.

РЕЗЮМЕ

Существует несколько важных факторов повышения эффективности процессов обучения. Среди них немаловажное значение имеет и произношение учащихся. Следующая статья посвящена значению “устного народного творчества” в развитии произношения младших школьников.

SUMMARY

There are several important factors to improve the effectiveness of educational processes. Among them, the pronunciation of students is also important. The following article is about the importance of “folk oral creativity” in the development of pronunciation of Primary School students.



МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ TASHKILOTLARI VA STEAM MAQSAD VA NATIJALAR

Nigmatova M. Z.

*Samarqand viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish
milliy markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikalari
kafedrasi katta o‘qituvchisi*

Tayanch so‘zlar: STEAM, tadqiqot, kashfiyot, ilm, qobiliyat, multimedia, qurilish, lego.

Key words: STEAM, research, discovery, science, skills, multimedia, construction, lego.

Ключевые слова: STEAM, исследование, открытие, наука, навыки, мультимедиа, строительство, легио.

Ma‘lumki, zamonaviy dunyoda inson muvaffaqiyatining asosiy shartlaridan biri axborotni qabul qilish va uni malakali qayta ishlash qobiliyatidir. Ta‘limni modernizatsiya qilish sharoitida maktabgacha ta‘lim tashkilotida har bir bolaning potentsialini va ijodiy qobiliyatlarini samarali ro‘yobga chiqishini ochishga yordam beradigan, shuningdek, bolalarining ota-onalarining sifatli bilim olish istagini qondirishga yordam beradigan shart-sharoitlarni yaratish masalasi dolzarbdir.

Ta‘limga integratsiyalashgan yondashuv fikrlash qobiliyatlarini eng yaxshi darajada rivojlantirishga yordam beradi va istiqbolli izlanuvchan kasblarni tanlash yo‘llarini ochadi. STEAM bolalarni ilmiy va texnik faoliyatga osongina jalb qiladi va uni kommunikativ va ijodiy faoliyatga osongina aylantiradi. Bu maktabgacha yoshda zarur bo‘lgan intellektual qobiliyatlarning tizimli rivojlanishiga yordam beradi.

«STEAM» texnologiyalarining to‘plamiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- 1.»F. Frebelning didaktik tizimi» o‘quv moduli;
2. «LEGO - qurilish»;
3. «Matematik ishlanma» o‘quv moduli;
4. «Robotexnika» o‘quv moduli;
5. «Multstudiya» o‘quv moduli;
6. «Jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba o‘tkazish» o‘quv moduli.



STEAM ta'lim modelini joriy etishning asosiy maqsadlari quyidagilardir: maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtasida tadqiqotchilik va ixtirochilik qobiliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlar tizimini tasdiqlash, maktabgacha yoshdagi bolalarda tadqiqotchilik va ixtirochilik qobiliyatini shakllantirish yo'nalishidagi ishlarida ularning atrof-muhitga, ijtimoiy-madaniy dunyoqarashiga va maktab tayyorgarligini shakllantirishga ta'sirini aniqlashdir.

Ota-onalar uchun natijalar kontekstida STEAM ta'lim modelini joriy etish vazifalariga bolalarning ota-onalari bilan ishlashda yangi yondashuvlardan foydalanish (maktabgacha ta'lim mussasasining ota-onalar uchun ochiqligi, oilaviy ta'limning ustuvorligi, bolani tarbiyalashda ota-onalarning sheriklik huquqlarini tan olish) va bolalarda tadqiqotchilik uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirishda pedagogik savodxonlikni oshirishning ahamiyati kattadir.

Bolalarda Steam ta'limidan kutilayotgan natija: kognitiv rivojlanish, hissiy rivojlanish, qiziqish va kognitiv motivatsiyani rivojlantirish, kognitiv harakatlarni shakllantirish, tadqiqotchilik, tasavvur va ijodiy faoliyat qobiliyatini shakllantirish va rivojlanish, atrofdagi obyektlarining xususiyatlari va o'zaro ta'siri (shakli, rangi, o'lchami, materiali, tovushi, ritmi, tempi, sabablari va oqibatlari) haqida birlamchi g'oyalarni shakllantirish, idrok, diqqat, xotira, kuzatish, tahlil qilish, taqqoslash, obyektlarning xarakterli muhim xususiyatlarini ajratib ko'rsatish qobiliyatini rivojlantirish, atrofdagi voqea hodisalar; ob'ektlar va hodisalar o'rtasidagi eng oddiy aloqalarni o'rnatish, eng oddiy umumlashmalarni amalga oshirish qobiliyatidir.

Ushbu tajribaning yangiligi bolalar tadqiqotining ilgari ma'lum bo'lgan va zamonaviy usullarining elementlaridan kompleks foydalanishdir va quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish uchun amaliy materialni tuzish;
- maktabgacha yoshdagi bolalar bilan tajriba o'yinlarini o'tkazish, STEAM ta'lim modelida aks ettirilgan.

Zamonaviy maktabgacha yoshdagi bolalarning 65 foizi bugungi kunda mavjud bo'lmagan kasblarni egallashi aniq bo'lmoqda. Buning uchun eng yangi texnologiyalarga ega, tabiiy fanlar va muhandislikni tushunadigan yosh mutaxassislar kerak bo'ladi.

Bolalar erta yoshdan boshlab o'zlariga yaqin bo'lgan o'yin faoliyati orqali dunyoning xilma-xilligini o'zlashtiradilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limni amalga oshirish davlat talablari bilan tartibga solinadigan o'yin usulida amalga oshiriladi. STEAM texnologiyalari tomondan - o'yin, boshqa tomondan – bolaning ijodiy intellectual salohiyatini rivojlantirish hisoblanadi.



Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasidan foydalanish bolalar va ota-onalar, tarbiyachilarini ijodiy innovatsion samarali faoliyati, elektron interaktiv ta'lim resurslari bilan ishlash, ijodiy va kreativ fikrlashni rivojlantirish yo'nalishida faollashtiradi. Bizning maktabgacha yoshdagi bolalarimiz maktab innovatsiyalariga, loyihalarni yaratishga va ularni haqiqatda amalga oshirish qobiliyatiga tayyor bo'lishlari kerak.

«STEAM» ta'limidan foydalanish va turli xil san'at va texnologiyalarni integratsiyalash bolalar uchun yangi multfilmlar va interaktiv o'yinlar yaratilishini talab qiladi. Shunday qilib, biz ota-onalarning sifatli ta'limga bo'lgan ehtiyojini qondiradigan bolalar uchun qo'shimcha tegishli ta'limning yangi shakllarini beramiz. Vaziyatning yangiligi, g'ayrioddiy materiallar va texnologiyalar, tanlash imkoniyati bolalar hayotida monotonlik va zerikishning oldini olishga yordam beradi. Bolalar, bir tomondan, ilgari o'rgangan ko'nikmalarini qo'llashlari uchun, ikkinchi tomondan, yangi yechimlar va ijodiy yondashuvlarni izlashlari uchun har safar bunday vaziyatni yaratish muhimdir. Aynan shu sharoitlar bolalarda ijobiy his-tuyg'ularni, guruhda yangi va qiziqarli narsalarni kutish, ularning sa'y-harakatlari natijasida hayratda qolish, o'zlarini yaratish va yaxshilash istagini keltirib chiqaradi.

«O'yin pedagogik texnologiyalari» tushunchasi pedagogik jarayonni turli xil o'yinlar shaklida tashkil etishning ancha keng usullarini o'z ichiga oladi. Pedagogik o'yin aniq belgilangan o'quv maqsadiga va tegishli pedagogik natijaga ega bo'lib, uni asoslash, aniq belgilash va ta'lim kognitiv yo'nalish bilan tavsiflash mumkin. O'yin texnologiyalari bilimlarni o'zlashtirishning o'ziga xos shakllaridan biridir.

Maqsadli ravishda mashg'ulotlarga kiritilgan o'yin yoki o'yin elementlari ta'lim vazifasida o'ziga xos, tegishli ma'no beradi, bolalarning aqliy, hissiy va irodaviy kuchlarini safarbar qiladi, ularni qo'yilgan vazifalarni hal qilishga yo'naltiradi.

O'yin bola uchun tabiiy ta'lim shaklidir. O'yin orqali o'rgatish biz kattalar uchun qulay bo'lgan tarzda emas, balki bolalar uchun uni qanday qulay va tabiiy ravishda qabul qilinishini ta'minlash lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin yetakchi faoliyat hisoblanadi. O'yin texnologiyasi to'plamiga nima kiradi? STEAM yordamida qanday vazifalar hal etilmoqda?

1.»Frebelning didaktik tizimi» o'quv moduli:

- atrofda dunyo obyektlari bilan tajriba o'tkazish;
- geometrik jismlar va figuralar bilan harakatlar orqali matematik qonunlarni o'zlashtirish;



- Fazoviy shakllarni o‘zlashtirish;
 - Turli burchak va proyeksiyalarda loyihalash.
2. «LEGO - qurilish»:
- amaliy va aqliy eksperimentlar o‘tkazish, umumlashtirish, o‘z faoliyati jarayoni natijasini sharhlash qobiliyati;
 - ona tilini ravon so‘zlash (so‘z boyligi, nutqning grammatik tuzilishi, fonetik tizim, semantik tuzilish haqidagi elementar fikrlar);
 - fantaziya qilish, analogiyadan foydalanish qobiliyati.
3. “Matematik rivojlanish” o‘quv moduli:
- bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik rivojlanish muammolarini kompleks hal qilish: o‘lcham, shakl, makon, vaqt, miqdor va hisoblash.
4. “Robototexnika” o‘quv moduli:
- mantiqiy va algoritmik fikrlashni rivojlantirish;
 - dasturlash asoslarini shakllantirish;
 - rejalashtirish, modellashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish;
 - ma’lumotlarni qayta ishlash.
5. “Multistudiya” o‘quv moduli:
- AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish;
 - mediatexnologiyalarni rivojlantirish;
 - badiiy va texnik ijod sintezi asosida ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish.
6. “Jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba o‘tkazish” o‘quv moduli:
- eksperimental faoliyatda atrofdagi dunyo haqidagi tasavvurlarni shakllantirish;
 - vizual-sezgi idrok jarayonida barcha tirik mavjudotlarning birligini anglash;
 - ekologik ongni shakllantirish.

Ko‘pgina tadqiqotchilar intellektual rivojlanishning eng qulay davri maktabgacha yosh ekanligiga qo‘shiladilar. Bola hayotining ushbu bosqichida uning intellektual rivojlanishi murakkab shaxsiy ta’lim jarayoni sifatida muhim ahamiyatga ega. Idrokning rivojlanish jarayonini bolaning yoshiga bog‘liq holda bir necha darajalarga bo‘lish mumkin. Uch yoshga kelib, bolalarda sezgilar, beixtiyor e’tibor va faol nutq kabi kognitiv jarayonlar allaqachon shakllanadi. U dunyoni qiziqish bilan o‘rganadi, tabiat va ijtimoiy hayotning eng oddiy hodisalari haqida to‘g‘ri fikrlarni modellashtiradi. Faol harakat va o‘yin faoliyati, nutqdan foydalanish barcha bilish, idrok etish jarayonlarining



rivojlanishi uchun katalizator bo'lib xizmat qiladi: rang va shakl, butun va qism, makon va vaqt, o'zi va atrofdagi odamlar. Bolada analitik va sintetik faoliyatning murakkab turlari rivojlanadi. Sezgilar - ko'rish, eshitish, teginish, hidlash va hokazolar tomonidan hosil bo'ladigan pertseptiv jarayonlar (lotincha perceptio - idrok) tufayli bolaga atrofdagi dunyo ranglar, tovushlar, hidlar, ta'mlar va shakllarning turli xilligida namoyon bo'ladi.

Pertseptiv rivojlanish bir qancha bosqichlardan o'tadi. 3-4 yoshda idrok obyektiv xarakterga ega, ya'ni bola obyektning xususiyatlarini obyektning o'zidan hali ajrata olmaydi. 5 yoshida u asosiy shakllar va ranglar, makon va vaqt haqida tasavvurga ega bo'ladi, u obyektlarning o'lchamlari va ularni taqqoslash qobiliyatini rivojlantiradi. 5-7 yoshda obyektlar va ularning xususiyatlari haqidagi bilimlar kengayadi, idrok yanada mukammal, mazmunli, maqsadli va tahliliy bo'ladi, bola o'zining shaxsiy tajribasini oladi va shu bilan birga ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi.

Idrokning qiymatini past baholab bo'lmaydi, chunki u fikrlashning rivojlanishini shakllantiradi, nutq, e'tibor, xotira va tasavvurni rivojlantirishga yordam beradi. Diqqat har qanday ongli faoliyatda namoyon bo'ladi va selektivlik, to'g'ridan-to'g'ri yodlash miqdori (qisqa muddatli xotira), diqqatni jamlash, o'zgaruvchanlik kabi xususiyatlar bilan tavsiflanishi mumkin.

Maktabgacha yoshning erta bosqichida bolaning diqqati faqat atrofdagi narsalarga va ular bilan uning qiziqishini uyg'otadigan harakatlarga qaratiladi (ixtiyoriy e'tibor) va faqat qiziqish susayguncha qoladi. Maktabgacha yoshdagi diqqatning tub o'zgarishi shundan iboratki, 4-6 yoshli bolalar ixtiyoriy diqqatni o'zlashtira boshlaydilar, uni ongli ravishda ma'lum obyektlarga yo'naltiradilar. Shunga qaramay, maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtiyorsiz e'tibor ustunlik qiladi va faqat maktabgacha yoshdagi bolalarning ixtiyoriy e'tibor qobiliyati intensiv rivojlanadi.

Maktabgacha yosh - intensiv xotira rivojlanishi davri. Bu davrda xotira yetakchi kognitiv funktsiyaga aylanadi va bola turli xil materiallarni osongina yodlaydi. Shu bilan birga, u ongli ravishda biror narsani eslab qolish yoki esga tushirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydi (ixtiyoriy xotira). Bola xotirasida faqat qiziqarli, hissiy voqealar va yorqin, rang-barang tasvirlarni ushlaydi. Ixtiyoriy xotira elementlari bolada maktabgacha yoshning oxiriga kelib paydo bo'ladi, ammo maqsadli yodlash va eslab qolish vaqti-vaqti bilan paydo bo'ladi.

O'yin faoliyati ixtiyoriy xotirani shakllantirishning eng qulay shartidir. Erta va o'rta maktabgacha yoshdagi bolalarning tasavvurlari rekreativ xususiyatga ega bo'lib, beixtiyor paydo bo'ladi va tasvirlar shaklida olingan taassurotlarni



mexanik ravishda takrorlaydi. Tasavvurning predmeti bolada kuchli hissiy taassurot qoldirgan, uni hayajonlantirgan va qiziqtirgan narsadir.

Katta maktabgacha yosh tasavvurni rivojlantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Bu yoshdagi bola g'oya yaratish va uni amalga oshirishni rejalashtirish qobiliyatini rivojlantiradi, bu tasavvurning kuchayganligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, har bir yosh bosqichida intellektual qobiliyatlarning rivojlanishi bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Maktabgacha yoshda intellektual qobiliyatlarning rivojlanishi ushbu davrning ustuvor faoliyati asosida amalga oshiriladi: o'yin, kognitiv tadqiqotlar, dizayn, badiiy yo'nalishning turli xil samarali faoliyati.

Intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishning asosiy vektori idrok, xotira, tasavvur, fikrlash jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Kognitiv jarayonlarning shakllanish darajasiga ko'ra, mustaqil ijodiy bilish qobiliyati, amaliy va aqliy tajriba, umumlashtirish, o'z faoliyati jarayoni va natijalarini tahlil qilish, o'xshashlik va xulosalar chiqarish qobiliyatiga ko'ra, insonning bilim darajasi, intellektual rivojlanishi haqida xulosa chiqarish mumkin.

«STEAM» o'yin texnologiyasidan foydalanganda bolaning yoshi va individual xususiyatlariga mos ravishda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar ta'minlanadi. Vizual-majoziy va og'zaki-mantiqiy fikrlash orqali hissiy idrok etishdan boshlab («F. Frebelning didaktik tizimi», «Matematik rivojlanish», «Jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba») bolalarning ilmiy-texnik ijodiyoti uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Bu turdagi o'yinlar davomida algoritmlash, loyihalash va dasturlash bo'yicha bilimlarni oladi va qo'llaydi va loyiha faoliyatini amalga oshiradi («LEGO», «Multstudiya», «Robot»).

Kattalar faoliyati bolaning umumiy harakat sxemasini qabul qilishini, ta'lim modullari o'rtasidagi bog'liqlikni, umumiy harakatlar tizimidagi har bir bo'g'inning ma'nosini, ikkinchi darajali va asosiy maqsadlar integratsiyasini his qilishini ta'minlashga qaratilgan. Bunday holda, bola intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishning eng muhim sharti bo'lgan «ongli» harakat qilish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Belgilangan maqsadlarga erishish ushbu yoshdagi bolalarga xos bo'lgan o'yin, loyihalash, kognitiv va tadqiqot faoliyati (shu jumladan ilmiy va texnik ijodkorlik), turli xil badiiy va ijodiy faoliyat turlari (dizayn, multfilmlar yaratish va boshqalar) kabi faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu turdagi faoliyat



tabiiy ravishda XXI asr texnologiyalarini (dasturlash va raqamli texnologiyalar elementlari) rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

STEAM ta’lim modullarini maktabgacha ta’lim muassasasida bolalarning ustuvor faoliyatiga tatbiq etish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- O‘yin.
- Dizayn.
- Kognitiv tadqiqot faoliyati.
- Ta’lim faoliyati.
- Badiiy va ijodiy faoliyatning har xil turlari.
- XXI asr texnologiyalarini o‘zlashtirish (dasturlash va raqamli texnologiyalar elementlari).

Har bir modul STEAM ta’limi maqsadlarini amalga oshirishni ta’minlaydigan aniq vazifalarni kompleks hal etishga qaratilgan: kognitiv tadqiqot faoliyati jarayonida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish va maktabgacha yoshdagi bolalarni ilmiy-texnik ijodkorlikka jalb qilish kabilar.

Oddiy maktabgacha ta’lim muassasasi sharoitida «STEAM» ta’limini qanday amalga oshirish mumkin? Keling, bolalar rivojlanishini kuchaytirish uchun bizda qanday vositalar mavjud va ulardan foydalanish mumkinligini batafsil ko‘rib chiqaylik.

Dizayn va eksperimental tadqiqot faoliyatini tashkil etish orqali turli didaktik o‘yinlar Frebel, Montessori, Kuizner, Gyenesh va boshqalar usullari bo‘yicha geometrik jismlar va raqamlar bilan; turli burchak va proyeksiyalarda turli materiallardan (karton, plastmassa, qog‘oz, yog‘och, metall va boshqalar) qurish orqali fazoviy munosabatlarni o‘zlashtirish mumkin.

Nutqiy o‘yinlar orqali faoliyati jarayoni va natijasini tajriba qilish, umumlashtirish, rejalashtirish va og‘zaki sharhlash qobiliyatini rivojlantirish mumkin. Bu yerda ona tilini ravon so‘zlash (lug‘at boyligi, nutqning grammatik tuzilishi, fonetik tizim, semantik tuzilish haqidagi elementar tushunchalar), yangi obrazlar yaratish, hayolparastlik qilish, analogiyadan foydalanish ko‘nikmasini o‘rgatish muhim ahamiyatga ega.

«Robotexnika» o‘quv moduli va dasturlash asoslarini shakllantirish ularning narxi tufayli maktabgacha ta’lim muassasasida amalga oshirish eng qiyin hisoblanadi. Ammo mantiqiy va algoritmik fikrlashni rivojlantirish juda mumkin; rejalashtirish, modellashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish; axborotni tahlil qilish; mavhumlik va naqshlarni topish qobiliyatini rivojlantirish. Muvaffaqiyatli ish uchun zaruriy shart - bu maqsadli sozlamalarga javob beradigan haqiqiy mavzu-fazoviy muhitni yaratish. Shu bilan birga, birlashtiruvchi omillar maktabgacha yoshdagi bolalarning turli xil faoliyati



mazmunining integratsiyasi, fazodagi o‘yin vositalari va materiallarining kesishishi, mustaqil faoliyat uchun jihozlarning mavjudligi va natijalarni namoyish qilish imkoniyati bo‘lishi mumkin.

«STEAM» texnologiyalarida asosiy pedagogik qadriyat bu, birinchi navbatda, shaxsning integral rivojlanishi imkoniyatida ko‘rinadi. Integratsiyalashgan yondashuv turli xil faoliyat turlari - o‘yin, texnik, vizual, kommunikativ, kognitiv va boshqalarning o‘zaro bog‘liqligi sifatida qaraladi, bolalarning rivojlanishi barcha beshta ta‘lim yo‘nalishlarida amalga oshiriladi.

Adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi T: 2018. 1-81-b;
2. Т.С.Волосовес, В.А.Маркова, С.А.Аверина. СТЕМ-образование детей дошкольного и младшего школьного возраста. М. Бином. Лаборатория знаний 2019.
3. R.A. Mavlonova, N. H. Raxmonqulova, K.O.Matanazarova, M. K. Shirinov S. Hafizov "Umumiy pedagogika" « Fan va texnologiya» nashriyoti T.: 2018
4. N.N.Azizxo‘jayeva "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" «O‘zbekiston yozuvchilar uyishmasi Adabiyot jamg‘armasi» nashriyoti T.: 2006
5. S.T.Turg‘unov, L.A.Maqsudova, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova, M.A.Umaraliyeva "Padagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari" «O‘zbekiston Respublikasi O‘zPFITI» nashriyoti, T.:2014
6. J.G‘.Yo‘ldoshev, M.K.Shirinov, F.I.Ochilov "Pedagogik diagnostika" o‘quv metodik qo‘llanma T.:2014
7. O‘tkir Tolipov, Dilnoz Ro‘ziyeva "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" «Toshkent innovatsiya-ziyo» T.: 2019

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida zamonaviy ta‘lim texnologiyalarining, xususan STEAM ta‘limining ahamiyati va metodologiyasi yoritilgan. Shuningdek, STEAM ta‘limining tarkibiy qismlari hamda ularning o‘ziga xos tomonlari keltirib o‘tilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье освещается значение и методология современных образовательных технологий, в частности STEAM-образования, во всестороннем развитии детей дошкольного возраста. Также упоминаются составляющие STEAM-образования и их особенности.

SUMMARY

This article highlights the importance and methodology of modern educational technologies, in particular STEAM education, in the comprehensive development of preschool children. Also, the components of STEAM education and their specific aspects are mentioned.



MAKTABGACHA TA'LIMDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI SOG'LOM BOLALAR BILAN BIRGA TA'LIM OLISHNING AHAMIYATI

Suvankulov U. I.

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarni yangi
metodikalarga o'rgatish milliy markazi*

Tayanch so'zlar: ta'lim, tarbiya, inklyuziv, rivojlanish, takomillashuv, harakat.

Ключевые слова: образование, воспитание, инклюзивность, развитие, улучшение, действие.

Key words: education, upbringing, inclusive, development, improvement, action.

Kirish. Mamlakatimizda ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Bugungi "Inson qadri uchun" g'oyasi ostida yashayotgan har-bir fuqora o'ziga bo'lgan ishonch va erkinlikni his qilib yashashi, ertangi kunga bo'lgan ishonchi desak adashmaymiz. Shunday ekan maktabgacha ta'lim muassasasi tizimidagi bugungi kun tub o'zgarishlarini yosh avlod misolida keltirsak xato bo'lmaydi,



chunki yurtimizdagi maktabgacha ta'lim muassasalarida o'sib kelayotgan yosh avlodlarimizning erkin ta'lim olib sog'lom ma'naviyatli bo'lishida bir qancha ko'zga ko'rinadigan ishlar amalga oshirilib kelmoqda, bunga misol tariqasida inklyuziv ta'limni keltirishimiz mumkin. Ayniqsa bugungi kunda inklyuziv ta'limni joriy qilish zamon talabining eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoldi. Chunki har bir O'zbekiston fuqorosi har qanday jismoniy holatidan qat'iy nazar erkin bilim olishga haqlidir. Shu borada imkoniyati cheklangan yoshlarimizni keng qamrovli maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish va zamonaviy yondashuvlar asosida sifatli ta'lim olishlari davlat tomonidan kafolatlangan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash ko'zda tutildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida 2020 — 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Muhokama. 2020 - 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari) tasdiqlandi. Konsepsiya erishilgan natijalar, maqsadli ko'rsatkichlar va tegishli davrga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlardan kelib chiqqan holda 2022-yildan boshlab har yili tasdiqlanadigan alohida "Yo'l xaritasi" asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilandi. Konsepsiya ikki bosqichda amalga oshirish, jumladan: 2020 — 2022-yillar davomida: inklyuziv ta'lim tizimi sohasidagi normativ baza takomillashtirish; inklyuziv ta'lim tizimi uchun malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta va malakasi oshirish; inklyuziv ta'lim joriy etilgan muassasalarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishi, ular maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlanishi; inklyuziv ta'lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalar joriy etish; alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv



o'qitishning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali aholi o'rtasida ijobiy ijtimoiy muhit shakllantirish; alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kamsitish, ularga salbiy muomalada bo'lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish; inklyuziv ta'lim tizimi tajriba-sinov tariqasida alohida ta'lim muassasalarining faoliyatiga joriy qilish; 2023 — 2025-yillar davomida: inklyuziv ta'lim tizimi bosqichma-bosqich boshqa muassasalarida joriy qilish; alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish; inklyuziv ta'limda o'qitish usullari takomillashtiriladi hamda ta'lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etish; inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga, ularning jismonan sog'lom va baquvvat shakllanishiga qaratilgan choralar ko'rish; o'quvchilarning jismoniy va aqliy ehtiyojidan hamda muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqib alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat muassasalari soni optimallashtirish belgilab qo'yildi.

Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy tarbiya olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi. Ta'lim tizimini joriy etish har doim ma'lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishni talab etadi. Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilishda esa quyida keltirilgan tamoyillarga asoslaniladi:

Inklyuziv ta'lim– ta'limni rivojlantirish jarayoni bo'lib, ta'limning hammabopligini nazarda tutuvchi, barcha bolalarni turli ehtiyojlaridan kelib chiquvchi, alohida e'tiborga ega bolalarning bilim olishini ta'minlovchi ta'limning yangi shaklidir. Inklyuziv ta'lim nogiron bolalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hamda ta'lim tizimiga nogiron bolalarga moslashtirishni ko'zda tutadigan, ijtimoiy adolat va tenglikni bosh maqsad qilib olgan jarayondir. Inklyuziv ta'lim bolalarga yo'naltirilgan metodologiyani rivojlantirishga intiladi va barcha bolalar ta'limda, ta'lim jarayonida turlicha ehtiyojga ega individlar ekanligini tan oladi. Bunday ta'lim o'qitish jarayonida turli mazkur ehtiyojlarni qondirish uchun qulay bo'lgan ta'lim berish va o'qitishga yondashuvni ishlab chiqishga intiladi. Agar ta'lim berish va o'qitish inklyuziv ta'lim kiritadigan



o'zgarishlar natijasida yanada samaraliroq bo'ladigan bo'lsa, bu barcha bolalarning yutug'i hisoblanadi.

Natija. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi.

Inklyuziv ta'limning bir qator foydali jihatlari bilan birga uning samaradorligiga ta'sir etayotgan bir qator kamchiliklarini ko'rishimiz mumkin.

Foyda va Kamchiliklar: Qobiliyati va imkoniyatlaridan qat'i nazar, barcha talabalar uchun teng huquqlar, Inklyuziv ta'limni amalga oshirish uchun moddiy-texnik bazaning yetishmasligi. O'qitish jarayonida repetitorning individual yordami, Maxsus ehtiyojli bolalar uchun zarur bo'lgan o'qitilgan pedagoglar, psixologlar va boshqa mutaxassislarining yetishmasligi, Maxsus ehtiyojli bolalar uchun ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni egallash, Standart o'quv rejasi ayrim ehtiyojli bolalar uchun mos emas, shuning uchun qayta ko'rib chiqish va modernizatsiya qilishni talab qiladi, Sifatli ta'lim olish va kelajakda - universitetda o'qish, kasbni egallash, jamiyatning to'laqonli va mustaqil a'zosi bo'lish imkoniyati. Tarbiyachilar alohida ehtiyojli bolalarning bilimlarini xolisona baholaydilar, shuning uchun bilimlarni baholash ko'pincha to'g'ri emas. Oddiy bolalar hamdardlik, sabr-toqat, bag'rikenglik kabi insoniy fazilatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Sog'lom bolalar va ularning ota-onalaridan nogironlarga nisbatan do'stona va ko'pincha dushmanona munosabat.

Mazkur kamchiliklarni baratrof etish borasida yurtimizda ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa. Maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridanoq sog'lom bolalar qatoriga qo'shib sifatli ta'lim olishini ta'minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va haraktlarini rivojlantirishdir.

Inklyuziv ta'limda imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi?

- o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi
- mustaqil harakatlanish birgalikda, hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali yuzaga keladi;
- dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;
- o'qishga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishlari ortadi;
- O'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;
- Ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;



- Yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo‘qoladi.
- Inklyuziv ta‘lim sog‘lom bolalar hayotiga qanday ta‘sir ko‘rsatadi?
- O‘zlariga o‘xshamagan tengdoshlari va ularning hayoti, ehtiyojlarini his qiladilar;
- Tengdoshlariga g‘amxo‘rlik hissi uyg‘onadi;
- Ularni qo‘llab-quvvatlash, yordam berishga intilish –insonparvarlik hissi tarbiyalanadi;
- O‘quvchilarda atrofdagi insonlarga, imkoniyati cheklanganlarga pozitiv munosabat, o‘zaro hurmat tarbiyalanadi
- Yordamga muhtoj insonlarga e‘tibosizlik qilmaydigan shaxsga aylanadilar
- Hozirda mamlakatimizda inklyuziv ta‘limga yo‘naltirilgan maktabgacha ta‘lim tashkilotlari kun sayin ko‘payib va takomillashib bormoqda.

Bundan tashqari inklyuziv ta‘limda nogiron boladagi mavjud nuqonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensasiya qilish bilan bir qatorda bilim ko‘nikmalarga ega qilish, kasb hunarga o‘rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etiladi. Bu tamoyilning mohiyatida maxsus ehtiyojli bolalarga ilk yosh davrida erta yondashish ham yotadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida qarori PQ-4312 08.05.2019
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta‘lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risidagi qarori -4860 13.10.2020
3. Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие . – Казань, 2013
4. Буторина, О. Г. Об опыте воспитания и обучения детей с ограниченными возможностями здоровья / О. Г. Буторина // Воспитание школьников, 2010
5. Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Современный образовательный стандарт / Т. В. Волосовец, А. М. Казьмин, В. Н. Ярыгин. – М.: Мозаика-Синтез, 2011. – 144 с. 6. D.S.Qaxarova “ Inklyuziv ta‘lim texnologiyasi” o‘quv va metodik qo‘llanma 2014-yil

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada mamlakatimizda joriy qilinayotgan yangi ta‘lim tizimi ya‘ni inklyuziv ta‘lim tizimining takomillashuvi, va bu ta‘lim tizimi maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ham joriy qilinganligi, inklyuziv ta‘lim tizimini rivojlantirish maqsadida yangi qaror va farmonlar qabul qilinib, vazifalar yuklatilganligi haqida so‘z boradi.

РЕЗЮМЕ

В этой статье обсуждается новая система образования в нашей стране, т.е. совершенствование системы инклюзивного образования, и внедрение этой системы образования в дошкольное образование, принятие новых решений и указов по развитию системы инклюзивного образования, говорится, что задачи загружены.

SUMMARY

This article discusses the new system of education in our country, ie the improvement of the system of inclusive education, and the introduction of this system of education in preschool education, the adoption of new decisions and decrees to develop the system of inclusive education , it is said that the tasks are loaded.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA BOLALARNING INTELLEKTUAL IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Tolipova T. K.

*Samarqand viloyati PYMO‘MM Maktabgacha va boshlang‘ich va
maxsus ta‘lim metodikalari kafedrasi katta o‘qituvchisi*

Tayanch so‘zlar: tafakkur, tasavvur, mehnat ko‘nikmalari, aqliy faoliyati, mas‘uliyatli mehnat, bolani erkin quyish, asabiylashishdan saqlash.

Ключевые слова: мышление, воображение, трудовые навыки, умственная деятельность, ответственный труд, свободное обливание ребенка, защита от нервозности.

Key words: thinking, imagination, work skills, mental activity, responsible work, free pouring of the child, protection from nervousness.

O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy, ilmiy texnikaviy taraqqiyoti ko‘p jihatdan aql-ziyo egalarining, ijodiy, bunyodkorlik faoliyatiga, ayni vaqtda ularning keng bilimlariga bog‘liqdir. Jamiyatimizdagi barcha sohalar taraqqiyotida ta‘limning beqiyos o‘rni e‘tiborga olinib, ta‘lim-tarbiya tizimi mazmunini takomillashtirish, uni davr talablari bilan uyg‘unlashtirish maqsadi yo‘lidagi sa‘y-harakatlar jadal sur‘atlarda davom etmoqda.

Hozirgi jamiyatda aqlan yetuk, axloqan pok, jismonan baquvvat, ruhan boy avlodga ta‘lim–tarbiya berish, mustaqil davlatimiz oldidagi eng muhim va dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Ma‘lumki, har qanday jamiyatning ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyotini inson tafakkuri va aqliy salohiyati, ma‘naviyati va madaniyati belgilab beradi. Insondagi ushbu hislatlar bevosita ta‘lim dargohlarida shakllanadi va rivojlanadi. Maktabdagi ta‘lim va tarbiya tizimi esa farzandlarimizning rivojlanayotgan qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirishga, ularning intellektual imkoniyatlariga asoslanib, kuchli shaxslar qilib tarbiyalashga xizmat qiladi. Ushbu maqsad va vazifalarni esa xalq ta‘limi tizimi xodimlari amalga oshiradi. Shu bois ham yosh avlodlarga ta‘lim–tarbiya berish, ularning intellektual bilimlarini rivojlantirish va ularni qo‘llab quvvatlash dolzarb ijtimoiy ehtiyojlardan sanaladi.

Davlatimiz tomonidan yoshlarning intellektual imkoniyatini rivojlantirishning quyidagi maqsadlari belgilab olindi:



- yoshlarning intellektual imkoniyatini rivojlantirish va uni muhofaza qilishdan iboratdir;
- ilm-fan va davlat hokimiyati hamjihatligidagi say-harakati, shuningdek, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, intellektual zahiralarni muhofaza qilish va rivojlantirish:
- intellektual imkoniyatni rivojlantirish ishlarini tartibga solish;
- yoshlarning intellektual imkoniyatini rivojlantiruvchi psixologik-pedagogik tashkiliy uslubiy asoslarini yaratish.

Belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun bir qator vazifalar ham qo'yildi:

Iqtidorli o'quvchi-yoshlarni izlash mexanizmi, psixologik-pedagogik, tashkiliy–uslubiy asoslarini yaratish borasidagi kamchiliklarni aniqlash.

Intellektual imkoniyatni oshirishda tarbiya jarayonining xususiyatlarini o'rganish.

- Yoshlarning mustaqil faoliyat turlarini o'rganish;
- Yoshlarning ma'naviy intellektual ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish manbalarini yaratish;
- Yoshlarning intellektual imkoniyatini oshirish usullarini ishlab chiqish;
- Yoshlarning intellektual imkoniyatini nazariy va amaliy jihatdan o'rganib chiqish;
- fanning turli sohalaridagi mutaxassislar intellektual imkoniyatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- ta'lim menejmenti sohasida innovatsion takliflarni o'rganish;

Har bir o'quvchiga, uning shaxsiy xususiyatidan kelib chiqib, uning intellektual imkoniyatini rivojlantirish maqsadida ta'lim-tarbiya jarayoniga biror psixologik yoki pedagogik uslubni qo'llash murakkab jarayondir. Lekin bu davr talabidir.

Bu esa o'z navbatida bola faoliyatining aniq turlarini emas umumiy qobiliyatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Shu o'rinda intellektual so'zining ma'nosini aytib o'tish o'rinlidir. Intellektual – so'zining lug'aviy ma'nosi aqliy jihatdan yetuklik, fahm-farosat, aql-idrok, zakovat, zukko ya'ni zakovatli inson, zukko bo'lish demakdir. Shu sabab hozirgi kunda Respublikamizda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda yoshlar uchun har tamonlama tokomillashuvini shu jumladan intellektual rivojlanishni taminlash uchun yetarli sharoitlar yaratilgan.

Boshlang'ich sinf yoshidagi bolaning tafakkuri – aniq tafakkur bo'lib, u nimalarni idrok etsa yoki tasavvur qilsa, o'sha narsalar haqida fikr yuritadi. Shu bois bola uchun mavhum voqea-hodisalar to'g'risida gapirilganda, ularning u



avval o'zlashtirishga muvaffaq bo'lgan voqea-hodisalarga nisbatan qiyoslab tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

Atrofdagilar bilan muomalada bo'lish asosida bolada ma'naviy qarash shakllanadi: endilikda ular turli xarakatlarni "yaxshi", "yomon" deya baholab boradilar. Bu davrda bola hayotida o'yin bilan birga faoliyatning boshqa turlari ham ahamiyatli bo'lib boradi, dastlabki mehnat ko'nikmalari hosila bo'ladi: rasm

chizadi, loydan, qumdan turli buyumlar yasaydi. Shuningdek, ular kattalar tomonidan berilgan oddiy topshiriqlarni bajarib boradilar. Ularni kuchlari yetadigan ishlarga jalb qilish yaxshi samara beradi.

Boshlang'ich sinfdagi bola (ushbu yosh bir nechta mutafakkir olimlar tomonidan dastlabki "yetuklik yoshi" sifatida e'tirof etilgan) jismoniy va ruhiy xususiyatlariga ko'ra maktabda ta'lim olish yoshidir.

Respublikamizdagi bolalarning barchasi 7 yoshdan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil ola boshlaydilar. Shu davrga qadar bola hayotida muhim

o'rin tutgan o'yin faoliyati o'z o'rnini tizimli, uzluksiz ravishda amalga oshiriladigan va majburiy vaqt asosida tashkil etiluvchi o'qish faoliyatiga bo'shatib

beradi. Bola uchun bunday "mas'uliyatli mehnat"ga o'tish qiyin kechsada, u asta-sekin bunday sharoitga ko'nikma boradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijtimoiy borliq haqida muayyan tasavvurlarga ega bo'lsalar ham, ro'y berayotgan voqea-hodisalarning mohiyatini bilishga qiziqadi. Maktabda tashkil etilayotgan ta'lim jarayoni bolaning aqliy faoliyati uchun zarur bo'lgan fazilatlarining tarkib topishini ta'minlaydi. Kichik maktab o'quvchilarining bosh miyasi tez o'sib borib, uning tuzilishida o'zgarishlar ro'y beradi. Ularda o'pka rivojlangan, lekin nafas yo'li hamda diafragma bo'sh rivojlangan, shu tufayli kichik yoshdagi o'quvchilar ko'p vaqt harakatsiz qolsalar, organizmning kislorod bilan ta'minlanishi yomonlashadi. Jismoniy o'sishning bu kabi xususiyatlari kichik yoshdagi o'quvchilarga nisbatan o'qituvchidan ehtiyotkorona yondoshuvni talab qiladi. Ularni erkin quyish asabiylashishdan saqlash zarur. Bu yosh o'quvchilari ko'proq harakat qilishlari, ochiq havoda bo'lishlari, yetarli daraja dam olishlari, uxlashlari talab etiladi. Atrofdagilar buning uchun g'amxo'rlik qilishlari lozim. Ularning stol atrofida, partada to'g'ri o'tirishlariga, o'rinda tekis (o'rin yumshoq bo'lmagani ma'qul) yotishlariga, qomatni tik turib yurishlariga e'tiborli bo'lishi kerak. O'yin vaqtida qaltis harakat qilishdan ularni saqlash zarur. O'qituvchi ularning qiziqishlarini



qondirishga harakat qilishlari va shu asosda ushbu qiziqishlarni rivojlantirib borishlari kerak.

Ko'rsatib o'tilayotgan ushbu asoslar bevosita boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual imkoniyatlarini to'g'ri shakllantirish va rivojlantirish uchun zarurdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlashi obrazli bo'ladi. Shu bois ularga kinoya, kesatish samara bermaydi. O'qitish ko'rgazmali qurollar, vositalar yordamida tashkil etilishi kerak. Materialni tushuntirishda uning obrazli,

ifodaviy bo'lishiga erishish lozim. Ularning kayfiyatiga o'qishdagi yutuqlari, olgan

baholari, shuningdek, amalga oshirgan ijobiy ishlari ta'sir qiladi. Shu bois o'quvchi tomonidan unga berilayotgan e'tibor bola uchun alohida qimmatga ega.

Uning har bir harakati o'qituvchining e'tiroziga sabab bo'lsa, unda o'qish istagi yo'qoladi. Maktab ta'limidan ko'ngli soviydi, o'qituvchidan qo'rqqanidan yolg'on

gapira boshlaydi. Bu hol doimiy takrorlanaversa, qo'rqqoqlik va yolg'onchilik uning asosiy hislati bo'lib qoladi. O'qituvchi tanbehi oqilona bo'lib, bola sha'nini yerga urmasligi kerak. Boshlang'ich sinfdagi o'quvchilar turli munosabatlarda bo'lishga intiladilar, o'rtoqlari bilan aloqada turg'unlik yuzaga kelmagan, birgina o'rtoqdan ko'ra, ko'pchilik bilan o'ynashini afzal ko'radilar.

Ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda ma'lum bir maqsad belgilab olinadi, qonunlar qabul qilinadi, dasturlar va tadbirlar ishlab chiqiladi, rejalar belgilanadi va bular hozirgi talab darajasida amalga oshiriladi. Demak, ta'lim-tarbiya oldida loyihalash, ma'lum pedagogik tizimning amalga oshiriladigan loyihasi, qurilishi pedagogik texnologiyadir. Shu nuqtai nazardan qaralganda "shaxsni shakllantirish" ham ma'lum pedagogik tizimning loyihasidir. Ya'ni barkamol shaxs tarbiyasining maqsadi, mazmuni, tarbiya metodlari, shakllari va vositalari mavjud bo'lib, bu ham o'ziga xos texnologiyadir. Boshlang'ich sinflarda bolalarning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish ta'lim-tarbiyaning olib boriladigan metodlariga bog'liqdir.

Umumiy tarzda ta'lim oluvchilarning ta'lim faoliyatiga ko'ra ta'limning quyidagicha metodlari ajratiladi:

1. Tushuntiruv – ko'rsatmalilik metodi – bu metod reproduktiv metod bo'lib, unda faoliyat o'qituvchi tomonidan olib boriladi. O'quvchilar ta'lim jarayonida bilim oladilar, tanishadilar. Bu metod juda keng tarqalgan metodlardan biri bo'lib, uni takomillashtirilgan usullari mavjud, bu – programmashtirilgan ta'limdir.



2. Reproduktiv metoddа o‘quvchi faoliyat ko‘rsatib, unda o‘quvchiga berilayotgan bilimni qayta xotirada tiklab, olingan bilimni nusxa sifatida qabul qiladi.

3. Muammoli ta’lim metodi – o‘qituvchi tomonidan tashkil etilib, u produktiv xarakterga egadir. Ushbu metod orqali o‘quvchi bilim va malakalarini shakllantiradi. Ushbu metodning takomillashtirish yo‘llaridan biri ishchan o‘yinlarni tashkil etishdan iboratdir.

4. Qisman izlanish metodi. O‘qituvchi nazorati ostida tashkil etiladigan metod bo‘lib, u produktiv xarakterga ega, bunda o‘quvchi ijod qiladi.

5. Tadqiqot metodi. O‘qituvchi ilm yordamisiz tashkil etiladigan ta’lim metodi bo‘lib, u o‘quvchining mustaqil izlanishi, fikrlashi va bilimlar transformatsiyasini talab etadi.

Ta’lim jarayonini tashkil etishning o‘ziga xos metodlaridan biri ishchan o‘yinlardir. Ishchan o‘yinlar munosabatlar sistemasini modellashtirish, faoliyat xarakteristikasini tashkil etishga yordam beradi.

AQLNI CHARXLASH MASHQLARI

Ushbu sonlar ketma ketligini fikran davom ettiring:

Pastdan tepaga 1- qadam: 1,2,3100

Tepadan pastga 1-qadam: 100, 99, 98, 971

O‘sib va pasayib borish tartibida sonlar ketma-ketligini ayting.

Ushbu sonlar ketma ketligini fikran davom ettiring:

2-qadam: Juftlikni ikkili ortib borish tartibida belgilang:

2, 4, 6, 8100

2-qadam: Juftlikni ikkili kamayib borish tartibida belgilang:

100, 98, 96, 941

3-qadam: 1-3, 4-6, 7-9, 8-12.....96-99

Ushbu sonlar ketma ketligini fikran davom ettiring:

Tepaga qarab 2 qadam, pastga qarab 2 qadam: 2-98, 4-98, 6-94.....100-2

Tepaga qarab 2 qadam, pastga qarab 3 qadam: 2-98, 4-96, 6-94.....66-3

sonlar ketma-ketligini 3 taga oshirib borish tartibida davom ettiring:

Ushbu sonlar ketma- ketligini fikran davom ettiring:

Tepaga qarab 2,3,4 qadam: 2-3-4, 4-5-6,6-7-8.....94-95-96

Uchta sonlar ketma-ketligini kamayib borish tartibida davom etting: pastga 4,3,2 qadam: 100-99-98, 998-97-96.....4-3-2

Sonlar ketma- ketligini davom ettiring va faqat uning yig‘indisini toping:

Masalan: 7+7, 14+1+4, 21+1+2+3, 28+28+10+10+1.

Tepaga 2 dan 100 gacha 2 qadam: 2,4,6,8.....100



O‘quvchini mustaqil ta’lim olishga o‘z-o‘zini rivojlantirishga tayyorlash bugungi kun o‘quv maskanlarining asosiy vazifasidir. Ta’lim jarayonida o‘quvchining mustaqil ta’lim olishini faollashtirish zarur. Mustaqil ta’lim masalani quyilishi, yechish, o‘z-o‘zini nazorat va baholashning yo‘llarini o‘quvchi tomonidan tanlanishi va bajarilishi bilan xarakterlanadi. O‘quvchilarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun fikrlash xususiyatlarini shakllantirish zarur. Fikrlash operatsiyalari asosida dars jarayoni faollashtiriladi. Bu o‘qituvchining: “Nima uchun?”, “Qanday maqsadda?”, “Sabablari qanday?”, “Natija nima uchun shunday bo‘ldi?” singari savollarning muhokamasi orqali amalga oshirilishi mumkin. O‘quvchilarni evristik, muammoli vaziyatlarga tortish, tanqid, gumon holatlarini muhokama qilish, ulardagi muammolarni mustaqil holda topish va ularni yechish uchun o‘z loyihalarini tuzish va himoya qilish o‘quvchilar tafakkurining ma’nodor va unumdor bo‘lishiga xizmat qiladi. Hozirgi zamon o‘quv muassasalarining vazifasi yosh avlodni mustaqil fikrlashga o‘rgatishdir. Albatta, fikrlashda ham individual farqlar mavjud. Fikrlashni bilish - bu insonning aqlidir. Aql bevosita bolalarning intellektual imkoniyatlari ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Maktabda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual imkoniyatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun yuqorida ta’kidlab o‘tilgan ta’lim metodlarini yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda joriy etish samarali natijalar beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga yangi pedagogik texnologiyalar asosida muammoli ta’lim metodlarini qo‘llagan holda ta’lim berish ularning intellektual imkoniyatlarini rivojlantiradi. Bunda aqliy topshiriqlar, ishchan o‘yinlar asosida darsni tashkil etish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Boymurodov N. “Amaliy psixologiya”. Toshkent – 2008 y.
2. Daminov Q. “Psixologik atamalar izohi”. Samarqand – 1994y.
3. Ilyasov I.I. Noviy vzglyad na umstvennoye razvitiye i razvivayusheye obucheniye. // Voprosi psixologii. -1996. - №3. - 138-141-bet.
4. Gorbatova E.A. Psixologik tayyorgarlik nazariyasi va amaliyoti. Qo‘llanma, Spb.: Nutq. 2008.
5. X. Ibragimov, U. Yo‘ldoshev, X. Bobomirzaev “Pedagogik psixologiya”. Toshkent – 2007

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda bolalarning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish maqsadida olib boriladigan ta’lim-tarbiya metodlari aks etgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье отражены воспитательные методики, применяемые для развития интеллектуальных способностей детей в младших классах.

SUMMARY

This article reflects the educational methods used to develop the intellectual abilities of children in the lower grades.



BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIGA TENGLAMALARNI O‘RGANISHGA INNOVATSION YONDASHUV HAQIDA

Tursunov Q. N.

SamDU Boshlang‘ich va texnologik ta‘lim kafedrasi dotsenti

Umarov N.E.

SamDUKF Axborot texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi

Turdimuradov O.F.

SamDUKF Axborot texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi

Abdusalomova M.Z.

SamDU Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti 4-kurs talabasi

Tayanch so‘zlar: matnli masala, tenglama, innovatsion metod, sodda masala, murakkab masalani yechimi, tenglama ildizi, arifmetik amallar, sonli ifoda, harfiy ifoda, o‘zgaruvchi.

Ключевые слова: текстовая задача, уравнение, инновационный метод, простая задача, решение сложной задачи, корень уравнения, арифметические операции, числовое выражение, буквенное выражение, переменная.

Key words: textual matter, equation, innovative method, simple matter, complex problem solution, equation root, arithmetic operations, numerical expression, literal expression, variable.

Muhtaram Prezidentimizning Oliy majlis va O‘zbekiston xalqiga murojatnomasida biz xalq ta‘limi sohasida ishlayotgan pedagoglarning hozirgi kunda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan asosiy vazifalarini belgilab berdi:

“Ta‘lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka yagona to‘g‘ri yo‘lidir. Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek, zakovat bor joyda ulug‘lik bo‘ladi, bilim bor joyda buyuklik bo‘ladi.

Shuning uchun ushbu sohada boshlangan islohatlarimizni davom ettirishimiz ta‘lim dargohlariga borib o‘qituvchi va murabbiylar bilan ko‘proq muloqot qilib o‘quv tarbiya ishlari sifatini oshirish bo‘yicha ular qo‘ygan masalalarni birgalikda hal etishimiz kerak”. Yangi kirib kelgan 2023-yilni yurtimizda “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili” deb nomlanishida katta ma‘no bor. Tabiatda rivojlanishdagi kabi jamiyatdagi o‘zgarishlarda ham miqdor o‘zgarishi sifat o‘zgarishni ham taqozo etadi. Keyingi besh yilda maktab bitiruvchilarining oliy o‘quv yurtiga kirish ko‘rsatgichi sezilarli darajada



ko'tarildi. Bu ko'rsatgich yildan-yilga oshib bormoqda. Endigi navbatdagi e'tiboringizni bu tuzuvchilarning sifat ko'rsatgichini oshirishga qaratishimiz lozim. Ta'limning maqsadi asosan ta'lim oluvchining qiziqishidan va ularning ota-onalarning hamda davlat va jamiyatning tanlangan mutaxassisligiga bo'lgan talablaridan kelib chiqadi.

Ta'limning mazmuni esa 2021-yilda qabul qilingan "Milliy dastur"da batafsil bayon qilingan ta'limning turlari asosan buyuk Chex pedagogi Y.A.Komenskiy o'zining "Buyuk didaktika" asarida asoslab bergan sinf dars sistemasida bayon qilingan. Fan va texnikaning hozirgi zamon jadal rivojlanishiga mos holda ta'lim berishning noan'anaviy turlaridan keng foydalanish imkoniyatlari mavjuddir.

Ta'limning o'qitish vositalari turli-tuman bo'lib ular ta'lim sifatiga bevosita uzviy bog'liqdir. Ularning eng asosiy "Milliy dastur" talablaridan kelib chiqib metodist olimlar tomonidan yozilgan fan darsliklaridir. Hozir yozilayotgan darsliklar rivojlangan davlatlarda yaratilgan darsliklardan ijodiy foydalanib yozilmoqda. Shunday darsliklardan biri Finlandiya metodistlarni bilan hamkorlikda yaratilgan bo'lib, bu darsliklardagi didaktik materiallar o'quvchilarni ko'proq faol fikrlashga o'qituvchi tomonidan qo'yilgan maxsus didaktik maqsadlarga buysundirilgan bo'lib muammolarni mustaqil hal qilishga o'rgatadi. Agar oldingi yaratilgan matematika darsliklari o'qituvchiga ko'proq ma'suliyat yuklangan bo'lsa, keying darsliklarda esa o'qituvchi o'quvchilarning berilgan matematik materiallarni o'zlashtirishlarida ularga maqsadli to'g'ri yo'lga yo'naltiruvchi savollar berish yordamida muammodan chiqishga yordamlashadi. Bundan tashqari yangi darsliklarni ijodiy tomonlaridan biri ota-onalarning ta'limdagi o'rnini ham aniqlashtiradi, ya'ni ular fan bolaning ta'lim- tarbiyasida ma'sul ekanligini eslatib turadi.

Matematik ta'limning sifatli bo'lishida ta'limning yuqoridagi komponentlaridan tashqari o'qitish metodlarining o'rnini katta bo'lib, u o'qituvchining ta'limdagi asosiy vazifasini ko'rsatib turadi. Demak, bundan ko'rinadiki, matematik materiallarni o'quvchilarga yetkazishda tanlangan metodlar xam to'g'ri foydalanish o'qituvchining egallagan bilimiga, uning pedagogik mahoratiga bog'liq bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning matematik bilim darajalari va matematik materiallarning qiyinchiligidan kelib chiqib qanday metodlar (ma'lumki bir soatlik darsda bir nechta metodlardan foydalaniladi) birikmasidan va bu yerda qaysi metod yetakchi qaysilari yordamchi ekanligini aniqlab olish ham darsning samarali bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Maktabda matematika o'qitishni sifatli amalga oshirish uchun avvalo o'qituvchining o'zi sifatli mutaxassis

bo‘lib xar tomonlama tayyorlangan bo‘lishi lozim. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadigan asosiy xulosa shundan keladiki, pedagogika institutlarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tayyorlaydigan fakultet o‘quv rejalari, fan dasturlari va ishchi dasturlarning mazmunlarini zamon talablaridan kelib chiqib isloh qilish kerak bo‘ladi. Majburiy ta‘limning birinchi bosqichi bo‘lgan boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarga matematik bilimlarni o‘rgatish o‘qituvchilar uchun juda og‘ir kechadi.

Hozirgi zamonaviy boshlang‘ich maktablarda fan (ayniqsa matematika fani) asoslarini yaxshi va a‘lo o‘zlashtirmagan o‘qituvchilarni maktab pedagogika jamoasi, ayniqsa bilimga chanqoq o‘quvchilar sifatsiz o‘qituvchini qabul qilmaydilar. Demak, bundan ko‘rinadiki biz boshlang‘ich ta‘limda orzu va xavas qilib oliy o‘quv yurtiga o‘qishga kirgan bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini zamonaviy innovatsion o‘qitish metodikasini yaxshi o‘zlashtirgan olov qalbli yoshlarni maktabga tayyorlab berishimiz kerak. Matematika fanining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri o‘zini uzluksiz o‘qib doimiy ravishda takrorlab turilishini xohlaydi. Ba‘zi pedagoglar o‘rtasida o‘qituvchi baholarga belgini o‘rgatadi degan gap bor, lekin bu gap hozirgi zamon pedagogikasiga xech xam to‘g‘ri kelmaydi chunki, o‘qituvchi bilmaganini o‘qib, o‘rganib, bilib o‘quvchiga o‘rgatishi lozim. Ulug‘ mutafakirlarimiz aytib o‘tganidek eng yaxshi ta‘lim-tarbiya ustozning shaxsiy namuna ta‘lim-tarbiyasidir. Har bir ustozning dili bilan tili hamohang bo‘lsa, u vaqtda ta‘lim tarbiya sifatli bo‘ladi uning sifatlilik ta‘minlangan bo‘ladi. Ayniqsa, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar ustozining ularga berayotgan ta‘lim tarbiyasini avvalo uning o‘zida bor yoki yo‘qligiga qiziqadi. Agar yo‘qligiga ishonch hosil qilsa, unga ta‘lim tarbiyaning ta‘sirchan kuchi yo‘qoladi va o‘quvchi o‘z bilganidan qolmaydi.

Bu oldingi birinchi boshlang‘ich ta‘limda tenglamalarni o‘rganishga inovatsion yondashuv deb tanlangan maqolamizda „Milliy dastur“ talablaridan kelib chiqib matematika o‘qitishni bevosita o‘quvchilarning kundalik amaliy hayotlari bilan bog‘lash maqsadida matematika darslarida berilgan matnli masalalarni yechishda tenglamalardan va darslikda berilgan tenglamalarni yechishdan oldin bu tenglama o‘quvchilarning amaliy kundalik hayotlarida uchraydigan matematik masala muammosining yechimi bo‘lishi mumkinligini aniqlash orqali o‘quvchilarning matematika fanining materiallarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga bag‘ishlangan edi. Bunda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga algebra fani asosiy tushunchalardan biri bo‘lgan tenglama tushunchasi haqidagi dastlabki elementar tasavvurlarini shakllantirish maqsadida to‘rtta arifmetik amallarning faqat bittasi bilan



berilgan sodda masalalarni ko'rishini yechimi berilgan tenglama mos keladigan sodda masalalarni o'rganishdan boshlab ikkita qo'shish va ayirish amallari bilan berilgan tenglamalarni qarab chiqqan edik.

Endi bu maqolamizni eslatib o'tgan maqolamizning mantiqiy davomi sifatida qarab ko'paytirish va bo'lish amallari bilan berilgan eng sodda tenglamalarni o'rganishdan boshlaymiz. Ma'lumki boshlang'ich ta'limda arifmetik amallar quyidagi tartibda birinchi qo'shish amalining teskari amal sifatida ayirish amali uchinchi qo'shishning xususiy holi bo'lgan ko'paytirish va to'rtinchisi unga teskari amal sifatida bo'lish amallari o'rganilganligini bilamiz. Bu ketma-ketlikni buzmaganda bir amaliy tenglamalarni ham shu tartibda o'rganishni boshlagan edik. Hozir ko'paytirish amali bilan berilgan tenglamani o'rganishni boshlaymiz. Yuqorida ta'kidlaganimizdek ko'paytirish amali bilan berilgan tenglamani o'rganishni yechimi shu berilgan tenglama bilan topiladigan quyidagi matnli masalalarni tahlilini ko'rib aniqlashdan boshlaymiz.

MASALA-1 Ikkinchi sinf o'quvchilaridan tuzilgan birigada a'zolarining har biri shanbalikda bir xil 3 donadan jami 15 dona mevali daraxtga ishlov bergan bo'lsa, o'quvchilar birigadasida nechta o'quvchi bo'lgan?

O'qituvchi o'quvchilar bilan savol javoblar orqali ifodani tuzib oladilar. Ustoz masala matnidagi miqdorlar orasidagi o'zaro munosabatda qo'shiluvchilar tengligiga o'quvchilar diqqatini jalb qilib 3-soni bilan topilishi kerak bo'lgan sonlar o'rtasida ko'paytirish amali bo'lishini eslatib o'tadi. Bu tenglikning o'rinli bo'lishi uchun qavs o'rniga 5-soni qo'yilishini o'quvchilarning o'zlari, bilmaganda ko'paytirish jadvalidan foydalanib 5 soniga tengligini aytadi. Shanbalikda qatnashgan o'quvchilar birigadasida 5-nafar o'quvchi borligini bilib olishadilar.

O'qituvchi o'quvchilarga masala yechishning boshqa usulini o'quvchilarning o'zlari topishga harakat qilishini aytadi. Agar o'quvchilar bunda biroz qiynalib qolsa o'qituvchi maqsadli savolllar berish yordamida ularni to'g'ri yo'lga solib turadi.

Masalan: Buni quyidagicha amalga oshirish mumkin.

O'qituvchi:- 1-masalada x no'malum ?

O'quvchilar: -o'quvchilar soni 3 ta.

O'qituvchi -bu sonni no'malum bo'lganligi uchun biror harf bilan belgilab olish mumkinmi?

O'quvchilar:-no'malum sonni x harfi bilan belgilab olish mumkin .

O'qituvchi:-yuqorida tenglama qanday ko'rishni oladi

O'quvchilar :- yuqoridagi ifodamiz ko'rishni oladi.



O'qituvchi - bu tenglik o'rinli bo'lishi uchun x -no'malum qanday son bo'lishi kerak ?

O'quvchilar: x no'malum soni 5 ga teng bo'lishi kerak. Shundan so'ng tenglik ham yuqoridagi va korinishdagi tenglamalarga o'xshash tenglama deb atalishi va soni berilgan tenglamaning yechimi (yoki ildizi) deb atalishi kerak ekanligini o'qituvchi o'quvchilarga eslatadi.

O'qituvchining navbatdagi ishi ko'rinishdagi tenglamaning yechimini tenglamada qatnashayotgan ko'paytirish amalining boshqa komponentlari yordamida topilishi mumkin ekanligiga o'quvchilarni e'tiborini qaratadi.

O'qituvchi : quyidagi tenglamaga diqqat bilan qarang, bu tenglamada ko'paytuvchi 3 va ko'paytma 15 sonlari berilgan bo'lsa ko'paytirish amalining qaysi komponenti no'malum ?

O'quvchilar:- ko'paytuvchiga bo'lgan x -soni no'malum.

O'qituvchi:-demak bizga 15 va 3 sonlari berilgan bo'lsa ular yordamida 5 sonini qanday xosil qilishimiz mumkin?

O'quvchilar:- 15 sonini 3 ga bo'lsak 5 soni hosil bo'ladi .

O'qituvchi:-berilgan tenglamaga o'xshagan yana ikki uchta tenglamani olib xulosalashni o'quvchilarni o'zlariga qo'yib berib shundan so'ng umumiy ko'rinishdagi tenglamaning umumiy ko'rinishidagi yechimni qoida ko'rinishida ta'riflashga o'tish mumkin .

Qoida 1 Ko'paytirish amali bilan berilgan tenglama no'malum ko'paytuvchi x -no'malumni topish uchun ko'paytmanni ko'patuvchiga bo'lish kerak yani O'qituvchi o'quvchilarga bu qoidalarni yodlash kerak ekanligini aytib o'tadi.

Yangi 2022-yilda chop etilgan darslikda bo'lish amali bilan berilgan ko'rinishdagi tenglamalar uchunchi sinfdan boshlab o'rganilishi rejalashtirilgan.

Bo'lish amali bilan berilgan quyidagi tenglamalardan birini masalan , yuqorida qarab o'tganimizdagidek ko'paytirish amallari bilan berilgan tenglama yechimiga qarab chiqqanimizdek bo'lish amali yordamida topiladigan quyidagi masalani o'rganishdan boshlaymiz .

Masala 2 O'quvchilar fermer xo'jaligiga borib olma hosilini terishda yordam berishdilar . Agar o'quvchilar jami yig'ilgan hosilni har biriga 15 kg dan olma sig'adigan qilib 20 dona yashikga joylashgan bo'lsa jami necha kg olma yig'ishgan?

O'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda o'zaro savol javoblar yordamida masala yechimini arifmetik usuldan foydalanib yechish orqali topib masala echiimi 300 kg ekanligini bilib oladilar.O'quvchilarning mavzuni yaxshi o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va mavzuning didaktik maqsadidan



kelib chiqib o'qituvchi masala yechimini topishning boshqa usulini bor yoki yo'qligiga bolalarni e'tiborini qaratadi.

Qo'shish, ayirish, bo'lish va ko'paytirish amallari bilan berilgan tenglamalarda ham shunday bo'lganligini ham eslab esga olgan o'quvchilar masala yechimini topish uchun masala shartida so'ralayotgan miqdorni topish uchun uni x-no'malum bilan belgilib olish mumkin ekanligini aytishadi. Shundan so'ng masala shartidan kelib chiqib undagi berilgan miqdorlar orasidagi munosabatni aniqlab tenglikni hosil qiladilar. Bu berilgan ifoda tenglama deb atalishini tenglikni qanoatlantiruvchi no'malum x ning qiymati tenglamaning yechimi (yoki ildizi) deb atalishini o'qituvchi ta'kidlab o'tadi.

O'qituvchining navbatdagi ishi bunday ko'rinishdagi tenglamalarning yechimini topish qoidasini keltirib chiqarishdan iborat bo'ladi. Masalani qanday usulda ishlagan bilan ham javoblari bir xil bo'lishini aytib bu tenglamaning yechimi ham 300 bo'lishini aytadi. O'qituvchi tenglamada berilgan 15 va 20 sonlardan qanday qilib 300 sonini hosil qilish mumkinligini so'raydi. O'quvchilar bu savolga osongina javob qilib bu berilgan masalada berilgan sonlarning ko'paytmasi bo'lishini aytadi.

Qoida 2 Bo'lish amali bilan berilga ko'rinishdagi tenglamada bo'linuvchi no'malum bo'lsa uni topish uchun bo'luvchini bo'linmaga ko'paytirish kerak.

Biz yuqorida faqat bir amaliy tenglamalarning umumiy ko'rinishlarini va ularning yechimini topish qoidalarini ularning kundalik amaliy hayotlarida uchraydigan eng sodda matematik masalalarni hal qilish yo'llarini ko'rsatib o'tish bilan birga bolalarda tenglamalar xaqida matematik tasavvurlarini elementar shakllantirishga harakat qildik.

Tenglama haqida bunday tushunchaga ega bo'lgan o'quvchilar tenglamaning quyidagi ta'rifini yaxshi o'zlashtirib oladi deb o'ylaymiz.

Ta'rif Bizga biror x-o'zgaruvchili (1) ko'rinishdagi harfiy ifoda berilgan bo'lsin .

Agar x-o'zgaruvchining biror qiymatida o'zgaruvchi tenglik ishorasini saqlab qoladi, bunday tenglikga tenglama deyiladi va o'zgaruvchining bunday qiymatiga tenglamaning yechimi deyiladi .

Masalan: $2x+5=x+9$ $x=4$. (x-o'zgaruvchining faqat bitta $x=4$ qiymatida saqlab qoladi)

O'quvchida tabiiy ravishda savol tug'ilishi mumkin .

a) Agar (1) tenglik o'zgaruvchining barcha qiymatlarida o'zida ishorani saqlab qolsa nima bo'ladi .

b) Agar (1) tenglik o'zgaruvchining birorta ham qiymatida tenglik ishorasini saqlab qololmasachi? Masalan Biz bu tenglama tushunchasiga ta'rif berish orqali boshlang'ich sinf matematika darsligida ko'p misol va masalalarda



uchratilib turadigan ayniyat va tengsizlik tushunchalariga mos ta'rif topdik . Bu tushunchalarning ham boshlang'ich sinflarda o'rganilish metodikasiga navbat bilan to'xtalamiz .

A.M. Matyushkin, M.I.Maxmutov kabilarning ishlari shular jumlasiga kiradi.

Pedagog kasbi egalari jamiyatning ishlab chiqarish munosabatlari, kuchlari, ijtimoiy - madaniy va davlat ehtiyojlaridan xabardor bo'lishi, o'z faoliyati jarayonida ularga tayanishi lozim. Zero, u jamiyat hisobidan ta'minlanib, uning ijtimoiy buyurtmasini bajaradi, yoshlarning jamiyat boyligini asrab – avaylashga, ko'paytirishga va shaxsiy fazilatlarini tarkib toptirishga rahbarlik qiladi.

Pedagogik faoliyat ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat mafkurasi bilan bog'liq holda yoshlar ijtimoiy ongining o'sishi ustida g'amxo'rlik qiladi, ularni haqiqiy insonparvar, demokrat, milliy istiqloq mafkurasi g'oyalarini himoya qilishga tayyorlash uchun xizmat qiladi.

Eng avvalo pedagog shuni chuqur anglashi lozimki, u jamiyatning ishonchli vakili, zero, jamiyat unga o'zining eng qimmatli boyligi, umidi, ishonchi va kelajagi bo'lgan bolalarini topshiradi. Bu oliyjanob va murakkab kasb unga hayotini bag'ishlagan har bir kishidan doimiy ijod, izlanish, ulkan sahovatli qalb, bolalarga muhabbat, o'z kasbiga cheksiz sadoqatni talab etadi.

Hozirgi kunda kasbiy kompetentlik pedagog tomonidan ta'lim jarayoni samaradorligini oshiruvchi psixologik mexanizmlardan samarali foydalanish jarayonining nazariy jihatlarini o'rganish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. V.M.Korotkov, B.T.Lixachyov, V.P.Bespalko, N.F.Talizina, L.M.Fridman, Yu.N.Kulyutkina, G.S.Suxobskoy, T.V.Kudryavtsev, A.M.Matyushkin, M.I.Maxmutov kabilarning ishlari shular jumlasiga kiradi. Ushbu tadqiqotlarda pedagogining kasbiy mosligi – kompetentligiga erishish uchun zarur bo'lgan metodik ishlarning usul va yo'llari keltirilgan.

Insonni har tomonlama tarbiyalash va ta'lim berish insoniyatning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini izlaganlar. Ta'lim-tarbiya ishi bilan mashg'ul bo'lgan pedagogining faoliyati ta'lim uchun sharoit yaratishga, o'quv jarayonida shaxsning ehtiyoj va ist'edodini shakllanishiga yo'llangan bo'lishi kerak.

Ya'ni, pedagog faoliyati doimo quyidagi didaktik masalalarni yechishga qaratiladi: “nimani o'qitish kerak?”, “kimni o'qitish kerak?” va “qanday o'qitish kerak?”.

Bu savollarga to'g'ri yechim topish, u yoki bu vaziyatlardan pedagogik maqsadga muvofiq yo'l topa olish pedagogidan yuksak mahorat va chuqur



kasbiy bilimni talab etadi. Bu muammolarning yechimi pedagogik psixologiya fani asosiy qonunlarini bilishga asoslanadi.

Hozirda tadqiqot muammosiga oid izlanishlar ya'ni, yosh pedagoglarining kasbiy kompetentligi masalasi tahlil etilgan ilmiy adabiyotlar mavjud. Masalan, Usanova O.N., Morozova N.Yu. lar tomonidan o'quvchilarga parallel xizmatlar ko'rinishidagi turli tashkiliy tizimlar majmui yaratilishi, Bityanov M.R., Xutornaya M.A. va Konovalova N.L. lar tomonidan tibbiy-ijtimoiy va psixologik-pedagogik maxsus markazlarning barpo etilishi kabilar fikrimizga dalildir. Dubrovina I.V., Ovcharova R.V., Maxnovets S.N., Bulanova O.E., Shulga T.I. tomonidan turli yosh guruhlarini tashkil etuvchi yosh pedagoglar uchun o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish mahoratini shakllantirish tamoyillari tezkorlik bilan ishlab chiqildi.

Jamiyatda ro'y berayotgan sifatiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda pedagog kadrlarni tayyorlashga tayangan turli o'quv dasturlarining Glotochkin A.D., Zabrodin Yu.M., Sosnovskiy B.A., Derkach A.A., Bodalyov A.A., Samoukina N.V. va Gromkova M.T. lar tomonidan havola qilinishi bir muncha ijobiy natijalar berdi. V.S.Bezrukova kasbiy kompetentlik tushunchasida "savodli darajada qaror qabul qilishga, baho va fikr bildirishga imkon yaratadigan kasbiy jihatdan yuqori darajadagi bilim va malakalar majmuasini tushunadi. E.F.Eser va O.N.Shaxmatova esa kasbiy kompetentsiya deganda, kasbiy bilim va malakalar yaxlitligini, shuningdek, kasbiy faoliyatni bajarish usullarini ko'zda tutadi.

Faylasuflar, sotsiologlar, psixologlar, psixofiziologlar va pedagoglar B.G.Ananyev, A.Disterverg, P.G.Redkin, K.D.Ushinskiy, L.N.Ruvinskiy, G.M.Andreyeva, N.V.Kuzmina, V.Slastenin, F.N.Gonobolin, A.A.Bodalyov, E.V.Shoroxova, A.V.Vedenov, Yu.M.Zabrodin, A.G.Kovalyov, I.S.Kon, T.A.Kitvel, V.S.Merlin, V.N.Myasishev, I.P.Pavlov, K.K.Platonov, E.D.Parigin, S.L.Rubinshteyn, V.V.Stolin, V.A.Yadov, I.Ayzenk, M.Fishbayn, T.Maslou va boshqalar o'z ish maqsadlariga asoslanib pedagogik munosabatini turli yo'nalishlar bo'yicha tadqiqot obyektiga aylantirdilar va ma'lum darajada nazariy fundamental asoslar yaratdilar.

M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, B.R.Qodirov, N.S.Safoyev, N.A.Yaxyarov, G.Sultonova, S.Rajabov, M.Pirmuhammedovalar rahbarligida olib borilgan ilmiy izlanishlarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik kategoriya sifatidagi talqinlariga ma'lum darajada katta e'tibor qaratildi.



Masalan, R.Z.Gaynutdinov yosh mutaxasislarning “Men—konseptsiya”siga o’z munosabatini bildirib, uning namoyon bo’lishiga ta’sir ko’rsatuvchi omillarga quyidagilarni kiritdi.

- ▶ Milliy qadriyatlar bilan muvofiq keluvchi shaxsning namoyon bo’lishini ta’minlovchi etnopsixologik omillar - katta yoshdagilar, ma’lumotli odamlar va ular qatorida pedagogini ham hurmat qilish;
- ▶ Harakat va xulq—atvor usullariga ishonmaslik, vazminlik.

Jumladan, Yu.P.Azarov pedagogik kompetentligini uning o’quvchi shaxsini intellektual nuqtai nazardan rivojlantirish jihatidan tadqiq etadi. V.A.Slastenin esa pedagogida kompetentlik shakllanishini kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirish jarayonida ko’radi. V.A.Kan-Kalik pedagogik kompetentlikni pedagogik muloqot samaradorligida deb hisoblaydi. V.L.Marishuk pedagogida kompetentlikni shakllantirishni uning psixologik bilimlari mavjudligida ko’radi. L.A.Shostakovich esa o’qitish va mehnat faoliyati jarayonida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning psixologik sharoitlari masalasini o’rgandi. V.G.Rindak va I.D.Lushnikov uzluksiz ta’lim jarayonida pedagogi ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish masalasini o’rgandilar.

Z.D.Jukovskaya pedagog kompetentlikni shakllantirish tizimini ishlab chiqish muammosini o’rganib, pedagog va talabani “nazorat va o’z-o’zini nazorat qilish”ning subyektlari, haqida aydi .

G.V.Akopov ta’limning ijtimoiy psixologiyasi yo’nalishidagi tadqiqotida pedagogik faoliyatning natijasi va ijtimoiy psixologik mohiyatini muloqotda namoyon bo’luvchi kommunikativ, ya’ni shaxslar orasidagi aloqa almashuv deb biladi. Tadqiqotchi N.N.Lagusev o’z ilmiy tadqiqoti natijalariga ko’ra, pedagogi nufuzi (avtoritet) uning ijodiy faoliyati darajasi bilan belgilanishi qirralarini ko’rsatib berdi. Tadqiqotchi N.K.Baklanova shunday xulosaga keldi: kasbiy yo’nalganlik, kasbiy mahorat va kasbiy tafakkur – pedagogik kompetentlikning muhim tarkibiy qismlaridir, ularni rivojlantirish kasbiy faoliyatda yuqori natijalarga olib kelishi mumkin.

Aytish lozimki, pedagogik kompetentlikni shakllantirish muammosi bo’yicha turli tadqiqotchilar tomonidan ko’pgina ilmiy tadqiqot ishlari bajarildi va muhim ilmiy pedagogik va psixologik xulosalarga erishildi.

Umuman, mamlakatimiz va xorijda amalga oshirilgan, zamonaviy ilmiy izlanishlar va tadqiqotchilarning erishgan ilmiy psixologik xulosalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, kasbiy kompetentlik, kasbiy moslik va professional sifatlarni shakllantirish ta’lim samaradorligini yanada oshirishda muhim omil bo’lishi mumkin.



Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda gi "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2707-son qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrda gi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora –tadbirlar to'g'risida "gi PQ-3261- son qarori
3. "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312 –son qarori.
4. Karimov I. Yuksak ma'naviyat-yengilmaskuch,-T.:Ma'naviyat,2008.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga qilgan Murojatnomasi,29 .12.2020 y
6. Ilk qadam maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishga qo'yiladigan Davlat talablari, T.:2018 y
7. Ilk qadam maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi. T.: 2018 y
8. Maktabgacha ta'lim xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining buyrug'i- 2020 y 26.10.173 son

РЕЗЮМЕ

Ayni damda jadallashib, rivojlanayotgan yurtimizda kattadan-katta o'zgarishlar bo'layotgan bir vaqtda maktabgacha ta'lim tizimini ham tubdan isloh qilish masalalari provard maqsadga aylandi. 2016-yil 29 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarorining e'lon qilinishi ushbu sohani tubdan isloh qilish, maktabgacha talim tashkilotlari ishini har tomonlama takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha davlat talablarini qayta o'rganish vazifasini qo'ydi. Shunga ko'ra pedagoglar va mutaxassislar xorij ta'limi tajribalarini puxta o'rgandilar va o'z pedagogik jarayonda qo'llay boshladilar.

РЕЗЮМЕ

В настоящее время, когда в развивающейся стране происходят все большие и большие изменения, приоритетной целью стали вопросы коренного реформирования системы дошкольного образования. 29 декабря 2016 года опубликовано Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-2707 "о мерах по дальнейшему совершенствованию системы дошкольного образования в 2017-2021 годах", направленное на коренное реформирование данной сферы, всестороннее совершенствование работы дошкольных образовательных организаций, воспитание и обучение дошкольников, формирование навыков и умений, подготовку их к школьному образованию. в соответствии с требованиями Закона Кыргызской Республики « О внесении изменений в Кодекс Кыргызской Республики Об административных правонарушениях Соответственно, педагоги и специалисты досконально изучили зарубежный образовательный опыт и стали применять его в своем педагогическом процессе.

SUMMARY

The issues of radical reform of the preschool education system also became the provard goal at the same time, which is gaining momentum and is undergoing major changes in our developing country. On December 29, 2016, the publication of the decree of the president of the Republic of Uzbekistan "on the measures for further improvement of the preschool education system in 2017-2021"PQ-2707 set the task of radical reform of this area, comprehensive improvement of the work of preschool educational organizations, re-studying state requirements for the formation of Education, Skills and Accordingly, educators and specialists thoroughly studied the experience of foreign education and began to apply it in their pedagogical process.



BO‘LAJAK MAKTABGACHA TA’LIM TARBIYACHISINING BOLALAR FIZIOLOGIYASI VA GIGIENASIGA DOIR BILIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI

Tadjibaeva G. I.

Namangan davlat universiteti “Fiziologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: pedagogik mazmun, maktabgacha ta’lim, bolalar fiziologiyasi, bolalar gigienasi, mahalla, bog‘cha, maktab, oliy maktab, jamoatchilik tarbiyachisi.

Ключевые слова: педагогическое содержание, дошкольное образование, детская физиология, детская гигиена, микрорайон, детский сад, школа, гимназия, народный воспитатель.

Key words: pedagogical content, preschool education, children’s physiology, children’s hygiene, neighborhood, kindergarten, school, gymnasium, folk educator.

Maktabgacha ta’limni rivojlantirish sohasida davlat siyosatini muvaffaqiyatli yuritishga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. MTT rahbarlari va ta’limi muassasasi turli bo‘g‘inlarida faoliyat ko‘rsatayotgan tarbiyachi-pedagoglarning aksariyatida boshqaruv yo‘nalishlari bo‘yicha zaruriy bilim, kasbiy faoliyat tajribalari, tashkilotchilik mahorati, ko‘nikma va malakalarning yetarli darajada emasligi, “maktabgacha ta’lim tashkilotlarining malakali pedagog kadrlar bilan jamlanmaganligi” kabi turli muammolar shular jumlasidandir.

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “maktabgacha ta’lim tizimiga soha xodimlarini oliy ma’lumotli kadrlar etib tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish” masalasiga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekiston Respublikasining «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»da ham maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida bog‘cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan.



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqarish tizimini takomillashtirish, jamoat boshqaruvi shakllarini rivojlantirish, bunda MTT rahbarlari va tarbiyachilarining faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish hamda zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini qo'llash, boshqaruv samaradorligini oshirishda innovatsion metodlar va usullardan foydalanish zaruriyati tug'ilayotgani va bu o'z o'rnida ixtiyoriy rahbar va tarbiyachining bilimi, ko'nikma va malakasi hamda tajribalariga, ya'ni bir so'z bilan aytganda kasbiy kompetentligiga bog'liqligi, ta'lim tashkiloti faoliyatini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish, ta'lim tashkilotida qulay ta'limiy muhitni tashkil etish, ya'ni innovatsion ta'limiy muhitni vujudga keltirish bo'yicha zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish zaruriyatining belgilayotganligi oliy ta'limda maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga amaliy jihatdan tayyorlash masalasi dolzarb muammo ekanligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizdagi olimlardan M.Zufarova 7 yoshli bolalarning psixologik jihatdan maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash, bunda bolalarning psixik protsess va xususiyatlari, imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'limni ratsional tashkil qilish yo'llarini belgilash, ta'limni o'zlashtirish qanday ixtiyoriy faollikni talab qiladi va bu ixtiyoriy faollik diqqat, idrok, xotira, tafakkur va nutq jarayonlarida qanday vujudga keladi, hamda uni qanday qilib faollashtirish mumkin, degan masalalarni asoslab bergan[1].

G.Djanpeisova tomonidan maktabgacha kata yoshdagi bolalarda elementar geometrik tasavvurlarni shakllantirishning metodik asoslari ishlab chiqilgan[2]. N.Raxmonqulova o'z tadqiqot ishida shaxsni rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyasi asosida o'quv-tarbiya jarayonida quyidagi tamoyillarga rioya etish lozimligini asoslangan: o'ziga xoslik, har bir bolaning o'ziga xos noyob sifatlari, individual yondashuv, o'quv-tarbiya jarayoni bolalarning maksimal rivojlanishiga yo'naltiriladi. Shaxsning o'ziga xosligi tamoyili o'quv-tarbiya jarayonini eng yuqori darajada individuallashtirishni tug'diradi, yaratadi, keltirib chiqaradi. Ya'ni o'quv reja va o'quv dasturlarning moslashuvchan variativ shaklini amalga oshirishni taqozo etadi[3].

K.Qodirov bugungi kunda maktabda ta'lim olishga psixologik tayyorlik darajasining tarkibiy qismlari sifatida shaxs nuqtai nazaridan hamda aqliy va ijtimoiy jihatdan yetilganlik darajasining birligidan iboratligini ilmiy asoslab beradi. Shaxs nuqtai nazaridan yetuklik deganda, umuman olganda, bolaning yangi bir ijtimoiy bosqichga o'tishi bilan bog'liq ravishda maktab hayotiga, ya'ni o'quv faoliyati, o'qituvchi va o'ziga bo'lgan ichki munosabatlari tushuniladi. Maktab ta'limining samarali amalga oshirilishi uchun bolada hissiy barqarorlik nisbatan yaxshi shakllangan bo'lishi darkor[4].



Yuqorida keltiril- gan mulohazalardan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish maz- muni quyidagilardan iborat bo'lishi lozim degan xulosaga kelishimiz mumkin:

1. Bolaning rivojlanish jarayonida atrofidagi predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishishga yo'naltirish.

2. Bolalarda aynan mana shu davrda mehnat va madaniy malakalarni shakllantirish, nutq va muloqotni rivojlantirish, ijtimoiy axloq va estetik tuyg'ularning dastlabki kurtaklarini hosil qilish.

3. Bolalarning psixik rivojlanishida qiziqishning roli katta ekanligini inobatga olgan holda, ularni biror faoliyatga undash, vaholanki qiziqish bu ehtiyoj kabidir.

4. Bolalarni o'yin faoliyati orqali amaliy harakatlar bajarishini ta'minlash hamda ko'nikmalarni shakllantirish.

5. 3-7 yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishida badiiy-ijodiy faoliyat turlaridan biri bo'lgan musiqaviy ta'limni samarali tashkil etish.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkurni rivojlantirish va natijada mustaqil fikrlash, o'z-o'zini anglash malakalarini shakllantirish.

2. Bolalarda ma'naviy hissiyotlar o'rtoq- lik, do'stlik va jamoachilik hislarini tarbiyalash.

Maktabgacha ta'limda sifatli ta'lim-tarbiyani tashkil etishda tarbiyachilardan yuksak pedagogik mahorat talab etiladi va ularga ushbu tavsiyalarga amal qilishlari lozimligini taklif etamiz:

- bola bilan munosabatda og'ir vazmin va bosiq bo'lish;
- bolada atrof-olam haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda integratsion yondashuvni amalga oshirish;
- mashg'ulotlarda zamonaviy texnologiyalarni samarali qo'llash;
- bolalarda mantiqiy fikrlash bilan birga ijodkorlik imkoniyatlarini shakllantirish;
- bolalarda nutq va tafakkur hamda fazoviy tasavvurlarni rivojlantiruvchi didaktik o'yin va mashqlardan foydalanish.

Adabiyotlar:

1. Zufarova M. Yetti yoshli bolalarning psixologik jihatdan maktab ta'limiga tayyorligi. Ps. f. kandidati ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. - T., 1969. -38-39-b.
2. Djanpeisova G. Maktabgacha yoshdagi katta guruh bola- larida elementar geometrik tasavvurlarni shakllan- tirish. 10.00.02-Matematika o'qitish metodikasi va nazariyasi.p.f.n. diss. - T., 2005. -12-b.
3. Raxmonqulova N.X. Teoriya i praktika adaptivnogo obucheniya doshkolnikov i mladshix shkolnikov. 13.00.03-Spesialnoe pedagogika .d.p.n.diss. - T., 2009.-S. 74.
4. Qodirov K. Maktab ta'limiga yetuklikning psixo- fiziologik jihatlari. Uslubiy qo'llanma. - T.: Mirzo Ulug'bek nomli O'zMU, 2009. -9-b.



5. Turgunov, Sobithon Toshpo'latovich, and Jamshid Shamsidinovich Kazimov. «Organization and Management of Pedagogical Processes in Secondary Schools on a Scientific Basis.» *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* 7 (2019).

6. Turgunov, S. T., & Akmalova, D. T. (2021). Operational Efficiency Technologies Subjects of the Pedagogical Process Through the Application of the Efficiency Formula. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(8), 371-377.

7. Ismoilov, Temurbek Islamovich. «Social and legal solutions of insurance mandatory recommendations.» *Scientific Bulletin of Namangan State University* 1.3 (2019): 152-154.

РЕЗЮМЕ

Maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachisining bolalar fiziologiyasi va gigienasiga doir bilimlarini rivojlantirishning pedagogik mazmunini o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachisining bolalar fiziologiyasiga doir bilimlarini rivojlantirish, dastlab o'z kasbini ijtimoiy mohiyatini tushuntirishdan iboratligi asoslab berilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье с учетом специфики педагогического содержания развития знаний о физиологии и гигиене детей будущего педагога дошкольного образования развитие знаний о физиологии детей будущего воспитателя состоит из объясняя социальный характер своей профессии на первых порах оправданным.

SUMMARY

In the article, taking into account the specifics of the pedagogical content of the development of knowledge about the physiology and hygiene of children of the future teacher of preschool education, the development of knowledge about the physiology of the children of the future teacher consists of explaining the social nature of his profession at first justified.



BADIIY ASARLARNI SAHNALASHTIRISH ORQALI TARBIYALANUVCHILARDA IJTIMOIIY XULQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Daminova Sh. F.

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha va boshlang'ich yo'nalishlarida masofaviy ta'lim kafedrasida o'qituvchisi

Tayanch so'zlari: badiiy adabiyot, nutq, bola, o'yin, tarbiyachi, qoida.

Ключевые слова: художественная литература, речь, ребенок, игра, воспитатель, правило.

Key words: fiction, speech, child, game, educator, rule.

Bolalar badiiy adabiyoti keng tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga va bola shaxsini har jihatdan kamol toptirishga yordam beradi. U bolaning kishilar hayoti haqidagi bilimlarini kengaytiradi, emotsional taassurotlarini boyitadi.

Tarbiyachi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirar ekan, u bolalarda quyidagi malakalarni shakllantiradi:

1. Badiiy asarlarni tinglash va tushunish.
2. Asar qahramonlarining xatti - harakatlarini baholash.
3. Insonlardagi axloqiy sifatlar va nuqsonlarni ta'riflab berish.
4. Adabiy asarning mazmuniga doir savollarga javob qaytarish, kichik hajmdagi she'rlarni intonatsiyalarga rioya qilib yodlab olish va ta'sirchan qilib aytib berish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish o'yinlari orqali bolalarga badiiy adabiyotni tanishtirish juda muhim hisoblanadi.

Sahnalashtirish o'yinlari bu bolalarning mustaqil ijodiy o'yin turi bo'lib, unda badiiy asar va hikoya bolalar tomonidan rollarga bo'lib ijro etiladi. Bu o'yinlar bolalarda nutq madaniyatini oshiradi, tafakkurini rivojlantiradi, iroda, intizom va xatti-harakatlarni boshqara olish, boshqalarning harakatlari bilan hisoblashish kabi ijobiy xislatlarni shakllantiradi[1].

Sahnalashtirish o'yinlari orqali farzandingiz o'yin jarayoniga bevosita kirib boradi, voqea va ertak qahramonlarining ichki hayotiga bevosita aloqador bo'lgan qahramonlik, jasurlik, mehribonlik, jonbozlik, jonkuyarlik kabi



ijobiy fazilatlarni jonlantiradi. Bu jarayonda uning nutqi boyib, lugʻat zaxirasi kengayadi, Dunyoqarashi takomillashadi. Sahnalashtirish uchun badiiy asar, ertaklar tanlashda tarbiyachilar, ota-onalar farzandining yosh xususiyatlari, qiziqishlari, istaklarini hisobga olishlari zarur.

Bolalar xalq ertaklarini turli usullarda qoʻgʻirchoq va soyalar teatri orqali saxnalashtirishga ehtiyoj sezadilar.

6-7 yoshli bolalarga badiiy asar mazmunni eslab qolishlari uchun qayta oʻqib berish, sahnalashtirib koʻrsatish, rasmlar namoyish etish, didaktik oʻyinlardan foydalanishlariga yordam berish lozim. Sahnalashtirilgan oʻyinlari qiziqarli oʻtishi va uzoq vaqt davom etishi uchun kerakli jihozlarni tayyorlash, lozim koʻrilgan taqdirda, uni oʻtkazishga koʻmaklashish kerak, Bunda tarbiyachi, ota-onalar, buvi-buva, aka yoki opalar oʻyinni sahnalashtiruvchi rejissyor kabi bolalar xatti-harakatlari, qobiliyat va intilishlarini hisobga olishlari zarur[2].

Bolaning oʻyinda faol ishtirok etgani uchun ragʻbatlantirish, kelgusida qaysi asarlarni sahnalashtirish kerakligani u bilan birga rejalashtirish kerak.

Bola hikoya, sheʼr, ertak tinglayotganida quvonadi, huzurlanadi. Bu emotsional taʼsirlanish bolada badiiy adabiyotni estetik idrok etish, yaʼni uni sanʼat asari sifatida his etish qobiliyatining paydo boʻlishiga, unda axloqiy sifatlarning shakllanishiga yordam beradi. Tarbiyachi bolalarni badiiy asar bilan tanishtirar ekan, har bir bolada kitobga nisbatan qiziqish va muhabbatni tarbiyalashi kerak.

Bolalarni boshlangʻich savodga tayyorlashda maktabgacha taʼlimda bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishda ularning nutqini rivojlantirishga qaratilgandir.

Maktabgacha taʼlimda toʻgʻri ogʻzaki nutq, boshqalarni tinglay olish, ular nutqining mazmunini tushunish, zarur boʻlganda oʻrtogʻining javobini toʻldirish yoki toʻgʻrilashda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Nutq bolalar uchun tahlil predmeti boʻlib qoladi, bu esa bolalardan zoʻr aqliy kuchni talab etadi[3].

Shunday qilib, bolalar nutqini rivojlantirish boʻyicha har bir ish jarayoni bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bu borada yuqorida bayon etilgan vazifalarning har biri oʻzining taʼlimiy va tarbiyaviy jihatiga ega. Nutqni rivojlantirish jarayonida shaxsning axloqiy sifatlari shakllantiriladi, aqliy va estetik tarbiyaning muhim vazifalari hal etiladi.

Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish, ularda xalq ogʻzaki ijodiga muhabbat uygʻotish, sheʼrlarni yodlash, hikoyalarni diqqat bilan qiziqib tinglash, oʻqilganlarni ongli ravishda oʻzlashtirish, kitobdagi rasmlar asosida



hikoya tuzish, kitobga nisbatan to'g'ri va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kabi malakalarni tarbiyalash ham kiritilgai.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi katta va tayyorlov guruhlarida bolalarni maktabga tayyorlashda badiiy adabiyot mashg'ulotlarini o'rni beqiyos. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari orqali sahnalashtirilgan o'yinlarning o'ziga xosligi shundaki, bolalar biror bir ertak yoki hikoya syujeti asosida ma'lum bir rolni bajaradilar.

Sahnalashtirilgan o'yin bolalarning eshitgan asarlar yoki ertakdan olgan tasavvurlarini mustaqil ifodalash yoki mashq qilish imkonini beradi. Bu o'yinlar bolalarda iroda, intizom, o'z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita hisoblanadi. Sahnalashtirish bolalarni qayta so'zlashga o'rgatish usullaridan biridir. Ayrim bolalarda qayta so'zlab berishga xohish ham qiziqish ham bo'lmaydi, lekin unga o'yin usuli kiritilishi bilan bola asardagi rolga kirib, o'sha asar mazmunini juda yaxshi aytib berishga harakat qiladi[4].

Bunday o'yinda bola o'zini o'sha asardagi qahramon o'rnida his etib, uning sezgi kechinmalari dunyosiga chuqurroq kirib boradi. Badiiy asarlarni qahramonlar tilida so'zlab berish bolalardagi xayolni rivojlantirishga yordam beradi va asar qahramonida mavjud bo'lgan jasurlik, o'z-o'ziga ishonch, mustaqillik kabi, xarakter kabi sifatlarini egallashga intiladi.

Sahnalashtirilgan o'yinlarda tarbiyachi rahbarlik qiladi. Ertak yoki hikoyadagi mazmun bolalarga yaqin, ularning yoshi va qiziqishiga mos, tushunarli bo'lib bola unga kirishib keta olsagina, asardagi obraz va harakatlar to'g'ri aks ettiriladi. Sahnalashtirilgan o'yinga tayyorlanish uchun ma'lum vaqt ajratiladi va har bir mashg'ulotda aniq bir masalalar hal etib boriladi.

Bolalar yoshlariga mos qiziqarli faoliyat orqali sahnalashtirilgan o'yinda amalga oshiriladigan aqliy tarbiya vazifasini juda osonlik bilan yaxshi o'zlashtiradilar. Bunday o'yinlar kattalar tomonidan bolalarni aqliy rivojlantirish maqsadida yaratiladi. Unda o'yin elementlari qancha ko'p bo'lsa, bolalarga u shuncha ko'p quvonch bag'ishlaydi.

Sahnalashtirilgan o'yinda qoidaning mavjudligi harakat yo'nalishini yoki o'yinning borishini belgilab beradi, bolalarning xulqini, o'zaro munosabatlarini boshqarib, kerak tomonga yo'naltirib turadi. Qoida bolalar harakatini baholovchi mezon sanaladi. Sahnalashtirilgan o'yinlarda amal qiluvchi qoidalar o'yin harakatlarining to'g'ri noto'g'riligini aniqlovchi va ularga baho beruvchi mezon sanaladi[5]. O'yin natijalari bolalarning ma'naviy va axloqiy ozuqa olganliklari bilan belgilanadi. Ayniqsa, bolalarning fahm-farosati, topog'onligi, diqqat va xotirasini namoyish qiladi. Bularning hammasi bolalarning o'z



kuchiga ishonchini oshiradi. Ular bundan ma'naviy qoniqish hosil qiladilar. O'yinni tarbiyachi bolalarda o'yinga qiziqish uyg'otgan holda tugatishi kerak, sahnalashtirilgan o'yinlar guruh xonasi, zal, maydoncha, o'rmon, dala va boshqa joylarda o'tkazilishi mumkin.

Bunday sahnalashtirilgan o'yinlarni bir qanchasini aytib o'tishimiz mumkin.

So'zlovchi narsalar

Bu o'yin bolaning nutqini o'stiradi. Uning sevimli o'yinchog'ini kulog'ingizga olib borib, xuddi u gapirgandek kiling. Bolaga xam uni eshittiring. Uyinchoq nima deganini so'rang. Bolaga so'zni qaytarishni o'rgating.

Kim mo'-o'-o' deydi?

Bolalar hayvonlar ovozigga taqlid qilishni yaxshi ko'rishadi. Kitobdagi suratlarni ko'rsatib, hayvonlar qanday ovoz chikarishini ayting.

Xayvonlar ovozigga taqlid qilib, kitobdan uning rasmini ko'rsatishini boladan talab qiling.

Bolaga tevarak-atrofdan eshitilayotgan tovushlarni farqlashga yordam bering.

“Turli ovozlar bilan”

Turli ovozda gapirish va kuylash ularning nutqiy faoliyatida eng yaxshi usuldir. U bilan birga birorta soddaroq qo'shiqni ayting. Avval odatdagi ovoz bilan, keyin ovozni o'zgartirib:

Baland, Past, Oxista, Manqalanib.

“Kel, gaplashamiz”

Bola bilan suhbat uning nutq madaniyatini o'stiradi. Unga qiziqarli mavzu tanlang. Masalan, o'yinchoq, buvisi, mushugi haqida. Ularning nomini ayting. Masalan, —menga mushukcha yoqadi, u yumshoqqina, momiqqina. Shu tariqa bola lug'ati boyligini oshirib borasiz.

Bu o'yin bolaning nutq malakasini o'stiradi.

Sakrayman, sakrayman

Sakrayverib charchayman

Endi biroz dam olay

Ozgina uxlab olay.

Boladan quyon sakrab bo'lgach nega charchaganini, jonivor qayerga borganini so'rang. Yangi so'zlari uchun uni rag'batlantiring.

“SEHRLI SO‘Z”lardan foydalanish - demak, ushbu qoidani qabul qilishdan oldin bolalarga o'zlari bilgan sehrlil so'zlarni aytishlari taklif qilinadi. Masalan, “Rahmat”, “Minnatdorman”, “Tashakkur”, “Kechirasiz” “Iltimos”, “Ruxsatingiz bilan”, “Ijozatingiz bilan”, “Agar mumkin bo'lsa” va hokazo. Keyin bu so'zlardan foydalanish haqida fikr almashiladi. Qachon va qayerda,



qanday vaziyatlarda ushbu soʻzlardan foydalanish mumkinligi haqida bahs-munozara yuritiladi[6].

Bu oʻyinlarning taʼsirchanligini, taassurotlarning har xilligini, bolalarning faolligini oshiradi.

Shunday qilib, sahnalashtirilgan oʻyinlar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga taʼlim berish vositasi boʻlib, uni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. J.Yoʻldoshev. “Pedagogik texnologiya asoslari”. T: “Pedagog”, 2004.
2. Bolalarni maktabga tayyorlashda noanʼanaviy oʻyinlardan foydalanish. T.: RTM. 2004.
3. “Bola shaxsini rivojlantirishning dolzarb muammolari” Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanining tezis va maqolalar toʻplami. 3-5 aprel, T.:2008.
4. M.Fayzullayeva. Maktabgacha taʼlim muassasalarida taʼlim-tarbiya jarayonini rejalashtirish. T.: 2015.
5. “Maktabgacha taʼlim davlat talablari”. Toshkent, 2016.
6. uzedu.uz – Xalq taʼlimi vazirligi

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada maktabgacha taʼlim tashkilotlarida tarbiyachi bolalarni boshlangʻich savodga tayyorlashda bolalarni sahnalashtirish oʻyinlari orqali badiiy adabiyot bilan tanishtirish, ularning nutqini rivojlantirishga qaratilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье воспитатели дошкольных образовательных организаций ставят своей целью приобщение детей к художественной литературе и развитие их речи через игры-драматизации при подготовке детей к начальной грамоте.

SUMMARY

In this article, educators in pre-school educational organizations aim to introduce children to fiction and develop their speech through dramatization games in preparing children for primary literacy.



INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA IJTIMOIIY ONGNI RIVOJLANTIRISHNING BA'ZI JIHATLARI

Oxunov I. A.

ADU katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Таянч сўзлар: интегратив ёндашув, бошланғич синф ўқувчилари, ижтимоий онг, ривожлантириш, интеграция.

Ключевые слова: интегративный подход, младшие школьники, общественное сознание, развитие, интеграция.

Key words: integrative approach, junior schoolchildren, social consciousness, development, integration.

Maktab ta'limida o'quvchilarning ijtimoiy ongini rivojlantirish tizimi pedagogik tadqiqotlar va amaliyotning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu esa dunyodagi globallashtirish jarayonlari, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot ijtimoiy masalalarining ahamiyatini oshirib, o'z navbatida ta'lim-tarbiya jarayoni mazmuniga singib bormoqda.

Integratsiyalashuv jarayoni keng ma'noli va serqirra tushuncha bo'lib, nafaqat pedagogika fanida, balki jamiyatda, mavjud barcha jabhalarda keng qo'llaniladi. Hozirgi davrda biror bir soha integratsiyalashuvdan chetda qolmadi va global intergatsiyalashuv yildan-yilga tez sodir bo'lmoqda. Ta'lim tizimida ham bu jarayonlar tezlikda amalga oshirilayotgani, xalqaro baholash tadqiqotlarida ham asosiy e'tibor o'quvchilarning fanlararo topshiriqlarni bajarishi talab etilayotgani islohotlar an'anasi qay yo'nalishda ketayotganligidan dalolat beradi.

Integratsiya tushunchasi o'quv-tarbiya jarayoni elementlari o'zaro birligini ta'minlaydi, ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishning maqsadlari, mazmuni va tamoyillari birligini ifoda etadi. Boshlang'ich ta'lim jarayonini integrativ yondashuvli ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etish samarasi sifatida aytish mumkinki, u orqali o'quvchilar ongida yo'naltiruvchi faoliyatning asoslari haqida tushunchalar shakllanadi, mantiqiy va obrazli fikrlashga o'rganiladi. O'quvchilar o'quv fanlarini an'anaviy shaklda o'rgananda olingan bilimlar



turli vaqt oralig'ida egallanadi. Integrativ yondashuv sharoitida esa ular bilim va faoliyat usullarini turli tizimlar doirasida egallaydilar.

Integrativ ta'limda o'quv fanlarining integratsiya komponentlari ma'lum tutashish nuqtasiga ega bo'lishi, mazmunan yaqinlik va "qardoshlik" darajasiga ega bo'lishi lozim.

Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarda ijtimoiy ongni rivojlantirishda quyidagi shartlarni bajarishi lozim bo'ladi:

1. Mazmun jihatdan bir-birlariga yaqin bo'lgan turli elementlarning mavjudligi.

2. Ta'lim maqsadidan kelib chiqqan holda ularni yaxlitlikka birlashtirishga ehtiyojning paydo bo'lishi.

3. Yaxlitlik shakllanishida zaruriy minimum darajada komponentlar mustaqilligining saqlanishi.

O'quvchilarda ijtimoiy ongni rivojlantirishda integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan dars mashg'ulotlarining vazifalari quyidagilardan iborat:

- ▶ o'quvchilarda hozirgi jamiyat manzarasi kontekstida tizimli tafakkur ibtidosini va ijtimoiy ongini rivojlantirish;
- ▶ o'quvchilarda jamiyat, ijtimoiy hayot, unda kechadigan jarayonlar haqidagi bilimlarni yosh xususiyatlariga mos ravishda shakllantirish;
- ▶ o'quvchilarda jamiyat, ijtimoiy hayotda kuzatuvchanlik qobiliyatini tarkib toptirish va ijtimoiy tajribalarga ega bo'lib borishi;
- ▶ o'quvchilarda milliy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, estetik ta'lim-tarbiya asosi hamda hozirgi zamon global voqeligi va muammolari mohiyatini anglashning muhim bo'g'ini sifatida "inson-jamiyat" munosabatlari tizimida aniq yo'nalish beruvchi qat'iy ishonch tizimini hosil qilish;
- ▶ o'quvchilarda mustaqil fikrlash, jamiyatdagi muammolarni to'g'ri payqay olish, o'z munosabatini bildirish, ulardan xulosa chiqarish va muammolarni hal etish yo'lini topish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- ▶ jamiyatdagi muammolarni bilish, tushunish, turli aspektlardan baholay olish, taqqoslash, tahlil qilish, sintez qilish, muammolarning sabab-oqibat tizimida tahlil qila olish malakalarini rivojlantirish;
- ▶ o'quvchilarda individual va ijtimoiy ongni rivojlantirish – ularni jamiyatni rivojlantirish vositasi va yashab turgan borliq, jamiyatni anglash usullaridan biri sifatida rivojlantirish;
- ▶ o'quvchilarda ijtimoiy ongni va milliy qadriyatlarga munosabatda bo'lishning asosi sifatida shaxsiy "men"ini va komil inson timsollarini shakllantirish.



Integrativ yondashuv o'quv yili uchun umumiy bo'lgan mavzu, har chorakning asosiy mavzusida o'z rivojini topishini ta'minlaydi. Shu asosida o'quv mashg'uloti uchun qo'yilgan g'oyalarning gorizontal harakati amalga oshiriladi. Xuddi shu yo'l bilan vertikal harakat ham amalga oshiriladi (sinfdan sinfga), bunda bir mavzu o'quvchilarning o'zlashtirishiga qarab, murakkablashib boradi. Integrativ yondashuvda o'quvchilarning olam bilan o'zaro aloqalari aks etuvchi mavzular kiritiladi, ya'ni o'quvchi idrokida noma'lum bo'lgan uzoq olam (kosmos, yulduzlar, yer kurrasi, katta bo'shliqlar) va yaqin olam (mikroolam, uy hayvonlari, o'simlik dunyosi, o'zi yashab turgan hududi tabiati).

Integrativ yondashuvli ta'lim texnologiyasini joriy etish ikki qismdan iborat: ta'lim loyihasini tayyorlash va amalga oshirish. Xususan:

1. Davlat ta'lim standarti belgilab qo'ygan o'quv dasturi va darsliklarda berilgan mavzuga oid o'quv materiallari o'rganilib chiqiladi. Shular asosida ta'lim mazmuni o'rganiladi, integrativ darsning didaktik maqsadi, o'qituvchi va o'quvchilar maqsadi, maqsadlarni amalga oshirish, beriladigan topshiriqlar, tekshirish topshiriqlari oldindan belgilab qo'yiladi.

2. Amalga oshirish bosqichi o'quvchilarni maqsad va vazifalar bilan tanishtirish, muammoli vaziyat, topshiriq, uy vazifalari, mustaqil bajariladigan ishlar va ularni bajarish bo'yicha ko'rsatma berish, o'quvchilarni faol, mustaqil va kreativ faoliyatini rag'batlantirish, ularni mavzu mazmuniga diqqatini tortish, mavzuning o'quvchilar hayoti uchun amaliy ahamiyatini ta'kidlab o'tish, muammoli vaziyatlarni bajarishga ehtiyoj oshirish, o'quvchilarning tafakkur, emotsiyalari, bilimlarni o'quv amaliyotiga tadbiiq etishni o'z ichiga oladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ijtimoiy ongini rivojlantirishda o'quv fanida o'zaro va mazmunan bir-birini to'ldiradigan fanlar, mavzular, g'oyalarni birlashtirish muhim ahamiyatga ega. Masalan, tabiatshunoslik, tarbiya, o'qish fanlaridagi ba'zi mavzularni turli xil nuqtai nazardan ko'rib chiqish, birlashtirish imkoniyati bo'ladi. Boshlang'ich ta'lim mazmunini shakllantirishda barcha o'quv fanlarini insoniylashtirish, milliy, ijtimoiy-iqtisodiy, estetik, huquqiy ongni rivojlantirish, milliy qadriyatlarga sodiiq qilib tarbiyalashga e'tibor qaratilgan.

O'qish, Ona tili, Musiqa, Tasviriy san'at, Tarbiya fanlari o'quvchilarda insonparvarlik tabiatini aks ettirishga qaratilgan. Mazkur o'quv fanlari o'quvchilarda ijtimoiy ongning turli shakllari rivojlanishiga, ular tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan. O'quv fanlari o'quvchining nutqi va tasavvurini rivojlantiruvchi diqqatga, mavzuni anglashga, faollashtirishga qaratilgan.



Shu o'ringda, o'quvchilarning bilish jarayonida o'quv fanlaridagi bir-biri bilan mazmunan bog'liq mavzularni birlashtirish uzviy bog'liq bo'lgan tafakkurning rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'limda ijodiy faoliyatni tashkil etish muammosi ko'p qirrali pedagogik-psixologik, ijtimoiy vazifalardan biri bo'lib, jamiyatning har tomonlama rivojlanishi va taraqqiyoti uchun dolzarb vazifalardan biridir. O'quvchilarda ijtimoiy ongni rivojlantirishda integrativ darslarni tashkil etishdan maqsad ijodiy faoliyatni oshirishdir. Mazkur darslar an'anaviy darslar bilan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

1. Muammoli vaziyatni asosiy ta'limiy ob'ekt sifatida qarash. Bunda o'quvchilar (sub'ekt) uchun qiziqarli bo'lgan muammoni aniqlash, o'quvchilarga ularning o'rganilayotgan ob'ekt bilan bog'liqlikni, aloqadorlikni topishga yordam berish.

2. O'quvchilarga yechimi noma'lum bo'lgan muammo yoki topshiriq beriladi. Ushbu topshiriqni amalga oshirish sinfda ta'limiy ko'tarinkilik hamda o'quvchilar topshiriqni bajarish orqali o'zlarining faolligini namoyon etgandagina samarali bo'ladi.

3. Integrativ topshiriqning ta'riflanishi muammoni jamoa bo'lib muhokama qilishning natijasi bo'lishi mumkin. O'quvchilar tomonidan ta'riflangan topshiriq shunchaki qiziqarli emas, balki o'qituvchi uchun yangilik bo'lsagina maqsadga erishilgan bo'ladi.

4. O'quvchining mavjud yoki yaratilgan vaziyat (topshiriq)ni shaxsan hal etishga imkoniyat yaratish – evristik vaziyatning asosiy bosqichi sanaladi. Bunda har qanday ta'lim natijasidan ijod belgisini aniqlash lozim.

5. O'quvchilarning ta'limiy ijod namunalarini namoyish etish: she'rlar, rivoyatlar, topshiriqlar, ta'riflar, ramzlar, rasmlar, loyihalar va shu kabilarni jamoada muhokama etib, ko'rgazmalar tashkil etish, o'zaro yozma taqrizlar yozdirish, taqdimotlar bilan chiqishlar qilish.

6. Ta'limiy ijod namunalari namoyish etilgandan keyin rasmlar, rivoyatlar, ta'riflar, olimlarning fikrlari, darsliklaridagi ma'lumotlar, shaxsiy bilim va tasavvurlari bilan asoslay olish.

7. O'quvchilarning ijod namunalarini qiyoslash, solishtirish, tasniflash bo'yicha faoliyatni tashkil etish. O'quvchilar tomonidan o'z qarashlari yoki ijod namunalarini aniqlash hollari yuz bersa, ularga o'z nuqtai nazarlarining o'zgarish sabablarini tushunishlarida ko'maklashiladi. Ta'limiy vaziyatlarning rivojlanishi ta'minlanadi.

8. Bilishga oid qo'llanilgan usullar, yuzaga kelgan muammo va uni yechish yo'llarini tushunishi bo'yicha fikr yuritish, tahlil etish. O'quvchilarga individual



tarzda erishgan natijalarni aniqlashda ko‘maklashish. Jamoa bo‘lib yaratilgan ta‘limiy natijalarni aniqlash.

Integrativ darslarning maqsadi nafaqat fanlararo bog‘liqlik, balki mahalliy ishlab chiqarish, iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlariga tayangan holda zamonaviy kasblar bilan ham bog‘lash va milliy hunarmandchilik an‘analari bilan uyg‘unlashtirish kerak bo‘ladi. Bu orqali o‘qituvchilar Texnologiya fanini umumiy mehnat va aniq kasbiy ko‘nikmalar bilan tanishtiradi, kasblar va mutaxassisliklararo bog‘liqliklar borligini tushuntiradi. Misol tariqasida 4-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan Texnologiya fani darsligida tikuvchi, to‘quvchi, kulol, oshpaz kasblarining faoliyat turlari va ayrim amaliy topshiriq namunalari bajarilishi keltirib o‘tilgan. Mazkur topshiriqlar orqali o‘quvchilar mehnat faoliyatini tashkil etishda turli bosqichlarni bilishi, ularni amalda qo‘llay olishi va shu asosda mehnat jarayoni yuzaga kelishi haqida bilim hamda ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Biror mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ma‘lumotlar to‘plash, faoliyat ketma-ketligini, kerakli materiallar va ish qurollari, vaqtni rejalashtirish, o‘zi tomonidan amalga oshirilgan mehnat faoliyatini baholash kabi bosqichlarni amalga oshirish kerak bo‘ladi. Bu bosqichlarni bilishi va qo‘llay olishi nafaqat Texnologiya fanida, balki boshqa o‘quv fanlarida ham zaruriy ko‘nikmadir.

Ona tili fanida bir qator integrativ yondashuv asosida dars tashkil etish imkoniyati mavjud.

1. Dars mazmunini o‘quvchi hayoti, uning atrof-muhiti, qiziqishi bilan bog‘lagan holda misollar bilan boyitish.

2. Ona tilidagi bir qancha mavzularning integratsiyasi.

3. Fanlararo integratsiya. Ba‘zi adabiyotlarda bu turdagi integratsiya darslari “fanlararo loyiha” deb yuritiladi. Bu holda mavzu darsning asosini tashkil etib, turli fanlar nuqtai nazaridan talqin etiladi.

Integrativ darslarni tashkil etishdagi muammoli jihat – o‘qituvchi uchun bir tizimga keltirib olish, vaqt va mazmunni rejalashtirish nuqtai nazaridan murakkabligidadir. Boshlang‘ich sinflarda yuqori sinflarga nisbatan bu jarayon oson kechadi. Yuqori sinflarda bir qancha o‘qituvchilar birgalikda faoliyat qilishi zarur bo‘ladi.

“Boshlang‘ich ta‘limdagi har bir predmet bu integratsiyalangan kurs, mazmun jihatdan ular tabiiy-matematik sikl bilan uzviy bog‘liq” bo‘lib, o‘quvchilarning atrof-muhit, aniq va ijtimoiy fanlarni o‘rganishiga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining “Atrofimizdagi olam” yoki “Tabiashtunoslik” fanlarini o‘rganish faqat emotsional holat emas, balki borliqni anglab yetishga bo‘lgan qiziqishdir. Bu qiziqishlarni qo‘llab-quvvatlash va uni



o'quvchilar hayoti bilan bog'lash bilim olishga bo'lgan ehtiyojini ta'minlaydi. Bu orqali o'quvchilarga atrofdagi olamni o'zaro bog'liqligini hamda tabiatdagi turli-tumanlik undagi muvozanatni ta'minlashi ochib berilsa, boshqa tarafdin maktabda o'rganilayotgan bilimlar "hayotiy bilimlar" ekanligini tushunishiga yordam beradi.

"Atrofimizdagi olam" fanini bolalar nutqini o'stirish uchun tabiatshunoslik, o'qish, husniyat, matematika bilan fanlararo integratsiyasini ta'minlash mumkin. O'quvchilar nutqini o'stirish har bir o'quv fanining maqsadi hisoblanib, darslarda o'quvchilar yangi, kerakli tushunchalarni egallaydi, o'zlarining fikrlarini tartibga soladi, noto'g'ri tushunchaga ega bo'lgan bo'lsa, to'g'ri tushunchaga yo'naltiriladi. Integrativ darslar esa o'quvchining bir o'quv fani bilan chegaralamasdan, atroficha, keng qirrali, to'liq, tugallangan mazmunga ega fikr shakllanishi imkoniyatini beradi. Integrativ darslar orqali o'quvchilar o'z bilimlarini tizimlashtiradi, kundalik hayotda kuzatish qobiliyatini faollashtiradi, bilimlarni "keng va chuqur" o'rganishni maqsad qiladi. Integrativ dars mashg'ulotlari o'quvchining egallagan bilimini nostandart vaziyatlarda ham qo'llab ko'rish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot doirasida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun Ona tili fanining boshqa fanlar bilan integratsiyasini "Ona tili va boshqa o'quv fanlari" tizimida didaktik tahlil qilishni lozim topdik. Didaktik tahlil integrativ dars mazmunini sinf o'quvchilari jamoasiga to'la tushunarli bo'lishi va izchil ravishda o'quvchi ongiga yetib borishi, o'qituvchi berayotgan materialni ongli ravishda o'zlashtirishi, rivojlantiruvchi va muammoli ta'limning mavjudligi, o'qituvchi fikrlarining izchilligi, ko'rgazmali qurollardan, tarqatma materiallar va texnika vositalaridan foydalanishning maqsadga muvofiqligi, darsliklar bilan ishlashning to'g'ri bo'lishini ko'rsatib beradi.

Ona tili fani barcha fanlar uchun nutq, ifoda vositasi bo'lib, o'quvchilar boshqa fanlarni o'rganishi uchun muhim shart-sharoitlarni yaratishni maqsad qiladi. Barcha o'quv fanlarini ona tili bilan bir xil tenglikda integratsiyalab bo'lmaydi. Matematika fanida bu jihat murakkabroq bo'lib, quyidagi mavzular orqali bog'lash imkoniyati mavjud: "Son", "Chama son", "Sanoq sonlar". Shuningdek, biror taom yoki shirinlik tayyorlash ketma-ketligini yozish va buning uchun kerakli masalliqalar uchun harajatlar ro'yhatini ishlab chiqish topshirig'i o'quvchilarning matematikaga oid massa, pul birliklariga oid bilimlarini ona tilidagi bilimlari bilan uyg'unlashishiga yordam beradi. Yana bir misol, ona tilidan uyga vazifa sifatida 100 000 va 1 000 000 oralig'idagi raqamlar ishtirok etgan gaplar yozish va bunda turli fanlarga oid ma'lumotlardan foydalanish zarurligi, o'quvchilarda fanning amaliy ahamiyatini oshiradi va



izlanuvchanlik qobiliyati rivojlanishiga turtki bo'ladi. Ushbu topshiriq orqali o'quvchilar, bir insonda qancha soch to'lalari borligi, viloyat aholisining soni va boshqalar misolida ma'lumotlar qidirishi va shu xususida do'stlari, oila a'zolari bilan suhbatlashishiga turtki bo'ladi.

Ona tili darslaridagi yozma ishlar, mustaqil ishlar va og'zaki nutq uchun misollar keltirishda, savollar tuzishda, bayon va insholar yozishda boshqa o'quv fanlari kontekstiga oid ma'lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi. Ona tilini o'qish, rasm, musiqa, tarbiya fanlari integratsiyasi amaliyotda ko'p uchrab turadi. Bunday darslar o'quvchilarning nutqini o'sishiga, tilning amaliy ahamiyatini tushunishga, nutqning rivojlanishiga, musiqa, tabiatga bo'lgan munosabatini ijobiy o'zgarishiga yordam beradi.

O'quvchilar atrof-muhit, tabiat, o'simliklar, hayvonot dunyosi bilan tanishadi va o'zlarining kuzatishlarini so'zlab berishi tabiatshunoslik fanida ko'p uchraydi. Bu orqali o'quvchilar yangi so'zlar, ilmiy tushunchalarni egallab boradilar. Tabiat haqidagi she'rlar, hikoyalar, kichik ilmiy ma'lumotlar, izohli lug'atlardan foydalanishni o'rganadilar. Ona tilidagi mavzularni tushuntirishda misollar keltirishda tabiat hodisalari, atrof-muhitdagi hodisalarni tasvirlab berishni so'rashi darsning mazmunini boyitadi. Masalan, 3-sinfda "Gaplar" mavzusini takrorlash darsi bo'lib, unda tabiat, atrof-muhitga bog'lagan holda gaplar tuzish maqsadga muvofiq. Bu orqali o'quvchilar darak gaplar, so'roq gap, xis-hayojon gaplar tuzadi, grammatik jihatdan tahlil qiladi, shuningdek tabiatga oid bilimlarini faollashtiradi. Ona tili va tabiatshunoslik fanlarining integratsiyasi o'quvchilarning ilmiy matnlar yozish ko'nikmasini shakllantiradi, o'z kuzatishlarini ilmiy tushuntirish, tasvirlash, shuningdek, ilmiy matnlar o'qishga qiziqishini orttiradi. Ona tili darslarida qisqa insholar yozish (10-15 daqiqqa) va bu insholar mavzularini tabiatshunoslik mavzulari bilan bog'lash, ularning nutqini rivojlanishiga va tabiiy bilimlari mustahkamlanishiga yordam beradi.

Tabiat hodisalarini tasvirlash, tavsiflash o'quvchilardan kuzatuvchanlik, sergaklik, bir-biridan farqlash, taqqoslashni talab etadi. Suvning oqishi, shamol, bo'ron kabi tabiat hodisalarini ifodalash tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishiga yordam beradi. Shuningdek, ona tili darslarida kichik guruhlarda tabiatshunoslikka oid turli rasmlar asosida hikoyalar tuzish samarali usul hisoblanadi. Bu orqali o'quvchilarning og'zaki tasvirlash, nutqini o'stirish, manzara tasvirlarini ifodali o'qish, tabiatshunoslik mazmunida bayon yozish kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ona tili va tabiatshunoslik fanlari integratsiyalashgan darslar butun dars bosqichlarida emas, balki uning ma'lum bosqichlarida foydalanish tavsiya etiladi. Bu orqali darsning tegishli qismigina



integratsiyalashadi. Buning natijasida, o'quvchilarning tabiatshunoslik bo'yicha atamalar, bilimlarni o'rganishi, so'zlarni tilshunoslik va tabiatshunoslik nuqtai nazaridan talqin qilish imkoniyatini yaratadi.

ном труде людей, пишет индустриальные пейзажи, натюрморты. На выставках появляются жанровые картины, отображающие быт и нравы узбекского народа. Привлекают внимание зрителей его композиции на исторические темы, о героизме людей. [5]

Анализ и результаты. Картины «Семья», «Свадьба» Г.М. Абдурахманова стали этапными. В них нашли свое отражение поиски художником индивидуальной манеры, его идейно-эстетические взгляды. В них намечаются поиски создания художественного образа, основанного на синтезе реалистического искусства с приемами и пластически образными решениями национальной миниатюрной живописи. Когда улеглись страсти, горячие споры о приемлемости или неприемлемости традиции миниатюрной живописи и народного декоративного искусства, можно констатировать, что художник смог найти ассоциативные художественные формы, которые помогают ему выразить пульс и дух Узбекистане. В полотне «Свадьба» ярко проявилась индивидуальная манера художника, наметившаяся еще в предыдущих картинах. Традиции миниатюрной живописи с высоким горизонтом, много сюжетной композицией, ритмикой цветовых пятен и плоскостей и начинают переплетаться с реалистической формой выражения. Тематическим полотнам художника присуща повествовательность изложения.

Он неторопливо повествует о современном укладе жизни народа, об узбекской свадьбе в картине «Свадьба», но это не мешает художнику передать свое восхищение перед красотой человеческих общений и контактов. Бытовые детали в картине – одежда, мебель, телевизор, автобус, стоящий за забором – и другие характеризуют интернационализацию этого быта, связывает его с современным миром. Оригинальностью художнического подхода к избранной теме отличается картина «девушки из Бахмаля», которая привлекает своим образно-пластическим решением, ритмикой цветовой гармонии. Несколько стилизованные фигурки людей композиции, её красочное решение несут в себе особую поэзию, скрытую духовность. Тревожным, но величественным духом пронизана картина «Иссык куль», где молчаливые дирижабли в небе, безлюдность долины создают ощущение тревоги и вместе с тем скрытую внутреннюю мощь, «Праздник урожая» - много сюжетная композиция. В ней любознательному зрителю представляется возможность подробно рассматривать каждый клочок полотна и открывать для себя интересные комические и юмористические жизненные ситуации.

Конечно, в вышеупомянутых полотнах есть налет примитивизма, в решении отдельных образов и деталей чувствуется игрушечность, стилизованность. Но именно в них остро чувствуется самобытность, индивидуальное своеобразие художника, его образно-пластическое мышление



и эстетическое кредо. Все эти качества работ художника выдвигают его в числа интересных художников Узбекистана, который своим трудом обогащает стилистическое разнообразие узбекского искусства, его живописно-пластический язык. Художник плодотворно, сочетая занятия живописью с педагогической деятельностью в Ордена Дружбы народов Ташкентском государственном педагогическом университете имени Низами. Он полон творческих замыслов, над осуществлением которых постоянно работает, открывая новые эстетические ощущения и чувства.

Творчество художника Г. Абдурахманова крепко связано с лирической линией узбекской пейзажной живописи. Для его лучших работ характерны проникновенный лиризм, сосредоточенная передача состояния природы в определенное время года и дня. Он имеет свою собственную манеру исполнения, излюбленные темы, свое отношение к окружающей действительности и свое понимание средств для выявления этого отношения в пейзажном этюде или картине. Тихие улицы, безлюдные окрестности города, сады вдохновляют его. Он посещает горный район под Ташкентом- Хумсана. Поездки обогащает художника новыми темами и сюжетами. На многие годы эти мотивы становятся главными в его произведениях. Работы художника, созданные в Хумсане в основном посвящены старогородским мотивам, окрестностям, долинам и рекам. Одна из них «Весна» в которой запечатлена типичный узбекский дворик горного города. Гафур Абдурахманов любовно изображает начало весны с ее прохладным солнечным днем. Распускаются почки, зацветают деревья. Появляется сочная зелень. Картину замыкают узбекские горные домики с маленькими и низкими окнами и открытой террасой. Большое дерево в середине пейзажа как бы держит всю композицию, придавая ей полностью пейзажный характер художнику удалось очень четко и тонко передать весеннюю прохладу. Гармония холодных и теплых тонов (преобладают холодные сине-фиолетовые, зеленые тона) сообщает картине особую поэзию цвета. Зритель словно бы ощущает свежесть весеннего дня, игру ласковых солнечных лучей и пробуждение природы. Тема зимы-одна из любимых тем Г. Абдурахманова. он посвятил её много полотен. (Старый город зима, 1982 Выпал снег 1983, зима Хумсане) и целую серию этюдов и картин, написанных непосредственно в Хумсане. В его пейзажах перед нами возникают то шумные улицы и базары, то тихие узбекские дворики или уютные сады.

Изображение прекрасного мира вещей увлекало многих художников, как П.Кончаловский, И.Машков, Р.Фальк, К.Петров – Водкин, Ю.Пименов, Н.Ковина, Р.Ахмедов, М.Набиев, Я.Салпинкиди, Г.Абдурахманов и другие создали великолепные натюрморты, раскрывающие не только красоту

вещей, но вместе с тем и мир человека, его мысли и чувства. Каждый художник нашел для решения этой сложной задачи свои выразительные средства. Порой человек незримо присутствует на картине, и, кажется, что он только что вышел и может вернуться в любой момент Живопись Абдурахманова во всем ее объеме - пейзаж, портрет, натюрморт несет в себе живое, непосредственное чувство общения с натурой. Цвет в его работах чрезвычайно подвижный, живо передает состояние природы. Налицо все черты пленэрной живописи с ее изменчивым, сложным переливом тончайших полутонов. Однако в его искусстве есть нечто, что позволяет говорить об углублении реалистической линии в узбекской живописи. Об этом свидетельствуют его работы: «Натюрморт с арбузами», «Национальный натюрморт».

Вдохновляющим началом творчества Абдурахманова всегда оставалась натура во всем богатстве ее проявлений. Тематами его натюрмортов служат природные формы: цветы, фрукты, овощи, самовар, сузана, рыба, все, что несет в себе живое дыхание жизни. Он пишет их в различной обстановке и каждый раз обнаруживает удивительно цельное, оптимистическое восприятие мира. Ему свойствен редкий дар извлекать из палитры такие сочетания цветовых оттенков, которыми он мастерски передает красоту и нежность хрупких цветов, сложные состояния освещения. При этом показываемые им предметы не утрачивают своей материальной конкретности: рисунка, контура, объема.

Развивая по существу принципы пленэрной живописи, Абдурахманов оставался вполне самостоятельным в оценке природной формы: движение цвета в среде строило изображение предмета.

Отметим и другую важную черту искусства художника – его стремление к картинному видению. Натюрмортам этого мастера присуща строгость, продуманность композиции. Всегда в натюрморте имеется центр композиции, через который мы воспринимаем все богатство живописной среды.

В том же он пишет «Натюрморт с самоваром» - своеобразный образ-представление, навеянный революционными преобразованиями в стране. Художник стремится найти эстетическую ценность в предметах индустриального общества.

В творчестве художника натюрморт обрел черты самостоятельного жанра, который и по содержанию, и по художественной форме занял равноправное со всеми другими жанрами положение в искусстве. Натюрморт встал вровень с сюжетной картиной, где поднимались темы большого идейного содержания.

Заключение. В последующем развитии натюрморт значительно пополнился новыми темами, интересными стилевыми особенностями. В нем он



находит отражение характерные черты современной жизни, достижения науки и техники. Стремление полнее выразить тему заставляет художника создавать циклы живописных работ.

Натюрморт показала не только массовость жанра, но и широкий охват тем. Не порывая связи с современной действительностью, художник обращается к опыту истории искусства, внимательно изучает смежные жанры. Другим источником является изучение произведений народного творчества, изучение опыта предшествующих поколений.

Художник, обращается к натюрмортам как к средству характеристики создаваемого образа и при работе над портретом. В сюжетно - тематических картинах натюрморт имеет хотя и важное, но все же подчиненное значение.

Как самостоятельный жанр искусства натюрморт обладает большими изобразительными воздействиями. В нем показывается не только внешняя материальная сущность предметов. Вместе с конкретным изображением вещей в натюрморте в образной форме могут быть переданы существенные стороны жизни, отражаться эпоха, важные исторические события.

В лучших своих проявлениях он становится действенным средством идейного и эстетического восприятия людей, формируя их вкусы, понятия, представления.

Другое назначение натюрморта – служить своеобразной творческой лабораторией, где художник ставит и решает различные профессиональные задачи, совершенствует мастерство.

Своеобразие работы над натюрмортом состоит в том, что его сложно ставить и писать в различных условиях; в помещении при дневном и искусственном освещении, на открытом воздухе.

В отличие от творческого натюрморта учебный имеет узкую строго направленную цель, способствовать активизации познавательной деятельности учащихся.

Как правило, безразличное отношение к материальному отрицательно сказывается не только на конечном результате, но и на ходе ведения рисунка. Необходимо, приступая к работе, давая студентам или детям натюрморт, знать не только изображение, но и технические возможности различных материалов.

Литература:

1. Ш. М. Мирзиёев мы все вместе построим свободное, демократическое и процветающее государство Узбекистан Выступление на торжественной церемонии вступления в должность Президента

2. Республики Узбекистан на совместном заседании палат Верховный совета Ташкент 2016 «Узбекистан». ст 39.



3. Н. Ахмедова “Живопись Центральной Азии XX века: традиции, самобытность, диалог” Т.2004 с 132
4. Saodat Makhkamova Bakhtiyarovna. (2021). Questions of preparing future teachers for artistic gafur abdurakhmanov analysis of works of fine art in school. Euro-Asia Conferences, 5(1), 13–18. Retrieved from <https://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/437>
5. Barbara Bredley. Drawing people:How to Portray the clothed Figure University of California. New York 2019. B12
6. Jennifer Lilya Fashion Illustration Art. Copyright © 2015.B.3 <http://artistsnetwork.com/ebook-promo>
7. Abdirasilov, S., & Maxkamova, S. (2019). Research of Structure of Fractals in a Life of Mankind and Fine Arts Products. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 17(1), 302-305.
8. Bakhtiyarovna, S. M., Dildora, A., Markhabo, T., & ToshpulatovaSabina, I. Z. (2020). Creativity of people artist gafur abdurakhmanov in the development of modern painting of uzbekistan. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(2).
9. Maxkamova, S. B. (2021). Bo ‘lajak tasviriy san’at o ‘qituvchilarini tasviriy san’atda manzara janridagi asarlarini badiiy tahlil qilishga tayyorlash masalalari. Scientific progress, 2(2), 480-487.
10. Махкамова, С. Б. (2021). Вопросы подготовки будущих учителей к художественному анализу произведений изобразительного искусства в школе. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(4), 44-53.
11. Абдирасилов, С. Ф., & Махкамова, С. Б. (2019). Патриотическое воспитание школьников-актуальная педагогическая проблема. In Высшее и среднее профессиональное образование как основа профессиональной социализации обучающихся (pp. 282-286).
12. Университетская библиотека online.- Режим доступа: <http://www.biblioclub.ru/>

РЕЗЮМЕ

Ushbu ilmiy maqola «Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi» ta’lim yo’nalishi talabalari va o’qituvchilari uchun mo’ljallangan bo’lib, unda rassom Gofur Abduraxmonov ijodida kompozitsiyani maqsad va vazifalari, tasviriy san’atni o’qitishning pedagogik mahorati kabi masalalar o’z aksini topgan

РЕЗЮМЕ

Статья направлена на повышение знаний по предмету Композиция студентов и преподавателей по специальности «Изобразительное искусство и инженерная графика». В данной статье освещаются такие актуальные виды изобразительного искусства, как рисунок и живопись. Даются ценные научно-методические рекомендации организации уроков по изобразительному искусству и приобретение навыков по выполнению композиций.

SUMMARY

The article is aimed at improving knowledge on the subject Composition of students and teachers in the specialty «Visual Arts and Engineering Graphics». This article highlights such relevant forms of visual art as drawing and painting. Valuable scientific and methodological recommendations for organizing lessons in the visual arts and the acquisition of skills in performing compositions are given.



ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲАМ СПОРТ

CHALQANCHA KROL SUZISHDA ESHISH HARAKATLARINING TUZILISHINI KORREKTSIYALASH UCHUN KONTRASTLI MASHQLARDAN FOYDALANISH

Zoitova G. M.

*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti*

Tayanch so'zlar: kontrast mashqlari, o'rgatish, korreksiya, suzish, boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi, bolalar.

Ключевые слова: контрастные упражнения, обучение, коррекция, плавание, начальный этап подготовки, дети.

Key words: contrast exercises, training, correction, swimming, initial stage of training, children.

Kirish. Yosh suzuvchilarga chalqancha suzishning sport usulini samarali, barqaror, o'zgaruvchan va tejamkor texnikasini o'rgatish muammosini hal qilishda dolzarb muammolaridan biri bu suzish texnikasida bajariladigan harakatlarga tegishli xatolarni o'z vaqtida bartaraf etish uchun yangi uslubiy yondashuvlar va mashqlarni izlash va ishlab chiqishdir [1, 5].

Biz maxsus adabiy manbalarda u yoki bu sport usulida suzishda eshish harakatlarini kontrast usulida bajarishdan foydalanishni topa olmaganimiz uchun, ishonch bilan aytish mumkinki, bu yo'nalish ilmiy yangilik va katta amaliy ahamiyatga ega [2, 3, 4].

Tadqiqotning maqsadi chalqancha krol suzishda eshish harakatlari texnikasini tuzatishda harakatlarni kontrastli bajarishdan foydalanish samaradorligini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning metodologiyasi va tashkil etilishi. Hozirgi vaqtda chalqancha suzish texnikasi muntazam takomillashtirilmoqda. Qo'llar bilan eshish harakatlarida qayrilishlar kichraymoqda, oyoqlar esa to'xtamasdan harakat qiladi, deyarli doimiy oldinga surilishni hosil qiladi.

Ushbu tadqiqotning uslubiy asosi chalqancha krol suzish texnikasini o'rgatishda kontrast usulidan foydalanish ta'sirini o'rganish uchun kompleks yondashuv va eksperimental tadqiqot davomida olingan ma'lumotlarni tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.

Dastlabki o'rgatish jarayonida harakatlarni ba'zi kamchiliklar va xatolar bilan bajarilishi muqarrardir. Mashg'ulotning dastlabki bosqichida boshlang'ich suzuvchilar namunaviy xususiyatlar bilan tanishishlari kerak, lekin faqat bajarilgan harakatlar haqida umumiy tasavvur hosil qilish uchun. Texnikani o'rgatish va takomillashtirishning butun davri ijodiy bo'lishi lozim va uning o'zgaruvchanligini tarbiyalashga hissa qo'shishi kerak.

Bizning tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, kontrast nisbiy, o'lchovsiz qiymat bo'lishi mumkin, u minimal (mikro kontrast) yoki katta (makro kontrast) bo'lishi mumkin. Amalga oshiriladigan harakatlardagi kontrasti yo'nalish, amplituda, qo'l va oyoqlarning bo'g'inlari orasidagi egilish burchaklarining o'zgarishida, harakatlar tezligida va qo'llaniladigan kuch darajasida namoyon bo'lishi mumkin.

Natijada, yosh suzuvchi bu kontrast harakatlarni bajarib, o'zi uchun chalqancha krol suzish texnikasining eng maqbul tuzilishini topadi.


O'rgatish jarayonining samaradorligi va suzish texnikasini o'zlashtirish mezonlari sifatida biz quyidagi uchta ko'rsatkichni tanladik:

1) harakatlarni o'rganilishi boshlanishidan muvaffaqiyatli yakunlashgacha bo'lgan davrning davomiyligi (mashg'ulotlar soni yoki maqsadli mashqlar soni);

2) mashg'ulotlarda shug'ullanuvchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan xatolar (harakatlarning ratsional tuzilishidan og'ishlar) soni;

3) tashqi (tezlik) va ichki (charchoq) omillarga nisbatan o'rgatilgan harakatlar strukturasi barqarorligi.

Bu ishda chalqancha suzish texnikasida kuzatilgan 22 ta xato aniqlandi (1-rasmga qarang). Keltirilgan diagrammadan ko'rinib turibdiki, eng ko'p xatolar gavda va boshning holatida sodir bo'ladi - 13, bu barcha mumkin bo'lgan xatolarning 59% ni tashkil qiladi. Qo'llar, oyoqlar va nafas olish harakatlarini muvofiqlashtirish texnikasida kamroq xatolar (4) kuzatiladi - 18%. Nafas olish



1 Rasm. Chalqancha krol suzish texnikasidagi uchraydigan xatolar sonlarining diagrammasi (22)



bilan birgalikda qo'l harakati texnikasida xatolar kamroq - 3 ta, bu 14% ni tashkil qiladi. Va nihoyat, oyoq harakati texnikasida 2 ta xatolik kuzatiladi - 9%.

Shunday qilib, har qanday turdagi harakatlarning xatosidan qat'i nazar, ularni aniqlaydigan barcha omillar quyidagilar bilan chambarchas bog'liqligini aytishimiz mumkin:

- mushaklarning kuchlanishi va suv muhiti bilan dinamik o'zaro bo'g'liqligi;
- bajarilgan harakatlarning tezligi va tezlashishi;
- harakatlar maromi va geometriyasi.

Quyidagi 1-jadvalda tadqiqot boshlanishidan oldin tajriba va nazorat guruhlariga tanlab olingan boshlang'ich suzuvchilarning chalqancha suzish texnikasini egallash darajasi tavsifi berilgan.

1 Jadval.

Tajriba boshlanishidan oldin boshlang'ich suzuvchilarning chalqancha suzish texnikasida mumkin bo'lgan xatolarning umumiy sonidan (22) yo'l qo'yilgan xatolar ulushi.

Guruh	Hatolar %
Nazorat guruhi (n=10)	97%
Tajriba guruhi (n=10)	97,3%

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, tajriba oldidan ikkala guruhdagi bolalar ham chalqancha krol suzish texnikasini umuman bilmagan.

Quyidagi jadvalda chalqancha suzish usulini 16 ta mashg'ulot davomida o'zlashtirgan yosh suzuvchilar tomonidan mashg'ulotlarda bajarilgan harakatlar texnikasidagi xatolarni bartaraf qilish dinamikasi ko'rsatilgan (2-jadvalga qarang).

2 Jadval.

Tajriba (n = 10) va nazorat (n = 10) guruhlarida chalqancha krol suzish texnikasida (1 dan 16 mashg'ulotgacha) xatolarni bartaraf qilish dinamikasi (X)

Guruh	Mashg'ulotlar	Gavda holati	Oyoqlar haralati	Qo'llar harakati va nafas	Harakatlarning moslashuvi	Σ	%
TG	1	3	3	13	2	21	95,4
	16	1	1	4	1	7	31,8
NG	1	3	3	13	2	21	95,4
	16	1	1	7	1	10	45,5



Dastlabki tayyorgarlikdagi sportchilarning malaka va ko'nikmalarini baholash - murabbiy faoliyatidagi qiyin bosqichlardan biridir. Murabbiy texnikani baholashda sportchilarning suzish vaqtidagi harakatlarini individual kamchiliklarini, ularning miqdori va umumiy suzish texnikasiga ta'sirini hisobga olgan holda tahlil qiladi.

Xatolarni nazoratga olish, yuqorida ta'kidlangandek, har bir o'quv-mashg'ulotda amalga oshirildi va ularning ta'sirlariga ko'ra tezkor qarorlar qabul qilindi. Xatolarni bartaraf qilish quyidagi qoidalarga amal qildik: - o'quv materialini muntazam takrorlash; - mashg'ulotlarda olib keluvchi va tayyorgarlik mashqlarni qo'llash; - mashqlarni bajarish dastlabki holatlarini va shartlarini o'zgartirish; - shug'ullanuvchi bolalar tomonidan xatolarning sabablarini tushunishlari; - keltirilgan xatolarni doimiy ravishda bartaraf etish.

Pedagogik tadqiqot shuni ko'rsatdiki, nazorat guruhidagi bolalarning 70 foizi bajarilgan harakatlar texnikasini qoniqarsiz darajada namoyish etgan, shunda alohida elementlarda ham, muvofiqlashtirishda ham sezilarli xatolar kuzatilgan; eshish harakatlaridan oldinga siljish yomon edi; mushaklarning ortiqcha kuchlanishi kuzatildi.

Xulosalar. Ikki guruh yangi suzuvchilarning pedagogik jarayoni samaradorligini taqqoslab, biz quyidagi xulosaga kelishimiz mumkinki, eksperimental guruh bolalari maxsus kontrast mashqlardan foydalanish metodikasi yordamida o'rganilganligi, ularning chalqancha krol suzish texnikasini o'zlashtirish sifati ko'rsatkichlarida ijobiy o'zgarishlarga erishishdi va umumqo'lanuvchi metodika bo'yicha o'qitilgan nazorat guruhi bolalaridan sezilarli darajada oldinda.

Chalqancha suzish texnikasidagi xatolarni tezda aniqlash va bartaraf etishning metodik usuli yosh suzuvchilarning sport mashg'ulotlarining keyingi bosqichlarida ham qo'llanilishi mumkin, chunki texnikani takomillashtirish jarayoni uzluksiz va doimiy bo'lishi kerak.

Литература:

1. Болдырева Вера Борисовна, Кейно Александр Юрьевич Совершенствование техники плавания юных спортсменов на этапе начальной подготовки // Вестник ТГУ. 2014. №12 (140);
2. Бондаренко К. К., Лисевич Е. П., Шилько С. В., Бондаренко А. Е. Изменение кинематики гребка при утомлении скелетных мышц // Российский журнал биомеханики. 2009. №2;
3. Булгакова Н.Ж., Попов О.И., Митрофанов А.А. Кинематическая характеристика способов спортивного плавания // ТиПФК. 2022. №5;
4. Лаврентьева Дарья Андреевна. Методика начального обучения плаванию детей младшего школьного возраста с учетом моторных асимметрий // Ученые записки университета Лесгафта. 2015. №6 (124);
5. Черноярова Ольга Алексеевна. Методика обучения плаванию кролем на спине детей среднего школьного возраста // Известия ТулГУ. Физическая культура. Спорт. 2022. №2.

**РЕЗИОМЕ**

Ushbu maqolada chalqancha krol suzishda texnik elementlarini korrektsiyalash uchun kontrastli mashqlardan foydalanishning tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqot Toshkent shahridagi bolalar va o'smirlar sport maktablarida boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanadigan 8-9 yoshli bolalar bilan o'tkazildi. Chalqancha krol suzish texnikasini shakllantirishda kontrastli mashqlarni qo'llash usuli samaradorligining ishonchli ko'rsatkichlariga asoslanib, kontrastli mashqlar komplekslarini joriy etish bolalar va o'smirlar sport maktablarida bolalarga suzish texnikasini o'rgatish va takomillashtirish samaradorligini oshiradi.

РЕЗИОМЕ

В данной статье приведены данные экспериментальной апробации применения контрастных упражнений при коррекции технических элементов плавания стилем кроль на спине. Исследование проводилось в детско-юношеских спортивных школах города Ташкента с детьми 8-9 лет занимающихся на начальном этапе обучения. Основываясь на достоверных показателях эффективности методики применения контрастных упражнений при формировании техники плавания кролем на спине, внедрение комплексов контрастных упражнений повысит эффективность обучения и совершенствования техники плавания на всех этапах подготовки в детско-юношеских спортивных школах.

SUMMARY

This article presents the data of experimental approbation of the use of contrast exercises in the correction of the technical elements of backstroke swimming. The study was conducted in children's and youth sports schools in the city of Tashkent with children 8-9 years old involved in the initial stage of education. Based on reliable indicators of the effectiveness of the method of using contrast exercises in the formation of backstroke swimming technique, the introduction of complexes of contrast exercises will increase the effectiveness of teaching and improving the swimming technique at all stages of training in children's and youth sports schools.



BOLALAR TSEREBRAL FALAJI ASORATLARIGA EGA O'SMIR TENNISCHILAR VA SOG'LOM TENNISCHILARGA PSIXIK-JISMONIY XOLATINING QIYOSIY TAHLILI

Berdiyev Sh. O.

Toshkeht farmatsevtika instituti

Tayanch so'zlar: moslashish, raqobat, samaradorlik, ko'rsatkichlar, taktik va nazariy tayyorgarlik.

Ключевые слова: адаптивность, конкуренция, эффективность, работоспособность, тактико-теоретическая подготовка.

Key words: adaptability, competition, efficiency, efficiency, tactical and theoretical training.

Bolalar tserebral falaji (BSF) falajlar yoki parezlar tipiga o'xshash harakatlarning buzilishlari bilan namoyon bo'ladi, bu Tayanch-harakat apparati (THA), asab-mushak tizimi, ichki organlar va ular tizimlarining ish faoliyati buzilishiga olib keladi. Bunda kasallangan bolaning psixik holatiga ham zarar etadi[3,4,6].

Harakat faolligi inson salomatligining jismoniy, psixik va ijtimoiy jihatlari bilan bog'liq hamda xayoti davomida muhim ahamiyatga ega. Yoshlik chog'ida u organizmning bir me'yorda o'sishi va rivojlanishini aniqlab beradi, kasalliklarga qarshilikni oshira turib, ginetik imkoniyatlarning to'liq reaksiyasini belgilab beradi, fiziologik zaxirani oshiradi. Tirik organizm ichki muhitining doimiyligi faol mushak faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq[9,11,12].

Harakat va organizm funksional imkoniyatlarining o'zaro bog'liqligi mexanizmlarini tushunish uchun organizm vegetativ funksiyalari shakllanishida mushak massisining ahamiyatini, motorika va vegetatikaning o'zaro ta'siri mexanizmlarini ochib beruvchi tadqiqotlar katta ahamiyatga ega. Tadqiqotlar davomida yurak-qon tomir tizimi faoliyati hamda skelet mushaklari funksiyalari xususiyatlari orasida yaqindan o'zaro bog'liklik borligi aniqlangan. Mushaklarning rivojlanishi organizmning energetik zaxirasini va uning ishchi imkoniyatlarini asta-sekin oshiruvchi jiddiy omil ekanligi ko'rsatib o'tilgan[1,2,14].

"Skelet mushaklarining energetik qoidasiga" binoan energetik jamg'arma va turli xil organlar hamda tizimlarning funksional holati har bir yosh davrida skelet muskulaturasining ishlash xususiyatlariga uzviy bog'liq. Bunda ruxsat etilgan optimum chegarasida harakat faolligi qancha shiddatliroq bo'lsa, organizmning



energetik zaxirasi, funksional imkoniyatlari va hayotiy davomiyligini oshiruvchi asosiy omillar shuncha yorqinroq ifodalangan bo‘ladi[5,13,15].

BSF asoratlari bo‘lgan kishilarning harakat faolligi hajmi individual bo‘ladi va klinik shakllar tasnifining turli omillari, yoshi, jinsi, konstitutsiyasi, turmush tarzi va turmush shart-sharoitlari, jismoniy tayyorgarlik darajasiga bog‘liq. Har bir individuum uchun bir me‘yorda rivojlanish va organizmning ishlashi uchun zarur bo‘lgan harakat faolligi darajasiining aniq bir chegarasi bo‘lishi mumkin.

Harakatlanish buzilishi patologiyasi harakat amallariga o‘rgatish jarayonida unga tuzatishlar kiritish va qoplashni taqozo etadi. Buning uchun harakat amallarini yanada samaraliroq bajarishga qaratilgan metodika zarur, bu stol tennisi bilan shug‘ullanuvchi serebral falajligi asoratlariga ega 17-19 yoshdagi o‘smirlarning harakat faolligi maxsus tadqiq qilish zaruratini belgilab beradi.

Biz stol tennisi bilan shug‘ullanuvchi BSF asoratlari bor o‘smirlar hamda ularning sog‘lom tengdoshlarining jismoniy tayyorgarligi va morfofunktsional rivojlanish darajasini aniqladik[7,8,10].

Ko‘krak, elka va bilaklarning aylana o‘lchamlari hamda bo‘y-vazn ko‘rsatkichlari o‘lchashda ushbu toifadagi imkoniyati cheklangan tennischilarda olingan antropometriya natijalari dastlabki tekshiruvda yuqori kamar segmentlarining barchasida mushak massasining kamayishidan dalolat beradi. Muhim tendensiyaga qaramay, hamma ko‘rsatkichlar ham statistik ishonchli farqlarga ega emas. Sog‘lom tengdoshlariga nisbatan eng kam farq bo‘y-vazn ko‘rsatkichlari bo‘yicha, eng katta farq esa qo‘l panja dinamometriyasi ko‘rsatkichi bo‘yicha kuzatildi (1-jadval).

1-jadval

Salomatlik darajasi har xil bo‘lgan 17-19 yoshli o‘smir tennischilarning antropometrik o‘lchovlari ko‘rsatkichlari

T/r	Ko‘rsatkichlar	Sog‘lomlar M±m	Nogironlar M±m	Farq		R
				Birl.	%	
1	Tana uzunligi (sm)	175,2±3,2	172,5±3,5	-2,7	1,5	R>0,05
2	Tana vazni (kg)	67,4±2,5	65,8±1,9	-1,6	2,4	R>0,05
3	Bilak aylanasi (sm)	24,5±0,5	22,7±0,2	-1,8	7,3	R<0,05
4	Elka aylanasi (sm)	25,3±0,3	24,4±0,2	-0,9	3,6	R<0,05
5	Ko‘krak qafasi aylanasi (sm)	85,6±1,1	77,8±3,3	-7,8	9,1	R<0,05
6	Ko‘krak qafasi aylanasi (nafas olganda)	88,2±2,5	79,3±2,1	-8,9	10,1	R<0,05
7	Ko‘krak qafasi aylanasi (nafas chiqarganda)	85,3±2,1	77,3±1,4	-8	9,3	R<0,05
8	Qo‘l panja kuchi (dinamometriya) (o‘ng)	35,3±1,2	24,3±1,7	-11	31,1	R<0,05
9	Qo‘l panja kuchi (dinamometriya) (chap)	29,3±1,2	20,1±1,3	-9,2	31,3	R<0,05

Eng katta farq qo‘l panja kuchi ko‘rsatkichlari bo‘yicha kuzatildi, unga ko‘ra, BSF asoratlari bor bo‘lgan stol tennischilari o‘zlarining sog‘lom tengdoshlaridan o‘ng qo‘l kuchi bo‘yicha 31,1% ga, chap qo‘l kuchi bo‘yicha 31,3 ga orqada qolmoqdalar. Ko‘rak qafasi aylanasi ko‘rsatkichlari taqqoslanganda ishonchli farqlarni aniqladik – nafas olganda u sog‘lom o‘smirlarda 10,1% ga, nafas chiqarganda 9,3% ga, tinch holatda esa 9,1% ga ko‘proq. Bilak aylanasi sog‘lom stol tennischilarida 7,3% ga, elka aylanasi esa 3,6% ga ko‘proq. Bo‘y-vazn ko‘rsatkichlaridagi farq ishonchli bo‘lmadi.

Nogiron sportchilar va sog‘lom tennischilarda asosiy funksional rivojlanish ko‘rsatkichlarini taqqoslash sog‘lom sportchilarning barcha o‘lchanayotgan funksional ko‘rsatkichlari bo‘yicha ustunligini aniqlab berdi (2-jadval).

2-jadval

Salomatlik darajasi har xil bo‘lgan 17-19 yoshli o‘smir tennischilar funksional ko‘rsatkichlarining farqi

T/r	Nafas olish tizimi faoliyati ko‘rsatkichlari	Sog‘lomlar M±m	Nogironlar M±m	Farq		R
				Birl.	%	
1	O‘pkaning tiriklik sig‘imi (l)	3,97±0,02	3,03±0,03	-0,9	22,7	R<0,05
2	Nafas sur‘ati (1 daqiqada)	15,8±1,8	19,8±1,3	4	25,3	R<0,05
3	Maksimal o‘pka ventilyasiyasi (l)	175,4±3,1	138,2±2,9	-37,2	21,2	R<0,05
4	Shtange sinovi (s)	60,3±1,3	53,1±1,5	-7,2	11,9	R<0,05
5	Ginchi sinovi (s)	23,2±0,1	15,7±0,2	-7,5	32,3	R<0,05
6	YUQS (zarba/min) tinch holatda	61,7±2,5	63,1±2,3	1,4	2,3	R>0,05
7	YUQS 3 min yuklamadan so‘ng	117,1±3,5	129,8±2,6	12,7	10,8	R<0,05

BSF asoratlari bor bo‘lgan nogironlarning nafas olish tizimi faoliyati ko‘rsatkichlari tekshirilganda sog‘lom tengdoshlariga nisbatan o‘zgarishlar kuzatildi. Bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha maksimal farq nafas chiqarganda nafasni ushlab turish natijasida namoyon bo‘ladi (Genchi sinovi), bu farq sog‘lom tennischilarda 32,3%ga yaxshiroq, imkoniyati cheklangan o‘smirlarda nafas olish sur‘ati 25,3% ga oshgan.

Imkoniyati cheklangan tennischilarda o‘pkaning tiriklik sig‘imi (O‘TS) o‘rtacha 3,03±0,03 (l) ni tashkil qiladi, bu ularning sog‘lom tengdoshlariga nisbatan 22,7% ga kamroq. O‘shish va rivojlanib borish bilan O‘TS ortib boradi. O‘TS va nafas olishning zaxira hajmi oshishi o‘pkaning ko‘p ventilyasiyasini hamda kislorodga bo‘lgan talabning qondirilishini belgilab beradi. Rivojlanib borgan sari nafas olish tartibi, nafas olish sikli davomiyligi, nafas olish va nafas



chiqarish orasidagi nisbat vaqti, nafas olish chuqurligi hamda sur'ati orasidagi nisbat vaqti o'zgaradi.

Maksimal o'pka ventilyasiyasi sog'lom tennischilarga nisbatan 21,2% ga kamaygan, bunda nafas olganda nafasni ushlab turish (SHtange sinovi) 11,9% ga pastroq.

Biz yurak-qon tomir tizimi funksiyasini tadqiq qilishga ham alohida e'tibor qaratdik, chunki u organizmning tashqi va ichki muhitidagi o'zgarishlarga juda tez reaksiya qiladi.

YUrak-qon tomir tizimi funksiyasini baholash uchun biz yurak qisqarishi sur'ati ko'rsatkichlaridan foydalandik.

BSF asoratlari bor bo'lgan o'smirlarda tinch holatda YUQS o'lgandako'rsatkichlari ularning sog'lom tengdoshlari bilan taqqoslaganda ishonchli farqlar kuzatilmadi, biroq kichik jismoniy yuklamadan so'ng (3 minut davomida) farqlar kattalashib, 10% dan ortdi.

Tananing butun muskulaturasining katta qismini tashkil qiluvchi har xil mushaklar guruhlarining bir xildagi ishi natijasida kichik mushaklar guruhlari ishlaganda yurak qisqarishi tezroq sodir bo'lishi aniqlandi. BSF asoratlari bor bo'lgan nogironlar turmushda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishda, harakatlanishda harakatlarning katta qismini qo'llar mushaklari hisobiga bajaradilar, bu yurak qisqarish sur'atining yuqori bo'lishi omillaridan biri sifatida qatnashadi.

Imkoniyati cheklangan tennischilarda harakat qobiliyatlarining buzilish darajasini nazorat qilish bo'g'imlardagi harakatlar hajmini o'lchash metodikasi (SFTR) yordamida amalga oshirildi. Sagittal, frontal, transversal tekisliklarda harakatlar hajmini o'zgartirish hamda rotatsiya qilish SFTR metodikasi dastlabki ma'lumotlarni olish va hayotiy muhim harakatlarning zarur hajmiga ega bo'lish imkonini berdi (3-jadval).

3-jadval

BSF asoratlari bor o'smir-nogironlarning bo'g'imlaridagi harakatlar hajmi ko'rsatkichlari (gradusda)

T/r	Harakatlar turi	Tekislik	Nogironlar	Me'yor	Farq
1	Elka kamari: elevatsiya va depressiya	F:	10-0-10	20-0-10	10-0-0
2	Elka kamari: ekstenziya va fleksiya	T:	15-0-17	20-0-20	5-0-3
3	Elka bo'g'imi: ekstenziya va fleksiya	S:	30-0-170	50-0-180	20-0-10
4	Elka bo'g'imi: abduksiya va adduksiya	F:	160-0-0	180-0-0	20-0-0
5	Gorizontal elka bo'g'imi: ekstenziya va fleksiya	T:	20-0-125	30-0-135	10-0-10
6	Elka bo'g'imi 90° ga yozilganda tashqi va ichki rotatsiya	R (F90)	65-0-70	90-0-90	25-0-20

7	Elka bo'g'imi: elka tanaga yaqinlashtirilganda ichki va tashqi rotatsiya	R (F90)	40-0-60	65-0-70	25-0-10
8	Tirsak bo'g'imi: ekstenziya va fleksiya	S:	0-0-130	0-0-150	0-0-20
9	Bilak-tirsak bo'g'imlari: supinatsiya va pronatsiya	R:	75-0-80	90-0-90	15-0-10
10	Bilak-kaft bo'g'imi: ekstenziya va fleksiya	S:	55-0-65	70-0-80	15-0-15
11	Bilak-kaft bo'g'imi: radial abduksiya	F:	15-0-40	25-0-55	10-0-15

BSF asoratlari bor bo'lgan o'smirlarda bo'g'imlardagi harakatlar hajmini o'lchashda olingan natijalar ularning harakatchanligi etarli darajada emasligidan dalolat beradi.

Bunday holat kam jihatdan harakat qobiliyatini namoyon qilish imkoniyatiga, balki ko'proq yosh nogironlarning ijtimoiy-psixologik pozitsiyasiga bog'liq. Bunday pozitsiya ota-onalarning haddan ortiq g'amxo'rlik ko'rsatishlari oqibatida paydo bo'ladi. Albatta, bunday pozitsiya imkoniyati cheklangan hamma nogiron shaxslarga xos xususiyat emas. Nogironlik bilan bog'liq bo'lgan bir qator holatlarda xavotirlar, aksincha, nogironlarda qiyinchiliklarni engib o'tish, irodaviy sifatlarni namoyon etish, o'ziga bo'lgan talabchanlikni ifoda etish, o'zini intizomga chaqirish, mushak kuchini, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarini mustahkamlash uchun mashqlanishga intilish, harakat imkoniyatlarini oshirish istagini keltirib chiqarish.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son Farmoni.
2. Байгулов Ю. П. Настольный теннис: Вчера, сегодня, завтра / Ю. П. Байгулов - М., 2000.
3. Барчукова Г. В. Настольный теннис в вузе: учеб. пособие для студентов не физкультурных вузов / Г.В.Барчукова, А.Н.Мизин. — М., 2002.
4. Барчукова Г.В., Богушас В.М.М., Матыцин О.В. Теория и методика настольного тенниса: под ред. Г. В. Барчуковой. — М. : Издателский центр «Академия», 2006. — 528 с.
5. Berdiyev Sh.O – “Stol tennisii”. O‘quv qo‘llanma, T., – 2021 y.
6. Матыцин О.В. Классификация технических действий для анализа игровой деятельности в настольном теннисе / О.В.Матыцин, О.Н.Шестеркин, М.П.Шестаков — М., 1998.
7. Матыцин О. В. Многолетняя подготовка спортсменов в настольном теннисе / О. В. Матыцин. — М., 2001.
8. Настольный теннис: Примерная программа спортивной подготовки для детско-юношеских спортивных школ, специализированных детско- юношеских школ олимпийского резерва (этапы спортивного совершенствования), школ высшего спортивного мастерства / под. ред. Г.В. Барчуковой, В.А. Воробьева, О.В. Матыцина, 2004 - М.: Советский спорт, 2004. - 144 с. ISBN 5-85009-929-8.



9. Бердиев, Ш. (2022). Имконияти чекланган стол теннисчиларнинг турли малака гуруҳларининг рақобатдош фаолиятини ўрганиш. Общество и инновации, 3(2/S), 328-334.

РЕЗЮМЕ

Мақоллада имконияти чекланган стол теннисчиларнинг машгʻулот jarayoniga moslashishi, taktik va nazariy tayyorgarligi, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi, texnik tayyorgarligi hamda yosh tennislarning jismoniy sifatlarni rivojlantirish hamda musobaqalarda yuqori saviyada natijalarga erishish tavsiyalari keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье даны рекомендации по адаптации игроков в настольный теннис с ограниченными возможностями здоровья к тренировочному процессу, тактико-теоретической подготовке, общей и специальной физической подготовке, технической подготовке и развитию физических качеств юных теннисистов и достижению высоких результатов в соревнованиях.

SUMMARY

The article gives recommendations on the adaptation of table tennis players with disabilities to the training process, tactical and theoretical training, general and special physical training, technical training and development of physical qualities of young tennis players and achieving high results in competitions.



ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КОМБИНАЦИИ ГИМНАСТИКИ В ВОДНЫХ ВИДАХ СПОРТА

Касимова В. С.

Ташкентский фармацевтический институт

Таянч сўзлар: жанг санъати, методика, машғулот, таҳлил, юклама.

Ключевые слова: спортивные единоборства, методика, тренировка, анализ, нагрузка.

Key words: martial arts, methodology, training, analysis, load.

Чтобы воспитать физическое совершенство студенческой молодежи, повысить мастерство спортсменов во всех видах спорта, каждый вид спорта гармонично сочетается между собой. Но практическая деятельность в них, виды упражнений, особенно технико-тактические практические приёмы их выполнения принципиально отличаются друг от друга. Тем не менее, из смежных (похожих) видов спорта их содержание, форма и технико-тактические приёмы выполнения дополняют друг друга и гармонизируют [2,9,10,11,14].

На этом пути вольные упражнения в составе спортивной гимнастики, художественной гимнастики, акробатики, прыжки в трюмпине (батуте), синхронизированные с водными видами спорта, кажутся взаимно гармоничными даже при повторяющихся ситуациях. Именно по этой причине можно знать, что эти аналогии, гармонии и повторяющиеся действия также воспитывают в том же направлении физические качества практикующих всех типов. Перечисленные виды спорта хотя их взаимная зависимость и совместимость известны, они также отличаются друг от друга местами тренировок, базовым снаряжением, используемым снаряжением, не только не похожи, их показатели на соревнованиях также не близки друг к другу [1,10,16,17].

Научно-педагогическое исследование, анализ различий между этими сходствами, совместимость и практическая деятельность могут стать руководством для девочек в выборе и занятии спортом по их интересам.

На пути к этой цели мы ставим перед собой задачи изучать талантливых девушек в спорте, выбирать правильные виды спорта в зависимости



от адреса их проживания, при необходимости гармонично переключаться на спорт, показывать способы достижения физического совершенства, не терять элегантности, обаяния, красоты и амбициозных качеств.

В исследовании мы не отступали от традиционных методов ведения научной работы. То есть целенаправленно использовались наблюдение, беседа, вопросы и ответы, нормативно-правовые документы по теме, педагогико-психологическая, физиологическая литература.

1. Спортивная гимнастика многоборье (муж-6, жен-4) имеет статус отдельного вида спорта. В каждом из них есть специальные программные (обязательные и факультативно-бесплатные) упражнения для молодежи, подростков и взрослых, а также установленные нормативные уровни-игры: юноши отмечены в разряде, III-II-I обозначены как кандидат в мастера спорта, мастер спорта, заслуженный мастер спорта и мастер спорта международного класса. Основные моменты, инструмент (турник, кольца, брус, конь, прыжки, вольные упражнения-муж, бревно, брус, прыжки, вольные упражнения-жен).

Форма, технико-тактические действия выполняемых упражнений похожи на некоторые сложные действия в других видах спорта, даже повторяющиеся. Особенно прыжки с коня и других инвентарей, прыжковые вращения (сальто, вращения и т.д.) бревно для женщин, брус и других инструментах и т.д.) акробатика, прыжки на трampoline, в водных видах спорта сходство, гармония и точные повторения происходят в циклах, которые прыгают с башни (вышка).

Именно слаженность и гармоничность упражнений акробатики, трampoline, прыжков в воду, плавания, водного поло, особенно подводной гимнастики (синхронное плавание), вольных упражнений в гимнастике (мужчин и женщин), которые выполняются непосредственно при подготовке и соревнованиях в соответствии друг с другом привлекает наибольшее внимание. Потому что в местах, где они оригинальны и подходят (ковер, пруд, «чорпоя» из сетки), используются специальные предметы (мяч, веревка, лента, халк (обруч), булава и т.д.). Во всех их ловкость, сноровка, гибкость, выносливость среди физических качеств воплощены такие качества, как красота, изящество, эффектность частей тела, обаяние, элегантность у женщин, привлекающие внимание зрителей, тренеров, любителей спорта и специалистов [4,5,6,7,8].

Хотя художественная гимнастика включает в себя шаги в виде вольных упражнений, это самостоятельный вид спорта (танцы). Вообще говоря, спортивная гимнастика - это важнейший внутренний мир молодых людей, которые талантливы и обладают спортивными навыками (созерцание, сознательный подход, сохранение памяти, рассмотрение направлений каждого действия-поступка, любовь, радость и т.д. и внешний мир (структура

позы, тщательное и аккуратное выполнение сложных элементов, четкость и т. д.) который заинтриговывает с своим зрелищным выступлением. Это неразрывно связано с вопросами и методами Умарова З.О., Умаров А.А. (5) и Умаров М.Н., Иштаев Д.Р. [6,12,13,15,18] исследования, проведенные другими, служат для включения доказательной информации о предмете.

2. Выше были отмечены основные виды спорта, которые обладают взаимной гармонией. Нет возможности подробно останавливаться на их содержании, форме, способах исполнения и других особенностях отдельно один за другим. Потому что описание и высказывания о них не уместаются в текст одной статьи. По этой причине показалось уместным сделать частичные комментарии, комментарии о видах водного спорта, представляющих интерес для молодых людей, особенно девушек.

Таблица-1

Социально – педагогические характеристики видов водного спорта, которыми должны заниматься девушки-студентки.

н/п	Водные виды спорта	Порядок разучивания упражнений, которые соответствуют друг другу	Всегда нужно заниматься с разными видами спорта, которые являются целенаправленными
1.	Плыть на разные расстояния разными способами	Научиться использовать практики свободной гимнастики, художественной гимнастики в овладении процессами вытягивания воды, толчка, сгибания и разгибания ладоней и растяжения рук. К прыжкам на гимнастических инвентарях (вращение, поворот во вращении, сгибание, удержание туловища в вертикальном положении и т.д.)	Больше мастерства в методах вольных и встили брасс. Знать все шаги, которые нужно выполнять, лежа на спине.
2.	Прыжки разными способами с вышек на разной высоте (2,5-3,5 м) и вращение в воздухе, удерживание вращение головой и ногами.	Поверхность воды, художественная гимнастика в нижних слоях выполняют движения, подходящие для упражнений.	Подъём и отпускание стоя на ногах.
3.	Синхронное плавание.	Упражнения для игры с инвентарями (мячом, лентой) в вольной и художественной гимнастике.	Выполнение упражнений изображении на поверхности воды.
4.	Водное поло (типичный вид ручного мяча в воде)		Играть с мячом в различных плавательных действиях.



При частичном упоминании гимнастики, художественной гимнастики и водных видов спорта было замечено, что девушки имеют хорошее представление об этих видах спорта и адекватно представляют себе термины, формы практических двигательных упражнений и даже некоторые технические и тактические приемы.

Конкретные, приемлемые и полезные виды спорта для девочек (части-элементы) – гимнастика. Стоит отметить, что в период независимости привлечение талантливых девушек к занятиям спортом стало приоритетным вопросом. При этом поощряются врожденные способности девушек, занятия, которые их интересуют, моральное и материальное стимулирование квалифицированных спортсменов [1,2]. Поэтому среди них наблюдается увеличение боры, которые занимаются мужскими видами спорта, такими как борьба, бокс, тяжелая атлетика, футбол. Родители, активисты микрорайона, преподаватели естественных наук в учебных заведениях высказывают свои пожелания, особенно исходя из неподдельного интереса талантливых девочек к спорту, необходимо будет мобилизовать их на занятия мужским спортом. Известно, что не все девушки, интересующиеся тем или иным видом спорта, становятся зрелыми спортсменками. Потому что перед ними стоят такие необходимые виды деятельности, как приобретение различных профессий, приобретение глубоких знаний, пожизненный брак, построение семьи. Рассматривая проблему таким образом, девушкам, которые не усердно занимаются спортом, в первую очередь придется постоянно ходить здоровыми в повседневной жизни, вести здоровый образ жизни в будущем, мирно жить в семье, создавать молодые поколения для великого будущего, думать о том, как добиться того, чтобы они стали физически подходить, изучайте способы создания возможностей и условий. Желательно постоянно заниматься гимнастикой в дороге и самыми необходимыми упражнениями-играми в которых присутствует монотонный и гармонизированный свет [3,4], а именно:

- Привыкание повторять по утрам на досуге, упражнения обобщающей и оздоровительной гимнастики, которым мы научились в детском саду, в школе, в лицее, высшем учебном заведении и семье;
- Тщательное, активное внедрение программных видов на занятиях по физическому воспитанию проводимых в образовательных учреждениях, разрешение магистра и использование таких упражнений как гимнастика, акробатика, аэробика и тому подобное (промежуточные упражнения);



- Участие в соревнованиях в номинации «Ростки надежды», «Семья спортсменов», «женский спортивный праздник», «весёлые старты», подготовка игровых упражнений на игровых площадках во дворе жилых домах;
- Участие в водных объектах, учебных центрах с целью оздоровления, улучшения состояния здоровья и физического развития в рамках возможности.
- Практикуйте индивидуальные, парные и групповые, семейные (родитель, брат-сестра, брат-сестра) упражнения, которые развивают такие качества, как ловкость, проворство, бдительность, такие как настольный теннис, бадминтон, волейбол, баскетбол.

Подводя итог, можно сказать, что физическое воспитание считается наиболее доминирующими видами средств гимнастика, акробатика, художественная гимнастика, водные виды спорта, части спортивных игр (элементы), а также танцы, ходьба и путешествия станут основой для поддержания здоровья во все времена, достижения совершенства, работы, бодрой ходьбы, освеженный в семейной обстановке, проживший долгую жизнь.

Литература:

1. Абдумаликов Р. Всеобщая гимнастика, научная пособия, Т.: «Ибн Сина», 1992.
2. Бальсевич В.К. Физическая культура для всех и для каждого. - М.: Физкультура и спорт, 2009. - 215 с.
3. Бойко В.В. Целенаправленное развитие двигательных способностей человека. - М.: Физкультура и спорт, 2011. - 144 с.
4. Вайнбаум Я.С. и др. Гигиена физического воспитания и спорта. - М.: Академия, 2009. - 240 с.
5. Виноградов П.А. Физическая культура и здоровый образ жизни. - М.: Мысль, 2009. - 286 с.
6. Гимнастика/Под ред. А.М. Шлемина, А.Т. Брыкина. М., 2009, С. 98.
7. Гимнастика /Под ред. А.Т. Брыкина. - М., 2011, С. 177.
8. Гимнастика//Большая советская энциклопедия / Гл. ред. А.М. Прохоров. - Т. 6. - М.: Советская энциклопедия, 2010. - С. 527.
9. Железняк Ю.Д., Петров П.К. Основы научно-методической деятельности в физической культуре и спорте. - М.: Академия, 2009. - 264 с.
10. Мусавев Б.Б. Формирование профессиональных теоретических знаний и практических умений у студентов, специализирующихся по спортивной гимнастике //Вестник спортивной науки. 2011. № 2. С. 61-64.
11. Попов С.В. Валеология в школе и дома (О физическом благополучии школьников). - СПб.: СОЮЗ, 2009. - 256 с.
12. Рүйиддинова М. Гимнастика для всех, статья, газета «Народное слово», 2 декабря 2016 г., № 238.
13. Бердиев, Ш. (2022). Имкониати чекланган стол теннисчиларнинг турли малака гурухлари-нинг рақобатдош фаолиятини ўрганиш. Общество и инновации, 3(2/S), 328-334.
14. Berdiyev Sh.O – “Stol tennisii”. O’quv qo’llanma, T., – 2021 y.



15. Нарметова, Ю. К. (2017). Интегрированный подход как важный фактор решения проблемы подготовки клинических психологов. Вестник каракалпакского государственного университета имени Бердаха, 34(3), 57-58.

16. Нарметова, Ю. К. (2016, July). Особенности психокоррекционной работы с беременными женщинами. In Контактная информация организационного комитета конференции (p. 35).

17. Нарметова, Ю. (2016). Специфика работы психолога в клинике внутренних болезней. Вестник каракалпакского государственного университета имени Бердаха, 33(4), 53-57.

18. Нарметова, Ю. К., & Ахмадова, М. Ш. (2021). Психосоматик касаллик билан касалланган беморларнинг психологик хусусиятларининг ўзига хослиги. In interdisciplinary conference of young scholars in social sciences (pp. 339-342).

РЕЗЮМЕ

В теории и практике спортивной тренировки в различных видах спорта, по сей день, существует целый ряд противоречий, связанных с выбором и эффективным соотношением объема, интенсивности и продолжительности нагрузки в различные периоды подготовки, обеспечивающих эффективный рост спортивного мастерства в спортивных единоборствах на протяжении всей спортивной карьеры.

РЕЗЮМЕ

Турли хил спорт турлари бўйича спорт машғулотлари назарияси ва амалиётида бугунги кунгача турли хил машғулотларда юкнинг ҳажми, интенсивлиги ва давомийлигини танлаш ва самарали нисбати билан боғлиқ бир қатор қарама-қаршиликлар мавжуд бўлиб, спорт ҳаёти давомида жанг санъатларида спорт маҳоратининг самарали ўсишини таъминлайди.

SUMMARY

In the theory and practice of sports training in various sports, to this day, there are a number of contradictions related to the choice and effective ratio of the volume, intensity and duration of the load in various periods of training, providing effective growth of sportsmanship in martial arts throughout a sports career.



ЎЗБЕКИСТОН БОКСЧИ (АЁЛЛАР) ИНИНГ РЕСПУБЛИКА ВА ХАЛҚАРО МУСОБАҚАЛАРДАГИ ФАОЛИЯТИ ТАҲЛИЛИ

*Алимова Д. А.
УзДЖТСУ*

Таянч сўзлар: тренинг, боксчи (аёллар), йиллик цикл, боксчилар, тайёргарлик воситалари ва усуллари.

Ключевые слова: тренировка, женщины (боксеры), годичный цикл, этапы, средства и методы подготовки.

Key words: training, female boxers, annual cycle, stages, means and methods of preparation.

Кириш. Замонавий спорт нафақат машғулот юкламаларининг юқори интенсивлиги, балки мусобақа жангларида бажаралидиган ҳажмлар билан ҳам ажралиб туради. Замонавий боксчи қизлар халқаро турнирлар, Осиё, Жаҳон чемпионатлари ва Олимпия ўйинларида юксак спорт ютуқларини намоёиш этмоқда. Дунёнинг энг кучли боксчи қизларнинг жанглари динамиклиги ва фаоллиги, кўплаб кутилмаган ва қийин ҳужум вазиятлари, турли мукамаллаштирилган техникалар ва оқилона тактика танлаши билан ажралиб туради. Боксчи қизларнинг техник-тактик тайёргарлигини ўргатиш методикаси боксчи қизларнинг мусобақа фаолиятини таҳлил қилишни ҳисобга олган ҳолда машғулотларга янгича ёндашувни талаб этади.

Тадқиқотнинг мақсад ва вазифаси. Юқори малакали боксчи қизларнинг мусобақа ҳаракатларини таҳлил қилиш ва таснифлаш. Мусобақалар жараёнида юқори малакали боксчи қизларнинг мусобақа ҳаракат тавсифларининг таркиби ва тузилиши, уларнинг реакциялари шахсий-типик вариантларини аниқлаш.

Тадқиқотни ташкил этилиши ва усуллари.

Дунёнинг энг кучли боксчи қизлари ўртасидаги жанглар динамикаси ва фаоллиги, кутилмаган ва мураккаб ҳужум ҳолатларининг кўплиги, сайқалланган техниканинг турли-туманлиги ва танланган оқилона тактикаси билан ажралиб туради. Ўзбекистон боксчи қизлари мусобақа фаолияти таҳлиллари видео ёзувлар ва спорт фанида тавсия этилган усул бўйича



баённома ёзиш асосида бажарилди. (1;2396). Мазкур тадқиқотда турли вазн тоифасидаги 150 та аёл спортчи иштирок этди. Мусобақа ҳаракатлари таҳлили 325 та жанг устида олиб борилди. Тадқиқотнинг вазифаларидан бири республика ва халқаро мусобақаларда боксчи қизларнинг ҳаракат усуллари таркибини аниқлашдан иборат эди. 1-жадвалда боксчи қизларнинг мусобақа жангидаги ҳужум ҳаракатлари натижалари келтирилган. Ўзбекистонлик боксчи қизларининг мусобақа фаолияти таҳлили спорт фанида тавсия этилган усул билан мусобақа курашларини рўйхатга олиш ва протоколлаштириш асосида амалга оширилди [4;Б294-298]. Ушбу тадқиқотда турли вазн тоифасидаги 150 дан ортиқ спортчи аёллар иштирок этди. Мусобақа ҳаракатлари учун 325 дан ортиқ жанглар таҳлил қилинди. Тадқиқотимизнинг мақсадларидан бири республика ва халқаро мусобақаларда боксчи қизларининг ҳаракат услублари таркибини аниқлаш эди. Боксчи қизларнинг мусобақа фаолиятини баҳолаш учун аввалги тадқиқотларда ишлаб чиқилган нотацион ёзувлардан фойдаланилган [3;С301-303.].

Тадқиқот натижаси ва унинг таҳлили. Тадқиқ этилган кўрсаткичларни таҳлил қилаётганда 3 раунд давомида оддий зарбаларнинг жами ҳаракатлари 97 зарбани, яъни 65,5% ни кўрсатган.

Боксчилар мусобақа жангида мураккаб техник ҳаракатлар, 3-4 зарба сериялари, такрорий ҳужум ва сакрашларни қўллайдилар. Боксчилар томонидан мураккаб ҳаракатларнинг қўлланилиши таҳлили кўрсатдики, 1-раундда 3 зарбали сериялар 29,6%, 4-зарбали 9,3%, такрорий ҳужумлар 3,1%, зарбали сакрашлар 1,8% ни ташкил этган. Иккинчи раундда боксчи (аёллар) томонидан мураккаб ҳужумларни қўллаш натижалари мувофиқ равишда 14,6%; 6,3%; 4,2% ни ташкил этади.

3 раунд давомида олинган тадқиқот кўрсаткичлари мувофиқ равишда 16,7;5,5;2,8;0 ни ташкил этди. Олинган маълумотлар мусобақа жангларида боксчи қизлар ўз техник арсеналларида оддий техник усуллардан фойдаланишларини кўрсатади. Мазкур ҳолат уларнинг бажарилиши катта координацион қобилият ва жисмоний тайёргарлик талаб этмаслиги билан боғлиқ.

Спортчи аёлларнинг психофизиологик ҳолати ва ҳаракат функцияларини аниқлаш учун спортчи аёлларда қуйидаги кўрсаткичларни аниқлаган комплексдан фойдаланилган: электр-тери қаршилиги (ЭТҚ), оддий ҳаракат реакцияси вақти (ОХРВ), мураккаб ҳаракат реакцияси вақти (МХРВ), статик режимда қўл мушаклари тремори (ҚМТ). Ўтказилган тадқиқотлар натижаларини таҳлил қилиб хулоса қилиш мумкинки, боксчи (аёллар)

нинг шуғулланганлик кўрсаткичи кўп жиҳатдан уларнинг хусусий психодинамик хоссалари билан белгиланади, спортчи аёлларнинг фаолият самарадорлигини кўп жиҳатдан белгилаб берувчи харакат реакцияларининг тезлиги ва аниқлиги кўрсаткичларидаги каби аниқ ифодаланмайди.

1-жадвал

Мусобақаларда боксчи (аёллар)нинг ҳужум харакатларидан фойдаланиш кўрсаткичлари

раундлар	Ҳужум харакатлари																						
	Оддий ҳужум						Мураккаб ҳужум														Жами		
	Биггалли зарбалар			Иккигалли зарбалар			Учгалли зарбадан иборат ҳужум			Тўрт ва ундан ортиқ зарбадан иборат ҳужум			Такрорий бир неча зарбалар			Сакраш билан зарба бериш							
	\bar{X}	σ	V,%	\bar{X}	σ	V,%	\bar{X}	σ	V,%	\bar{X}	σ	V,%	\bar{X}	σ	V,%	\bar{X}	σ	V,%	\bar{X}	σ			
1-раунд	24,29	2,04	8,40	12,29	1,13	9,19	19,14	1,96	10,24	6	0,56	9,33	2,28	0,26	11,40	1,28	0,14	10,94	64	6,58	10,28		
2-раунд	18,14	1,93	10,64	16,14	1,71	10,59	7,14	0,68	9,52	3,28	0,34	10,37	2,28	0,21	9,21	2,57	0,29	11,28	46,98	5,13	10,92		
3-раунд	12,14	1,12	9,23	15	1,24	8,27	6,28	0,72	11,46	2,28	0,19	8,33	1,43	0,12	8,39	0	0	0,00	37,13	3,61	9,72		
Жами	54,57	4,98	9,13	43,43	3,94	9,07	32,56	3,36	10,32	11,56	1,06	9,17	5,99	0,59	9,85	3,85	0,43	11,17	148,11	15,12	10,21		

Хулоса. Боксчи (аёллар)нинг мусобақа фаолияти таҳлили шуни кўрсатдики, функционал, махсус тайёргарлик даражаси жаҳон модели талабларига жавоб бермайди. Боксчиларнинг жисмоний ривожланиш кўрсаткичлари меъерий талабларга жавоб бермайди. Техник-тактик услублар арсеналидан фойдаланишни боксчи эркаклар билан солиштирганда, аёллар мураккаб ҳужум комбинацияларини бажаришда, оддий ҳужумлардан мураккабларига ўтишда, шунингдек, яқин масофада жанг қилиш техникасини (кириш ва чиқиш) бажаришда ортда қолиши аниқ кўринади. Бокс классификациясининг таркибий қисмларидан бири ринг бўйлаб харакатланиш техникаси ҳисобланади. Бокснинг барча техникаси техник-тактик услубларнинг (кўллар, оёқлар ва гавда ёрдамида) параллел равишда бажарилишига асосланади. Мусобақа жангининг асосий кўрсаткичлари – зарбалар сони, аниқлик кучи ва жангга киришиш зичлигидир. Афсуски, бу кўрсаткичларда боксчи қизлар боксчи эркакларга нисбатан салбий тарафлама катта фарқларга эга.



Адабиётлар:

1. Остьянов В.Н., Гайдамак И.И. Бокс (обучение и тренировка). – К.: Олимп. Лит., 2001. – 239 с.
2. Р.Д.Халмухамедов, В.Анашов, Д.А.Алимова Итоги выступления сборной команды Узбекистана по боксу на XXXII олимпийских играх в Токио-2020 (Япония). 2021/6 Фан-спортга илмий назарий журнал 13.00.00 №16 С5-7
3. С.С. Шукурова., Д.А.Алимова., Влияния экологических факторов на работоспособность спортсменов. Молодой учёный. 2019 г. С301-303
4. С.С. Шукурова., Д.А.Алимова., Некоторые биохимические исследования крови у гребцов в подготовительном и соревновательном периодах. Актуальные проблемы физической культуры и спорта. 2019 г. С294-298

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада боксчи (аёллар)нинг спорт машғулотлари масалалари муҳокама қилинади. Тайёргарликнинг турли жиҳатлари (жисмоний, техник-тактик, функционал) бўйича тадқиқотларни таҳлил қилиш маълумотлари келтирилган. Боксчи (аёллар)нинг рақобатбардош фаолиятининг хусусиятлари ўрганилди. Боксчи (аёллар)нинг ўқув жараёнини оқилона қуриш учун назарий ва амалий асослашни талаб қиладиган долзарб муаммолар аниқланди

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассмотрены вопросы спортивной подготовки женщин (боксеров). Приведены данные анализа исследований различных сторон подготовленности (физической, технико-тактической, функциональной). Изучены особенности соревновательной деятельности женщин-боксеров. Определены актуальные проблемы, требующие теоретического и практического обоснования рационального построения учебно-тренировочного процесса женщин (боксеров)

SUMMARY

This article discusses the issues of sports training of women (boxers). The data of the analysis of studies of various aspects of preparedness (physical, technical, tactical, functional) are presented. The features of competitive activity of female boxers are studied. The actual problems requiring theoretical and practical substantiation of the rational construction of the training process of women (boxers) are identified



“VOLEYBOLCHILARNI PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI”

Boymurodov R.

O‘zbekiston Fillandiya pedagogika Instituti Jismoniy madaniyat fakulteti magistranti

Tayanch so‘zlar: voleybol o‘quv-mashg‘uloti, irodaviy tayyorgarlik, vestibulyar analizator, psixologik tayyorgarlik.

Ключевые слова: учебно-тренировочный процесс, волевая подготовка, вестибулярный анализатор, психологическая подготовка.

Key words: volleyball training, will preparing, vestibular mechanism, psychological preparing.

Sportda psixologik tayyorgarlik muxim ahamiyat kasb etadi. Psixologik tayyorgarlik – bu murakkab va uzoq muddatli jarayondir. Sportchilarni psixologik tayyorgarliklarini oshirish borasida Respublikamiz va xorij mamlakatlarining (Z.Gapparov, Y.Masharipov, David Lavalley, Jon Kremer) kabi olimlar tomonidan bir qancha tadqiqotlar o‘tkazilgan, biroq sport o‘yinlari tarkibiga kiruvchi voleybol sport turi bo‘yicha shug‘ullanuvchilarni psixologik tayyorgarligiga bag‘ishlangan ishlar etarli darajada amalga oshirilmagan. Xozirgi kunda zamonaviy voleybolchilarni tayyorlash, dolzarb masalalardan hisoblanadi. Voleybolchilarga xos irodaviy sifatlarni rivojlantirish jarayonining asosiy va zarur sharti – bu o‘quv mashg‘ulotlar davomida irodani kuchaytiruvchi mashqlarni qo‘llashdan iborat.

Zamonaviy voleybolchilarda quyidagi asosiy irodaviy sifatlarni shakllangan bo‘lishi zarur:

- maqsadga intilish va qat’iyatlik;
- bardosh berish va o‘zini boshqarish;
- barqarorlik va matonat;
- tashabbuskorlik va intizomni saqlash.

Barcha irodaviy sifatlarni bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Voleybolchilarda irodaviy sifatlarni bir xilda shakllangan bo‘lmaydi. Bu sifatlarni rivojlantirish jarayoni ko‘r-ko‘rona amalga oshirilishi kerak emas. Aksincha uni boshqarish lozim bo‘ladi. Shuning uchun o‘quv mashg‘ulot jarayonida tarbiyaviy ishlar



qanchalik yaxshi olib boriladigan bo'lsa, irodaviy xislatlari shunchalik jadal shakllanadi.

Voleybolchilar idrokini shakllantirishda maydondagi barcha o'yinchilarni ko'ra bilishi, ularning joylari, harakatlari, to'pning yo'nalishi, tezligi, balandligini his qilish, murakkab o'yin vaziyatlarida mo'ljalni to'g'ri belgilash kabilarni xisobga olish zarur.

Foydali idrok qilish o'z navbatida ko'rish retsentorining o'tkirligi, ko'rish hajmi, ko'rish kengligi va ko'rish chuqurligiga asoslanadi. SHuning uchun ko'rish orqali farqlash, tahlil qilish va his qilish tushunchalari mavjud. Voleybolda zarba berish, to'siq qo'yish, to'p uzatish, to'pni qabul qilish usullarini bajarish prefererik ko'rish – ya'ni ko'rish burchagining kengligiga bog'liqdir. Demak, taktik vaziyatni to'g'ri qo'llash aynan shu xislatlar bilan belgilanadi.

Ko'rish hajmi – kengligining chegaralangan bo'lishi hujumni tashkil qilishda qulay vaziyatni tanlay olmaslikka olib keladi, o'yinchi noto'g'ri qaror qabul qiladi – bu esa raqibga qulay imkoniyat yaratadi. [1,2]

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, voleybolchilar bilan muntazam o'ztkaziladigan mashg'ulotlar ta'sirida maydonni ko'rish chegarasi (burchagi) kengayar ekan. Bu esa voleybol o'yinining o'ziga xos xususiyatini e'tiborga olgan xolda o'z-o'zidan yuzaga keladigan tabiiy holatdir. Lekin ko'rish kengligi va ko'rish hajmini maqsadli orttirish uchun maxsus ixtisoslashtirilgan mashqlardan foydalanish o'ta samarali natija beradi.

U yoki bu texnik-taktik usulni o'z vaqtida va to'g'ri ijro etish uchun harakatlanayotgan o'yinchilar va uchayotgan to'p oralig'ini aniq farqlash qobiliyati muhim rol o'ynaydi; o'z sherigi turgan joygacha, to'rgacha, raqib turgan joygacha bo'lgan oraliqni aniq mo'ljalga olish – uni his qilish texnik usulni samarali taktik qaror bilan amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. [3,4]

Ko'plab o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aynan voleybol sporti bilan muntazam shug'ullanish natijasida oraliq masofani "ko'z" bilan o'lchash (glazomer) qobiliyatini jadal o'stirishi aniqlandi. Ko'z bilan oraliq masofani aniq o'lchash xuddi prefererik ko'rish qobiliyatiga o'xshab sportchini tayyorgarlik darajasiga bog'liq bo'lishi aniqlandi. Jumladan, voleybolchi yaxshi "sport formasida" (tayyorgarlikning yuksak cho'qqisi) bo'lganda ko'z bilan o'lchash aniqligi 40-45% dan ortiq bo'lar ekan. Agar mashg'ulotda 2-3 hafta ishtirok etmasa ko'z bilan o'lchash aniqligi 20-30% ga zaiflashadi. Shuning uchun ham ayrim murabbiylar mashg'ulotga bir necha bor kelmagan sportchilarda jismoniy va texnik tayyorgarlik saqlangan bo'lsada, ular o'yinda muvaffaqiyatsiz ijro etayotgan taktik harakatlar sababini to'g'ri aniqlay olmaydilar.

Mashg'ulotlar va o'yinlar doimo tabiiy yorug'lik (kunduzgi) va sun'iy yorug'lik (elektr yorug'lik) me'yorida bo'lgan zallarda o'tkazilishi zarur.

Yorug'lik etmagan yoki me'yordan tashqari yoritilgan zallarda shug'ullanish ko'z mushaklari va retseptorlarida zo'riqish alomatlarini yuzaga keltiradi, ko'rish hajmi, ko'rish kengligi – ko'z bilan o'lchash aniqligini keskin susaytiradi. [5]

Turli ranglar ham inson ruhiyatiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Rangning psixofiziologik funksiyasi – ko'rish, ko'rish orqali his qilish (idrok qilish), toliqishni kechiktirish, xatto yorug'likni ham yanada yaxshilash kabi qulay sharoitlarni yaratishi bilan bog'liqdir. Lekin barcha ranglar ham ko'rish funksiyasiga bir xilda ta'sir etavermaydi. Ranglar ichida oq, sariq va yashil rang boshqa ranglarga qaraganda ko'rish funksiyalariga ijobiy ta'sir etadi. Qora, qizil, binafsha, ko'k ranglar ta'sir etganda toliqish alomatleri tezroq yuzaga keladi. Rang o'zining turiga qarab issiq yoki sovuqni, uzunlikni o'zgarishi, xona kengligi yoki balandligi, buyumning og'irligini his qilish chegarasini o'zgartiradi. Ranglar insonning emotsional holatini o'zgartirib, uning nerv sistemasiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etadi. Murabbiylar ana shu qayd etilgan omillarni bilishi va ularni o'z faoliyati davomida e'tiborga olishi lozim.

Ko'z bilan oraliqni o'lchash aniqligini shakllantirishda asosiy talab – bu mashg'ulotlarda to'p uzatish, to'p o'yinga kiritish, hujum zarbalarini berish oraliqlarini o'zgartirib turishdan iborat. Buning uchun bu texnik usullarni turli tezlikda, yo'nalishda va balandlikda bajarilishi foydalidir. To'pni o'yinga kiritishni turli usullari, turli oraliq va yo'nalishlarda, zarba berishni murabbiy ko'rsatmasi bilan turli zonalar bo'ylab mashqlarni juftlikda, uchlikda va to'rtlikda bajarishi lozim. Ushbu jarayonda ko'rish funksiyalarini ishga solishga urg'u berish yanada foydaliroq natija beradi.

Voleybolchilar mashg'ulotlarda o'z harakatlarining elementlari, fazalari, koordinatsion tarkibi, texnik tuzilishlari va mazmunini nazorat qilishlari va ko'rish orqali his qilishlari lozim.

Voleybolga xos barcha texnik usullarni ijro etish – ongning nazorati ostida amalga oshiriladi.

Voleybolchilar harakatlariga xos eng muhim psixologik xususiyatlarga quyidagilarni misol keltirish mumkin. Masalan: o'yin jarayonida voleybolchi o'z xarakterlarini jamlaydi va boshqaradi. Mushaklar kuchlanishi va tezlanish darajasini nazoratda ushlaydi, to'p bilan oraliq masofani mo'ljalini oladi, baholaydi va qaror qabul qiladi. Bularni barchasi voleybolchilarni ko'rish harakat qobiliyatini koordinatsiyasini mashqlar yordamida shakllantirish bilan bog'liqdir. Bunda oraliq-vaqt, aniqlik – tezlanish va kuchlanish darajalarini farqlash mahorati muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumki, voleybolda ijro etiladigan asosiy texnik usul- to'p uzatish bilan kaft-barmoqlari mushaklarining muvofiq holda to'g'ri his qilish bilan bog'liqdir. Bu qobiliyat sportchining mashg'ulotlarda mukammal shug'ullanganligi bilan



belgilanadi. Jumladan, voleybolchi yuksak sport formasiga erishgan vaqtda mushaklar harakatining kuchlanish aniqligi 2,5 baravardan ortiq o'sadi. Mukammal shug'ullanmagan yoki yaxshi sport formasida bo'lmagan o'yinchilarda bunday natija bo'lmasligi aniqlangan. Mushaklar kuchlanishini aniq farqlash darajasi bog'lovchi o'yinchilarda xujumchilarga qaraganda 3 baravar ortiq bo'ladi. [6]

Voleybol har bir o'yinchidan maksimal tezlik bilan javob reaksiya ko'rsatishni talab qiladi. Voleybolchi faoliyati keskin vaziyatda va vaqt tanqisligida javob reaksiyasini namoyish etishga tayyor bo'lishini talab etadi.

Voleybolchilarning barcha harakati o'ta murakkab refleks, tanlash reaksiyasi va uni to'g'ri amalga oshirish bilan farqlanadi. Ushbu harakat nafaqat tezkor, balki uni o'z vaqtida aniq ijro etilishini talab qiladi. Buning uchun vaziyatni o'z vaqtida chamalash, payqash-farqlash va his qilish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy voleybolda murakkab harakat reaksiyasi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Maydonda joyni tanlash, shu joyga o'z vaqtida etib kelish, to'pni uchish tezligi, yo'nalishi va balandligini aniqlash, o'zining va raqibining harakati, kerak bo'lgan oraliq – vaqt kursatkichlarini xis qilish va foydali javob qaytarish – murakkab harakat reaksiyasining asosiy funksional elementlarini tashkil qiladi.

Oddiy va murakkab harakat reaksiyani rivojlantirish yani boshqacha qilib aytganda o'ta keskin o'zgaruvchan yo'nalishlar bo'ylab ijro etiladigan tezkor mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday mashqlar, albatta – o'zgaruvchan yo'nalishda ijro etiladigan harakatlanishlar, sakrab harakatlanish, sakrash, xatlash, burilish-aylanish, yiqilish kabi usullarni taqlid qilish bilan birga qo'llanilishi samarali natija beradi. Ana shunday mashqlarni muntazam qo'llab borish statik va dinamik muvozanatni saqlash funksiyasi, vestibulyar retseptorlarini jadal shakllantirib, har xil vaziyatlarda o'zini va raqibini harakatlari, hamda to'p yunalishini his qilish qobiliyatini o'stiradi.

Vestibulyar analizatorining funksional faoliyati boshqa analizatorlar faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Demak, yuqorida qayd etilgan tezlanish – to'xtash, burilish – aylanish va sakrashlar bilan birga qo'llaniladigan mashqlarni muntazam bajarib borish barcha analizatorlar faoliyatini birlashtiradi. Mashqlarni qo'llash jarayonida harakat reaksiyasi bilan psixik reaksiyasi (ko'rish, farqlash, tanlash, aniq mo'ljalga olish) kabi funksialarini birga amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bunday jarayon, ayniqsa vestibulyar analizatorini rivojlantirishga mo'ljallangan maxsus mashqlarni qo'llash natijasida hujum va himoyada o'ynash, shu jumladan ikkinchi to'pni uzatish samaradorligini oshiradi.

O'quv – mashg'ulot jarayonida vestibulyar turg'unlikni yoki muvozanat saqlash imkoniyatini oshirish uchun shu analizator funksiyasiga ixtisoslashtirilgan aylanma harakat mashqlaridan foydalanish darkor. Bunday mashqlarga batutda



sakrab aylanish, aylanma harakatlar, tezlanish va to‘xtash mashqlari, akrobatika mashqlari misol bo‘ladi. Mazkur mashqlar voleybolga xos texnik mashqlar bilan birga qo‘llansa natija yanada salmoqli bo‘ladi. Masalan, “o‘nbaloq oshish” yoki aylanma harakat mashqlarini bajarish vaqtida to‘p uzatish mashqlarini aniq bajarish, oldinga – orqaga, o‘ng – chap tomonlarga va diagonal bo‘ylab tezkor yugurish – keskin to‘xtashdan so‘ng to‘p uzatish, zarba berish, to‘p kiritish mashqlarini muntazam bajarish texnik usullar koordinatsiyasi va aniqligini mukammallashtiradi. Ushbu tartibda mashg‘ulotlarni tashkil qilish nafaqat barcha analizatorlarning funksional faoliyatini integrallashtiradi, balki to‘pni, maydonchani, vaqt – oraliqni his qilish xislatlarini “charxlaydi”.

Voleybolchilar diqqatini rivojlantirish ko‘p yillik o‘quv – mashg‘ulot jarayonida texnik – taktik usullar va o‘yin kombinatsiyalarini o‘rganish, o‘zlashtirish hamda takomillashtirish samaradorligi oshirishning ustivor jihatlaridan biridir. Sport maxoratini o‘zlashtirish poydevori bo‘lgan jismoniy va funksional tayyorgarlik ham diqqat ko‘rsatkichlariga asoslanadi. Voleybol mashg‘ulotlari va musobaqalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, texnik-taktik harakatlarning foydali ijro etilishi o‘yinchilarda diqqatning hajmi, uni jamlanish tezligi, turg‘unligi, tarqalishi, bir ob‘ektdan boshqa bir ob‘ektga ko‘chishi bilan belgilanishi aniqlangan. Voleybolchi o‘yin davomida bir vaqtni o‘zida ko‘plab ob‘ektlarni ko‘rish, his qilish, xotiraga kiritish va saqlash qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Buning uchun birinchi o‘rinda diqqat hajmi etarli bo‘lmog‘i lozim. Boz ustiga ob‘ektni ko‘rish va uni xis qilish davomida shu ob‘ektning mayda elementlari, uning tuzilishi, qaysi oraliqda, qanday tezlikda, yo‘nalishda va balandlikda harakatlanayotganligini har bir o‘yinchi o‘z tasavvurida aks ettirishini talab etadi.

Voleybolda shunday murakkab va favqulodda yuzaga keladigan vaziyatlar tez-tez uchraydiki, ularni qisqa vaqt ichida anglash va farqlash, to‘g‘ri qaror qabul qilish va uni amalga oshirishda, diqqatning barcha tarkibiy ko‘rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etadi. Zarur bo‘lmagan vaqtda (masalan – to‘p o‘yindan chiqqanda) diqqatni bo‘shashtirish, va aksincha keskin o‘yin vaziyatlarida uni zarur yo‘nalishda jamlash (yig‘ish), muhim bo‘lsa bir nechta nuqtalarga tarqatish, yana jamlash yoki boshqa nuqtaga ko‘chirish lozim bo‘ladi.

Zamonaviy voleybolda to‘pni maksimal tezlikda uchishi, o‘yinchilarni o‘zgaruvchan yo‘nalishlar bo‘ylab tezkor harakatlanishi va o‘yin vaziyatlarining keskin o‘zgarib turishi bilan farqlanadi. Bular hammasi nafaqat diqqatni jamlash tezligi va uning turg‘unligiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, voleybolchi to‘pni qabul qila turib, bir vaqtni o‘zida o‘z diqqatini to‘pgacha bo‘lgan oraliqni, to‘p uzatiladigan zona oralig‘ini, o‘z o‘yinchilarining qayerda harakatlanayotganligi yoki joylashganligiga qarab, to‘pni uzatish usulini tanlashni talab etadi.



Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, voleybolchilarning tayyorgarlik darajasiga qarab yoki ularni sport formasiga erishganligiga qarab qayd etilgan diqqat ko'rsatkichlari o'zgarib boradi. Jumladan, mashg'ulotlarda bir oy shug'ullanmagan o'yinchilarda diqqat hajmi 25-30% ga zaiflashishi aniqlandi.

Ko'rinib turibdiki, voleybolchilarga xos psixologik tayyorgarlik, jumladan taktik fikrlash (tafakkur, xotira, idrok, ong, diqqat, iroda va analizatorlar) faoliyatini integral tartibda maxsus voleybolchilarga ixtisoslashtirilgan mashqlar yordamida muntazam shakllantirib borish yuqori malakali voleybolchilarni tayyorlash jarayonining fundamental asosi sifatida xizmat qiladi.

O'ta keskin raqobat ostida kechadigan turli nufuzli musobaqalarda g'alabaga erishish, shu g'alabani ta'minlashga zamin bo'ladigan texnik-taktik harakatlar, jismoniy va psixofunksional imkoniyatlarni shakllantirish bilan bog'liqdir. Buning uchun har bir murabbiy o'z kasbiy-pedagogik faoliyatida o'rgatish-takomillashtirish uslublavri, vositalari va tamoillarini mukammal bilishi hamda ularni qo'llash texnologiyasini o'zlashtirgan bo'lishi shart.

Adabiyotlar:

1. Y.Masharipov. Sport psixologiyasi. O'quv qo'llanma. –Toshkent: 2010 y (23 bet)
2. E.G'oziev. Psixologiya. - Toshkent: O'qituvchi, 2008 y (13-14 bet)
3. X.B.Tulenova Jismoniy tarbiya va sport psixologiyasi. Ma'ruzalar matni. -T: 2001y (43 bet)
4. A.A.Pulotov, SH.X.Israilov Voleybol nazariyasi va uslubiyati //O'quv qo'llanma. - T., 2007.y (64-66 bet)
5. L.R.Ayrapetyans, A.A.Pulotov Voleybol nazariyasi va uslubiyati. –T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti 2012 y (216 bet)
6. David Lavallee, John Kremer, Aidan P. Moran and Mark Williams. Sport Psychology, -New York, -2004 (361 pg)

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqoloda yosh voleybolchilarni irodoviy tayyorgarligi, idrok qilish qobiliyati, diqqat va vestibulyar analizatorlarni rivojlantirish masalalari tahlil etilgan. Zamonaviy voleybolda psixologik tayyorgarlikning dolzarb masalalari va jihatlari yoritilgan. Psixologik tayyorgarlikni tashkil etish yuzasidan tegishli xulosalar ishlab chiqilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье проанализированы проблемы развития вестибулярного аппарата, волевой подготовки, тактического мышления и внимания. Освещены актуальные проблемы свойства психологической подготовки современного волейбола. Сделаны выводы по психологической подготовке спортсменов.

SUMMARY

In this article problems of will preparing, reason capacity, attention and vestibular mechanism of young volleyball players are analyzed. Actual problems of psychological preparing in modern volleyball are discussed. To organizing of psychological preparing recommendations are made.



SPORT TADBIRLARINI O‘TKAZISH ASOSIDA O‘QUVCHILARDA RAQIBIGA NISBATAN HURMAT HISSINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Norboev A.

Termiz davlat universiteti sport boshqaruvi kafedrası o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: sport, tadbirlar, o‘quvchilar, raqib, hurmat, o‘yin, qoidalar.

Ключевые слова: спорт, события, ученики, соперник, уважение, игра, правила.

Keywords: sports, events, students, opponent, respect, game, rules.

Nihoyat, qoidalarni qo‘llaydigan va adolatli raqobatni ta‘minlovchi mansabdor shaxslarga hurmat ko‘rsatilishi kerak. Ularning qarorlariga rozi bo‘lasizmi yoki yo‘qmi, hurmatli bo‘lib, his-tuyg‘ularingiz sizni engishiga yo‘l qo‘ymaslik muhimdir.

Yaxshi sportchi bo‘lish g‘alabada ham, mag‘lubiyatda ham mehr ko‘rsatishni anglatadi. G‘alaba qozonganingizda, raqiblaringizning harakatlari va mahoratini e‘tirof etib, ularga kamtarlik va hurmat ko‘rsatish muhimdir. Mag‘lubiyatga uchraganingizda esa boshqalarni ayblamasdan, bahona topmasdan, mag‘lubiyatni xushmuomalalik bilan qabul qilish muhimdir.

Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirish bugungi kunimizning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017-yil 3-iyundagi, PQ3031-sonli qarori jumladan, “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” hamda 2018-yil 5-martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5368-sonli Farmonida mamlakatda aholini ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shartsharoitlar yaratish, iqtidorli sportchilarni saralab olish maqsadli tayyorlash ishlarini tizimli tashkil etish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirish vazifasi yuklatildi.

Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam



shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda.

Yurtimiz vakillarining Olimpiya o'yinlari, jahon chempionatlari, Osiyo o'yinlari va chempionatlari hamda xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishayotgani, dunyoda O'zbekistonning obro'-etibori va sport salohiyati yanada oshayotgani, respublikamiz hududlarida jahon andozalariga mos muhtasham sport inshootlari barpo etilayotgani, o'quvchi va talaba-yoshlar o'rtasida uch bosqichdan iborat «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va Universiada sport o'yinlari ommalashib borayotgani, ayniqsa, etiborlidir.

Shu bilan birga, mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va manaviy sog'lomlikning asosi ekanini targ'ib-tashviq qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga o'z qobiliyat va istedodlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish va sport tadbirlarini o'tkazish asosida o'quvchilarda raqibiga nisbatan hurmat hissini shakllantirish borasida muhim va dolzarb vazifalar turibdi.

Sport mahorati har qanday musobaqaning ajralmas qismidir. Do'stona basketbol o'ynaysizmi yoki Olimpiadada qatnashasizmi, yaxshi sportchi bo'lish raqiblarni hurmat qilish, qoidalarga rioya qilish va adolatli o'ynashni anglatadi. Ammo yaxshi sportchi bo'lish nimani anglatadi va bu qadriyatlarni o'z musobaqalaringizga qanday aylantira olasiz?

Sport - bu hurmat. Sportning o'ziga, raqibingizga, uning mehnati va, albatta, o'zingizga hurmat. Agar g'alaba qozonsangiz ham, raqibingizning barcha mehnatini qadrlay biling. Axir ikkalangiz ham g'alaba qozonish uchun chiqasiz. Ikkalangiz ham mashg'ulotdan chiqib ketasiz, ikkalangiz ham butun umringiz davomida maqsad sari intilasiz. Buning uchun siz raqibingizni hurmat qilishingiz va minnatdorchilik bildirishingiz kerak.

Sport mahoratining eng muhim jihatlaridan biri bu hurmatdir. Bu sizning raqiblaringizga, qoidalarga va amaldorlarga hurmat ko'rsatishni anglatadi. Agar siz raqiblaringizni hurmat qilsangiz, ularning mahorati va harakatlarini



tan olasiz va ular sizning me'yorlaringiz bo'yicha o'ynashmasa ham, ularga hurmat va mehr bilan munosabatda bo'lasiz.

Raqiblarni hurmat qilishdan tashqari, o'yin qoidalarini ham hurmat qilish muhimdir. Bu qoidalarni bilish va ularga rioya qilish, ularni aldash yoki buzishdan saqlanishni anglatadi. Aldash o'yinning yaxlitligini buzadi va raqobat ruhini o'g'irlyaydi.

Nihoyat, qoidalarni qo'llaydigan va adolatli raqobatni ta'minlovchi mansabdor shaxslarga hurmat ko'rsatilishi kerak. Ularning qarorlariga rozi bo'lasizmi yoki yo'qmi, hurmatli bo'lib, his-tuyg'ularingiz sizni engishiga yo'l qo'ymaslik muhimdir.

Yaxshi sportchi bo'lish g'alabada ham, mag'lubiyatda ham mehr ko'rsatishni anglatadi. G'alaba qozonganingizda, raqiblaringizning harakatlari va mahoratini e'tirof etib, ularga kamtarlik va hurmat ko'rsatish muhimdir. Mag'lubiyatga uchraganingizda esa boshqalarni ayblamasdan, bahona topmasdan, mag'lubiyatni xushmuomalalik bilan qabul qilish muhimdir.

G'alaba va mag'lubiyatdagi inoyat raqobatga chuqur hurmat va sport mahoratini chinakam anglashdan dalolat beradi. Bu siz nafaqat g'alaba qozonishni xohlayotganingizni, balki raqobatni va raqiblaringizni hurmat qilishga va qadrlashga tayyor ekanligingizni ko'rsatadi.

Qanday qilib yaxshi sportchi bo'lish mumkin

- Xo'sh, qanday qilib musobaqalaringizda sport mahoratining qadriyatlarini o'zida mujassamlashtira olasiz? Ishni boshlashingizga yordam beradigan ba'zi maslahatlar:
- Qoidalarni bilib oling: musobaqaga kirishdan oldin o'yin qoidalarini tushunganingizga ishonch hosil qiling va har qanday qoidalar va ko'rsatmalar bilan tanishing.
- Hurmatli bo'ling: raqiblarga, qoidalarga va amaldorlarga hurmat ko'rsating va aldash yoki qoidalarni buzishdan saqlaning.
- Adolatli o'ynang: aldashdan yoki iflos o'ynashdan saqlaning va qattiq mehnat va tirishqoqlik orqali g'alaba qozonishga intiling.
- Rahm qiling: G'alabada kamtarlik va hurmat ko'rsating va mag'lubiyatni inoyat bilan qabul qiling.
- Perspektivni saqlang: esda tutingki, raqobat shunchaki o'yin va eng muhimi, rohatlaning va sodir bo'layotgan voqealardan zavqlaning.

Sport tadbirlarini o'tkazish asosida o'quvchilarda raqibiga nisbatan hurmat hissini shakllantirish texnologiyalaridan yana biri Ommaviy sport turidir bu millionlab odamlarga takomillashtirish imkonini beradi ularning jismoniy fazilatlari va motor qobiliyatlari, salomatlikni yaxshilash va ijodiy



uzoq umrni uzaytirish, o'quvchilarda raqibiga nisbatan hurmat hissini shakllantirish, zamonaviy organizmga kiruvchi ta'sirlarga qarshi turish ishlab chiqaradi. Ommaviy sportning har xil turlari bilan shug'ullanishdan maqsad mustahkamlashdan iborat salomatlik, jismoniy rivojlanish, fitnes va faollikni yaxshilasydi. Bu bir qator muayyan muammolarni hal qilish bilan bog'liq: individual tana tizimlarining funkcionalligi oshirish, to'g'ri jismoniy rivojlanish va jismoniy, umumiy oshirish va professional ishlash, hayotiy narsalarni o'zlashtirish ko'nikma va malakalarni, bo'sh vaqtni maroqli va foydali o'tkazish, erishish jismoniy mukammallika erishishda yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 488 b.
2. D. J. Safarova., K. T. Shakirjanova Valeologiya asoslaridan ma’ruzalar to’plami. T. O‘zGIFK. 2006. 139 s.
3. M. V. Xalimova Sport psixologiyasi O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Andijon 2006. 48 b.
4. X. B. Tulenova Jismoniy tarbiya va sport psixologiyasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. T. TDPU 2001.76 b.
5. В.М.Мелников Психология физического воспитания и спорта М.: Физкультура и спорт, 1997.
6. S. R. Rahimov., M. X. Xalilov. Umumiy psixologiya. 1-qism Samarqand : 1998: 2-qismi, 1999.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada sport tadbirlarini o'tkazish asosida o'quvchilarda raqibiga nisbatan hurmat hissini shakllantirish, raqiblarni hurmat qilishdan tashqari, o'yin qoidalarini ham hurmat qilish, qoidalarni bilish va ularga rioya qilish, ularni aldash yoki buzishdan saqlanish va boshqalar to'g'risida yozilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассказывается о формировании у учащихся чувства уважения к сопернику на основе проведения спортивных мероприятий, о том, как, помимо уважения к соперникам, уважать правила игры, знать и соблюдать правила, избегать их обмана или нарушения и т.д.

SUMMARY

This article describes the formation of a sense of respect in students towards their opponent based on the conduct of sporting events, in addition to respecting opponents, also respecting the rules of the game, knowing and adhering to the rules, avoiding cheating or violating them, etc.



OLIIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALAR JISMONIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Kulboyev N. S.

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsent vazifasini bajaruvchi

Tayanch so'zlar: Jismoniy madaniyat mashg'uloti dars shakli, jismoniy tarbiya mashg'ulotini o'rta maktablarda g'oyat xilma-xil bo'lib ular jismoniy tarbiya darsi, jismoniy madaniyat mashg'ulotlari, ertalabki badantarbiya, sport musobaqasi, tanaffusda o'yin, boshqa darslarda o'tkaziladigan jismoniy mashqlari lahzalari va boshqalar kiradi. Jismoniy mashg'ulotlaridagi mazmun bilan shakl aloqadorligi pedagogik jihatdan g'oyat muhim ahamiyatga egadir.

Ключевые слова: Формы занятий физической культурой, занятия физической культурой в общеобразовательных школах весьма разнообразны, это уроки физической культуры, занятия по физической культуре, утренняя физкультура, спортивные соревнования, игры на переменах, другие занятия, включающие моменты физических упражнений и многое другое. Соотношение содержания и формы на занятиях физической культурой имеет большое педагогическое значение.

Key words: The form of physical culture training, physical training training in secondary schools is very diverse, they are physical training class, physical culture training, morning physical education, sports competition, games during recess, other classes. including moments of physical exercise and more. The relationship between content and form in physical exercise classes is of great pedagogical importance.

Kirish. Kishilar jismoniy sifatlarni kamol toptirishga qaratilgan faol, harakat faoliyati mashg'ulotlari asosiy mazmunini tashkil etadi. Jismoniy mashg'ulotlar umuta'lim maktablarda juda muhim ahamiyatga egadir. Chunki bir hafta tarbiyatuvchnlarga o'tiladigan ikki soatlik jismoniy tarbiya darsi ularni organizmdagi jismoniy harakatga bo'lgan talablarini qoniqqira olmaydi, shuning uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotlari maktabda to'lig'icha tashkil etadi va o'tkaziladi, mashg'ulotlar o'quvchilarga o'tkazilishi ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mashg'ulot mazmuni elementlar tuzilishi jismoniy mashg'ulotlari shaklini tashkil etadi.

Jismoniy mashqni umumiy tuzilish «strukturasi» quyidagicha bo'ladi. Boshlanadigan mashg'ulotda bajariladigan ishga kirish yoki mashg'ulotlar tayyorlash qismi. Buni odatda organizmni qizdirish ham deb ataymiz. Bu



jarayon har qanday jismoniy mashg'ulotlarni tarkibiy qismidir. Bu jarayon shug'ullanuvchilarni organizmi qizdirib yuqori ish qobiliyatiga tayyorlaydi. O'quvchilar organizmining jismoniy mahorati, organizmning zo'riqishdan asraydi. Mashg'ulotning bu qismida shug'ullanuvchilar barcha a'zolari ni yurak, qon tomir sistemasi va boshqa organlarni ishga kirishda tayyorlash uchun ularga umumiy rivojlantiruvchi jismoniy mashq beriladi. Bunga asosan saf mashqlari yurishlar, bo'yin, elka, kul, oyoqlar, bel qaratilgan. Jismoniy madaniyat o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bu salomatlikni saqlashga yordam beradi, chidamlilikni oshiradi va kognitiv faoliyatni yaxshilaydi, bularning barchasi akademik muvaffaqiyat uchun zarurdir. Shuning uchun talabalarning jismoniy madaniyatini shakllantirish oliy ta'limning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Oliy ta'lim tizimida talabalar o'rtasida jismoniy madaniyatni rivojlantirishning ba'zi usullari quyidagilardir:

1. Majburiy jismoniy tarbiya darslari: Kollejlar va universitetlar jismoniy tarbiya darslarini barcha talabalar uchun majburiy qilishlari mumkin. Bu darslar sport, yoga va fitnes darslari kabi mashg'ulotlarni o'z ichiga olishi mumkin va o'quvchilarda jismoniy faoliyatga qiziqishni rivojlantirishga yordam beradi.

2. Sport va fitnes inshootlari: Oliy o'quv yurtlari talabalarga sport va fitnes inshootlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlashi kerak. Bu inshootlarga sport zallari, suzish havzalari, tennis kortlari va yugurish yo'laklari va boshqalar kiradi. Bunday inshootlar o'quvchilarni jismoniy faollikka undashi, sport va boshqa jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanishi uchun sharoit yaratishi mumkin.

3. O'quv rejasiga kiritilishi: Jismoniy madaniyat tushunchasini oliy o'quv yurtlari o'quv rejasiga kiritish mumkin. Bunga salomatlik va salomatlik, ovqatlanish va sportni boshqarish bo'yicha kurslarni kiritish orqali erishish mumkin. Bunday kurslar talabalarda jismoniy madaniyatning ahamiyati va uni kundalik hayotiga qanday kiritish mumkinligini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

4. Sinf dan tashqari ishlar: Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyatni targ'ib qiluvchi sinf dan tashqari tadbirlar tashkil etilishi mumkin. Bunga sport klublari, fitnes klublari va piyoda sayr qilish va lager kabi ochiq havoda sayr qilish kiradi. Bu mashg'ulotlar o'quvchilarga odatdagi dars jadvalidan tashqari jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanish imkoniyatini berishi mumkin.

5. Ogohlantirish kampaniyalari: Kollejlar va oliy o'quv yurtlari talabalar o'rtasida jismoniy madaniyatni rivojlantirish uchun targ'ibot ishlarini tashkil



qilishlari mumkin. Ushbu kampaniyalar jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislar tomonidan seminarlar, seminarlar va mehmon ma'ruzalarini o'z ichiga olishi mumkin. Shuningdek, ular sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi salomatlik yarmarkalari va boshqa tadbirlarni tashkil qilishlari mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Xulosa qilib aytish mumkinki, oliy ta'lim tizimida talabalar o'rtasida jismoniy madaniyatni shakllantirish ularning har tomonlama rivojlanishi uchun zarurdir. Kollejlar va oliy o'quv yurtlari sport va sog'lomlashtirish inshootlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini majburiy o'tkazish, shuningdek, jismoniy madaniyatni o'quv rejasiga kiritish orqali o'quvchilarga butun umri davomida foydali bo'lgan sog'lom odatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Jismoniy tarbiyadagi pedagogik jarayon natijalari darslarda olib boriladigan o'quv va tarbiya ishining sifatiga bog'liq. Bunda har bir darc zaminidagi vazifalarini izchil hal etibgina erishish kerak. Jismoniy tarbiya darslarni ta'lim. tarbiya va sog'lomlashtirish vazifalariga ega. Ta'lim berish vazifalari bolalarni dasturda ko'zda tutilgan bajarishga, urganilgan mashqlarni takomillashtirishga, shuningdek, malaka va rivojlantirishga urganilgan mashqlarni turli sharoitda qo'llashga o'rgatishdan iborat. Ta'lim vazifalariga, shuningdek, bolalarning jismoniy madaniyat va sport, sog'likni saqlash, kundalik rejim, to'g'ri nafas olish, chiniqish, jismoniy mashqlarni to'g'ri bajarish haqida bilim olishlari ham kiradi.

Tahlil va natijalar. Ta'lim vazifalarini amalga oshirish, odatda, tarbiyalash va sog'lomlashtirish vazifalarni bog'liq olib boriladi. Jismoniy tarbiya darslarida diqqat, intizomlilik, iroda sarajonlik, buyumlarni extiyot qilish, shuningdek, do'stlik o'rtoqli, maqsadga intilganlik, mustaqil va qiyinchiliklarni engishda qanchalik tarbiyalanadi. Sog'lomlashtirish vazifalarini ham tarbiyaviy vazifalarni kabi har bir darsda hal etilishi lozim. Jismoniy tarbiya darslarini to'g'ri uyushtirish va o'tkazish, tegishli kiyim - boshlarda shug'ullanish, mashg'ulot joyida zarur sanitariya - gigiena holati saqlanishi, darslarning ochiq havoda o'tkazish bularning barchasi sog'lomlashtirish vazifalarini hal etishga qulaysharoit yaratadi.

Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyatning ibtidoiy jamoa davrida paydo bo'lishi haqidagi N.I.Ponomarevning monografiyasida (Leningrad, 1972) ta'kidlanishicha, qadimgi kishilar yashash, mehnat qilish uchun tabiat bilan ro'baro' kelishgan. Osiyo va Yevropa qit'alarida yashagan odamlar asosan ov bilan shug'ullanib, buning natijasida turli xil harakatli o'yinlarni kashf etganlar. Bunda hayvonlarning xatti-harakatlari, tabiatdagi turli o'zgarishlarga qiyos



qilingan. Yovvoyi-yirtqich hayvonlardan saqlanish, ov qilish jarayonlarida epchillik, kuchlilik, chidamlilik kabi jismoniy sifatlar lozimligini tushungan qabila, urug‘ boshliqlari yoshlami maxsus tayyor lashga katta ahamiyat beiganlar. Bunda jismonan baquvvat, epchil qabila vakillarini tarbiyachilikka o‘rgatib, o‘z navbatida ulardan bolalami tarbiyalashda foydalanganlar. Quldorchilik tuzumi davrida mayda hunarmandchilik, keyinchalik ishlab chiqarish rivojlangan. Natijada metall buyumlardan qilich, nayza, pichoq, bolta, o‘roq kabi jang va mehnat qurollari yasalgan. Ulardan turli marosimlarda o‘yin elementi sifatida foydalanganlar. Qadimda urushlar ko‘p bo‘lganligi sababli, harbiy qurollarni yasash oldingi o‘rinlarda tuigan. Askarlar mohirona jang qilishlari uchun har tomonlama, jismoniy jihatdan puxta tayyorlantirilgan. Jang mashqlarining ba’zi qismlari (element) o‘yinlarga aylanib, keyinchalik xalq orasida keng tarqalgan. Masalan, Yunoniston va Italiyada jang amallari, eng murakkab mashqlar omma o‘rtasida tomosha sifatida namoyish etilgan («Spartak», «Geraklning jasorati» kabni o‘xshash kinofilmlarni eslab ko‘ring). Feodalizm jamiyati davrida boy feodallar va dehqonlarning yumushlari asosida turli xil yangi o‘yinlar vujudga kelgan. Ular qilichbozlik, nayza uloqtirish, kamondan o‘q otish kabi o‘yin turlari bilan bir qatorda mushtlashish (boks), kurash, tosh ko‘tarish, suvda suzish kabi o‘yinlar bilan ham mashg‘ul bo‘lganlar.

Xulosa. O‘rta asr va keyingi bir necha yuz yilliklar davrida yuqorida tilga olingan murakkab harakatli o‘yinlar musobaqa shakliga o‘tib, kuch va matonatni sinash, jang qilish quroliga aylangan. E’tirof etish lozimki, har bir xalqning o‘z milliy o‘yinlari va ularni tashkil qilish marosimlari mavjud bo‘lgan. Arab mamlakatlarida, asosan, otda poyga, otni sakratish, chavgon o‘yinlari milliy o‘yinlar hisoblangan bo‘lsa, Hindistonda esa fillar va ilonlarni tutish, ulami o‘yinga o‘rgatish hamda chim ustida xokkey o‘ynash milliy o‘yinlar hisoblangan. Afrika mamlakatlarida yo‘lbars va boshqa yirtqich hayvonlarni ushlab, ularni qo‘lga o‘lgatish, nayza, kamondan o‘q otish kabi turlar eng qadimgi davrlardan beri davom etib kelayotgan o‘yinlardir. Jismoniy tarbiya aniq bir tizimga tayansagina, oldindan ko‘zlangan natijaga erishiladi. Jismoniy madaniyat tizimi deganda, jismoniy madaniyatning prinsiplari, vositalari, metodlari va uni tashkillash shakllarining shunday umumiyliги tushuniladiki, u jamiyat a’zosini har tomonlama garmonik rivojlantirishning maqsad va vazifalariga mos bo‘lsin (A.D. Novikov 1967).

Vatanimiz mudofaasi masalasi xam jamiyatimizda yulga kuyilgan jismoniy madaniyat jarayoniga qator talablar kuyadiki, bu talablarni amalga oshirish natijasida jismoniy madaniyat tizimining ob’ektiv xususiyatlari namoyon

bo'ladi. Mamlakatimiz xalqlarining har tomnlama jismoniy tayyorgarligi, jismoniy sifatlarini yaxshi rivojlanganigi Vatan mudofaasiga tayyorligining ko'rsatkichi bo'lib xizmat qilish lozim.

SHunday qilib, O'zbekistonda jismoniy madaniyatning maqsadi. O'zbekiston xalkini jismoniy kamolotga erishgan, xukukiy davlat ning aktiv kuruvchilari, ijodiy mehnatga va Vatan mudofaasiga tayyor qilib madaniyatlashdir. Bu maqsad mamlakatda jismoniy madaniyatni amalga oshirayetgan barcha tashkilot va muassasalar uchun umumiydir.

Sharq mutafakkirlari ma'naviy barkamol, komil inson masalasiga azal-azaldan alohida e'tibor berganlar. Komillik fazilat lardan ulugi tanning, inson jismining barkamolligidadir deyilgan. Insonni matonati, diyonati, riyozati, kanoati, ilm, sabr, intizom, miqiyosi, nafs, vijdon, xakkoniyat, nazariy ibrat, iffat, xayo, idrok, zakovat, iktisod, itoat, xakshunoslik, xayrixoxlik, munislik, sadoqat, adolat, muxabbat, oliy himmatlik, avf, vatanni sevish kabi ijobiy xislatlar (A.Avloniy. "Turki guliston yoxud axloq" Toshkent "o'qituvchi" 1992 .13.bet) ga faqat soglom jism, tani-sixatlilik orqali erishiladi deb qaralgan.

Mamlakatimiz jismoniy madaniyat tizimini xalqchilligi deganda biz milliy o'yinlar tarzida xalq ommasi orasida keng tarqalgan jismoniy mashqlar, milliy sport turlari, ommaviy sport, olimpiadalar dasturidan o'rin olgan "katta sport" bilan ko'p millatli respublikamiz xalqlarini shug'ullanish imkoniyati borligi tushuniladi.

Ilmiyligini shunda ko'rish mumkin ediki, jismoniy madaniyat sohasi bo'yicha ilmiy tekshirish ishlarining keng tarqalganligi va uni amaliyot bilan bog'lab olib borilayotganligi, jismoniy madaniyat nazariyasi va amaliyoti ilmiy fanlari hisoblangan pedagogika, psixologiya, anatomiya, fiziologiya, biomexanika, sport metrologiyasi, sport tibbiyoti, davolash jismoniy madaniyatining va boshqalarga tayanganligi, ularning ilmiy yutuqlari xalqimiz hayotiy ehtiyojini qondirishga yo'naltirilganligidadir.

Tarixga nazar tashlaganimizda jamiyatda sinflarning paydo bo'lishi bilanoq, usha jamiyatda jismoniy madaniyat tizimi sinfiy xarakteriga ega bo'la boshlagan edi. Quldorlik davrida jismoniy madaniyat tizimi quldorlarning maqsadi uchun xizmat qildi. Quldor o'z farzandi baquvvat, chidamli, chaqqon bo'lishi va qullarni qo'riqlashi, ularning qo'rqinchda ushlashi uchun qo'lida qurol ishlata olishi (qadimgi Yunon "etti kurashi" mashqlarini puxta egallashi) ga harakat qilar edi. Jismoniy madaniyat tizimi ekspluatatsiya qiluvchilar foydasi uchun xizmat qildi. O'rta asrlarga kelib esa, jismoniy madaniyat tizim harbiy maqsadni xal qilishga yo'nalish oldi. Feodal, katta yer egasi, savdogar



o'z mulkini himoya qilish uchun jismoniy rivojlanganligi, tayyorgarligi yuqori bo'lgan jamiyat a'zolariga muxtojligini bayon qildi. Ular moddiy ne'matlar yaratishdek muhitdan ajratilib, faqat jismoniy sifatlari (kuch, tezkorlik, chidamlilik, chakkonlik)ni rivojlantirish, madaniyatlash bilan cheklandilar. Jamiyatda alohida tabaka, kasb egasa (sokchi, jangchi) shakllandi. Og'ir va qo'pol rit-sarlarning qurollari ulardan katta jismoniy tayyorgarlik va ot bilan muomala qilishni talab qilar edi. Shuning uchun ular mashg'ulotlarda ot o'rniga hozir bizda gimnastika mashg'ulotlarida ishlatiladigan "ot" dan foydalanar edilar. Feodallarning jismoniy madaniyat tizimi shunga yo'naltirilga edi.

Kapitalizmga kelib, burjuaziya ko'proq odamlarni jismonan madaniyatlashni, ishchini mehnatga va vatan mudofaasiga (soldatlikka) tayyor lay boshladi. Madaniyatga siyosiy tus berildi. Qolaversa ko'p soatlab konveyer, stanoklar orqasida ishlashga moslaydigan mashqlar tizimidan foydalanildi.

XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida jismoniy madaniyat jarayoning tizimini shakllangan davri boshlandi. Notekis rivojlangan kapitalizm milliy rivojlanishda xam jonlanishni vujudga keltirib, qator mamlakatlarda jismoniy madaniyat tizimi, vositalari va uning uslubiyatini yaratishdek vazifalarni hal qilish kerakligi masalasini o'rtaga tashladi.

O'zbekiston mustaqilligi sharoitida sog'lom avlodni tarbiyalab etishtirish, ularning jismoniy va ma'naviy kamolotini doimiy ravishda oshirib borish tadbir-choralari ishlab chiqildi. Aholining barcha tabaqalari va qatlamlarida jismoniy tarbiya, sport, sayohat va xalq milliy o'yinlaridan keng, maqsadli foydalanishlariga sharoitlar yaratib berilmoqda. Jismoniy tarbiyaning salomatlikni yaxshilash, mehnat qobiliyatini oshirish, umrni uzaytirishdagi afzalliklari haqida teleradio, matbuotlarda keng ko'lamda targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Maxsus adabiyotlar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar nashr etilmoqda. Ulardan maqsadli va ongli ravishda foydalanish har bir fuqaroning burchi hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. A.D.Novikov, A.P.Matveev Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent «O'qituvchi» 1982 yil. I tom.
2. V.M.Kachashkin. Jismoniy tarbiya metodikasi. Toshkent «O'qituvchi» 1982 yil.
3. Jismoniy madaniyat dasturi. Toshkent 1998 yil
4. Usmonxo'jaev T.S. Jismoniy tarbiya darsi materiallari. «O'qituvchi» 1975 yil.
5. Yu.M.Yunusova. Sport faoliyatning nazariy asoslari Toshkent 1994 yil.



РЕЗЮМЕ

Maqolada oliy ta'lim tizimida talabalar jismoniy madaniyatini shakllantirish bayon etilgan. Ta'lim muassasalarida talabalar jismoniy tarbiya, sport sog'lomlashtirish mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha malumotlar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассмотрена структура использования подвижных игр на занятиях по физическому воспитанию студентов, обучающихся в вузе. Приведена информация об организации занятий физической культурой и спортивной физкультурой со студентами в общеобразовательных учреждениях.

SUMMARY

The article describes the structure of the use of action games in the physical education classes of students studying in higher education. Information on the organization of physical education and sports fitness classes for students in educational institutions is provided.



МИЛЛИЙ ҲАМ ҲАММИЯТИ ҲАММИЯТИ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ЖИСМОНИЙ СИФАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Эшматов Ғ. Э.

Ёдгоров М. А.

*Қарши давлат университети жисмоний тарбия ва спорт турлари
кафедраси ўқитувчилари*

Таянч сўзлар: югуриш, сакраш, улоқтириштезлик, чаққонлик, чидамлилиқ, куч.

Ключевые слова: бег, прыжки, метание, скорость, ловкость, выносливость, сила.

Key words: running, jumping, throwing, speed, agility, endurance, strength.

Жисмоний тарбия ўйинларида ҳаракатли ўйинлар жисмоний тарбияни бошқа воситалари ўртасида катта ўринни эгаллайди, айниқса кичик синфларда. Ўрта ва хусусан катта синфларда ҳаракатли ўйинлар асосий жойини гимнастикага бўшатиб беради. Жисмоний тарбия дарсларида ҳаракатли ўйинлар I-XI синф ўқувчилари учун жисмоний тарбия дастури талабларига мос равишда таълимий, тарбиявий ва соғломлаштириш вазифаларини ҳал этиш учун фойдаланилади [1].

Таълимий вазифаларга қуйидагилар қиради: югуриш, сакраш, улоқтириш ва бошқа ҳаракатни табиий малакаларини мустаҳкамлаш ва такомиллаштиришда, шунингдек гимнастика, енгил атлетика, спорт ўйинлари ва кросс тайёргарлиги машғулотларида эгаллаган малакаларидир. Тарбиявий вазифаларга қуйидагилар тегишли: Жисмоний сифатларни тарбиялаш (тезликни, чаққонликни, чидамлилиқни, кучни, эгиловчанликни) жамоатчиликни ростгўйликни ва бошқа ахлоқий, шунингдек ва иродавий сифатларини тарбиялаш қиради [2].

Соғломлаштириш вазифаларига қуйидагилар қиради: болалар органиزمини нормал шакллантириш ва ривожлантиришга ёрдам бериш, уни саломатлигини мустаҳкамлашдан иборат. Ўйинни танлаш ўқитувчини дарс олтидан қўйилган педагогик вазифасига боғлиқ бўлади. Масалан, агарда дарсни вазифаси - кичик мактаб ёшидаги болаларда, югуруб келиб узунликка сакраш малакасини такомиллаштириш қўйилган бўлса, унда «Бўри



зовурда» ўйинидан фойдаланилса бўлади. Кўкрақдан коптокни отиш ва уни юқоридан икки қўллаб олиш малакасини мустахкамлаш вазифасини хал этиш учун «Тўпни узатдингми - ўтир» ёки «Қарама - қарши» эстафета ўйинидан фойдаланиш мумкин [3].

Дарс учун ҳаракатли ўйинларни танлашда, шунингдек ўқувчиларнинг таркибига (ёшига, жинсига, тайёргарлигига), манъулотни ўтиш жойига (майдонча, зал, каридор), асбоб –анжом ва жихозларга боғлиқ бўлади. Бир ва худди шундай педагогик вазифани хал этишда, иш шароитига боғлиқ ҳамда, ҳар ҳил ўйинлардан фойдаланиш мумкин.

Худди шундай, масалан, 1-2 синф ўқувчилари билан ўйналадиган ўйинда ўз олдига ҳаракат реакцияси тезлигини тарбиялаш – вазифаси қўйилганда, «Ҳамма ўз байроқчасига» (агарда машғулот майдонча ёки залда бўлса), ёки «тезда ўз жойига» (агарда машғулот каридорда ёки залда ўтказилса)ўйиндан фойдаланиш мумкин.

Дарс олдидан–тўпни отиш ва илиб олишни такаомиллаштириш вазифасини қўйиб, 3-4 синфларни дарсларига «Узатдингми–ўтир», «Овчилар ва ўрдакалар», «Ўйин бошига тўпни берма», 5-6 синф учун дарсда эса «Тўп ўртадагига», «Отишма», «Тўп учун кураш» ўйинларини киритиш мумкин. Ўйинда маълум малакани эгаллаш учун кўпроқ мураккаб вазият-ни талаб қилади: қоидалар сонини ошириш уни мураккаблаштириш ўйин-силарни ўзаро биргаликдаги ҳаркати мураккаблаштиришдир.

Ҳар бир ўйин қатнашчиларидан маълум сифат, малака ва кўникмалар-ни талаб қилади. Бу мумкин эмас, масалан, ўқувчиларига «Тўпни илиб олиш» ўйинини берилса, агарда улар тўпни отиш ва илиб олиш, тўпни олиб юриш, ҳаракат тезлигини, рақиб билан бир-бирига яқинлашганда тўпни ушлаб олишни ўша минимал ҳажмдаги эгилиш учун жуда зарурдир [4]. Шундай қилиб масалан, болаларга «Бўри зовурда» ўйинини ўйнашни таклиф қилинганда олдиндан югуриб келиб узунликка сакрашни ўргатиш мажбур эмас, чунки болалар ўзларининг ҳаракат тажрибаларидан келиб чиқиб, ўйинда бу табиий сакрашни бажаради.

Ўқитувчининг вазифаси эса болаларни диққатини ўйин жараёнида сакрашни кўпроқ яхши ва тўғри бажаришга киритилиши керак. Ҳаракатли ўйинлари методик жихатидан тўғри ўтказишда болалар айрим ҳаракат-ларда у ёки бошқа машқларни бажаришда элементар ҳаракат малакаларини эгаллашлари мумкин. У ёки бошқа малакани яхши эгаллаши учун зарур бўлган, жисмоний сифатни, ўқувчиларда бу машқни ўйин жараё-нида фойдаланишда вақтида ривожлантирилади. Ўйинда тайин жиҳатдан ўзини тута билинса ўйинда секин – аста мураккаблаштириб бориш йўли-



дан фойдаланиш билан тарбияланади: янги мураккаб ўйин қоидаларини киритишлиши, ўйинчиларни ўзаро ҳаракатини элементлари бўйига ҳаммани қўлидан келадиган ёки ҳаммабоп уни ичига кириувчи, ўқувчиларнинг имкониятларига ва ташкил этишни тўзилишибўйига мос келадиган, катнашчилардан мураккаб ўзаро муносабатларни талаб қилади.

Дарсларда ўйинлар ва бошқа машғулот турлари ўртасида методик жиҳатдан кетма – кетлигини ўрнатилиши керак, бу бутун дарс жараёнида машқларни кўпроқ тўғри тақсимлаш ва дарсни зичлигини бундан ҳам яхшилашга, олдига қўйилган вазифани нисбатан яхшироқ ҳал этишга ёрдам беради. Машқдан кейин, мураккаб координацияни таранглашган диққатни, диққатни бир жойга тўплашни талаб қилади. Мушаклар ҳозиргина фақат тезлик билан ишлаган эди, кейинги машқда эса (ўйинда) қатнашмаслиги мумкин ёки бу қатнашиши озгина ва характери бўйича бошқача бўлиши мумкин. Агарда дарсни тўлиқ асосий қисмига бағишланган бўлса, унда катта ҳаркатчанликдаги ўйин билан кам ҳаркатчанлик ўйини аниқлаб олиб бориш керак ва ўйинни ҳаркат қилиш бўйича характери ҳар хил бўлиши лозим. Агарда 4-синф ўқувчилари учун дарсда чалғитиш билан югурушни ортиқ бўладиган ўйинлар киритилади – «Чўртон балик», кейинги ўйинларга ўзи бошқа ҳаракат турларини киритиш мумкин: сакраш, қаршилиқ кўрсатиш, улоқтириш («Овчилар ва ўрдақлар», «Доира ичига торт», «Жуфт – жуфт бўлиб тортишиш») ва х.к. Дарсда, айрим спорт турларини техник элементларини ўргатишга йўналтирилган, ушбу сифатни соддалаштирилган техник элементларини ҳаракатли ўйинга уни тақсимлаш турли мақсадида, билиш асосида киритилиши мумкин [5]. 105 Агарда 7-синф ўқувчилари учун дарсни вазифасига ўқитувчи баландликка «перекит» усулда сакрашни ўргатиш ва паст стартни такомиллаштиришда, «Паст стартдан чиқиш эстафетаси» ўйинида фойдаланиш билан иккинчи вазифани ҳал этиш мумкин. Ўқитувчи бундай ҳолатда паст стартни тўғри бажарилишига диққатни қаратиш керак ва ютуқни эса топшириқни тез сифатли қилиб бажарганига қараб ютуқ берилиши керак. Қаттиқ чарчашга йўл қўймаслик учун катта ҳаракат фаоллигидаги ўйинни ва бошқа машқларни бир мунча куч ва энергияни сарфлаш билан бирга қўшиб олиб бориш керак. Бироқ ўйиндан кейин юуриш, сакраш ёки ҳаракатни аниқ бўлишини, мувозанат сақлашни, мураккаб координацияни талаб қилувчи машқларни бажариш тавсия қилинмайди. Ҳаракатли ўйинлар дарсни барча қисмига шуғулланувчиларнинг таркиби ва вазифасига боғлиқ ҳолда киритилиши мумкин.

Харакатли ўйинлар дарсни қайси қисмига киритилган бўлса, улар дарсни ўша қисмидаги вазифага мос қилиши керак. Биринчидан дарсни тайёргарлик қисмида унча катта бўлмаган серхаракатли ва мураккаб ёки ўртача ҳаракатдаги умумривожлантирувчи машқлар характеридаги ўйинларни шуғулланувчиларни жамоаси диққатини ташкил этишга ёрдам беради. («Тақиқланган ҳаракат», «Синф тик тўринг», «Тўп орқасидан қувлаш» 3-5 синф ўқувчилари учун мос келади), иккинчидан, дарсни асосий қисмида катта ҳаракатчанликдаги ўйинлардан фойдаланилади, унда ҳаракат малакалари такомиллаштириб борилади, ўйин жисмоний ва иродавий сифатни тарбиялашга, саломатликни мустаҳкамлаш мақсадида қон айланиши ва нафас олиш функциясини яхшилашга, жисмоиний ривожланиш даражасини оширишга ёрдам беради.

Дарс вақтидан тўғри фойдаланиш зарур бўлган дарс зичлигини яратилади. Дарсни шундай ташкил қилиш керакки, ўқувчилар ҳамма вақт фаол бўлишлари керак. Шу билан бирга шунга ҳаракат қилиш лозимки шуғулланувчиларни ўйинда фаол қатнашишлари учун тахминан бирдек шароит яратиб беришга ҳаракат қилиш керак. Барча ўйинчиларни шунда хулқга эришиш учун, ҳар бир ўйин қатнашчиси тахминан бир хил нагрузка олиши зарур. Ўйинни шундай ташкил қилиш керакки, агарда ўйинда навбат бўйича ҳаракат қилишга тўғри келса, масалан, эстафетада, чунки ҳар бир ўйин қатнашчиси ўйинда фаол қатнашишга киришиш олдида тушишга имкон бориға кам вақт сарфлаши керак. Бундай ҳолатда ўйновчиларни кўпроқ камандага бўлиш, топшириқ вақтини чералаш, югуриш масофасини қисқартириш мақсадга мувофиқ бўлади. Агарда ютқазган ўйинчи ўйиндан чиқса, бундай чиқаришни жуда қисқа вақт билан чегириш керак ва энг яхшиси очко билан алмаштирилгани мақул, чунки ўйин тамом бўлгандан кейин уни ҳисобга олинади. Кўп сонли ўйинчилар билан доирада битта тўпда шуғулланилганда («халқа ҳимояси», «ҳаракатчан нишон», «учувчи тўп», «тўп ўртадагича», ўйинчиларни иккита гуруҳга бўлиш тавсия қилинади ва иккита доирада бир вақтда ўтгазилади. Худди шундай ўйинни доирада қаршилиқ кўрсатиш билан ўтгазиш мумкин «доирага тортиш», «хўрозлар жанги», «чўнка шувок»). Бундай ҳолатда ўйновчиларни жисмоний имкониятларини ҳисобга олган бўлиши тавсия этилади. Ўйинни бошида узоқ вақт кўтиб қолмаслик, ўйинда кўп вақт бўлмаслик учун, ўқитувчи ўйини ўтказишга жуда яхши тайёргарлик куриши зарур: ўйин учун жойни тайёрлаш, асбоб- анжом, жихозлар, тушунтиришни қисқа матни, айрим ролларни бажариш учун ўйинчиларни тезда тақсимлаш усули, командаларга тақсимлашдир [5].



Хулоса. Миллий ўйинлар ёрдамида мактаб ўқувчиларининг жисмоний сифатларини ривожлантириш борасида адабиётлар таҳлил қилинган. Шунингдек, жисмоний сифатлардан тезликни, чакқонликни, чидамлилиқни, кучни ва эгилувчанлик сифатлари ўрганилган.

Адабиётлар:

2. Ovxunov, I. A. (2023). Virtual borliq va unga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishda axborotning roli. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 2(2), 11-15.
3. Овхунув, И. А. (2021). Педагогические и психологические особенности формирования у будущих учителей ответственного отношения к виртуальной реальности. Вестник науки и образования, (15-1 (118)), 66-69.
4. Охунув, И. А. (2020). Совершенствование педагогических условий развития ответственного отношения к виртуальной реальности у будущих учителей. Вестник науки и образования, (21-1 (99)), 59-61.
5. Abdunabievich, O. I. (2020). Responsible attitude towards virtual teaching in future pedagogues. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(12).

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада миллий ўйинлар ёрдамида мактаб ўқувчиларининг жисмоний сифатларини ривожлантириш борасида адабиётлар таҳлил қилинган. Шунингдек, жисмоний сифатлардан тезликни, чакқонликни, чидамлилиқни, кучни ва эгилувчанлик сифатлари ўрганилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье проведен анализ литературы по развитию физических качеств школьников с помощью народных игр. Также изучались физические качества скорости, ловкости, выносливости, силы и гибкости.

SUMMARY

This article analyzes the literature on the development of physical qualities of schoolchildren with the help of folk games. The physical qualities of speed, agility, endurance, strength and flexibility were also studied.



Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеў институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан филиалы

**«МУҒАЛЛИМ ХӘМ ҮЗЛИКСИЗ
БИЛИМЛЕНДИРИЎ»**

№ 1/2

Нөкис — 2023

Басып шығыўға жуўапкер:

А. Тилегенов

Баспаға таярлаған:

А. Тилегенов, Р. Утепов

Компьютерде таярлаған:

П. Реймбаев



Мэнзил: Нокис қаласы, Ерназар Алакөз көшеси №54

Тел.: 224-23-00

e-mail: uzniipnkkf@mail.ru,

mugallim-pednauk@mail.ru

www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

Журналга келген мақалаларга жуўап қайтарылмайды, журналда жэрияланган мақалалардан алынган үзиндилер «Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шэрт. Журналга 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледди. Мақалада келтирилген мағлыўматларга автор жуўапкер.

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 18.01.2023. Форматы 70x100^{1/8}

«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.

Шэртли б.т. 52,5 . Нашр. т. Нусқасы _____ Буйыртпа №